Zamonaviy ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishning muhim tendensiyasi bu oilada sodir bo‘layotgan jarayonlarning mohiyatini ochib beradigan yangi uslubiy asoslarni izlash hisoblanadi. Bu ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan bir qator holatlar va shunga mos ravishda oila instituti uchun ziddiyatli va noaniq oqibatlarni tushunish zarurati bilan bog‘liq. Ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar dinamik ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida ishlaydigan o‘z-o‘zidan rivojlanadigan mikroijtimoiy tizim sifatida ham tadqiq etiladi. Ko‘p bolali oilalarni voqelik sifatida tahlil qilish bizga kamida ikkita muammoni hal qilish imkonini beradi. Birinchisi, oilaviy munosabatlarni tamoyillar nuqtayi nazaridan oilani o‘zini-o‘zi rivojlantirish mexanizmi sifatida tahlil qilish hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi sharoitida oila rivojlanishini optimallashtirishning tashqi mexanizmlarini aniqlash. Ikkinchisi - oilaning mehnat salohiyatini shakllantirish uchun motivatsiya tizimini ochib berishdir.

**Adabiyotlar:**

1. Костюшина Е.В. Проблема конфликтов в подростковом возрасте / Е.В. Костюшина, Н.Н. Парусова // Наука и Образование. – 2018. - Т.1. – № 3- 4. – С. 24.
2. Костюшина Е.В. Роль семьи в формировании мотивации учения младшего школьника / Е.В. Костюшина, Л.Ю. Суворинова // Наука и Образование. - 2020. - Т. 3. - № 4. - С. 207.
3. Кулакова Н.А. Особенности развития общения дошкольников со сверстниками / Н.А. Кулакова, В.Н. Обносков // Наука и Образование. - 2020. - Т. 3. - № 2. - С. 227.
4. Обносков В.Н. Традиции воспитания молодежи в русской истории / В.Н. Обносков // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / сост. Р.С. Леонов. - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 111 – 115.
5. Обносков В.Н. Преодоление эгоцентризма как условие духовно-нравственного развития / В.Н. Обносков // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / сост. Р.С. Леонов. - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 56 – 60.
6. Castells M. Urban Sociology and Urban Politics: From a critique to new trends of research//Comp. Social Res. 1975. Vol. 3, № 1.
7. Особенности личностного отношения к семье у многодетных родителей //А.С.Пушкин и российское историко-культурное сознание. Провинциальная ментальность России в прошлом, настоящем и будущем. Материалы III Международной конференции по исторической психологии российского сознания. Т.5. Вып.1. Самара, 1999. С. 342-344.



## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

### AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MANIPULYATIV JARAYONLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ramazonov Jahongir Djalolovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda manipulyativ jarayonlarning psixologik xususiyatlari hamda globallashuvi sharoitida yoshlar dunyoqarashidagi axborot madaniyati yetishmasligining psixologik oqibatlari, axborot iste'moli madaniyati shakllanishida manipulyativ ta'sirlarning psixologik xususiyatlari va yoshlardan talab etiladigan axboriy psixologik shartlar haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *manipulyatsiya, axborot globallashuvi, axborot madaniyati, axborot tahdidlari, ma'naviyat, semiotik madaniyat, kontseptual va texnologik madaniyat, terminologik madaniyat, mulohot madaniyati, axborot dunyoqarashi, axborot savodxonligi, axborot, madaniyat.*

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МАНИПУЛЯТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ

*В данной статье даны размышления о психологических особенностях манипулятивных процессов в развитии культуры информационного потребления, психологических последствиях недостаточности информационной культуры в мировоззрении молодёжи в условиях глобализации, психологических особенностях манипулятивных воздействий в формировании культуры информационного потребления и информационных психологических условиях, требуемых от молодёжи.*

**Ключевые слова:** *манипуляция, информационная глобализация, информационная культура, информационные угрозы, духовность, семиотическая культура, концептуальная и технологическая культура, терминологическая культура, культура общения, информационное мировоззрение, информационная грамотность, информация, культура.*

### PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MANIPULATIVE PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION CONSUMPTION CULTURE

*This article presents thoughts on the psychological characteristics of manipulative processes in the development of information consumption culture and the psychological consequences of the lack of information culture in the worldview of young people in the context of globalization, the psychological characteristics of manipulative influences in the formation of information consumption culture, and the informational psychological conditions required of young people.*

**Keywords:** *manipulation, information globalization, information culture, information threats, spirituality, semiotic culture, conceptual and technological culture, terminological culture, communication culture, information worldview, information literacy, information, culture.*

**Kirish.** XXI asrdagi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi axborot makonining globallashuvi, hayotning deyarli barcha sohalariga, ayniqsa, inson turmush tarziga kirib borib, jahon taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. Dastavval, «axborot» tushunchasining mazmun-mohiyati, genezisi va ilmiy talqiniga to'xtalib o'tilgan, unga ko'ra, «axborot» (arabcha لاخبار – xabar, ma'lumot), zamonaviy fan va texnikaning, falsafa va sosiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanib, bir subyektdan ikkinchisiga turli shakl (og'zaki, yozma, elektron va boshqa)larda uzatiladigan ma'lumotni anglatadi.

Kibernetika fanining asoschisi Norbert Viner axborotni jismoniy o'zgaruvchi miqdor sifatida qabul qilishni birinchi bo'lib taklif etgan edi. Uningcha, jonli tabiat, jamiyat va mashinalardagi barcha boshqaruv va aloqa jarayonlari axborot uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari sifatida qaraladi. Ammo bu jarayonda aloqaning mazmuni axborot qay shaklda (yozma, og'zaki, turli tillarda, imo-ishora, shartli signal va hokazolar bilan) berilganiga bog'liq bo'lmaydi .

XXI asr –axborot asri, deya e'tirof etildi. Bunga asosiy sabab–ushbu asrga kelib, misli ko'rilmagan ulkan hajmdagi axborotni katta tezlikda uzatish texnologiyalari paydo bo'ldi. Boshqacha aytganda, axborot texnologiyalari sohasida chinakam inqilob sodir bo'ldi. 1986- yilda Internetning dunyoda barqaror o'ringa ega bo'lishi axborot va axborotlashtirish borasidagi, qolaversa, butun insoniyat hayotida olamshumul voqeaga aylandi. Ayniqsa bugungi kunda axboriy manipulyatsiya tushunchasi keng taraqqiy etib bormoqda.

**Asosiy qism.** Manipulyatsiya jarayonida insonning shaxsiy tuzilmalariga halokatli ta'sir qiladigan subyekt zararini kamaytirishga urinish orqali inson qarshi faoliyat ko'rsatadi. Himoya vositalarining mavjudligi, shuningdek manipulyatsiyaning o'zi haqida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

- a) jabrlanuvchi pozitsiyasidan – manipulyativ ta'sirga biror narsaga qarshi turishga urinishlar haqida;
- b) manipulyator pozitsiyasidan – qabul qiluvchining qarshiligi haqida;
- c) tashqi kuzatuvchi pozitsiyasidan – manipulyatsiya ta'sirining samaradorligini pasaytirish vositasi sifatida.

Asosan, manipulyatsiya texnologiyasi bilan shug'ullanishning ikkita eng keng tarqalgan strategiyasini tasavvur qilish mumkin: ta'sirning texnologik elementlarini yo'q qilishga o'rgatish va ularni o'z manfaatlari yo'lida ishlatish.

Birinchi himoya strategiyasi. Adresat manipulyatorning manipulyativ ta'siriga ta'sirni yengillashtirish orqali faoliyat bilan qarshi chiqish mumkin. Bu himoya usuli manipulyatorga qarshi turishning maqbul yo'llaridan biridir [1]. Ta'sir faktini va manipulyatorning maqsadlarini yashirishdan iborat bo'lgan ko'rinmas ta'sirga javoban manipulyatorning niyatlarini, shuningdek, yashirin ta'sirning mavjudligini ochish istagi paydo bo'ladi.

Psixologik bosimga qarshi turish, obyektning unga qarshi o'z kuchli tarafini qidira boshlaganida namoyon bo'ladi. Qoida tariqasida, bu unga tanish bo'lgan o'lchovlar: masalan, tayyorlangan mavzular va suhbatlar syujetlari ishlab chiqiladi yoki tasodifiy pauzalar qo'yiladi (sharikning beqarorligi) yoxud do'stona munosabatlar o'rnatiladi. Ammo, aynan bir xil vositalarda ustunlik bo'lishi mumkin. Masalan, manipulyator zerikarli sekin sur'atni o'rnatdi, asta-sekin (lekin bilvosita) sabr-toqatni tugatdi va asosiy hujumni amalga oshirishi mumkin bo'lgan vaqtni kutmoqda: kimnidir yoqtirmaslikni qo'zg'atish (o'yindagi yoqimsiz holat).

Mazkur vaziyat odamning qiyofasiga bog'liq. Adresat o'z ishlari haqida o'ylab, suhbatga o'z navbatida qo'shilib, tezlikni yanada pasaytirishi mumkin. Qarshilik ta'siri uning vaziyatga to'liq jalb qilinmaganligi bilan yanada kuchayadi. Ikkinchi himoya strategiyasi. Manipulyatorning texnologik ta'sirini adresatning manfaatlariga mos keladigan yo'nalishga maqsadli ravishda o'zgartirish orqali qarshi turish mumkin. Ushbu muammoni ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqish taklif etiladi: bir tomondan, tadqiqotchilar nazariy mulohazalariga asoslanib, manipulyatsiya urinishlarini aniqlashning mumkin bo'lgan vositalari sifatida nimani taxmin qilishimiz mumkinligini aniqlash, ikkinchi tomondan, qanday vositalar bilan. Manipulyativ ta'sir tahdidi kundalik muloqot sharoitida «sodda» jabrlanuvchi tomonidan tan olinishi mumkin.

Psixologik ta'sir texnologiyasi bilan bog'liq vaziyatdagi o'zgarishlarni kuzatish manipulyatsiya xususiyatlarini tashkil etuvchi ta'sirlarni aniqlash imkonini beradi. Avvalambor, yashirin ta'sir mavjudligini aniqlash kerak, so'ng, bu holatni nimaga asoslangan holda taxmin qilinayotganligini ko'rib chiqish zarur. Manipulyativ ta'sirni tahlil qilgan holda adresatning reaksiyalariga e'tibor berish zarur. Ta'sirni amalga oshirayotgan manipulyator harakatlarini ma'lum tarkibiy qismlari qo'llanilganda ushbu vaziyatni anglab yetishni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Buni quyidagi turlarini aytib o'tish mumkin:

- 1) Manipulyatorning xatti-harakatida me'yordan tashqari ko'rinishining namoyon bo'lishi;
- 2) Anglanmagan himoya mexanizmi – yig'i, agressiya, sog'inch va boshqalar;
- 3) Qaror qabul qilishda tig'izlik; bu holatda vaziyatni tahlil qilishga vaqtning yetishmasligi;
- 4) Tahlilini cheklash, manipulyator uzatayotgan axborotiga javobni turli yo'llar bilan o'ziga moslashtirishi;
- 5) Uzatilayotgan axborotga qo'shimcha emotsional va noverbal fonni qo'shish.
- 6) Sezgi orqali subyektiv tashxis qo'yish. Bu usul qadimgi bo'lib, manipulyatsiya jarayonida xavfni mavjudligini anglash. Bunda mumkin bo'lgan sifat ko'rsatkichi ko'rinishida qo'llanishi mumkin.

**Olingan nazariy tahlillar.** Bu borada o'zbek olimlaridan D.U.Qodirov o'zing «Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari», deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishida psixologik himoyaning yosh tafovutlari, tashqi muhitga va psixologik jihatdan destruktiv ta'sirga ega axborotga qarshi yo'naltirilgan (ichki) psixologik himoyaning turlarini tadqiq etgan [2].

Bundan tashqari R.E.Shukurov o'zining «Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi qonuniyatlarini empirik jihatdan tadqiq etib, shaxsiy javobgarlikdan ozod bo'lishdagi psixologik himoya mexanizmlarini ochib bergan. Unga ko'ra, psixologik himoya

mexanizmlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari bilan talabalarning ta‘lim yo‘nalishlari orasida bog‘liqlik mavjud emasligi, lekin psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishida jins tafovutlari aniqlangan [3].

M.X.Fayzieva «Shaxsda psixologik ximoya mexanizmini shakllantirishning ijtimoiy-etnik asoslari» deb nomlangan o‘zining tadqiqot ishida talabalarning kasbiy tayyorgarlik bosqichida shaxs psixologik ximoya mexanizmini shakllantirish ko‘rsatkichlarini tadqiq etgan. Unga ko‘ra subyektga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi mojarolar, bezovtalik, noqulaylik bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlarni qabul qilmaslik jarohatlovchi omillardan himoya qilishga qaratilgan shaxsning onlik psixologik munosabatlarini barqarorlashtirishning mahsus tizim ekanligi aniqlangan [4].

D.Dinkmeyer va B.D.Makkey tomonidan taklif qilingan ushbu diagnostika usuli bizning his-tuyg‘ularimiz va reaksiyalarimiz tashqi dunyodan kelgan ma‘lumotlarni ongsiz ravishda qayta ishlash natijasini aks ettirishiga asoslanadi. O‘zaro ta‘sirning dastlabki bosqichlarida his-tuyg‘ular sherikning ta‘sirining tabiatiga ongsiz (ixtiyoriy) javobning ifodasidir. Agar o‘zligimizni inkor qilib, suhbatda dominantligimiz susayotganini anglasak va shu sabab qudratimizni ko‘rsatishni istasak, manipulyator bizning harakatlarimizni o‘zlashtirib, buyruq ohangidagi munosabatni qilayotganini anglash mumkin.

Ba‘zida, o‘z holatimizni keyin tahlil qilsak, bizga suhbatdoshimiz ta‘sir orqali nimaga erishmoqchi ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, manipulyator o‘z ta‘siri orqali muvaffaqiyat qozondimi yoki yo‘qmi anglashimiz mumkin. Misol uchun, o‘zimizda tushunib bo‘lmaydigan xafagarchilikni, hatto, og‘riqni his qildik, shu holatda sherigimizni qandaydir tarzda xafa qilishni, u bilan biror narsa uchun hisob-kitob qilishni xohlaymiz. Bu vaziyatda unda qasos olish niyati paydo bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Agar, qo‘l ostimizdagi yoki hamkasbimiz bilan ishlashda sa‘y-harakatlarimiz befoydaligini his qilsak, xafsalimiz pir bo‘ladi, undan voz kechishni va ishni o‘zimiz qilishni xohlayotgan bo‘lsak, demak, sherik bo‘ladi deb taxmin qilish o‘rinli emas. U ishga yaroqsizligini isbotlashga intiladi. Nima uchun? Ehtimol, bunda aybni sizga qo‘yish uchundir.

Shunday qilib, manipulyatsiya ta‘sirini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan juda katta vositalar ro‘yxatini tuza olamiz. Shu bilan birga, nazariy mulohazalar natijasida aniqlangan manipulyativ bosqich ko‘rsatkichlari shu paytgacha o‘zaro ta‘sirning oddiy ishtirokchisi uchun noma‘lum bo‘lib qolganiga ishonish qiyin.

Ammo tashqi (manfaatdor bo‘lsa ham) kuzatuvchi pozitsiyasida yoki manipulyatsiya ta‘siriga duchor bo‘lgan voqea ishtirokchisi bo‘lish bir xil narsa emas. Bu farq B.M.Teploye aytib o‘tganidek nazariy va amaliy fikr yuritishning farqi bilan o‘xshashdir:

1. Doimiy qo‘llaniladigan sxemalardan farq qiladigan turli shartlarga asosan harakatni qo‘llash kerak.
2. Suhbat jarayonini va undagi uzatilayotgan manbaani tahlil qilishning irratsional vositalariga tayanish.
3. Real vaqt rejimida harakat qilish. Qoida tariqasida, muammoli vaziyatni qancha muddat davomida tahlil qilish imkoniyatingiz mavjudligi bilishingiz zarur. Bu nafaqat suhbatdosh, balki o‘zingizni harakatingiz talqini bilan ham bog‘liq.
4. Suhbat davomidagi qat‘iylik – ta‘sir uchun to‘g‘ri vaqtni tanlash, boshlash va bu harakatni mavjud maqbul vaziyatni anglab yetish hamda qat‘iylik bilan bajarish.

Manipulyativ ta‘sirning adresat ixtiyorida bo‘lishi. Shaxslararo munosabatlardagi oldingi tajriba – hayot jarayonidagi tajriba bilan bog‘liq. Bu jarayondagi umumiy vazifa vaziyat hamda aloqa ishtirokchilarining bir-birlariga psixologik bosimini yetarli darajada anglab yetishdir. Jarayonni tajriba bilan taqqoslash odamning munosabatga faol kirishish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Natijada suhbatdoshlar bir-birlarini baholashi va jarayonni o‘ziga bo‘ysundirish hamda o‘z maqsadi bilan bog‘lash asosida yuzaga keladi. Bunday baholash holatni kichik elementlarigacha tahlil qilish tarzida birlashtirilgan yaxlit hissiy baholashni qamrab oladi. His-tuyg‘ularning baholash funksiyasi barchamizga yaxshi ma‘lum. Shu sabab inson o‘z hayotiy hodisalarning barchasiga, xususan, o‘zaro munosabatlardagi ta‘sir kuchiga to‘g‘ri baho bera oladi. Hissiy reaksiya qaysidir holatning muhimligini tekshirishni aks ettirib, mavjud voqelikni ahamiyatini aniqlaydi.

Ba‘zi odamlar shaxslararo munosabatlarda hayotiy tajribasi yoki boshqa bir sabab yuqori toifadagi o‘yinchilar kabi harakat qiladi. O‘qituvchi – bu, mag‘lubiyat tajribasi, bu odamlarda xafagarchilik, bezovtalanish, umidsizlikni o‘z ichiga olishi mumkin. Agar ushbu his-tuyg‘ular o‘tib ketsa, odam emlashdan olingan chandiq kabi o‘zi azob chekkanlarga nisbatan muvozanatli tushuncha va bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lsa, yaxshi bo‘ladi. Insonda agressiya namoyon bo‘lganda, bunday holatni kuzatib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib, odamlarda ichki hissiy kechinma individualdir. Lekin manipulyatsiya adresati manipulyativ ta‘sirni anglab yetmasada, u ta‘sir obyektiga aylanayotganini bilib olishi ehtimol.

Xavfni anglab yetish, undagi ishtirokchilarni, shu jumladan, hodisani oqilona bilib olish mumkin. Masalan, bugungi kunda biror odam bilan tanishuv jarayonining tahminiy ketma-ketlikdagi qismlari quyidagicha:

1-qism – «muloqotga oldindan tayyorgarlik», uchrashuvga chiqishdan oldin sherikning kimligi, ijtimoiy kelib chiqishi, munosabatlardan kutilayotgan natija, uni ta'sirga berilish va ta'sirga javob reaksiyasi aniqlanadi;

2-qism – «oldindan to'lov», munosabatlardan kutilajak natija;

3-qism – «aloqaga kirishish» uchrashuvni amalga oshirish.

Ushbu ketma-ketlik haqida tasavvurga ega har bir inson, birinchi qismda, uchrashuvga chiquvchiga, so'ng «oldindan to'lov» qilishi va suhbatdoshning tuzog'iga ilinmaslik uchun tegishli choralarni ko'rib qo'yishi kerak. Har bir shaxs tajribasidan kelib chiqib, ma'lum bir munosabatlar o'rnatishda manipulyatsiyani anglab yetishi mumkin. «Bir kuni men o'zimning lavozimim uchun odatiy bo'lmagan ishni bajarishdan bosh tortgan paytimda yurak xurujiga uchragan boshlig'im – muassasa direktorining kabinetidan chiqib ketdim. Omon qolish uchun ko'p vaqt kerak bo'lmadi. O'n daqiqadan so'ng, tasodifan o'sha ofis yonidan o'tib ketayotganimda, uning kulayotganini eshitdim. Albatta, keyingi «hujumlar» men tomonimdan allaqachon mohir qurilma sifatida qabul qilingan». Ijtimoiy hayotda mavjud har bir inson, manipulyativ ta'sir deb atalgan jarayon haqida individual bilimga ega bo'lishi mumkin. Shu sabab, manipulyativ ta'sir xavfni his qilish darajasiga ko'ra, anglab yetish darajasiga ko'ra, o'zicha anglab yetishi mumkin. Xavfni his qilish yoki anglab yetish darajasiga ko'ra suhbat jarayonida manipulyativ ta'sirni uzatilayotgan axborotni tahlili orqali tushunib yetadi.

Manipulyativ ta'sirdan himoyaning o'ziga xos tomonlar va turlarga farqlanganidek, vositalariga ko'ra, xavfni anglab yetishda farqlarni ko'rishimiz mumkin: bular bir tomondan, bu manipulyativ hujum mavjudligini ko'rsatadigan yoki ehtimolini belgilaydigan hissiyotlar va boshqa tomondan, manipulyatorning sifat xavfni, mumkin bo'lgan maqsadlarini ko'rsatadigan amaliy tajriba va bilim. Manipulyatsiyadan himoyalashning hojati bo'lmagan holatlari mavjud.

1) Manipulyator qo'llaydigan ayyorlik juda mohirona bajarilishi va mashaqqatli, ehtiyotkorlikni talab qiladigan jarayon bo'lib, agar ko'ngildagidek bajarilmasa, manipulyatorni o'ziga ziyon yetkazishi mumkin. Shu sabab bunday jarayonning samarasi ko'p hollarda adresatni ushbu ta'sirni anglab yetmasligidadir. Bunday hollarda, manipulyativ jarayonni anglab yetish va unga qarshi choralar ko'rish uchun manipulyatorni verbal, noverbal harakatlarini tahlil qilish va tajribaga tayangan holda aqliy harakat qilish zarur. Bunda Litvakning amortizatsiya taktikasini qo'llash – shunchaki shaxmat o'yini kabi bir peshkaning qurboni evaziga biror katta donani qo'lga kiritish mumkin.

2) Manipulyator o'ynaydidan o'yinlar kompleksi mavjuddir. Bilingki, bunday o'yinlar ko'p hollarda o'yin tashabbuskorining andishasizligi orqali qiladigan turli harakatlari bilan boshlanadi. Ba'zida insonlarning harakatlari sabablarini tushunish uchun ba'zida ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish natijasida buni o'zi ham anglamagan bo'lishini bilish mumkin. Lekin, bu holatni to'g'ri qabul qilgan holda uni tark etish va ta'sirni yo'q qilish mumkin. So'ng xotirjamlik va sokinlik hukmronligi keladi va manipulyator o'z mag'lubiyatini anglab etadi.

**Xulosa.** Shuni alohida ta'kidlash zarurki, muvaffaqiyatga erishish har bir inson hayotining muhim qismidir. Maqsadlarga erishish orqali u hayot davomida harakat qiladi va uni yaxshilaydi hamda o'z salohiyatini oshirib boradi. Bugungi kunda siz rejalarini amalga oshirish uchun juda ko'p turli xil samarali usullarni topishingiz mumkin. Biroq ba'zi odamlar insoniylik nuqtayi nazariga ega emas va boshqalar haqida umuman o'ylamaydilar. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday usulni qo'llashga tayyor bo'ladilar. Va bunday usullardan biri manipulyatsiyadir.

#### Adabiyotlar:

1. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М.: ЧеРо, 1997. – 344 ст.
2. Қодиров.У.Д. Ёшларни деструктив ғоялар таъсиридан ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. (DSc). 19.00.05. Тошкент – 2019. 72 б.
3. Шукуров Р.Э. Шахснинг психологик ҳимоя механизмлари ва диндорлик типларининг ўзаро боғлиқлиги. (PhD). 19.00.05. Тошкент. 2022. –166 б.
4. Fayzieva M.X. Shaxsda psixologik himoya mexanizmini shakllantirishning ijtimoiy-etnik asoslari. (DSc). 19.00.05. – Toshkent. 2023. – 201 b.
5. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. Т. Фан ва технология. 2012. 32-56-бетлар.
6. Маритен, Ж. Человек и государство Текст. / Ж. Маритен. М.: Идея-Пресс, 2000. – 196 стр.

## INTELLEKTUAL TIZIMLAR VOSITASIDA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

*Abdullayev Botir Baxtiyor o'g'li,*

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali,*

*“Umumiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası*

*mudiri, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent.*

*botirabdullayev1994@gmail.com*

*Mazkur maqolada intellektual tizimlar vositasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik imkoniyatlari o'zgaruvchan mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada intellektual tizimlar, ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va o'qitish metodlarini yaxshilash orqali talabalarga kasbiy malakalarni oshirishga yordam beruvchi vosita ekanligi haqidagi fikrlar batafsil keltirilgan. Intellektual tizimlarning o'ziga xosligi, talabalar uchun individual va interaktiv o'qitish imkoniyatlarini yaratishda, ularning amaliy tajribalarini rivojlantirishda, shuningdek, tezkor va samarali ta'lim jarayonlarini tashkil etishda foydalanilishini ta'minlaydi.*

***Kalit so'zlar:** intellektual tizimlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik imkoniyatlar, ta'lim jarayoni, interaktiv o'qitish, malakalar, qaror qabul qilish, ma'lumot tahlili, samarali ta'lim, individual o'qitish.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ

*В данной статье подчёркивается, что педагогические возможности совершенствования профессиональной подготовки студентов посредством интеллектуальных систем имеют большое значение в формировании навыков, необходимых для успешной работы на меняющемся рынке труда. В статье также подробно рассматриваются интеллектуальные системы как инструмент, помогающий студентам повышать свои профессиональные навыки путём улучшения методов анализа данных, принятия решений и обучения. Особенности интеллектуальных систем обеспечивают их применение для создания индивидуальных и интерактивных возможностей обучения студентов, развития их практического опыта, а также для организации быстрых и эффективных образовательных процессов.*

***Ключевые слова:** интеллектуальные системы, профессиональная подготовка, педагогические возможности, образовательный процесс, интерактивное обучение, навыки принятия решений, анализ информации, эффективное обучение, индивидуальное обучение.*

## PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF IMPROVING STUDENTS' PROFESSIONAL TRAINING THROUGH INTELLECTUAL SYSTEMS

*In this article, it is explained that the pedagogical possibilities of improving the professional training of students by means of intellectual systems are of great importance in the formation of skills necessary for successful work in the changing labor market. The article also details the ideas that intellectual systems are tools that help students improve their professional skills by improving data analysis, decision-making, and teaching methods. The uniqueness of intelligent systems ensures that they are used to create individual and interactive learning opportunities for students, to develop their practical experience, and to organize fast and effective educational processes.*

***Keywords:** intelligent systems, professional training, pedagogical opportunities, educational process, interactive teaching, skills, decision-making, information analysis, effective education, individual teaching.*

***Kirish.** Ta'lim tizimida talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy pedagogik amaliyotning dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda global mehnat bozorining tez o'zgaruvchan sharoitlari va texnologik inqilob talabalarni yuqori darajada malakali, mustaqil fikrlaydigan va innovatsion yondashuvlarga ega kasb egalari sifatida tayyorlashni taqozo etmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun esa ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalardan, xususan, intellektual tizimlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Intellektual tizimlar, o'z ichiga ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, o'rganish va*

takomillashtirish kabi qobiliyatlarni olgan tizimlar bo‘lib, ular ta‘limda individual yondashuv, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Intellektual tizimlar yordamida o‘qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, o‘quvchilarni o‘qish va o‘rganishning samarali metodlari bilan tanishtirish, ularga mustaqil fikrlash va analitik qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Pedagogik jarayonda bu tizimlar yordamida talabalar o‘z kasbiy faoliyatlariga zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, yangi sharoitlarga moslashish va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, bu tizimlar o‘qituvchilarga talabalar bilan yanada samarali ishlash, ularning ehtiyojlariga mos ta‘lim metodlarini tanlashda yordam beradi [1, 259].

Tadqiqotning muammosi shundan iboratki, ta‘lim tizimida intellektual tizimlardan foydalanishning imkoniyatlari to‘liq o‘rganilmagan va ularning ta‘lim jarayonidagi o‘rni aniq belgilangan emas. Bu masala, ayniqsa, kasbiy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarida intellektual tizimlar bilan ta‘limni integratsiyalashda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda intellektual tizimlarning talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi pedagogik imkoniyatlari o‘rganiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – intellektual tizimlar yordamida talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish va ularning ta‘lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashdir.

Zamonaviy ta‘limda intellektual tizimlarning qo‘llanilishi, talabalarni nafaqat nazariy, balki amaliy ko‘nikmalar bilan ham ta‘minlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Ular ta‘lim tizimiga yangilik olib kirib, talabalarni zamonaviy kasbga tayyorlashda samarali yordam beradi. Bu tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u intellektual tizimlardan foydalanish orqali talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning yangi pedagogik imkoniyatlarini ochib beradi.

Jahon miqyosida ta‘lim tizimida yangi texnologiyalarni, jumladan, intellektual tizimlarni qo‘llash bo‘yicha katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Global miqyosda mehnat bozorining talablari doimiy ravishda yangilanib boradi va talabalarining kasbiy tayyorgarligini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqish zarurati mavjud [2, 46]. Texnologik rivojlanish va raqamli transformatsiya ta‘lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kelmoqda. Ayniqsa, intellektual tizimlar va sun‘iy intellektning ta‘lim jarayoniga kiritilishi talabalarining bilim olish va ko‘nikmalarini oshirishda samarali vosita bo‘lib, yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni ta‘minlashga yordam beradi.

Jahonning ilg‘or mamlakatlarida, xususan, Yaponiyada, Janubiy Koreyada va Skandinaviya davlatlarida intellektual tizimlar va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan ta‘limda keng foydalanilmoqda. Bu davlatlarda intellektual tizimlar yordamida o‘quvchilarga individual yondashuv, malakali mutaxassislarni tayyorlash va o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash amaliyoti keng yoyilgan. Shu bilan birga, dunyo miqyosida ta‘limning sifatini oshirish, kasbiy tayyorgarlikni mukammallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash masalalari juda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

MDH mamlakatlarida ham intellektual tizimlar ta‘lim tizimiga integratsiyalashuvi tobora kuchaymoqda. Rossiya, Ukraina va Belarusda intellektual tizimlar va raqamli texnologiyalarni ta‘limda qo‘llash borasida salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu davlatlarda innovatsion yondashuvlar ta‘lim sohasida zamonaviy o‘qitish metodlari, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun samarali vositalar sifatida qo‘llanilmoqda [3, 89]. Shu bilan birga, MDH mamlakatlarida kasbiy ta‘limning yangi talablariga moslashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi, talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni amaliyotga tayyorlash uchun intellektual tizimlar va yangi texnologiyalardan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Davlatimizda ham ta‘lim tizimini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Respublikada ta‘lim sohasida jahon tajribasiga asoslangan intellektual tizimlar va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish amaliyoti qo‘llanilmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda yurtimizda intellektual tizimlar orqali talabalar uchun amaliyot va kasbiy tayyorgarlikni yaxshilashga qaratilgan turli loyihalar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion metodlar, shu jumladan, intellektual tizimlar yordamida o‘qitish usullarining samaradorligi ortib bormoqda. Mamlakatda ilg‘or texnologiyalarni pedagogik jarayonlarga integratsiyalash va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishni davom ettirish, yosh mutaxassislarni yuqori malakali, zamonaviy talablarga mos kadrlar sifatida tayyorlashning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan [4, 124].

Shunday qilib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi nafaqat jahon miqyosida, balki MDH va mamlakatimizda ham ta‘lim tizimining zamonaviy talablari va mehnat bozoridagi yangilanishlarga moslashtirilgan pedagogik usullarni ishlab chiqish zaruriyatidan kelib chiqadi. Intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni oshirish va ta‘limning sifatini yaxshilash, o‘z navbatida, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ta'lim sohasida intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish masalasining chuqur tahlilini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasida ilmiy izlanishlar intellektual tizimlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning samaradorligi va ta'limda innovatsiyalarni qo'llashning ilmiy asoslari bo'yicha olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot esa ta'lim jarayonida intellektual tizimlardan foydalanishning nazariy asoslarini va amaliy yondashuvlarini aniq ko'rsatish orqali soha ilmiy bilimlarini boyitadi.

Tadqiqot intellektual tizimlarning pedagogik jarayonga integratsiyasini ilmiy asoslashga imkon yaratadi. Bu tizimlarning ta'limda qo'llanilishi nafaqat o'quv jarayonini soddalashtiradi, balki talabalar o'rtasida mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu tizimlar yordamida talabalar interaktiv tarzda o'qitiladi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yangi darajaga ko'taradi. Tadqiqotda intellektual tizimlarning ta'lim jarayonida qanday samaradorlikka erishishini, ularning o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqada qanday rol o'ynashini o'rganish orqali ilmiy va amaliy yechimlar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, shuningdek, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi zamonaviy mehnat bozoriga mos ravishda yangilanmoqda, va intellektual tizimlarni joriy qilish orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning ilmiy asoslari o'rganilmoqda. Bu yondashuvlar, ta'lim tizimining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi [5, 147].

Shu tarzda, ushbu tadqiqot ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, intellektual tizimlar yordamida ta'limni yaxshilash, talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirish va pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish yo'lida yangi ilmiy va amaliy yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi, tadqiqotning maqsadlariga erishish, masalalarni o'rganish va natijalarga erishish uchun qo'llaniladigan metod va usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda "Intellektual tizimlar vositasida talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik imkoniyatlari" mavzusida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi ta'lim tizimida intellektual tizimlarning qo'llanilishining samaradorligini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar va usullar qo'llaniladi.

Birinchi metod sifatida nazariy tahlil qo'llaniladi. Ushbu usul yordamida ta'limda intellektual tizimlar va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar va nazariy bilimlar o'rganiladi. Nazariy tahlil yordamida ta'lim jarayonida intellektual tizimlardan foydalanishning mohiyati, afzalliklari, zaruriyatlari va imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, pedagogik jarayonlarda intellektual tizimlarning qo'llanilishining nazariy asoslari va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Empirik tadqiqot metodlari yordamida intellektual tizimlar yordamida talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning amaliy samarasini aniqlash maqsadida o'quv jarayonida o'tkazilgan tajribalar, anketalar, intervyular, so'rovlar va testlar asosida ma'lumotlar to'planadi. Ushbu ma'lumotlar talabalarining intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi muvaffaqiyatlarini o'lchash, ularning o'qish jarayonida faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Empirik tadqiqotning asosiy bosqichlari:

- Anketalar va so'rovnomalar: Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali intellektual tizimlarning ta'lim jarayonidagi roli, talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi ta'sirini o'rganish. So'rovlar natijalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasi, innovatsion texnologiyalarga yondashuvi va o'qitish jarayoniga intellektual tizimlarni qo'llashga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatadi.

- Tajribalar o'tkazish: Pedagogik tajribalar orqali intellektual tizimlarni o'quv jarayoniga integratsiyalash, o'quvchilarning bilim olish samaradorligini o'lchash. Bu tajribalar talabalarining intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlik darajasini qanday oshirishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi o'z ichiga nazariy tahlil, empirik tadqiqot, eksperimental usul, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, statistik tahlil va kuzatuv metodlarini oladi. Bu metodlar yordamida intellektual tizimlarning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi, talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning samaradorligi va ularning o'qish jarayonidagi faoliyati tahlil qilinadi. Natijada, intellektual tizimlar yordamida ta'lim jarayonini takomillashtirish va talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Tahlil va natijalar.** O'tkazilgan tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili asosida "Intellektual tizimlar vositasida talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik imkoniyatlari" mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati yoritildi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida intellektual tizimlarning qo'llanilishi, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning samaradorligi ko'rib chiqildi.

Birinchiidan, ta’lim tizimlarida intellektual tizimlardan foydalanishning samaradorligi ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlangan. Intellektual tizimlar yordamida o’quvchilarni individual tarzda o’qitish imkoniyati mavjud bo’lib, bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu tizimlar o’quv jarayonining samaradorligini oshirishda, masalan, o’quvchilarning faolligini kuchaytirish, muammolarni hal qilish va yuksak darajada kritikallik fikrlashni rivojlantirishda o’ta muhim rol o’ynaydi.

Ikkinchiidan, intellektual tizimlar orqali talabalarga o’zgaruvchan va zamonaviy kasbiy talablar asosida tayyorlanish imkoniyatlari yaratildi. Xususan, O’zbekiston ta’lim tizimida intellektual tizimlarni qo’llashning dastlabki bosqichlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Biroq, bu jarayonni kengaytirish va yanada samarali amalga oshirish uchun muayyan pedagogik yondashuvlar, o’qituvchilarning malakalarini oshirish, texnologik infratuzilmani mustahkamlash zarur.

Uchinchiidan, ta’lim jarayonida intellektual tizimlarni qo’llash orqali pedagogik amaliyotlar takomillashtiriladi. Masalan, sun’iy intellekt va mashinani o’rganish texnologiyalari yordamida talabalarga individual ta’lim rejaları va o’quv dasturlari tayyorlanadi. Bu esa ularning o’z-o’zini boshqarish va o’rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari, intellektual tizimlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi va kasbiy tayyorgarlikni oshirishdagi roli to’g’risida ilmiy asoslangan fikrlar yaratdi. Bu tizimlar o’quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ta’lim jarayonining sifatini oshiradi va talabalarining kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko’tarish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga, ushbu tizimlardan samarali foydalanish uchun ta’lim tizimida yanada rivojlangan infratuzilma, pedagogik malakalar va yangi metodologiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, intellektual tizimlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda qo’llanilishi ta’lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlash va ularning kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tizimlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik va texnologik infratuzilma, yangi metodologiyalarni ishlab chiqish va malakali kadrlarni tayyorlash zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. T., & Xolmatov B. M. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: O’zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 312 bet.
2. Vohidov M. A. (2020). Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda yangi pedagogik yondashuvlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 158 bet.
3. Xushvaqtoq S. A. (2020). Ta’lim tizimida intellektual tizimlardan foydalanish. Tashkent: Moliya nashriyoti, 200 bet.
4. Pirov N. O., & Bazarov, I. S. (2021). Zamonaviy o’quv metodlari va pedagogik texnologiyalar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 229 bet.
5. Sultonov R. B. (2019). Pedagogik amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni qo’llash. Nukus: Qaraqalpoqiston universiteti nashriyoti, 184 bet.



## MUSTAQILLIKKA QADAR O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN TA’LIMI TAHLILI VA TARIXI

*Allayev Bunyod Quchqorovich,*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*“O‘zbekiston tarixi” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchisi*

*Ergasheva Husniya Mirzoxid qizi,*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta‘lim 1-bosqich magistranti*

*Mustaqillikka erishish har bir davlat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu hodisa mamlakatning taraqqiyotini, siyosatidan tortib, ilm-fan va ta‘lim sohalarigacha ko‘plab o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ilm-fan va ta‘lim tizimi tubdan yangilanish va rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Mustaqillikdan oldin, O‘zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibida ilmiy-tadqiqot ishlari va ta‘lim tizimi markazlashtirilgan, bir qator cheklovlar va boshqaruv tizimi mavjud edi. Shuningdek, ilmiy sohalarda erkin izlanishlar va jahonning ilg‘or ilmiy tendensiyalariga integratsiya qilishda ba‘zi to‘siqlar mavjud edi. Mustaqil O‘zbekiston o‘zining ilm-fan va ta‘lim sohasidagi siyosatini o‘zgartirdi. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda universitetlar va ilmiy markazlar sifat jihatidan yaxshilandi, yangi kadrlar tayyorlash tizimi takomillashdi, ilmiy tadqiqotlar uchun zaruriy sharoitlar yaratildi.*

**Kalit so‘zlari:** *mustaqillik, O‘zbekiston ilm-fani, ta‘lim tizimi, sovet davri islohotlari, ilmiy tadqiqotlar, ta‘lim islohotlari, taraqqiyot, oliy ta‘lim, kadrlar tayyorlash, ilmiy markazlar, kutubxonalar, xalqaro miqyos, ta‘lim dasturlari, rivojlanish.*

## АНАЛИЗ И ИСТОРИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ДО ОБРЕТЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ

*Достижение независимости имеет большое значение для каждой страны, поскольку это событие влечёт за собой множество изменений, начиная от развития страны и политики до науки и образования. После обретения независимости Узбекистан прошёл путь коренных изменений и развития в системе науки и образования. До обретения независимости, когда наша страна была частью Советского Союза, в Узбекистане научные исследования и образовательная система были централизованы, существовали различные ограничения и система управления. Также существовали препятствия для свободных исследований в науке и интеграции в мировые научные тенденции. Независимый Узбекистан изменил свою политику в области науки и образования. Были проведены многочисленные реформы, направленные на развитие научных исследований, модернизацию системы образования и подготовку конкурентоспособных кадров на международном уровне. В этот период университеты и научные центры значительно улучшили качество своей работы, была совершенствована система подготовки новых кадров, созданы необходимые условия для научных исследований.*

**Ключевые слова:** *независимость, Узбекистан, наука, образовательная система, советский период, реформы, научные исследования, образовательные реформы, развитие, высшее образование, подготовка кадров, научные центры, библиотеки, международный уровень, образовательные программы, развитие.*

## ANALYSIS AND HISTORY OF SCIENCE AND EDUCATION IN UZBEKISTAN BEFORE INDEPENDENCE

*Achieving independence is of great importance for every country, as this event leads to numerous changes, from the development of the country and its politics to science and education. After Uzbekistan gained independence, the country embarked on a path of profound changes and development in its science and education system. Before independence, while part of the Soviet Union, scientific research and the educational system in Uzbekistan were centralized, with various restrictions and a system of control. Additionally, there were obstacles to free research in science and integration into global scientific trends. Independent Uzbekistan changed its policy in the fields of science and education. Numerous reforms were*

*implemented to develop scientific research, modernize the education system, and train internationally competitive personnel. During this period, universities and research centers significantly improved the quality of their work, the system of preparing new personnel was refined, and necessary conditions for scientific research were created.*

**Keywords:** *independence, Uzbekistan, science, education system, Soviet era, reforms, scientific research, educational reforms, development, higher education, personnel training, research centers, libraries, international level, educational programs, development.*

**Kirish.** O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatning ilm-fan va ta’lim tizimi yangi bosqichga o‘tdi. Mustaqillik davrida ilmiy sohalarda, ta’lim tizimida va texnologik taraqqiyotda ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mustaqillikka qadar, O‘zbekiston Sovet Ittifoqining tarkibida bo‘lib, ilm-fan va ta’lim sohalari ko‘plab cheklovlar hamda markazlashtirilgan boshqaruv tizimi ostida rivojlanardi. Ilmiy izlanishlar va ta’lim jarayonlari asosan Moskva va boshqa SSSR markazlariga bog‘liq bo‘lgan, mahalliy ilmiy-tadqiqot faoliyati esa cheklangan edi. Bu davrda ilm-fan va ta’lim tizimi Sovet Ittifoqining siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga moslashgan, lekin milliy ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro ilmiy miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyatlari cheklangandi. Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida, O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim sohasida islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Avvalo, ilmiy tadqiqotlar va ta’lim tizimi markazlashtirilgan davlat tizimidan xolis, mustaqil va zamonaviy yondashuvga asoslangan tizimga o‘tkazildi. Ilm-fan sohasida yangi tadqiqotlar yo‘nalishlari va ilmiy markazlar yaratildi, ta’lim tizimida esa xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv dasturlari joriy etildi. Bu davrda oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar, kutubxonalar va ilmiy jurnallar faoliyatini modernizatsiya qilish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston hukumati ilmiy izlanishlar va ta’limni zamonaviylashtirishga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimi tashkil qilindi. Mustaqillikdan keyin, O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishning ketma-ketligi va ular o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari ortib bordi. Milliy ilmiy salohiyatni oshirish, ilmiy tadqiqotlar va ta’lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun bir qator xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Ilm-fan va ta’limni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston ilmiy sohada jahon miqyosida o‘z o‘rnini topa boshladi. Mustaqillikka qadar O‘zbekistonda ilm-fan va ta’limning tarixi va rivojlanish jarayoni, shuningdek, amalga oshirilgan islohotlarning tahlili, bugungi kunda O‘zbekistonning ilmiy va ta’limiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim sohasidagi yutuqlari, kelajakda yanada rivojlanish uchun mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Xorijiy ilm-fan sohasidagi olimlar, O‘zbekiston ilmiy va ta’lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Ko‘plab xorijiy olimlar O‘zbekistonning ilmiy va ta’lim tizimini tahlil qilgan, o‘z asarlarida mustaqillikka qadar bo‘lgan ilmiy sohalardagi holatni o‘rganganlar. Lehrman, O‘rta Osiyo va Xorazm tarixini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. Uning ilmiy tadqiqotlari, O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tarixini, ayniqsa, Sovet davridagi tizimni tahlil qilishga qaratilgan. Lehrman Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekistonda ilmiy izlanishlar va ta’limning markazlashgan tizimi haqida yozgan va O‘rta Osiyodagi ilmiy siyosatni o‘rganishda muhim manba bo‘lgan. Robert D. Crews (AQSh): Crews O‘rta Osiyo va uning ta’lim tizimi tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan. U Sovet davri ta’limi va ilmiy izlanishlarning milliy xususiyatlarini ta’kidlab, mustaqillikdan oldin O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tizimining siyosiy ta’sir ostida bo‘lganini o‘rgangan. Uning asarlarida, ilmiy izlanishlar va ta’limning zamonaviylashtirilishi haqida keng tahlil mavjud.

O‘rta Osiyo olimlari O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Bu olimlar asarlarida viloyatlarning ilmiy merosi, o‘qitish metodologiyasi va o‘ziga xos ilmiy an‘analari haqida gapirgan. Abdujabbor Abduvakhitov O‘zbekistonning mustaqillikka qadar ilmiy-tadqiqot ishlari, ta’lim va ilm-fan sohasidagi davlat siyosatini o‘rganish bo‘yicha bir qator asarlar yozgan. Uning ishlari, Sovet davrida ilm-fan va ta’limning markazlashtirilgan tizimi, shuningdek, mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan islohotlar haqida batafsil ma’lumot beradi. Abduvakhitov, shuningdek, o‘zbek tilida o‘qitishning ahamiyatini ta’kidladi va ta’lim tizimini zamonaviylashtirishga qaratilgan tavsiyalar berdi. Muhammad Solihov O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning ilmiy merosi, ilmiy izlanishlar va ta’lim tizimini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. Uning tadqiqotlari, mustaqillikka qadar O‘zbekistonda ilm-fan va ta’limning holati, ilmiy markazlarning rivojlanishi va ilmiy izlanishlarning cheklanganligi haqida so‘z yuritadi. U mustaqillikdan keyin O‘zbekistondagi ta’lim va ilm-fan tizimidagi islohotlarni tahlil qilib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurligini ta’kidladi. Abduganiy Usmonov (O‘zbekiston): Usmonov O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari Sovet davrida ilm-fan

va ta’limni markazlashtirishning salbiy oqibatlari, mustaqillik davrida esa ilmiy izlanishlarning erkinlashishi va zamonaviy ta’lim metodologiyalarining joriy etilishi haqidagi tahlillarni o’z ichiga oladi.

**Tadqiqot metodi.** Ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda qo’llaniladigan yondashuvlar va usullarni ifodalaydi.

**1. Tarixiy-metodik metod:** Tarixiy-metodik metod tadqiqotning asosi sifatida, O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim sohasining tarixini o‘rganishga asoslanadi. Bu metod orqali mustaqillikka qadar bo‘lgan ilmiy tizimning rivojlanish jarayonlarini, ta’limning va ilm-fanning o‘zgarishlarini, shuningdek, tarixiy sharoitlarni tahlil qilish mumkin. Tarixiy-metodik metod yordamida O‘zbekiston ilm-fanining o‘tgan davrlardagi holati, Sovet Ittifoqi davrida qanday rivojlanganligi va mustaqillik davrida qanday o‘zgarishlar yuz bergani haqida ma’lumot olish mumkin.

**2. Tahliliy metod:** Tahliliy metod ilm-fan va ta’lim tizimidagi mavjud jarayonlarni chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Mustaqillikka qadar O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim tizimining holati, bu tizimda amalga oshirilgan islohotlar, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash uchun tahliliy metoddan foydalaniladi. Ushbu metod orqali mamlakatda ilm-fan va ta’lim tizimidagi barcha o‘zgarishlar, ularning sabablari va oqibatlari o‘rganiladi.

Tadqiqot metodlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishini yaxshiroq tushunish, mustaqillikka qadar bo‘lgan va keyingi davrni tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Har bir metod o‘ziga xos yondashuvni ta’minlaydi va ilmiy natijalarga erishishda yordam beradi.

**Natija va muhokama.** Mustaqillikdan avval O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim tizimi ko‘plab siyosiy va iqtisodiy omillar tomonidan boshqarilgan. Sovet Ittifoqi davrida ilmiy izlanishlar va ta’limning rivojlanishida markazlashgan tizim, mamlakatning ilmiy salohiyatini chekladi va milliy ilmiy qadriyatlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Hamda ilmiy tadqiqotlar va ta’limning rivojlanishi ko‘proq Sovet davlatining manfaatlariga moslashgan, va mahalliy ilmiy izlanishlarga e’tibor kamaygan edi. Mustaqillikka erishganidan keyin, O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim tizimi yangi bosqichga o‘tdi. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar, ta’lim va ilm-fan sohasini modernizatsiya qilishni, ilmiy izlanishlarni xalqaro standartlarga javob beradigan darajaga ko‘tarishni maqsad qilgan. O‘zbekiston hukumati ilm-fan va ta’limni zamonaviylashtirishga katta e’tibor qaratdi, ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini kuchaytirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shuningdek, O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishi mustaqillikka erishishdan oldingi davrda markazlashtirilgan tizim tomonidan boshqarilganligi, ko‘plab ilmiy va ta’limiy resurslarning markazlarga taqsimlanganligini ko‘rsatadi. Sovet Ittifoqi davrida mamlakatda ilm-fan va ta’lim sohasida markazdan boshqarishning salbiy oqibatlari ko‘rildi. Masalan, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va ta’lim metodologiyalari markazlashgan, mahalliy ilmiy qadriyatlar va milliy rivojlanish ehtiyojlari cheklangan edi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tizimi hali ham rivojlanish bosqichida. Kelajakda, mamlakatda ilmiy izlanishlarning kengayishi va global miqyosda tan olinishi uchun yanada kengroq islohotlar va integratsiya jarayonlarini amalga oshirish zarur. Bu bilan O‘zbekiston ilm-fanining dunyo bo‘ylab nufuzini oshirishga va ta’lim tizimining sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

**Xulosa.** Mustaqillikka qadar O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim tizimi Sovet Ittifoqining markazlashtirilgan siyosati ostida rivojlandi. Bu davrda ilmiy tadqiqotlar va ta’limning samaradorligi va mustaqilligi cheklangan, asosan, Moskva va boshqa markazlar tomonidan boshqarilardi. Mahalliy ilmiy qadriyatlar va xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yetishmas edi. Mustaqillikdan keyin, O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim tizimida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ilm-fan va ta’limni zamonaviylashtirish, xalqaro standartlarga javob beradigan kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Oliy ta’lim tizimi takomillashdi, yangi ilmiy markazlar tashkil etildi va xalqaro hamkorlik aloqalari rivojlantirildi. Bu jarayonlar, O‘zbekistonning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va global ilm-fan hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishiga katta hissa qo‘shdi. Biroq ilm-fan va ta’lim sohasida hali ham bir qator muammolar mavjud. Ba’zi ilmiy markazlarning infratuzilmasi va resurslari yetarli emas, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyat ko‘plab sohalarda rivojlanishning yuqori darajasiga erishmagan. Shuningdek, ta’lim metodologiyalarini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish zarur.

Kelajakda O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim sohasini yanada rivojlantirish uchun ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish, ilmiy hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy ta’lim tizimlarini joriy etish zarur. Bunday islohotlar O‘zbekistonni ilm-fan va ta’lim sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaydigan mamlakatga aylantirishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Abduvakhitov, A. (2007). O‘zbekiston ilm-fani va ta’limining rivojlanishi: tarixiy tahlil. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Lehrman, E. H. (2001). The Soviet Educational System and its Impact on Central Asia. Harvard University Press.
3. Solihov, M. (2008). O‘zbekistonda ta’lim tizimi va ilm-fan rivoji. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
4. Crews, R. D. (2005). The Soviet Legacy in Central Asian Education. University of Pittsburgh Press.
5. Usmonov, A. (2015). O‘zbekiston ilm-fani: Mustaqillikdan oldingi va keyingi davr. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
6. Galiullin, M. (2010). Ta’lim va ilm-fan tizimida innovatsiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Nazarov, M. (2016). O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar va ta’lim: Mustaqillik davri. Toshkent: TDTU nashriyoti.
8. Shodmonov, S. (2012). Markazlashtirilgan ta’lim tizimi va uning O‘zbekistondagi ta’siri. O‘rta Osiyo ilmiy tadqiqotlari jurnali, 3(1), 45-56.
9. Popov, A. (2014). Ta’lim tizimi va uning milliy rivojlanishga ta’siri. Moscow: Moliya va ta’lim nashriyoti.
10. Tashkent State University (2009). O‘zbekistonda ta’lim tizimining takomillashuvi. Tashkent: TDTU nashriyoti.
11. Omonovich, Uralov Eliboy, and Ergasheva Husniya Mirzahid. (2024) "Science Teaching Process for Primary Students." International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). Vol. 3.

## TA'LIM JARAYONIDA “4K” KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI

*Sidiqova Dilora Shavkatovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti kafedrası o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)*

*Aminova Dilnoza Qahramon qizi,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim*

*pedagogikasi 1-bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimi va “4K” kompetensiyasi haqida batafsil ta'rif berilgan. “4K” kompetensiyasi ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati. XXI asrda boshlang'ich ta'lim jarayonida “4K” kompetensiyasiga qay darajada ehtiyoj borligi va bu ehtiyojni qayday qondira olish to'g'risida gap boradi.*

**Kalit so'zlar:** *strategiya, kompetensiya, kreativlik, kommunikatsiya, kritik fikrlash, kolabratsiya, globallashuv, yangi avlod darslik, zamonaviy ta'lim, integratsiya, innovatsiya.*

## ЗНАЧЕНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ «4К» В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*В данной статье подробно рассматривается современная система образования и компетенции “4К”. Обсуждается важность компетенций “4К” в образовательном и воспитательном процессе. Также в статье рассматривается, насколько велика потребность в компетенциях “4К” в процессе начального образования XXI века, и каким образом эта потребность может быть удовлетворена.*

**Ключевые слова:** *стратегия, компетентность, креативность, коммуникация, критическое мышление, сотрудничество, глобализация, учебник нового поколения, современное образование, интеграция, инновации.*

## THE IMPORTANCE OF «4K» COMPETENCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*This article provides a detailed description of the modern education system and the “4K” competencies. It discusses the importance of the “4K” competencies in the educational and developmental process. The article also explores the need for “4K” competencies in the primary education process in the 21st century and how this need can be addressed.*

**Keywords:** *strategy, competence, creativity, communication, critical thinking, collaboration, globalization, new generation textbook, modern education, integration, innovation.*

**Kirish.** Bugungi kunda XXI asr dunyo miqyosida hayot juda jadallik bilan rivojlanib, o'zgarib borayapti. Bu o'zgarish insonlarning turmush tarzidagi maishiy muammolarni yengillashtiribgina, qolmay insonlarni ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Dunyoda yuz berayotgan bu o'zgarishlar bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Bu, ya'ni ta'limdagi o'zgarishlar yosh avlodning kelajakdagi orzu va maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy rivojlangan davlatlarda ta'lim-tarbiyaga alohida e'tior qaratilmoqda. Chunki, bugungi kunda o'sib, unib, rivojlanib kelayotgan yosh avlod ertangi kunning egalari hisoblandi. Bu esa, ta'limga nechog'lik e'tibor berish kerakligini bizga har qadamda eslatib turadi. Shu boisdan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni imzolandi. Bu farmonni ijrosini ta'minlash uchun 1-ilovasining 41-maqsadida nazarda tutilgan “Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O'quv o'rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan 2022-yilda 3 foizga oshirish. 2022 - 2026-yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish. Chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarigacha transport qatnovini yo'lga qo'yish” nazarda tutilga. Bu bilan o'quvchilarning ta'lim o'lishiga mone'lik qiladigan sabablarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Farmonning 42-maqsadsadida quyidagilar nazarda tutilgan: 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish. Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish. Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish. Umumta‘lim maktablarida darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimini joriy etish”. Bu orqali dars jaryoni samarali tashkil etish va darslarda innovatsiyon texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish kabi holatlar ko‘rib chiqilgan. Shu orqali ta‘limda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etish va uni oldini olish chora tadbirlari o‘rganilgan.

Bu maqsadlardan ko‘rish mumkinki Prezidentimiz ta‘lim sohasiga katta e‘tibor beryotganliklarini ko‘rish mumkin. Avvalambor, ta‘lim o‘zi nima? degan savolga javob topishimiz kerak: “Ta‘lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta‘lim jarayonida ma‘lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta‘lim tor ma‘noda o‘qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma‘lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta‘limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o‘zgarib borgan kabi, ta‘limning xarakteri, yo‘nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o‘zgarib boradi. Ta‘lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta‘lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg‘ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir. Ta‘lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish – jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi”.

XXI asrda ta‘limdagi muammolardan biri ta‘lim jarayonida izchillikning yo‘qligi, o‘quv materiallarining zamon talablariga to‘laqonli javob bera olmasligi, o‘quvchi yoshlarning ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishining pasligi hisoblanadi. Bundan tashqari, ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi eng muhim omillardan biri – o‘qituvchilarning malakasining yetarli darajaeamasli va doimiy ravishda izchilik bilan takomilashtirishga ehtiyojning zarurati tufayli kelib chiqadi. Ya‘ni bunda ta‘limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalana olmaslik yoki ularni rad etish kabilar kiradi. Shu kabi muammolar ta‘limtizimini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumki. Bundan tashqari, ta‘lim tizimi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ham katta farqlar mavjud. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifatiga ta‘sir qiladi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarning o‘quvchilar ta‘limiga ta‘siri va ularning diqqatsizligiga ta‘sir etishi ta‘limga zarar etkazishi mumkin.

Ta‘limdagi muammolarni hal qilishda boshlang‘ich sinfga alohida e‘tiborni qaratish asosiy masalalardan biri sanaladi. Chunki, ilk boshlang‘ich ta‘lim va tarbiyani bolalar boshlang‘ich sinfga olishadi va yuqori sinfga olgan bilimlari asosida o‘qishni davom ettirishadi. Shu sababdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muomala madaniyati va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarur sanaladi. Bu orqali o‘quvchilar faqat bilim olibgina qolmay, olgan bilimlarini hayotta qo‘llay olish malakasini hamda, kasb egallashlari zarur. Bu ko‘nikmalar zamonaviy ta‘limning asosi sanaladi.

Endilikda, an‘anaviy ta‘lim yo‘nalishi ancha eskirgan bo‘lib, bunda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtadida to‘g‘ri muloqot turi o‘rnatilmagan edi. Bunda faqat o‘qituvchi aforitar bo‘lib, o‘quvchining o‘z fikri va qarashlari inobatga olinmas, bunda faqat o‘qituvchi tushuntirar edi, bu ta‘lim turi juda eskirgan. Bugungi kunga kelib bizga zamonaviy fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, o‘z fikrini qo‘rqmasadan bayon eta oladigan vatanparvar, xalqsevar, milliy qadriyatlarini ulug‘laydigan yoshlarni tarbiyalashimiz zarur. Buning uchun esa biz “4K” kompetensiyasini o‘quvchilarda shakllantirishimiz kerak. Kompetenlik so‘ziga ta‘rif berilganda, “competence (inglizcha qobiliyat)—faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, iqtidor va mahoratni namoyon eta olish” degan ma‘noni anglatadi

4 “K” kompetensiyasi:

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking);
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv) (creativity);
3. Kommunikatsiya (communication);
4. Kooperatsiya (coordinating with others)

#### **Kritik (tanqidiy fikrlash)**

• tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo‘lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;

• baholash – kirish va chiqish ma‘lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

• tushuntirish – o‘z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog‘liq izchil matnlar qurish;

- maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish, zarur ma’lumotlarni va uning yetarililigini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
- o‘zini boshqara bilish – o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
- modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;
- o‘rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti;
- kuzatish va o‘lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
- strategik fikrlash.

#### **Kreativlik (ijodkorlik) ko‘nikmasi**

- qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;
- tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;
- g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

#### **Kommunikatsiya (muloqot qilish ko‘nikmasi )**

- muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
- muloqot qoidalari ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish;
- o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash;
- o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

#### **Kooperatsiya (jamoaviy ishlash ko‘nikmasi)**

- umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;
- ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;
- o‘z rejaları va g‘oyalarni amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;
- o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;
- mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

“Kritik fikrlash maqsadga yo‘naltirilgan, natijaga erishishga qaratilgan va reflektiv bo‘lib, u yangi tushunchalarni o‘rganish, baholash va qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladigan aqliy jarayonlar, strategiyalar va tasavvurlardan iborat. Kritik fikrlash shuningdek, fikrlash jarayonini baholashni ham o‘z ichiga oladi.

Ma’lumotni tahlil qilish – bu berilgan ma’lumotlarni yaxshilab o‘rganish, ulardan muhim va kerakli qismlarini ajratish, turli jihatlarini ko‘rib chiqish va umumiy xulosalar chiqarish jarayonidir. Bu jarayon orqali, ma’lumotlarning ma’nosi va ahamiyati aniqlanadi, va ular yordamida qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish mumkin. Qarorlar qabul qilish esa — bu ma’lum bir vaziyatda turli imkoniyatlar orasidan eng yaxshi tanlovni qilish jarayonidir. Bundan tashqari kritik fikrlashga muammolarni hal qilish ham kiradi. Muammolarni hal qilish –muammoni aniqlash va unga mos eng yaxshi yechimni topishdan iborat. Shu uch jihat kritik (tanqidiy) fikrlashning asosi sanaladi.

Kommunikativlik kompetensiyasida insonlar o‘ratsida samarali muloqotni o‘rnatish jamoada ishlash va individual fikr almashish madaniy va ijtimoiy farqlarni inobatga olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bunda

o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida kommunikativlik kompetensiyasi shakllangan bo‘lsa dars jarayonini samarali tashkil qilish yengillashadi.

Kooperatsiya (hamkorlikning rivojlanishdagi) ahamiyatini aytadigan bo‘lsak: Jamoaviy ishlash va uning foydalari-shaxsni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Jamoada birlashish orqali o‘quvchilar orasidagi o‘zaro yordam va bir-birini qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyatli jamoa yaratish kabi tushunchalar o‘z ifodasini topadi.

Kreativlik (lot. ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) –individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamdamustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Ijodkorlikning ta’limdagi roli o‘quvchilarning yangi g‘oyalar yaratishi va yangilik yaratishdagi va muammolarni hal qilish, har qanday topshiriqqa ijodiy yondashuvni ta’minlaydi. Bundan tashqari kelajakdagi egallanadigan kasblar uchun zarur bo‘lgan ijodkorlikni rivojlantiradi.

Bu ko‘nikmalarning barchasi dunyo miqyosida tan olingan ta’lim tizimining alosiy bir bo‘g‘inidir. 4K kompetensiyasini ta’limga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. “4K” kompetensiyasini ta’limga integratsiya qilish zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Chunki, innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarda 4 ta kompetensiyani qamrab olgan holda o‘rgatish mumkin.

Zamonaviy ta’lim oluvchi o‘quvchilar. Nafaqat, bu ko‘nikmalar balki internet tarmoqlari bilan ishlay olishni, ya’ni bunda, zararli va zararsiz ma’lumotlarni ajrata olishni o‘rganmog‘i kerak. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilimini xalqaro baholash dasturiga tayyorlash “4K” kompetensiyasi orqali erishish mumkin. Xalqaro baholash dasturlariga PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabilar kiradi. Bu baholash dasturi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini tekshiradi. Shu orqali ularning egallagan bilimlarini qay darajada hayotda duch kelgan qiyinchiliklarda qo‘llay olishlarini baholaydi. Bilimni nafaqat puxta egallash balki, uni kerakli joyda va kerakli vaqtda qo‘llay olishni ham bilish lozim. Shuning uchun bu to‘tta kompetensiya egallagan bilimlarini hayotda duch kelgan har qanday vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadi.

4K kompetensiyasining ta’lim dasturiga qo‘shilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq “700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish” nazarda tutilgan.

Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish va bunga asosan ta’lim tashkilotlariga har yili 500 nafar “til egalari” bo‘lgan xorijiy mutaxassislarini jalb etish. Barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlariga o‘rgatish kurslarini joriy etish.

“Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta’lim metodikasini barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonlariga joriy qilish” haqida qaror imzolandi.

Bu farmonga asosan “4K” asosida 2023-yil “Novda” nashriyoti tomonida yangi darsliklar ishlab chiqildi. Yangi avlod darsliklari bilan ishlashda o‘qituvchining alohida roli bor. Chunki, dars jarayonini samarali taskil etishda darslik va o‘qituvchining egallagan bilimlarini o‘quvchilarga innovatsion texnologiyalar orqali yetkaza olishi juda muhim sanaladi. Yangi ishlab chiqilgan “Yangi avlod darsliklari” ko‘proq o‘quvchining mustaqil ishlashiga imkon yaratadi.

4K kompetensiyalarining o‘quvchilarni rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki:

-dunyoqarashning kengayishi: O‘quvchilar 4K kompetensiyalarini rivojlantirgan holda turli madaniyatlar, fikrlar va muhitlarga moslashishga qodir bo‘lishadi. Bu esa ularning global dunyoqarashini shakllantiradi va yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadi.

Ish joylarida muvaffaqiyat: XXI asrda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun nafaqat texnik bilimlar, balki kommunikatsiya, kreativlik, tanqidiy fikrlash va kollaboratsiya ko‘nikmalariga ham ega bo‘lish zarur. O‘quvchilarni bu kompetensiyalar bilan ta’minlash ularga kelajakda muvaffaqiyatli karyera qurishga yordam beradi.

Muammolarni hal qilish qobiliyati: O‘quvchilarni tanqidiy fikrlash va kreativlik orqali yangi, innovatsion yechimlar ishlab chiqish uchun tayyorlash muhimdir. Bu kompetensiyalar jamiyatda yuzaga keladigan yangi va murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Shaxsiy rivojlanish: 4K kompetensiyalarini rivojlantirish o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishi va o‘zini anglashiga yordam beradi. Ular o‘zgarishlarga moslashuvchan bo‘lib, o‘z maqsadlarini aniq belgilash va unga erishish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni oshiradilar.

**Xulosa** qilib aytganda, ta’lim jarayonida “4K” kompetensiyalarining rivojlanishi o‘quvchilarning umumiy salohiyatini oshirishga, ularni har tomonlama yetuk va muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lishga yordam beradi. Bu kompetensiyalar o‘quvchilarga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishdan tashqari, hayotda



muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham beradi. Shuning uchun “4K” kompetensiyalarining ahamiyati ta’lim jarayonida juda katta va ularni ta’lim tizimiga to‘liq integratsiya qilish zarur. Shu oraqli ta’lim jarayonini samarali tashkil qilishga erishish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Ta’lim “O‘zME. T-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetenlik va kreativlik asoslari. Toshkent- 2015.
5. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023.
6. Education system alignment for 21st century skills. Focus on assessment, November, 2018.
7. Dilova N.G., Saidova M.J., Ashurova Z.M. Kreativ pedagogika Buxoro-2022.

## INTENSIV BAHOLASH JARAYONINING PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK, DIDAKTIK JIHATLARI

*Amirova Gulnoza Rashitovna,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida assistent o'qituvchisi  
Eshonqulova Shahnoza Bozor qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biri bu, shubhasiz, maktab ta'limini rivojlantirish hisoblanadi. Bu borada olib borilayotgan amaliy ishlar yildan yilga ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Ta'lim jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qituvchilar oylik maoshining oshirilishi, yangicha malaka oshirish tizimlarining joriy etilishi bu boradagi ishlarga yaqqol misol bo'la oladi.*

**Kalit so'zlar:** *intensiv, baholash, xalqaro, pedagog, psixolog.*

## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССА ИНТЕНСИВНОГО ОЦЕНИВАНИЯ

*Сегодня одной из важнейших задач образовательной политики нашей страны, несомненно, является развитие школьного образования. Практическая работа в этом направлении из года в год меняется в положительную сторону. Наглядными примерами работы в этом направлении являются обеспечение образовательного процесса современными технологиями, повышение ежемесячной заработной платы учителей, внедрение новых систем обучения.*

**Ключевые слова:** *интенсивный, оценка, международный, педагог, психолог.*

## PSYCHOLOGICAL- PEDAGOGICAL, DIDACTIC ASPECTS OF THE INTENSIVE ASSESSMENT PROCESS

*Today, one of the most important tasks of the education policy of our country is undoubtedly the development of school education. Practical work in this regard is changing positively from year to year. Provision of educational processes with modern technologies, increase of monthly salary of teachers, introduction of new training systems are clear examples of work in this regard.*


**Keywords:** *intensive, evaluation, international, pedagogue, psychologist.*

**Kirish.** Ta'lim sifatini tubdan o'zgartirishi mumkin bo'lgan yana bir jihat borki, u ham bo'lsa baholash usullari hisoblanadi. Maskur usullar o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini bir qancha usullar yordamida yuqori ko'rsatgichga olib chiqishi yoki umuman ta'lim sifatining tushib ketishiga ham sabab bo'lishi umkin. Yuqorida tahlil qilingan bo'limdan ham bizga ma'lumkin, ta'lim jarayoni va ta'lim sifatining qaysi ko'rsatgichlarga mos kelishi bevosita aynan baholash usullariga bog'liq. O'qituvchilar ushbu muammoni ta'lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish orqali mezonli baholashni amalga oshirishda ma'lum ko'rsatmalar berishi mumkin. Shuningdek, baholashga psixologik-pedagogik yondashuvning dolzarbligi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishi bilan belgilanadi, bunda ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini rivojlantirishdir. Ta'lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan maqolamizda baholashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy fikrlarni ko'rib chiqamiz.

**Asosiy qism.** Boshlang'ich ta'lim jarayonlarida o'quvchilarni intensiv baholash jarayonlarining psixologik jihatlari ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ular shaxsning hissiy, aqliy va jismoniy holatiga ta'sir qiladi. Ushbu jarayonlar odatda boshlang'ich sinflar o'quvchilari o'rtasida yuqori bosim ostida o'tadi, chunki baholash natijalari ko'pinchao'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini tushirib yuborishga xizmat qilishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan bo'limda biz intensiv baholash usullarining ta'lim jarayoniga hamda o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatgichlariga bo'ladigan ijobiy ta'sirlarini tahlil qilib o'tgan edik. Ammo boshlang'ich sinf o'quvchilarida yoki hatto, kattalarda ham baholash jarayonlari kuchli hissiy kechinmalar bilan o'tishi mumkin. Masalan, o'quvchilarda u yoki bu ko'rinishdagi baholash jarayonlarida stressning keskin ortib ketishi kuzatiladi.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun intensiv baholash jarayonlarining psixologik jihatlari biroz boshqacharoq talqin qilinadi. Chunki ular hali yosh va baholash jarayonlariga psixologik tayyorgarliklari kattalarnikiga qaraganda boshqacha bo‘ladi. Shu jihatdan ham bu yoshdagi bolalarning baholash jarayonlaridagi psixologik jarayonlarini o‘rganish muhim sohalardan biri hisoblanadi. Olimlarning takidlaricha, bu holatlar intensiv baholash jarayonlari natijasida o‘quvchilar ko‘rishlari mumkin bo‘lgan eng salbiy jihatlardan biri bo‘lishi mumkin. Yana bir toifa olimlar esa bunga qarshi fikrlarni olg‘a suradilar. Ularning fikricha bunday psixologik bosimlarni tog‘ri yo‘l bilan yengib o‘taolgan bolalar kelajakda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga ham oson yechim topadilar.

Intensiv baholash jarayonlarida o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan yana bir holat bu xavotir darajasining ortishi bilan kognitiv samaradorlikning pasayib ketishidir. Bu holat psixologiyada Yerks-Dodson qonuni deyiladi Yerks-Dodson qonuni — psixologiyada diqqat va samaradorlikni boshqarish bo‘yicha asosiy nazariyalardan biri. Bu qonun 1908-yilda psixologlar Robert Yerks va Jon Dodson tomonidan ishlab chiqilgan va shuni ko‘rsatadiki, xavotir va qiziqishning o‘rtacha darajasi insonning samaradorligini maksimal darajaga chiqaradi, lekin haddan tashqari yuqori yoki juda past darajalar esa samaradorlikka salbiy ta‘sir qiladi. Yuqorida keltirilgan rasmdan ham ko‘risimiz mumkinki, xavotir darajasining keskin ortishi yoki kamayib ketishi samaradorlikka ta‘sir ko‘rsatadi. Bu holat odatda intensiv baholash jarayonidagi boshlang‘ich talim o‘quvchilarida xavotir darajasining ortib kelishi bilan bog‘liq holatda kuzatiladi. Natijada kutilayotgan natijaga erisha olmaydilar bu esa o‘quvchilarning ta‘lim jarayonlariga bo‘lgan motivatsiyasining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Rasmda bo‘yab ko‘rsatilgan yuzalardan ham kognitiv samaradorlikni qanchalik xavotir darajasiga bog‘lik ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Chap tomonda samaradorlikning o‘sishini ko‘rishimiz mumkin bo‘lsa, chizmaning o‘ng tomonida esa samaradorlik darajasining keskin kamayishi xavotir darajasining ortishiga to‘g‘ri kelishini ko‘rishimiz mumkin.



**1-rasm. Motivatsiya darajasining o‘zgarishi**

Intensiv baholash jarayonlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan yana bir jihati bu albatta motivatsiya darajasining o‘zgarishidir. Odatda bolalar motivatsiyasi ko‘proq tashqi tomondan olinadi. Ya‘ni bolalar ota-onasi yoki uzoqlari tomonidan bildirilgan iliq fikrlar bilan o‘zlarining nimalarga qodir ekanliklarini his qiladilar. Bu holatga baholash jarayonlari bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Yosh o‘quvchilar yaxshi natija olishdan ko‘ra maqtov eshitishni yoki o‘yinlarda muvaffaqiyat qozonishni istashadi. Har bir o‘quvchiga individual yondashuv va ularning muvaffaqiyatlarini kichik yutuqlar sifatida qadrlash ichki motivatsiyani oshiradi (2.5-rasm). Bu esa o‘quv jarayonlari natijalariga bevosita ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan jihatlardan sanaladi.



2-rasm. Intensiv baholash jarayonlarida o'quvchilarda kuzatilishi mumkin bo'lgan hissiy o'zgarishlar<sup>1</sup>.

Ushbu grafikda intensiv baholash jarayonlarida o'quvchilarda kuzatilishi mumkin bo'lgan hissiy o'zgarishlar grafigi keltirilgan bo'lib, o'quvchilarning baholash jarayonida boshidan kechiradigan asosiy hissiyotlarini ko'rsatadi. Ushbu grafik ikki asosiy o'zgaruvchini o'z ichiga oladi: stress darajasi va ishonch darajasi. Grafika tushunish uchun jarayon bosqichlari bo'yicha tahlil qilamiz: o'quvchilar jarayonning boshlanishida stress darajasi past o'ziga bo'lgan ishonchi esa yuqori darajada bo'ladi. Bu holat esa baholash jarayonlarida aksiga o'zgarishi mumkin. Natijada o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi kamayib, stress darajasi ortib ketadi hamda o'z o'zidan o'quvchilar o'zlarida juda og'ir bo'lgan hissiy o'zgarishlarni his qiladilar. Bu holat ham o'quvchilardan chuqur tahlil hamda tajriba talab etadi. Bunday o'zgarishlar vaqtida o'quvchilarda turlicha salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Intensiv baholash jarayonlari inson psixologiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, chunki bu jarayon odatda yuqori stress, xavotir va katta mas'uliyat bilan bog'liq. Ushbu jarayon davomida hissiyotlar va diqqatning o'zgarishi insonning baholash jarayoniga bo'lgan tayyorgarligi va yondashuviga kuchli ta'sir qiladi. Bir tomondan, baholash jarayonining intensivligi odamni o'z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyish qilishga undaydi, boshqa tomondan esa haddan tashqari zo'riqish ko'pincha kutilgan samaradorlikka erishishga xalaqit beradi.

Baholash jarayonining boshlanishida odamlar odatda tinch va xotirjam bo'lishadi, ammo jarayon yaqinlashgani sari xavotir darajasi oshadi. Bu, ayniqsa, tayyorgarlik bosqichida yaqqol seziladi, chunki inson o'zining bilim va mahoratidagi bo'shliqlarni anglab, qiyinchiliklarni oldindan his qiladi. Shu bilan birga, baholash kuni eng yuqori stress holati kuzatiladi, bu diqqatni jamlashni qiyinlashtiradi va haddan tashqari xavotir tufayli xatolar ehtimolini oshiradi. Jarayon tugashi bilan, stress sezilarli darajada pasayadi va inson o'zini yengilroq his qiladi. Natijalar e'lon qilingach, muvaffaqiyat hissi yoki kamchiliklardan saboq olish orqali o'ziga bo'lgan ishonchni tiklash mumkin bo'ladi. Psixologik nuqtayi nazardan, intensiv baholash jarayonlari Yerks-Dodson qonuni bilan yaxshi tushuntiriladi. Ushbu qonunga ko'ra, o'rtacha xavotir va stress darajasi diqqatni jamlashni kuchaytiradi va optimal natijalar beradi, lekin haddan tashqari stress yoki uning yetishmasligi samaradorlikni pasaytiradi. Murakkab vazifalar uchun xavotirning minimal darajada bo'lishi talab etilsa, oddiy vazifalarda o'rtacha yoki yuqori xavotir ham qoniqarli natija bera oladi. Shuning uchun baholash jarayonlarini rejalashtirayotganda, stressni boshqarish va xavotirni muvozanatda ushlab turish muhim.

**Xulosa.** Motivatsiya intensiv baholash jarayonlarining yana bir muhim psixologik jihatidir. Ichki motivatsiya – bilim olishga qiziqish va o'zini rivojlantirish istagi – tashqi motivatsiya, masalan, baholar, mukofotlar yoki tanqidlardan ustun bo'lgan holatlarda insonning samaradorligi oshadi. Shuningdek, hissiy o'zgarishlar, masalan, ishonchning pasayishi yoki stressning oshishi, jarayon davomida individuallarga turlicha ta'sir qilishi mumkin, chunki har bir insonning psixologik chidamliligi va stressga nisbatan reaksiyasi turlicha. Mazkur jarayonni samarali boshqarish uchun hissiy holatlarni tushunish va stressni

<sup>1</sup>Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.

boshqarish strategiyalarini qo‘llash muhim. Bu nafaqat o‘quvchilarga yoki xodimlarga optimal natijalarga erishishda yordam beradi, balki ularning psixologik salomatligini ham yaxshilaydi. Nafas olish mashqlari, vazifalarni rejali ravishda bajarish, murakkablik darajasini asta-sekin oshirish va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali intensiv baholash jarayonlarining salbiy ta‘sirini kamaytirish mumkin. Shu tariqa, baholash jarayonlari shaxs rivojlanishi uchun qulay imkoniyatga aylanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Севостьянов Д. А., Гайнанова А. Р., Лисецкая Е. В. Закон Йеркса-Додсона в педагогике и анализ инверсивных отношений // Сибирский педагогический журнал. – 2014. – №. 2. – С. 19-23.
2. Shahlo U., Shohista T., Fathiya Z. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlar//Pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 5. 316-318- bet
3. Manzura, Muhammadieva, and Amirova Gulnoza. "The role of Alisher Navoi's legacy in the education and upbringing of primary school students today." // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.4 (2022): 389-391.
4. Mashhura O. Jahongir Boshlang‘ich ta‘lim sifatini ta‘minlashda ilg‘or xorijiy metodikalar. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – С. 444-451.
5. Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." Proceedings of The ICECRS 4 (2019).

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Barnoyeva Sevara Uchqun qizi,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolari tahlil qilinadi. Ijodiy fikrlash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatining ta'lim jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarining yetarli emasligi, o'qituvchilarning an'anaviy yondashuvlari, motivatsiyaning pasayishi kabi mavjud muammolar muhokama qilinadi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun interaktiv ta'lim metodlari, muammoli o'qitish usullari va o'qituvchilarning ijodiy yondashuvi kabi pedagogik yondashuvlar taklif etiladi. Maqola talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'lim jarayonini yangilash zarurligini ta'kidlaydi.*

**Kalit so'zlar:** *oliy ta'lim, ijodiy qobiliyatlar, pedagogik muammo, ta'lim metodlari, interaktiv ta'lim, muammoli o'qitish, motivatsiya, kreativ o'qituvchilar, pedagogik yondashuvlar, talabalarning rivojlanishi.*

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*В данной статье анализируются педагогические проблемы развития творческих способностей студентов в высших учебных заведениях. Показана важность творческого мышления и способности создавать новые идеи в образовательном процессе. В статье также рассматриваются существующие проблемы в высших учебных заведениях, такие как неадекватность образовательных программ, традиционные подходы преподавателей, снижение мотивации. Для развития творческих способностей предлагаются педагогические подходы, такие как интерактивные методы обучения, проблемные методы обучения и творческий подход учителей. В статье подчёркивается необходимость использования современных педагогических технологий и обновления образовательного процесса для развития творческих способностей студентов*

**Ключевые слова:** *высшее образование, творческие способности, педагогическая проблема, методы обучения, интерактивное обучение, проблемное обучение, мотивация, креативные педагоги, педагогические подходы, развитие студентов.*

## DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*This article analyzes the pedagogical problems of developing students' creative abilities in higher education institutions. The importance of creative thinking and the ability to create new ideas in the educational process is shown. The article also discusses existing problems in higher education institutions, such as the inadequacy of educational programs, traditional approaches of teachers, and a decrease in motivation. Pedagogical approaches such as interactive educational methods, problem-based teaching methods and creative approach of teachers are offered to develop creative abilities. The article emphasizes the need to use modern pedagogical technologies and update the educational process to develop students' creative abilities.*

**Keywords:** *higher education, creative abilities, pedagogical problem, educational methods, interactive education, problem-based teaching, motivation, creative teachers, pedagogical approaches, student development.*

**Kirish.** *Zamonaviy ta'lim tizimi global miqyosda rivojlanayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga mos ravishda yangi talablar va yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki talabanning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, uning mustaqil fikrlash, kreativlik, ijodiy va innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Bu talablar, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida alohida dolzarb bo'lib, ular nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki yangi g'oyalarni yaratish, ilmiy va texnik muammolarni innovatsion yechimlar bilan hal qilish qobiliyatini oshirishni nazarda tutadi. Ijodiy qobiliyatlar, o'z navbatida, talabanning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va professional sohalarida muvaffaqiyatga erishishida ham asosiy omil bo'lib hisoblanadi.*

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni ko'pincha an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmoqda. O'quv dasturlari asosan teoriyaga asoslanib, talabalarga o'z bilimlarini rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Bu holat esa, talabalarni ijodiy fikrlashga undamaydi va ularning innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishdagi salohiyatini cheklaydi. Ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvlar, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik yondashuvi, motivatsiya va o'quv muhitining ijodiy rivojlanishga ta'siri ham muhim omillardan biridir.

Maqolada oliy ta'limda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, mavjud imkoniyatlar va ularni hal qilish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik metodlar va strategiyalar ko'rib chiqiladi. Maqsad – talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlarni aniqlash va ularga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu masala nafaqat ta'lim tizimini takomillashtirish, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va ta'lim nazariyasida dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilar ijodiy fikrlash, innovatsion metodlar va ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlarni o'rganishga katta e'tibor qaratishmoqda.

S.Abduqodirov “Pedagogik texnologiyalar: nazariy va amaliy asoslar” (2015) nomli asarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. U, ayniqsa, interaktiv metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini va ularni ijodiy faoliyatni rag'batlantirishdagi samaradorligini alohida e'tirof etadi. Abduqodirovning fikricha, ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashga undashda interaktiv usullar (mashqlar, brainstorming, guruhli ishlar) va amaliyot asosidagi o'qitish muhim ahamiyatga ega [1].

M.Azimov “*Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari*” (2019) nomli maqolasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni o'zining pedagogik yondashuvlariga asoslanib izohlaydi. U, ijodiy pedagogikaning asosiy tamoyillari, ya'ni talabaning o'zini erkin ifoda etishiga imkon yaratish, bilimni amaliyotga tatbiq etish va muammolarni ijodiy hal qilish imkoniyatini berish orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Azimov, shuningdek, ijodiy pedagogik yondashuvlarning talabaning individual va guruh sifatida rivojlanishiga ta'siri haqida ham fikr yuritadi [2].

B.Kholmurodov “*Ijodiy pedagogika va uning rivojlanish istiqbollari*” (2020) nomli asarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda interaktiv ta'lim metodlarining roli haqida yozadi. U interaktiv ta'limni faqat talaba faoliyatini oshirishning vositasi sifatida emas, balki ijodiy fikrlash va muloqotga asoslangan yondashuv sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu metodlar talabalarga muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi, shu bilan birga ularni mustaqil va kreativ fikrlashga o'rgatadi [4].

Z.Mukhamedova “*Talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning roli*” (2021) nomli maqolasida ta'lim texnologiyalarining innovatsion rolini o'rganadi. U, zamonaviy texnologiyalar, masalan, onlayn platformalar, interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar va multimediali vositalarning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Ushbu texnologiyalar talabalarga ijodiy fikrlashni oshirishda va o'quv materiallarini yangi nuqtayi nazardan ko'rishdagi imkoniyatlarni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [6].

Oliy ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga doir tadqiqotlar ko'plab ilmiy izlanishlarda o'rganilgan. Ijodiy qobiliyatlar nafaqat individual rivojlanishni, balki jamiyatning innovatsion salohiyatini ham oshirishda muhim rol o'ynaydi. Adabiyotlarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning turli pedagogik yondashuvlari, metodlari va vositalari haqida bir nechta muhim ilmiy izlanishlar mavjud.

**D. Sternberg (1999)** "Intelligence, Instruction, and Assessment" asarida ijodiy fikrlash va bilimni o'rganish jarayonidagi innovatsiyalarni tahlil qilgan. U ijodiy qobiliyatni faqat genetik xususiyatlar bilan bog'lamasdan, o'qitish va ta'lim jarayonining sifatiga bog'liq ravishda rivojlanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Sternbergning fikriga ko'ra, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun talabalar o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlari kerak, shunda ular yangi va innovatsion g'oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradilar [11].

**J. Piaget (1970)** va **L. Vygotskiy (1978)** o'zlarining kognitiv rivojlanish nazariyalarida ijodiy qobiliyatlar va ularning shakllanishi jarayonini o'rganishgan. Piagetning nazariyasiga ko'ra, talabalarning ijodiy qobiliyatlari kognitiv jarayonlar va shaxsiy tajriba asosida rivojlanadi. Vygotskiy esa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy muhit, o'qituvchi va tengdoshlar bilan o'zaro aloqaning ahamiyatini ta'kidlaydi [12,13].

**A. Torrance (1974)** ijodiy fikrlashni o'lchash va rivojlantirish bo'yicha bir qator metodologiyalarni ishlab chiqdi. U ijodiy qobiliyatlarni boshqarish va o'lchashda ishlatiladigan "Torrance Tests of Creative

Thinking” metodikasini yaratdi. Bu metodika ijodiy fikrlashning asosiy omillarini – original fikr, o‘ziga xoslik va muammoni yangi nuqtayi nazardan hal qilishni o‘lchashni maqsad qiladi [14].

**P. Guilford (1950)** ijodiy fikrlashni rivojlantirishda divergent fikrlashning ahamiyatini ko‘rsatgan. U divergent fikrlashni ijodiy fikrlashning asosiy komponenti sifatida ajratib ko‘rsatgan va ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantiruvchi metodlarni ishlab chiqqan [15].

Tadqiqotda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolarini o‘rganish uchun bir qancha metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari talabalarning ijodiy faoliyatini baholash va ularga samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tahlil qilishga imkon yaratdi. Quyidagi metodologik yondashuvlar ishlatildi:

**Kontent-tahlil metodi.** Adabiyotlar tahlili va ta‘lim jarayonidagi ijodiy faoliyatning turli jihatlarini o‘rganishda kontent-tahlil metodi qo‘llanildi. Bu metod orqali turli pedagogik va ilmiy ishlar, maqolalar va kitoblar o‘rganildi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik metodlar va usullar aniqlandi. Ushbu tahlil natijasida ta‘limda qo‘llanilayotgan eng samarali metodlar va innovatsion yondashuvlar ajratib olindi.

**Eksperimental metod.** Oliy ta‘lim muassasalarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘quv jarayonining samaradorligini baholash uchun eksperimental metoddan foydalanildi. Bu metod yordamida o‘quvchilar bilan bir necha tajribalar o‘tkazildi, ularga turli pedagogik metodlar va ijodiy yondashuvlar taqdim etildi. Natijalar asosida o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan usullar va metodlar samarasini o‘lchash imkoniyatlari yaratildi. Eksperimentda talabalar ijodiy muammolarni hal qilishda o‘z fikrlarini erkin ifoda etishganini ko‘rish mumkin edi, bu esa ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi [9].

**So‘rovnoma metodi.** Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bu metod orqali ta‘lim jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlari va o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlari haqidagi fikrlarni yig‘ish mumkin bo‘ldi. So‘rovnoma natijalari orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlar, metodlar va ta‘lim muhitining ahamiyati haqida ma‘lumotlar olindi.

**Kompilyatsiya metodi.** Kompilyatsiya metodi yordamida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar, metodlar va dasturlarni tahlil qilib, ulardan eng samarali va amaliy bo‘lganlari tanlab olindi. Bu metod talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun eng maqbul pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam berdi.

**Yig‘ilish va seminarlar.** Tadqiqot jarayonida yig‘ilishlar va seminarlar o‘tkazilib, o‘qituvchilar va talabalar bilan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga oid fikr almashish amalga oshirildi. Bu metod yordamida ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va talabalarning ijodiy yondashuvlaridagi muammolarni aniqlash mumkin bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlarni o‘rganishga katta yordam berdi. Zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlari va talabalar bilan doimiy interaktiv aloqaning o‘rnatilishi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish uchun pedagogik metodlarni takomillashtirish, ta‘lim muhitini ijobiy o‘zgartirish va motivatsiya mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

**Muhokama.** Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bu jarayonni samarali tashkil etish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ijodiy qobiliyatlar, ayniqsa, yuqori ma‘lumotli mutaxassislar, olimlar va innovatorlarni tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, pedagogik metodlarning samaradorligi, o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvi va ta‘lim muhitining talabalarning ijodiy potentsialini rivojlantirishdagi roli katta e‘tiborni talab qiladi [10].

Adabiyotlar tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullar va yondashuvlar nafaqat samarali, balki o‘quv muhitining sifatiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Biroq bir qator muammolar ham mavjud:

An‘anaviy o‘qitish usullari: O‘quv dasturlari va o‘qitish metodlari ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida hali ham an‘anaviy tarzda davom etmoqda. Asosan, talabalarga bilimlarni ma‘lumot sifatida taqdim etishning o‘zi ijodiy fikrlashni rivojlantirishda yetarli emas. O‘qituvchilar an‘anaviy dars metodlarini qo‘llab, talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy g‘oyalar ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojini e‘tibordan chetda qoldirishadi [8].

**Motivatsiya yetishmovchiligi:** Talabalar ijodiy fikrlashga nisbatan ijobiy motivatsiyani faqat o‘qituvchidan yoki o‘quv dasturidan emas, balki butun ta‘lim tizimidan olishlari kerak. Hozirgi ta‘lim tizimida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan rag‘batlantirish mexanizmlarining yetishmasligi, talabalar orasida ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishning pastligiga olib keladi.



Resurslar va ta'lim muhiti: Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ta'lim resurslari va mos ta'lim muhitining yetishmasligi ham o'qitish jarayonini cheklaydi. Zamonaviy texnologiyalar, laboratoriyalar, interaktiv ta'lim vositalarining o'qish jarayoniga tatbiq etilmasligi talabalarning ijodiy salohiyatining to'liq ochilishiga to'sqinlik qiladi.

O'qituvchilarning pedagogik tayyorligi: Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiruvchi murabbiylar sifatida ham faoliyat yuritishlari kerak. Biroq ko'plab o'qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo'llashda yetarli malakaga ega emaslar [16].

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali yondashuvlar mavjud. Zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar orqali bu jarayonni yanada takomillashtirish mumkin:

Interaktiv ta'lim: Interaktiv ta'lim metodlari, jumladan, guruhli ishlar, brainstorming, munozaralar va kreativ darslar talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qiladi. Bu usullar talabalarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga, muammolarni yangi nuqtai nazardan ko'rishga yordam beradi. Shu bilan birga, interaktiv ta'lim metodlari talabalarning jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularni bir-birining fikrlariga hurmat ko'rsatishga o'rgatadi [5].

Muammoli o'qitish: O'qituvchilarni muammolarni hal qilishga qaratilgan o'qitish metodlari ijodiy fikrlashni rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, real hayotdagi masalalar yoki zamonaviy ilmiy muammolarni muhokama qilish orqali talabalarning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish mumkin.

O'qituvchilarning kreativ yondashuvi: O'qituvchilar o'zlari ham ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llashlari zarur. Ular talabalarga yangi g'oyalarni taklif qilish, mavjud muammolarni yangi nuqtai nazardan ko'rish va innovatsion yechimlar yaratish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatishi kerak. O'qituvchilarning kreativ yondashuvi, talabalar uchun ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy katalizatori bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish va motivatsiya: Ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va talabalarni o'z g'oyalarini ishlab chiqishga undash uchun turli xil rag'batlantirish mexanizmlari kerak. Bu esa talabalarning ijodiy faoliyatga qiziqishini oshiradi va ularni yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantiradi.

Tadqiqotda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolarini o'rganish uchun bir qancha metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot metodlari talabalarning ijodiy faoliyatini baholash va ularga samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tahlil qilishga imkon yaratdi. Quyidagi metodologik yondashuvlar ishlatildi:

**Natijalar.** Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik masalalari va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, bir qator muhim natijalarga erishildi. Tadqiqot davomida olingan asosiy natijalar quyidagicha:

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi muammolar

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, ba'zi muassasalarda an'anaviy o'qitish metodlari keng qo'llanilmoqda, bu esa talabalarni ijodiy fikrlash va innovatsion g'oyalar ishlab chiqish jarayonidan mahrum qilmoqda. Asosan, bu metodlar teoriyaga asoslangan bo'lib, talabalar faqat o'rganilgan bilimlarni yodlash va takrorlashga yo'naltirilgan, bu esa ijodiy yondashuvlarni cheklaydi [7].

Yuqori ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlashda, faqat bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati berilsa ham, talabalar yangi, ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ta'lim jarayonining passiv shakli talabalarni mustaqil fikrlashdan mahrum qiladi va ular ijodiy qarorlar qabul qilishda o'zini erkin his qilishmaydi.

Shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda motivatsiyaning pastligi ham muammo bo'lib qolmoqda. Ko'plab talabalar faqat o'quv dasturini bajarishga, imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishga va o'rganilgan bilimlarni maqsadga muvofiq ravishda qo'llashga ko'proq e'tibor qaratishadi. Bunday sharoitda ijodiy faoliyatga rag'batlantirish mexanizmlari va motivatsiya mexanizmlarining yetishmasligi ularning ijodiy salohiyatini cheklaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi

Tadqiqot davomida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarning samaradorligi aniqlangan. Bunday yondashuvlar orasida interaktiv ta'lim, muammoli o'qitish va kreativ pedagogik metodlar alohida o'rin tutadi. Interaktiv ta'lim metodlari talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Masalan, guruhli ishlar, munozaralar, brainstorming (miya hujumi) va ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi darslar yordamida talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Muammoli o‘qitish esa talabalarga muammolarni hal qilish jarayonida yangi, ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Talabalar o‘qituvchilarning to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘riqnomalaridan qat’i nazar, o‘zlari mustaqil ravishda muammoni hal qilishga intilishadi, bu esa ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, muammolarni hal qilish jarayonida talabalar o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi ham ijodiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Onlayn platformalar, multimediy vositalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv darsliklar talabalarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qulay va samarali imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalar yordamida talabalar ijodiy g‘oyalarni ishlab chiqish va muammolarni yangi nuqtai nazardan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3].

O‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va ularning rolini kengaytirish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning ijodiy pedagogik yondashuvlari va motivatsiya usullari talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchilarning o‘z ishiga ijodiy yondashishi, talabalarga yangi g‘oyalarni ilgari surish, o‘z fikrlarini erkin ifoda etish va muammolarni innovatsion tarzda hal qilish imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchilar faqat bilim beruvchilar sifatida emas, balki talabalarni motivatsiya qiluvchi va ularga ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi murabbiylar sifatida ham faoliyat yuritishlari lozim.

O‘qituvchilarning kreativ pedagogik yondashuvlari, masalan, o‘quv jarayonida talabalarga muammolarni hal qilishni o‘rgatish, ularga erkinlik berish va o‘z ijodiy yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini taqdim etish talabalarning ijodiy salohiyatini oshiradi. O‘qituvchilarning tajribasi va malakasi, shuningdek, ularning talabalarga ijodiy yondashuvlarni qo‘llashga yordam berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim muhitining roli va motivatsiya mexanizmlari

Tadqiqotda, shuningdek, ta’lim muhitining ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o‘rni katta ekanligi aniqlandi. Talabalar ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish uchun qulay va rag‘batlantiruvchi muhitga muhtoj. Ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, interaktiv ta’lim vositalarini integratsiyalash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish talabalar uchun ijodiy faoliyatni rivojlantirishda katta yordam beradi.

Motivatsiya mexanizmlari ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalarga rag‘batlantirish va ijtimoiy-ilmiy tadbirlar (ko‘rgazmalar, ilmiy ishlanmalar, kreativ konkurslar) tashkil etish orqali ularning ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. O‘qituvchilarning faol motivatsiyasi, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga undashning samarali usulidir [8].

Natijalar asosida tavsiyalar

Tadqiqot asosida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Pedagogik metodlarni takomillashtirish: Talabalar ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun interaktiv, muammoli va kreativ o‘qitish usullarini keng qo‘llash zarur.
- O‘qituvchilarning malakasini oshirish: O‘qituvchilarni ijodiy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga o‘rgatish kerak.
- Motivatsiya mexanizmlarini takomillashtirish: Talabalarga ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi mexanizmlar, shuningdek, ilmiy va kreativ tadbirlar tashkil etish zarur.
- Ta’lim muhitini yangilash: Ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash va interaktiv ta’lim vositalarini qo‘llash orqali talabalar uchun ijodiy muhitni yaratish muhimdir.

**Xulosa.** Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta’lim metodlari, o‘qituvchilarning pedagogik tayyorligi, ta’lim muhitining ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashi va motivatsiya mexanizmlarining samarali ishlashi zarur. Oliy ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quv jarayonida talabalarga yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, mustaqil faoliyat yuritish, ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish kerak. Ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar talabalarning nafaqat professional, balki shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda muhim omil bo‘ladi. Hamda oliy ta’limda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun nafaqat an’anaviy o‘qitish metodlaridan voz kechish, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, innovatsion texnologiyalarni va ijodiy muhitni yaratishni talab qiladi. Pedagogik jarayonda talabalarga ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun erkin fikr almashish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, mustaqil faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini taqdim etish zarur. O‘qituvchilarning kreativ yondashuvi, motivatsiya mexanizmlari va ta’lim resurslarining kengayishi talabalar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi [18].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qolmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik metodlar, interaktiv ta'lim texnologiyalari va o'qituvchilarning kreativ yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim muhitining ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi bo'lishi, motivatsiya mexanizmlarining takomillashtirilishi talabalar ijodiy salohiyatining to'liq ochilishiga yordam beradi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali biz nafaqat talabalarni, balki jamiyatni ham rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi mutaxassislarini tayyorlay olamiz [17].

#### Adabiyotlar:

1. Abduqodirov S. (2015). Pedagogik texnologiyalar: nazariy va amaliy asoslar. Toshkent: O'qituvchi.
2. Azimov M. (2019). Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
3. G'ofurov A. (2018). Innovatsion ta'lim: zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
4. Kholmurodov B. (2020). Ijodiy pedagogika va uning rivojlanish istiqbollari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Mamatqulov R. (2017). Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Mukhamedova Z. (2021). Talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning roli. Toshkent: Oliy ta'lim.
7. O'rinbaev A. (2014). Pedagogik innovatsiyalar va ijodiy pedagogik yondashuvlar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
8. Pirsokov D. (2016). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik jarayondagi o'rni. Toshkent: Akademnashr.
9. Sodirov A. (2015). Ta'limda innovatsion metodlar va ularning samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi.
10. Turaev F. (2017). Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ta'lim muhitining o'rni. Tashkent: Pedagogika ilmiy-nazariy jurnali.
11. Sternberg Robert J., and Wendy M. Williams. Intelligence, instruction, and assessment: Theory into practice. Routledge, 1998.
12. Vygotsky LS, Cole M. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press; 1978
13. J. Piaget, Fikrning rivojlanishi: Kognitiv tuzilmalarning muvozanatlashuvi, Blekvell, Oksford, Buyuk Britaniya, 1977 yil.
14. Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. Bensenville: Scholastic Testing Service, 1974.
15. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist, 1950. Vol. 5, No. 9. – P. 444-454.
16. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. "Application of pedagogical technologies in the educational process" -T.: "Science and Technology" Publishing House-2014; p.119)
17. Адизов Б. Р., Олимов Ш. Ш. Олий таълим муассасасаларида таълим сифатини ошириш имкониятлари // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 1. – С. 41-47.
18. Самиева, Ш. Х., Ф. Ф. Нарзуллаева. "Современные подходы к реализации принципа дуального обучения в профессиональном образовании." // Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации (Социальный инженер-2021). 2021.

## TALABALARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHNING PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Botirova Zilola Nodirovna,*

*Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida kontekstli yondashuv asosida talabalarda paradoks bilimlarni shakllantirishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma’lumotlar aks ettirilgan va bundan professor-o‘qituvchilar fan mazmunini yoritishda nazariy va amaliy jihatdan keng qo‘llab kelayotganligi asoslangan.*

*Shuningdek, ta’limning zamonaviy didaktik ta’minotlari talabalarga keng ko‘lamdagi imkoniyatlarni yaratish bilan birga ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar, o‘quv faoliyatini modellashtirish - o‘rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlari, o‘quv faoliyatini modellashtirish jarayonida o‘ziga xos tamoyillari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *ehtiyoj, motiv, motivatsiya, kontekstli yondashuv, adekvatlik, fizibilite, paradigma, konstruktiv, differensiallashtirilgan ta’lim, barqarorlik, kompetensiya, didaktik, kreativ, protsess, usul, paradoks, yo‘nalish, interaktiv.*

## ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АКТИВИЗАЦИИ УЧЕБНО- ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

*В данной статье отражена информация о дидактических возможностях организации формирования парадоксальных знаний у студентов на основе контекстного подхода в высших учебных заведениях и обоснована широкая теоретическая и практическая поддержка профессорско-преподавательского состава в освещении содержания дисциплины.*

*Также в работе современное дидактическое обеспечение обучения проанализированы факторы, способствующие повышению эффективности обучения учащихся при создании широкого спектра возможностей, моделирование учебной деятельности - основные особенности изучаемого предмета, специфические принципы в процессе моделирования учебной деятельности.*

**Ключевые слова:** *Ключевые слова: Потребность, мотив, мотивация, контекстуальный подход, адекватность, целесообразность, парадигма, конструктив, дифференцированное обучение, устойчивость, компетентность, дидактический, творческий, процесс, метод, парадокс, направленность, интерактив.*

## PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF ACTIVATING STUDENTS' LEARNING ACTIVITY

*This article reflects information on the didactic possibilities of organizing the formation of paradoxical knowledge in students based on a contextual approach in higher education institutions, and it is based on the fact that professors and teachers have been widely using it theoretically and practically in illuminating the content of the subject.*

*Also, the factors that contribute to the creation of a wide range of opportunities for students, as well as the creation of modern didactic resources for education, the modeling of educational activities - the main features of the subject under study, and the specific principles of the modeling of educational activities process are analyzed.*

**Keywords:** *need, motive, motivation, contextual approach, adequacy, feasibility, paradigm, constructive, differentiated education, stability, competence, didactic, creative, process, method, paradox, direction, interactive.*

**Kirish.** *Zamonaviy oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiyaviy jarayonida o‘qitishning turli xil yondashuvlari, ta’lim texnologiyalarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar taqdim etuvchi yangi o‘qitish metodologiyasi kirib kelmoqda va ulardan samarali foydalanilmoqda.*

*Talabalarning o‘quv-ijodiy faoliyatining motivatsion jihati muhim hisoblanib, faoliyatni faollashtirishda “ehtiyoj”, “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari asosiy rol o‘ynaydi.*

*Ehtiyoj – insonning biror narsaga bo‘lgan zarurati, bu biologik zarurat (oziq-ovqat, havo va boshq.) yoki ijtimoiy (kommunikativ, bilish ehtiyojlari) bo‘lishi mumkin. “Ehtiyojning yo‘naltirilgan shakli motiv*

hisoblanib, bu ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning ma’lum bir faollik turiga (faoliyat, muloqot, atvor) ichki intilishi bo‘lib hisoblanadi. Motiv sifatida tashqi dunyo predmetlari, tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular va kechinmalar, ya’ni ehtiyoj mujassam bo‘lgan hamma narsa bo‘lishi mumkin”.

Motivlar tashqi va ichki turlarga bo‘linadi. Tashqi motivlarga chora va mukofot, moddiy manfaat, boshqalar tomonidan o‘tkaziladigan bosim, o‘z faoliyati natijalarini kutish va boshq. kiradi. Ularning barchasi o‘quv maqsadidan tashqarida bo‘lib, mazkur maqsad befarq yoki yoqimsiz bo‘lishi, ta’lim esa majburiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin [1,66].

Ichki motivatsiya bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, madaniy va kasbiy jihatdan takomillashtirish istagini o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarni o‘rganishni o‘z maqsadiga aylantirishga undaydi.

Motivatsiya tuzilishini o‘rganishda bir qator xususiyatlariga ahamiyat qaratish lozim. Birinchidan, motivatsiya jarayonga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda talaba o‘quv faoliyatining o‘zidan rozi bo‘lish istagi bilan harakatlanadi. Ikkinchidan motivatsiya natijaviylik xususiyatiga ega bo‘lib, bunda talaba o‘quv faoliyati natijasi shaxs rivojlanishiga ta’sirini anglashi bilan xarakterlanadi. Uchinchidan, motivatsiya rag‘batga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv faoliyati uchun mukofot-rag‘batlashning kuchiga ehtiyoj sezish bilan ifodalanadi. To‘rtinchidan, tanbehdan qochishga yo‘nalganlik xususiyati bo‘lib, o‘quv faoliyatida talaba shaxsiga “qamchi siyosati”dan foydalanishni nazarda tutadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bizningcha, ichki motivatsiya jarayon va natijalarga yo‘nalganlikni, tashqi motivatsiya esa mukofotlash va jazodan qochishni o‘z ichiga oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Psixologiyada bilish faoliyatining kengayishida ta’lim jarayonlarining o‘rni haqida fransiyalik olim J.Godfruaning - Что такое психология nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo‘lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning bilish jarayonlarining rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat-Psixologiya kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qo‘llanilganligini, ong va o‘zini kuzatish tufayli inson o‘zidagi psixik xolatlarni o‘rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o‘rganish zarurati etilganligini izohlab bergan. Mazkur holatlarda o‘quvchilar o‘zaro bilish munosabatlari, muloqotga kirishadilar. Bolalarning bilish faoliyatlari hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligidir. U ta’limning har bir bosqichida vujudga keladi va muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bilish faoliyati o‘quvchilarning ijtimoiy aloqalari va o‘quv faoliyatlarining barcha turlarida mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilar bilish faoliyatining kengayishida o‘quv jarayonlarida muayyan topshiriqlarni bajarishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida talabalarining o‘qitishga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari O.E.Lebedev tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyillarga ko‘ra, ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy ma’nolaridan biri mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, qo‘shimcha ravishda ta’limning tashkiliy asosidir.

O‘quv faoliyatini modellashtirish - o‘rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlarini boshqa tizim - moddiy obyekt, tenglamalar to‘plami, kompyuter dasturi yordamida tasvirlash bo‘lib hisoblanadi[2,126].

**Tadqiqot metodologiyasi.** An’anaviy ta’lim sharoitida bilish faoliyati o‘qituvchining o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o‘tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o‘quvchilarga tayyor tarzda uzatilmasligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘ldilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo‘lishiga erishish nazarda tutilmoqda.

Talaba motivatsiyasining o‘ziga xos va yetakchi turi bo‘lib o‘qishga motivatsiya hisoblanadi. Bu o‘quv motivi va o‘quv-bilish faoliyati motivi boshchiligidagi turli xil motivlar iyerarxiyasini ifodalaydi.

O‘quv motivi - bu o‘quv jarayonida o‘quv-bilish faoliyatni amalga oshirishda talabani undovchi maylidir. O‘quv-bilish faoliyatning motivi quyidagicha talqin qilinadi:

1) ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyat uchun motivatsiya – subyektning faolligini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilovchi tashqi yoki ichki shartlar majmui;

2) faoliyat yo‘nalganliginin undovchi va belgilovchi tanlovi, u amalga oshirish sababi bo‘lgan predmet;

3) harakatlarni tanlash asosida yotgan anglangan sabab.

Talabalarining o‘quv-bilish faoliyati motivlarining tasniflaridan biri V.A.Slastyonin tomonidan taklif qilingan. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) shaxsning hissiy namoyon bo‘lishiga asoslangan bevosita-undovchi motivlar: “ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular, yorqinlik, yangilik, maroqlilik, qiziqarli o‘qitish, o‘z faoliyatiga yuqori baho olish istagi va boshqalar”.

2) istiqbolli-unovchi motivlar - “ularning asosida umuman bilimning va xususan, o‘quv fanining ahamiyatini tushunishga, fanning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini bilishga, aniq bilim va ko‘nikmalar; fanning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligi yotadi”;

3) intellektual-undovchi motivlar – “ularga bilish jarayonining o‘zidan qoniqish olish: bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, o‘z madaniy saviyasini kengaytirish istagi, ma‘lum ko‘nikmalarni egallash, o‘quv-bilish muammolarni hal qilish jarayoniga ishtiyok kiradi”.

O‘quv-bilish faoliyatning motivlari bilim va harakat usullarini o‘zlashtirishga, talabani mustaqil bilim loishga undashga qaratilgan[3,44].

**Tahlil va natijalar.** O‘quv jarayoni va rivojlanish o‘rtasida yoshga qarab o‘zgarib turadigan murakkab dinamik munosabatlar mavjud. L.S.Vygotskiy rivojlanish jarayonlari o‘quv jarayonlariga to‘g‘ri kelmasligini, balki ularga ergashishini isbotladi. U rivojlanishning ma‘lum bir bosqichida talaba mustaqil ravishda emas, balki o‘qituvchining rahbarligi ostida hal qila oladigan vazifalar doirasi bilan tavsiflangan proksimal rivojlanishning “zonasini” aniqladi. Ammo vaqt o‘tishi bilan, bilim qobiliyatlarini rivojlanib borishi bilan, bu vazifalar u tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

O‘quv faoliyati bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi hamda nazorat etiladi. Bu faoliyat talabalarining bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirishni asosiy maqsad sifatida e‘tirof etadi. Shuningdek, o‘quv faoliyati talabalarining mustaqil va ijodiy fikrlashi, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash, kamchiliklarini bartaraf etish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratishi lozimligini ta‘kidlash lozim. Shu sababli o‘quv faoliyati shaxs rivojlanishida motivatsiyalangan jarayondir.

Motivatsiyaga asoslangan o‘quv-ijodiy faoliyat talabalarining muvaffaqiyatli bilim o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba shaxsida mustaqillik va tanqidiylikni rivojlantiradi;

yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiradi;

talabalarining irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali turli muammolar, qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi;

o‘quv jarayonida samaraga erishish, vazifalarni ishtiyok bilan bajarishga, ijodiy mehnat qilishga undaydi.

Zamonaviy sharoitda talabalarining o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etilishi nafaqat o‘qituvchining balki talabaning ham umumiy faoliyati hisoblanadi. O‘qituvchi nazoratida talaba ham mashg‘ulotlarga tayorlanishi, taqdimot qilishi, o‘qituvchiga yordam berishi orqali o‘z kasbiy tayyorgarligini namoyon etadi hamda o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi [4,96].

O‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda talabalarining “individual xususiyatlarini ham hisobga olish kerak: o‘quv jarayoniga javob berishning tezligi va adekvatligi, o‘z oldiga vazifalarni qo‘yish va ularni hal qilish yo‘llarini topish istagi va qobiliyati, turli vaziyatlardan chiqish yo‘llari, ishlash qobiliyati, o‘z-o‘zini tartibga solish. Talabaning faol faoliyatini mustaqil tartibga solish uning o‘quv jarayonidagi faol pozitsiyasiga bog‘liq bo‘lib, mustaqil qarorlar va harakatlarni qabul qilishga, vazifalarni erkin tanlashga, ijodiy faoliyatga undaydigan vaziyatlarda amalga oshiriladi (qiyinchilikda o‘rtoqlarga yordam berish, o‘z-o‘zini sinab ko‘rish, o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, mulohaza yuritish, ularni asoslash)”.

G.N. Najmiddinovaning fikricha, “o‘quv-bilish faoliyatni faollashtirishda talabalarining faol va mustaqil nazariy va amaliy faoliyatini ta‘minlaydigan o‘quv ishining mazmuni, usullari, uslubiy texnikasi va tashkiliy shakllarini takomillashtirish lozim. O‘quv jarayonini faollashtirishda nafaqat pedagogik ishning mahsuldorligini, balki talabaning o‘quv-bilish faoliyati samaradorligini oshirish uchun ham yashirin zaxiralar mavjud bo‘ladi”.

Tadqiqotchi dars bosqichlarida o‘ziga xos faol xarakterdagi usullardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Bu usullar orasida quyidagilarni ta‘kidlash mumkin:

1) o‘quv jarayonida turli qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlash hamda munozara tashkil etish;

2) o‘zlashtirilgan mavzu yuzasidan talabalarga topshiriqlar berish hamda ularni vazifani bajarishning samarali strategiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirish;

3) talabalarni so‘zlash va tinglash madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan suhbatlar tashkil etish;

4) o‘quv faoliyatini qiziqarli hayotiy misollar, taniqli insonlar hayot yo‘llarini yoritib bergan rolklar, jonli uchrashuvlar bilan boyitish;

5) darsni jonlantirish maqsadida “soxta qobiliyatsizlik” usulidan foydalanish;

6) talabalarining e‘tiborini tortish, darsni dinamik qilish maqsadida nutq intonatsiyasini o‘zgartirish.

Talabaning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish muhim vazifa bo‘lib, bu jarayon pedagogdan mas’uliyat va ijodkorlikni talab qiladi, shuningdek, pedagogning harakatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

o‘quv faoliyatini oqilona rejalashtirishi;

talaba faolligini oshirishga yo‘naltirilgan motivatsion yondashuvga asoslanishi;

faol ta’lim metodlarini qo‘llash, talabani faollashtirilgan metodik tizimni ishlab chiqish, o‘quv vositalarini hamda innovatsion shakllaridan foydalana olishi;

o‘qituvchilarni ushbu usul va uslublar bilan qurollantirish, ya’ni o‘qituvchining o‘zi faoliyatini faollashtirish;

talaba shaxsini o‘quv, o‘quv-tadqiqot, o‘quv-ijodiy, tashkiliy ishlarga jalb etishning eng samarali yo‘llarini bilishi, ularni mazkur yo‘nalishlarda harakatini rivojlantirish maqsadida diagnostik metodlar bilan qurollantirib borishi[5,36].

Bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonlari loyihalashtirilganda umumlashgan bilish ko‘nikmalari o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Chunki mazkur jarayonda maqsadga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv vaziyatlari amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarni umumlashgan ko‘nikmalarni egallashga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ularda xususiy xarakterdagi o‘quv-biluv ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Pedagoglarning e’tirof etishlaricha, o‘quvchining muvaffaqiyatlari uning o‘quv-biluv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘qishga bo‘lgan qiziqish o‘quvchilarda bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishdan ruhlengandagina vujudga keladi. O‘quvchi mehnati jarayonida quvonchini his qilsa, qiyinchiliklarni bartaraf etganligidan faxrlansa, o‘quv jarayoniga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘quv mehnatidan quvonish vaziyatini yaratishi kerak. O‘quvchilar qalbida g‘urur va o‘z muvaffaqiyatlariga loyqlik hissini tarkib toptirish lozim. Muvaffaqiyat har bir o‘quvchi erisha olishi uchun qulay bo‘lgan o‘quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta’minlanadi. Mutaxassislar o‘quv vaziyatida o‘quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o‘rin egallashini ta’kidlab kelmoqdalar. Agar o‘quvchiga o‘quv vaziyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyati berilsa, u hayotda ham to‘g‘ri yo‘l tanlay oladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillar, asosli fikrlar asosida quyidagicha xulosalash maqsadga muvofiq: bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash kontekstida, albatta, talabaning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish vazifasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarish o‘qituvchining mahorati va qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Chunki talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, irodaviy sifatlarini rivojlantirish, ularning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish pedagog faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

#### Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. –Toshkent: “Fan va texnologiyalar”. 2015. – B.161.
2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: “Iste’dod”. 2008. – B. 180.
3. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.
4. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta’siri. Psix.fan.nomz...diss. - Toshkent, 2012. – 144 b.
5. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2001.- 68 b.

## YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASI VA IJTIMOY FAOLLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

*Ismatov Shuxrat Ubaydovich,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Maqolada yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni mustahkamlash jarayonida yoshlarning roliga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda pedagogik yondashuvlar va tarbiyaviy vositalarning ahamiyatini ochib beradi.*

**Kalit so'zlar:** fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik, huquqiy madaniyat, pedagogika, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlar.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ И КАЧЕСТВ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У МОЛОДЁЖИ

*В статье рассматриваются педагогические аспекты формирования гражданской позиции и социальной активности молодёжи. Особое внимание уделяется роли молодёжи в укреплении демократических принципов, основанных на национальных и общечеловеческих ценностях. Работа раскрывает значимость педагогических подходов и воспитательных средств во всестороннем развитии молодого поколения.*

**Ключевые слова:** гражданская позиция, социальная активность, правовая культура, педагогика, воспитание молодёжи, духовные ценности.

## PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMING CITIZEN POSITION AND SOCIAL ACTIVITY QUALITIES IN YOUTH

*The article analyzes the pedagogical aspects of developing civic position and social activity among youth. Particular attention is given to the role of youth in strengthening democratic principles based on national and universal values. The study highlights the importance of pedagogical approaches and educational tools in fostering the comprehensive development of the younger generation.*

**Keywords:** civic position, social activity, legal culture, pedagogy, youth education, moral values.

**Kirish.** Jonajon O'zbekistonimizning o'z milliy mustaqilligiga ham 34 yil to'lmoqda. Qadim tarix oldida esa bu juda qisqa davr. Ammo shunga qaramay, mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar, barcha sohalaridagi olamshumul islohotlar, xalqimiz vakillari – ayniqsa, yoshlarimiz ongidagi o'zgarayotgan tafakkur, ertangi kunga bo'lgan ishonch va sobitqadamlik, oldimizga qo'yilgan maqsad sari intilish davrini hech mubolag'asiz asrga, hatto undan ham ko'proq yillarga tatiydigan tarixiy davrga qiyoslash mumkin.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, davlatimiz o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan oq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, qonunlarga rioya qilishga asoslangan adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolarning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali ijtimoiy faolligini oshirish hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish belgilab olindi. Pirovard maqsad — ularning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini kengaytirishga qaratilgan.

Jamiyat va davlat ham o'z navbatida dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalardan, ayniqsa, davlat ichida amalga oshirilayotgan o'zgarishlardan yaxshi xabardor, ijtimoiy faol, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, qonunlarga itoatkor va bilimli kishilarni tarbiyalashdan manfaatdordir.

Milliy odob-axloq normalari hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol insonni tarbiyalash huquqiy demokratik davlatning asosiy vazifasidir. Fuqarolarning ijtimoiy faolligi va o'z fikri, nuqtai nazarlari, ya'ni shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lishi tabiiyki, ushbu davlatning taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan biri hisoblanadi. Buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy ta'kidlab o'tganidek: “Aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi.”

Hech kimga sir emas, hozirgi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari yuz bermoqda. Turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar ochiqchasiga avj olmoqda. Ko'pgina “gegemonlik”ka da'vo qilayotgan davlatlar o'z milliy manfaatlarini amalga oshirish yo'lida siyosat yuritishning barcha maqbul va nomaqbul vositalaridan



foydalanishni avj oldirmoqda. Bunga qo‘shimcha, u yoki bu davlatlar o‘rtasida chegaraviy mojarolar ham qo‘shilmoqda. Turli harbiy bloklarga qo‘shilish istagida bo‘lgan davlatlar ham o‘zlariga “qalqon” izlash orqali o‘z xalqi va fuqarolari noroziligiga sababchi ham bo‘lmoqda. Xullas, dunyo rivojlanib borayotgani sari kamchilik va nuqsonlar ham kattalashib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida tinchlik degan buyuk ne‘matga kelgusida “soya” solishi mumkin bo‘lgan illatlar ham rivojlanib borayotganidan darak beradi.

Mana shunday sharoitda O‘zbekiston oldida xalqimizda, ayniqsa yoshlarimizda yuksak vatanparvarlik va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini hamda ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali milliy birlik hissini mustahkamlashdan ko‘ra muhimroq vazifa yo‘q.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan va 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Bir bo‘lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz” degan bosh g‘oya zamirida ham singdirildi. Nafaqat mustaqillik bayrami, balki undan keyin ham o‘tkazilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ruhdagi targ‘ibot tadbirlari ham aynan ushbu g‘oya asosida o‘tkazib kelinmoqda. Bu bejiz emas, albatta.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan (2023-yil 22-dekabr kuni) va mamlakat ma‘naviy hayotida yangi islohotlar davrini boshlab bergan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ushbu dolzarb masalaga yana bir bor e‘tibor qaratildi. Yig‘ilishda bugungi dunyodagi vaziyat tahlil qilinib, hozir jahon miqyosida taraqqiyot sur‘atlari shiddatli tus olgani, o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta‘siri mamlakatimizda ham sezilayotgani qayd etildi.

“...Tarixdan ma‘lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san‘at namoyandalari, ma‘naviyat va ma‘rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga kirayotgan paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari va zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur...” deya ta‘kidladi [1].

**Asosiy qism.** Darhaqiqat, elni Vatan manfaati birlashtiradi, oldida turgan ulo‘g‘vor maqsad sari xalq ham birlashadi. Navbatdagi vazifa — birlashgan holda Vatan manfaatlariga xizmat qiluvchi yagona maqsad sari harakat qilmoqdir. Ya‘ni, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sa‘y-harakatlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, “boshlandi” emas, “olib borilmoqda” degan so‘zni ishlatayotganimizga sabab — bu harakatlar, ya‘ni Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi harakatlar aslida bundan 7-8 yil oldin boshlangan edi. Mamlakat miqyosida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, shu jumladan ma‘naviy islohotlar 2016-yildan so‘ng boshlangan edi, desak, bu ham haqiqat hisoblanadi. Mazkur yil so‘ngida e‘lon qilingan Prezidentlik saylovida g‘olib chiqqan Shavkat Mirziyoyev xalqimiz oldiga Yangi O‘zbekistonni barpo etish, shuningdek, inson sharafi ulug‘lanadigan ma‘rifatli jamiyat barpo etish kabi ezgu maqsadlarini bayon qilgani va ushbu umidbaxsh g‘oyalar xalqimiz tomonidan iliq kutib olinib qo‘llab-quvvatlangani ham haqiqat.

Bu umidbaxsh g‘oyalar shunchaki orzu emas, balki qadam-ba-qadam amalga oshirilayotgan ulo‘g‘vor maqsad ekanligini xalqimiz dildan his qilgan holda, Vatan manfaatlarini yo‘lida birlashib xizmat qilayotganligi ham aynan reja aniqligi, maqsadning xalqchilligi va olijanobligidadir. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev: *“Yangi O‘zbekistonni barpo etish — bu shunchaki xohish-istak yoki sub‘ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos va milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob‘ektiv zaruratdir”* [2, 3], — deb ta‘kidlagan edi.

Darhaqiqat, mamlakat rahbari ta‘kidlaganidek, Yangi O‘zbekistonni qurish hozirgi davrga kelib ob‘ektiv zaruratga aylandi. Mamlakatimizda uzoq yillar davomida “Davlat—Jamiyat—Inson” tamoyiliga amal qilindi. Davlat qurilishi, davlat boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar va ularning faoliyati ham ushbu tamoyil asosida ish olib bordi.

Bugungi siyosatda esa “Davlat — inson uchun” va “Inson — Jamiyat — Davlat” tamoyili asosida ish olib borilmoqda. Ya‘ni, inson manfaati, uning baxt-saodati davlat siyosatining ustuvor maqsadiga aylangan. Bu esa o‘z navbatida “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” g‘oyasiga hamohang keladi. Ya‘ni, ulug‘vor maqsad sari dadil qadam qo‘yilganidan dalolatdir. Hozirgi O‘zbekistonni ulug‘vor maqsad sari yo‘lga otlanayotgan kishiga o‘xshatish mumkin. Albatta, uzoq safarga chiqishni ixtiyor qilgan kishi, avvalo, o‘ziga sherik, ya‘ni yo‘ldosh ham tanlamog‘i tabiiy hol. Shu ma‘noda, aynan ulug‘vor maqsadga erishish uchun ham, safardagi sherikni tanlagani kabi davlat ham ijtimoiy faol, Vatan oldidagi farzandlik burchi va fuqarolik mas‘uliyatini yaxshi anglagan, mustaqil fikri va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalab borishdan manfaatdordir.

Mamlakatimizda yoshlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik miqyosi va miqdorini hech bir vosita bilan o‘lchashning imkoni yo‘q. Bunday imkoniyatlar hech qachon bo‘lmaganligini nafaqat keksa

avlod, balki talabalik yillarining kuz faslini to qishning boshlanguniga qadar paxta dalasida o‘tkazishga majbur bo‘lgan 45—50 yoshlardagi o‘rta avlod vakillari ham entiqib, ya’ni armon bilan tan olishi va hozirgi zamon yoshlariga havas qilishi tabiiy hol. Yoshlarimizning vazifasi — mana shunday imkoniyat va g‘amxo‘rliklardan unumli foydalangan holda puxta bilim olish, ma’lum kasb-hunar sirlarini mukammal egallab, yurt taqdiriga daxldorligini va uning kelajagiga mas’ul davomchi sifatida his qilib, mamlakat istiqboli va taraqqiyotiga o‘zini tayyorlab borishdan iborat bo‘lishi lozim.

Maqola boshida biz bejizga mamlakat rahbarining Ma’naviyat kengashi yig‘ilishidagi so‘zlariga e’tibor qaratmadik. Takror bo‘lsa-da, qayd etish mumkinki, har bir davlat va jamiyat o‘z fuqarolarining ijtimoiy faol va har sohada etarli bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lishlariga sharoit yaratadi, tarbiyalab boradi va bundan manfaatdordir. O‘z xatti-harakatini baholay oladigan, Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan va uning kelajagi uchun qayg‘uradigan ijtimoiy faol fuqarolarni birlashtirib, ulug‘ maqsadlarga safarbar qilish oson kechadi.

Shuning uchun ham yurtimizda xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish, ya’ni yoshlarimizni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bejiz emaski, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish ularning qay darajada huquqiy madaniyatga ega ekanliklariga ham bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, huquqiy madaniyatga ega kishilar qancha ko‘p bo‘lsa, mamlakatda qonun ustuvorligiga erishish shunchalik oson kechadi va pirovard maqsad — adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishga tezroq erishiladi. Bu sifatlariga ega kishilar bilan esa Yangi O‘zbekistonni bunyod etish va ma’rifatli jamiyat barpo etish kabi umummilliy maqsadlarga erishish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki yuksak huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollik har bir demokratik jamiyat poydevori hisoblanadi.

Darhaqiqat, qonunlarni hurmat qilish, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qatnashish (masalan, turli saylovlar yoki referendum va hokazolar) kabi fuqarolik burchini anglash va bajarib borish ham fuqarolarda ijtimoiy faollik sifatlarining qay darajada shakllanganligiga bog‘liq.

Demokratik islohotlar avj olgan mamlakatimizda hozirgi kunda barcha fuqarolarga mustaqil fikr bildirish (ya’ni, o‘z nuqtayi nazar va shaxsiy pozitsiyasini bildirish), so‘z hamda qarash va shaxsiy tafakkur erkinligi doirasida keng imkoniyatlar yaratib berildi. Davlat organlarining vazifalari (masalan, mahalliy hokimiyatlar) bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlariga o‘tkazilmoqda. Ya’ni, bunda jamiyatni boshqaruv faoliyati kuchaytirilib, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning jamiyat hamda jamoat ishlaridagi ishtirokini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratish zarur? Ma’lumki, yoshlarning jamiyat ishlaridagi faol ishtiroki, avvalo, ularning ong-u tafakkurida Vatanga sadoqat, yurt taqdiriga daxldorlik, ya’ni vatanparvarlik hissining qay darajada ekanligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Buning asosini ularda fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faollik sifatlarining shakllanganligi tashkil qiladi.

Lug‘atlarda “Ijtimoiy faollik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Ijtimoiy faollik – ijtimoiy sub’ektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokinining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi.

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy faollikning 3 turi mavjud:

1. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faollik.
2. Madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi faollik.
3. Mehnat va turmush sohasidagi faollik.

Mehnat faolligi – mehnat munosabatlari sohasida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va madaniy hamda turmush sohasidagi faollik shaxsning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy jarayonlardagi shaxsiy hayot faoliyatida namoyon bo‘ladi” [4, 197].

Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi va har tomonlama barkamollikka erishishida asosiy rol o‘ynaydi. Asosiysi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faollik har bir insonga milliy o‘zligini anglashga yordam berib, Vatan oldidagi burchi va mas’uliyatini chuqur anglaydi va umr bo‘yi unga munosib bo‘lishga harakat qiladi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi nima?

Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini tahlil qilsak, ma’lumki, tushunchadagi “faol” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib — harakat qiluvchi, ta’sirchan degan ma’nolarni bildiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha berilgan:

Biror g‘oyaviy harakat yoki ishga g‘ayrat bilan kirishadigan, ishchan.

Biror jamoaning ijtimoiy faoliyatida ishtirok etuvchi, jamoatchi.

Harakatchan, ko‘p harakat qiladigan [3, 325].

Fuqarolik (fuqaro — arabcha fakir so‘zining ko‘plik shakli) — muayyan davlat Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlardan foydalana oladigan, qonunlarda ko‘rsatib o‘tilgan burchlarni bajarish shart bo‘lgan shaxs. Shuningdek, huquqiy o‘rni qonun bilan mustahkamlangan shaxsning davlat ichida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat‘i nazar, ma‘lum bir davlatga qarashlilikiga fuqarolik deyiladi [4, 629].

Pozitsiya (lotincha so‘z bo‘lib — holat, vaziyat kabi ma‘nolarni beradi): Har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o‘rni, egallab turgan joyi, mavqei va holati. Shaxmat va shashka o‘yinida donalarning joylashish holati [3, 325].

Ma‘lumki, shaxsning fuqarolik pozitsiyasi 2 turga bo‘linadi:

Faol fuqarolik pozitsiyasi.

Nofaol (passiv) fuqarolik pozitsiyasi.

Ya‘ni, faol fuqarolik pozitsiyasi deganda, muayyan mamlakat fuqarosining o‘z yurti taraqqiyotida, tinchligi, ravnaqi va farovonligi uchun harakatchanligi va astoydil faoliyat olib borishi tushuniladi.

O‘z-o‘zidan ma‘lum bo‘ladiki, qaysi davlat va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lmasa, u joyda fuqarolik jamiyati haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Chunki fuqarolik jamiyati erkinlik, qonunga itoatkorlik, ijtimoiy-siyosiy faollik va qat‘iy tartib-intizom asosida vujudga keladi.

“Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish” — o‘z xalqi ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlar, an‘analari, odob-axloq me‘yorlari, turmush tarzi, yuksak ma‘naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat-e‘tibor bilan munosabatda bo‘lish, asrab-avaylash hamda amaliy faoliyati davomida tatbiq eta olish, shuningdek, o‘z davlati oldidagi burch va majburiyatlarini to‘liq anglagan holda ularni amalga oshirish deganidir.

Fuqarolik pozitsiyasi fuqarolarga bolaligidanoq singdirilib borilishi shart. Chunki har qanday jamiyatning kelajagi va taraqqiyoti unda kamolga etayotgan yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, ta‘lim-tarbiyasi, ma‘naviyati va eng asosiysi, fuqarolik pozitsiyasining qay darajada mustahkamlanishiga bog‘liq bo‘ladi [5, 38].

Mamlakatimizda inson omiliga qaratilgan amalga oshirilayotgan islohotlar va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlari haqida to‘xtalib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev quyidagilarni ta‘kidlab o‘tdi:

“Aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish bilan bog‘liq vazifalar ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalari xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish ham diqqatimiz markazida bo‘ladi” [2, 284].

**Xulosa** o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy faollikni oshirish — mamlakatning har bir o‘quvchi va talabasida o‘z xalqining buyuk, shonli o‘tmishi, tarixini o‘rganish, ma‘naviy qadriyatlarini hurmat qilish va bilish, qadrlash, undan faxrlanish, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va yurt taqdiriga daxldorlik hissini tarbiyalab borishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Shular bilan birga, ularda ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish bir qator omillarga bog‘liq ekanligini ham ta‘kidlash joiz. Masalan, uzluksiz tarbiya tizimi yo‘nalishlari tarkibiga kiruvchi quyidagi elementlar (usul, shakl va vositalar)dan foydalanish yaxshi samara beradi:

1. Huquqiy tarbiya.
2. Vatanparvarlik tarbiyasi.
3. G‘oyaviy (mafkuraviy) tarbiya.
4. Huquqiy (fuqarolik) tarbiya.
5. Jismoniy tarbiya.
6. Ekologik tarbiya.
7. Mehnat tarbiyasi.
8. Baynalmilal tarbiya.
9. Badiiy-estetik tarbiya.
10. Iqtisodiy tarbiya va hokozolar.

Shuningdek, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini tarbiyalash hamda ularda fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishda:

- Milliy g‘urur tarbiyasi;
- Tarixiy tafakkur tarbiyasi;
- Diniy bag‘rikenglik tarbiyasi kabi mustaqil yo‘nalishlar sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Uchinchi Renessans poydevorini ma'naviyati yuksak xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi. № 267 (1056), 2023-yil 23-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. — Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. — 440 bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildli, 4-jild. -Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. -B.562.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010.
5. Kaxharova M. va boshq. Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.-Toshkent, “Muharrir nashriyoti”, 2018 yil, -72 b.
6. Исматов Ш. У. Олий таълим муассасаларида талабалар ижтимоий фаоллигини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари // Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 574-578.
7. Ismatov Sh.U. Sharq allomalari merosini o'rganish – yoshlarda ma'naviy salohiyatni tarbiyalash omili sifatida. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 5, 156-161-betlar.
8. Исматов Ш.У. Ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш – ижтимоий фаолликни ривожлантирувчи омил сифатида. // "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali №3(11). 2024. 249-257-бетлар.
9. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов // Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
10. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10017.
11. Олимов Ш. Ш., Сайфуллаева Н. З. Основные принципы развития духовно-нравственного мировоззрения у студентов // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. – 2015. – №. 5 (10). – С. 45-51.
12. Адизов Б. Р., Олимов Ш. Ш. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш имкониятлари // Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 41-47.

## XALQ PEDAGOGIKASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI IFODALANISHNING TARIXIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Ismoilova Gulbahor A‘zamovna,**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ismoilovag352@gmail.com*

**Muhammadjonov Dilshodbek Islomjon o‘g‘li,**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti Pedagogika tarixi va nazariyasi  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti  
muhammadjonovdilshod257@gmail.com*

*Mazkur maqolada xalq pedagogikasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va targ‘ib qilishning tarixiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda xalq pedagogikasining sog‘lom turmush tarzi konsepsiyasiga qo‘shgan hissasi, uning milliy qadriyatlar va urf-odatlardagi ifodasi tahlil qilinib, mazkur sohada qo‘llanilgan metodologiyalar yoritilgan, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda xalq pedagogikasining innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unligini ta‘minlash zarur ekani asoslangan. Ushbu maqola sog‘lom turmush tarzining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** xalq pedagogikasi, sog‘lom turmush tarzi, tarixiy-pedagogik asoslar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, innovatsion yondashuvlar, sog‘lomlashtirish, ta‘lim metodlari.

## ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫРАЖЕНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

*В данной статье освещены историко-педагогические основы формирования и пропаганды здорового образа жизни в народной педагогике. В исследовании анализируется вклад народной педагогики в концепцию здорового образа жизни, её выражение в национальных ценностях и традициях, освещаются методологии, применяемые в этой области, раскрывается значение народной педагогики в развитии здорового образа жизни. По результатам исследования обоснована необходимость обеспечения гармонии народной педагогики с инновационными подходами в формировании здорового образа жизни. Эта статья служит важным источником для изучения теоретических и практических аспектов здорового образа жизни.*

**Ключевые слова:** народная педагогика, здоровый образ жизни, историко-педагогические основы, национальные ценности, традиции, инновационные подходы, укрепление здоровья, методы обучения.

## HISTORICAL-PEDAGOGICAL BASIS OF THE EXPRESSION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN FOLK PEDAGOGY

*This article covers the historical-pedagogical foundations of the formation and promotion of a healthy lifestyle in folk pedagogy. The study analyzes the contribution of folk pedagogy to the concept of a healthy lifestyle, its expression in national values and traditions, highlights the methodologies used in this area, and reveals the importance of folk pedagogy in the development of a healthy lifestyle. According to the results of the study, it is necessary to ensure the compatibility of folk pedagogy with innovative approaches in the formation of a healthy lifestyle. This article serves as an important source in studying the theoretical and practical aspects of a healthy lifestyle.*

**Keywords:** folk pedagogy, healthy lifestyle, historical and pedagogical foundations, national values, traditions, innovative approaches, health promotion, educational methods.

**Kirish.** Xalq pedagogikasi asrlar davomida jamiyatning turli sohalariga ta‘sir etib kelgan xalqning madaniyati, urf-odatlari hamda ma‘naviy qadriyatlari asosida shakllangan. Ushbu pedagogikaning asosiy maqsadi yosh avlodni ma‘naviy yetuklikka, jismoniy sog‘lomlikka hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashga yo‘naltirishdir. Xalq pedagogikasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga oid ko‘pgina boy meros mavjud bo‘lib, ular nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki hozirgi davr uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Sogʻlom turmush tarzi faqat jismoniy faoliyat va salomatlikni saqlash bilan cheklanmaydi, balki insonning ruhiy va ijtimoiy farovonligini taʼminlashni ham oʻz ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, xalq pedagogikasining sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishdagi tarixiy-pedagogik asoslarini oʻrganish, ularni hozirgi zamon taʼlim tizimiga moslashtirish nihoyatda muhimdir.

Mazkur maqolada xalq pedagogikasining sogʻlom turmush tarzini ifodalashdagi tarixiy ildizlari, uning pedagogik jihatlari, shuningdek, bugungi taʼlim-tarbiya jarayonida ahamiyati oʻrganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalq pedagogikasidagi tajriba va bilimlar esa ushbu yoʻnalishda boy metodik vosita boʻlib xizmat qilishi mumkin.

**Munozara.** Xalq pedagogikasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish boʻyicha qadimiy qarashlar va amaliyotlar inson hayotining barcha jabhalariga taʼsir koʻrsatgan. Xususan, xalq maqollari, rivoyatlari va urf-odatlarida sogʻlom hayot kechirish, mehnat qilish, gigiyenaga rioya qilish, toʻgʻri ovqatlanish va jismoniy mashqlar qilish kabi jihatlari keng targʻib qilingan. Masalan, "Sogʻ tanda - sogʻlom aql" kabi maqollar insonning salomatligi va aqliy rivojlanishi oʻrtasidagi bogʻliqlikni ifodalaydi.

Tarixiy manbalarda xalq pedagogikasi orqali sogʻlom turmush tarzini shakllantirish boʻyicha turli tajribalar mavjud. Jumladan, oila tarbiyasida bolalarni mehnatsevarlikka oʻrgatish, oʻz vaqtida dam olish va mehnatni muvozanatlashtirish muhim oʻrin tutgan. Shuningdek, xalq udumlarida bayramlar va tadbirlarda jismoniy mashqlar va oʻyinlar orqali sogʻlom hayotni targʻib qilish anʼanalari mavjud boʻlgan. Bu esa yosh avlodda nafaqat jismoniy, balki maʼnaviy sogʻlomlikni ham shakllantirgan.

Bugungi kunda xalq pedagogikasidagi sogʻlom turmush tarzi bilan bogʻliq tajribalarni zamonaviy taʼlim tizimiga integratsiya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Jumladan, maktab va oila tarbiyasida milliy qadriyatlar asosida sogʻlom turmush tarziga oid maʼlumotlarni kiritish yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi zamonda ekologik muammolar va notoʻgʻri turmush tarzi tufayli yuzaga kelayotgan salomatlik muammolarini bartaraf etishda xalq pedagogikasidan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, xalq pedagogikasidagi baʼzi bir qadriyat va yondashuvlar zamonaviy ilm-fan nuqtayi nazaridan qayta koʻrib chiqilishi zarur. Chunki ayrim urf-odatlar va qarashlar bugungi zamonaviy hayot talablariga toʻliq mos kelmasligi mumkin. Masalan, gigiyena va salomatlik borasidagi eski qarashlarni ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan boyitish lozim.

Umuman olganda, xalq pedagogikasidagi sogʻlom turmush tarziga oid gʻoyalar bugungi taʼlim tizimining ajralmas qismi boʻlishi mumkin. Ular yosh avlodni faqat jismonan sogʻlom emas, balki maʼnaviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan boʻlib, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uygʻunlashtiradi.

**Tadqiqot natijalari.** Sogʻlom turmush tarzi ham har bir xalqning eng muhim tabiiy ehtiyoji hisoblanadi va tarixiy shakllangan anʼanaviy xalq madaniyatining ajralmas qismi sanaladi. Anʼanaviy xalq madaniyati moddiy va maʼnaviy yaxlitlikda insonning sogʻlom turmush tarzini taʼminlashga qaratilgan, tarixiy jihatdan sinalgan koʻp asrlik xalq tajribasining juda katta bilim, koʻnikma va malakalariga ega. Xalq tajribasining bu imkoniyatlarini uning amaliy ahamiyatini hisobga olib, «Xalqning salomatlik pedagogikasi» deb atasak ham boʻladi. Xalq madaniyati ijobiy imkoniyatlarining barchasini hisobga olmasdan, eng asosiysi, yoshlikdan insonni maʼnaviy-yetik va jismoniy qiyofasini izchillik bilan shakllantirmasdan turib, taʼlim va tarbiyada yaxlitlikka erishib boʻlmaydi. Bir soʻz bilan aytganda, xalq tushunchasiga koʻra sogʻlom turmush tarzi faqat jismoniy kuch, chaqqonlik, harakatchanlik va h.larning yigʻindisi emas, balki insonning jamiyatdagi jismoniy va ruhiy muvozanati, axloqiy va sanitar-gigiyenik ozodaligi, yetik vazminligi, psixologik xotirjamligi va boshqalardir.

Xalq pedagogikasi manbalari, tarixiy-etnografik, madaniyatshunoslik, xalq ogʻzaki ijodi va badiiy publitsistik adabiyotlar tahlili sliuni koʻrsatadiki, insonning sogʻlom turmush tarzini taʼminlashga qaratilgan xalq tajribasi juda ham koʻplab ogʻzaki tarbiya vositalarida, jumladan, allalar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar, ertaklar, topishmoqlar, masallar, dostonlarda oʻz aksini topgan. Masalan, «Sogʻlom tanda sogʻ aql», «Tozalik - sogʻliq garovi», «Salomatlik - tuman boylik», «Bola sogʻligi - ona boyligi», «Boshingni salqinda saqla, oyogʻingni - issiqda», «Yurakda oʻt boʻlsin, miyada muz boʻlsin» kabi maqollar shular jumlasidandir. Shuningdek, turli oʻyinlar, mehnat sayillari, kundalikdagi jamoaviy tadbirlar, shaxslararo oʻzaro munosabatlar, urf-odatlar, udumlar, anʼanalari, bayram tomoshalari kabi aralash va yaxlit holda birlashgan tarbiya vositalarida ham sogʻlom turmush tarzi oʻz ifodasini topgan.

Ushbu tadqiqot davomida xalq pedagogikasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan bir qator jihatlari aniqlangan:

**Jismoniy tarbiya va chiniqish:** Xalq pedagogikasida sogʻlom turmush tarzi jismoniy mashqlar, milliy oʻyinlar va mehnat faoliyatlari orqali targʻib qilingan. Ushbu amaliyotlar nafaqat jismoniy sogʻlomlikni, balki insonning irodaviy sifatlarini ham rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Jismoniy tarbiya va chiniqish inson

salomatligini mustahkamlashda va umumiy hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar tananing jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash, immunitetni kuchaytirish hamda kasalliklarga qarshi turish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va harakatlardan iborat. Uning asosiy maqsadi:

**Sogʻlomlikni mustahkamlash:** Yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi va boshqa organlarning funksiyasini yaxshilash.

**Jismoniy shaklni yaxshilash:** Qomatni toʻgʻri saqlash va mushaklarning rivojlanishini taʼminlash.

**Harakat koordinatsiyasini oshirish:** Moslashuvchanlik, tezlik, chidamlilik va muvozanatni rivojlantirish.

**Ruhiy salomatlikni yaxshilash:** Stressni kamaytirish va kayfiyatni koʻtarish.

Asosiy faoliyat turlari:

Jismoniy mashqlar (yugurish, suzish, sport oʻyinlari);

Yoga va meditatsiya;

Sport zal mashgʻulotlari;

Guruhiy va individual mashgʻulotlar.

Chiniqish — bu tananing tashqi muhitga, ayniqsa harorat oʻzgarishlariga chidamliligini oshirish uchun olib boriladigan maxsus jarayon. Chiniqish organizmning tabiiy himoya mexanizmlarini kuchaytiradi va quyidagi usullardan iborat:

**Suv bilan chiniqish:** Sovuq suvda choʻmilish yoki dush qabul qilish.

**Havo bilan chiniqish:** Ochiq havoda mashgʻulot oʻtkazish va toza havoda yurish.

**Quyosh nuri bilan chiniqish:** Toʻgʻri tartibda quyosh vannasi olish.

Chiniqishning foydalari:

Immunitetni kuchaytiradi;

Sovuq va boshqa infeksiyon kasalliklarga qarshi chidamlilikni oshiradi;

Tana termoregulyatsiyasini yaxshilaydi.

Jismoniy tarbiya va chiniqishni asta-sekin boshlash kerak.

Faoliyatning intensivligini yosh, salomatlik holati va jismoniy tayyorgarlikka qarab moslash lozim.

Davomiylik va muntazamlik muhimdir — bir marta mashq qilish yoki chiniqish sezilarli natija bermaydi.

Toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom uyqu bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

**Maʼnaviy-axloqiy tarbiya:** Sogʻlom turmush tarzi insonning ruhiy holati va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Maqollar, dostonlar va xalq ertaklari orqali yosh avlodga sogʻlom hayotning ahamiyati tushuntirilgan.

**Oilaviy va jamoaviy tarbiya:** Xalq pedagogikasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda oilaning oʻrni alohida taʼkidlangan. Oila doirasida bolalarga sogʻlom hayot tarziga oid qoidalarning oʻrgatilishi ularning jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs boʻlib shakllanishiga zamin yaratgan.

**Tabiat bilan uygʻunlik:** Xalq pedagogikasida tabiatni asrab-avaylash, tabiat qoʻynida hordiq chiqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sogʻlom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, xalq pedagogikasida shakllangan sogʻlom turmush tarzi boʻyicha yondashuvlar zamonaviy taʼlim tizimida foydalanish uchun boy imkoniyatlar yaratadi. Bu esa yoshlarni har tomonlama sogʻlom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga koʻmaklashadi.

Sogʻlom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishishiga sabab boʻladi. Sogʻlom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib oʻtish, hayot qiyinchiliklari oldida oʻzini yoʻqotmaslikka oʻrganadi.

Suxravardiya tariqatining vakili mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Saʼdiy Sheroziy inson salomatligi meʼyori haqida ajoyib fikrlar bildirgan:

“Boʻlsin qattiqligi, yumshoqliq boham,

Tabib ham kesaru, ham qoʻyar malham.

Dono kishi qattiq boʻlmaydi doim,

Qadri ketar boʻlsa hamon muloyim”.

Sogʻlom turmush tarzi haqida Sharq Renessansi davri mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning asarlarida koʻplab maʼlumotlarni uchratamiz. Mutafakkir oʻz umrini inson salomatligi meʼyori oʻrganishga bagʻishladi. Uning asosiy tadqiqot obʼekti, salomatlik va bemorlik meʼyorlarini oʻrganish boʻlgan. Ibn Sino

nuqtai nazarida, sifat miqdordan ayrilgan emas. Xuddi shuningdek, sifat va miqdorning yagonaligi va yaxlitligi, bir-birini taqozo etishi, aslo ularning bir-biriga qo‘shilib ketganini bildirmaydi. Ibn Sinoning yutug‘i shundaki, sifat va miqdor belgilarini farqlay oldi. Mutafakkirning fikriga ko‘ra inson sog‘lom bo‘lishi uchun o‘z tanasidagi yetti muvozanatga qat‘iy amal qilmog‘i shart. Bular quyidagilardir:

1. Tana (organizm) mutanosibligi;
2. Ovqat va ichimlik tanlash;
3. Gavdani ortiqchalikdan xoli etish;
4. Tana a‘zolari joylanish to‘g‘riligi, mutanosibligini saqlash;
5. Burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish;
6. Kiyiladigan kiyimlarni muhitga moslab tanlash;
7. Jismoniy va ma‘naviy harakatlar mu‘tadilligi”.

Umuman olganda Abu Ali ibn Sinoni “Sog‘liqni saqlash ilmi”, “Sog‘lom turmush tarzi”, “Sog‘lom avlod”, “Ruhiiy salomatlik”, “Sog‘lom tabiiy muhit” konsepsiyalarining asoschisi deb hisoblasak xato bo‘lmaydi.

**Xulosa.** Xalq pedagogikasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi asrlar davomida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasida shakllangan qadriyatlar, an‘analar va tajribalar zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimi uchun boy metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, jismoniy tarbiya, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, oilaviy qadriyatlar va tabiat bilan uyg‘unlik kabi jihatlarda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda asosiy omillar sifatida ko‘riladi.

Bugungi kun talablariga mos ravishda xalq pedagogikasidagi yondashuvlarni ilmiy asoslangan shaklda ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish muhimdir. Bu nafaqat sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda, balki yoshlarning shaxs sifatida ma‘naviy yetuklikka erishishida ham ijobiy samara beradi. Xalq pedagogikasining boy tajribasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unlashuvi ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shunday ekan, xalq pedagogikasining sog‘lom turmush tarziga oid merosini o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish nafaqat milliy tarbiya tizimining rivojlanishiga, balki jamiyatning barqaror va sog‘lom taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Bu esa sog‘lom avlodni tarbiyalashning dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Abduvaliev, A. Xalq pedagogikasi: an‘analar va qadriyatlar. – Toshkent: Uzbekiston Milliy universiteti nashri, 2005.
2. Abdullaev, H. O‘zbek xalq maqollari va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 1975.
3. Gafforov, J. Sog‘lom turmush tarziga oid milliy an‘analar va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Ta‘lim nashriyoti, 2020.
4. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
5. Hasanova, M. Oilada tarbiya va sog‘lom turmush tarzi. – Toshkent: Ma‘rifat, 2013.
6. Azamovna, I. G. (2022). Development of the ecological culture of future teachers by improving the quality of Education (“On the example of the science «The newest history of Uzbekistan”). // International journal of social science & Interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(11), 386-390.
7. Исмоилова, Г. А. (2020). Ўзбекистон тарихи таълими жараёнида талабаларда экологик маданиятни ривожлантириш. // Современное образование (Узбекистан), (11 (96)), 45-51.



## OILA MUSTAHKAMLIGIDA OILA TIPLARI VA OILAGA OID PSIXOLOGIK USTANOVKALARNING TA’SIRI

*Ismoilova Shaxlo Valijonovna,*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika insituti o‘qituvchisi*

*Maqolada oila va uning tuzilishlari, oila institutining turlari, oilada farzand munosabatlari, oilaviy hayot moddiy va ma'naviy jarayonlar bilan tavsiflanishi, oila turiga ko'ra to'liq, to'liq bo'lmagan, yadroli, farzandsiz, katta oilalar, yoshlar va boshqalarga bo'linishi borasidagi olimlarning fikrlari, oila mustahkanligiga ta'sir etuvchi omillar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oila, stimul, ta'sir, ong, individ, munosabat, muloqot, jarayon, hayot, liberal, bola, shaxs.*

## ВЛИЯНИЕ НА ПРОЧНОСТЬ СЕМЬИ ТИПОВ СЕМЬИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСТАНОВОК К СЕМЬЕ

*В статье представлены взгляды учёных на семью и её структуру, виды семейного института, отношения между родителями и детьми в семье, характеристику семейной жизни с точки зрения материальных и духовных процессов. Рассматривается классификация семей по типу: полные, неполные, нуклеарные, бездетные, многопоколенные, молодые семьи и другие. Также описываются факторы, влияющие на прочность семьи.*

**Ключевые слова:** *семья, стимул, влияние, сознание, индивид, отношение, общение, процесс, жизнь, либерал, ребёнок, личность.*

## THE INFLUENCE OF FAMILY TYPES AND PSYCHOLOGICAL ATTITUDES RELATED TO THE FAMILY ON FAMILY STRENGTH

*The article describes the views of scientists on the family and its structures, types of family institutions, child relationships in the family, the description of family life by material and spiritual processes, the division of families into complete, incomplete, nuclear, childless, large families, young people, and others, and the factors affecting family stability.*

**Keywords:** *family, stimulus, influence, consciousness, individual, attitude, communication, process, life, liberal, child, person.*

**Kirish.** Oila jamiyatning birligi (kichik ijtimoiy guruh), tashkilotning eng muhim shaklidir, shaxsiy hayot, nikoh ittifoqi va oilaviy aloqalarga asoslangan. Munosabatlar er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqalar o'rtasida birga yashaydigan va yakka asosida umumiy xo'jalik yurituvchi qarindoshlardan tashkil topgan. Oilaviy hayot moddiy va ma'naviy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Oila turiga ko'ra to'liq, to'liq bo'lmagan, yadroli, farzandsiz, katta oilalar, yoshlar va boshqalarga bo'linadi. Muayyan oilaning ko'proq yoki kamroq xarakteristikasi barqaror hissiy kayfiyat odatda psixologik iqlim deb ataladi, (sinonim - psixologik muhit). Bu oilaviy muloqotning natijasidir ya'ni oila a'zolarining kayfiyati, ma'naviyatining umumiyligi natijasida vujudga keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar oiladagi psixologik iqlimning ikki turini ajratib ko'rsatishadi: qulay va noqulay. Oilalarning katta qismi qarama-qarshi psixologik iqlim bilan ajralib turadi. Qulay psixologik iqlimning dastlabki asosi nikohdir. Oila tarkibi aholini ro'yxatga olishda hisobga olinadi va jamiyat va davlat hayotida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda turli xil tashkil etilgan oilalarning ko'plab turlari mavjud: Masalan, monogam oila ko'pxotinli oiladan, qoida tariqasida, ikki sherikdan iboratligi bilan farq qiladi. Ko'pxotinli oilada turmush o'rtoqlardan biri bir vaqtning o'zida bir nechta turmush o'rtog'iga ega bo'lishi mumkin. Oila bir jinsli yoki turli jinsli bo'lishi mumkin. Oilalar bolalar soniga ko'ra farq qilishi mumkin va bir necha turlarga bo'linadi: farzandsiz oila; bir bolali oila (1 bola); kichik oila (1-2 bola); o'rtacha oila (3-4 bola); katta oila (5 yoki undan ortiq bola). Zamonaviy jamiyatda yadro oilasi eng keng tarqalgan. Yadro oila nima va uning o'ziga xos xususiyati nimada? Yadro oila farzandli yoki farzandsiz bitta er-xotindan iborat. Murakkab oilaga bir necha avlodlar (bobolar, buvilar, opa-singillar va ularning erlari, aka-uka va ularning xotinlari, jiyamlari va boshqalar) kiradi.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud Axloq” kitobida quyidagi ibratli o'g'itlarni

aytgan edi: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim”. Oilada kattalarning obro‘si qo‘rqitish asosida emas, balki samimiylilik, o‘zaro hurmat-ehtiroam zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a‘zolarining inoqligi, o‘zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, o‘zga kishilar to‘g‘risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlarini bolaning murg‘ak tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi.

Oila qon qarindoshchilik, (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy inistut vazifasini o‘taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, nukliar oila deyilad) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a‘zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma‘naviy mas‘uliyati bilan bir-biriga boglangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a‘zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta‘sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib guruhli oila paydo bo‘lgan. Lekin, bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya‘ni jinsiy munosabatlar doirasidan qonqarin-doshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish — chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mah-sulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqei ham tubdan o‘zgardi. Mavjud qoida tartiblari — farzandlarning onagagina tegishli bo‘lishi, ona mulkiga merosxo‘r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi. Natijada ota xuquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o‘tmishdoshi — monogam oila vujudga kelgan.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarini singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa Oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma‘rifatini ham belgilashga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma‘naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saran-jom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlarini bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Oila va nikoh hamma vaqt ham gumanitar fanlarni qiziqtirib kelgan soha. Ayniqsa, bu sohaning ijtimoiy psixologiya uchun o‘ziga xosligi bor. Chunki, ijtimoiy psixologiya oilani o‘ziga xos ijtimoiy guruh sifatida tekshirib, unda sodir bo‘ladigan barcha ruhiy jarayonlarni o‘rganadi. Respublikamizda sila va nikoh masalalariga e‘tiborning kattaligi hisobga olib, ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlarini ana shu muammolarga bagishlaganlar (M.Mirxosilov, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.Rasuleva, S.Sog‘inov, U.Mahkamov va boshqalar). Oilaga bo‘lgan ilmiy qiziqishning sabablari avvalo bu ob‘ektning "naqdligi" bo‘lsa, ikkinchi tomondan, oxirgi yillarda, hattoki bizning respublikamizda ham ajralishlarning ko‘payganligi, tug‘ilishning shahar va qishloqlarda bir tekisda emasligi, "muammoli" oilalarning ko‘payib borayotganligi, oila institutiga yoshlar munosabatlarining o‘zgarib borayotganligi va boshqalardir.

Jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirgan 21-asr oila sohasini ham chetlab o‘tmadi. O‘tmishdagi eng mustahkam institutlardan biri qulab tushdi. Oila tarbiyada ham ijobiy, ham salbiy omil sifatida harakat qilishi mumkin. Bolaning shaxsiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi jihati shundaki, unga eng yaqin kishilar – ona, ota, bobo, buvi, aka, opa-singildan boshqa hech kim bolaga yaxshi munosabatda bo‘lmaydi, uni shunchalik sevadi, unga g‘amxo‘rlik qilmaydi. Va shunga qaramay, boshqa hech qanday ijtimoiy institut bolalar tarbiyasiga oila kabi zarar etkaza olmaydi. So‘nggi yillarda ilmiy bilimlarning turli sohalari mutaxassislari,

ham nazariyotchilar, ham amaliyotchilar: psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar orasida oilaga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Unga bo‘lgan qiziqish shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o‘ynaydigan roli, demak, butun jamiyatning buguni va kelajagi bilan bog‘liq. Oila oila ichidagi munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar orqali jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga juda sezgir munosabatda bo‘ladi. Ijtimoiy rivojlanishning o‘tish, inqirozli davrlarida muammoli oilalar sonining ko‘payishi bu qaramlikni ko‘rsatadi. Ota-onalar va bolalar munosabatlari tizimini o‘rganib chiqib, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rish va har xil turdagi oilalarda ota-ona munosabatlari bola tarbiyasiga, hozirgi va uning kelajagiga qanday ta‘sir qilishini kuzatish mumkin.

Oilada qulay muhit yaratish va bolaning to‘g‘ri tarbiyalanishini ta‘minlash uchun aytilmagan "qonunlar" (qoidalar) bo‘lishi kerak, agar ular buzilgan bo‘lsa, ota-bola aloqasi yo‘qolsa, tarbiya noto‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lsa; Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlar muammosi (er-xotin va ota-ona) dolzarb bo‘lib, yanada ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Oilaning alohida tarbiyaviy roli bilan bog‘liq holda, oilaning bola tarbiyasiga ijobiy ta‘sirini maksimal darajada oshirish va salbiy ta‘sirini minimallashtirish haqida savol tug‘iladi. Buning uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan oila ichidagi ijtimoiy-psixologik omillarni, ota-ona va bola munosabatlarining bola tarbiyasiga qanday ta‘sir etishini to‘g‘ri aniqlash zarur.

Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar muammosi bilan mashhur rus o‘qituvchilari: A.P. Spivakovskaya (muammoli oilani aniqlashning ta‘kidlangan yondashuvlari), E.T.Sokolova (ota-bola munosabatlarining uslublari aniqlangan), V.I.Garbuzova (tarbiyaning patogen turlari aniqlangan), F.S.Maxov (bolaning shaxsiyati va xulq-atvoriga salbiy ta‘sir nuqtai nazaridan oilalar guruhlarini aniqladilar), A.E.Lichko va E.G.Eydemiller (psixopatiyali bolalarni oilaviy tarbiyalash masalalarini o‘rgandilar), V.V.Yustitskis (ijtimoiy munosabatlarni, ustun manfaatlarni hisobga olgan holda oila turlarini aniqladi) va boshqalar. Xorijiy mualliflar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: G.Navaitis (oila masalalarini kichik guruh sifatida o‘rgangan oilaviy psixolog), amerikalik psixolog L. Vyersmer (oilaviy muloqotning buzilishi asosida oilalarni aniqlagan), amerikalik psixolog va psixoterapevt K. Whitaker (oila tipologiyasi masalalarini o‘rganadi, hissiy va psixologik iqlim nuqtai nazaridan); Chex demografi va sotsiologi K.Vitek (er-xotin munosabatlarining emotsional ohangi ustida tadqiqot olib borgan) va boshqalar. Xususan, bir qator mualliflarning ta‘kidlashicha, oilaviy ta‘lim tizimining buzilishi va "ona-bola" munosabatlaridagi nomutanosiblik bolalarda nevrozlarning paydo bo‘lishiga olib keladigan asosiy patogenetik omil hisoblanadi. Masalan, A.E.Lichko va E.G.Eidemiller xarakterli xususiyatlar va psixopatiyaga ega bo‘lgan bolalarni oilada tarbiyalashning olti turini aniqladi.

Gipoproteksiya (gipo-vasiylik) bolaga zarur g‘amxo‘rlikning yo‘qligi bilan tavsiflanadi ("qo‘llar bolaga yaqinlashmaydi"). Bunday turdagi munosabatlarda bola o‘zini tashlab ketgandek his qilib, amalda o‘z holiga qo‘yiladi.

Dominant giperproteksiya bolani haddan tashqari, obsesif g‘amxo‘rlik bilan o‘rab olishni, uning mustaqilligi va tashabbusini butunlay blokirovka qilishni o‘z ichiga oladi. Haddan tashqari himoya qilish ota-onaning bola ustidan hukmronligi shaklida namoyon bo‘lishi mumkin, bu uning haqiqiy ehtiyojlarini e‘tiborsiz qoldirish va bolaning xatti-harakatlarini qattiq nazorat qilishda namoyon bo‘ladi. (Masalan, ona o‘smirning noroziligiga qaramay, uni maktabga olib boradi.) Bunday turdagi munosabatlar dominant haddan tashqari himoyalani deb ataladi. Giperproteksiyaning variantlaridan biri bu ota-onalarning bolaning barcha ehtiyojlari va injiqliklarini qondirish istagida namoyon bo‘ladigan indulgent giperproteksiya bo‘lib, unga oilaviy but rolini yuklaydi. Hissiy rad etish bolaning barcha ko‘rinishlarida rad etilishida namoyon bo‘ladi. Rad etish o‘zini ochiq namoyon qilishi mumkin (masalan, bola ko‘pincha ota-onadan: "Men sizdan charchadim, keting, meni bezovta qilmang" kabi iboralarni eshitadi) va yashirincha - masxara, kinoya, masxara shaklida.

Suiiste‘mol munosabatlari ochiqdan-ochiq, kaltaklash shaklida yoki yashirin ravishda, hissiy dushmanlik va sovuqqonlik shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Axloqiy mas‘uliyatning ortishi bolaning o‘zining maxsus kelajagiga umid qilib, yuksak axloqiy fazilatlarini namoyon etishi talabida namoyon bo‘ladi. Ushbu turdagi tarbiyaga rioya qilgan ota-onalar bolaga boshqa oila a‘zolarining g‘amxo‘rliigi va homiyligini ishonib topshiradilar.

**Natijalar.** Noto‘g‘ri tarbiya bolaning potensial xarakterdagi buzilishlarini kuchaytiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Xarakterning urg‘usi an‘anaviy ravishda me‘yorning ekstremal variantlarini ifodalovchi individual xarakter xususiyatlarining haddan tashqari ifodasi va ularning kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Urg‘u qilingan belgilar ma‘lum psixotraumatik ta‘silarga nisbatan zaiflikning kuchayishi bilan tavsiflanadi. E.T. Sokolovanning tadqiqotida, muammolarni birgalikda hal qilishda ona va bolaning o‘zaro ta‘sirini tahlil qilish asosida ota-ona va bola munosabatlarining asosiy uslublarini aniqladi:

◆ hamkorlik;

- ◆ psevdokooperatsiya;
- ◆ izolyatsiya;
- ◆ raqobat.

Hamkorlik munosabatlar turini nazarda tutadi, unda bolaning ehtiyojlari hisobga olinadi va unga "avtonomiya" huquqi beriladi. Kattalar ishtirokini talab qiladigan qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatiladi. Oilada yuzaga kelgan muayyan muammoli vaziyatni hal qilish variantlari bola bilan birgalikda muhokama qilinadi va uning fikri inobatga olinadi.

Pseudo-kooperatsiya kattalar hukmronligi, bolalar hukmronligi kabi turli xil variantlarda amalga oshirilishi mumkin. Pseudo-hamkorlik ochiq xushomadgo'ylik bilan birga rasmiy o'zaro ta'sir qilish bilan tavsiflanadi. Pseudo-qo'shma qarorlar boshqasidan mumkin bo'lgan tajovuzdan qo'rqan sheriklardan birining shoshilinch roziligi bilan erishiladi. Alohida holatda, hamkorlik va sa'y-harakatlarning birlashishi to'liq yo'q, bir-birining tashabbuslari rad etiladi va e'tiborga olinmaydi, o'zaro ta'sir ishtirokchilari bir-birini eshitmaydi va his qilmaydi. Raqobat uslubi o'z tashabbusini himoya qilish va sherikning tashabbusini bostirishda raqobat bilan tavsiflanadi. Muallifning ta'kidlashicha, faqat hamkorlikda, qo'shma qarorni ishlab chiqishda kattalar va bolaning o'z takliflari qabul qilinganda, sherikni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Shu sababli, bu turdagi o'zaro ta'sir bolani ijodkorlikka undaydi, o'zaro qabul qilishga tayyorlikni shakllantiradi va psixologik xavfsizlik hissi beradi. Umuman olganda, bizning xududimizda ham oila-nikoh munosabatlari yil sayin o'zgarib bormoqda. Bu borada o'zgarishlarga: 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o'zgarib borishi; 2) oila a'zolari sonining va tug'ilishning kamayishi, murakkab ko'p oilali tipdan, alohida mavjud bo'lgan alohida oilalar tipiga aylanib borayotganligi; 3) oilaviy munosabatlar tizimida er va xotin funksiyalarining o'zgarib, oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarib borayotganligi; 4) iqtisodiy inqirozlarning oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri; 5) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o'zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin. Bu aytib o'tilgan sohalar O'zbekiston sharoitida shu yaqin kunlarda ishlanishi kerak bo'lgan muammolar bo'lib, ularning echimiga ko'ra oilani rejalashtirish, oilada bolalar tarbiyasi, ayol va erkaklar mehnatiga munosabat kabilari bo'yicha olimlar o'z fikrlarini aytishlari kerak.

**Muhokama.** Oila va nikoh borasida o'tkaziladigan tadqiqotlarda jahon va hamdo'stlikdagi davlatlarda o'tkazilgan izlanishlar, ulardan olingan natijalar va metodikalardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, Sankt-Peterburg, Boltiqbo'yi respublikalarida oila masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'plab o'tkazilgan bo'lib, ularning tajribasidan biz ham keng foydalanishimiz kerak. Chunki bu xududlarda ro'y berayotgan ko'plab ijtimoiy jarayonlar, xususan, oilaviy munosabatlar borasidagi muammolar bizning jumhuriyatimizga ham taalluqlidir. Masalan, ayollarning ijtimoiy mehnatda bandligi tufayli ularda oila, unda xotin kishining o'rni, roli haqidagi tasavvurlarning o'zgarishining o'zi butun psixologiyani qayta qurilishiga sabab bo'lmoqda. Lekin, ikkinchi tomondan, demokratiya va erkinlik sharoitida yillar davomida taqiqlanib kelgan eski kadriyatlarimiz, birinchi navbatda, dinning hayotga kirib kelishi, umuman oilaviy munosabatlarga shunday ta'sir ko'rsatmoqdaki, ko'pchilikda "endi ayol kishi an'anaviy o'z o'rnini egallarmikin?" degan tasavvurlar ham paydo bo'lmoqda. Ammo, hozirgi rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida moddiy ishlab chiqarishni xotin-qizlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqotlar odamlar ongidagi ana shunday qarama-qarshiliklarning psixologik echimini topgan holda oila va nikoh tizimiga psixologik yordam ko'rsatishi zarur. Shaharlarda va yirik aholi punktlarida "oila xizmati" shohobchalarini tashkil etish zarurki, ular bir tomondan, oila va nikoq borasidagi ilmiy muammolarni tadqiq qilib, ularni hayotga tadbiq qilsa, ikkinchi tomondan, yoshlarga, oilasiz odamlarga, ziddiyatli oilalarga bevosita psixologik xizmatlar ko'rsatishi kerak.

**Xulosa.** Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi, bola dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo'lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko'nikma va malakalar manbaidir.

Bu oilaviy tarbiya jarayonida sayqallanib boradi, tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat bo'lib, tarbiyaning mazmuni, yo'nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog'liq.

Kishi shu munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orqali olamni anglaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruxida tarbiya topadi, chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruxiy olamiga, xissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi ma`naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g`oyat muhim ahamiyatga ega bo`lib, oila a`zolarining turmush tarzi ko`p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xisseyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog`lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda jamiyat oldida mas`uldir.

Oilada tarbiya topgan har bir inson xar jihatdan umuminsoniy axloqiy, ilmiy, e`tiqod va boshqa sohalarda kamolotga yetgan hislatlarni o`zida mujassamlashtirgan bo`lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o`zligini taniy boshlaydi.

Komillik insonning adolatli bo`lishi, haqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, o`z xatolarini anglab, ulardan xalos bo`lishga xarakat qilishi demakdir, ma`naviyatni boyitish, iymon-e`tiqodli, aql-zakovatli bo`lish kishilarni g`aflatdan uyg`otadi, barcha ezgu tilaklarini ro`yobga chiqaradi.

Yosh avlodni barkamol, sog`lom, Vatan tuyg`usini his qila oladigan shaxs qilib voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog`liqdir.

Yosh avlodda kelajakka bo`lgan ishonch hissini uyg`otish uchun esa, ajdodlarimizning ma`naviy-axloqiy merosini chuqur o`rgatish, ularning iste`dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo`naltirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko`payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto`g`ri foydalanishi, o`smirlarning bir qismida hayotga iste`molchilik, boqimandalik nuqtai nazardan qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boylik orttirish kayfiyati kuchayadi.

Oilaviy munosabatlar sohasidagi alohida tadbqiqiy tarmoq bu yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir. Bu ish bizning o`lkamizda ham alohida ahamiyatga ega bo`lib, yangilik bilan eskilik qarama-qarshi kelayotgan sharoitlarda ayniqsa muhimdir. O`smirlik va o`spirinlik yillarida shakllanadigan attraksiya hodisasi, ya`ni shaxslarning bir-birlariga emosional bog`lanishlari — do`stlik, sevgi hislarini tarbiyalash, ana shunday tarbiyaga shart-sharoitlar yaratish bizning o`rta Osiyo sharoitlarimizda yangi va kelajagi porloq sohalardandir. Bu ishlarni amalga oshirishda maktab psixologlari, pedagoglar, ijtimoiy psixologlar hamkorlikda ishlasalar, olingan xulosa va natijalarni hayotga tadbqiq etsa bo`ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Кулик Л. А., Берестов Н. И. Семейное воспитание. - М., Просвещение, 1990г.
2. Обухова Л. Ф., Шаграева О.А. Семья и ребенок: Психологический аспект детского развития. М., 1999.
3. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс: учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999.
4. Куликова Т.А. Семейная педагогика и домашнее воспитание. – М.: Академия, 2000.
5. Аллан Фромм "Азбука для родителей" - Лениздат, 1991.
6. Лисина М.И. Семейное воспитание. — М., Просвещение, 1990.
7. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. T.: TDPU, 2004, 89 b.
8. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya: o`quv qo`llanmasi. – T., 2007. – 166 b.

**PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM DAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

*Ismoilova Yulduzxon Turayevna,*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

*Pedagogika kafedrası katta o‘qituvchisi*

*yulduzismoilova1234@gmail.com*

*Ushbu maqolada pedagogik konfliktologiya o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni to‘g‘ri hal qilish, ijtimoiy-psixologik muammolarni oldini olish va ularga to‘g‘ri yondashish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘rgatishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar bu sohada ta’limni yanada interaktiv, real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan va individual yondashuv bilan ta’minlashi mumkinligi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** konflikt, pedagogik konflikt, o‘qitish, raqamli ta’lim, ziddiyat, xulq-atvor, munosabat, yondashuv.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОНФЛИКТОЛОГИИ**

*В данной статье речь идёт о том, что педагогическая конфликтология обучает знаниям, необходимым для правильного разрешения конфликтов, возникающих между учителями и учащимися, предотвращения социально-психологических проблем и правильного подхода к ним. Также представлена информация о том, что цифровые технологии могут обеспечить образование в этой области более интерактивным, приближенным к реальным ситуациям и индивидуальным подходом.*

**Ключевые слова:** конфликт, педагогический конфликт, преподавание, цифровое образование, конфликт, поведение, отношение, научный, теоретический, подход.

**SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF THE USE OF DIGITAL EDUCATION IN TEACHING PEDAGOGICAL CONFLICTOLOGY**

*This article discusses how pedagogical conflictology teaches teachers the knowledge necessary to properly resolve conflicts between teachers and students, prevent and properly approach socio-psychological problems. It also provides information on how digital technologies can make education in this area more interactive, closer to real situations, and provide an individual approach.*

**Keywords:** conflict, pedagogical conflict, teaching, digital education, behavior, attitude, scientific, theoretical, approach.

**Kirish.** Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalaridan foydalanish, oliy ta’lim va raqamli texnologiyalarning transformatsiyasini ta’minlash ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. Ilmiy jamoatchilik, siyosatchilar, iqtisodchilar, raqamli texnologiyalar mutaxassislari, balki butun jamiyat raqamli texnologiyalar rivojlanishini diqqat bilan kuzatib bormoqda. Haqiqatdan ham ular jadal rivojlanmoqda va asrlar davomida shakllangan ijtimoiy munosabatlar tamoyillarini sezilarli darajada o‘zgartirayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarni egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo‘ldan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta’kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash maumkinligi asoslab berdi. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar,

texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi[1].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tarqatish tezligi bilan bog’liq raqamli texnologiyalarning so’zsiz afzalliklari bugungi kunda aniq. Zamonaviy elektron kompyuterlar, ilovalarga ega gadjetlar va boshqa raqamli texnologiyalar inson mehnatini ming martalab tezlashtirishga imkon bermoqda va ba’zi sohalarda uni butunlay yo’q qilmoqda. Albatta, yangi turdagi ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining barcha holatlarida bo’lgani kabi, iqtisodiyot va biznes birinchi o’rinda turadi. Albatta, zamonaviy ta’lim ham bu jarayonlardan chetda qolmaydi. Bugungi kunda “Ta’lim to’g’risida”gi qonunga muvofiq, har qanday ta’lim tashkilotlarida masofaviy kirish uchun mavjud bo’lgan raqamli platformalar va masofaviy ta’lim tizimi bo’lishi shart.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’limning barcha bosqichlarida keng qo’llanilmoqda. Bu jarayon ta’lim sifatini oshirish, o’quvchilarni o’zlashtirishga yordam berish va o’quv jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Konfliktologiya fanini raqamli texnologiyalar yordamida o’qitish o’quv materialini yanada tushunarli va qiziqarli qilish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali qo’llay oladigan o’qituvchilarga talab yuqori. Shu sababli pedagogik konfliktologiya fanini o’qitishda raqamli vositalardan foydalanishni takomillashtirish o’qituvchilarning malakasini oshirish va ularning pedagogik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik konfliktologiya o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasida yuzaga keladigan nizolarni to’g’ri hal qilish, ijtimoiy-psixologik muammolarni oldini olish va ularga to’g’ri yondashish uchun zarur bo’lgan bilimlarni o’rgatadi. Raqamli texnologiyalar bu sohada ta’limni yanada interaktiv, real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan va individual yondashuv bilan ta’minlashi mumkin.

Jamiyatda va pedagogik faoliyatda sodir bo’layotgan ko’plab jarayonlar kommunikativ madaniyat muammolari hisoblanadi. Shu sababli, nizolarni keltirib chiqaradigan omillarni kamaytirishga va maktab va universitet jamiyatining rasmiy va norasmiy tuzilmalarida ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan sog’liqni saqlashni tejaydigan texnologiyalarni pedagogik amaliyotga joriy yetish muhimdir.

Ilmiy ishlar tahlili shuni ko’rsatdiki, pedagogik konfliktlarning turlarini S.Y.Aksenenko, M.Axmedova A.Y.Antsurov, A.I.Dontsov o’rgangan bo’lsa-da, pedagogik nazariyada konfliktning aniq ta’rifi yo’q., B.R.Jiznevskiy, Y.L.Kolominskiy, D.M.Mallayev, L.A.Retrovskaya, T.A.Rerina, A.A.Royak, M.M.Rybakova, A.I.Shirilov va boshqa ko’plab olimlar tomonidan tahlil etilgan.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish N.A.Kayumova D.P.Xashimova, A.A.Omonov, S.K.Haydarova, M.X.Hakimov, S.S.Ortiqov, B.M.Suropov, T.N.Jo’rayev, A.B.Raximov, A.A.Ashurov, F.A.Anarbayevalar tomonidan amalga oshirilgan [2].

Raqamli texnologiyalar talabalarning axborot ko’nikmalarini shakllantirish sohasidagi istiqbolli yo’nalishdir. Talabalarning o’quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jarayonida turli xil ma’lumotlarni tezda izlab topish va oddiyroq usulda ma’nan tushunib yetish uning intensivligini oshiradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarning zamonaviy pedagogikadagi o’rni juda katta bo’lib, u orqali talaba yoshlar muammoli vaziyatlarni tushunishlarida tasavvur hosil qiladi oladi. Ta’limidagi ijobiy rivojlanishlar ham aynan raqamli texnologiyalarning OTM (oliy ta’lim muassasalari)da joriy etilishiga bog’liq. X.N.Ashimova o’zining ilmiy izlanishlarida o’quvchilarning bilim olish sifatini oshirish uchun axborot hamda kompyuter texnologiyalarining foydali tomonlarini ta’kidlab, bir qancha tavsiyalar berib o’tgan. Bu qatorda esa har bir fan misolida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining chambarchas bog’liqligi shubhasiz o’z tasdiqini topmoqda.

T.N.Jo’rayevning “Raqamli texnologiyalar asosida talabalar o’quv-biluv faoliyatini takomillashtirish metodikasi” nomli dissertatsiya ishida esa bo’lajak o’qituvchilarni raqamli ta’lim texnologiyalari va bulutli dasturlash servislaridan foydalanib o’quv-biluv faoliyatini takomillashtirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holatda raqamli ta’lim texnologiyalardan sifatli foydalanish kompetentligiga erishishni ta’minlash maqsadida pedagogik model takomillashtirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** An’anaviy dars uslublariga nisbatan raqamli texnologiyalar o’quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashga yordam beradi. Video darslar, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn treninglar va boshqa raqamli resurslar orqali o’quvchilar real konfliktlarni tahlil qilish, yechim topish va o’zaro munosabatlar dinamikasini o’rganish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Raqamli texnologiyalar ta’limni masofaviy va o’quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashuvchan ravishda olib borishga imkon beradi. Konfliktologiya fani ham raqamli platformalarda samarali o’qitilishi va o’quvchilar tomonidan keng qamrovli o’zlashtirilishi mumkin.

Pedagogik konfliktologiya o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni to'g'ri hal qilish, ijtimoiy-psixologik muammolarni oldini olish va ularga to'g'ri yondashish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'rgatadi. Raqamli texnologiyalar bu sohada ta'limni yanada interaktiv, real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan va individual yondashuv bilan ta'minlashi mumkin[3].

An'anaviy dars uslublariga nisbatan raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashga yordam beradi. Video darslar, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn treninglar va boshqa raqamli resurslar orqali o'quvchilar real konfliktlarni tahlil qilish, yechim topish va o'zaro munosabatlar dinamikasini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Raqamli texnologiyalar ta'limni masofaviy va o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashuvchan ravishda olib borishga imkon beradi. Konfliktologiya fani ham raqamli platformalarda samarali o'qitilishi va o'quvchilar tomonidan keng qamrovli o'zlashtirilishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan o'qituvchilar talabi yuqori. Shu sababli pedagogik konfliktologiya fanini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanishni takomillashtirish o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularning pedagogik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik konfliktologiya fanini raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitish metodik tizimini takomillashtirish dolzarb va muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimining eng muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biridir. Xususan, pedagogik konfliktologiya fani bo'yicha raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat nazariy bilimlarni yetkazishda, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Hozirgi davrda jamiyatdagi turli ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar sabab konfliktlarni boshqarish muhim ko'nikmaga aylandi. Ta'lim tizimi konfliktni boshqarish malakasini o'rgatishda raqamli vositalar orqali tezkor va samarali yechimlarni taklif qilishi zarur. Raqamli resurslar ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Masofaviy ta'lim platformalari o'quvchilarni har joydan bilim olish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Pedagogik konfliktologiya raqamli ta'lim vositalarini qo'llash orqali quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshiradi:

- Konflikt situatsiyalarni modellashtirish uchun virtual simulyatorlar yaratish.
- Rolli o'yinlar va masalalarni yechish uchun o'yin shaklidagi treninglar.
- Qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilish uchun raqamli vositalardan foydalanish.
- Konfliktologiya bo'yicha virtual darsliklar, video leksiyalar va interaktiv mashg'ulotlar.
- Onlayn kurslar va masofaviy treninglarni tashkil qilish (Coursera, EdX platformalari).
- O'quvchilar orasida guruhli munozaralar uchun Zoom, MS Teams kabi xizmatlardan foydalanish[4].

Raqamli vositalar talabalarning amaliy tajribasini oshiradi, ularga konfliktlarni amaliy jihatdan hal qilishni o'rgatadi. Talabalar konfliktlarni tahlil qilish orqali o'zlari uchun yangi bilimlar hosil qiladi va o'ziga xos yondashuvlar ishlab chiqadi. Konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash. Konfliktlarni hal qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va virtual o'yinlar, raqamli tahlil qilish va ularning natijalarini baholash. Raqamli muloqot platformalari orqali talabalar orasida interaktiv hamkorlik ta'lim samaradorligini oshirishda va talabalarni konfliktlarni boshqarish bo'yicha tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik konfliktologiya sohasi o'quv muassasalarida nizolarni to'g'ri hal qilish, tinchlik va o'zaro hurmat muhitini yaratishga qaratilgan. Respublikada bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirish va nizolarni konstruktiv yo'l bilan hal etish yo'llarini izlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar yordamida konfliktlarni model qilish va ular bilan ishlash uslublarini o'qitish bu ilmiy yo'nalish pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlashga tayyorlash strategik maqsadlardan biridir. Konfliktologiya fanini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish pedagoglarni bu boradagi yangi yondashuvlarga o'rgatish va ularning kasbiy ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik konfliktologiya – ta'lim jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlarni o'rganish, tahlil qilish va ulardan samarali chiqish yo'llarini ishlab chiqishga bag'ishlangan fan. Bu fan zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi, shuningdek, ta'lim tizimidagi boshqa tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Nizolarni tushunish va ularni boshqarish bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. Ta'lim muhitida sog'lom va barqaror munosabatlarni yaratishga yordam berish hamda oldini olish va hal qilish strategiyalarini rivojlantiradi.

Pedagogik jarayonni yangilash va samarali o'rgatish uchun raqamli texnologiyalarning ta'sirini tushunishni talab qiladi. Pedagogik konfliktologiya — bu ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni o'rganish va ularni hal qilish usullarini o'rgatadigan fan bo'lib, raqamli ta'limning bu fanni o'qitishga qanday



ta'sir ko'rsatishi haqida ilmiy-nazariy asoslar bir nechta jihatni o'z ichiga oladi. Quydagi asoslar raqamli ta'limdan foydalanishni pedagogik konfliktologiya fanida qo'llashda muhimdir: Pedagogik konfliktologiya fanini o'qitishda interaktiv ta'limning qo'llanilishi raqamli ta'limning asosiy yondashuvlaridan biridir. Bu yondashuvda o'quvchilarni nafaqat passiv tinglovchilar sifatida, balki faol ishtirokchilar sifatida jalb qilishga harakat qilinadi. Raqamli platformalar, masalan, video konferensiyalar, onlayn forumlar, simulyatsiyalar va virtual sinflar orqali o'quvchilar o'rtasida muloqotni kuchaytirish va ta'limdagi nizolarni amalda hal qilishga yordam beradi. Konfliktologiya fanida o'quvchilarga turli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu maqsadda onlayn simulyatsiyalar va rol o'ynash metodlarini raqamli platformalar yordamida amalga oshirish mumkin. O'quvchilar turli konflikt holatlarini virtual muhitda simulyatsiya qilib, o'zlariga to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganadilar[6].

Raqamli ta'lim tizimlari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv materiallari taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Konfliktologiya fanida har bir o'quvchining o'ziga xos psixologik va pedagogik holatini hisobga olish zarur. Shaxsiylashtirilgan ta'limda o'quvchilar konfliktlar bo'yicha individual ish olib borishlari, o'zlarini rivojlantirishlari va nizolarni hal qilishga oid materiallar bilan ishlashlari mumkin. Raqamli ta'limning bir qator vositalari — video darslar, onlayn kurslar, elektron kitoblar, maqolalar, interaktiv testlar va baholash tizimlari pedagogik konfliktologiya fanini o'rgatishda samarali qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'quvchilarga konfliktlarni tahlil qilish bo'yicha onlayn testlar va quizzlar orqali o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatini yaratish mumkin.

Didaktika va ta'lim texnologiyalarini qo'llash nazariyasi bu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, chunki raqamli resurslar ta'lim jarayonini osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Konfliktologiya fanida o'quvchilarning bilimni baholash va ularning konfliktlarga nisbatan yondashuvlarini aniqlash uchun onlayn baholash tizimlari ham samarali vosita bo'ladi. Onlayn testlar va baholashlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, ularning o'zaro munosabatlar va konfliktlarga qanday yondashayotganlarini kuzatib borish imkonini yaratadi.

Pedagogik konfliktologiya fanini o'qitishda raqamli ta'limdan foydalanish ilmiy-nazariy jihatdan pedagogik innovatsiyalar, interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvlarini amalga oshirishga, o'quvchilarning psixologik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Raqamli texnologiyalar yordamida konfliktlar va nizolarni o'rgatishda samarali vositalar, metodlar va materiallar qo'llanilishi, o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Bu ta'lim jarayonini yanada samarali va zamonaviy qilib, o'quvchilarning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi[7].

Raqamli ta'limning kognitiv va psixologik jihatlarini ta'lim jarayonida o'quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning o'zaro muloqotlari va muloqotdagi injiqliklar hamda stress holatlari tahlil qilinishi mumkin. Bu, o'z navbatida, konfliktologiyaning psixologik jihatlarini o'rganishga yordam beradi. Raqamli resurslar va interaktiv platformalar yordamida o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin, bu esa ularning nizolarni hal qilishda yanada muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Raqamli vositalar yordamida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzularni chuqurroq o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ularning tahliliy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Video, grafik, ovoz va boshqa multimediyalar elementlari orqali axborotni ko'proq tushunish va yodda saqlashga yordam beradi. Raqamli platformalar o'quvchilar uchun individual ta'lim dasturlarini taklif qilishi, har birining o'ziga xos o'rganish tezligi va uslubiga moslashishi va masofaviy ta'lim imkoniyatlari, shaxsiy qulaylik sharoitida o'qish orqali, ba'zi o'quvchilarda stress darajasini pasaytirishi mumkin. Raqamli ta'lim vositalaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun ta'lim jarayonini muvozanatli rejalashtirish va psixologik omillarni inobatga olish muhimdir.

**Xulosa va takliflar.** Pedagogik konfliktologiya fanini o'qitishda raqamli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishga va o'quvchilarning konfliktlarni tushunish va hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarga interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali ta'lim berish imkoniyatlari yaratiladi. Bu nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Konfliktologiya mavzularini o'rgatishda virtual muhitlar va simulyatsiyalar yordamida konfliktni tahlil qilish va yechish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu real vaziyatlarni o'rganishga yaqinlashtiradi. Raqamli vositalar o'quvchilarga o'z fikrlarini bildirish va muammolarni mustaqil hal qilishda yordam beruvchi platformalar (masalan, forumlar, masofaviy muhokamalar) taklif qiladi. Raqamli platformalar orqali konfliktologiya faniga oid statistik ma'lumotlar va misollarni real vaqt rejimida o'rganish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi, virtual o'yinlar va loyihalar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va mavzularni yanada chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi. Video darslar, animatsiyalar va podkastlar konfliktologiya nazariyalarini vizual va eshitish orqali

o‘rgatishni yengillashtiradi. Onlayn kurslar va individual dasturlar o‘quvchilarga mavzuni o‘z vaqtida va o‘z uslubida o‘rganish imkoniyatini beradi.

Raqamli ta’lim konfliktologiya fanini o‘qitishda nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon ta’limni zamonaviylashtirish bilan birga o‘quvchilarning konfliktlarni boshqarish bo‘yicha shaxsiy va professional salohiyatini oshiradi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Анцупов А Я. Основы конфликтологии. -М.: 1998.
3. Исмоилова, Ю. Т. Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки. // Образование и воспитание. — 2015. — № 3 (3). — С. 9-11. — URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/9/141/> (дата обращения: 15.02.2023).
4. I Yulduz, M Umida. Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers- Бюллетень науки и практики, 2021. Related articles All 2 versions.[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation\\_for\\_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q\\_DkC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q_DkC)
5. Ismailova Zuhra Karabaevna, Kamola Riskulova, Axmedov Murodjon Ubaydullaevich, Ismoilova Yulduzhxon Turaevna, Pulatova Nozima Ravshanovna “The role of electronic pedagogical tools in higher education”. // SKOPUS Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020.
6. Sattorova M.A. The Role of the concept of educational work of an educational organization in the formation of an inclusive environment // Eastern European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 No. 12, 2019. №3 Part VI ISSN 2056-5852. –P. 125-128. (13.00.00; №3) [www.idpublications.org](http://www.idpublications.org).
7. Ismoilova Y. T. “Important Aspects of Forming Critical Thinking in School-Age Children in Digital Education Conditions”. // International journal of formal education, Volume: 3 Issue: 2 | February–2024 ISSN: 2720-6874 <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>.
8. Ismoilova Yu.T. “Pedagogik muloqot jarayonidagi konfliktlar va ularni bartaraf etish yo‘llari”. «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» № 5 Нөкис — 2024. ISSN 2181-7138.
9. Xayitov J.X. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 3/2022. –B. 78-81. (13.00.00: №31).
10. Xayitov J.X. Texnologik ta’lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.
11. Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro‘li va ahamiyati ta’limda. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. [www.journal.namdu.uz](http://www.journal.namdu.uz) ISSN: 2181-0427 . 1/2023. –B. 645-650.(13.00.00:№30).
12. Nurmamatov Z.Sh. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.
13. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. // International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.

## O‘QUVCHILARNING “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Isroilova Lola Sunnatovna,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti Informatika kafedrasida katta o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan. Unda zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, integratsion yondashuv, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, maqolada fan o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va darslarda interaktiv usullardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari informatika fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik yondashuvlarni taklif qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, informatika, axborot texnologiyalari, pedagogik muammo, pedagogik yondashuv.

## ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПО ПРЕДМЕТУ «ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*В данной статье проанализирована проблема формирования компетенций учащихся по предмету «Информатика и информационные технологии» как педагогическая задача. В ней освещена актуальность развития знаний, умений и навыков по данному предмету в современном образовательном процессе. Подчёркнута важность использования инновационных педагогических технологий, интеграционного подхода и учёта индивидуальных возможностей учащихся при формировании компетенций. Также в статье приведены практические рекомендации по повышению педагогического мастерства учителей и использованию интерактивных методов на уроках. Результаты исследования предлагают научно-педагогические подходы, направленные на повышение эффективности преподавания информатики.*

**Ключевые слова:** компетенция, информатика, информационные технологии, педагогическая проблема, педагогический подход.

## FORMATION OF STUDENTS' COMPETENCES IN THE SUBJECT «INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES» - AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*This article analyzes the issue of developing students' competencies in the subject "Informatics and Information Technologies" as a pedagogical problem. It highlights the relevance of developing knowledge, skills, and abilities in this subject within the modern educational process. The importance of utilizing innovative pedagogical technologies, an integrative approach, and considering students' individual capabilities in the formation of competencies are emphasized. The article also provides practical recommendations for enhancing the pedagogical skills of subject teachers and employing interactive methods in lessons. The research findings propose scientific and pedagogical approaches aimed at improving the effectiveness of teaching informatics.*

**Keywords:** competency, informatics, information technologies, pedagogical problem, pedagogical approach.

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiyotini axborot infratuzilmasini rivojlantirishda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlar ta’lim sifatiga, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktab bitiruvchilarining ta’lim va professional darajasiga bir qator yangi talablarni qo‘ymoqda. Bu talablardan biri, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishdan iborat. Mazkur yondashuvli o‘qitishni joriy etilishi zamonaviy pedagogika tomonidan ta’lim sifatini va asosini yaxshilashning muhim omili sifatida qaraladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim oluvchining kasbiy va shaxsiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga hamda ma’lum bir vaziyatda o‘zining imkoniyatlarini yetarlicha baholashdan iborat.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor yo‘nalishini E.F.Zeyerning quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi: o‘rganish; o‘zini-o‘zi anglash; o‘z taqdirini mustaqil belgilash; individuallikni rivojlantirish [1].

Bu borada S.N.Akbarova, Y.M.Asadov, D.SH.Temirov, N.SH.Turdiyevlarning fikriga ko‘ra, «kompetensiyaviy yondashuv butun maktab ta’limining amaliy xarakterining kuchayishini taqozo etadi. Bunda o‘qituvchining pozitsiyasi ham o‘zgaradi. U darslik bilan birgalikda o‘quvchiga berilishi lozim bo‘lgan “obyektiv bilimlar” manbai bo‘lib qolmaydi, balki uning asosiy vazifasi o‘quvchilarning mustaqil ravishda bilim olishga o‘rgatish, tashabbus ko‘rsatishni, qarorlar qabul qilishni, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etishi, jamoada o‘qish, yashash ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi» [2].

**Asosiy qism.** A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, kompetensiyaga asoslangan yondashuv kompetensiyalarni “kesishgan, qo‘shimcha va metasubjetli tuzilmalar, an’anaviy bilimlarni ham, har xil umumlashtirilgan intellektual, ijodiy, mafkuraviy, uslubiy, muloqot va boshqa ko‘nikmalarni birlashtiradi” [3].

O.N.Gribanning ta’kidlashicha, yangi ta’lim paradigmasi faqat bilimlarni doimiy ravishda to‘ldirish, yangilash, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, ularni mustahkamlash hamda kompetensiyalarga aylantirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishga yo‘naltirilgan taqdiridagina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Uning fikricha, kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim oluvchining aniq amaliyotga yo‘naltirilgan bilimlarni egallashi va ma’lum ijtimoiy hamda kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirishdir. Buning natijasida ta’lim oluvchi hayotda muvaffaqiyat qozonishini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi [4].

Y.I.Kuzminov, O.N.Gribanlarning ta’kidlashicha, ta’lim trayektoriyalarini individuallashtirish va o‘quvchilarning mustaqilligini oshirish uchun kompetensiyaga asoslangan ta’limni joriy etish lozim. Ularning fikricha, bu yondashuvda faqat bilimga yo‘naltirilgan komponent bilan chegaralanib qolmaydigan, balki o‘qituvchi amalda foydalanadigan ma’lum ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadigan ta’lim mazmuni nazarda tutadi. Ularning fikricha, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, birinchi navbatda, ma’lumotga ega bo‘lishni emas, balki har xil, shu jumladan, yangi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatini ilgari suradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning muhim xususiyatlari protsessuallik va amaliyotga yo‘naltirilganlikdan iborat. Protessuallik shuni anglatadiki, kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimlarni o‘qituvchidan o‘quvchiga yetkazish emas, balki o‘quvchining assimilyatsiya qilish faoliyatiga qo‘shish va ijtimoiy-madaniy tajribani yanada takomillashtirishga qaratilgan. Amaliyotga yo‘naltirish – bu o‘quvchining kundalik amaliyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga yo‘naltirish asosida real hayotga tayyorlashni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘quvchining qobiliyat va malakalarini rivojlantirishga, o‘zini-o‘zi anglashga yo‘naltirishga, berilgan topshiriqlarni bajarish orqali qiziqish, moyillik va qobiliyatni to‘liq hisobga olishga imkon beradi [5].

Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni kompetensiyaviy yondashuvli o‘qitish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorida “Informatika fanini o‘qitishning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’limi DTSlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish” kabi ustivor vazifalar belgilangan [6]. Ushbu qarorda belgilab qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun zamonaviy o‘quv vositalari asosida o‘qitishning yangicha yondashuvlarini tatbiq etish davr talablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetensiyalarini shakllantirishni zamonaviy yondashuvlarini kengroq tatbiq etish jiddiy zaruratga aylangan.

Mamlakatimizda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariyasi va metodologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish metodikasi, uzluksiz ta’lim tizimida masofali ta’lim joriy etish muammolariga oid yurtimizda A.Abduqodirov, U.Sh.Begimkulov, M.H.Lutfillayev kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanlariga oid elektron o‘quv vositalarini loyihalash va foydalanish metodikasi, informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining tayyorlash mazmunini takomillashtirish, talabalarning axborot-kommunikatsiya va mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyalari M.X.Allamberganova, A.I.Ashirova, S.S.Babadjonov, F.M.Zakirova, N.I.Taylaqov, S.Q.Tursunov, B.Z.To‘rayev, M.R.Fayziyeva, N.S.Xaytullayevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, kasb-hunar kollejlarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning nazariyasi va amaliyotiga doir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xususan, I.A.Yuldoshev kasb-hunar kollejlarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini tarmoq texnologiyasi asosida o‘qitish metodikasi, F.R.Muradova kasb-hunar kollejlarda “Informatika va

axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi, N.A.Qayumova kasb-hunar kollejlarda “Axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi, D.E.Toshtemirov kasb-hunar kollejlarda informatikani o‘qitish uchun ta’lim portali yaratish va undan foydalanish metodikasi, D.B.Abduraximov kasb-hunar kollejlarda informatikani ta’lim turlari aloqadorligida o‘qitish metodikasiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining turli didaktik o‘quv resurslar yaratishga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasi, talabalarning informatika va axborot texnologiyalaridan kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish, talabalarning algoritmlashga va dasturlash bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasiga yuzasidan T.J.Bazarjapova, O.V.Baranova, A.V.Goryachev, O.B.Zaytseva, V.P.Koropovskaya, L.A.Leontyeva, L.M.Repeta, I.V.Stavseva, O.A.Tumanova, M.V.Utenin, T.V.Yasyuk kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida va mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida olib borilayotgan pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari, asosan, oliy ta’lim muassasalari va kasb-hunar kollejlari miqyosida bajarilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ta’lim va tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida axborot-kommunikatsiya texnologiya (AKT) larini joriy etishni takomillashtirish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilishiga qaramay, o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetentligini shakllantirishga oid tadqiqotlar yetarli darajada yaratilmagan.

N.R.Saidova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematikaviy kompetensiyalarini shakllantirishda AKT vositalaridan foydalanish texnologiyalari” mavzusidagi tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematikaviy kompetensiyalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllantirishni nazariy jihatda asoslab bergan bo‘lsa [7], A.A.Qarshiyev “O‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (“Informatika va axborot texnologiyalari” fani misolida)” mavzusidagi tadqiqotida informatikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish, axborotlarni tizimlashtirish, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, o‘quvchilarni raqamli kontentni yaratishga o‘rgatish metodikasini ishlab chiqqan [8]. Shuningdek, O.M.Osokina “Формирование информационно-технологических компетенций обучающихся 2-11 классов (на примере школы менеджмента и маркетинга)” nomli dissertatsiyasida o‘quvchilarning yoshga bog‘liq psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda 2-11-sinf o‘quvchilarining axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy-funksional modeli va o‘quvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalarini shakllantirish darajalarini baholash uchun diagnostika apparati ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini loyiha asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi va kognitiv faolligini rivojlantiruvchi mexanizmi takomillashtirilgan [9].

Keltirilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid kompetensiyalarini shakllantirishning ayrim yondashuvlari ilgari surilgan bo‘lsa-da, ammo 8-sinf o‘quvchilarining “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-ta’lim muhitlardan va amaliy topshiriqlardan hamda ICILS testlardan foydalanishiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan, jumladan, 8-sinf o‘quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun dastlab kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ularga oid tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarni tahlil etish lozim degan, xulosaga keldik.

Ilmiy-metodik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o‘ta murakkab, ko‘p qismli, ko‘pgina fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shuning uchun uning talqinlari hajman, tarkiban, ma’no, mantiq jihatdan turli-tumandir.

Bu borada D.N.Ushakovaning fikriga ko‘ra, kompetentlik – bu muayyan ishni bajarish uchun bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lishdir [10]. S.S.Savelyeva, Y.V.Kosyakinlarning fikriga ko‘ra, kompetensiya – bu o‘quvchining o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatidir [11]. N.Sh.Turdiyev, Y.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.SH.Temirovlarning fikriga ko‘ra, kompetensiya, kompetentlilik tushunchasi “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xocca”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanadi» [2].

Ularning fikriga ko‘ra “Kompetentlilik”, “Kompetensiya” tushunchalarining tavsiflari quyidagicha [2]:

bilimlar majmuining amalda qo‘llanilishi;  
shaxsning uquvi, xislat va fazilatlarini;

amaliy faoliyatga tayyorgarlik o‘lchovi;  
turli muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo‘lga kiritish layoqati;  
shaxsning professional faoliyatini ta‘minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish;  
amaliyotga tatbiq etilgan o‘quv, bilim, tajriba majmui;  
shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan emotsional iroda kuchi.

Kompetensiya o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxsiy xususiyatlari bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullari majmui sifatida tushunilishi O.N.Griban, A.V.Xutorskiy kabi olimlarni asarlarida keltirilgan. Ularning ta‘kidlashicha kompetensiya – bu fanga oid egallagan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishdir.

E.F.Zeyer, V.V.Kotenko, N.A.Muslimovlarning ilmiy-uslubiy asarlarida “kompetensiya” tushunchasi olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llash, degan ma‘noni anglatishi haqida fikr yuritgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy asarlarini tahlil etish asosida shuni xulosa qilish mumkinki, kompetensiya – bu o‘quvchining fanga oid egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotga qo‘llay bilishdir.

Shu bilan birga zamonaviy pedagogika fani va amaliyotida «axborot kompetensiyasi» ta‘rifi keng qo‘llaniladi. Bu borada Raitskaya, A.L.Semenov, P.V.Sisoyev, S.V.Trishinalarning fikriga ko‘ra, axborot kompetensiyasi – bu professional muammolarni hal qilishga qaratilgan axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullaridir. Ularning fikriga ko‘ra, axborot kompetensiyasi kompyuter texnologiyalari yordamida ta‘lim va kasbiy faoliyatda samarali qaror qabul qilishga qaratilgan mashg‘ulotlar natijasida olingan aniq bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullarini aniqlashdir. O.M.Osokining fikriga ko‘ra, axborot kompetensiyasi – bu shaxsning bilim va amaliy tajribaga asoslangan zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda turli xil faoliyat sohalaridagi muammolarni hal qilish qobiliyatidir. V.V.Malanining fikriga ko‘ra, axborot kompetensiyasi – bu axborotni qidirish, qayta ishlash, taqdim etish va uzatish uchun axborot texnologiyalarining texnik va uslubiy vositalaridan foydalanish, axborotni analitik qayta ishlashni amalga oshirish hamda axborot texnologiyalarini qo‘llash, qidiruv va axborot muammolarini hal qilish, global tarmoqning resurslaridan foydalanishdir.

Keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilib aytganda, “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish – bu amaliy va instrumental dasturlardan samarali foydalanish, ma‘lumotlar bazalarini yaratish va boshqarish, turli masalalarni dasturlash, elektron jadvallar asosida statistik hisob ishlarini bajarish, grafik dasturlar yordamida turli loyihalar tayyorlash, global tarmoqda foydalanish va unda turli veb-ilovalar, veb-saytlar tayyorlay olish va ulardan hayotiy ehtiyojlarda foydalanish demakdir.

O‘quvchilarning bu kabi amaliy va instrumental dasturlardan samarali foydalanish va ular asosida turli loyihalar tayyorlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish bugungi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur muammo bo‘yicha O.M.Osokina tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning tadqiqotida maktab o‘quvchilarining axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalarini shakllantirishda, dastlab, ularning yoshga bog‘liq psixologik xususiyatlarining qiyosiy tahlili o‘rganilgan. Uning ta‘kidlashicha, o‘quvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan o‘quv vositalari va turli topshiriqlar, ularning yoshi, faoliyat turlari, ehtiyojlari hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilishi lozim. O.M.Osokina izlanishlar asosida 2-4-sinf o‘quvchilar uchun axborot kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi xulosalarga kelgan:

– o‘quvchilarning ta‘lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy e‘tibor ma‘lumotni vizual taqdim etishga qaratilishi lozim;

– o‘quv faoliyatida kompyuterning o‘yin mashqlaridan va videokliplardan, multimedia taqdimotlaridan foydalanish;

5-9-sinf o‘quvchilarining yoshga bog‘liq psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida esa quyidagi xulosalarga kelgan:

– o‘quv jarayonida vizual taqdimotlardan foydalanish;

– darslarni tashkil etishda didaktik elektron o‘quv vositalardan va interfaol texnologiyalardan foydalanish;

– qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga olgan muammoli vazifalarni va faol muloqotni tashkil etish;

– turli topshiriqlarni bajarishda global tarmoqdan foydalanish madaniyatini shakllantirish [9].

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarini tahliliga ko‘ra, o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid kompetensiyalarini shakllantirish uchun o‘quv jarayoniga turli didaktik o‘quv vositalarini joriy etish va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishni tashkil etish taqozo etiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarorida

o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan quyidagi kompetensiyalarini shakllantirish maqsad qilib belgilab qo‘yilgan: “1. Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig‘ish; 2. Axborotlarni elektron vositalarda qayta ishlash va saqlash; 3. Axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish” [6].

Ushbu qarorda belgilangan vazifalar asosida axborot texnologiyalariga oid kompetensiyaga ega o‘quvchilarni tayyorlash bugungi umumiy o‘rta ta’lim maktablari oldida turgan muhim muammolardan biri sanaladi.

Ilgari surilayotgan tadqiqot mazkur muammoga qaratilgan bo‘lib, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida maktab o‘quvchilarining «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ba’zi ilmiy-metodik ishlarning mavjudligiga qaramay, o‘quvchining ushbu fandan kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Shunday qilib, A.A.Qarshiyev, V.P.Koropovskaya, L.A.Leontyevlarning ilmiy-metodik adabiyotlar va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining pedagogik amaliyot tahliliga ko‘ra, o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetensiyalarini shakllantirish uchun quyidagi turkum muammolar borligi ma’lum bo‘ldi:

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda vebga moslashtirilgan zamonaviy elektron ta’lim resurslari yetarli emasligi;

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish tizimiga oid ilmiy-uslubiy manbalarga ehtiyoj mavjudligi;

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar banki yetishmasligi;

o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-ta’lim muhitlaridan, onlayn ochiq kurslardan va nazorat qilish tizimlaridan foydalanish mexanizmi to‘lig‘icha ilmiy asoslanmaganligi;

o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mashg‘ulotlarini tashkil etishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ishlanmalar yetarli darajada emasligi;

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda aralash ta’limdan foydalanishga mo‘ljallangan uslubiy ishlar yetarli emasligi;

o‘quvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan bilimni baholashda xalqaro baholash tizimlaridan (ICILS) foydalanish metodikasi to‘lig‘icha joriy etilmaganligi.

**Xulosa.** Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan kompetensiyalarini shakllantirishda yuqorida qayd etilgan turkum muammolarni bartaraf etish lozim. Buning natijasida mamlakatimiz informatika va axborot texnologiyalari sohasi bo‘yicha jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga qadam qo‘yishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Зеер Э.Ф. Понятийно-терминологическое обеспечение компетентного подхода в профессиональном образовании // Понятийный аппарат педагогики и образования. – М. : Владос, 2007. – 592 с.

2. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2015. – 160 b.

3. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании [Электронный ресурс] / А.Г. Бермус // Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>. – Интернет-журнал «Эйдос».

4. Грибан О.Н. Формирование информационной компетентности студентов исторического факультета педагогического вуза // Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Екатеринбург, 2012. – 254 с.

5. Isroilova L.S. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan kompetensiyalarini shakllantirish muammolari // Muqallim ham uzluksiz bilimlendiriyu ilmiy-metodikalyk jurnali. – Нукус, 2021. – № 5. – Б. 117–121.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» Qarori. – Qonun

hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09/18/858/2095-son 25.10.2018 y., 09/19/821/3833-son 30.09.2019 y., 09/19/822/3840-son 30.09.2019 y., 09/20/179/0350-son 24.03.2020 y.

7. Saidova N.R. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining matematikaviy kompetensiyalarini shakllantirishda AKT vositalaridan foydalanish texnologiyalari // Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2021. – 172 b.

8. Qarshiyev A.A. O’quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi («Informatika va axborot texnologiyalari» fani misolida) // Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021. – 44 b.

9. Осокина О.М. Формирование информационно-технологических компетенций обучающихся 2-11 классов (на примере школы менеджмента и маркетинга) // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Новокузнецк, 2010. – 216 с.

10. Ушакова Д.Н. Толковый словарь русского языка [Электронный ресурс] / под ред.– М.: Астрель, АСТ, 2000. – Режим доступа: <http://www.dic.academic.ru/dic.nsf/ushakov/758894>.

11. Савельева С.С. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности учителя в образовательном процессе вуза // Монография. – Воскресенск, 2012. – 160 с.



**O‘ZINI O‘ZI BAHOLASH ORQALI MUSTAQIL BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

*Maxmudova Nodira Alisherovna,  
Namangan davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim  
metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD)  
nodiramaxmudova9@gmail.com*

*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan, boshlang‘ich sinf o‘quv mashg‘ulotlarida o‘zini o‘zi baholash usullaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ochib berilgan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish ayrim usullari ishlab chiqilgan, o‘quvchilarda o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish texnologiyasining didaktik ta’minoti takomillashtirilgan. Maqolada yana boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik komponenti produktiv, reproduktiv va ijodiy bosqichlarini ta’limiy faollashtiruvchi ayrim usullar ko‘rsatilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zini o‘zi metodlaridan namuna keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, innovatsiya, innovatsion jarayon, texnologiya, texnik innovatsiya, ta’lim xizmati, sifat, texnologik xarita.*

**СОДЕРЖАНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ САМООЦЕНКИ**

*В статье уточнены педагогико-психологические особенности развития самостоятельной познавательной активности учащихся начальных классов, раскрыты дидактические возможности использования методов самооценки на учебных занятиях в начальных классах, разработаны некоторые методы развития самостоятельной познавательной активности учащихся начальных классов посредством самооценки, усовершенствовано дидактическое обеспечение технологии развития самостоятельной познавательной активности учащихся посредством самооценки. В статье также показаны некоторые методы образовательной активизации продуктивного, репродуктивного и творческого этапов организационно-дидактического компонента развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся начальных классов посредством самооценки. Приведены примеры самостоятельных методов у учащихся начальных классов.*

***Ключевые слова:** начальное образование, инновации, инновационный процесс, технология, технические инновации, образовательная услуга, качество, технологическая карта.*

**CONTENT AND MODERN APPROACHES TO DEVELOPMENT OF INDEPENDENT COGNITIVE ACTIVITY THROUGH SELF-ASSESSMENT**

*The article clarifies the pedagogical and psychological features of the development of independent cognitive activity of primary school students, reveals the didactic possibilities of using self-assessment methods in primary school classes, develops some methods for developing independent cognitive activity of primary school students through self-assessment, improves the didactic support of the technology for developing independent cognitive activity in students through self-assessment. The article also shows some methods for educationally activating the productive, reproductive and creative stages of the organizational and didactic component of developing independent cognitive activity in primary school students through self-assessment. An example of self-assessment methods in primary school students is given.*

***Keywords:** primary education, innovation, innovation process, technology, technical innovation, educational service, quality, technological map.*

**Kirish.** Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida o‘zini o‘zi baholash asosida o‘quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish tajribasidan bugungi kunda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSh, Germaniya, Angliya, Niderlandiya, Avstriya, Rossiya kabi davlatlarda o‘zini o‘zi baholash orqali o‘quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, natijada o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish borasida samaradorlikka erishilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, Yevropa davlatlarida o‘zini o‘zi baholash asosida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, shaxsiy rivojlanish strategiyalarini boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab

shakllantirish, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko‘rish, axborotlar bilan faol ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida [1] ustuvor yo‘nalishlar sifatida o‘z aksini topgan.

Jahonda ta‘limning barcha bosqichlari, xususan, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi baholash, mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim dasturlarini tatbiq etishda o‘quvchilarda o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zini o‘zi baholashning modifikatsion metodikalarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon mazmunini integratsion yondashuv asosida takomillashtirish alohida dolzarflik kasb etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Ilmiy tadqiqotlar bazasida mamlakatimizda umumiy o‘rta ta‘lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta‘limda o‘qitish sifati, baholash tizimi, o‘zini o‘zi baholash, mustaqil bilish faolligi rivojlantirish muammosi B.S.Abdullayeva, B.R.Adizov, M.M.Vaxobov, E.Seytxallov, R.X.Djurayev, S.T.Turg‘unov, U.I.Inoyatov, R.A.Mavlonova, G.R.Akramova, M.D.Doniyarov, D.Abduraxmonova, S.Mamayusupova, Z.A.Pulatova, F.Yuldashev, B.Djurayeva, O.X.Tuxtayev, M.Kochkarova, G.Boymuradova, N.Tosheva, A.Nurmanov, D.Oxunova, G.B.Amirovalar tomonidan tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik amaliyotda doimiy a‘lo natijalarga erishuvchi o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan simpatiya hosil bo‘ladi. Bu esa o‘quvchining bir tomonlama o‘zlashtirishga, faqat o‘qituvchi talab qilayotgan baholash mezonlariga moslashib o‘qishini, topshiriq va vazifalarni bajarishiga olib keladi. O‘quvchida nostandart, tanqidiy, atroflicha fikrlash yetarli darajada rivojlanmaydi. Baholashning eng muhim funksiyalaridan biri, o‘quvchini muntazam ravishda faollikka undash, o‘z ustida ishlash, mustaqil fikrlash, yuqori samaradorlikka erishishi uchun turtki berishidir. Misol tariqasida kommunikativ kompetensiyani olsak, qism-kompetensiyalar sifatida o‘z hamrohini tinglay olish, so‘zlashish odob va me‘yorlariga rioya qilish, virtual muloqot qilish kabilarni keltirish mumkin.

#### ***O‘zini o‘zi baholash o‘quvchilarida:***

– mustaqil ta‘limga motivatsiyani oshirish, ilmiy-ijodiy tadqiqotlar olib borish, o‘qiganlarini tengdoshlari o‘rtasida muhokama qilish bilan bog‘liq ma‘naviy-ma‘rifiy izlanishlar;

– turli manbalar va global tarmoqdan zarur ma‘lumotlarni izlab topish, saralash orqali ma‘lumotlar bazasini yaratishga doir axborotlar bilan ishlash;

– san‘at asarlarini tushunish, ulardan ta‘siralanish, jamiyatdagi odob-axloq me‘yorlari, qadriyat, an‘analarga e‘tiqodli bo‘lish kabi milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan. O‘qish fani misolida o‘zini o‘zi baholash varaqasi 7-ildovada keltirilgan.

O‘zini o‘zi baholash – o‘z faoliyati va harakatini o‘zi nazorat qilishning psixologik mexanizmi. U o‘z maqsadlari, ularni amalga oshirish imkoniyati, mustaqil faoliyatining natijalarini baholash munosabatlarida namoyon bo‘ladi. O‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay bilish, haqiqiy holat bilan o‘zining harakatlarini mutanosib ravishda taqqoslash, erishgan yutuqlarini bo‘rttirmaslik yoki omadsizlikka uchraganda ruhan tushkunlikka tushmaslik, ya‘ni o‘zini har qanday holatda nazorat qilish – o‘zini o‘zi adekvat baholash deb ataladi. 6-10 yoshli o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga adekvat baho berish darajasi o‘sib boraveradi [6; 17-18-b].

Hozirgi vaqtda barcha ta‘lim muassasalarida o‘quvchilar bilimini nazorat qilishda, shuningdek o‘zini o‘zi baholashda test usulidan keng foydalaniladi. Test nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham foydalidir. Ular test tuzish va uni amalda qo‘llash orqali o‘zini o‘zi, o‘zining bilimini, o‘zlari saboq berayotgan fan bo‘yicha o‘quvchilar bilimini nazorat qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Ixcham tarzda tuzilgan testlar o‘rganilayotgan fanning barcha bo‘limlari mazmunini o‘zida aks ettirishi lozim [7; 130-133-b].

O‘quvchilarning bilimini baholash darsning eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning ko‘p hollarda bahs-munozaralarga, o‘quvchilar noroziligiga sabab bo‘lishi pedagogik amaliyotda keng uchraydi. Pedagogik kuzatishlar orqali hozirda mavjud quyidagi o‘zini o‘zi baholash usullarini keltirib o‘qish mumkin:

**1. “Bilimlar daraxti”** usuli orqali o‘quvchi o‘z bilimiga baho berish bo‘yicha tajribalarga ega bo‘lib boradi. Bu usulda o‘quvchilarning har biriga qurigan daraxt tasviri aks etgan rasmlar taqdim qilinadi. O‘qituvchi tomonidan dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokiga ko‘ra ularga daraxtning barglari hamda mevalari berib boriladi. Bu esa o‘quvchilarni faollashtirishga xizmat qiladi va sinfda raqobat muhitini yaratadi. Mazkur usul zaminida falsafiy haqiqat yotadi, ya‘ni “ilmsiz inson – mevasiz daraxt” ekanligi o‘quvchilarning fikrlashiga, har bir harakat samarador bo‘lishligi bilvosita tushuntiriladi. Qurigan daraxtning tabiatga va atrof-muhitga hech qanday foydasi bo‘lmasligi, xuddi shu kabi ilm o‘rganmaydigan inson ham jamiyat taraqqiyotiga foyda bermasligi tushuntirib o‘tiladi. Dars yakunida o‘quvchilar o‘z daraxtlarini

namoyish etadi. Kimning daraxti mevalari ko‘p bo‘lsa, shu o‘quvchining natijasi yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bu usulni variativ tarzda o‘quv yilining choraklarida yoki ota-onalar tomonidan o‘z farzandini o‘quv faoliyatini nazorat qilish uchun ham tavsiya etiladi.

**2. “Quvnoq alifbo” usuli.** Bu usuldan asosan boshlang‘ich sinflarda foydalansa ko‘proq samara beradi. Mazkur usul o‘quv mashg‘ulotlarida quyidagi tartibda joriy etiladi:

- o‘quvchilarga dars davomida ishtirok etgani uchun alifbo harflari berib boriladi;
- o‘quvchi harfni o‘zi tanlab oladi;
- darsning yakunida o‘quvchi dars davomida yiqqan harflaridan ma‘lum bir so‘zni shakllantiradi;
- o‘quvchilar o‘zlari tanlagan so‘zni tashkil qiluvchi harflarni dars jarayonidagi faolligi orqali “rag‘bat” sifatida yig‘ib boradi.

Bu usul o‘quvchilarning faolligini, zukkoligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘zi tanlagan so‘zning barcha harflarini yig‘ish uchun diqqatini oshiradi, faollikka intiladi va berilgan toshiriqlar va savollarni diqqat bilan bajarishga hamda javob berishga intiladi. Faol o‘quvchilarga dars davomida bir qancha so‘zlarni shakllantirishga imkoniyat beriladi. Bu usul o‘quvchilar bilimni tez, oson, xolis va adolatli baholanishini ta‘minlaydi. Boshqa tomondan esa o‘quvchilarning so‘z boyligini oshishiga yordam beradi. 3-4 sinf o‘quvchilarga ushbu usul orqali o‘zlari egallamoqchi bo‘lgan kasbning harflarini shakllantirish vazifa sifatida qo‘yilsa ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi.

**3. “Oltin meros” usuli.** Bu usuldan yuqori sinflarda tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llash samarali natija beradi. Bu usul quyidagicha tatbiq etiladi:

- sinf o‘quvchilari kichik guruhlariga bo‘linadi;
- dars davomida berilgan topshiriqlarning bajarilishi va savollarning javoblariga qarab guruh o‘quvchilariga rag‘bat tariqasida maqollarni tashkil etuvchi so‘zlar berib boriladi.
- qaysi guruh o‘quvchilarini maqolning barcha so‘zlari bilan shakllantira olsa, mazkur guruh g‘olib hisoblanadi va a‘lo bahoga munosib deb topiladi.
- kichik guruh ishtirokchilari o‘z jamoasini g‘olib bo‘lishi uchun faolligini oshiradi.

Bu usul orqali o‘quvchilarning kollektiv ko‘nikmalari rivojlanadi, ularda “Biz” tushunchasini his qilish kabi ijobiy xususiyatlar shakllanishiga erishiladi. O‘qituvchi tomonidan maqollar ham darsga aloqador mavzuda tanlansa, o‘quvchilarning xotirasida qolishi, dars mazmunini qayta faollashtirish uchun yordam beradi.

**4. “Ranglar jilosi” usuli.** Mazkur usuldan boshlang‘ich sinflarda foydalanilsa samarali natija beradi. Bu usul o‘quv mashg‘ulotida quyidagicha tatbiq etiladi:

- o‘quv mashg‘uloti mavzusidan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchiga oq-qora tasvirdagi rasm beriladi;
- berilgan topshiriqlar, vazifalarni bajarilishiga qarab o‘quvchiga rasmning bir bo‘lagini bo‘yash uchun ruxsat beriladi;
- qaysi o‘quvchi oq-qora rasmni to‘liq rangli qalamda bo‘yab bo‘lgan bo‘lsa, ushbu o‘quvchi a‘lo bahoga loyiq deb topiladi;
- bu usul orqali o‘quvchilarning dars davomida faolligini oshirishga, diqqatini dars mavzusiga qaratishga, ularning psixologik holatini ijobiy ruhda ushlab turishga, san‘atni sevish, undan ilhomlanish tuyg‘ularini rivojlantirishga erishish mumkin.

Olima G. Alimova o‘quvchilarda baholash jarayoni qanday kechishi xususida tadqiqot olib borgan. Tadqiqot ishida har bir kishi o‘z-o‘ziga yaxshi, obyektiv baho berishni istashini, lekin o‘z shaxsiy fazilatlarini qanday anglab tan olishni ko‘pchilik tushunmasligini ta‘kidlab o‘tgan. O‘z-o‘ziga baho berish insonning yashab o‘tgan yillarida to‘plangan barcha tushunchalarni xayolan tasavvur etish orqali shakllanadi. Bolalikda inson bahosi miyaga joylanayotganda, o‘zi haqida atrof-dagilardan ma‘lumot to‘playdi. Agar bola ota-onasidan muhabbat, rag‘bat ko‘rsa, ulg‘ayganda o‘z-o‘ziga yaxshi munosabatda bo‘ladi. Shaxs o‘zini anglashini tashkil qilish tarkiblari (ma‘naviy qadriyatlar, nazorat yo‘nalishi, o‘zini baholash, mulohazalari, hissiy holat bahosi, ijtimoiy qoida) bir-birini to‘ldiradi va ularning sifatli mohiyati insonning ijtimoiy faollik nuqtayi nazarini tubdan o‘zgartirishni belgilash barobarida o‘zini anglashning amaldagi funksiyalarining shakllanishini ta‘minlaydi [14; 2-42-b.].

Tadqiqotchi B. Alimov [13; 364-372-b.] zamonaviy ta‘lim amaliy yo‘nalganligini tadqiq qilgan ekan, ta‘lim muassasi faoliyatining asosiy natijasi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi: fanga oid va tayanch kompetensiyalar majmui bo‘lishi lozim ekanligini xulosalaydi:

**1. Mazmunli-ma‘noli** – atrof-olamni ko‘ra bilish, unda o‘z yo‘nalishini topa olish, o‘z o‘rni va vazifasini anglab yetish, o‘z xatti-harakatlarining maqsadli va ma‘noli yo‘nalishlarini tanlay bilish, tezkor qarorlar qabul qilishga tayyorlik.

**2. Umummadaniy** – ta‘lim oluvchining milliy va umuminsoniy madaniyatning o‘ziga xos jihatlari,

inson va insoniyat, alohida olingan millatlar hayotining ma’naviy asoslari, oilaviy, ijtimoiy, jamiyatdagi hodisa va an’nanalarning madaniy asoslari, inson hayotida fan hamda e’tiqodning o’rni, bo’sh vaqtni samarali tashkil etish usullaridan xabardorlik.

**3. O’quv-bilish** – ta’lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatiga tayyorgarligi: maqsadni aniqlash, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o’quv-bilish faoliyatida o’zini o’zi baholash, dalillarni noto’g’ri fikrlardan ajrata olish ko’nikmasi, o’lchash malakalariga ega bo’lishi, statistik va boshqa metodlardan foydalana olishi.

**4. Axborotli** – ta’lim oluvchining turli axborot manbalari bilan ishlay olishi, zaruriy ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish, tanlab olish, uni tashkil etish, qayta ishlash, saqlash va uzatishga tayyorgarligi.

**5. Kommunikativ** – ta’lim oluvchining zarur tillarni, tanish va notanish insonlar va hodisalar bilan o’zaro munosabat usullarini bilishi, guruhda ishlash malakasi, jamoada turli maxsus vazifalarni egallashi.

**6. Ijtimoiy mehnat** – ta’lim oluvchining fuqarolik va jamoatchilik faoliyatida (fuqarolik, kuzatuvchilik, vakillik vazifalarini bajarish), ijtimoiy mehnat sohasida (iste’molchi, xaridor, ishlab chiqaruvchi, mijoz huquqlari), oilaviy munosabatlar va burchlar borasida, iqtisodiy va huquqiy sohalarida bilim hamda tajribalarga ega bo’lishi.

**7. Shaxsiy** – ta’lim oluvchining o’zini o’zi jismoniy, ruhiy va aqliy jihatdan rivojlantirishi, hissiy nazorat qila olish va o’zini o’zi qo’llab-quvvatlashi.

Eng muhim kompetensiyalardan biri bo’lgan uchinchi kompetensiyani batafsil qarab chiqamiz.

**O’quv-bilish kompetensiyasi** – bu o’quvchining o’rganilayotgan real obyektlar bilan mos qo’yilgan mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy, metodologik umumta’lim faoliyati elementlari sohasidagi kompetensiyalar majmui bo’lib, unga maqsadni aniqlash, rejalashtirish, tahlil, refleksiya, o’quv-bilish jarayonini baholash bo’yicha bilim va malakalar kiradi.

Mazkur kompetensiyaga ega bo’lish orqali ta’lim oluvchi o’rganilayotgan obyektga nisbatan quyidagi samarali faoliyat yuritish malakalariga ega bo’ladi:

- bevosita hayotiy vaziyatda bilimlarni qo’llay olish;
- nostandart vaziyatlarda harakat qilish usullarini egallash;
- muammoni evristik usul bilan hal etish [13; 364-372-b.].

Ta’lim tizimida odatda sifat tavsiflarining ikkita guruhi mavjud: rejalashtirilgan natijalarga erishishga qaratilgan jarayon sifati va ta’lim natijasining sifati. Ikkinchi guruh tavsifi aniq tarzda erishiladigan ta’lim natijalarining me’yoriy talablar, ta’lim oluvchilarning ijtimoiy va shaxsiy natijalariga nisbatan muvofiqlik darajasini aks ettiradi. Baholashning maqsadi umumiy tarzda olingan natijalarning ko’zlangan natija yoki dastlabki taxminlarga muvofiqligini o’rnatish sifatida ko’rib chiqilishi mumkin. O’qitishning har bir bosqichida tayyorgarlik mazmunini hisobga olgan holda maqsad aniqlashtiriladi, vazifalar belgilanadi. Kompetensiyalar shakllanganligi monitoringining quyidagi vazifalarini ajratish mumkin:

- diagnostik – kompetensiyalar shakllanganligi darajasini kuzatishni nazarda tutadi;
- prognostik – kompetensiyalar shakllanganligi darajasining asosiy tendensiyalarini aniqlash va istiqbolni bashorat qilish rejasini tuzishdan iborat [16; 171-c.];
- korreksion vazifa – muammolarni aniqlash va hal qilishni nazarda tutadi;
- motivatsion vazifa – ta’lim jarayoni ishtirokchilarini o’zini o’zi mustaqil rivojlantirishga undashga yo’naltirilgan.

Baholashning innovatsion vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin: reyting ball tizimi, portfolio, keyslar, vaziyatli topshiriqlar, loyihalar, kurs ishlarini jamoalarda bajarish, idoraviy, rolli, tashkiliy-faoliyatli [16; 191-196-b.].

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida o’zini o’zi baholash quyidagi tarbiyaviy ta’siri bilan ahamiyatlidir:

1. O’z o’quv natijalarini, qobiliyatini, o’rganish salohiyatini, shuningdek o’z “Men”ini boshqalar bilan qiyoslash orqali qabul qilish.

2. Boshqa o’quvchilarning munosabati, so’zlari, his-tuyg’ulari, xulq-atvor reaksiyalari orqali ularning o’ziga nisbatan munosabatlarini bilib olishga yordam beradi.

3. O’quvchilarda o’z o’quv faoliyat natijasi orqali qabul qilish, ya’ni o’quvchi nima qilganiga baho berish. Bu esa o’quvchilarning o’zidagi mavjud imkoniyatlar haqidagi fikrni mustahkamlaydi.

4. O’zini tashqi qiyofasiga berilgan bahosi orqali qabul qilish.

Shaxsning rivojlanishiga imkon yaratuvchi trening maqsadlari quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

a) ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularning boshqalar bilan faol munosabatga kirishish qobiliyatini o’stirish;

b) faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish va o’z hayotlarida o’zgarish sodir eta olish qobiliyatini rivojlantirish;

v) madaniy-psixologik darajasini ko’tarish. Umumiy maqsadlar xususiy vazifalarda amalga oshiriladi,

ya’ni: o‘z-o‘zini to‘g‘ri baholash qobiliyatini shakllantirish, shaxsiy sifatlarini tashxis va korreksiya qilish, kommunikativ to‘siqlarni bartaraf qilish, shaxslararo muloqotning individuallashtirilgan usullarini o‘zlashtirish [18; 42-b.].

O‘quvchilarni o‘qib-o‘rganishga motivatsiyasini oshirish, o‘z ta’lim jarayoniga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish uchun o‘quv sinflarida konstruktiv qayta fikr-mulohaza bildirish, ya’ni *feedback* madaniyati joriy etiladi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘rganishga oid maslahatlar, mulohazalar, takliflarni shakllantirishga, o‘rganilgan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni baholashga imkoniyat yaratadi.

O‘quvchilarning nafaqat bilish, balki amalga oshirish, bajara olishiga yo‘naltirilgan savolnomalar – o‘quvchilarning qiziqishi, tayanch kompetensiyalari va o‘quv natijalarini baholashni maqsad qiladi. O‘quvchilarning o‘zini o‘zi baholashi ularda reflektiv kompetensiyalarini oshirsa, boshqa tomondan o‘qituvchi uchun keyingi dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilish uchun ma’lumotlar basasini bajaradi. O‘zini o‘zi baholash bir fan doirasida emas balki falararo bilim, ko‘nikva va malakalarni baholash imkonini beradi. Shuningdek, o‘zini o‘zi baholash o‘qituvchi yoki boshqa mutaxassis bahosiga taqqoslashda, otanalar bilan o‘quvchining o‘zlashtirishi haqidagi suhbatlar uchun asosli manba vazifasini o‘taydi.

O‘quv jarayonida o‘qituvchi “ma’lumotlarga asoslangan feedback” orqali o‘quvchilarga “Sizning javobingiz to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri”, “Javob (yechim) to‘liq bajarilgan”, “Quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim” kabi munosabat bildirishi mumkin bo‘ladi. O‘zini o‘zi baholash orqali mazkur munosabatlar baholash varaqalarida o‘z ifodasini topgan. Feedback madaniyatining ya’na bir muhim jihati maqtovdan aniq ajratilishidir. O‘zini o‘zi baholash usullarida ham mazkur jihatlarga e’tibor qaratildi.

O‘zini o‘zi baholash usullari yildan yilga takomillashib bormoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi usullar mavjudligini tasdiqlaydi:

1. Ishni bajargan o‘quvchi o‘z-o‘ziga baho qo‘yadi. So‘ng uning ishi o‘qituvchi tomonidan baholanadi, ikkala baho qiyoslanib, birinchi bahoning obyektivlik darajasi aniqlanadi.

2. Og‘zaki javobdan so‘ng o‘qituvchi javob berayotgan o‘quvchidan o‘ziga qanday baho qo‘yish mumkinligini so‘raydi. Keyin sinfga murojaat qilib, o‘rtoqlari javobini ballar bo‘yicha baholashni iltimos qiladi. Biroq o‘zini o‘zi baholashni shakllantirish uchun o‘quvchilarni baholash faoliyatiga jalb etish kifoya qilmaydi [19; 175-b.].

Baholash jarayonida o‘quvchilarni baholash mezonlari mazmuni bilan to‘liq tanishtirish va bu orqali darsning, fanning erishish lozim bo‘lgan natijalari o‘z ifodasini topishi lozim bo‘ladi. Demak, amalga oshirilgan o‘zini o‘zi baholash mavjud va zaruriy natijalar o‘rtasidagi etalon nisbatini aniqlash imkonini beradi. O‘z natijalarini etalon bo‘yicha taqqoslash orqali o‘z faoliyatini baholashga va yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklar bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘zini o‘zi baholash o‘quvchining o‘qitishda faol subyekt bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

O‘qitishda o‘qituvchining asosiy pedagogik faoliyat turlaridan biri – o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bu faoliyat samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rejalashtirishni, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishni, o‘quv maqsadlarini aniqlashtirishni, nazorat va baholashni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** R.Mavlonova, O.To‘rayev va K.Xoliqberdiyevlar tomonidan boshlang‘ich ta’lim texnologiyasining tahlili asosida bir qator psixologik-pedagogik qoidalarni ishlab chiqqan. Mazkur qoidalarni o‘quvchilarni o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish aspekti nuqtayi nazaridan tahlil qilishni lozim topdik.

### 1-jadval.

#### Boshlang‘ich ta’lim texnologiyalari asosida shakllangan qoidalar va o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligi rivojlantirish aspektlari tahlili

№	Boshlang‘ich ta’lim texnologiyasining tahlili asosida shakllantirilgan psixologik-pedagogik qoidalar	O‘quvchilarni o‘zini o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish
1	Ta’lim jarayoni (o‘qitish va tarbiyalash) “o‘quvchini o‘qishga o‘rgatish” prinsipiga qurilishi kerak.	“O‘quvchini o‘qishga o‘rgatish” o‘z faoliyati, munosabati, qiziqishini baholash orqali samarali tashkil etiladi.
2	Ta’lim jarayonida (o‘qitish va tarbiyalash) har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari namoyon bo‘lib, tabiiy ravishda erkin, faol ishtirok etadigan bo‘lsin.	O‘zini o‘zi baholash orqali o‘quvchi o‘zining kuchli va kuchsiz taraflarini tahlil qiladi va o‘zi uchun ustuvor vazifalarni belgilashga yo‘naltiriladi. Bu orqali shaxsiy xususiyatlari ijobiylashadi va rivojlanadi.
3	Ta’lim jarayoni shunday quriladiki, bu o‘qitishdan va boshqa faoliyatlardan anglashilgan maqsad	O‘zini o‘zi baholash orqali o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj aniqlanadi

	bolalarning tabiiy va o'sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq bo'lgan muhim va ularga tushunarli bo'lishini ta'minlashdir. Shu bilan birga ta'lim jarayoni o'quvchilar faoliyatining ichki imkoniyatlari ustuvorligiga quriladi. Bahodan esa qulayliklarning tashqi sabablaridan yordamchi vosita sifatida foydalaniladi, xolos.	va tasdiqlanadi. O'quvchilarning ichki imkoniyatlari, “mavjud holati” ta'lim jarayonining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.
4	O'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan fanning asosi, bilim va malakalarni egallash ular uchun qiziqarli hamda tushunarli bo'lgan o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Zero, bu malakani egallash, asosan tasavvur orqali amalga oshib, ular bir bolada kuchli xotirlash paydo qiladi. O'quvchining asosiy o'quv malakasini tez va soz egallashi uning umumiy psixologik va aqliy rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, sust tayyorlangan va yetarli rivojlanmagan o'quvchilarda nuqsonlarning bartaraf bo'lishiga olib keladi, tabiatan qobiliyatli bo'lgan bolalarni esa rivojlantirib, yuqori ko'rsatkichlarni yuzaga chiqaradi.	O'zini o'zi baholash orqali o'quvchilarda fanning asosiy bilim-malakalarini egallashning konseptual strategiyasi shakllanib boradi. O'quvchilar yangi ma'lumotlarni qanday o'rganish, bu ma'lumotlardan qanday foydalanish, o'rganish va qo'llashda qaysi jihatlarga e'tibor qilish bo'yicha strategik yondashuv shakllanib boradi.
5	Ko'nikma va malakalarni egallash, ularni takomillashtirish bolalar ijodiyoti jarayonida badiiy o'qish, xalq iqtisodiyotini, badiiy mehnatni o'rganish orqali amalga oshadi.	O'zini o'zi baholash orqali o'quvchilar nafaqat bilim, balki egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarning tavsifi, mazmuni bilan tanishib boradi. Bu esa ularning mustaqil bilish faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.
6	O'quv sinflari turli xillik prinsipi: o'quvchilarning maktab ta'limiga oldindan tayyorgarligi darajasi, umumiy psixik va aqliy taraqqiyoti bo'yicha jalb qilinadi.	O'quvchilarning psixik va aqliy taraqqiyoti o'zini o'zi anglash, o'z faoliyati maqsadini to'g'ri belgilab olish jarayoni va muhitining samarali tashkil etilganligi bilan belgilanadi.
7	O'quvchi materialni faqatgina eshitish yoki his qilish a'zolari orqali o'zlashtirmaydi, balki o'zida bilishga nisbatan paydo bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun o'zlashtiradi.	O'zini o'zi baholash o'quvchida mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga, o'quv materiallarini o'zlashtirishga nisbatan “ichki ehtiyoj”ning shakllanishiga turtki beradi. Muntazam ravishda o'zini o'zi baholay olish o'quvchida mustahkam hayotiy tamoyilga aylanadi.
8	Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lish sharti: o'quv materialini muammolashtirish (bilim-o'quvchilar, hayratlanish va qiziquvchanlik); o'quvchining faolligi (bilimlar qiziqish bilan o'zlashtirilishi lozim); ta'limning bola hayoti, o'yin va mehnat bilan aloqasi.	O'quv materialini muammolashtirish o'quvchilarning mustaqil faolligini oshiradi, ularda yangi bilimlarga, yangi o'quv vaziyatlariga tabiiy qiziqishni vujudga keltiradi va darsdan tashqari vaqtlarda ham tafakkur qilish, keng va atroflicha bilimlar majmuasini shakllantirishga undaydi.
9	Muammoli vaziyat paydo bo'lganda o'qituvchidan o'quv materialini muammolashtirishni, differensial va individual yondashishni talab etiladi.	O'quv materialini muammolashtirish, differensial va individual yondashish o'quvchilarda kognitiv dissonansning oldini oladi va ularda kognitiv mustaqillikni ta'minlaydi. O'quvchi o'z qobiliyati, o'zlashtirish darajasiga muvofiq o'quv materialini tanlash imkoniga ega bo'ladi.

O'zlashtirishni tashxislash varaqalari ta'limda “qayta aloqa madaniyati”ni oshirib, demokratik tamoyillarga asoslanadi. Bu varaqalar o'quvchilarga muntazam ravishda o'quv jarayonining maqsadi, kutilayotgan natijalar va shu orqali erishishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

O'zlashtirishni tashxislash varaqalarida o'quvchilar o'z mustaqil fikrlarini bildirish, turli nuqtayi

nazaralarni ifodalash, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib tasavvur qilish, o‘zgalar fikrini ijobiy qabul qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda muomala madaniyati, o‘zgalar mehnatini qadrlash va e‘tirof etish, munosib fikrlar topish va bildirish kabi jihatlarni ham tarbiyalaydi.

O‘zlashtirishni tashxislash varaqalari o‘quvchilarning o‘quv-bilish jarayonida xatolarni va xatolardan o‘rganishni targ‘ib etsa, ota-onalar uchun o‘z farzandini qaysi tomonlama qo‘llab-quvvatlash kerakligi haqida atroflicha ma‘lumot beradi. Baholar orqali esa bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkonsiz hisoblanadi.

O‘zini o‘zi baholash o‘quvchilarning o‘quv jarayonidan tashqari mustaqil ta‘lim olish jarayoni uchun ham yo‘nalish belgilab olishda “qo‘llanma” vazifasini o‘taydi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zini o‘zi baholash o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan uzviy va chambarchas bog‘langan bo‘lib, ta‘limiy, tarbiyaviy, ruhiy, motivatsional, individual ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zini o‘zi baholash sinfga, jamoadagi o‘qish muhitiga bog‘liq. Bu orqali o‘quvchilar o‘z o‘quv natijalarini va o‘quv jarayonini real baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘zini o‘zi baholashga doir texnologiyalar ko‘rib chiqiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarni o‘zini o‘zi baholashni qo‘llab-quvvatlashni samarali tashkil etish imkonini beradi.

O‘zini o‘zi baholash sinfda o‘quvchini baholashga parallel ravishda amalga oshirilishi, qolaversa o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun ham muhim kompetensiya sifatida qaraladi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatini nazorat qilish, reflektiv munosabat bildirish, o‘zini o‘zi rivojlantirishni rejalashtirish va o‘rganishni “uzoqni o‘ylab” (sustainability) barqororlashtirishni o‘z ichiga oladi. Sinfda o‘quvchini baholash, ya‘ni an‘anaviy baholash jarayonining ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinishga muhtojligidir. Sinfda barcha o‘quvchilar oldida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar baholarining oshkora ma‘lum qilinishi, o‘quvchilar tomonidan faqat yaxshi baho uchun o‘qishi o‘z navbatida davlat ta‘lim standartlarida keltirilgan kompetensiyaviy yondashuvli o‘qitish konsepsiyasiga to‘laqonli mos kelmaydi. Qoniqarsiz baho oluvchi o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishining susayishi, o‘quvchining ruhiyatiga salbiy ko‘rsatishi pedagogik amaliyotda uchrab turadi. O‘quv jarayonida baholash birinchi darajali faoliyatga aylanishi o‘quv maqsadlarining amalga oshishiga to‘sqinlik qiladi. O‘smirlik davridagi bu kabi tez-tez baholanishning bir qancha salbiy jihatlari bor. O‘quvchining avvalambor o‘ziga va o‘zining muvaffaqiyatiga ishonchi susayadi. Qoniqarsiz baho olgan o‘quvchiga nisbatan yaxshi va a‘lo baholarga o‘qiydigan o‘quvchilar o‘rtasida aynan baho yuzasidan muammoli vaziyatlar vujudga keladi.

O‘zini o‘zi baholash o‘zini realistik tahlil qila olish ko‘nikmasidir. O‘zini o‘zi baholash o‘quvchilarning o‘z o‘quv faoliyati, undagi ishtiroki, o‘qib-o‘rganishining samaradorligi, o‘rganishning talab darajasida rivojlanishi, “vaqt – o‘rganish materiallari – mazmun” kesimidagi munosabati, o‘z faoliyatini baholash, tahlil qilish, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash va keyingi o‘rganish jarayonlarida samarali strategiya tanlash uchun muhimdir. O‘zini o‘zi baholash o‘quvchilarning ta‘lim natijalarini mo‘ljal qilsa-da, ta‘limning maqsadi va mezonlari asosida amalga oshiriladi. O‘zini o‘zi baholash subyektiv tarzda amalga oshirilishi tufayli, asli natijani yuqori yoki past baholash xavfini tug‘diradi. O‘zini o‘zi baholash shaxsiy rivojlanish, motivatsiya va maktab natijalarini ijobiylashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘quvchilar o‘zini o‘zi baholash orqali o‘zlarida o‘zini o‘zi hurmat qilish va o‘z qobiliyatlariga ishonch tuyg‘usi rivojlanadi. O‘qishda ijobiy natijalarga erishish va shaxsiy rivojlanish davomiy bo‘lishligi uchun to‘siqlarni, ma‘lum talablarni yetarli darajada bajarish zarur ekanligini anglash muhim, bu esa o‘zini o‘zi baholashning muhim funksiyalaridan biridir.

O‘zini o‘zi baholashning pedagogik ahamiyatini anglagan holda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv jarayonida o‘zini o‘zi baholash texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalanishi davlat ta‘lim standartlarida keltirilgan, egallanishi lozim bo‘lgan fanga doir va tayanch kompetensiyalarni egallanishiga erishiladi.

O‘zini o‘zi baholash davlat ta‘lim standartlarida keltirilgan kompetensiyalar (“zaruriy holat”) va o‘quvchilarning “mavjud holati”ni aniqlashda, o‘zini o‘zi baholash funksional vazifa bajarib, pirovardida o‘quv jarayonining samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

**Xulosalar. Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:**

1. Baholash tizimi – davlat ta‘lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

2. O‘zini o‘zi baholash – o‘quvchilarning kelgusidagi ta‘lim faoliyati samaradorligini bashoratlash, mustaqil bilish faolligini rivojlantiruvchi, o‘rganishning “ichki ehtiyoj” sifatida shakllantiruvchi, imkoniyatlar va to‘siqlarni aniqlash uchun diagnostika qilish imkonini beruvchi baholash usuli bo‘lib, o‘quvchilarning o‘rganish strategiyasini yuksaltirishga, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga va natijada

ta’lim olish faoliyati natijaviyligini ta’minlashga xizmat qilishi asoslandi.

3. Mustaqil bilish faolligi o’quvchi tomonidan nafaqat o’quv materialini idrok qilishga, balki o’quvchining bilish faoliyatiga munosabatini shakllantirishga qaratiladi. O’quvchining mustaqil bilish faolligi faoliyatning qayta ishlash xarakteri bilan doimiy bog’liqlikka ega. Bilimni tayyor holda qabul qilish o’quvchiga hamisha qiyinchilik tug’diradi. Ta’limiy tajriba-tadqiqot ishlari davomida o’quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, o’z shaxsiy rivojlanishini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun o’rganish strategiyalarini mustaqil qo’llay olishi, o’z ta’limiy natijalarini baholay olishi ustuvor ahamiyat kasb etishi tadqiq etildi.

O’zini o’zi baholash nafaqat pedagogik amaliyotda, balki bir qator sohalarda keng qo’llaniladi. Jumladan, psixologiya, boshqaruv, ijtimoiy sohalarda qo’llanilib, shaxsning potensialini, shaxsiy munosabati, mavjud holati, shaxsiy pozitsiyasini aniqlashda keng qo’llaniladi. O’zini o’zi baholash shaxsiy-motivatsional xarakterga ega bo’lib, o’quvchilarning shaxsiy qaror qabul qilish, kasb tanlash, o’z kelajagini rejalashtira olish, o’z imkoniyatlarini baholash kabi ko’nikmalarini rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O’zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841-son.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022 y, 06/22/60/0082-son.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y, 06/19/5712/3034-son.
5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 06.04.2017 y., 14 (774)-son.
6. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: ped. fanlari dokt. diss. –T., 2006. – 265 b.
7. Abdullayeva Q. Safarova R. Ochilov M. Nazarov K. Bikboyeva N. Zayniddinova M. Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi // Boshlang’ich ta’lim. 6-son, 1998. – B. 2-9.
8. Abduraxmonova D. Boshlang’ich ta’lim sifatini baholash va takomillashtirishda xalqaro tadqiqot dasturlarining o’rni: muammo va yechimlari // Boshlang’ich ta’limda innovatsiyalar, 2021/4. – 78-84 b.
9. Adizov B.R. Boshlang’ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fanlari dokt... diss. – Buxoro, 2002. – 276 b.
10. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
11. Akramova G.R. O’quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash texnologiyasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2020/1. – 51-61 b.
12. Алексеева Л.Л. Планируемые результаты начального общего образования. – М., 2010.–86с.
13. Alimov B. Kompetensiyaviy yondashuv – o’quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida // Academic research in educational sciences volume 1, Issue 4, 2020. – B. 364-372.
14. Amirova G.B. O’quvchi-yoshlarda hayotiy strategik o’zini o’zi anglashning psixologik asoslari // Zamonaviy ta’lim/ Современное образование. (2), 2016. – 40-44 b.
15. Архиреева Т.В. Самооценка академической компетентности младших школьников // Психолого-педагогические исследования, 1(2) 2009. – 64-71 с.
16. Ayxodjayeva M. O’quvchilarni o’rganishga o’rgatish. Boshlang’ich ta’limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar: respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – TDPU. – B. 12-14.
17. Andrade H.L. A critical review of research on student self-assessment. In *Frontiers in Education*, 2019. – P. 87 (316).
18. Andrade H.L., Du Y., Mycek K. Rubric-referenced self-assessment and middle school students’ writing. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 17(2), 2010. – P. 199-214.
19. Andrade H.L., Du Y., Wang X. Putting rubrics to the test: The effect of a model, criteria generation, and rubric-referenced self-assessment on elementary school students’ writing. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 27(2), 2008. – P. 3-13.



## SHAXSNI ADEKVAT QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

*Najmiddinova Muxayyoxon Shaxobiddin qizi,*  
*University of Business and Science*  
*Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qtuvchisi*  
*muhayyonajmiddinova72@gmail.com*

*Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki, har bir inson hayotda o'z o'rnini topishga harakat qilar ekan hayoti davomida shaxs bo'lib shakllanib boradi jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Har bir inson hayoti davomida turli qarorlar qabul qilishiga to'g'ri keladi bu esa o'z navbatida qay holatda vujudga kelishini nazariy va amaliy jihatdan xorij tadqiqotchilarni nazariy ma'lumotlariga tayangan holda qaror qabul qilishning shaxs rivojlanishidagi o'rnini va ahamiyati nazariyalar misolida tahlil qilishga harakat qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs, qaror qabul qilish, iyerarxiya, o'z-o'zini boshqarish, adaptatsiya, individuallik, subyekt, obyekt, xarakter, temperament.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИНЯТИЯ ЛИЧНОСТЬЮ АДЕКВАТНЫХ РЕШЕНИЙ

*Содержание этой статьи заключается в том, что каждый человек, стремясь найти своё место в жизни, развивается как личность на протяжении всей своей жизни и стремится найти своё место в обществе. Каждому человеку приходится принимать различные решения на протяжении всей своей жизни, что, в свою очередь, приводит к возникновению теоретических и практических исследований о роли и значении принятия решений в развитии личности на основе теоретических данных зарубежных исследователей.*

**Ключевые слова:** *личность, принятие решений, иерархия, самоуправление, адаптация, индивидуальность, субъект, объект, характер, темперамент.*

## PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PERSONAL ADEQUATE DECISION MAKING

*The content of this article is that every person, striving to find his/her place in life, develops as a personality throughout his/her life and endeavours to find his/her place in society. Each person has to make various decisions throughout his or her life, which in turn leads to the emergence of theoretical and practical research on the role and significance of decision-making in the development of personality based on the theoretical data of foreign researchers.*

**Keywords:** *person, decision-making, hierarchy, self-control, adaptation, individuality, subject, object, character, temperament.*

**Kirish.** Bugungi kun psixologiyasi shaxs strukturaviy tuzulmasining xususiyatlari bilan bir qatorda uning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan belgi va xususiyatlari ustida tatbiqiy ishlarni olib borish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bir qator psixolog olimlar bu borada o'z izlanishlarini olib borgan. Jumladan, A.G. Asmolovning ko'rsatishicha, shaxs psixologiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- shaxsning tarkibi- subyektning faoliyat subyektini sifatida namoyon bo'lishi, o'zligini anglash hissini shakllantirish va barqarorligini ta'minlash;


- umumiy psixik jarayonlar, insonga shaxsiy va individual tajriba orqali boshqarish imkonini beradi;

- individual tafovutlar va individual xususiyatlar;

- o'zini-o'zi boshqarishga va bashorat qilishga qobiliyat.

Yuqoridagi xususiyatlarni shaxs imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, har bir shaxsning individualligi bilan birgalikda namoyon bo'lar ekan, bu jarayon shaxsni qaror qabul qilish strategiyasi uchun asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham shaxsning nosituativ vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmasi uning fikrlash tipi bilan bir qatorda ijtimoiy vaziyatlarning xususiyat va holatlariga ham bog'liq. Shu sababli shaxs masalasida turli nazariy qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Shaxs psixologiyasida ko'plab nazariyalar va mualliflarning nazariy kelishmovchiliklari mavjudligiga qaramay tadqiqotchilar shaxsning amal qilishining ba'zi jihatlari haqida yagona qarashni qo'llab-quvvatlaydilar. Zamonaviy shaxsni o'rganuvchi tadqiqotchilarning ko'pchiligi quyidagi umumiy nazariy tamoyillarga asoslanishadi. Bunday tamoyillar sirasiga R.Bernsning “Men” konsepsiyasini tahlil qilib o'tsak. R.Berns «Men» konsepsiyasining

differensiyalashgan tizimini taklif qildi. Unga ko‘ra «Men» konsepsiyasining asosini o‘ziga yo‘nalganlik ustanovkalari tizimi tashkil qiladi. «Men» konsepsiyasi strukturasi asosiy komponentini quyidagi ustanovkalar tashkil qiladi:



R.Berns «Men» konsepsiyasining iyerarxik (ketma-ketlik bilan bir-biriga teng bo‘ysundirish usuli) tizimi ko‘rinishida «Men» konsepsiyasi cho‘qqisiga erishib, o‘z-o‘zini anglashdagi imkoniyatlar chegarasini ochib berdi. R.Berns «Men» konsepsiyasi elementlarini quyidagicha tasniflagan: a) «Men» - anglovchi;

b) «Men»-obyekt. U «Men» konsepsiyasini insonning o‘ziga nisbatan ustanovkalarining yig‘indisi deb tushuntiradi. U buni ikki komponentga bo‘ladi, bu komponentlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, quyidagicha izohlanadi: o‘ziga baho berish yoki o‘zini qabul qilish-«Men - anglovchi» - «Men» obrazi bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa o‘z navbatida «Men obyekt» bilan bog‘liq bo‘ladi. R.Berns o‘ziga yo‘nalganlik ustanovkasini 3 ga bo‘ladi: - real (haqiqiy) Men ustanovkasi – bu individning o‘z aktual qobiliyatlarining rolini qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishi.- oynadagi Men ustanovkasi - kelajakdagi Men ustanovkasi. Bu ustanovkalar shaxsninig qaror qabul qilish strukturasi shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Sababi ongimiz va undagi ustanovkalar faoliyat davomiyligini ta‘minlash bilan bir qatorda, munosabatlar iyerarxiasini shakllanishi va rivojlanishi uchun omil bo‘lib xizmat qiladi. R.Bernsning iyerarxik tizimidagi eng quyi pog‘onada “Men” konsepsiyasining keyingi aspektlari joylashgan. Bular: - ijtimoiy men; - ma‘naviy men; - jismoniy men. R.Berns nazariyasida jismoniy men aspekti boshqa elementlarga nisbatan zaifroq ochib berilgan. Muhim jihati shundaki, ijtimoiy men vaziyatlarga nisbatan tahliliy munosabat ko‘nikmasini shakllantirishning qulay vaziyati hamdir.

Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo‘yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya‘ni doimiy xislatlari) bo‘lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o‘ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo‘lishi shu kishi xarakterining xislati bo‘lavermaydi. Shuning uchun xarakter qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynasada, qaror qabul qilish texnikasini namoyon etmasligi ham mumkin. Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko‘rsatishi mumkin. Mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi va bu qarorlar qabul qilish jarayonida ham o‘z aksini namoyon etib boradi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak. Kishining xarakterini ta‘riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo‘y, to‘g‘riso‘z deb ataymiz. Buning ma‘nosi shuki, dadillik va rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday qaror qabul qilishi va qanday yo‘l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz. Iroda kuchi va xarakter qat‘iyati qarorlarni shakllantiradi, uni qabul qilishning versiyalarini ko‘rsatib beradi. Iroda ma‘lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba‘zi hollarda kishining irodasi kuchli sur‘atda namoyon bo‘lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo‘ladi. Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko‘rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko‘rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz xohishlarni, qarorlarni farq qilamiz. Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to‘rtta tizimi farqlanadi. Jamoa va ayrim odamlarga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar). Mehnatga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga ma‘suliyat yoki ma‘suliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lishi kabilar). Bu jihatlar qarorlarni tahlil qilishdan tortib uni qabul qilishning zaruriyatini ham izohlab beradi. Bu o‘rinda qarorlarning turlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Narsalarga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi

xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish kabilar). Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar). Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'z bilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik, qaror qabul qilishda o'ylamasdan, shoshma-shosharlik bilan qarorlar ustida ishlash kabilar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bu jarayon boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ladi. A.L.Juravlevning ta'kidlashicha, aksariyat tadqiqotchilar boshqaruv qarorlarini tahlil etishda, faoliyatning iyerarxik tuzilishi nuqtayi nazaridan yondashishga harakat qiladilar. Ya'ni rahbar shaxsining boshqaruv faoliyatida namoyon bo'ladigan psixofiziologik funksiyalari, o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlash darajasi, boshqaruv subyektiining maqsad va rejaları kabi masalalarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari nozik vaziyatlarni his qilgan holda to'g'ri qaror qabul qilish texnikasi boshqaruv faoliyatining samarasinin ta'minlab berivchi asos hamdir. Shuning uchun faoliyatdagi doimiy kurash yoki motivlarning to'qnashuvi, rahbar boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Ba'zi tadqiqotlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda rahbar shaxsining qarorlarni qabul qilishdagi mkoniyatlarini baholash holatida, stressli holatlarning inson xulq-atvoriga ta'siri masalasi ko'proq e'tiborga olinadi. A.T.Zubning so'zlariga ko'ra, rahbar har qanday shart-sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi chidamli shaxsdir. Uning samarali qarorlarni qabul qilishida ijtimoiy idrok, vaziyatlarni bashorat qila olish malakasi, ijtimoiy hamkorlik qobiliyati, sotsial intellekt, innovatsion tajribasi, kreativ hamda tanqidiy fikrlash uslubi kabi sifatleri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar sifatida, insonning boshqalarga ta'sir eta olish qobiliyati hamda nazorat qila olishning kuchini misol qilish mumkin. V.V.Kozlovning tasnificha, boshqaruv qarorlari to'rt asosiy xususiyati bilan alohida xarakterlanadi:

– tanlov imkoniyatining mavjudligi, ya'ni qaror qabul qiluvchi rahbar bir necha alternativ variantlarga ega bo'lishi lozim;

– yechimlardagi murakkabliklar yoki turli xil farazlar;

– qabul qilinayotgan qarorning oldidan rejalanganligi yoki yangi qaror haqida xabardorlik;

– qarorlarning maqsadlarga muvofiqligi, yo'nalganligi; Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayonida shaxsning irodaviy sifatleri, hissiy sohasi, ijtimoiy intellekti, kasbiy motivatsiya darajasi, shaxsning innovatsion yetakchiligi kabi psixologik unsurlarning roli ham batafsil yoritilgan. Qaror qabul qilish – bu nafaqat biror bir ahamiyatga molik maqsadni amalga oshirish balki, taqdirni belgilash, natijani kutish, yangi imkoniyatlarni rejalashatirish yoki uni amalga oshirishni nazorat qilishdir;

– qaror qabul qilish – ijtimoiy hodisa, kognitiv faoliyat natijasi, inson funksional faoliyatining mahsuli, samarali boshqaruv faoliyati uchun xos bo'lgan metakognitiv jarayon. Metakognitiv jarayon - oddiy vazifalar yoki vaziyatlar uchun emas, birgalikdagi ham hamkorlikdagi harakatlar uchun javobgardir. Zamonaviy boshqaruvda qarorlarni to'g'ri tayyorlash va qabul qilish ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy hayotning barcha sohalarida boshqaruv samaradorligiga erishish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni yuqori malaka va amaliy ish tajribasini talab qiluvchi mehnat faoliyatining alohida turidir. Odatda, boshqaruv qarorlari qabul qilish biron-bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ma'lum qoida, aniq harakatlar doirasida amalga oshiriladi.

**Natijalar tahlili.** Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ko'p omillilik tamoyili kuchga kiradi. Shunday omillardan biri shaxsiy kompetentli omil hisoblanadi Mazkur omilni qaror qabul qilish jarayonidagi o'rnini ko'rsatish uchun "Ringi" usulidan foydalanish mumkin. "Ringi" usuli yapon biznesida keng qo'llaniladigan usuldir. Bu usulga ko'ra majlislarda emas, balki so'rab chiqish yo'li bilan rozilik olish vositasida hal etiladi, bir necha bosqichda amalga oshiriladi. "Ringi" usulini qo'llash bosqichlari

1. Birinchi bosqich. Bu bosqichda tashkilot rahbariyati qanday muammo yuzasidan qaror qabul qilinishi lozim bo'lsa, shu muammo (masalan, yangi mahsulot turini ishlab chiqarish)ga doir umumiy mulohazalarni jalb etilgan mutaxassislar bilan birgalikda o'rtaga tashlaydi.

2. Ikkinchi bosqich. Muammo «pastga», ya'ni loyiha ustida ish tashkil etiladigan pog'onaga uzatiladi.

3. Uchinchi bosqich. Bu bosqichda tayyorlanayotgan loyihaning barcha jihatleri bo'yicha ijrochilar bilan batafsil kelishib olinadi. Aslida bu ixtiloflarni, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni bartaraf etish bosqichidir.

4. To'rtinchi bosqich. Muammoni hal qilish uchun maxsus kengash va konferensiyalar o'tkaziladi.

5. Beshinchi bosqich. Bu bosqichda xujjat ijrochilar tomonidan imzolanadi, har kim o'z muhrini bosadi va xujjat tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi. Yaponiyada "Ringi" usulini ehtiyotkorlik, avaylash, jamoat mas'uliyatini oldinga suruvchi boshqaruv falsafasining ko'rinishlaridan biri deb hisoblash odat tusiga kirgan. Garchi bu usulning haddan tashqari sermashaqqat bo'lgani uchun yapon matbuotida uning sha'niga aytilgan tanqidni uchratish mumkin bo'lsa-da, uni qo'llashdan voz kechish to'g'risida hech narsa deyilmaydi.

Qayd qilingan qarorlar, odatda tezkor boshqaruvni amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi. Strategik va taktik boshqaruv maqsadida esa iqtisodiy tahlilga, optimallashtirishga asoslangan oqilona qarorlar qabul qilinadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Boshqarish jarayonida doimo biron-bir masalani hal qilishga to'g'ri keladi. Chunki turli sabablar tufayli belgilangan parametrlardan og'ish sodir bo'ladi, yangi jarayonlarga zaruriyat tug'iladi, natijada ishlab chiqarish oldida paydo bo'lgan muammoni bilish, uni tahlil qilish va hal etish zaruriyati yuzaga keladi. Qaror qabul qilish zarurati va tahlil qilinayotgan obyektidagi aniq vaziyat aniqlangach, turli yo'llar bilan erishiladigan qaror maqsadi shakllantiriladi va uning yechimi bo'yicha vazifalar belgilanadi. Qaror qabul qilish jarayonida vaqt omili ikki xil nuqtayi nazardan tushuntiriladi: birinchidan, qaror qabul qilishda vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligi, ikkinchidan, qaror qabul qilishda ijroning bajarilishiga ketadigan vaqt. Vaqt omili ikkala holda ham qaror ijrosining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Vaqt omilini biz quyida birinchi ma'noda qo'llaymiz. Ma'lumki, vaqtning oqimi vaziyatlarni o'zgartirishi mumkin. Agar vaqt jihatdan chiqarilgan qaror eskirib qoladigan bo'lsa, chiqarilgan qaror ham o'z kuchini yo'qotishi mumkin. Chegaralangan vaqt birligida qaror qabul qilish esa insondan birmuncha qiyinchiliklarga sabab bo'lishi tabiiy. Shunday insonlar borki, ular vaqtning chegaralanganligida o'zlarini yo'qotib qo'yishlari mumkin. Natijada yo sifatsiz qaror qabul qilinadi, yoki xato qaror qabul qilinadi. Ayniqsa, noaniq vaziyatlarda chegaralangan vaqt birligida qaror qabul qilish vaziyatni yanada mushkullashtiradi. Shuning uchun rahbar qaror qabul qilayotganda, albatta, vaqt omilini rejalashtirgan holda inobatga olmoqligi darkor. Shuningdek, qaror qabul qilishda qarorning ijrosi uchun ajratilgan vaqt birligini ham e'tiborga olish talab etiladi. Qarorni uzoq muddat qabul qilib, ijroga oz muddat qoldirilishi ham qaror qabul qilishning e'tibor berishimiz lozim bo'lgan jihati hisoblanadi. Informatsiya - konkret vaziyatlardan chiqish uchun to'plangan to'plami ma'lumotlar hisoblanadi. U muammoni hal etish uchun zarur. Ba'zida optimal qaror chiqarish uchun ma'lumotlar yetishmaydi yoki noaniq ma'lumotlarga ega bo'linadi. O'zgarib turadigan ma'lumotlar mavjud. Ular ham optimal qaror qabul qilish uchun bir qadar xavf tug'diradi. Shuning uchun rahbarlar qo'shimcha informatsiyalar olishga harakat qiladi. Demak, qaror qabul qilish shaxsning muhim strategik yondashuv usuli bo'libgina qolmay, o'zligini namoyon etishning maxsus texnikasi hamdir va muvaffaqiyatni ta'minlashning garovihamdir. Qachon bizda to'g'ri qaror qabul qilishning ko'nikmalari malakalarga aylanmas ekan biz hayotiy muvaffaqiyat sari ildamlay olmaymiz va biz samaradan uzoqlashib boraveramiz. Natijada o'zligimizni anglash va o'z kuchimiz, imkoniyatlarimizdan unumli foydalanish jabhasida xatoliklarga qayta qo'l uraveramiz.

#### Adabiyotlar:

1. Ajzen I. The social psychology of decision making //Social psychology: Handbook of basic principles. – 1996. – C. 297 - 325.
2. Alison L., Thompson L. Military maximizers: examining the effect individual differences in maximization on military decision-making //Personality and Individual Differences. – 2020. – T. 163. – C.110.
3. Bandura A. Self-efficacy. The exercise of control / A. Bandura. – New York: Freeman and Co.,1997. – 604 p.
4. Beach L.R., Connolly T.The psychology of decision making: People in organizations. – Sage Publications, 2005. – 131 p.
5. Britt T. W. Military Life: Military performance. – ABC-CLIO, 2006. – T. 1. – 248 p. Chase V. M. Visions of rationality / V. M. Chase, R. Hertwig, G. Gigerenzer // Trends in Cognitive Sciences, 1998, V. 2, № 6. PP. – 206 - 214.

## OILADA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINING HISSIIY-EMOTSIONAL JIHATLARI

*Ismatova Dilafruz Tuymuratovna,*

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti*

*Ushbu maqolada oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi ekanligi, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasiligi, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi, o'z uyida topishi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etishi, oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlarning tabiati katta rol o'ynashi haqida aytiladi. Oilada bolalar hayotida kechirimlilik, itoatkorlik, yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlash kabilar qimmatli ekanligi, bu orqali ular yaqinlarini tushunish, hayrat va sadoqatni his qilishlari yozilgan. Ota-onalarning namunasi bolaning emotsional intellektini rivojlantirishning muhim sharti ekanligi, chunki u bolalar tomonidan emotsional aloqa, ifoda etish va emotsional holatlarni boshqarish usullarining standart sifatida qabul qilinishi, bola tug'ilishining dastlabki onlarida ona va bola o'zaro hissiy va psixologik jihatdan bog'langanligi, bola ulg'ayib, katta bo'lgani sari ular o'rtasidagi masofa, psixologik distantsiya ortib borishi, lekin farzandga ota-onasi tomonidan doimiy g'amxo'rlik o'ta muhim ekanligi aytilgan.*

***Kalit so'zlar:** emotsional holat, simbiotik munosabatlar, ontogenez, emotsional intellekt, kognitiv munosabatlar, klassik psixoanaliz, psixosotsial munosabatlar.*

## ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ РОДИТЕЛЕЙ И ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

*В этой статье будет рассказано о том, что семья - это неотъемлемая часть общества, что семья для каждого человека - это начало жизни, прелюдия ко всему, что каждый человек находит своё счастье и блаженство, прежде всего, в своей семье, в своём доме, что только счастливый человек в своей семье чувствует себя полноценным, счастливым, отношения в семье, в частности, взаимодействие между родителями, также говорится, что большую роль играет характер отношений, которые устанавливаются между родителями и детьми. В статье написано, что в жизни детей ценны такие вещи, как прощение, послушание, поддержка со стороны близких, благодаря которым они чувствуют понимание, восхищение и преданность своим близким. Что образец для подражания родителей является важным условием развития эмоционального интеллекта ребёнка, поскольку он воспринимается детьми как эталон способов эмоционального общения, самовыражения и управления эмоциональными состояниями, что в первые моменты рождения ребёнка мать и ребёнок эмоционально и психологически связаны друг с другом, что по мере роста и взросления ребёнка дистанция между ними, психологическая дистанция возрастают, но ребёнку известно, что постоянная забота родителей чрезвычайно важна.*

***Ключевые слова:** эмоциональное состояние, симбиотические отношения, онтогенез, эмоциональный интеллект, когнитивные отношения, классический психоанализ, психосоциальные отношения.*

## EMOTIONAL ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PARENTS AND CHILDREN IN THE FAMILY

*This article tells about the fact that a family is an integral part of society, a family for each person is the beginning of life, the preamble of all things, that each person finds his happiness and happiness above all in his family, his own home, that only a person who is happy in his family feels full happiness, relationships in the family, It is written that in the life of children in the family, such as forgiveness, obedience, support from loved ones are valuable, through which they feel the understanding, admiration and loyalty of loved ones. It is said that the example of parents is an important condition for the development of the child's emotional intelligence, since it is perceived by children as a standard of methods of emotional communication, expression and management of emotional states, that in the early moments of the birth of a child, the mother and child are emotionally and psychologically connected, the distance between them*

***Keywords:** emotional state, symbiotic relationships, ontogenesis, emotional intelligence, cognitive relationships, classical psychoanalysis, psychosocial relationships.*

**Kirish.** Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtayi nazaridan mavjud bo'lib kelayotgan tuzilmadir. Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi. Oila ijtimoiy guruhlarining eng kichigi bo'lib, bolada o'zi va o'zgaralar to'g'risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarining dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskandir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlarning tabiati katta rol o'ynaydi. Oilada bolalar hayotning birinchi kunlaridanoq kechirimlilik, itoatkorlik, yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi qimmatli tajribaga ega bo'ladi, yaqinlarini tushunish, hayrat va sadoqatni his qiladilar. Xulosa qilib aytganda ommaviy amaliyot va ilg'or tajribalar shuni ko'rsatadiki, boladagi yuqori ko'rsatkichlarga erishish hozirgi vaqtda emotsional intellektning rivojlanishi bilan bog'liq[1]. Ota-onalarning namunasi esa bolaning emotsional intellektini rivojlantirishning muhim shartidir, chunki u bolalar tomonidan emotsional aloqa, ifoda etish va emotsional holatlarni boshqarish usullarining standarti sifatida qabul qilinadi.

Bola tug'ilishining dastlabki onlarida ona va bola o'zaro hissiy va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qo'shib ketganlik, yaxlitlik) bo'ladi. Bola ulg'ayib, katta bo'lgani sari ular o'rtasidagi masofa, psixologik distantsiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi. Chaqaloqning jismoniy o'sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g'amxo'rlikiga bevosita bog'liq. Shunisi muhimki, bola uchun har qanday g'amxo'r va mehribon inson unga ona o'rnini bosishi mumkin. Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rliqi, ya'ni, mehribon insonning – “obyekt”ning doimiyligi bola rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to'lguncha bo'lgan davri noverbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o'zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo'ladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo'ladi va bora-bora muomalaga til va tovushlar bilan bog'liq belgilar kirib kela boshlaydi. Boladagi kognitiv rivojlanish, ya'ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir etadi.

Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so'z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa'diyning “Guliston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'laga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin. Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya'ni oila muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishi ta'kidlangan. Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o'rni xususida fikr yuritib, “Oila” asarida shunday mulohazalar bildiradi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi”[2].

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta'sirini o'z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richardson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha bo'yicha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari to'g'risida F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, M.Salayeva, N.Sog'inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utepbergenov, G'.Shoumarov va boshqa

olimlarimizning olib borayotgan tadqiqotlarini alohida ta’kidlab o’tishimiz lozim. Falsafiy va psixologik adabiyotlarda bola-ota-ona munosabatlarining mazmuni va mazmunini tushunishning bir qator nazariy yondashuvlari shakllangan. Z.Freydning klassik psixoanalizida ota-onalarning bolaning aqliy rivojlanishiga ta’siri markaziy o’rinni egallaydi. Ota-onalar, ayniqsa, ona bola uchun eng muhim tajribaga ega bo’lgan odamlardir. Ota-onalarning bolaga g’amxo’rlik qilish haqidagi odatiy kundalik tashvishlari sezilarli psixologik ta’sir ko’rsatadi. Chaqaloqning hayotiy ehtiyojlarini qondirishning to’liqligi va yo’li bog’lanish, ishonch, hayot uchun faollik asosiga aylanadi. Psixoanalitik yondashuvning vakili E.Erikson hayot davomida shaxsning shakllanish jarayonini tahlil qilib, har bir shaxs uchun psixoseksual emas, balki, psixosotsial ziddiyatlarni hal qilish zarur degan xulosaga kelgan. Sog’lom shaxsni shakllantirishning asosi o’zini tuta bilish, mustaqillik hissi, dunyoga asosiy ishonch hissi, tashabbus kabi hissiyotlar bola tomonidan boshqariladigan makonning ko’payishi sharoitida yuzaga kelishini aytadi.

**Tadqiqot obyekti.** Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas’uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas’uliyat bilan yondashmog’i lozim. Kelajakdagi yo’li ravon bo’lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo’lgan farzandlarini ulg’aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo’ladi desak hech mubolag’a bo’lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg’urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O’sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo’lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo’lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo’lmaslik lozim. Ingliz olimi U.R. Bion kuzatishlarida onaning har bir harakati, mimikalari bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o’zlashtiradigan alohida iboralar, so’zlarda namoyon bo’ladi. Video tasmlarda shu narsa namoyon bo’lganki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so’zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o’rganadi. Olamni ona orqali bilishga imkon beruvchi psixologik holatlardan yana biri – bu hissiy-emotsional bog’langanlikdir. Bolaning psixologik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta’sir ko’rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarga, xususan, undagi o’zlikni anglash, o’ziga-o’zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog’liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. I. N. Andreeva, T. O. Babaeva, M. I. Gryaznova, L. M. Novikova va boshqalarning tadqiqotlariga ko’ra shaxsda emotsional munosabatlarni shakllantirish uchun senzitiv davr maktabgacha yoshdir, chunki bu yosh bosqichida odam eng intensiv ravishda o’sadi va rivojlanadi, ya’ni maktabgacha yosh davrida ko’plab muhim hayotiy funksiyalarni tartibga soluvchi hissiyotlarning aksariyati shakllanadi. Boladagi bu xususiyatlarning shakllanishida esa oilaning o’rni katta. Boshqacha qilib aytganda, bolalardagi emotsional hissiyotlarni boyitishning eng muhim sharti - bu bola va kattalar o’rtasidagi hissiy holatlar va hissiy vaziyatlarni o’z ichiga olgan shaxslararo muloqotdir. Bolaning kamoloti uchun ota-onalar bolalar bilan birgalikda bajariladigan faoliyat turlariga katta e’tibor bermoqliklari zarur. Farzandlar bevosita ota-onaning ishtiroki va yordamida dunyoni taniydi, o’rganadi. Hissiy-emotsional bog’langanlik- olamni ota-ona orqali bilishga imkon beruvchi psixologik holatlardan biridir.

**Qo’llanilgan metodlar.** “Oila kinetik rasmi” proyektiv metodikasi oiladagi ota-ona va farzandlar o’rtasidagi hissiy-emotsional munosabatlarni o’rganish uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda bolaga o’z oilasining rasmini chizish ko’rsatmasi beriladi. Vazifani bajarish jarayonida bayonnomada quyidagilar qayd qilinishi zarur:

- A) detallarni chizish ketma-ketligi;
- B) 15 sekundan ortiq pauzalar;
- V) detallarni o’chirish;
- G) bolaning spontan (dabdurustdan, o’z-o’zidan berilgan) izohlari;
- L) emotsional reaksiyalar hamda ularning tasvir mazmuni bilan aloqasi.

Vazifa bajarib bo’lingach, psixolog verbal yo’l bilan iloji boricha ko’proq ma’lumot olishga harakat qilishi lozim. Odatda quyidagi savol bilan murojaat qilinadi.

1. Ayt-chi, bu yerda kim tasvirlangai?
2. Ular qayerda tasvirlangai?
3. Ular nima qilishyapti?
4. Rasmda chizilganlarning eng baxtlisi kim? Nima uchun?

Oxirgi ikkita savolga agar bola javob bergisi kelmasa, uni majburlash mumkin emas. Chunki u hissiyotlar bilan bog’liq. Suhbat davomida psixolog bola chizgan rasmning mazmunini aniqlashga harakat

qilishi zarur:

- agar oila a’zolaridan biri tasvirlanmagan bo’lsa unga nisbatan hissiyotlarini;

- uning sabablarini; rasmdagi alohida detallar (hayvonchalar, qushchalar) bola uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini bilish muhimdir. Ammo bunda iloji boricha, to’g’ri, bevosita savollarga murojaat qilmaslik zarurki, bu bolada tashvishlanish, himoya reaksiyalarini keltirib chiqarishi mumkin. Suhbatdan so’ng bolaga 6 turdagi vaziyatni hal qilish taklif qilinadi: ulardan uchtasi oila a’zolariga nisbatan negativ hissiyotlarni, uchtasi ijobiy munosabarni aniqlashga qaratilgan:

1. Tasavvur qilaylik, sirkka 2ta chiptang bor. Kimni o’zing bilan birga sirkka taklif qilarding?

2. Tasavvur qilaylik, oilangiz mehmonga borishi kerak. Biroq kimdir kasal bo’lib uyda qoladi. U kim?

3. Konstruktordan uy yasayapsan, lekin uning uddasidan chiqa olmayapsan. Kimni yordamga chaqirasan?

4. Senda qiziqarli filmga bir necha chiptalar bor, lekin u oila a’zolarining sonidan 1taga kam. Uyda kim qoladi?

5. Tasavvur qilaylik, sen kimsasiz orolga tushib qolding, u yerda kim bilan yashashni xohlarding?

6. Senda qiziqarli loto o’yini bor. Oila a’zolarining bilan uni o’ynamoqchisizlar. Ammo bitta odam ortiqchalik qilayapti. Kim loto o’ynamaydi?

**Olingan natijalar tahlili.** Odatda, oilada ijobiy emotsiyalarni his qiluvchi bola oilani to’laligicha aks ettiradi. Tadqiqotlarda ko’rsatilishicha, 6-8 yoshli normal intellektga ega bo’lgan bolalarning 85% (oilasi bilan yashovchi) rasmda oila a’zolarining to’liq rasmini chizadi. Agar oila a’zolaridan birortasi tushib qolgan bo’lsa, bunga alohida e’tibor berilishi talab qilinadi. Chunki u emotsional ziddiyat, oiladagi mavjud vaziyatdan qoniqmaslikdan dalolat beradi. Ba’zi hollarda rasmda umuman odamlar aks ettirilmasligi yoki oilaga umuman aloqasi bo’lmagan odamlar aks ettirilganligini ko’rish mumkin. Bunday holatlar juda kam uchraydi. Buning sababi – oila bilan bog’liq bo’lgan salbiy kechinmalar: rad etilganlik hissi, himoyasizlik hissi, yuqori darajadagi xavotirlanish hamda psixologning urganilayotgan bola bilan yaxshi aloqa o’rnata olmaganligi bo’lishi mumkin.

Amaliyotda ba’zan bolalar oila a’zolaridan birini tushirib qoldirishlari ham uchrab turadi. Buning sababi o’sha oila a’zosining emotsional yoqimsizligi, u bilan nizoli munosabatning mavjudligidir. Ba’zan real oila a’zolari o’rniga bola biror hayvoncha, qushcha rasmini chizishi mumkin. Bunda, psixolog uchun bola ular bilan kimni identifikatsiya qilayotganligi muhim (ko’pincha bola oiladagi ta’sirni kamaytirishni xohlagan aka yoki ukasini shunday aks zttiradi). Ba’zi rasmlarda bola o’z rasmini chizmaydi yoki oilasi urniga faqat uzini aks ettiradi. Bu bolaning o’zini oila tarkibiga qushmasligidan, oilada hamjihatlik mavjud emasligidan dalolat beradi. Rasmda «Men»ning mavjud bo’lmasligi qabul qilinmaslik, rad etilish hissini boshidan kechirayotgan bolalar uchun xarakterli. Oila tarkibining katgalashtirilishi ham bizga ba’zi ma’lumotlar berishi mumkin. Odatda bu oiladagi psixologik ehtiyojlarning qondirilmaganligi bilan bog’liq. Rasmda oila a’zolarining joylashishi oiladagi o’zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlaridan darak berishi mumkin. Oilaning jipsligi, oila a’zolari bir-birlari bilan qo’l ushlab turishi, umumfaoliyat bilan birlashuvi oilaning normal psixologik xarakteristikali rasmlar emotsional aloqalarning past darajasidan dalolat beradi. Oilaning bir qismi bir guruhda chizilgan, bitta yoki bir necha shaxs alohida tasvirlangan rasmlar psixologik jihatdan qiziqarlidir. Agar bola o’zini alohida ajratib qo’ysa, bu uning ajralib qolganlik hissi mavjudligini bildiradi. Agar oila a’zolaridan birortasi alohida qilib chizilsa, bolaning unga nisbatan negativ munosabati, undan bolaga kelayotgan xavf haqida taxmin qilish mumkin. Rasmda oila a’zolarini guruhlarga birlashtirish oilaning psixologik mikrostrukturasi aniqlash imkonini beradi. Oila a’zolarining grafik tasvir xususiyatlari bolaning ayrim oila a’zosiga nisbatan emotsional munosabatini, bola uni qanday idrok etishi, bolaning « Men-obrazi», uning jinsiy identifikatsiyasi kabi keng qamrovli ma’lumotlar berishi mumkin. Odatda, insonga ijobiy emotsional munosabat uning rasmini chizishda (pozitiv) ijobiy kontsentratsiyada namoyon bo’ladi, ya’ni tana detallarining miqdori, kiyim detallari va bezaklari hamda turli ranglar qo’llani lishida ifodalanadi. Va aksincha, insonga negativ munosabat sxematik tasvir, ba’zida tananing muhim qismlari (bosh, oyoq, qo’l) tushib qoldirilishida ham aks etadi. Odatda, bolalar ota yoki onasini ko’rinishini kattalashtirib chizishadi. Bu haqiqatga yaqin. Ba’zida esa chizilgan figurani munosabati oila a’zolari real munosabatlariga mos kelmaydi, masalan, 7 yoshli bola o’z ota-onalaridan balandroq tasvirlanishi mumkin. Bu bola uchun figuraning kattaligi kuch, ustunlik, ahamiyatlilikni ifodalash vositasi bo’lib xizmat qilishidan dalolat beradi. Ba’zi bolalar o’zlarini hammadan katta yoki ota-onalari bilan teng qilib chizadilar. Bu esa bir tomondan, bola egotsentrizmidan, ikkiichi tomondan qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onaga «raqobatchi» ekanligini ta’kidlash maqsadida qilinadi. Shu bilan birga «raqibini» kichraytirish yoki umuman chizmaslik hollari ham uchrashi mumkin. O’zlarini ahamiyatsiz ortiqcha deb his qiluvchi hamda ota - onalari tomonidan mehribonchilik, g’amxo’rlik talab qiluvchi bolalar o’zlarini boshqa oila



a’zolariga nisbatan ancha kichik hajmda tasvirlaydilar. Shuningdek, o’ziga ishongan, ustunlikka moyil bolalar o’zlarini juda katta hajmda tasvirlasalar, xavotirlanish, himoyasizlik hissi mavjud bolalar o’zlarini haddan tashqari kichik qilib chizadilar.

Tadqiqotlarning ko’rsatishicha, 38 % ga yaqin bolalar birinchi bo’lib onalarini, 35 % i o’zlarini, 17%i otalarini, 8 %i esa aka-uka, ona-singillarini chizadilar. Himoya qilishda eng muhimidan boshlanganidek, bolalar rasmda birinchi bo’lib eng ahamiyatli, muhim yoki emotsional jihatdan yaqin odamini aks ettiradi. Bu shu bilan izohlanishi mumkinki, ona oilada muhim funksiyalarni bajaradi, bolalar bilan ko’p vaqt birga bo’ladi, ularga boshqalarga nisbatan ko’proq e’tibor qaratadi. O’zlarini birinchi bo’lib tasvirlash bolalarga xos bo’lgan mos xususiyati – egotsentrizm bilan bog’liq. Agar rasm onasi yoki o’zidan katta balki boshqa oila a’zolaridan boshlansa, bunga ahamiyat qaratish zarur. Chunki bu shaxs ko’pincha bola uchun qadrlil bo’lib, unga bog’langan bo’ladi. Agar bola eng oxirida onasini chizsa, bu bolaning unga nisbatan negativ munosabatini bildiradi. Oila a’zolarini chizishdagi ketma-ketlik tahlili figuralar grafik tasviri xususiyatlari tahlili bilan birgalikda amalga oshirilsa, ishonchli ma’lumotlar olish mumkin. Agar birinchi tasvirlangan figura hajm jihatidan katta, biror sxematik tarzda, bezatilmagan holda ifodalansa, bu shaxsning bola uchun ahamiyati, oiladagi ustunligi, kuchidan dalolat beradi, ammo bolaning unga nisbatan hissiyotlari ijobiy emas. Ko’pincha bolalar oila rasmini chizish vazifasini olgach, oila a’zolarini chiza boshlaydilar. Ba’zi bolalar esa avval turli ob’ektlarni, quyosh, mebel rasmini chizib, keyin odamlarni tasvirlashga kirishadilar. Bu - o’ziga xos himoya reaksiyasi bo’lib, bola o’ziga yoqimsiz vazifani bajarishni bir oz orqaga suradi. Ko’pincha bu noqulay oilaviy vaziyat, yomon munosabatlar, shuningdek, bazida psixolog bilan bolaning aloqasi yomon bo’lganida kuzatiladi. Oila a’zolari rasmi chizib bo’lingach unga yana qaytish bola uchun uning ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Muayyan detallar, oila a’zolarini chizishdan oldingi pauza nizoli vaziyat bilan bogliq hamda motivlar ichki dissonansining tashqi ifodalanishi hisoblanadi. Ongsizlik darajasida bola negativ emotsiyalar bilan boglangan shaxs yoki detalni chizish chizmaslikni hal qiladi. Chizilgan rasmni, detalni o’chirish, uni qayta chizish bu oila azosiga nisbatan negativ yoki ijobiy munosabat ifodasi bo’lishi mumkin. Bunda rasm chizishning natijasi muhimdir. Agar o’chirish, qayta chizish yaxshi tomonga o’zgaragan holda bo’lsa, bolaning bu kishiga nisbatan nizoli munosabati haqida fikr yuritish mumkin. Spontan izohlar ko’pincha raem mazmunining bola uchun ahamiyatini anglatishi mumkin. Shuning uchun bu izohlarni diqqat bilan eshitish lozim.

**Xulosa.** Farzand va ota-onaning hissiy-emotsional munosabatlarining ijobiy bo’lishida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Oiladagi ma’naviy-ruhiy muhit bola tarbiyasida g’oyat muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Oila sog’lom, yetuk farzandni ulg’aytirib kamol toptirishda mas’uldir. Farzandni sog’lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog’liq bo’lib, biz mazkur tadqiqot ishimizda quyidagi muhim jihatlarni aniqladik:

-Ota-onalarning farzandlarini tinglay olishi, kerakli paytda qo’llab-quvvatlay olishi farzand uchun muhim sanaladi;

-Ota-onalar farzandga eshittirmasdan bola tarbiyasi haqida alohida maslahat qilib, bahs-munozara qilishsin. Bolada tarafkashlikni uyg’otmaslik uchun ikkisi bir to’xtamga kela olish kerak.

-Ota-onaning hamfikrligi – juda katta yutuq. Ma’lum fikrni o’zaro hamjihat bo’lib bir-biriga uqtira olish muhim.

-Shuningdek, oila davrasida bilim olish va kitob o’qish borasida suhbat qilish, farzandning ilm olishi xususida suhbatlar ham ota-onalarning farzandlari bilan hissiy-emotsional yaqinlikni yaratadi. Oilada bolaning muntazam kitob o’qishini rivojlantirish uchun ota-ona astoydil harakat qilmog’i lozim.

-Oilada farzand tarbiyasining hammasini onaga yuklab qo’yish to’g’rimas. Chunki farzandlar onadan, otadan tarbiyani turlicha qabul qilishadi.

-Bolaga nisbatan boshida katta maqsadni qo’ymaslik lozim. To’g’ri, maksimalizm kerak, bolani unga intiltirish zarur. Lekin buni boshidan qilish kerakmas. Buni sekinlik bilan, bosqichma-bosqich o’tkazish lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Anatolievna, R. R. (2023). On the importance of sensory education in infancy. // Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 3(2).
2. Abdurauf Fitrat "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari". Toshkent "Ma'naviyat" 2000.
3. Usmonxon Alimov. "Oilada farzand tarbiyasi". Toshkent 2014.

## KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA SAQLANGAN ANALIZATORLARNING ROLI

*Nuriddinova Madina O'ktam qizi,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“Maxus pedagogika: tiflopedagogika” yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
nuriddinova2022@icloud.com*

*Mazkur maqolada ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda saqlangan analizatorlarning roli va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning ahamiyati yoritilgan. Ko'rish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qligi sharoitida boshqa analizatorlar, jumladan eshitish, taktil, hid va ta'm sezish organlari muhim kompensator funksiyani bajaradi. Ushbu maqola saqlangan analizatorlarning hissiy va kognitiv rivojlanishdagi o'rni, ularni maxsus usullar orqali rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini ko'rib chiqadi. Maqolada ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning saqlangan analizatorlarini rivojlantirish orqali ularning hayot sifatini yaxshilash, o'quv jarayoniga moslashuvini oshirish va jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu yondashuvlar maxsus ta'lim va reabilitatsiya muassasalari uchun nazariy hamda amaliy asos sifatida xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** analizator, retseptor, adaptatsiya, teri tuyish, barmoqlar, ko'rish, eshitish, hid, statik sezgi.*

## РОЛЬ СОХРАНЁННЫХ АНАЛИЗАТОРОВ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

*В этой статье освещается роль сохранённых анализаторов у детей с нарушениями зрения и важность поддержки их развития. В условиях снижения или отсутствия зрения важную компенсаторную функцию выполняют другие анализаторы, в том числе слуховые, тактильные, обонятельные и вкусовые. В данной статье рассматривается роль сохранённых анализаторов в эмоционально-познавательном развитии, педагогические и психологические основы их развития специальными методами. В статье изложены рекомендации, направленные на улучшение качества жизни детей с нарушениями зрения, повышение их адаптации к учебному процессу и обеспечение их активного участия в жизни общества за счёт развития сохранённых анализаторов. Эти подходы служат как теоретической, так и практической основой для учреждений специального образования и реабилитации.*

***Ключевые слова:** анализатор, рецептор, адаптация, кожное восприятие, пальцы, зрение. слух, обоняние, статическое восприятие.*

## THE ROLE OF STORED ANALYZERS IN CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENT

*This article highlights the role of stored analyzers in children with visual impairment and the importance of supporting their development. In conditions of decreased or absent vision, other analyzers, including hearing, tactile, olfactory, and taste perception, perform an important compensatory function. This article examines the role of stored analyzers in emotional and cognitive development, the pedagogical and psychological foundations of their development through special methods. The article describes recommendations aimed at improving the quality of life of children with visual impairments through the development of stored analyzers, increasing their adaptation to the educational process and ensuring active participation in society. These approaches serve as a theoretical and practical basis for special education and rehabilitation institutions.*

***Keywords:** analyzer, receptor, adaptation, skin numbness, fingers, vision, hearing, smell, static intuition.*

**Kirish.** Analizatorlarning faoliyati ularning o'zaro ta'sirida eng muvaffaqiyatli namoyon bo'ladi. E'tibor bering, ko'ruv analizatori atrof-muhitdan ma'lumotlarni qabul qiladigan deyarli barcha analizatorlar bilan o'zaro bog'liqdir. Analizatorlarning o'zaro ta'siri shaxs tomonidan ularning umumiy faoliyatisiz olish mumkin bo'lmagan ma'lumotlarni olishda namoyon bo'ladi; masalan, obyektning uzoqligini binokulyar baholash ko'ruv va propriotseptiv analizatorlarning birgalikdagi ishi natijasida amalga oshiriladi.

**Asosiy qism.** Analizatorlarning o'zaro ta'sirida analizatorlarning analitik va sintetik funksiyasi muhim ahamiyatga ega. Tahlil va sintez jarayonlari o'zgarishlar natijasida sodir bo'ladi. Tahlil natijasida tashqi

qo‘zg‘atuvchilarni, ularning xususiyatlari va fazilatlarini sinchkovlik bilan baholash amalga oshiriladi. Sintez bir qator vaziyatlarda “xatti-harakatlaringizni tanlash” uchun turli xil analizatorlardan to‘liq foydalanishga imkon beradi. Analizatorlarning o‘zaro bog‘liqligi markaziy asab tizimining (MAT) barcha bo‘g‘inlari va darajalarining funksiyalari bilan ta‘minlanadi. Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilarda analizatorlarning o‘zaro ta‘siri asosida turli xil faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan kompensatsion mexanizmlar kiritiladi. Faoliyatning xususiyatiga qarab, ko‘zi ojizlarda bitta analizatorni boshqasiga almashtirish yoki ko‘rish qobiliyati past bo‘lganlarda qoldiq ko‘rish va teri tuyish faoliyatining birgalikdagi faoliyati amalga oshirilishi mumkin. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan insonlarda boshqa analizatorlarning faoliyatiga qo‘shilishi markaziy asab tizimida yuzaga keladigan tahlil va sintez bilan to‘ldiriladi, bu ularning yangi hayot sharoitlariga moslashishi uchun zarurdir.

Ko‘rish analizatori insonga atrof-dagi borliq haqidagi barcha ma‘lumotlarning 90 foizini beradi deb hisoblaniladi. Ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish-bu atrof-muhit haqidagi eng kuchli ma‘lumot manbasini yo‘qotishdir. Biroq ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish tashqi dunyo bilan barcha aloqalar uzilganligini anglatmaydi. Ko‘rish qobiliyati yo‘qolganda boshqa saqlanib qolgan analizatorlar kompensatsiya vazifasini bajaradi. Ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan inson boshqa sezgi organlarining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydi. Ko‘rish qobiliyatining yo‘qolishi bu boshqa imkoniyatlarni safarbar qiladi. Saqlangan sezgi organlarini muntazam ravishda rivojlantirish natijasida ushbu organlar yordamida odam tomonidan olingan ma‘lumotlar miqdori sezilarli darajada oshadi. M.N. Naumov ko‘rish buzilishlarini qoplashda saqlanib qolgan analizatorlarning imkoniyatlarini ko‘rib chiqdi. Qoldiq ko‘rish ko‘zi ojizlarga atrof-dagi dunyo haqida ba‘zi ma‘lumotlarni beradi. Biroq, tajriba shuni ko‘rsatadiki, barcha nogironlar qoldiq ko‘ruv o‘kirligini qanday ishlatishni bilishmaydi. Zaif ko‘ruvchilarning ko‘ruv idroklari sekinlashadi: ular obyektlarni soniyaning yuzdan bir qismida emas, balki uzoqroq vaqt ichida, ba‘zan 5 sekundgacha sezadilar. Shu bilan birga, zaif ko‘rish, qoldiq ko‘rishga umid qilib, boshqa sezgi organlarini ularni fazoviy yo‘nalishda ishlatishga o‘rgatmaydi. Ko‘pincha, zaif ko‘ruvchi inson total ko‘r insonga qaraganda yomonroq holatda bo‘ladi, chunki total ko‘r insonlarda teginish va eshitish orqali obyektlar bilan o‘zaro ta‘sir qilish tezligi zaif qoldiq ko‘rish yordamida zaif ko‘rganlarga qaraganda ancha yuqori.

Teri tuyish - bu insonga atrof-olam haqida katta va xilma-xil ma‘lumotlarni olib keladigan teri va sezgilarining butun tizimi. Insonning teri tuyish va ko‘ruv idroklari bir-biriga o‘xshashdir, chunki ular moddiy dunyoning bir xil xususiyatlarini yetarli darajada aks ettiradi, ammo idrok etish usullari boshqacha. Ko‘ruv ifroki bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi: hatto juda katta obyektning tasviri bir vaqtning o‘zida qabul qilinadi. Taktill idrokda obyekt qismlarga bo‘linadi, uning yaxlit qiyofasi asta-sekin shakllanadi. Taktill tekshiruvning tezligi ahamiyatsiz bo‘lganligi sababli, idrok etilayotgan obyektning tasviri ko‘ruv idrokka qaraganda ancha sekin shakllanadi (agar ko‘rish uchun bir necha soniya yetarli bo‘lsa, ko‘r insonga bir necha soat kerak bo‘lishi mumkin). Ko‘ruv idrok zonasi bilan taqqoslaganda taktill tekshiruv zonasi ahamiyatsiz. Obyektlar va atrof-muhitni taktill idrok etish uchun bir qator to‘siqlar mavjud (obyektlarning o‘lchamlari, shakli, harorati va boshqalar). Hatto asboblar va texnik vositalardan foydalanish ham ushbu to‘siqlarni to‘liq yengib o‘tishni ta‘minlamaydi. Bularning barchasi ko‘r insonning atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sirini sezilarli darajada cheklashga olib keladi.

Shunga qaramay, teri tuyish ko‘zi ojizlar uchun juda muhimdir, chunki u fazoviy va vaqtinchalik munosabatlarni, atrof-dagi makonning fizik va mexanik xususiyatlarini aks ettirishda ishtirok etadi. Ko‘zi ojizlar uchun taktill tuyish-bilish, obyektiv va fazoviy yo‘nalishning asosiy usuli. Teri tuyish sezgilari ikki guruhni o‘z ichiga oladi: teri va motor. Teri uchun-yonoqlarga teginish, harorat va og‘riq kiradi. Teri sezgilari ko‘zi ojizlarga atrof olamdagi obyektlarining xususiyatlari haqida juda ko‘p foydali ma‘lumotlarni beradi. Taktill sezgilar yordamida sirtning tabiati (silliq, g‘adir-budur), teriga va tanaga bosim yo‘nalishi va kuchi aniqlanadi. Faol teginish sirtlar va narsalarning shakli va kattaligi to‘g‘risida ko‘r-ko‘rona ma‘lumot beradi. Bosim yo‘nalishini sezish ko‘zi ojizlarga shamol yo‘nalishi va suv oqimini shartli belgi sifatida ishlatishga imkon beradi. Harorat sezgilari yordamida ko‘zi ojizlar issiqlik manbasiga yo‘nalishni aniqlaydilar. Harorat sezgilari moddalar va materiallarning issiqlik sig‘imi va issiqlik o‘tkazuvchanligini aniqlashga imkon beradi va materialning o‘zi (yog‘och, plastmassa, shisha, metall va boshqalar) issiqlik o‘tkazuvchanligi bilan tan olinadi. Tizimli mashg‘ulotlar natijasida ko‘zi ojizlar obyektlar va materiallarni uzoq vaqt his qilmasdan, ularga yengil teginish orqali tanib olishni o‘rganishlari mumkin. Motor sezgilari ko‘zi ojizlarga atrof olamdagi obektlarining fazoviy va jismoniy xususiyatlari haqida ko‘p ma‘lumot beradi. Motor analizatori harakatlarni boshqarish, kuzatish, harakatlarning chastotasini, kuchini va aniqligini boshqarish funktsiyalarini bajaradi. Inson tanasining harakatlarini sezadi, bu unga o‘z faoliyatini nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi.

Insonning asosiy teri tuyish organi barmoqlardir. Mavzuni o‘rganish, uning fazoviy va fizik xususiyatlarini faqat qo‘llar bilan o‘rganish yaxshidir. Tekshiruv jarayonida ikkala qo‘l ham faol ishtirok

etishi kerak. Ikki qo‘l bilan sezish tezroq va aniqroq tekshirilayotgan mavzuning tasvirini beradi, chunki u tekshiruv maydonini kengaytiradi, mavzu qismlarining hajmi va nisbatlarini aniq aniqlashga imkon beradi. Qo‘l harakatlarini tekshirish maqsadiga ko‘ra, qidiruv, o‘rnatish va kognitiv (obyektni aniqlash, uning shakli, hajmi va boshqa fazilatlarini aniqlash) mavjud.

Statik sezgilarning joylashuvi ichki quloqning vestibulyar apparat organidir. Vestibulyar apparat quyidagi funksiyalarni bajaradi: tananing fazodagi holatini yer yuzasiga yoki tortishish markaziga nisbatan, shuningdek, bu pozitsiyaning har qanday o‘zgarishini boshqaradi.

1. Joyida va harakatda faol va passiv burilish hissini beradi.

2. Tananing vertikal holatini qo‘llab-quvvatlaydi, uning muvozanatini saqlaydi.

3. Harakatning to‘g‘riligini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu xususiyat ko‘zi ojizlarning fazoviy mo‘ljallashida, ayniqsa, ko‘chalar va maydonlarni kesib o‘tishda juda muhimdir.

4. Tananing barcha yo‘nalishlarda harakatlanishini tezlashtirish va sekinlashtirish hissini beradi.

Ko‘zi ojizlar uchun eshitish juda katta ahamiyat egadir. Eshitish analizatori yordamida ko‘zi ojizlar tovush manbalari bo‘lgan obyektlarni aniqlaydilar va taniydilar: transport vositalarining har xil turlari, shu jumladan harakat yo‘nalishi va taxminiy tezligi, ishlaydigan qishloq xo‘jaligi mashinalari, qurilish mexanizmlari, ishlab chiqarish mashinalari, maishiy texnika qurilmalar. Ular yomg‘ir yog‘ayotganini, shamol esayotganini, momaqaldiroq gumburlayotganini bilib olishadi. Barglarning shitirlashi bilan daraxt turlari aniqlanadi. Odamlar, yovvoyi va uy hayvonlari qushlari va hayvonlar ovozi bilan taniydilar va farqlaydilar. Musiqa asboblari, qo‘shiqchilar, musiqa asarlari tovushlar orqali taniydilar. Ko‘zi ojizlar tovushlar orqali odamlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarni aniqlashlari mumkin: arralash, egovlash, kir yuvish, tikish va boshqalark. Ko‘zi ojizlarning fazoviy mo‘ljallash olishi uchun eshitishning ijtimoiy funksiyalari juda muhimdir. Eshitish-bu odamlar bilan muloqot qilishning eng muhim usullaridan biri bo‘lgan inson nutqini shakllantirish vositasi. Ko‘zi ojizlar uchun nutq atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish, muloqot qilishning yagona usuli bo‘lib qolmoqda. Ko‘zi ojizlar nutq orqali atrofidagi dunyo haqida asosiy ma‘lumotlarni olishadi, ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq hissiy bilim va hissiy tajribaning yetishmasligini to‘ldirishadi.

Hid va ta‘m moddaning kimyoviy tarkibini tahlil qiladi. Hid va ta‘m retseptorlariga suvdagi (ta‘m) va havodagi (hid) moddalarning eritmalari ta‘sir qiladi.

Ta‘m va hid sezgilar obyektiv xususiyatga ega. Har bir moddaning o‘ziga xos xususiyati bor, faqat ushbu moddaga xos ta‘m va hid. Shuning uchun ta‘m va hid sezgilar ko‘zi ojizlar uchun signal qiymatiga ega bo‘ladi va atrofidagi fazoda ma‘lum moddalar, narsalar, narsalarning mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Insonning hid va ta‘m sezgilari kam rivojlangan va juda yuqori sezuvchanlik chegaralariga ega, shuning uchun ular insonlar uchun hayvonlar kabi atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada katta rol o‘ynamaydi. Biroq, ular ko‘zi ojizlar uchun juda muhimdir.

Ta‘m va hid sezgilarining obyektivligi eshitish obyektivligi bilan bir xil tarzda shakllanadi. Har bir modda va hid chiqaradigan har bir narsa teri tuyish (qo‘llar) yoki maxsus asboblarda yordamida tekshirilishi kerak. Faqat hid manbasini tekshirgandan so‘ng, ko‘zi ojiz inson haqiqiy modda, obyekt tasvirini oladi. Ko‘zi ojizlar teri tuyish yordamida iloji boricha ko‘proq hid chiqaradigan narsalarni tekshirishlari kerak. Ta‘mga ega moddalarni teri tuyish tekshiruvini ta‘m sezgilari bilan bir vaqtda sodir bo‘ladi. Ta‘m sezgisi ko‘zi ojizlar tomonidan faqat uy sharoitida ishlatilishi mumkin. Ko‘zi ojizlar ta‘mga ko‘ra oziq-ovqat turlarini, ularning sifatini aniqlaydilar. Hid bilish analizatori yordamida ko‘zi ojizlar turli xil narsalarni hidlari bilan tanib olishlari mumkin, ularni shartli belgi sifatida ishlatishadi. Shuni yodda tutish kerakki, hid bilish analizatori tez moslashish qobiliyatiga ega. Shuning uchun, hid bilish sezgirligini rivojlantirish bo‘yicha mashqlarni bajarayotganda, o‘rganilayotgan hidli moddalarni tez-tez almashtirish kerak. Bir vaqtning o‘zida bir nechta hidlarni idrok etish ularning har birining zaiflashishiga yoki bitta yangi kabi his qilishiga olib keladi.

Ko‘zi ojizlar ko‘p miqdordagi hid bilish belgilaridan foydalanadilar. Hidlarga ko‘ra, ular mahsulot turlarini va ularning sifatini, idish-ovoq turlarini, pishirish paytida mahsulotlarning tayyorligini aniqlaydilar; uy kimyoviy moddalarning hidlari sovun, kir yuvish kukunlari, yuvish vositalari, laklar va bo‘yoqlarning turlarini aniqlaydi; parfyumeriya va odekolonlar, kosmetikalar hid bilan belgilanadi; ba‘zi dorilar hidi bilan ajralib turadi.

Ishlab chiqarishda ko‘zi ojizlar xomashyo va materiallar, tayyor mahsulotlar, yonuvchi va moylash materiallarini hid bilan aniqlaydilar. Shaharga e‘tibor qaratib, hid bilan siz turli xil do‘konlarni (sabzavot, baliq, non, qandolatchilik, poyabzal, parfyumeriya), oshxonalar, sataroshxonalar aniqlashingiz mumkin. Egzo gazlarining hididan siz turgan mashinani topishlari mumkin. Gullaydigan o‘simliklar va daraxtlarning hidlari bilan maysazorlar, gulzorlar, bog‘lar, maydonlarning joylarini aniqlaydilar.

**Xulosa.** Qishloq joylarda juda ko‘p o‘ziga xos hid bilish joylari mavjud. Bu madaniy va yovvoyi o‘simliklar, bog‘lar, dalalarning hidlari; omborxonalarining hidlari (otxonalar, omborxonalar, qo‘ylar va boshqalar), parrandachilik uylari; yangi pishirilgan non.

Turli hidlar yordamida ko‘zi ojizlar qayerda turganliklarini, pozitsiyalarini aniqlay oladilar.

Ta‘m va hid sezgirligini mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish mumkin. Mashg‘ulotlar natijasida ko‘zi ojizlar moddalar va narsalarni tezroq taniydilar va ba‘zi o‘quvchilar hatto hid manbalarini lokalizatsiya qilishlari mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Qodirova F.U., Xusnuddinova Z.X., Egamberdiyeva N.A., Kobilova Sh.X. (2024). Mo‘ljal olish va harakatlanishga o‘rgatish.
2. Shomaxmudova R.R., Berdieva A. (2008). Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta‘limda o‘qitish uslublari.
3. Shomahmudova R.R. (2011). Maxsus va inklyuziv ta‘lim. Fan va ta‘lim.
4. Raxmanova V.S. (2017). Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika). Niso poligraf.
5. Xamidova M.U. (2018). Maxsus pedagogika. Fan va texnologiya.
6. Qodirova F.U., Xusnuddinova Z.X. (2023). Tiflopedagogika.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

*Nuriddinxo‘jayeva Malikaxon Abror qizi,  
Oriental universiteti magistranti*

*Mazkur maqola maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Psixologik kompetensiyalar rahbarlarning hissiy holatlarni boshqarish, o‘quvchilar va pedagoglar bilan samarali muloqot olib borish hamda stressni yengish kabi qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Maqolada psixologik kompetensiyalarning ta‘lim jarayoniga ta‘siri, ularni shakllantirish omillari va rivojlantirish strategiyalari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi dolzarb masalalar ham tahlil qilingan. Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga xizmat qilishi ta‘kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:** psixologik kompetensiyalar, maktab rahbari, ta‘lim sifati, stressni boshqarish, ijtimoiy-psixologik muhit, muloqot ko‘nikmalari, xalqaro tajriba.*

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ  
ДИРЕКТОРОВ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛ

*Данная статья посвящена изучению значения развития психологических компетенций руководителей школ. Психологические компетенции включают в себя такие способности руководителей, как управление эмоциональными состояниями, эффективное общение со студентами и педагогами, а также способность справляться со стрессом. В статье освещается влияние психологических компетенций на образовательный процесс, факторы их формирования и стратегии развития. Также были проанализированы международный опыт и актуальные вопросы системы образования Узбекистана. Отмечено, что развитие психологических компетенций руководителей школ служит повышению качества образования и улучшению социально-психологического климата.*

***Ключевые слова:** психологические компетенции, руководитель школы, качество образования, управление стрессом, социально-психологическая среда, коммуникативные навыки, международный опыт.*

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING THE PSYCHOLOGICAL  
COMPETENCES OF PRINCIPALS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS

*This article is devoted to the study of the importance of the development of psychological competencies of school leaders. Psychological competencies include the ability of leaders to manage emotional states, to communicate effectively with students and educators, and to deal with stress. The article covers the influence of psychological competencies on the educational process, factors for their formation and development strategies. International experiences and current issues in Uzbekistan's educational system have also been analyzed. It is noted that the development of psychological competencies of school leaders serves to improve the quality of education and improve the socio-psychological environment.*

***Keywords:** psychological competencies, school leader, quality of education, stress management, socio-psychological environment, communication skills, international experience.*

**Kirish.** Psixologik kompetensiyalar<sup>2</sup> - bu insonning o‘zini o‘zi tanishi, emotsiyalarini boshqarishi, muammolarni hal qilishi va shaxslararo munosabatlarni qurish qobiliyati hisoblanadi.


Psixologik kompetensiyalar ta‘lim jarayonining ajralmas qismidir. Ular talabalarning motivatsiyasi, samaradorligi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, ijtimoiy-emotsional rivojlanishi va umumiy salomatligini yaxshilaydi. Shu bois, ta‘lim muassasalarida talabalarning psixologik kompetensiyalari rivojlanishiga katta e‘tibor berilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Mazkur tizimda rahbarlar o‘z faoliyatlari bilan nafaqat ta‘lim sifati, balki o‘quvchilar va pedagoglarning ruhiy salomatligi hamda shaxsiy rivojlanishiga ham ta‘sir

<sup>1</sup> Mualliflik yondashvi

ko'rsatadi. Shu boisdan, maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalari bugungi kunda ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rilmogda. Psixologik kompetensiyalar deganda rahbarning o'z hissiy holatlarini boshqarish, atrofdagilarni tushunish, ularga moslashish, hamda muloqot va muammolarni hal qilishda psixologik yondashuvlarni qo'llash qobiliyatlari tushuniladi.

**Asosiy qism.** Hozirgi globallashuv va tezkor o'zgarishlar davrida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashish maktab rahbarlaridan yuqori darajada psixologik madaniyat va mas'uliyatni talab qiladi. Xususan, o'quvchilar va pedagoglarning turli ijtimoiy va psixologik muammolari o'z vaqtida aniqlanib, samarali hal qilinishi uchun rahbarlar psixologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Bu jarayon nafaqat ta'lim tizimi sifatini oshirishga, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyasiga quyidagilar kiradi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalari

Maktab rahbarlari uchun muhim bo'lgan asosiy psixologik kompetensiyalar:

- ✓ **O'zini o'zi anglash:** o'z emotsiyalari, qadriyatlarini va motivlarini tushunish qobiliyati.
- ✓ **Emotsiyalarni boshqarish:** o'z emotsiyalari va stresslarini boshqarish qobiliyati.
- ✓ **Muammolarni hal qilish:** muammolarni tan olish, ularni tahlil qilish va ijodiy echimlar topish qobiliyati.
- ✓ **Shaxslararo munosabatlarga kirisha olish:** boshqalar bilan sog'lom munosabatlar qurish va ularni boshqarish qobiliyati.
- ✓ **Motivatsiya:** o'zini va boshqalarni rag'batlantirish qobiliyati.
- ✓ **O'z-o'zini tartibga solish:** o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati.

Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalari quyidagilar asosida qanday rivojlantiriladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalari rivojlantirish yo'llari

Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalari rivojlantirish yo'llari mohiyatini quyidagicha talqin etamiz:

- ✓ o'qituvchi tayyorlash dasturlari: psixologik kompetensiyalarni o'qituvchi tayyorlash dasturlariga kiritish;
- ✓ o'qish va rivojlantirish imkoniyatlari: maktab rahbarlari uchun psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan o'qish va rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etish;
- ✓ mushohada va baholash: maktab rahbarlari o'zlarining psixologik kompetensiyalari ustida ishlayotganlarini ta'minlash uchun muntazam ravishda kuzatiladi va baholanadi;

- ✓ kouching va maslahat: maktab rahbarlari uchun shaxsiylashtirilgan kouching va maslahat xizmatlarini taqdim etish;
- ✓ xalqaro tajribalarni o‘rganish va o‘z ustida muntazam ishlash, qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ til bilish: ikkinchi xorijiy tilni o‘rganish va kommunikativlikni rivojlantirish

Yuqori darajadagi psixologik kompetensiyalarga ega bo‘lgan maktab rahbarlari o‘zlarining maktablarda ijobiy yutuqlarga erishishlari juda ko‘p tajribalarda o‘z isbotini topgan. Bunday maktab rahbarlari ta‘lim muassasasida samarali o‘quv muhitini yaratishga, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni rag‘batlantirishga va maktab jamoasida sog‘lom, ijodiy munosabatlarni rivojlantirishga qodir bo‘ladilar.

Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ilmiy-tadqiqotlar va amaliyotda dolzarb bo‘lib, uning ijtimoiy ahamiyati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu rahbarlarning samarali boshqaruv faoliyatini olib borishiga yordam beradi. Maktab muhitidagi stress holatlari, muammoli vaziyatlarni hal qilish, shuningdek, o‘quvchilar va xodimlar bilan muloqotni to‘g‘ri tashkil etish kabi vazifalar rahbarlardan yuqori darajada psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Ikkinchidan, maktab jamoasidagi psixologik iqlimni yaxshilash orqali o‘quvchilar va pedagoglarning ruhiy salomatligi va motivatsiyasini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, rahbarlarning psixologik kompetensiyalari ta‘limdagi innovatsion yondashuvlarni joriy etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta‘lim jarayonlarida liderlik qobiliyatlari, muloqot madaniyati va muammoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish qobiliyatlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maktab rahbari sifatida psixologik bilimlarni samarali qo‘llay olish nafaqat ta‘lim muassasasining samaradorligini oshiradi, balki kelajak avlodning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinib, bu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullar, xalqaro tajribalar va tavsiyalarni o‘rganildi. Ushbu masala bo‘yicha tadqiqot olib borish natijalari maktab rahbarlarining professional faoliyatini optimallashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash hamda maktab muhitidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni samarali boshqarishga ko‘maklashishi kutilmoqda.

Psixologik kompetensiyalar ta‘lim muassasasi rahbarlarining o‘z faoliyatlarini samarali tashkil qilish va boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bu kompetensiyalar rahbarning hissiy holatlarni boshqarish, atrofdagilarni tushunish, ularga ta‘sir qilish va konstruktiv muloqot olib borish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Psixologik kompetensiyalar maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning qaror qabul qilish jarayonida ko‘proq oqilona va ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo‘llashiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bu kompetensiyalar maktab jamoasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o‘quvchilar va pedagoglarning motivatsiyasini oshirish hamda ta‘lim sifatini yaxshilashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish omillari.** Psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bir necha muhim omillarga asoslanadi (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish omillari**

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish omillarining mazmun – mohiyati quyidagicha izohlanadi:



1. **Psixologik bilimlar:** Rahbarlarning psixologik bilimlarga ega bo‘lishi ularning hissiy holatlarni boshqarish va atrofdagilarni tushunish qobiliyatini oshiradi. Psixologik bilimlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot qilishda katta ahamiyatga ega.

2. **Amaliy ko‘nikmalar:** Psixologik bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar konfliktlarni boshqarish, stress holatlarini bartaraf etish va pedagogik jamoani motivatsiya qilish borasida tegishli amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

3. **Shaxsiy fazilatlar:** Sabrlik, empatiya, muloqotga ochiqlik kabi shaxsiy fazilatlar rahbarning psixologik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday fazilatlar rahbarning boshqaruv faoliyatini samarali olib borishga imkon beradi.

4. **O‘quv-tashkiliy faoliyat:** Ta‘lim muassasasida rahbarlarning psixologik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun maxsus treninglar va dasturlar tashkil etilishi zarur. Ushbu treninglar rahbarlarning o‘zini rivojlantirishiga hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini o‘zlashtirishiga yordam beradi.

**Psixologik kompetensiyalarning ta‘lim jarayoniga ta‘siri.** Psixologik kompetensiyalar maktab rahbarlari uchun o‘quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarishda bir qator afzalliklar yaratadi. Avvalo, rahbarlar psixologik bilimlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. O‘quvchilar turli ijtimoiy, psixologik yoki oilaviy muammolar bilan duch kelishi mumkin, va bu holatlarda rahbarning psixologik kompetensiyalari muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchidan, rahbarlarning psixologik qobiliyatlari pedagoglarning ish faoliyatiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Maktabdagi ijobiy psixologik muhit pedagoglar uchun qulay sharoit yaratib, ularning mehnat samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, rahbarlarning hissiy barqarorligi va muammolarni hal qilishdagi konstruktiv yondashuvi jamoada ishonch va hamkorlik muhiti yaratadi. Bundan tashqari, psixologik kompetensiyalar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va akademik yutuqlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Maktab rahbarlari o‘quvchilarni ruhlantiruvchi, ularni o‘z maqsadlariga erishishga undovchi sharoit yaratishi lozim. Psixologik kompetensiyalarni to‘g‘ri qo‘llash orqali rahbarlar o‘quvchilar bilan yaqindan muloqot o‘rnatib, ularning qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlarining psixologik kompetensiyalari darajasi ta‘lim jarayoniga quyidagicha ta‘sir ko‘rsatadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

**Maktablari rahbarlaridagi psixologik kompetensiyalar darajasining ta‘lim jarayoniga ta‘siri**

№	Psixologik kompetensiyalar	Vazifasi
1	O‘quv motivatsiyasini oshiradi	Ta‘lim jarayoni subyektlarining kuchli va zaif tomonlarini bilishadi va o‘zlariga ishonishadi. Bu ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi
2	O‘quv samaradorligini yaxshilaydi	Ta‘lim jarayoni subyektlarining emotsiyalarini boshqarish, chalg‘ituvchi omillarni bartaraf etish va samarali o‘qish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Bu ularning o‘quv samaradorligini yaxshilaydi
3	Muammoli vaziyatlarni hal qilishni osonlashtiradi	Ta‘lim jarayoni subyektlarining muammolarni tan olish, ularni tahlil qilish va ijodiy echimlar topish qobiliyatiga ega. Bu ularga ta‘lim jarayonida qarshiliklarga duch kelganda moslashishga yordam beradi
4	Ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi	Ta‘lim jarayoni subyektlarining boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar qurish, empatiya qilish va xungurlik bilan ishlov berish qobiliyatiga ega. Bu ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga yordam beradi
5	Umumiy salomatlik va farovonlikni yaxshilaydi	Ta‘lim jarayoni subyektlarining o‘zlarini yaxshi his qilishadi, stressni boshqarishadi va qiyinchiliklarga bardosh bera olishadi. Bu ularning umumiy salomatligi va farovonligiga ijobiy ta‘sir qiladi

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlarining psixologik kompetentligidan foydalanib, bilim olish samaradorligini oshirishda:

-o‘qituvchilar o‘quvchilarning psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar va muhokamalarni o‘tkazishi;

-maktablar o‘quvchilar uchun psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etishi;

-ota-onalar o‘quvchilarning psixologik kompetensiyalarini o‘yinlar, muhokamar va kundalik voqealarga asoslangan suhbatlar orqali rivojlantirishga yordam berishlarini ta‘minlash mumkin.

**Xulosa.** Psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid dolzarb masalalarni o‘rganish nafaqat ta‘lim tizimi, balki butun jamiyat uchun ahamiyatlidir. Chunki ta‘lim – bu kelajak avlodni tayyorlash jarayoni

bo‘lib, uning samaradorligi bevosita rahbarlar tomonidan qabul qilingan qarorlar va ularning psixologik bilimlarga asoslangan yondashuvlariga bog‘liq. Shu sababli, mazkur maqola orqali ushbu muhim masalaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish, shuningdek, psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yilgan.

Maktab rahbarlarining psixologik kompetensiyalari ta‘lim jarayonini samarali boshqarish va o‘quvchilar, pedagoglar hamda ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, ta‘lim sifatini oshirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, psixologik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Fullan, M. (2007). *The new meaning of educational change* (4th ed.). Teachers College Press.
2. Leithwood, K., & Jantzi, D. (2006). Transformational school leadership for large-scale reform: Effects on students, teachers, and their classroom practices. *School Effectiveness and School Improvement*, 17(2), 201–227. <https://doi.org/10.1080/09243450600565829>
3. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211. <https://doi.org/10.2190/DUGG-P24E-52WK-6CDG>
4. Каримова, Н. А. Духовно-нравственное воспитание школьников в условиях цифровизации / Н. А. Каримова // *Образование и наука*. — 2021. — № 5. — С. 56–62.
5. Мирзаев, О. К. Роль национальных ценностей в нравственном воспитании учащихся / О. К. Мирзаев // *Молодой ученый*. — 2020. — № 15. — С. 245–248.

**AMALIY MATEMATIKA TA’LIM YO’NALISHI TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY METODIK AHAMIYATI**

*Ochilova Zamira Shukirillo qizi,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada amaliy matematika ta’lim yo’nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ishlab chiqilgan tavsiyalar bo’yicha talabalar bilim va malakalarini shakllantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantiruvchi modelini ijtimoiy talablar asosida takomillashtirish haqida so’z boradi.*

**Kalit so’zlar:** tayyorlik komponentlari, psixologik, ilmiy-nazariy, nazariy bilim, ilmiy bilim, metodik bilim, semiotik, taqlidiy.

**НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКЕ, К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*В данной статье осуществляется разработка методических рекомендаций по совершенствованию методики подготовки студентов направления прикладной математики к профессиональной деятельности, а также формирование знаний и умений студентов на основе разработанных рекомендаций, выяснение педагогических возможностей совершенствования методики профессиональной деятельности, а модель развития готовности к профессиональной деятельности – совершенствование на основе социальных требований.*

**Ключевые слова:** компоненты готовности, психологический, научно-теоретическое, теоретическое знание, научное знание, методологическое знание, семиотический, подражательный.

**SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL IMPORTANCE OF PREPARING STUDENTS IN APPLIED MATHEMATICS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITIES**

*This article develops methodological recommendations for improving the methodology of preparing students of applied mathematics for professional activity, as well as the formation of knowledge and skills of students based on the developed recommendations, identifying pedagogical opportunities for improving the methodology of professional activity, and a model for developing readiness for professional activity - improvement based on social requirements.*

**Keywords:** components of readiness, psychological, scientific-theoretical, theoretical knowledge, scientific knowledge, methodological knowledge, semiotic, imitative.

**Kirish.** Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim oldiga yangicha metodik tayyorgarlikka ega bo’lgan pedagog-kadrlarni tayyorlash vazifasi qo’yildi. Pedagog-xodim va o’qituvchilarni tayyorlashda psixologik-fiziologik o’ziga xosliklarini hisobga olish, shakllantirish va rivojlantirish tajribasini egallashi lozimligi asosan diqqat markazida bo’lishi kerak. Ma’lumki, bo’lajak informatika o’qituvchisining ta’lim jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish ustuvor o’rin egallaydi.

O’qituvchining kasbiy tayyorgarligi - bu shaxsning kasbiy vazifalarni yechish qobiliyatini belgilaydigan xossalari, fazilatlarini, bilimlari, ko’nikmalarining yig’indisini ifodalaydi va uni operatsion-texnologik, ilmiy-nazariy va psixologik komponentlarga ajratish mumkin.

Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko’nikmalarining o’zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Oliy ta’lim muassasalari va ulardagi o’quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo’lajak informatika fani o’qituvchilarini zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan amaliy matematika ta’lim yo’nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy metodik ahamiyati tushunchasi ta’limda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kompetentligini oshirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi e’tirof etilgan [1].

Pedagogning kasbiy faoliyati – ijodiy jarayon bo’lib, nostandart, ko’zda tutilmagan turli vaziyatlarda tezda fikr yuritib, tegishli qarorlar qabul qilish va mos xatti-harakatlarni amalga oshirishni talab etadi [2].

**Asosiy qism.** Amaliy matematika ta’lim yo’nalishi talabalarining, ya’ni bo’lajak informatika o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli quyidagi qismlardan tashkil topgan:

✓ -maqsadli - ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib bo’lajak informatika o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo’lib shaxsiy, ijtimoiy, maxsus, texnologik hamda ekstremal kompetentliklarni o’z ichiga olgan;

✓ -tashkiliy - bo’lajak informatika o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning faoliyati mazmuni, asosiy yondashuvlar (integrativ, shaxsga yo’naltirilgan, kompetentli), rivojlantirish bosqichlari (ijtimoiy-fundamental integratsiya, maxsus-ixtisoslik integratsiya, uslubiy-texnologik integratsiya), shakllari (individual, guruh va juftlikda ishlash), metodlari (STEAM ta’lim, SIAM2P ta’lim, loyiha usuli, aralash ta’lim) va vositalari (kompyuter, multimediyali tizim, internet, axboriy-ma’lumotli baza, elektron maxsulotlar) ni o’z ichiga olgan;

✓ -refleksivlik - bo’lajak informatika o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining samaradorlik mezonlarini hamda yakuniy natijalarini ifodalashga (mezonlar: integrativ-mazmunli va texnologik-loyihaviy, darajalar: quyidan past, quyi, o’rta, yuqori, natija: kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega informatika o’qituvchilari) qaratilgan.

Integrativ yondashuv asosida bo’lajak informatika o’qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish tanlab olingan kurslar va o’zaro integratsiya qilinuvchi tushunchalar asosida ta’lim maqsadlarga mos vazifalarni qo’yish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali erishiladi. Maqola mavzusiga doir materiallarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish asosida bo’lajak informatika o’qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni integrativ yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik kommunikatsiya tarkibiga kiruvchi shakl, usul va texnologiyalar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Ta’lim jarayonida ta’lim ishtirokchilari bo’lgan ta’lim oluvchilarining darsdan qoniqishi nafaqat ularga berilayotgan bilim bilan, balki, darsning qanday tashkil etilganligi bilan ham bog’liqdir. Hamkorlikdagi samarali faoliyat ta’limni samarali tashkil etish asosidir. Kooperativ ta’lim asosida biz ayni shu maqsadimizga erishishimiz mumkin. Kooperativ yondashuvning asosida hamkorlik yotadi. Hamkorlikda o’qitish har bir o’quvchini kunlik qizg’in aqliy mehnatga o’rgatish, shaxs sifatida onglik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o’quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg’usini vujudga keltirish, o’z kuchi va qobiliyatiga bo’lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko’zda tutadi. O’qituvchi ta’lim jarayonida hamkorlikda o’qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagilarni:

❖ qaysi mavzularni hamkorlikda o’qitish metodlaridan foydalanib o’rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur mashg’ulotlarni taqvim-rejada belgilashi;

❖ ushbu mavzu bo’yicha talabalarga tavsiya etiladigan o’quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko’rsatmalarni tayyorlashi;

❖ hamkorlikda o’qitish metodlaridan foydalanib o’tiladigan mashg’ulot turi, mashg’ulotning tuzilishi va borishini loyihalashi;

❖ o’tgan va yangi mavzular yuzasidan talabalar bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Qisqacha shuni ta’kidlash mumkinki, kooperativ yondashuv asosida o’quvchi talabalarda ta’lim berish jarayonida samarali metodik yondashuv asosida ish ko’rish yoshlar dunyoqarashining shakllanishi va bilim darajasining yuksalishiga imkon beradi. Kooperativ yondashuv ya’ni talabalarining ta’lim jarayonidagi hamkorligi ularning ilmiy salohiyatining o’sishida va sifatli ta’lim jarayonining amalga oshishida juda samarali hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeliga muvofiq pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har bir talabaning pedagogik faoliyatga ongli, qiziquvchanlik bilan qatnashishini shakllantirish, pedagogik kasbga muhabbat hissi bilan qarash, hurmatini rivojlantirish va mustahkamlash ijtimoiy, maxsus, pedagogik va psixologik fanlarni chuqur o’rganishga yordam berish.

2. Bo’lajak o’qituvchining yangi jamiyat talabalariga, shuningdek, mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga javob beradigan kasbiy mahoratlarini egallashiga yordam berish.

3. Talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, ularni o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiya ishlar jarayonida mohirona foydalanishga o‘rgatish.

4. Talabalarni o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiya ishlarini nazorat qilish va tanlash uquvi bilan qurollantirish.

5. Talabalarni o‘quv-tarbiya korxonalaridagi ta’lim-tarbiya ishlarining hozirgi davrdagi holatlari, yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va o‘rgatish.

6. Talabalarni psixologiya, pedagogika, bolalar va yosh o‘smirlar fiziologiyasi fanlaridan egallagan bilimlari asosida, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi xalqlarining milliy-madaniy dasturlaridan foydalanib mashg‘ulotlar tashkil qilishga o‘rgatish.

7. Talabalarni o‘quvchilarning bilim faoliyatini jadallashtiruvchi har xil usul va metodlarni ko‘rgazmali texnik vositalarni, an’anaviy va noan’anaviy dars va tarbiya turlarini foydalanishga jalb qilish.

8. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sinf rahbari faoliyatini bajarishga har tomonlama tayyorlash.

9. O‘quvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, shakllanish va bilim darajasini o‘rganish maqsadida talabalarning ular bilan o‘zaro munosabatini tashkil qilish.

10. Talabalarni ilg‘or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganishga jalb qilish, ularda pedagogik izlanuvchanlikka bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, kurs va diplom ishlarini bajarishga yordam berish.

11. Talabalarni pedagogik faoliyatga ijodiy va izlanuvchanlik bilan yondashishga, o‘z faoliyatini tanqidiy baholashga, mustaqil bilim olishga bo‘lgan talabchanlikni shakllantirish.

12. Talaba-amaliyotchilarni xalq pedagogikasining bebaho durdonalaridan mohirona foydalanishga o‘rgatish. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida, milliy maktabda milliy tarbiyani muvaffaqiyotli olib borishga o‘rgatish.

13. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitish ishlarini uyushtirishda o‘quvchilarga dunyo va davlat ta’limi me’yorlari talablari darajasida bilim berishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyoti mobaynida ularga kerak bo‘ladigan asosiy narsa bu – kasbiy bilimdir.

Kasbiy bilim – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo‘lgan axborotlar va o‘zlashtirilgan nazariy ma’lumotlar birlashmasidir.

Kasbiy ko‘nikma va malakalar – amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan, shaxsning o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlarini anglangan ish harakatlariga aylanishidagi avtomatlashgan usuldur.

O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar asosida talabalarning kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirish va ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash borasida, shuningdek, kasbiy ko‘nikmalarni ham nazarda tutgan holda, ularning tahsil olish jarayonida ta’sir etuvchi omillarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday omillar, ya’ni omillar sirasiga: umumkasbiy fanlarni, pedagogik amaliyot, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni, maxsus fanlar hamda tanlov fanlarini kiritish mumkin. Asosiy maqsad yuqori darajali kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘qituvchi tayyorlash hisoblanadi va uni quyidagi xususiyatlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Kompetentli yondashuv ta’lim natijasiga urg‘u beradigan yondashuv. Bunda ta’lim natijasi o‘zlashtirilgan axborotlar yig‘indisi emas, balki shaxsni turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo‘ladi.

2. Kasbiy bilimlilik hozirgi kunda innovatsiyalarni tadbiq etish uchun kreativlikka bog‘liq bo‘lgan zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan. Kasbiy kreativlik (kasb sohasidagi ijodkorlik) kasbiy bilimga ega o‘qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir. Kasbiy kreativlik zamonaviy o‘qitish muhitini belgilab, kasbiy bilimlarni rivojlantirishga olib keladi.

3. Kasbiy bilimlarni Matematik modellashtirish fani va maxsus kursi asosida rivojlantirish jarayoniga olib boriladi [3].

O‘rganilgan maxsus va psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili, shuningdek, umumta’lim maktablari pedagoglari tajribasini, metodist va pedagogik amaliyotga mutasaddi rahbarlarning faoliyatini kuzatish, o‘rganish va samimiy suhbatlardan ma’lum bo‘lishicha, kasbiy ko‘nikmalar – bo‘lajak pedagoglar, tarbiyachi va tashkilotchilarning aniq maqsad bilan o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning murakkab tizimi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, ta’sir ko‘rsatish tizimi murakkab tavsifga egadir, zero “har qanday subyektning obyektga ta’siri, o‘zaro hamkorlik jarayonida ta’sirlanayotgan obyekt ruhiyatining sifat jihatidan o‘zgacha ko‘rinishidir” [4-5].

Shu o‘rinda, umumta’lim maktablari pedagoglarining kasbiy ko‘nikmalari tuzilishini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir (Mazkur jarayonda S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, L.S.Vigotskiy, M.A.Mileryan, N.V.Kuzmina, M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, N.M.Majidov va boshqalarning o‘qituvchi kasbiy faoliyati tuzilishi haqidagi ta’limotiga tayandik). Mohir pedagoglarning faoliyatini tahlil qilish jarayonida

dialektik jihatdan o‘zaro shartli bog‘langan bloklardan tashkil topgan ahamiyatli komponent tuzilishlari aniqlandi. Bloklar orasidagi o‘zaro munosabatlar va ularning absolyut egallagan o‘rinlariga ko‘ra quyidagi ko‘rinishni tashkil qiladi:

- kasbiy-konstruktiv ko‘nikmalar;
- kasbiy-tashkilotchilik ko‘nikmalar;
- kasbiy-kommunikativ ko‘nikmalar
- kasbiy-gnostik ko‘nikmalar;
- kasbiy-amaliy (maxsus) ko‘nikmalar.

**Kasbiy - konstruktiv komponenti** – tuzilishidagi ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan kasbga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo‘limlari va vazifasining asoslanishi, kasbga tayyorgarlik va kasb mahoratini oshirish usullarini egallaganligini ifodalaydi.

**Kasbiy – tashkilotchilik komponenti** – tuzilishidagi ko‘nikmalar. o‘quvchilarning turli faoliyatlari (o‘yini, o‘quv bilish, mehnat, sport, badiiy) tashkil eta olishga qaratilgan hatti-harakatlarni ifodalaydi.

**Kasbiy - kommunikativ komponenti** – tuzilishidagi ko‘nikmalarning ahamiyati ekspert sifatida tanlab olingan o‘qituvchilar tomonidan yuksak baholanganligi fikrimiz dalili. O‘quvchilarning hissiy-kechinmalari va kayfiyatlariga oshno bo‘lish (empatiya) hamda pedagogik nazokat madaniyati, o‘quvchilar bilan “umumiy til” topish ko‘nikmalarining yuqori ballga ega bo‘lishi, bo‘lajak pedagoglarning bolajon bo‘lishiga, ularning kundalik kayfiyati bilan hisoblashishiga, har bir o‘quvchining tavsifi va fe‘l-atvoriga ko‘ra “umumiy til” topa olishi o‘ta muhim. Ana shundagina o‘quvchining mehrini qozonishi, uning ishonchiga kirishi mumkin.

**Kasbiy-gnostik komponenti** tuzilishidan o‘rin egallagan ko‘nikmalar bo‘lajak pedagogdan o‘z sohasiga doir ilmiy-nazariy bilimlarni ham talab etadi. Masalan, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, shuningdek o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xos taraqqiyot qonuniyatlarini bilish ko‘nikmasi o‘quvchining psixologik, shaxsiy, ijtimoiy va jismoniy sohalarining rivojlanishi qonuniyatlarini, organizmda kechadigan biologik o‘zgarishlarni bilishi, o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xos ichki rivojlanish qonuniyatlarini, rasmiy va norasmiy liderlarning jamoaga ta’siri haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

**Kasbiy-amaliy (maxsus) komponenti** – tuzilishidagi ko‘nikmalar respondentlarning ta’kidlashicha, pedagog faoliyati komponenti tuzilishida yetakchi o‘rinni egallar ekan. Masalan, aktyorlik san’ati: maktab matematika kursida o‘ganilayotgan har bir mavzuning hayotdagi amaliy tadbirlarini hayotiy misollar yordamida o‘quvchilar ongiga singdira olishi, amaliy tadbiriy masalalarni o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi maqsadida kichik sahna ko‘rinishlari bilan yetkazib bera olish mahoratiga ega bo‘lishini ta’kilashadi. Bunday tajribani o‘zlashtirish esa ta’lim tufayli amalga oshiriladi. Shu sababli, mazkur ko‘nikmani pedagog o‘z faoliyatida shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining faoliyatida pedagogik amaliyot beqiyos o‘rin tutadi. Har bir pedogog qanday qobiliyatlarga ega bo‘lishi va gnostik malakalar, konstruktiv malakalar, kommunikativlik, tashkilotchilik malakalarni egallashda pedagogik amaliyot muhim ahamiyatga ega. Albatta shuni ham aytish zarurki, talabalarning o‘quv davri mobaynida egallagan kasbiy ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash uchun ham eng qulay fursat pedagogik amaliyot hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Жўраев Х.О. Интеграциялашган медиатаълим тизимини яратишда муқобил энергия манбалари қурилмаларидан фойдаланиш. Педагогика фанлари доктори (DcS). Дисс.–Т.: 2019. – 273 б.
2. Kurbonov G.G. Raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida sonli usullar fanini takomillashtirish modeli. International konferens: Problems and scientific solutions. Avstraliya. Avgust 2022. Pp. 48-55.
3. Ракова Н.А. Педагогическая инноватика: метод. Рекомендации // Витебск: ВГУ имени П. М. Машерова, 2014. – 55 с.
4. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: Автореф. Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ, 2008. – 42 с.
5. Rasulov T.H., Kurbonov G.G. Developing students' creative and scientific skills with modern educational technologies. // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5(2022), pp. 485-492.

## DEONTOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI HUQUQIY IJTIMOYLASHTIRISH MEXANIZMI

*Raupova Munira Murodovna,*

*Navoiy davlat universiteti,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
muniraraupova@gmail.com*

*Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor D.X. Narziqulova taqrizi asosida*

*Ushbu maqolada deontologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizm mezonlari (kognitiv-aksiologik, kasbiy xulq-atvor, refleksiv mezon) namoyon bo‘lish komponentlari (kognitiv, aksiologik, hissiy, refleksiv, ratsional, funksional), ularni o‘qituvchilik faoliyatida amalga oshirish usullari hamda shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklar: axloqiy aks ettirish, ma‘naviy va axloqiy barqarorlik, ishonchlik, mas‘uliyat, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyat va motivlar kabilarning mazmun mohiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** deontologiya, deontologik yondashuv, nazariy deontologiya, amaliy deontologiya, huquqiy ijtimoiylashtirish, mexanizm, xulq-atvor, burch, ma‘suliyat, majburiyat, kasbiy rivojlanish, axloq.*

## МЕХАНИЗМ ПРАВОВОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

*В статье на основе деонтологического подхода определены критерии педагогического механизма правовой социализации будущих учителей (когнитивно-аксиологический, профессиональное поведение, рефлексивные критерии), компоненты проявления (когнитивный, аксиологический, эмоциональный, рефлексивный, рациональный, функциональный), их «способы реализации в педагогической деятельности и особенности личности»; раскрываются нравственная рефлексия, духовно-нравственная устойчивость, надёжность, ответственность, общественно значимые ценности и мотивы, сущность содержания.*

***Ключевые слова:** деонтология, деонтологический подход, теоретическая деонтология, практическая деонтология, правовая социализация, механизм, поведение, долг, ответственность, обязательность, профессиональное развитие, этика.*

## MECHANISM FOR LEGAL SOCIALIZATION OF FUTURE TEACHERS BASED ON A DEONTOLOGICAL APPROACH

*This article highlights the criteria of the pedagogical mechanism of legal socialization of future teachers based on a deontological approach (cognitive-axiological, professional behavior, reflexive criteria), the components of manifestation (cognitive, axiological, emotional, reflexive, rational, functional), methods of their implementation in teaching activities, and the characteristics of their personality; moral reflection, spiritual and moral stability, reliability, responsibility, socially significant values and motives, and the essence of the content.*

***Keywords:** deontology, deontological approach, theoretical deontology, practical deontology, legal socialization, mechanism, behavior, duty, responsibility, obligation, professional development, ethics.*

**Kirish.** Uzluksiz ta‘lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik fazilatlarini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning xalqaro ta‘lim makoniga kirish va ko‘p bosqichli ta‘limni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning fundamental, nazariy va axloqiy-g‘oyaviy tayyorgarligining yuqori darajasiga mos keladigan kasbiy ta‘lim mazmunining yangi paradigmasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “gumanitar va pedagogik kadrlar tayyorlash sifatiga e‘tiborni kuchaytirish, pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta‘lim infratuzilmasini yaxshilash, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish” [1] zarurligi ta‘kidlangan. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish asosida kasbiy fazilatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish, huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Huquqiy ijtimoiylashtirish-bu jamiyatning normal ijtimoiy hayotida ijtimoiy va huquqiy qadriyatlarni rivojlantiruvchi shaxsni o'zlashtirish va moslashtirishning obyektiv va subyektiv maqsadli jarayonlar birligi, ular asosida ongli pozitsiyalarning shakllanishidir [9]. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchi davlatning huquqiy siyosatining faol ishtirokchisi sifatida jamiyat ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishda, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquqlariga qat'iy rioya qilishi, ularning manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini tushunishi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etishning ijobiy tajribasini o'zlashtirib olishlari, qonuniy xulq-atvorning shaxsiy ma'nosini anglab etishlari, ijtimoiy ahamiyatga ega huquqiy bilim va ko'nikmalarni egallashlari mumkin bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Deontologiya (yunoncha deontos δέον – “majburiyat, burch”, logos – ta'limot) xodimlarning to'g'ri kasbiy xulq-atvori, kasbiy va axloqiy burchlari to'g'risidagi fan, faoliyat subyektlari xulq-atvorning axloqiy me'yorlari va tamoyillari yig'indisini o'rganadi [10]. “Deontologiya” tushunchasi kasbiy faoliyatning pedagogik, psixologik, tibbiy va huquqiy kabi har qanday sohasiga tegishlidir. Pedagogik deontologiya o'qituvchining kasbiy faoliyati sohasidagi xatti-harakatlar, qoidalar va normalarni o'rganadi va ishlab chiqadi. Ammo K. M. Levitan “kasbiy xulq-atvor me'yorlari doimo tarixiy va o'ziga xos bo'lib, odamlarning o'zlari tomonidan real sharoit va faoliyat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan” degan g'oyani ilgari suradi [5; 234-b]. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarning aksariyatida burch, mas'uliyat, axloqiy me'yor va qadriyatlar pedagogik faoliyatning mazmuni va maqsadi haqidagi g'oyalarni o'z ichiga olgan. Qadriyatni umumiy holda quyidagicha ta'riflash mumkin: “Qadriyat – tevarak atrofdagi narsalar, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko'rsatuvchi axloqiy tamoyillar, g'oyalar, yo'l-yo'riqlar va maqsadlarda ifodalangan baho mezonlari va usullaridir [7; 278-b.]

Deontologik yondashuv mohiyatini ochib beruvchi yana bir tushuncha pedagogik axloq bo'lib, u o'qituvchining kasbiy faoliyat turlaridagi xatti-harakatlarini umuminsoniy axloqiy qadriyatlar va me'yorlar asosida tartibga soluvchi me'yorlar, talablar va qoidalar majmuyidir. M. N. Dudina “Insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya mazmunli muloqotda, turli xil faoliyatda shaxsning o'zini o'zi to'liq namoyon etish, axloqiy tamoyillar va xulq-atvor fazilatlarini mustaqil rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” [2; 240-b.] deb axloqiy pedagogika konsepsiyasini asoslab berdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kasbiy rivojlanish – kasbiy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsning o'zgarishi, kasbiy maqsadlar to'g'risidagi g'oyalarni shakllantirishning boshidan to professional faoliyati tugagunga qadar o'ziga xos individual yo'lini tavsiflaydi. Kasbiy rivojlanishning quyidagi bosqichlarida: variant (kasbiy maqsadlarni shakllantirish va kasb tanlash), kasbiy ta'lim va tayyorgarlik, kasbiy moslashish, boshlang'ich va o'rta kasbiy tayyorgarlik, kasbiy mahorat va murabbiylikni shakllantirish deontologik yondashuvni talab etadi.

Deontologik yondashuvning rivojlanish tarixi I. Bentamning axloqiy-ijtimoiy konsepsiyasidan kelib chiqadi, bunda axloq va huquq o'rtasidagi masala o'rganiladi. Olim qonunchilik san'ati va xulq-atvorning axloqiy me'yorlari bir hodisaning ikki tomonidan boshqa narsa emasligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, deontologiya deganda axloq ma'lum kasb vakillarining xulq-atvorini tartibga soluvchi qonun hujjatlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladigan bilim sohasi sifatida belgilanadi. O'qituvchining deontologik tayyorgarligi uzluksiz kasbiy va pedagogik tayyorgarlik tizimida shakllangan ijtimoiy-pedagogik ta'limdir. U o'z mohiyatiga ko'ra o'qituvchining kasbiy-pedagogik burch talablari orqali axloqiy yo'naltirilgan tayyorgarligi natijasi bo'lib, xulq-atvori va kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu ko'p millatli jamiyatdagi pedagogik faoliyatning kasbiy etika me'yorlari, axloqiy impervativlari, axloqiy ideallari, insonparvarlik qadriyatlari mazmuni bilan izohlanadi.

**Natija va tahlillar.** Deontologiyaga oid “axloq”, “burch”, “xulq-atvor” kabi asosiy kategoriyalar asosida inson faoliyatining ijtimoiy va kasbiy shartlashishini tushuntirish mumkin, ammo ular xatti-harakatlarning ichki dinamikasini ochib beradi (ular nima uchun inson kasbiy talablarga muvofiq harakat qiladi yoki yo'q degan savolga javob bermaydi). Tabiiyki, buni to'ldirish kerak bo'ladi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish o'qituvchilik kasbiga xos talablarning o'ziga xosliklariga e'tibor qaratish muhimligini ko'rsatadi. Ana shunday o'ziga xosliklardan biri axloqiy tamoyildir. Axloqiy tamoyil deontologik yondashuvning yanada rivojlanishi va mustahkamlanishi yo'lida amalga oshiriladi. Bir qancha adabiyotlarda keltirilishicha, XX asr boshlarida nazariy va amaliy deontologiya alohida ajratilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga olgan:

a) nazariy deontologiya – bu shaxsning mutaxassis va ma'lum bir kasblar guruhi vakili sifatidagi to'g'ri xulq-atvori haqidagi ilmiy bilimlar sohasi;

b) amaliy deontologiya – insonning kasbiy burchlari va hayotini amalga oshirishdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi muayyan normalar haqidagi ma'lumotlar.

“Burch” – deontologiyaning asosiy kategoriyasi bo'lib, axloqiy talablarni shaxsiy fazilatlarga aylantirish [4; 5-b.]. Axloqiy (jumladan, kasbiy) talab va me'yorlarga muvofiq harakat qilishga majburlash



(yoki ichki motivatsiya), o‘z borlig‘ini ularga muvofiq yaratish [5; 154-b.] ma’nosini ham ifoda etadi. Demak, jamiyatning shaxsga munosabati axloqiy talablarda ifodalanadi. Burch esa shaxsning jamiyatga (kasbiy jamoaga) munosabati va unda qabul qilingan axloqiy talablar tizimidir. Shaxs jamiyat (kasbiy hamjamiyat) oldidagi muayyan axloqiy majburiyatlarning faol tashuvchisi sifatida ulardan xabardor bo‘ladi va faoliyatida amalga oshiradi. “Majburiyat insonga yuklangan vazifa sifatida harakat qila oladigan axloqiy talabdir” [5; 128-b.]. Boshqacha aytganda, burchni obyektiv va subyektiv tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Burchning obyektiv tarkibiy qismi uning mazmuni bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va kasbiy rollariga xos xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu mazmun individual xususiyatlarga bog‘liq emas. U shaxsga nisbatan tashqi va bajarilishi zarur bo‘lgan burch vazifasini bajaradi.

Kasbiy xulq-atvor va axloqiy tamoyillarni amaliyot jarayonida o‘rganib borish talabani kelajakda kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi xulosalari kengayishiga yordam beradi. Talabada amaliy tajribalar orqali kasbiy faoliyat haqidagi tasavvurlar boyib, aniq xulosalar chiqarish malakasi oshadi. Mazkur jarayonda axloqiy tamoyillarning tarbiyaviy ahamiyati, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi ma’lumotlar deontologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

“Mexanizm” tushunchasi fanlararo ta’rif bo‘lib, uning ma’nosi qo‘llanish sohasiga qarab o‘zgaradi. Ilmiy tadqiqotlarda mazkur tushunchaga pedagogik faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilovchi o‘zaro bog‘liq elementlar to‘plami sifatida qaraladi. Kasbiy faoliyatning tizimli tuzilishida esa, inson-inson munosabatlarining ongli va maqsadli bajarilishi hisobiga pedagogik mexanizm yotadi. Kasbiy faoliyatning tizimli tuzilishi asosida inson va jamiyat hayotidagi pedagogik voqelik, pedagogik hodisalarning asosiy tizimli turlari – ta’lim, tarbiya, o‘qitish, rivojlanish bilan ifodalanadi. Ularning har biri o‘ziga xos pedagogik faktlar, qonuniyatlar va mexanizmlarga ega.

A. V. Sujinsov “pedagogik mexanizm” ma’nosini tushunish uchun quyidagi fikrni aytib o‘tgan: “Pedagogik mexanizm – bu ma’lum bir boshlanish va natijalarning o‘zaro bog‘liqligiga ega bo‘lgan ko‘p darajali, o‘zaro ta’sir qiluvchi va o‘zaro bog‘liq jarayonlarning yaxlit tizimi [6; c-18]. O‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish mexanizmi pedagogik strategiyani amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagicha tavsiflanadi:

- pedagogik tizim funksiyalarini amalga oshirishni ta’minlaydigan barcha elementlar majmuyi;
- moddiy-texnik, tashkiliy, boshqaruv va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishdagi chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirishni ta’minlaydigan subyektlar va vositalar;
- bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy va shaxsiy rivojlanishini huquqiy, ilmiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashda professor-o‘qituvchilarning faoliyat tizimi [3;104–109-b.].

Bo‘lajak pedagoqlarni huquqiy ijtimoiylashtirishni amalga oshirish mexanizmi konsepsiyasidagi talqinlardan kelib chiqib quyudagi mualliflik ta’rifini keltirish mumkin:

“Bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmini amalga oshirish rejalashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini belgilaydigan pedagogik maqsad, unga erishish vositalari haqida ishlab chiqilgan g‘oyalarga mos keladigan ilmiy-nazariy va ijtimoiy-huquqiy natijaga yo‘naltirilgan harakatdir”.

Mahalliy va xorijiy mualliflarning deontologik tayyorlash muammosiga bag‘ishlangan ishlarini tahlil qilish natijasida biz bo‘lajak o‘qituvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga deontologik tayyorgarligi xususiyatlari shaxsning adekvat qarorlar qabul qilish qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ tizimli-tarkibiy tarbiyasini aniqladik. Bunda huquqiy ijtimoiylashtirish tizimli tuzilma sifatida deontologik tayyorgarlikning shunday tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladiki, ular o‘zaro bog‘liqlikda o‘qituvchi shaxsining ma’naviy va axloqiy barqarorligini, o‘z faoliyati natijalariga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishni, burchini anglash va tegishli professional guruh vakili sifatida sha’nini saqlashni ta’minlaydi. Shu munosabat bilan deontologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirishning lokal-modulli darajadagi texnologiyasini ishlab chiqish zarur degan xulosaga kelindi. Texnologiyani ishlab chiqishda deontologik yondashuv mezonlari (kognitiv-aksiologik, kasbiy xulq-atvor, refleksiv mezon) namoyon bo‘lish komponentlari (kognitiv, aksiologik, hissiy, refleksiv, ratsional, funksional), ularni o‘qituvchilik faoliyatida amalga oshirish usullari hamda shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklar; axloqiy aks ettirish, ma’naviy va axloqiy barqarorlik, ishonchlilik, mas’uliyat, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyat va motivlar, axloqiy his-tuyg‘ular asos qilib olindi.

Mexanizmning kognitiv komponenti quyidagi darajalarda namoyon bo‘ladi: a) kognitiv-aksiologik: o‘qituvchining kasbiy burchi, pedagogik faoliyatining turli subyektlari bilan kasbiy munosabatlar etikasi to‘g‘risidagi bilimlar tizimining mavjudligi; b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog‘liqlikda: pedagogik jarayon subyektlari harakatlarining motivatsiyasini tushunish, o‘qituvchining kasbiy etikasi, kasbiy madaniyat va

ishbilarmonlik etikasini bilish; v) refleksiv bog‘liqlikda: o‘qituvchilik kasbiga doir o‘z faoliyatini huquqiy jihatdan baholash va tahlil qilish.

Mexanizmning aksiologik komponenti quyidagi darajalarda namoyon bo‘ladi: a) kognitiv-aksiologik: ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar tizimi va o‘qituvchining mazmunli hayotiy yo‘nalishlari, shaxsiyatining kasbiy yo‘nalishi, mehnat va kasbiy martabaning ijtimoiy markazlashtirilgan motivlarining rivojlanishi; b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog‘liqlikda: axloqiy va insonparvarlik tamoyillari asosida aloqa o‘rnatish, xushmuomalalik, bag‘rikenglik, insonparvarlik ko‘rsatish qobiliyati, v) refleksiv: pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan kasbiy va shaxsiy o‘zaro qadriyatli munosabatlarni aksiologik bilish, tushunish va tahlil qilish.

Mexanizmning hissiy-irodaviy komponenti quyidagi darajalarda namoyon bo‘ladi: a) kognitiv-aksiologik: axloqiy va xulq-atvor tanlovi, vijdon, burch, sha’n va adolat tuyg‘usi, shaxsning ma’naviy va axloqiy barqarorlik darajasi bilan bog‘liq hissiy tajribalar; b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog‘liqlikda: axloqiy va insonparvarlik tamoyillari asosida o‘z hissiy-irodaviy holatini boshqarish qobiliyati; v) refleksiv: pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan kasbiy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarning oqibatlarini bashorat qilish uchun individual usul va texnikalar tizimiga ega bo‘lish.

Mexanizmning refleksiv komponenti quyidagi darajalarni o‘zida aks ettiradi: a) kognitiv-aksiologik: axloqiy jihatdan o‘zining kuchli va zaif tomonlarini adekvat baholash, shaxsda deontologik madaniyatning rivojlanish darajasi; b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog‘liqlikda: hissiy, xulq-atvor reaksiyalarini kasbiy faoliyatda qiyinchilikka uchragan vaziyatlarda qo‘llay olish; v) refleksiya: kasbiy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarning deontologik jihatdan ahamiyat kasb etishi.

Mexanizmning ratsional komponenti quyidagi darajalarni o‘zida aks ettiradi: a) kognitiv-aksiologik: kasbiy o‘zaro ta’sir holatlarini oqilona baholash qobiliyati, b) kasbiy-xulq-atvor bilan bog‘liqlikda: adekvat mustaqil tanlovga tayyorgarlik va ikkilanish holatlarida ma’naviy va axloqiy qaror qabul qilish uchun irodali harakatlar; v) refleksiya: pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan kasbiy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarni bashorat qila olish;

Mexanizmning funksional komponenti quyidagi darajalarni o‘zida ifoda etadi: kognitiv-aksiologik: yuqori ijtimoiy va ijodiy faollik, tashabbuskorlik, o‘z faoliyati natijalari uchun jamiyat, boshqa odamlar, kasbiy guruh oldidagi javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati, kasbiy-xulq-atvor bilan bog‘liqlikda: pedagogik jarayon subyektlari harakatlarining motivatsiyasini tushunish; refleksiya: o‘qituvchining amaliy individual usullar va texnikalar tizimiga ega bo‘lishi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash va huquqiy ijtimoiylashtirishga qaratilgan majburiy va tanlov fanlar mazmunini yuqorida keltirilgan deontologik yondashuv komponentlari va mezonlari asosida batafsil rejalashtirish, qo‘llash, yangi bilimlarni intensiv o‘rganish va yuqori darajada o‘zlashtirish, ta’lim, predmet va maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida huquqiy ijtimoiylashuvni ta’minlaydi. Deontologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy ijtimoiylashuvi ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish, xulq-atvoridagi axloqiy me’yorlar, umuminsoniy ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv, metod va texnologiyalarni qo‘llash natijalari, shubhasiz, ta’limni zamonaviy texnologiyalarga uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu effektlar davlat oliy ta’lim standartlariga javob beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887 – son.
2. Дудина М. Н. Педагогика: долгий путь к гуманистической этике. Екатеринбург: Наука, Уральское отделение, 1998. – 240 с.
3. Ивочкина Т. Н. Научно-педагогическое сопровождение – механизм реализации стратегии развития образовательного учреждения // Проблемы современного образования. 2012. – № 3. – С. 104–109.
4. Кертаева Г. М. Основы педагогической деонтологии: учеб. пособие. –Павлодар, 2009.–238 с.
5. Левитан К. М. Педагогическая деонтология. – Екатеринбург: Деловая книга, 1999. – 234 с.
6. Сужинцов А. В. Педагогические аспекты формирования механизмов Педагогические аспекты формирования механизмов иноязычной речевой деятельности на основе устной речи: Дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01. –Саратов, 2000. – 187 с.
7. Губский Е. Ф., Кораблева Г. В., Лучтенко В. А. Философский энциклопедический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2000. – 569 с.

## O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Ruzmetova Zulfiya Xaitbayevna,**

*Urganch davlat universiteti o'qituvchisi*

**Tojiev Javlon Karimbayevich,**

*Urganch davlat pedagogika instituti katta o'qituvchi*

*O'qituvchilik faoliyati insoniyatning eng mas'uliyatli va muhimi kasblaridan biridir. Ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchilar o'z bilimlari, ko'nikmalari va shaxsiy xususiyatlarini muntazam ravishda rivojlantirishlari zarur. O'qituvchining kasbiy kompetentligi, uning pedagogik bilimlari, psixologik yondashuvlari, shuningdek, o'quvchilarga samarali ta'lim berish va ularga o'z shaxsiy rivojlanishlariga yordam berishdagi malakalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zarurligi nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham muhimdir.*

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik, yondashuv, innovatsion motivatsiya, shaxsiy sifat, resurs, loyiha.

## РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ

*Преподавание — одна из самых ответственных и важных профессий человечества. Чтобы добиться успеха в сфере образования, учителям необходимо систематически развивать свои знания, умения и личные качества. Профессиональная компетентность учителя включает в себя его педагогические знания, психологические подходы, а также его навыки эффективного обучения студентов и помощи им в их личностном развитии. Необходимость развития профессиональной компетентности учителей важна не только для повышения эффективности системы образования, но и для общего развития общества.*

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетентность, подход, инновация, мотивация, личностные качества, ресурс, проект.

## DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS

*Teaching is one of the most responsible and important professions of mankind. To achieve success in the field of education, teachers need to develop their knowledge, skills and personal qualities systematically. The professional competence of a teacher includes their pedagogical knowledge, psychological approaches, as well as their skills in teaching students effectively and helping them in their personal development. The need to develop the professional competence of teachers is important not only for increasing the efficiency of the education system, but also for the overall development of society.*

**Keywords:** competence, professional competence, approach, innovation, motivation, personal quality, resource, project

**Kirish.** Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ta'limning sifatini oshirish va o'qituvchining ish faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarurdir. Har qanday ta'lim tizimi uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan o'qituvchilarga asoslanadi, shuning uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda rivojlantirish ularning malakalarini oshirish va ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda pedagogik ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni jamiyatda o'qituvchilik kasbi mavqeyini mustahkamlash, ilg'or xorijiy tajriba va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lim fanishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'limning asosiy va yordamchi vositalarini zamonga mos holda takomillashtirish, sohaga xususiy sektorni ko'proq jalb qilish va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish kabi masalalarga yo'naltirilgan. Bunda o'qituvchilik kasbining alohida fazilatlarini, jumladan, ularning yuksak didaktik mahorat va texnikaviy ko'nikmalarni o'zlashtirganligi, pedagogik kompetensiyalardan voqifligi, umummadaniy fazilatlariga erishgan shaxs sifatida ta'lim va tarbiya jarayoniga kreativ yondashishi kabi xislatlarni o'zida aks ettiruvchi kasbiy kompetentlik muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish, boshqacha aytganda, kasbiy kompetentlikka erishishda maktablarda tashkil etiladigan malakaviy amaliyot muhim ahamiyatga ega. Kompetentli o'qituvchini tayorlash masalasini o'rganishning asosiy yo'nalishlarini ochib berish maqsadida bu jarayondagi muammolarning yechimini ko'rsatadigan psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Mavjud xulosalarning

turli-tumanligiga qaramay, barcha tadqiqotlar uchun umumiy boʻlgan narsa shundaki, ularda kasbiy kompetensiya darajasi talabalarning pedagogik mahoratini shakllantirish darajasiga bogʻliqligi taʼkidlanadi.

Oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligi – bu nafaqat pedagogik bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirish, balki oʻquvchilarning tarbiyasi, taʼlim jarayonining samaradorligini oshirish, individual va guruh boʻyicha faoliyatlarni tashkil qilishdagi malakalaridir. Oʻqituvchi kasbiy kompetentligi taʼlimning yuqori sifatini taʼminlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zarurligi, uning shakllanishi va rivojlanish yoʻllari haqida soʻz boradi.

**Asosiy qism.** Kasbiy kompetentlik — bu oʻqituvchining pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma, malaka va shaxsiy xususiyatlar majmuasidir. U oʻqituvchining oʻquvchilarga taʼlim berishda yuqori samaradorlikni taʼminlash, oʻquv jarayonida toʻgʻri qarorlar qabul qilish, oʻquvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos taʼlim usullarini tanlash kabi jihatlarni oʻz ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlikning tarkibi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

• **Pedagogik bilimlar:** Oʻqituvchi oʻz fani, pedagogika va psixologiya sohasidagi bilimlarni egallashi lozim. Bu bilimlar taʼlim metodlarini tanlashda va oʻquvchilarga taʼlim berishda yordam beradi.

• **Oʻquvchilar bilan ishlash koʻnikmalari:** Oʻqituvchi oʻquvchilarning ehtiyojlarini tushunish, ularni motivatsiya qilish va oʻquv faoliyatini samarali tashkil etish kabi koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.

• **Kasbiy axloqiy yondashuv:** Oʻqituvchining oʻz ishiga boʻlgan masʼuliyati, adolatligi, hurmat va ehtiyotkorligi uning kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir.

## 2. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati

• Kasbiy kompetentlik — bu oʻqituvchining taʼlim va tarbiya sohasidagi bilim va koʻnikmalarini oʻz ichiga olgan atamadir. Oʻqituvchining kasbiy kompetentligi nafaqat pedagogik bilimlarga, balki shaxsiy malakalar, kreativlik, ilmiy-izlanishlar va oʻquvchilarga individual yondashish koʻnikmalariga ham asoslanadi. Ushbu kompetentlik oʻqituvchining oʻquvchilarga samarali taʼlim berish, ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos taʼlim metodlarini tanlash, shuningdek, pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Taʼlim tizimida oʻqituvchilarni malakali rivojlantirish quyidagi sabablar bilan zarurdir:

• **Yuqori sifatli taʼlim:** Oʻqituvchining kasbiy kompetentligi nafaqat taʼlim sifatini oshiradi, balki oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini ham yuqorilaydi. Oʻqituvchilar oʻz bilimlarini yangilab borish, samarali taʼlim metodlarini qoʻllash va oʻquvchilarning ehtiyojlarini tushunish orqali oʻquv jarayonini optimallashtiradilar. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish oʻqituvchilarga taʼlim metodlari va vositalarini toʻgʻri tanlashda yordam beradi, bu esa oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini samarali rivojlantirishga imkon yaratadi.

• **Innovatsion yondashuvlar:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va metodlarni qoʻllash, oʻquvchilarga taʼlim berishda yangi yondashuvlarni izlash oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish orqali taʼminlanadi. Zamonaviy taʼlim metodlari va texnologiyalarini qoʻllash uchun oʻqituvchilarning malakalarini yangilash muhimdir. Bu oʻquvchilarga eng zamonaviy bilimlarni yetkazish va ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qoʻshadi.

• **Oʻqituvchilarni ragʻbatlantirish va motivatsiya:** Oʻqituvchilarni doimiy ravishda rivojlantirish ularning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi, ularni yanada motivatsiyalangan va samarali ishlashga undaydi. Oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish ularning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi, ular oʻz ishiga qiziqish va masʼuliyat bilan yondashadilar.

• **Pedagogik bilimlar:** Oʻqituvchi oʻz fanini mukammal bilishi, taʼlim jarayonini boshqarishda pedagogik nazariyalar va metodlarni amalda qoʻllash malakasiga ega boʻlishi zarur. Oʻqituvchilar oʻz ishiga masʼuliyatli yondashib, oʻquvchilarning taʼlimi va tarbiyasi orqali jamiyatda ijobiy oʻzgarishlarga sabab boʻladilar.

• **Psixologik koʻnikmalar:** Oʻqituvchi oʻquvchilarning psixologik holatini tushunishi, ularning shaxsiy xususiyatlariga mos pedagogik usullarni qoʻllashi kerak.

• **Amaliy koʻnikmalar:** Oʻqituvchi darslarni samarali tashkil etish, oʻquvchilarga individual yondashuvlar, oʻquv jarayonini boshqarish kabi amaliy koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.

• **Shaxsiy sifatlar:** Oʻqituvchining motivatsiyasi, kreativligi, sabr-toqati, axloqi va masʼuliyati kasbiy kompetentlikning shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatadi.

## 3. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning usullari va yoʻnalishlari

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun bir qator metod va yondashuvlar mavjud. Bu usullar oʻqituvchilarni yanada malakali va samarali taʼlim berishga tayyorlashga yordam beradi. Quyida baʼzi asosiy usullarni koʻrib chiqamiz:

### 3.1. Pedagogik taʼlim va kurslar.

O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu ularni turli pedagogik kurslar va seminarlarga jalb qilishdir. Pedagogik kurslar va malaka oshirish dasturlari o'qituvchilarga ta'limning yangi metodlari, innovatsion texnologiyalar va pedagogik bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi. O'qituvchilarni malaka oshirish kurslari va seminarlari, turli pedagogik treninglar va ta'lim dasturlari orqali ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mumkin. Ushbu kurslar o'qituvchilarni yangi ta'lim metodlari, pedagogik texnologiyalar, kommunikativ ko'nikmalar va psixologik yondashuvlar bilan tanishtiradi.

### **3.2. Amaliy mashg'ulotlar va tajriba almashish.**

O'qituvchilar uchun o'zaro tajriba almashish, boshqa mutaxassislarining ishini tahlil qilish va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu mashg'ulotlar orqali o'qituvchilar o'z ishini takomillashtirish, yangi metod va usullarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchilar uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish va tajriba almashish o'qituvchilarga ta'lim berishda samarali yondashuvlarni izlashga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar o'qituvchilarga yangi metodlarni sinab ko'rish, pedagogik jarayonlarni tahlil qilish va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatini yaratadi.

### **3.3. Shaxsiy rivojlanish va o'zini o'zi baholash.**

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida shaxsiy tashabbuslar ham katta rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'zlarini doimiy ravishda baholab, o'z ustida ishlashlari lozim. O'z bilimlarini yangilab borish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish, ta'limning zamonaviy metodikalarini joriy etish orqali o'qituvchilar kasbiy rivojlanishni amalga oshirishi mumkin.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi o'z-o'zini baholash jarayoniga ham asoslanadi. O'qituvchilar o'z ishini tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlashlari va o'z malakalarini yanada takomillashtirishlari mumkin. Bu jarayon o'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, uning pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

O'qituvchilar kasbiy kompetentliklarini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladilar. Buning uchun ularning pedagogik bilimlari, ta'lim metodologiyalari va amaliy ko'nikmalari yangilanishi lozim. Yangilangan bilim va usullar o'qituvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi.

### **3.4. Tadqiqot faoliyati va innovatsion loyihalar.**

O'qituvchilarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'qituvchilarni o'z faoliyatida ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga undash, ularning kasbiy o'sishiga yordam beradi.

O'qituvchilarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, yangi pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion loyihalarda ishtirok etish ularning kasbiy kompetentligini oshiradi. Bu, nafaqat o'qituvchilarga yangi bilimlarni o'rganish, balki ularni amaliyotga tatbiq qilish imkonini ham beradi.

### **3.5. Onlayn ta'lim platformalari va Resurslar.**

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qituvchilar onlayn ta'lim platformalaridan foydalanib, o'z bilimlarini oshirishlari mumkin. Internetda mavjud bo'lgan onlayn kurslar, vebinarlar va pedagogik resurslar o'qituvchilarning o'z kasbiy rivojlanishlarini tez va samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Onlayn kurslar va vebinarlar o'qituvchilarni yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish, shuningdek, o'zgaruvchan ta'lim sharoitlariga moslashishga yordam beradi.

## **4. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda maktab rahbariyatining roli.**

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda maktab rahbariyatining roli juda katta. Rahbariyat o'qituvchilarni motivatsiya qilish, ularning malakalarini oshirishga ko'mak berish, zaruriy resurslar bilan ta'minlash va o'qituvchilarga o'z faoliyatlarini takomillashtirish imkoniyatlarini yaratishi lozim. Maktab rahbariyati o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktab rahbariyati quyidagi yo'llar bilan o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashi mumkin:

- **Malaka oshirish dasturlarini tashkil etish:** Maktab rahbariyati o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun maxsus kurslar, treninglar va seminarlar tashkil etishi lozim.

- **Motivatsiya va mukofotlash:** O'qituvchilarni rag'batlantirish, ularga ta'lim sohasida erishgan yutuqlari uchun mukofotlar taqdim etish ularning ishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

- **Resurslar bilan ta'minlash:** Yangi texnologiyalar va o'quv materiallari bilan ta'minlash o'qituvchilarni samarali ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zarur resurslar bilan ta'minlaydi.

O'qituvchilarning ta'limi va tarbiyasida o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi nafaqat o'qituvchilarga bilim beruvchi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga, jamiyatga foydali fuqarolar bo'lib shakllanishlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi bu ularning pedagogik bilimlari, o'qituvchilar bilan ishlash ko'nikmalari, axloqiy yondashuvlari va shaxsiy xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zaruriyati, uning shakllanishi va rivojlanish yo'llari batafsil ko'rib chiqiladi.

Inson hayotiga kirib keladigan har qanday yangilik unda sergaklikni, hattoki norozilikni uygʻotadi. Shunga koʻra, uzoq yillar davomida anʼanaviy usullar bilan ishlab kelgan pedagoglar bugungi kunning oʻzidayoq takomillashtirilgan Davlat taʼlim standartlari asosidagi oʻquv jarayoni talab darajasida tashkil eta olmaydilar. Eng avvalo, taʼlimda biror bir oʻzgarishlarni amalga oshirish uchun avval oʻqituvchining kasbiy ongini tubdan oʻzgartirish kerak. Pedagoglarimiz darslarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun, avvalo, oʻz faniga oid davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturini sinchiklab oʻrganishi, yangidan nashr etilgan darslik bilan tanishishi, taqdim etilgan oʻquv dasturi asosida reja tuzib olishi kerak boʻladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan dars ishlanmalarida ham tegishli oʻzgarishlar qilish lozim. Jumladan, darsning texnologik xaritasida darsning maqsadi, jihozlari, oʻqitish texnologiyasi va h.k.lar oʻzgarishi bilan birgalikda oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar aniq holda belgilab olinadi. Shu bilan birga, pedagog oʻquvchilarda mazkur kompetensiyalar shakllanganligini aniqlay olish koʻnikmasiga ega boʻlishi kerak. Jahonning rivojlangan mamlakatlarining taʼlim tizimidagi ilgʻor tajribalarni oʻrganish uzluksiz taʼlim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini koʻrsatdi.

**Xulosa.** Oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish taʼlim tizimining samaradorligini oshirishda, oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini yuqori darajaga koʻtarishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy kompetentlik oʻqituvchining pedagogik bilimlarini, amaliy koʻnikmalarini va shaxsiy xususiyatlarini birlashtirgan holda taʼlim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Oʻqituvchilarni kasbiy rivojlantirishda zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar, amaliy tajriba almashish va doimiy oʻzini oʻzi baholash kabi usullar muhim ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati esa oʻqituvchilarning malakasini oshirishda koʻmak berish, ularga zarur resurslarni taʼminlash orqali taʼlim sifatini yaxshilashga hissa qoʻshishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Axmedova Mukarram “Pedagogik kompetentlik”. Oʻquv qoʻllanma T-2018.
2. Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich, Tugalov Ravshan Gʻulomovich, “Oʻqituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirishning uslubiy va dasturiy vositalari, fan, taʼlim va amaliyot integratsiyasi” 6 (2023): // "Fan, taʼlim va amaliyot integratsiyasi" ilmiy-metodik jurnali
3. Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich, Saidova Ozoda Tohirovna “Boʻlajak oʻqituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”. Hayot davomida taʼlim olish: yangi paradigmalarda va kutiladigan natijalar mavzusidagi respublika konferensiyasi.
4. Nazirova F. “Kasbiy kompetentlik sifatleri”. // Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 2023, 363–367.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA LOYIHAVIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH –  
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Saidova Nilufar Husan qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida loyihaviy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari ko‘rib chiqiladi. Loyihaviy qobiliyatni rivojlantirish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda mazkur qobiliyatlarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilinadi va ularni hal qilishga qaratilgan metodik yondashuvlar taklif etiladi. Shuningdek, loyihaviy faoliyatni rivojlantirish jarayonida texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ta‘kidlanadi. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Loyihaviy qobiliyatlarning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati va ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda duch kelinadigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Muallif loyihaviy yondashuvni joriy etishning zamonaviy pedagogik usullarini va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini tavsiya qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** loyihaviy qobiliyat, bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik muammo, ta‘lim texnologiyalari, ijodiy tafakkur, ko‘nikma, zamonaviy pedagogik metodik yondashuv.*

**РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КАК  
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*В статье рассматриваются педагогические основы формирования проектных умений в процессе профессиональной подготовки будущих учителей. Развитие проектных навыков способствует повышению эффективности образовательного процесса и развитию навыков инновационного мышления педагогов. В исследовании анализируются проблемы, препятствующие развитию этих способностей, и предлагаются методические подходы к их решению. Также подчёркивается важность использования технологий при разработке проектной деятельности. В частности, рассматриваются теоретические и практические аспекты развития проектных навыков у будущих учителей. Анализируется значение проектных навыков в образовательном процессе и основные проблемы, возникающие при формировании этих навыков. Автор рекомендует современные педагогические методы реализации проектного подхода и пути повышения их эффективности.*

***Ключевые слова:** проектные умения, будущие учителя, педагогическая проблема, образовательные технологии, творческое мышление, умения, современный педагогический, методический подход.*

**DEVELOPMENT OF PROJECT SKILLS IN FUTURE TEACHERS AS A PEDAGOGICAL  
PROBLEM**

*This article examines the pedagogical foundations of developing project skills in the process of professional training of future teachers. The development of project skills serves to increase the effectiveness of the educational process and the formation of innovative thinking skills of teachers. The study analyzes the problems that hinder the development of these skills and proposes methodological approaches aimed at solving them. The importance of using technologies in the process of developing project activities is also emphasized. In particular, the theoretical and practical aspects of developing project skills in future teachers are highlighted. The importance of project skills in the educational process and the main problems encountered in the formation of these skills are analyzed. The author recommends modern pedagogical methods for implementing the project approach and ways to increase their effectiveness.*

***Keywords:** project skills, future teachers, pedagogical problem, educational technologies, creative thinking, skills, modern pedagogical methodological approach.*

**Kirish.** Oliy ta‘limda ta‘lim texnologiyalarini doimiy ravishda yangilash, innovatsion didaktikani joriy etish, universitetda bo‘lajak mutaxassisning ta‘lim, rivojlanish va shaxsiy o‘shish tizimlarini shakllantirish dastlab bir qator hal qilib bo‘lmaydigan psixologik va pedagogik muammolarga duch kelmoqda. Ulardan eng

muhimi bugungi kunda hamma o‘qituvchilar ham o‘z mutaxassisligi bo‘yicha innovatsion kadr bo‘lishga tayyor emasligi bilan bog‘liq.

Innovatsiyalar. Shaxsning ijodkorligi ta‘limning ommaviy tizimlari va shakllarining natijasi bo‘lishi mumkin emasligi tobora ayon bo‘lmoqda. Axborot asriga kirish arafasida turgan zamonaviy ta‘lim insonga yangi madaniy o‘ziga xoslikni olishga imkon beradigan madaniy makonga aylanishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, ta‘lim olami o‘zini sezilarli darajada o‘zgartirishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini, uning kasbiy faoliyati va taraqqiyotining xususiyatlarini aniqlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash kasbiy va o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar tizimi sifatida qurilishi kerak. Ajam o‘qituvchi nazariy va amaliy jihatdan o‘zining kasbiy imkoniyatlarini tahlil qila olishi va shu asosda kasbiy faoliyatning istalgan bosqichida o‘zining keyingi kasbiy o‘sishi uchun tartibni shakllantirishi kerak. Bunga kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyor bo‘lish istagini shakllantirish orqali erishish mumkin. Pedagogika muassasasi bo‘lajak mutaxassislarni ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlashi kerak, bunda olingan kasbiy ko‘nikmalar talaba shaxsini ham kamol toptirish vositasi bo‘ladi. Bunday treningning eng muhim komponenti - rivojlangan ijodiy tasavvur va uni rivojlantirish qobiliyati. Agar chuqur bilim barkamol mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlash platformasi bo‘lsa, ijodiy faoliyat ularga kundalik kasbiy sohada ustunlik beradigan tramlindir, shuning uchun hozirgi vaqtda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika institutlari talabalari alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta‘lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish jamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta‘lim jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki talabalarining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni kelgusida mustaqil faoliyat olib borishga tayyorlashdir. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun loyihaviy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining dolzarb talabalaridan biridir. Ularda loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat kasbiy faoliyatlarini muvaffaqiyatli tashkil etishga yordam beradi, balki ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham takomillashtiradi. Shuningdek, ushbu qobiliyatlar ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlarni taklif qilishda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy ta‘lim jarayoni o‘qituvchidan nafaqat an‘anaviy bilimlarni yetkazishni, balki o‘quvchilarning ijodiy, mustaqil va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning professional tayyorgarligining ajralmas qismiga aylanmoqda. Loyihaviy qobiliyat o‘qituvchining innovatsion yondashuvini kuchaytirib, o‘quvchilarda o‘ziga xos fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyihaviy qobiliyat – bu shaxsning ma‘lumotlarni tahlil qilish, aniq maqsad qo‘yish, reja tuzish va amalga oshirish qobiliyatidir. Loyihaviy tafakkur muammoni hal etishning samarali yo‘llarini topishga yo‘naltirilgan. Loyihaviy qobiliyat o‘qituvchining turli masalalarni innovatsion yondashuv orqali hal qilish, ijodkorlik ko‘nikmalarini namoyon etish, shuningdek, ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish mahoratini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilmoqda [1; c. 28-31].

**Metodologiya va adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolada biz kelajak o‘qituvchisi o‘quvchilarining hayotiga eng katta ta‘sir ko‘rsatadigan ta‘lim hamjamiyatining qadrlil va samarali a‘zosi sifatida muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni o‘rganamiz.

Ushbu ko‘nikmalarni o‘rganishdan oldin, keling, dunyo qanday o‘zgarib borayotganini va nima uchun kelajakda o‘qituvchilarga kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar bugungi kunda ega bo‘lganlari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkinligini aniqlab olaylik. Valeri Xannon va Ameliya Patersonning "Triva: O‘zgaruvchan dunyoda maktablarning maqsadi" kitobida iqtibos keltirish uchun "Maktab va bugungi dunyo o‘rtasidagi uzilish aniq.

**Zamonaviy o‘qitish muammolari.** Keling, zamonaviy o‘qituvchining rolini tahlil qilishdan boshlaylik. O‘qituvchilar malakasini oshirishni haydashni o‘rganishga o‘xshatish mumkin.

Avvaliga hamma narsa juda qiyin bo‘lib tuyuladi, bir vaqtning o‘zida bajarilishi kerak bo‘lgan juda ko‘p ishlar va rolda bo‘lish mas‘uliyatining og‘irligi, lekin siz buni o‘zlashtirganingizdan so‘ng, bu ikkinchi tabiatga aylanadi. Bu o‘rgatish oson, degani emas. Undan uzoqda.

Har qanday o‘qituvchi biladiki, bu hissiy jihatdan yuklangan rollar bo‘lib, moslashuvchanlik, sabr-toqat, vaqtni boshqarish, kontentni bilish va boshqalar kabi yumshoq va qattiq ko‘nikmalarni talab qiladi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini kelajagiga olib borish mas‘uliyati bilan kurashar ekan, ular natijalarga erishish uchun katta bosim ostida va ota-onalar hamjamiyati va maktab boshqaruvining doimiy nazorati ostida. Shu bilan birga, ular sinfdagi xatti-harakatlar bilan shug‘ullanadilar, ota-onalar bilan muloqot qiladilar,



hukumatning eng yangi siyosatlaridan xabardor bo‘lishadi va o‘quv dasturlari mazmuni va vaqti bo‘yicha cheklovlarni boshqaradilar.

Bunga qo‘shimcha qilish uchun ular o‘qitishni qiziqarli va qiziqarli qilish uchun sinfga energiya olib kelishlari kerak. O‘qituvchilarning charchash darajasi juda yuqori bo‘lganligi ajablanarli emas.

Loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim qismi bo‘lib, bu qobiliyatlar shaxsda ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv va masalalarni oson yechimini topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. L.S. Vigotskiy – “Rivojlanishning yuqori psixik funksiyalari” asarida shaxsning rivojlanish jarayonida yaqinlashgan rivojlanish zonasi g‘oyasini keltiradi. Bu nazariya bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalashda, ayniqsa, loyihaviy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida asosiy metodologik yondashuv sifatida qo‘llaniladi [2; c. 45-48].

Sh.H. Xosilovning “Zamonaviy pedagogikada innovatsion metodlar” kitobida loyihaviy yondashuvning pedagogik jarayonda qo‘llanilishining amaliy jihatlari keng ko‘rib chiqilgan. Xosilov ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taklif qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’kidlaydi.

U. Dyuning “Pedagogik tafakkur” kitobida loyiha usulining nazariy asoslari yoritilgan. Dyui loyiha usuli yordamida o‘quvchilarni faol ta’lim jarayoniga jalb etishning samaradorligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida asosiy innovatsion metodlardan biri sifatida tan olingan.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolada asosan nazariy tahlil, qiyosiy metod, amaliy kuzatish, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

**Natija va muhokama.** O‘qituvchilarimizni ta’lim kelajagi uchun tayyorlash. Xannon va Paterson aytganidek, ta’limning maqsadi haqida bahslarni ochish vaqti keldi. Ta’lim va ta’lim psixologiyasi bo‘yicha fikr yurituvchilar tobora ko‘proq maktab maqsadini, yoshlar nima uchun borishlari kerakligini, ular u erda nimani o‘rganishlari kerakligini, qanday qatnashishlarini va qanday vositalardan foydalanishni aniqlashga intilmoqda va tobora ko‘proq o‘quvchilar maktabda o‘rganayotgan ko‘nikmalar va kasbiy va shaxsiy hayotda harakat qilish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga qarshi kurashmoqda. O‘qituvchining roli bu manzaraga qayerda mos keladi va biz o‘qituvchilarimizni ta’lim kelajagiga qanday qilib eng yaxshi tayyorlashimiz mumkin?

Insoniyat maktabi misol sifatida. Insoniyat maktabining vazifasi kelajak avlodga o‘zlari va insoniyat uchun ajoyib kelajak yaratishga imkon berishdir. O‘qituvchilar o‘rniga bizda o‘quv yordamchilari mavjud va to‘liq o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan, shaxsiy o‘quv dasturiga ega bo‘lish o‘rniga bizda sinxron va asinxron ta’lim mavjud bo‘lib, bunda har bir o‘quvchi uchun o‘quv sayohati tuzilgan, lekin shaxsiylashtirilgan.

Keling, o‘quvchilarimiz maktab missiyasi sari intilishlarini ta’minlash uchun fasilitatorlarimiz ega bo‘lishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rganamiz. Buning uchun biz o‘qituvchi rahbarligidagi an’anaviy sinf muhitidan uzoqlashishni tushunishimiz va bu yutuq, progressiv o‘rganish metodologiyasini o‘rganishimiz kerak.

Insoniyat maktabida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan va ishtiyoq bilan his qiladigan haqiqiy muammolarni hal qilish orqali o‘rganadilar. Sinxron mashg‘ulotlarni fasilitatorlar, maslahatchilar va murabbiylardan iborat o‘qituvchilar jamoasi olib boradi. Bular interfaol seminarlar, yo‘nalish bo‘yicha maslahat sessiyalari, malaka laboratoriyalari va murabbiylik mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi.

Asinxron ta’lim har bir o‘quvchining shaxsiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, jonli seminarlarda o‘rganishni tayyorlash va mustahkamlash va ular butun davr davomida ishlaydigan sinov loyihasi bilan tavsiflanadi. Ushbu o‘rganish o‘z-o‘zidan va o‘z-o‘zidan boshqariladi. O‘quvchilar o‘z vaqtlarini qanday samarali boshqarishni, qanday qilib muhim bosqich va maqsadlar qo‘yishni o‘rganishlari kerak.

Oldingi ta’lim tajribasi har xil bo‘lgan turli xil muhitlardan kelib chiqqan holda, bu yangi ko‘nikmalar ko‘pincha rivojlantirilishi kerak. O‘quvchilar mustaqil ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berish uchun o‘z-o‘zidan ishlaydigan ko‘nikmalar birliklarini tanlashlari mumkin. Ular o‘z topshiriqlarini o‘quv boshqaruvi tizimi bo‘yicha topshiradilar, uni o‘qituvchilar ko‘rib chiqadilar va ular haqida fikr bildiradilar. Ushbu maqolada asosiy e’tibor o‘quvchilar nima qilishlari kerakligi haqida emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qituvchilar jamoasiga qaratilgan.

Bizning fasilitatorlarimiz fan bo‘yicha mutaxassis bo‘lishlari shart emas, garchi ta’lim bo‘yicha yaxshi ma’lumot yordam beradi. Ular hamma narsadan ko‘ra hamdard bo‘lishlari, o‘quvchilarning ehtiyojlarini o‘lchashlari va ta’lim yordamini mos ravishda moslashtira olishlari kerak. Ular o‘quvchilarning fikr-mulohazalari va talablariga javob bera oladigan faol tinglovchilar bo‘lishlari kerak. Shuningdek, ular o‘quvchilar va ularning ota-onalari va butun dunyo bo‘ylab hamkasblar jamoasi bilan muloqot qila oladigan zo‘r muloqotchi bo‘lishlari kerak.

Bundan tashqari, maktab onlayn bo‘lganligi sababli, bizning o‘qituvchilarimiz texnologiyaning tezkor foydalanuvchilari bo‘lishlari kerak, chunki ular platformalar orasida uchib, o‘quvchilarni turli dinamik va interfaol tadbirlar orqali boshqaradi.

Va nihoyat, biz o‘quvchilarimizni kelajakka tayyor bo‘lishga tayyorlashni maqsad qilgan ekanmiz, bizning o‘qituvchilar jamoamiz butun dunyo bo‘ylab so‘nggi ta‘lim va texnologiya tendentsiyalari haqida yaxshi ma‘lumotga ega bo‘lishi va dolzarb bo‘lishi juda muhimdir. Shu maqsadda tarmoqni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlovchi hamjamiyatni yaratish qobiliyati axborot oqimi va ilg‘or tajribalarni almashishda foydalidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihaviy qobiliyatni rivojlantirish hozirgi zamon ta‘limining dolzarb vazifasidir. Bu qobiliyatni shakllantirish nafaqat o‘qituvchi sifatini oshirish, balki umumiy ta‘lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur muammoni hal qilish uchun ta‘lim jarayonida integrativ yondashuv va innovatsion metodlarni joriy etish muhimdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni loyihaviy faoliyatga jalb etish ularda mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Ta‘lim jarayonida loyihaviy yondashuvlar orqali talabalar real hayotdagi masalalarni hal qilish ko‘nikmasini egallaydilar. Biroq, pedagogik jarayonda loyiha faoliyatini muvaffaqiyatli joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

1. Ta‘lim jarayonidagi nazariya va amaliyot uyg‘unligi yetmasligi. Ko‘pincha oliy o‘quv yurtlarida nazariy bilimlar berilgani bilan, ularni amalda qo‘llashga yetarlicha e‘tibor qaratilmaydi.

2. Pedagogik kadrlar tayyorlashda loyihaviy faoliyat metodlarining samarali qo‘llanmasligi. A.N. Yakovlev bu haqida shunday deydi: “Loyihaviy faoliyatga asoslangan o‘qitish metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilmasa, uning samarasi pasayishi mumkin”.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash darajasini rivojlantirishga yetarlicha ahamiyat berilmasligi.

Loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun quyidagi zamonaviy yondashuvlar samaralidir:

1. Ko‘rgazmali ta‘lim metodlaridan foydalanish. talabalarni loyiha jarayonlariga o‘z ko‘zi bilan ishtirok etishga jalb qilish.

2. Loyihaviy ta‘lim metodini qo‘llash. Bu metod orqali talabalar loyiha ustida mustaqil ishlaydilar, natijada ularning ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlari rivojlanadi.

3. Keys-metodlarni ishlatish. Loyihaviy faoliyatda uchraydigan real muammolarni hal qilish orqali talabalarni analitik va amaliy ko‘nikmalari shakllanadi.

4. Guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Jamoaviy loyihalar orqali talabalar o‘zaro hamkorlikni o‘rganadilar.

5. Amaliy mashg‘ulotlar. Loyihani amaliyotda sinab ko‘rish va natijalarni tahlil qilish orqali o‘qitish.

Masalan, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika) yondashuvi orqali talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadi va o‘z loyihalarini yaratadi. Bu nafaqat loyiha qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularni turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

O‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni quyidagi yo‘nalishlarda loyiha faoliyatiga jalb etish mumkin:

- Ta‘lim jarayonida dars rejalarini loyihalashtirish.
- Talabalarni ijodiy guruhlariga birlashtirib, jamoaviy loyihalar ustida ishlash
- Mahalliy va xalqaro tanlovlarda ishtirok etish orqali tajriba orttirish.

Misol sifatida, pedagogika fanlari bo‘yicha magistrlar uchun o‘tkazilgan “Innovatsion ta‘lim texnologiyalari” mavzusidagi amaliy seminarni keltirish mumkin. Ushbu seminar davomida talabalarning loyihaviy qobiliyatlari sinovdan o‘tkazilib, ularning ijodkorlik darajasi oshirilgan.

Loyihaviy yondashuvning ta‘lim sifatiga ta‘siri Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy qobiliyatlari rivojlangan taqdirda, ular quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

- Darslarda o‘quvchilarning faol ishtiroki va qiziqishini oshirish;
- Ta‘lim mazmunini hayotiy muammolarni hal qilish bilan bog‘lash;
- Mustaqil fikrlashga asoslangan o‘quv jarayonini shakllantirish.

Bundan tashqari, loyiha asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish ta‘lim muassasalarining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun pedagogik jarayonda maxsus tayyorgarlik va resurslarni ta‘minlash zarur. Bu pedagoglar uchun loyiha metodikasi bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish, shuningdek, milliy va xalqaro tanlovlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Loyihaviy yondashuv orqali o‘quvchilarning ijodkorligi, analitik fikrlashi va yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi. Bu nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning sifatli ta‘lim berish qobiliyatini oshiradi, balki ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

Shu sababli, loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Ta'lim tizimida loyiha faoliyatini joriy etish bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy talablar darajasida tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat sifatli ta'lim berishga, balki ta'lim jarayonida mustaqil va innovatsion qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga ko'proq amaliy va loyiha faoliyatini kiritish, pedagoglar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish va ularni loyiha metodikasi bo'yicha tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarni milliy va xalqaro loyiha tanlovlariga jalb qilish lozim.

Loyiha faoliyatiga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilganda, o'quvchilarda ijodkorlik, analitik fikrlash va yetakchilik qobiliyatlari shakllanadi. Shuning uchun loyiha qobiliyatlarini rivojlantirish o'qituvchilik kasbining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning faqatgina nazariy bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas. Amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish uchun ularning loyihaviy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu qobiliyat ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va boshqarish malakalarini o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada loyihaviy qobiliyatni rivojlantirishning zarurligi, muammolari va echimlari yoritiladi.

Loyihaviy qobiliyatning ahamiyati

Loyihaviy qobiliyat deganda, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni ishlab chiqish, muammolarni hal etish va samarali yechimlarni joriy qilish qobiliyati tushuniladi. Ushbu qobiliyat o'qituvchining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Loyihaviy faoliyat o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirishda muhim vositadir.

Pedagogik muammolar

O'qituvchilarda loyihaviy qobiliyatni rivojlantirishga to'stinlik qiluvchi omillar quyidagilardir:

1. An'anaviy ta'lim metodlariga qaramlik.
2. Zamonaviy texnologiyalarni o'rgatishda tajriba va resurslarning yetishmasligi.
3. O'qituvchi va talabalarda motivatsiyaning pastligi.
4. Ilmiy-metodik yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmaganligi.

Loyihaviy qobiliyatni rivojlantirishga yondashuvlar [4; c. 52-58].

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'qituvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Kooperativ ta'lim usullari: Hamkorlikdagi faoliyat orqali muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Amaliy seminar va treninglar tashkil etish: Real loyiha asosida o'qituvchilarni mashq qilish, ularning tajribalarini boyitadi.

Nazorat va baholash tizimini takomillashtirish: Loyihaviy faoliyatni baholashda yangi indikatorlar qo'llash.

**Xulosa.** Xulosa qilsak, bo'lajak o'qituvchilarda loyihaviy qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talablaridan biridir. Ushbu qobiliyatlar shaxsda ijodkorlik, analitik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi. Loyihaviy faoliyatni ta'lim jarayoniga kiritish nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi va boshqa innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilarni amaliy tajribaga ega bo'lishiga erishiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning loyihaviy qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu qobiliyatlar o'qituvchiga o'quvchilarni qiziqtiradigan va ularni hayotga tayyorlaydigan samarali darslarni tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli, pedagogik oliy o'quv yurtlarida loyihaviy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu nafaqat o'qituvchi professionallik darajasini oshiradi, balki umuman ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'taradi.

#### Adabiyotlar:

1. Shodmonov M. "Ta'lim jarayonida loyihalash texnologiyalari." Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
2. Xolmatova, D. "Innovatsion pedagogika: nazariya va amaliyot." Samarqand, 2021.
3. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
4. UNESCO. "Teacher education for innovation and creativity." Paris: UNESCO Publishing, 2020.

## O‘SMIRLARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH – PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

*Saidvaliyeva Madinaxon Fazliddin qizi,*  
“Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti” tadqiqotchisi  
madinasaid@inbox.ru

*Ushbu maqolada o‘smirlarning ijodiy tafakkurini, uning kognitiv rivojlanishdagi o‘rnini va xususiyatlarini tahlil qilinadi. Ijodiy tafakkurning o‘zida kelayotgan avlod psixologik barqarorligiga ijobiy ta’siri, jumladan, stressga chidamlilik, o‘zini anglash kabi omillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlar va ijodiy tafakkur rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rib chiqiladi. Maqola ta’lim tizimi, ota-onalar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.*

**Kalit so‘zlar:** o‘smir, kognitiv rivojlanish, ijodiy tafakkur, induksiya, deduksiya, oila, divergent fikrlash, intellekt

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

*В данной статье анализируется творческое мышление подростков, его роль и особенности в когнитивном развитии. Обсуждается положительное влияние творческого мышления на психологическую устойчивость подрастающего поколения, в том числе такие факторы, как стрессоустойчивость, самосознание. Также рассматривается взаимосвязь между психологическими изменениями в подростковом возрасте и развитием творческого мышления. Статья также содержит практические рекомендации для системы образования, родителей и психологов.*

**Ключевые слова:** подростковый возраст, когнитивное развитие, творческое мышление, индукция, дедукция, семья, дивергентное мышление, интеллект.

## DEVELOPING CREATIVE THINKING IN ADOLESCENTS AS A MEANS OF FORMING PSYCHOLOGICAL STABILITY

*This article analyzes the creative thinking of adolescents, its place and characteristics in cognitive development. The positive impact of creative thinking on the psychological stability of the growing generation, including factors such as stress resistance and self-awareness, is analyzed. The relationship between psychological changes in adolescence and the development of creative thinking is also considered. The article also contains practical recommendations for the education system, parents, and psychologists.*

**Keywords:** adolescence, cognitive development, creative thinking, induction, deduction, family, divergent thinking, intelligence

**Kirish.** Bugungi kunda insonlarda ijodiy tafakkur yuritish va uni rivojlantirish psixologiyada asosiy maqsadlaridan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki shaxsda kognitiv rivojlanish, yangi qarashlarni shakllantirish, yangicha yondashuvlar asosida ijodiy tafakkur va muammolarni noodatij tarzda hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Zamonaviy jamiyatda shaxs sifatida rivojlanish uchun erta bolalik davrida ma’lumotni yetarli darajada idrok etish, mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. Bu jarayon bolaning atrof-muhit bilan faol muloqoti, qiziqishlarini rag‘batlantirish va ularga ko‘proq ijodiy imkoniyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar bolaning aqliy va emotsional rivojlanishiga teng e’tibor qaratib, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish uchun mos sharoit yaratishlari zarur. Natijada, bola nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni mustaqil tahlil qilish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, ta’lim jarayonini tashkil qilishda o‘smir o‘quvchining intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun eng samarali sharoitlarni yaratish uchun o‘smirlar tafakkurini rivojlantirishning jihatlarini ishlab chiqish zarur. Hozirgi zamon fanining murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni talab qilmoqda. O‘smirlik yoshi xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda xalqaro hayot va kishilik taraqqiyoti yangi bosqichga o‘tdi, bu yerda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok va ilg‘or

texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish masalasi hozirgi zamonda nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

Axborot davrida mustaqil ong va erkin fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash nafaqat ma’naviy, balki siyosiy jihatdan ham muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Buyuk islohotlar va yangiliklar davrida Amir Temurning “Kuch adolatda” degan shiorini zamon talabiga mos holda “Kuch bilim va tafakkurda” tarzida talqin qilish mumkin. Bu fikr shaxs tafakkuri masalasining naqadar ahamiyatli ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Inson tafakkurini tahlil qilganda, mustaqil, amaliy va nazariy tafakkur kabi turlarga duch kelamiz. Mustaqil tafakkur shaxsning aqliy qobiliyati bo‘lib, bunda odam aniq maqsadlar qo‘yadi, yangi vazifalarni belgilaydi va ularni boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lmasdan hal qiladi. Bunday tafakkur jarayonida shaxs o‘z-o‘zidan amaliy va ilmiy farazlar qilishi, natijalarni oldindan tasavvur qilishi, muammolarni turli usul va vositalar bilan mustaqil hal qilishi kuzatiladi. Bu esa zamonaviy sharoitda shaxs rivoji uchun muhim jihatdir.

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘smirlik davri shaxsining intellektual va ijodiy qobiliyatlari jadallik bilan shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolaning tafakkur jarayoni murakkablashadi, tanqidiy va ijodiy tafakkur rivojlanadi. O‘smirlik davrida nazariy tafakkur muhim o‘rin tuta boshlaydi, chunki bu yoshdagi o‘quvchilar atrof-muhitdagi bog‘liqlik va qonuniyatlarni chuqur anglashga intiladilar. Shu davrda bilim olishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortadi. Nazariy bilimlarni egallash orqali o‘smirlarning tafakkuri rivojlanib, ular dalillarga asoslangan fikrlashni o‘rganadilar. Bu esa isbotlash va deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. O‘smirlik davrining o‘ziga xos jihati bolaning o‘ziga xos shaxsiy nuqtayi nazari, individual qarashlar va ijodiy yondashuvini shakllantirishga intilish davri hisoblanadi. Ijodiy tafakkur – bu yangi, original yechimlar topish, muammolarga noan’anaviy yondashuvni anglatadigan tafakkur turi. 11-12 yoshdan boshlab o‘smirlar mantiqiy fikrlash asosida faoliyat yuritishni boshlaydilar. Bu yoshda ular kattalarga o‘xshab masalalarni keng qamrovli tahlil qilishga intiladilar. O‘smir tafakkurining nazariy darajaga qanchalik tez ko‘tarilishi va o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirishi uning intellektual rivojlanish darajasini belgilaydi. O‘smirlik davri yuqori intellektual faollik bilan ajralib turadi, bu esa ulardagi qiziquvchanlik, o‘z qobiliyatlarini namoyon etishga bo‘lgan ehtiyoj va yuqori baho olishga intilish bilan uzviy bog‘liqdir. Bu yoshda o‘smirlar tomonidan beriladigan savollar chuqur mazmunli, mantiqiy va muhokama qilinayotgan mavzuga oid bo‘ladi. Shuningdek, ular turli farazlar ilgari surib, taxminlar asosida fikr yuritish, tadqiqot o‘tkazish hamda bir masala yuzasidan muqobil yechimlarni taqqoslash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. O‘g‘il bolalar va qiz bolalarning ijtimoiy rollari turlicha bo‘lishi to‘g‘risidagi jamiyatda tarkib topgan tushunchalar bilan bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan tasavvurlar o‘smir yoshidagi shaxsning shakllanish yo‘llarini belgilab beradi. O‘smir o‘z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. O‘smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan olimlarning ta’kidlashicha, o‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar ta’sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o‘zib borish munosabati bilan o‘zlariga ko‘proq ishona boshlaydilar, ular endi oilaviy muammolar muhokamasida ham ishtirok eta boshlaydilar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ijodiy tafakkur borasida bir qancha psixolog-olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdan. Psixolog Lev Semenovich Vigotskiy ijodiy tafakkur tushunchasiga oid ilmiy qarashlari psixologiya va pedagogikada muhim ahamiyat kasb etadi. Vigotskiyning fikriga ko‘ra, ijodiy tafakkur inson aqliy faoliyatining yuqori shakli bo‘lib, unda mavjud bilim, tajribalar va muhit ta’sirida yangi mahsulot, g‘oya yoki qaror yaratiladi. Vigotskiy ijodiy tafakkurni quyidagicha ta’riflaydi: “Ijodiy tafakkur inson tafakkurining rivojlanish bosqichi bo‘lib, u mavjud bilimlarni yangicha kombinatsiya qilish va yangi mahsulot yaratishga qaratilgan faoliyatdir.” Vigotskiy tafakkurni ikki asosiy turga ajratadi:

- Reproduktiv tafakkur – avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash orqali yechim topish.
- Ijodiy tafakkur – mavjud bilimlarni yangi kombinatsiyada qo‘llash va innovatsion mahsulot yaratish.

Psixolog Aleksey Nikolaevich Leontevning ilmiy qarashlari psixologiyada muhim o‘rin tutadi. Uning tadqiqotlari o‘smirlik davrining shaxs rivojlanishi va ijodiy tafakkur bilan bog‘liq jihatlariga katta e’tibor qaratadi. Leontev faoliyat nazariyasiga asoslanib, insonning ijodkorligi va tafakkuri ijtimoiy sharoitlar, madaniy muhit hamda shaxsiy faoliyat orqali shakllanishini ta’kidlaydi. A.N.Leontevning fikricha, ijodkorlik inson faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, insonning shaxs sifatida o‘sishi, o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishi, yangi g‘oyalarni kashf etishi uchun asosiy omil ekanligini aytib o‘tadi. O‘smirlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda oilaning va oilaviy tarbiyaning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qobiliyatlar shakllanishi nafaqat insonning individual moyilliklari va qiziqishlariga, balki u yashayotgan

ijtimoiy muhitga ham bog‘liqdir. Bu jarayonda tarixiy, estetik va badiiy uzluksizlik shakllanadi va rivojlanadi.

**Ellis Paul Torrance** ijodiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni tadqiq qilishda katta hissa qo‘shgan amerikalik psixolog olimdir. U ijodiy tafakkur nazariyasini ilmiy asoslab, ijodiy qobiliyatlarni o‘lchash va rivojlantirish metodlarini ishlab chiqqan. Torrance ijodiy tafakkurni insonning yangi va original g‘oyalari yaratish qobiliyati sifatida tushuntirgan. Torrance ijodiy tafakkurni yangi va original g‘oyalarni yaratish, mavjud muammolarga noan’anaviy yechim topish qobiliyati sifatida ta’riflaydi. Torrance ijodiy tafakkurning quyidagi to‘rt asosiy tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatadi:

✓ Moslashuvchanlik: Muammolarga bir vaqtning o‘zida turli nuqtai nazardan yondashish va ko‘p qirrali yechimlarni taklif qilish.

✓ Originallik: O‘ziga xos, noodatiy va yangi g‘oyalarni ilgari surish. Originallik ijodiy tafakkurning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

✓ Tafakkur kengligi: Fikrlarning ko‘p sonli varianti va tezkor yechimlarni taklif etish qobiliyati.

Misol: bir mavzu bo‘yicha iloji boricha ko‘proq g‘oya taklif qilish

✓ Detallashtirish: G‘oyalarni batafsil ishlab chiqish, uni aniq va tushunarli shaklga keltirish. Detallashtirish g‘oyaning amaliy mahsulotga aylanishini ta’minlaydi.

**Abraham Maslou (1908–1970)** ijodiy tafakkurga oid qarashlari inson shaxsiy rivojlanishi va o‘zini o‘zi namoyon qilish nazariyasi bilan bog‘liq. U insoniy ehtiyojlar iyerarxiyasiga asoslanib, ijodkorlikni insonning eng yuqori psixologik qobiliyati deb ta’kidlagan. Maslow ijodiy tafakkurning ikki asosiy turini ajratib ko‘rsatgan:

➤ Birlamchi ijodiy tafakkur. Bu insonning tabiiy ravishda sodir bo‘ladigan ijodiy faoliyatidir. Masalan, Bolalar va san’atkorlarda kuzatiladigan tabiiy ijodkorlik. Ushbu ijodkorlik insonning hissiyotlari, intuitsiyasi va tabiiy qobiliyatlaridan kelib chiqadi.

➤ Ikkinchi darajali ijodiy tafakkur. Bu ongli va tizimli ijodiy faoliyatdir. Ilmiy izlanishlar, texnologik innovatsiyalar va rejali ijodiy ishlar ushbu tafakkurga misol bo‘ladi. Ushbu ijodiy tafakkurda inson o‘zining bilim va tajribalarini ongli ravishda qo‘llaydi.

Psixolog J.Gilford tadqiqotlarida ijodkorlikning rivojlanishi konvergent va divergent (yaxlit, intuitiv) tafakkurni birlashtirishni talab qiladi. J.Gilford ijodkorlik bir qancha intellektual omillarga bog‘liq deb hisoblardi. Ijodkorlikni tavsiflovchi asosiy omillar - fikrlashning ravonligi, moslashuvchanligi, aniqligi va o‘ziga xosligi asosiy o‘rinni egallaydi. U bu omillarni divergent fikrlash yoki divergent mahsuldorlik bilan bog‘ladi. Divergent fikrlash tufayli odam bir xil savolga juda ko‘p turli xil va teng darajada javob bera oladi. Konvergent fikrlash, o‘z navbatida, odamga oldingi tajriba va olingan bilimlar asosida yagona to‘g‘ri yechim topishga imkon beradi.

O‘smirlik davrida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri – bu ota-onalar bilan munosabatlardagi ziddiyatdir. Balog‘at yoshidagi bola asta-sekin bolalikdagi qaramlikdan xalos bo‘lib, mustaqillik sari intiladi. Ular o‘zaro ishonch, hurmat va tenglikka asoslangan yangi munosabatlar tizimini izlay boshlaydilar. Bu jarayon doimo barqaror va silliq kechmaydi, chunki ota-onalar ko‘pincha farzandlarida sodir bo‘layotgan psixologik va shaxsiy o‘zgarishlarni yetarli darajada anglamaydilar. Ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan munosabatlari va xatti-harakatlari ham moslashuvchan tarzda o‘zgarishi zarur bo‘ladi. Bu, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlari va ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida muhimdir. Ota-onalar bolalarning o‘zini namoyon qilishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun ularning o‘zgarayotgan ehtiyojlarini anglashlari va o‘z munosabatlarini yangi sharoitga moslashtirishlari kerak. O‘smirlik davrining murakkabligi shundaki, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi avvalgi ijtimoiy rollar qayta quriladi va yangi, murakkabroq tenglik asosidagi munosabatlar shakllana boshlaydi. Shu nuqtai nazardan, oilaning ijodiy rivojlanishga qo‘shadigan hissasi ota-onalarning farzandlar bilan o‘zaro muloqoti, tushunishi va qo‘llab-quvvatloviga bevosita bog‘liqdir. O‘smirlarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak:

✓ O‘smirni muayyan ijodiy faoliyatga yo‘naltirish

✓ O‘smirning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash

✓ Ijodiy faoliyatning barcha xususiyatlarini rivojlantirish uchun ijobiy muhitni tashkil etish

✓ Ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirish

✓ Psixologik xavfsizlikni ta’minlash,

Ko‘pgina olimlar o‘smirlik davrini inson hayotidagi tanqidiy davr deb atashadi. O‘smirlik davrida inson ko‘plab yangi ziddiyatli vaziyatlarga duch keladi. Atrofidagi insonlar bilan munosabatlarda turli xil o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan mulohazalar o‘smirning izlanish faolligini faollashtiradi, noaniqlik va xavfli vaziyatlarda yangi yechimlarni topish tafakkurini kengaytiradi. Bularning barchasi pirovardida o‘smirning ijodiy salohiyatini faollashtiradi. Ushbu yosh davrining asosiy jihati

o‘smirlarda motivatsiyani oshirish va shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirish jarayoniga e‘tibor qaratish lozim. Natijada, o‘smirlarda kognitiv faollikning ortadi, mustaqil ijodiy ish bilan shug‘ullanish istagi paydo bo‘ladi.

**Natijalar va ularning tahlili.** O‘quvchilarda ijodiy tafakkur xususiyatlarini rivojlantirishga oid turli psixologik usullar mavjud bo‘lib, ulardan biri “Torrens aylanalari” testi hisoblanadi. Ushbu test ijodiy tafakkurning tezligi, egiluvchanligi va originallik kabi xususiyatlarini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Testni o‘tkazishda ishtirokchilarga ichida tartibsiz joylashgan 20 ta aylanadan iborat qog‘oz (A4 formatida) hamda qalamlar beriladi. Ko‘rsatma quyidagicha bo‘ladi: “Sizning vazifangiz ushbu aylana shakllaridan foydalanib imkon qadar ko‘proq rasm chizish va har bir rasimga nom berish. Buning uchun sizga 10 daqiqa vaqt ajratiladi.” Topshiriq yakunida o‘quvchilarning chizgan rasmlari tafakkurning uchta xususiyati – tezlik, egiluvchanlik va originallik bo‘yicha baholanadi. Tafakkur tezligi chizilgan rasmlar soni bilan, egiluvchanlik turli sinflarga mansub predmetlar soni bilan, originallik esa boshqalarnikiga o‘xshamagan, noyob rasmlar bilan aniqlanadi. Baholash natijalari asosida ushbu ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik qiymati hisoblab chiqiladi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar texnik buyumlar va jihozlar, jumladan transport vositalari, yo‘l harakati belgilarini, sport anjomlarini va kundalik hayotda uchraydigan boshqa narsalarni chizishga moyil. Ularning chizgan rasmlarida tafakkur tezligi yuqori darajada ekanligi, ya‘ni ko‘p miqdordagi rasmlar chizilganligi kuzatildi. Biroq tafakkur egiluvchanligi bo‘yicha chizilgan rasmlar soni 5-7 ta predmet bilan cheklanadi. Bu esa tafakkur egiluvchanligi tezlikka qaraganda pastroq darajada ekanligini ko‘rsatadi. Ba‘zi o‘quvchilar aylana shakllarini birlashtirib, gantel, svetofor yoki yo‘l belgilarini yaratgani esa originallikning yaxshi namunasidir.

Qizlar esa chizgan rasmlarida ko‘proq gullar, mevalar, uy jihozlari, kulcha, gilos, soat va yo‘l harakati belgilarini aks ettirishgan. Ularning tafakkur tezligi baland bo‘lib, chizgan rasmlar soni ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, qizlarning tafakkur egiluvchanligi ham yuqori darajada, ya‘ni ular chizgan predmetlar xilma-xilligi buni isbotlaydi. Rasmlardagi originallik esa sharlar bog‘lami, svetofor, qaychi kabi noyob tasvirlar orqali namoyon bo‘ladi.

Natijalarga ko‘ra, o‘g‘il bolalarda tafakkur tezligi yuqori bo‘lsa-da, originallik doimiy ravishda kuzatilavermaydi. Qizlarda esa topshiriqlar soni ortgani sayin tafakkur tezligi va originallik darajasi oshadi. Biroq umumiy ko‘rinishda, qizlarning tafakkur tezligi originallikka nisbatan ustunlik qiladi. Eksperiment yakunida shunday xulosaga keldik: o‘g‘il bolalarda tafakkur tezligi yuqori darajada, ammo tafakkur egiluvchanligi va originallik ko‘rsatkichlari qizlarga qaraganda pastroq. Qizlarda esa tafakkur egiluvchanligi va originallik ko‘rsatkichlari ustunroq ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘smirlik davri shaxsning intellektual va psixologik rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda nazariy tafakkur va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanib, o‘smirning atrof-muhitni anglash, bilimlarni tizimli ravishda tahlil qilish va muammolarga innovatsion yechimlar topish qobiliyatlari shakllanadi. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, jumladan, o‘ziga ishonchni shakllantirish, hissiy muvozanatni saqlash va individual qobiliyatlarni namoyon qilishda ahamiyati yoritilgan. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali pedagogik va psixologik usullarini qo‘llash nafaqat o‘smirlarning psixologik holatini yaxshilash, balki ularning kelgusidagi hayotiy muvaffaqiyatlari uchun ham asos yaratadi. Oilaviy muhit va ta‘lim tizimi bu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida qayd etilgan. O‘smirlik davrida ijodiy tafakkurni rivojlantirish faqat intellektual rivojlanish bilan cheklanmasdan, shaxsning psixologik barqarorligini ta‘minlovchi muhim omil ekanini ta‘kidlash lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Психология творчества и психического развития. – Москва: Педагогика, 1987. – 320 с.
2. Выготский Л.С. Общение и мышление. - Москва: Наука, 1972.
3. Леонтьев А.Н. Развитие личности и творческое мышление. - Москва: Наука, 1975. - 210 с.
4. Torrance E.P. "Guiding Creative Talent" – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1965.
5. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. *Creativity Research Journal*, 24(1), 92–96.
6. Karimovna, N. Y. (2024). O‘smirlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda oilaning roli. *Innovation in the modern education system*, 5(42), 227-231.
7. Karimovna, N. Y. (2024). Oilada o‘smir bolalar ijodiy tafakkuri shakllanishining gender xususiyatlari. *Sustainability of education, socio-economic science theory*, 2(20), 8-11.

**MUTAXASSISLIK FANLARI BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI OLIB BORISH  
VA O‘TKAZISH METODIKASI**

*Sayfullayeva Dilafro‘z Axmadovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
“Texnologik ta‘lim” kafedrasida dotsenti  
dsayfullayeva15@gmail.com*

*Safarov Asliddin Abdullo o‘g‘li,  
Buxoro davlat pedagogika instituti 7TEX-24-guruh talabasi  
safarovasliddin714@gmail.com*

*Ushbu maqolada mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni olib borish va o‘tkazish metodikasi, texnologik ta‘lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlari mazmuni, maqsadi, o‘qituvchi amaliy mashg‘ulotga tayyorlanish jarayonida darsning maqsadi, joriy, oraliq va yakuniy yo‘riqnomalarni o‘tkazish tartibi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, texnologiya ta‘limi o‘qituvchisining vazifasi, shaxsiy fazilatlarini o‘z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilishi, mustahkam mehnat va kasb ko‘nikmalari va malakalarini egallagan bo‘lishi, ularni talabalarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi kerakligi haqida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** texnologik ta‘lim, mutaxassislik fanlari, dars, amaliy mashg‘ulot, qobiliyat, talaba, joriy, oraliq, yakuniy yo‘riqnomalar, xavfsizlik texnikasi qoidalari, o‘qituvchining vazifasi, shaxsiy fazilatlarini, bilish, kasb ko‘nikmalar.*

**МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО СПЕЦИАЛЬНЫМ  
ДИСЦИПЛИНАМ**

*В данной статье рассмотрены методика проведения практических занятий по профильным предметам, содержание и цель профильных предметов технологического образования, цель урока в процессе подготовки учителя к производственной практике, порядок проведения текущего, промежуточного и итогового инструктажа, правила техники безопасности, задача учителя технологического образования, личные качества, отличное знание научных основ своего предмета, прочные трудовые и профессиональные навыки и квалификация, высказаны мнения о том, что он должен уметь искусно донести их до учащихся.*

***Ключевые слова:** технологическое образование, профильные предметы, урок, практическое обучение, умение, студент, текущий, промежуточный, итоговый инструктаж, правила техники безопасности, задача учителя, личностные качества, знания, профессиональные навыки.*

**METHODOLOGY FOR CONDUCTING PRACTICAL TRAINING IN SPECIALIZED  
SUBJECTS**

*This article examines the methodology of conducting practical classes in specialized subjects, the content and purpose of specialized subjects in technological education, and the purpose of lessons in preparing teachers for industrial practice. It also covers the procedure for conducting ongoing, interim, and final instructions, safety regulations, and the tasks of a technological education teacher. The article discusses personal qualities, excellent knowledge of the scientific foundations of the subject, strong work and professional skills, and qualifications required for such teachers. Additionally, it expresses opinions on how teachers should be able to skillfully convey this knowledge to students.*

***Keywords:** technological education, specialized subjects, lesson, practical training, ability, student, current, intermediate, final instructions, rules of safety equipment, teacher's task, personal qualities, knowledge, professional skills.*

**Kirish.** Oliy ta‘lim muassasalarining texnologik ta‘lim yo‘nalishida o‘qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelishi uchun mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish tubdan qayta ko‘rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda. Shu bilan bir qatorda texnologik ta‘lim yo‘nalishida mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni olib borishda, uni o‘qitishda ancha yillardan beri yechimini topmayotgan muammolar hali ham mavjud. Texnologik ta‘lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar mutaxassislik fanlari bo‘yicha texnik ijodkorlikni, kreativ qobiliyatni,



tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltiriladi, hunarmandchilik asoslari, tikuvchilik, ro‘zg‘orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantiriladi.

Texnologik ta‘lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlariga: gazlamalar materialshunosligi, gazlamalarga ishlov berish praktikumi, materialshunoslik va konstruksion materiallar, metal va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi, tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari, elektrotexnika, elektronika va elektron yuritmalar, xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash, robotexnika asoslari, texnologiya ta‘lim metodikasi, kasb hunarga yo‘naltirish, texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanlari kiradi. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish orqali talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Biz ham izlanishlarimiz davomida texnologik ta‘lim yo‘nalishida o‘qitiladigan maxsus fanlaridan biri metall va metallmaslar bilan ishlash texnologiyasi fani misolida tadqiqotlarimizni olib bordik. Metall va metallmaslar bilan ishlash texnologiyasi fani amaliy mashg‘ulotlar asosida olib boriladi.

**Asosiy qism.** Texnologiya ta‘lim yo‘nalishini rivojlantirish uchun metall va metallmaslar bilan ishlashda texnologiyasi fanining o‘rni beqiyosdir, fanning o‘qitish tizimini yaratish, ilmiy metodik ta‘minotini rivojlantirish, fanning moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlash, texnologiya ta‘limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, umumiy o‘rta ta‘lim fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va talabalarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish, fan doirasida o‘rgatiladigan va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolli deb tanlangan kasblar hamda mutaxassislarni tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi, fanning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarni olib borish tizimini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida metall va metallmaslar bilan ishlash texnologiyasi fani o‘quv dasturi, fan sillabusini o‘rganadi. Texnologiya ta‘limi o‘qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, kasbiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini qaysi mehnat turlari bo‘yicha va qanday hajmda shakllantirish lozimligi haqida tasavvur qiladi.

Metall va metallmaslar bilan ishlash texnologiyasi fanining maqsadi talabalarni o‘qitishda yog‘ochga ishlov berish, buyum tayyorlash texnologiyasi, randalash, parmalash, tokarlik, frezalash, stanoklarida ishlov berish, nazorat o‘lchov va rejalash asboblari, dastakli asboblar shuningdek, yupqa tunikaga ishlov berish va yuqori sifatli buyumlar tayyorlash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaka hosil qiladi. Fanning vazifasi – talabalarni o‘qitishda rejalash, arralash, randalash, egovlash, parmalash, birikmalar tayyorlash, stanoklarda mohirona ishlay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

O‘qituvchi metall va metallmaslar bilan ishlash texnologiyasi fanining amaliy mashg‘ulot darsiga tayyorgarlik ko‘radi va talabalar foydalanishi uchun rejalashtirilgan buyumlarga texnologiya ta‘limi o‘qituvchisi texnikaviy hujjatlar ishlab chiqadi, zarur ko‘rgazmali qurollar tayyorlaydi, asbob-uskunalardan foydalanishi, talabalar ish joyi va ish qurollarining texnikaviy holatini, o‘quv ustaxonalari binosining va ulardagi jihozlarning xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq kelishini tekshirib chiqish talabi qo‘yiladi.

Darsga tayyorlanish vaqtida o‘qituvchi o‘tgan mashg‘ulotning mazmuni va natijalarini tahlil qilishi, ularning izchil aloqasini belgilab chiqishi, kelgusi darsning ta‘lim va tarbiya maqsadini to‘g‘ri belgilashi, darsning tuzilishini va uning har bir elementiga ajratiladigan vaqtni aniqlashi, mavzuga oid savollar tuzishi va kirish yo‘riqnomasi mazmunini ishlab chiqishi, asosiy mehnat usullarini tanlashi va o‘ylab chiqishi kerak.

Texnologiya ta‘limi o‘qituvchisi mashg‘ulotga tayyorlanish jarayonida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, talabalarga asbob va materiallar tarqatish, o‘quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat’iy saqlanishiga, ishlarga baho qo‘yish va ularni tahlil qilishga alohida e‘tibor berishi kerak.

Zamonaviy darsning tarkibiy tuzilishi o‘qituvchilarning boshqaruvchilik roli va talabalarning anglash faoliyatlarini tashkil etishning o‘ziga xosligini aks ettira turib, juda ham turli-tuman shakldaligi bilan farq qiladi. Darsning muvaffaqiyatli o‘tishi o‘qituvchi hamda talabalarning darsga tayyorlanishlariga bog‘liqdir.

Texnologiya ta‘limi o‘qituvchisi mutaxassislik fanlari bo‘yicha darsga tayyorlanish jarayonida quyidagilarni hisobga olishi zarur:

**Darsning maqsadlari.**

**Ta‘limiy:** Talabalarga amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha yangi atamalarga oid tushunchalarni va amaliy ko‘nikmalarini berish;

**Tarbiyaviy:** Talabalarga amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha bir-birlarini hurmat qilishni hamda xavfsizlik texnikasi qoidalarga rioya qilish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

**Rivojlantiruvchi:** Talabalarni fanga qiziqtirish, tasavvuri, xotirasi, kuzatuvchanligi, tafakkuri, nutqi, o‘quv jarayonida ko‘nikma, o‘quv malakalarini shakllantirish va ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, erkin va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarur.

Texnologik ta‘lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanish jarayonida e) dars materialining murakkablik darajasi: dars materialining amaliyot bilan va oldingi o‘tilgan materiallari bilan bevosita bog‘lanishini aniqlash, talabalarining mustaqil ishlari uchun vazifa berish dars jihozini tayyorlash, qo‘shimcha beriladigan topshiriqlar hajmini aniqlash; f) darsning didaktik vazifasini, ya‘ni maqsadga olib keluvchi masalalarning ketma-ketligini aniqlash; g) o‘qitish usullarining optimal variantlarni tanlash; h) darsning tuzilishini aniqlash: darsni samarali boshlash va vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, darsning rejasi va yaxlitligini, talaba va o‘qituvchi faoliyatining o‘zaro uzviylikini ta‘minlashdan iborat bo‘ladi.

**Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘qituvchisi amaliy mashg‘ulot jarayonida joriy, oraliq va yakuniy yo‘riqnomalarni o‘tkazish tartibi bilan tanishib chiqadi.**

Yo‘llanma - mehnat faoliyati usullarini tushuntirish va ko‘rsatish hamda mehnat faoliyatlarini to‘g‘ri va xavfsiz bajarish bo‘yicha tasavvur hosil qilishga va talabalarining amaliy faoliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratiladi. Yo‘llanma amaliy mashg‘ulot dars qismidir.

Yo‘llanmaga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi: Yo‘llanma jarayonida ta‘limning har xil metodlaridan foydalanish. Yo‘llanma mazmunini o‘qituvchi asoslashi. Agar o‘qituvchining talabalar oldiga qo‘ygan topshirig‘i ularga tushunarli bo‘lmasa, talabalar uni bajarish shartini ko‘pincha buzadilar, chunki ular bu nimaga olib borishini bilmaydilar. Shuning uchun o‘qituvchining har bir talabi asoslanishi kerak. Yo‘llanmaning to‘laligi va yo‘llanmani elementlarga ajratish. Mehnat topshirig‘ining qiyinligi va u qaysi guruhda bajarilayotganiga qarab yo‘llanma butun yoki ishning borishiga qarab qismlarga ajratib berilishi mumkin. Yo‘llanmada shunday ko‘rsatmalar bo‘lishi kerakki, talaba ular yordamida o‘z faoliyatlarini nazorat qila olishi kerak. Kirish, joriy va yakuniy yo‘llanmalar bir-biridan farq qiladi.

Yangi operatsiyani o‘rganish bo‘yicha kirish yo‘llanmasi operatsiya xarakteristikasini; mehnat usullarini me‘yoriy va sekinlashtirilgan sur‘atlarda bajarish qoidalarini namoyish qilishni; o‘z-o‘zini nazorat qilish belgilarini; aniq mehnat vazifasini o‘z ichiga oladi.

Joriy yo‘llanma: talabalar ishini to‘xtatish - xatoga yo‘l qo‘ygan talabaning ishiga e‘tibor berish, undan noto‘g‘ri ishlanganligining sababini tushuntirib berishini talab qilish, shu asnoda hamma talabalar bilan suhbat o‘tkazish, o‘qituvchining xulosasi: o‘qituvchining to‘g‘ri usullarni ko‘rsatishi, xatoga yo‘l qo‘ygan talabaning usullarini xotirada tiklashi, guruhga ishni davom ettirishga ruxsat berish talab etiladi.

Yakuniy yo‘llanma sifatli bajarilgan va noto‘g‘ri qilingan buyumlarni namoyish qilishni, talabalar ishining umumiy xarakteristikasini, talabalar yo‘l qo‘ygan xatolar tahlilini, talabalar ishini baholashni o‘z ichiga oladi. Kirish instruktlari ishlab chiqarish ta‘limi dasturining mavzusi yoki bo‘limini o‘rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi talabalarni o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishiga erishiladi.

**Texnologik ta‘lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlari dars jarayonida o‘qituvchilar xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilishi:**

Texnologiya ta‘limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur. O‘quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko‘ra, 70-90 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo‘ladi. Ular ta‘lim muassasasida ortiqcha shovqin bo‘lmasligi uchun asosiy binodan bir o‘z nariroqda quriladi.

O‘quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblardan va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo‘ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun‘iy shamollatiladigan bo‘lishi me‘yorda tabiiy va sun‘iy yoritilgan ish o‘rni bo‘lishi, havo temperaturasi qishda 14-16°, yoz davrida esa 20° dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug‘likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug‘lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv ustaxona devorlari silliq bo‘lib, yorqin bo‘yoqlar bilan shipi oq bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta‘minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e‘tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo‘yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi obyektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o‘rtasida yaqqol farq bo‘lishini ta‘minlaydi. Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo‘qotuvchi jihozlardan, eng to‘g‘ri mehnat usullaridan foydalanish yo‘li bilan erishilishi mumkin.

O‘quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar joylashtirish vaqtida yong‘inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to‘ldirilib yubormasligi kerak. Tikuv mashinalar va ularning orasidagi o‘tish yo‘llari belgilangan me‘yorlar

darajasida bo‘lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarning oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo‘lishi kerak. Ustaxonada qo‘l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyenik talablariga rioya qilgan holda shart-sharot yaratilgan bo‘lishi kerak.

**Texnologik ta’lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlari dars jarayonida o‘qituvchining vazifasi:** amaliy mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Texnologiya ta’limi yo‘nalishida taxsil oluvchi talabalarning amaliy mashg‘ulotlardagi asosiy vaqti mustaqil va kasbiy amaliy ishlarni egallashlariga qaratiladi. Chunki o‘qituvchi oldindan amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini puxta o‘ylab yaxshi rejalashtirilsagina talabalar mustaqil ishlay olish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Texnologiya ta’limi o‘qituvchisining lavozim vazifalari:

- talabalarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o‘quv fanlari bo‘yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta’lim jarayonida o‘qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash;
- o‘qitadigan fani bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni, to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilish;
- talabalarning bilim sifati, o‘zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- talabalar bilan yakka tartibda ishlash;
- talabalarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o‘quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va qo‘llash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

**Xulosa.** Texnologiya ta’limi o‘qituvchisining shaxsiy fazilatlari o‘z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilishi, mustahkam mehnat va kasb ko‘nikmalari va malakalarini egallagan bo‘lishi, ularni talabalarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi kerak. Shu munosabat bilan o‘z sohasida yaxshi malaka orttirgan va ishining ustasi bo‘lgan kishigina talabalarga o‘z ishini egallashda yordam bera oladigan bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham texnologiya ta’limi o‘qituvchisi o‘zining metodika, pedagogika fani, texnika va ishlab chiqarish sohalaridagi eng yangi yutuqlardan xabardor bo‘libgina qolmasdan, balki ilg‘or mehnat usullarini ham bilishi zarur. Shu maqsadda texnologiya ta’limi o‘qituvchisi mehnat ta’limi va tarbiya masalalari, kasbga yo‘llash yuzasidan chiqarilgan psixologik, pedagogik va metodik adabiyot yangiliklarini, o‘z ixtisosligi bo‘yicha hozirgi zamon texnikaviy adabiyotini, ishlab chiqarish ilg‘orlari, ixtirochilarning tajribasini o‘rganadilar.

#### Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo‘llash. Darslik T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 b
2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S. va boshqalar. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009, 427 b.
3. Yusupov R.A., Topildiyev S.R., Ganiyev B.Z. Global iqtisodiy rivojlanish. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, Iqtisod, 2019. -170 s.;
4. Abdullayev S.A., Xojiyev B.D., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 424 bet;
5. Rasulova Z.D., Quliyeva Sh.H., Jo‘rayev A.R.. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.-Buxoro: 2020.7-bet.
6. Sayfullyeva D.A. Ixtisoslik fanlarini innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitish metodikasi. Monografiya. Buxoro viloyati bosmaxonasi. MChJ nashriyoti B.: -2020-y.
7. Sayfullyeva D. A., Ibragimovna M. N. Amaliyotchi-talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotiga qo‘yiladigan talablar //Ustozlar uchun. – 2023. – T. 18. – №. 1. – C. 203-208.
8. Bazarbayev M., Sayfullyeva D., Isroilova S. The importance of digital technologies in improving the irc system in higher medical educational institutions //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B4. – C. 206-210.

**MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHI-PEDAGOGLARINING INFORMATSION  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**

*To'rayeva Charosxon Shavkat qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
torayevacharosxon5@gmail.com*

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagog-xodimlarning bugungi kunda zamon talablariga javob berishi lozim bo'lgan shartlardan biri “raqamli savodxonlik” ko'nikmasini, informatsion kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, xorij tajribalaridan namuna asosida yanada takomillashtirish yo'llari haqida bayon qilingan.*

*Dinamik o'zgarib borayotgan dunyoda texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish, ta'lim sohasini axborotlashtirish muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** axborot qobiliyati, texnik ko'nikmalar, o'yin texnologiyalari, interaktiv texnologiyalar, interaktivlik, raqamli savodxonlik, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Google Docs.*

**СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*В данной статье изложено содержание и сущность развития навыка «цифровая грамотность», информационной компетентности педагогов, работающих в системе дошкольного образования, и пути дальнейшего совершенствования на основе зарубежного опыта.*

*В динамично меняющемся мире важно постоянно совершенствовать технологии, информатизировать сферу образования.*

***Ключевые слова:** информационная грамотность, технические навыки, игровые технологии, интерактивные технологии, интерактивность, цифровая грамотность, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Google Docs.*

**CONTENT OF DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE OF PRESCHOOL  
PEDAGOGUES-EDUCATORS**

*This article outlines the content and essence of the development of the skill 'digital literacy', information competence of teachers working in the system of preschool education, and ways of further improvement based on foreign experience.*

*In a dynamically changing world, it is important to constantly improve technologies, informatise the sphere of education.*

***Keywords:** information literacy, technical skills, game technologies, interactive technologies, interactivity, digital literacy, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Google Docs.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohotlarning muvaffaqiyatiga, eng avvalo, odamlarning o'z ishlariga mas'uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi uchun ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- son “2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni, 2022-yil 4-fevral “Ilk qadam” Takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312- son “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22

dekabrda 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to’g’risida” gi Qarori, 2023-yil 26 may PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo’nalishlari belgilab berilgan.[2]

Tarbiyachi o’z kasbining mohir ustasi bo’lish uchun maxsus tayyorgarlik ko’rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg’or tajribali pedagoglarning tajribasini o’rganib, o’z ishiga tatbiq eta oladigan bo’lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to’g’ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko’nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo’lishi lozim. Ta’lim berishda *texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak*. Bolalar bilim, malaka, ko’nikmalarni yaxshi o’zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o’ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o’sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg’ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o’stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo’yishi;

6. Kun tartibini to’g’ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarida e’tiborga olishi;

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o’tkazib, axborot almashtirib turishi;

9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo’lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo’lsa ovuntira olishi;

10. Kun tartibida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo’llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi-tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to’g’ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.[3]

Dinamik o’zgarib borayotgan dunyoda texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish, ta’lim sohasini axborotlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sohasini rivojlantirishning ushbu yo’nalishi, ta’kidlanganidek hukumat hujjatlari, milliy ustuvor vazifa sifatida tan olingan. Perm shahridagi maktabgacha ta’limning shahar modelining ustuvor yo’nalishlaridan biri:

• texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish **amaliyotga yo’naltirilgan faoliyat**;

• **axborot qobiliyatlari** maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari;

• shakllanishi bilan bog’liq elementlarning rivojlanishi **texnik ko’nikmalar** maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari;

• kattalashtirish **o’yin texnologiyalari** ta’lim jarayonida.

Bu muammolarni hal qilishda **interaktiv texnologiyalar** maktabgacha ta’lim tizimida. “Interaktivlik” so’zining o’zi bizga kelib chiqqan lotincha “interaction” so’zidan olingan bo’lib, inter – “o’zaro, o’rtasidagi” va harakat, ya’ni. “talabalarning atrofda axborot muhiti bilan ma’lumot almashish turi”.

Maktabgacha ta’lim tizimida interaktiv texnologiyalardan foydalanish va mashg’ulotlarni interfaol usullar orqali tashkil qilish tarbiyachining muhim kompetensiyasi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo’yicha savodxonlik darajasi yetarli darjada bo’lishi kerak.

*Raqamli savodxonlik bu* –internet platformalari, ijtimoiy media va mobil qurilmalar kabi raqamli texnologiyalar orqali aloqa va axborotga kirish tobora kuchayib borayotgan jamiyatda yashash, o’rganish va ishlash uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarga ega bo’lishni anglatadi.

**Natijalar.** Aholining raqamli savodxonlik darajasini qanday oshirish mumkin degan savol o’rinli bo’ladi. Buning yechimi xorij mamlakatlarida quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi. Misol uchun, Amerika Qo’shma Shtatlarida digital literacy assessment (raqamli savodxonlikni baholash) veb sayti mavjud, bu veb sayt orqali istagan shaxs raqamli savodxonlik kurslarini o’qishi va kurs yakunida kursni tamomlaganlik haqidagi sertifikatga egalik qilishi mumkin bo’ladi. Bundan ko’zlangan maqsad aholini

raqamli iqtisodiyotda faol qatnashuvchilari sifatida tayyorlab borish va buning natijasida mamlakatning YAIM dagi raqamli iqtisodiyot ulushini oshirishga xizmat qilishi bilan ifodalanadi.

Platforma asosiy 3 ta yo‘nalish bo‘yicha raqamli ko‘nikmalarni baholaydi:

- Asosiy kompyuter ko‘nikmalari;
- Muhim dasturiy ko‘nikmalar;
- Kundalik hayotda texnologiyadan foydalanish.

Asosiy kompyuter ko‘nikmalari	Muhim dasturiy ko‘nikmalar	Kundalik hayotda texnologiyadan foydalanish
Boshlang‘ich kompyuter ko‘nikmalari	Microsoft Word	Ijtimoiy tarmoq
Intenet asoslari	Microsoft Excel	Axborot savodxonligi
Emaildan foydalanish	Microsoft PowerPoint	Karyera qidirish qobiliyatlari
Windows	Google Docs	Telesalomatlik ko‘nikmalariga kirish
Mac OS		Sizning raqamli izingiz

Yuqorida jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan har bir yo‘nalish bo‘yicha savodxonlikni oshirish va kurs yakunida imtihon topshirib sertifikat olish imkoniyati mavjud.[1]

**Muhokama.** Yangi informatsion va kommunikatsion texnologiyalar. raqamlashtirilgan muhitda to‘g‘ri yo‘nalishini olishda pedagoglarga qo‘shimcha bilimlar, malakalar zarur bo‘ldi. Raqamli ta‘lim va raqamli ta‘lim muassasida faoliyat yuritish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Pedagoglarning raqamli kompetensiyalari Yevropa modeli Digital Competenct of Educator (Dig Comp Edu) 22 da kompetensiyalar o‘rsatilgan. Shulardan 6 ta yo‘nalishda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ko‘rsatib o‘tilgan. Ularni har birini qarab chiqamiz.

Birinchi yo‘nalish - samarali kasbiy hamkorlik uchun - raqamli kasbiy ta‘lim muhitini yaratish.

Ikkinchi yo‘nalish - raqamli ta‘lim resurslarini izlash, yaratish va hamkorlikda ishlash shartlarini shakllantirish.

Uchinchi yo‘nalish - raqamli asboblar jihozlarni qurollarni ta‘lim samarali jarayonida qo‘llash.

To‘rtinchi yo‘nalish - samarali baholash maqsadida raqamli usullardan foydalanish strategiyasi.

Beshinchi yo‘nalish-raqamli usullar bilan o‘rganuvchilarning ta‘lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish.

Oltinchi yo‘nalish - o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlanishini pedagog tomonidan nazorat qilish va kuzatish.

Ikkinchi uchunchi to‘rtinchi va beshinchi yo‘nalishlar raqamli ta‘lim modulining o‘zgarishini tashkil qiladi. Ular zamonaviy pedagog qanday kompetetsiyalari ega bo‘lishi kerakligini chuqur tahlil qilib bergan. Shu orqali o‘qituvchi ta‘lim muhitida samarali innovatsion faoliyatida raqamli usullardan foydalanishi ko‘rsatilgan. Birinchi yo‘nalish raqamli texnologiyalar orqali o‘zaro hamkorlikning barcha subektlarni o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalarni qamrab oladi. Shu bilan birga bu yo‘nalish o‘qituvchining reflektiv qobiliyati, o‘z pedagogik faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tahlil qilish va raqamli resurs hamda usullardan foydalanib o‘zini kasbiy mahoratini oshiradi. Ikkinchi yo‘nalishdagi kompetensiyalar pedagogni raqamli resurslarni tanlab olish qobiliyatini shakllantiradi, o‘quvchilarga zarur ma‘lumotni topishga adaptatsiya qildiradi, o‘zini raqamli bazasini tashkil qiladi va xamkasblari xavfsiz foydalanishlariga sharoit yaratadi. Bu bazadan o‘quvchilari va ularni ota-onalari foydalanishlari mumkin.

Uchinchi yo‘nalishdagi kompetensiya ta‘lim jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. U o‘qituvchini ta‘lim jarayonidagi tashkilotchi sifatidagi kompetensiyalari bilan bog‘liq bo‘lib o‘quvchilarni guruh bo‘lib va avtokom shug‘ullanishlariga imkon yaratib ularni rivojlanishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish bu baholash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib uni tarkibida shakllangan va umumiy baholashni amalga oshirish mujassamlashgan bo‘ladi. Pedagog o‘quvchilarning faolligi va bilimni tanqidiy obyektiv, tahlil qilib baholay olishi kerak.

O‘z vaqtida qayta aloqani o‘rnatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishi lozim. Beshinchi yo‘nalish o‘qituvchini raqamli resurslarga kira olishi kerak, shunday qobiliyatga ega bo‘lishi kerak. Shu

bilan birga ta’limga differensiallashgan va individual, shaxsiy yondashuvni tarbiyalashi kerak bu bilan o’quvchilarni ham raqamli texnologiyalarga jalb qilishi kerak. O’quvchilarda tug’iladigan raqamli ta’lim muammolarini hal qilishi kerak. O’quvchilarni Raqamli ta’limda o’zini ko’rsatishga yo’l ochib berishi kerak.

Oltinchi yo’nalish pedagogning informatsion va mediasavodxonligi bilan bog’liq. Pedagog kasbiy hamkorlikda o’zini informatsiyani yig’ish, raqamli ta’lim muhitida o’quvchilarni oldidagi muammolarni yuqori saviyada hal qila olishi kerak. Raqamli texnologiyalarda o’quvchilarni samarali o’qishi va ta’lim olishini ta’minlashi lozim. Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar pedagogga o’zini ko’rsatishi va faoliyatini takomillashtirishi uchun sharoit yaratib beradi.

G.V.Potemkinaning fikriga ko’ra pedagogning raqamli kompetensiyalari ta’limning raqamli didaktik imkoniyatlari va resurslaridan foydalanish imkonini ham beradi. Raqamli didaktikani rivojlanishi uchun didaktik loyihalar va birgalikdagi ta’lim olish va yangi bilimlarni o’zlashtirishni ko’zda tutadi.[5]

Maktabgacha ta’lim tizimi pedagog-xodimlarining raqamli savodxonlik darajasini yanada oshirish va tarbiyachilarning informatsion kompetentligini rivojlantirish maqsadida xorij tajribalari va mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan isolohotlarning samarasi o’laroq bugungi kun pedagog-tarbiyachisi zamon talablariga to’laqonli javob bera olishi lozim.

**Xulosa.** Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o’zining yuqori o’rniga ega bo’lishi, bugungi kun yoshlari, xususan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida zamon talab etayotgan – media savodxonlikni rivojlantirish, ularning zamon talablari darajasida bilim va malakalarni egallashlari, ta’lim-tarbiya tizimining kelajakdagi strategik maqsadlarga asosan tashkil etilishiga bevosita bog’liq jarayondir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas bo’g’ini bo’lgan ta’lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bu borada ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo’nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi pedagoglarning bilim saviyasini tahlil qilish, o’rganish, kompetensiyaviy diagnostika, ya’ni ta’lim sifatini baholashda zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari (tarbiyachipedagog va mutaxassis) xodimlarida malaka oshirishga bo’lgan ehtiyojlarni o’rganish, tahlil qilish, obyektiv baholash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ularning media va axborot savodxonligi bo’yicha bilim saviyasini yangi metodlar asosida shakllantirish hamda muntazam takomillashtirib borish masalalarini keltirish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Nazarmatova.D.U. & Rafiyeva.M.B. Raqamlashtirish sharoitida bo’lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish yo’llari. PPSUTLSC-2024 Partical Problems and solutions to the use of theoretical laws in the sciences of the 21<sup>st</sup> century. Toshkent, 2024.
2. Qodirova F., Toshpo’latova Sh., Kayumova N., A’zamova M. Maktabgacha pedagogika. Darslik 2019.
3. Raxmatov.I.I & Raxmatova.Sh.I. Raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz October 2023 / Volume 4 Issue 10.
4. Потемкина Т.В. Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенций учителя. // Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. 2018. № 2 с.25
5. <https://infocom.uz/raqamli-savodxonlik-raqamli-iqtisodiyot-rivojlanishining-negizidir/>

**TALABALARNING AXBOROT VA BILIM OLISH MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHDA GIPER MUHIT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI**

*Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich,  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi, Termiz (O‘zbekiston)  
husniddin.tojiyev@bk.ru  
ORCID 0009-0000-1677-9408*

*Maqolada variativ o‘qitish, talabalarning axborot va bilim olish madaniyatini shakllantirish, bugungi kunda global rivojlanib borayotgan giper muhit texnologiyalaridan maqsadli foydalanish borasida e‘tibor berishimiz lozim bo‘lgan masalalar yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, variativ o‘qitish, talaba, ta‘limot, zamonaviy texnologiya.

**РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ ГИПЕРСРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ И  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ**

*В статье освещены вопросы, на которые мы должны обратить внимание в отношении вариативного обучения, формирования культуры получения информации и знаний студентами, целевого использования технологий гиперсреды, которые сегодня развиваются глобально.*

**Ключевые слова:** начальное образование, вариативное обучение, студент, обучение, современные технологии.

**THE ROLE OF HYPERENVIRONMENTAL TECHNOLOGIES IN FORMING STUDENTS'  
INFORMATION AND LEARNING CULTURE**

*In the article, there is a variety of teaching, information and knowledge acquisition of students the issues that we should pay attention to in terms of the formation of culture, the purposeful use of today's globally developing hyper-environmental technologies are highlighted.*

**Keywords:** primary education, variable teaching, student, teaching, modern technology.

**Kirish.** Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ta‘limi jarayonini modernizatsiyalash bir qator tizimli vazifalarni yechishni nazarda tutadi. Ulardan birlamchisi – ta‘limning yangi, zamonaviy sifatiga erishishdir. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ta‘limi amaliyotiga muqobil pedagogik tizimlarni, yangi texnologiyalarni, mualliflik dasturlarini, konsepsiyalarni, darsliklarni keng joriy etish o‘qituvchilar tomonidan yangi ta‘lim paradigmasining qabul qilinishiga ta‘sir ko‘rsatdi [89].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Pedagogikada ishlab chiqiladigan modellar tavsiflovchi xarakterga ega. Ayrim mualliflar modellarni rasmiylashtirishga harakat qilishgan (109; 122; 178; 50). Modellashtirish – bilish nazariyasining asosiy toifalaridan biridir. Modellashtirish g‘oyasi asosida, mohiyatan, ilmiy tadqiqotning har qanday usuli – ham nazariy (turli xil belgisi, mavhum modellardan foydalanadigan) va tajribaviy (predmet modellaridan foydalangan holda) yotadi (116, 57-b). Loyihalashtirilgan model, agar undan tajriba yo‘li bilan topilgan dalillarni tushuntirish uchun foydalanilsa, yoki hali kashf etilmagan dalillar mavjudligini bashorat qilishga imkon bersa, uni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin (33, 33-b).

Psixologik-pedagogik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida sinov pedagogik tizimning adekvat aks etishi bo‘lib ma‘lum bir amaliy faoliyatning nazariy loyihasi sifatida tushuniladigan uning modeli hisoblanadi (11; 22; 24; 104; 175).

Zamonaviy ilm-fanda modellashtirishdan foydalanish muammosini ko‘rib chiqib, quyidagi vazifani belgilab oldik: kasbiy tayyorgarlikni yangilash bo‘yicha tadqiqotlar tavsiyalarini tizimlashtirish va izohlash orqali talabalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishning variativ tizimini anglab tanlashga tayyorlash tizimining modelini yaratish. Modelni yaratish mutaxassislar tayyorlashning har bir bosqichining maqsad va vazifalarini aniqlash, ham har bir bosqichning taktik maqsadlariga, ham tadqiqotning umumiy strategik maqsadiga erishishning adekvat va optimal vositalarini tanlash uchun zarurdir. Talabalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun variativ ta‘lim tizimini anglab tanlashga tayyorlash tizimi uning bosqichlarining ma‘lum izchilligini tan olishdan iborat bo‘lib, uni pedagoglar va talabalarning qadriyatli mazmun asosida amalga



oshiriladigan “o‘zaro bog‘liqlikdagi dinamik faoliyat tizimining darajalarining o‘zgarishi” sifatida talqin qilish mumkin (26; 21 ).

Tasdiqlovchi yoki qayd etuvchi bosqichda olingan ma‘lumotlarga asoslanib, shakllantiruvchi tajribani tayyorlash va o‘tkazish dasturi ishlab chiqildi va unga quyidagilar kiritildi:

- pedagogik tizim sinov modelini qurish uchun metodologik asos sifatida psixologik-pedagogik tushuncha va nazariyalarni tanlash;

- talabalarni o‘qitishning metodik tizimini anglab tanlashga tayyorlashning pedagogik tizimini optimal qurish maqsadida modellashtirishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-metodik jihatlarini ishlab chiqish;

- universitetda tajriba-sinov ishlarini samarali olib borish imkonini beruvchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar va vositalarni aniqlash.

Talabalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun variativ ta‘lim tizimini anglab tanlashga tayyorlashga qaratilgan pedagogik tizim modelini qurishda tadqiqotimizdagi boshlang‘ich nuqtalar bo‘lib quyidagi metodik, psixologik-pedagogik konsepsiyalar bo‘ldi:

1. Yaxlit pedagogik jarayon haqidagi o‘zaro bog‘langan bosqichlar ketma-ketligi sifatidagi g‘oyalar (V.S. Ilin, I.YA Lerner, M.N. Skatkin). Modellashtirish jarayonini ko‘rib chiqishga yaxlit yondashuv uning barcha elementlarini yaxlitlikning funksional jihatlarini sifatida bog‘liqlikda belgilaydi (A.M. Saranov, N.K. Sergeev, V.V. Serikov) (82, 5-21 b);

2. Pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi gumanistik turdagi munosabatlarga, ularning o‘zaro ta‘siri va o‘zaro rivojlanishiga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasi (A.A. Verbitskiy, Y.V. Bondarevskaya, I.A. Kolesnikova, M.V. Klarin, V.V. Serikov). U ta‘lim jarayonini shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlariga yo‘naltirishini nazarda tutadi. Shaxsning o‘zligini namoyon qilish shakli sifatida subyektivlik, dialog, erkinlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, semantik soha, refleksiya mazkur yondashuvning asosiy belgilari bo‘lib hisoblanadi (108; 162, 16-b). Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasi ikki darajadagi o‘zaro ta‘sirning uslubiy tamoyiliga asoslanadi – tashqi (protsessual) va ichki (psixologik). Dialogizm tamoyili o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta‘siri asosida yotadi.

3. O‘quv faoliyati nazariyasi (V.V. Davidov, A.K. Markova, D.B. Elkonin), unga ko‘ra o‘quvchilar aqliy rivojlanishining asosiy komponenti bo‘lib o‘qitish mazmuni va unga nazariy yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

4. O‘quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga o‘tish tizimini, o‘quv-bilish faoliyatining kasbiy, o‘quv-kasbiy va maxsus kasbiy faoliyatga transformatsiyasini belgilaydigan kontekstli o‘qitish konsepsiyasi (A.A. Verbitskiy); (35; 34, 31-39 b).

Modelni ishlab chiqishda boshlang‘ich sifatida modellashtirish nazariyasining bir qator ilmiy-nazariy va tashkiliy-uslubiy qoidalari xizmat qildi (217; 27, 37-42 b; 204):

- natijalarni ham sifat, ham miqdoriy tahlil qilishga qaratilgan (talabalarining variativ ta‘lim tizimini anglab tanlashga va ma‘lum bir tayyorgarlik darajasiga erishishga tayyorligi);

- ham statik, ham dinamik komponentlarga ega (maqsadlar – mazmun – natija va pedagogik jarayonning bosqichlari tizimi), shuningdek, har bir bosqichdagi statik komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi;

- faoliyat va anglash jarayonlarining birligiga asoslanadi, chunki faoliyatni o‘zlashtirish darajalari faoliyat subyektining anglanganlik darajasi, ularning har birida mazmuni va refleksiya darajasi bilan belgilanadi (S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev shaxsiy-faoliyat nazariyasi qoidalari).

Pedagogika ixtisosliklari talabalarini variativ ta‘lim tizimini anglab tanlashga o‘rgatish modelini ishlab chiqishda, shuningdek, integrativ o‘quv faoliyatining funksiyalarini ham hisobga oldik:

- talabalarga ma‘lum bo‘lgan usullardan foydalangan holda, yoki yangi integrativ usullarni loyihalash orqali mustaqil ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatini berish;

- kasbiy faoliyatni, xususan, zamonaviy variativ o‘qitish tizimini tanlash va qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga hissa qo‘shish.

Bugungi kunda o‘qituvchining shaxsiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar keskin ortdi (195; 196). Bu masala bo‘yicha: “... pedagog – ma‘lum bir ijtimoiy tashkilot nomidan yoki o‘z tashabbusi bilan ish olib boradigan va atrofdagi tabiiy, ijtimoiy sharoitga eng yaxshi umumiy va maxsus moslashish yo‘nalishida yoshlarning o‘shishiga maqsadli tashkil etilgan yordam berishni; madaniy tajribada avval olingan bilim va ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirish, ularning individual va ijtimoiy xususiyatlarini mustahkamlash va ularda madaniy qadriyatlarga chuqur qiziqish va ijodiy munosabatni ochib berishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan ijtimoiy arbob bo‘lib, ko‘p hollarda qisman bevosita, qisman ikkilamchi yo‘llar bilan, tashkilotchi sifatida, tajriba tashkilotchisi sifatida, davlat va jamoat manfaatlarini ifodalovchi shaxs sifatida, ijtimoiy tuzatuvchi, madaniy qadriyatlarining tashuvchisi va ommalashtiruvchisi sifatida harakat qiladi” (154, 21-b).

O‘qituvchining pedagogik oriyentrlar bo‘la oladigan fazilatlarini ajratib ko‘rsatilgan (202, 90-97-b):

- ta‘lim faoliyatning mazmuni va maqsadlarini tushunadi;

- o‘z ta’lim pozitsiyasiga ega;
- yaxlit ta’lim dasturini yaratishni biladi;
- o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ko‘ra olish va ularga muvofiq ta’limni qurish qobiliyatiga ega;
- hamrohlik qilish ta’lim shakllari va metodlarini biladi;
- mashg‘ulot vazifalarini o‘zgaruvchan voqelikka muvofiq o‘zgartira oladi;
- o‘quvchining ta’lim o‘zgarishlarining sifat tavsifini tayyorlashni biladi;
- shaxsiy ijodiy o‘shish va refleksiv faoliyatga qodirlik.

**Natijalar va muhokama.** Bunday o‘qituvchini tayyorlash pedagogika ixtisosliklarining vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik o‘qituvchining pedagogik faoliyat subyekti sifatida faoliyat yuritishini ta‘minlashi kerak (90). Bu talablar ijtimoiy rivojlanishning dialektik jarayonlari bilan belgilanadi: uning hayotining barcha jabhalarini qayta qurish jarayonida va natijasida jamiyatning yangi sifat holatiga erishish odamlarning ijtimoiy ongi va xulq-atvoridagi yangi sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Jamiyat va maktabni yangilashning eng muhim vositalaridan biri - inson omilini faollashtirish bo‘lib hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida o‘qituvchining faoliyati yaxlit xususiyatga ega bo‘lib, bu uning asosiy funksiyani – uning faoliyatining har xil turlari: o‘quv, tarbiyaviy, ijtimoiy, uslubiy, o‘z-o‘zini o‘qitishning uyg‘un birlashmasini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi har doim ham zamonaviy talablarga javob bermaydi. Ko‘pincha OTMlarda o‘qitish ma‘lum shaxsiy fazilatlarni “tirajlash” mexanizmi sifatida ishlaydi. Moslashuvchan o‘quv rejalari, dasturlar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, fanlarni tanlashning haqiqiy imkoniyati yo‘qligi talabani ijodkorlik, yangi narsalarni idrok etish va yaratish qobiliyatidan mahrum qiladi. Bu o‘qituvchining uslubiy tayyorgarligini “tirajlashga” olib keladi. “Ijtimoiy buyurtma – mutaxassislar tayyorlash” paradigmasi yangi paradigma “ta’lim ehtiyoji – ta’lim xizmati” bilan almashtirildi. Yagona tuzilma o‘rniga ta’lim muassasalari va dasturlari xilma-xilligi keldi. Ta’lim mazmuni daraja va profillar bo‘yicha tabaqalashtiriladi, uning gumanitar tarkibiy qismi mustahkamlanadi. Keng ta’lim muhiti va yangi pedagogik texnologiyalarga murojaat qilish orqali o‘quv jarayonini fanlar bo‘yicha tabaqalashtirishga muqobil paydo bo‘ladi.

Mazkur barcha sifat o‘zgarishlarning natijasida, yuqori malakali mutaxassislarni ko‘p darajali va ko‘p bosqichli tayyorlash bilan bir qatorda, ta’lim va kasbiy tanlov uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan oliy ta’limning ko‘p bosqichli modeli ishlab chiqildi. Oliy pedagogik ta’limni fundamentallashtirish va insonparvarlashtirish g‘oyalarini amalga oshirish uni ta’lim texnologiyalari bilan yangilash va boyitish orqali mumkin bo‘ladi. Chunki, ta’lim jarayonini zamonaviy tushinishda texnologiyalashtirish o‘qituvchini asosiy e‘tiborni ma‘lumotni uzatish jarayonidan bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi jarayoniga o‘tkazishga yo‘naltiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning hozirgi tayyorgarligi holati to‘g‘risida bir nechta xulosalar keltirish mumkin:

1. Ta’lim mazmuni hajmining oshishi pedagogik nuqsonlarning kamayishiga olib kelmaydi va kasbiy tayyorgarlik sifatiga ta’sir qilmaydi;

2. Standartlar qoidalarini ta’riflashning foydasizligi – o‘qitish mazmuni yetishmasligining va mavjud fanlar majmuasining natijasi emas, balki aksariyat o‘quv kurslarining kuchsiz kasbiy yo‘naltirilganligi, ularning ichki tuzilmaviy va o‘zaro nomuvofiqligi, ta’lim va obyektiv tashhishlash natijalariga ta’sir etuvchi meyorlarning mavjud emasligi natijasidir;

3. Muayyan kursni o‘rganishning maqsadlari, mazmuni va maqbul natijalari o‘qituvchilar tomonidan o‘zlarining subyektiv ixtiyoriga ko‘ra belgilanadi.

Bu muammoning yechimi oliy pedagogik ta’limning ilmiy asoslangan standartini uning faoliyat ko‘rsatishi uchun tegishli texnologiyalari bilan joriy etish va o‘zlashtirish bo‘yicha tezkor ishlarni amalga oshirish zarurligidan iborat (114, 66-83-b). Shaxsga o‘qituvchilik faoliyati bilan kasbiy shug‘ullanish huquqini beruvchi, minimal davlat va jamiyat talablarini ifodalovchi meyoriy hujjat sifatida oliy pedagogik ta’lim standarti talab qilinadi.

**Xulosa.** Talabalarni ta’lim jarayoniga variativ yondashuvni anglangan holda tanlashga tayyorlashning o‘ziga xosligini aniqlashga tayyorlik tushunchasining mohiyatini oydinlashtirish yordam beradi. Tayyorlik hodisasini ko‘rib chiqish uchun pedagogika fanida shakllangan ushbu muammoga oid fikrlar xilma-xilligining manzarasini keltirish kerak. Pedagogik faoliyatga tayyorlik deganda “alohida ruhiy holat, subyektda ma‘lum bir harakat strukturasi tasvirining mavjudligi va ongning uni amalga oshirishga doimiy e‘tibor qaratilishi” tushuniladi (174, 79-84-b; 176). Shuni ta’kidlash kerakki, tayyorlik muammosi ham pedagoglar, ham psixologlarning ishlarida o‘rganiladi. Bunda pedagoglarning e‘tibori omillar va shart-sharoitlarni, didaktik tarbiya vositalarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, buning yordamida ushbu sifatni

shakllantirish jarayonini maqsadli boshqarish mumkin ko‘rinadi. Psixologlarning faoliyati asosan tayyorlikning holati va shaxs faoliyatining samaradorligi o‘rtasidagi aloqalar va bog‘liqliklar tabiatini o‘rnatishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda insonning turli xil faoliyat turlariga tayyorligi haqida muhim nazariy va tajriba materiallari to‘plangan, mehnatga tayyorlik tushunchasi shakllangan, uning mazmuni va tuzilishi, tayyorgarlik dinamikasi va barqarorligiga ta‘sir qiluvchi asosiy parametrlar va shartlar aniqlangan.

Shunga qaramay, hozirgi vaqtda ushbu konsepsiyaning mohiyati haqida umumiy qabul qilingan nuqtayi nazar yo‘q. Bu esa asarlarida o‘z talqinini topgan mualliflarning fikrlarini tahlil qilishni taqozo qildi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.N., Pedagogik texnologiya. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Tafakkur bo‘stoni. Toshkent – 2012. 210 b.
2. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qish metodikasi. “Noshir” nashriyoti. Toshkent – 2009.
3. Dinoyatov M., Muslinov N., Ro‘ziyeva D., Usmonova M. Pedagogika – Toshkent – 2016.
4. Baxtiyorovich T. H. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotlarni tizimli tarkiblashtirish ko‘nimalarini shakllantirishda didaktik yondashuvlarning ahamiyati. // Journal of Universal Science Research, 1(10), 153-159.
5. Baxtiyorovich T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. // International Journal of Human Computing Studies, 3(10), 7-9.
6. Kamoliddin B., & Kholiqovna K. N. (2023). A conceptual approach to the development of the didacticmethodical competence of the future primary school teacher. // World Bulletin of Social Sciences, 21, 160-164.
7. Badalov K. (2022, April). Tools for helping to develop the logical skills of primary school students in the teaching of geometric materials. // In E-Conference Zone (pp. 214-217).

## KREATIV FIKRLASH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O’RGANILISHI

*Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich,*  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta oqituvchisi  
baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0003-2092-3339>

*Ushbu maqolada kreativ fikrlash ko’nikmasini shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o’rganilishi, talaba-yoshlarning kreativ qobiliyatlarini takomillashishining nazariy asoslari, talabalarning pedagogik va kasbiy faoliyatga kreativ yondashuvi, bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ko’nikma malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilganligini hisobga olgan holda ularning ijodiy kasbiy faoliyatida interfaol usullarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratish, talabada yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiyqobiliyatni shakllantirish, bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining individual hamda jamoada ishlash ko’nikmalarini va ularning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish holatlari ko’rsatib o’tilgan.*

**Kalit so’zlar:** kreativlik, qobiliyat, layoqat, innovatsion uslub va yondashuvlar, kasbiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat.

## ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЕ В ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

*В данной статье освещается изучение проблемы формирования навыков креативного мышления в педагогико-психологических исследованиях, теоретические основы совершенствования креативных способностей студенческой молодежи, креативный подход студентов к педагогической и профессиональной деятельности, значение интерактивных методов в их творческой профессиональной деятельности с учетом формирования способностей креативного мышления будущих преподавателей профессионального образования, формирования и развития навыков. В статье показано создание методов творчества и созидания, формирование у студента творческих способностей, направленных на создание новшеств, решение проблем, навыков индивидуальной и командной работы будущих преподавателей профессионального образования и использование ими инновационных педагогических технологий.*

**Ключевые слова:** креативность, способности, компетентность, инновационные методы и подходы, профессиональная деятельность, педагогические технологии, творческое мышление, инновационные педагогические технологии, педагогическое мастерство.

## STUDY OF THE PROBLEM OF FORMING CREATIVE THINKING SKILLS IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL RESEARCH

*This article examines the problem of forming creative thinking skills in pedagogical and psychological research, the theoretical foundations of improving the creative abilities of students, the creative approach of students to pedagogical and professional activities, the importance of interactive methods in the creative professional activities of future vocational education teachers, taking into account their focus on the formation of creative thinking skills, the formation and development of their skills. The article highlights the creation of methods of creativity and inventiveness, the formation of creativity in students, the formation of creative abilities aimed at solving problems, the individual and team work skills of future vocational education teachers, and their use of innovative pedagogical technologies.*

**Keywords:** creativity, ability, capability, innovative methods and approaches, professional activity, pedagogical technologies, creative thinking, innovative pedagogical technologies, pedagogical skill.

**Kirish.** Hozirgi zamon ta’limining bosh va asosiy vazifasi – o’quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish, yaratishga, ruhlantirishga qaratilmog’i zarur. Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor

yoʻnalishi sifatida eʼtirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda taʼlimning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

Oʻquvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat koʻrsatishlariga koʻmaklashish ularning oʻz mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi. Oʻzbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qatʼiy qaror toptirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga toʻgʻri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashi, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, muteʼlik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uygʻun va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega boʻlgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Demak, sifatli taʼlim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan, boy jamiyatni quradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (YuNESKO, NENISEF) Xalqaro forumida qabul qilingan 2030 yilgacha taʼlim deklaratsiyasida “... taʼlim sifatini oshirish va shaxsning butun umri davomida taʼlim olishini muvofiqlashtirish va monitoringini oʻtkazish” eʼtirof etilgan boʻlib unda, malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida zamonaviy bilim – tajribalar, taʼlim texnologiyasi, innovatsion va interfaol metodlar, taʼlimning didaktik vositalari, axborot texnologiyalaridan foydalanishning sifat va samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelganligi aytilgan.

Bundan kelib chiqib Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonni imzoladi. Bu farmonda quyidagilar:

-oliy taʼlim muassasalarida oʻquv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga oʻtkazish;

-xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy taʼlimning ilgʻor standartlarini joriy etish, jumladan, oʻquv dasturlarida nazariy bilim olishga yoʻnaltirilgan taʼlimdan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish;

-oliy taʼlim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qoʻshadigan, mehnat bozorida oʻz oʻrnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish;

-oliy taʼlim muassasalarining akademik mustaqilligini taʼminlash;

oliy taʼlim muassasalarida taʼlim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bogʻliqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

-oliy taʼlim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablagʻlarini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich oʻzini oʻzi moliyalashtirish tizimiga oʻtkazish va moliyaviy barqarorligini taʼminlash kerakligi koʻrsatib oʻtilgan[1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashtirish va dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, moderinizatsiya va yangilanish borasida koʻzlangan natijalarga erishishda hal qiluvchi kuch boʻlgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash bosh maqsadimizdir. Chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradigan kadrlar taʼlim muassasalarida oʻqib-ulgʻayadi.

“Kreativlik” atamasi birinchi marta 50-yillarning oxirida gʻarbiy psixologiyada paydo boʻlgan boʻlib, u individning yangi tushunchalarni yaratish va yangi koʻnikmalarni shakllantirish layoqatlarini bildirgan.

Kreativlik konsepsiyasi, universal ijodkorlik bilish layoqati sifatida, J.Gilfordning ishlari eʼlon qilingandan keyin ommalasha boshladi. Uning intellekt tuzilmasining kubsimon modeli bu konsepsiyaga asos boʻldi: X material X operatsiyalar natija SOI (structure of the intellect). Bu ishlarda u eʼtiborni fikrlash operatsiyalarining ikki tipi oʻrtasidagi asosiy farqqa qaratadi: konvergensiya va divergensiya. *Konvergent* fikrlash (bir biriga yaqinlashish) ijodiy masalani hal qilayotgan insonga shartlar toʻplami asosida yagona toʻgʻri yechimni topishi kerak boʻlganida taʼsir qiladi. Bunda J.Gilford konvergent fikrlash layoqatini yuqori tezlikka ega IQ testlar bilan oʻlchanadigan intellekt bilan solishtiradi.

Divergent fikrlash deganda u turli yoʻnalishlarda ishlaydigan, muammoni hal qilish yoʻllarini oʻzgartirish mumkin boʻladigan va kutilmagan xulosa va natijalarga olib keladigan fikrlash tipini tushunishni taklif qiladi.

Bundan kelib chiqib J.Gilford kreativlikning oltita mezonini ajratib koʻrsatadi:

*muammolarni aniqlash va toʻgʻri qoʻyish layoqati;*

*koʻp sonli gʻoyalarni yaratish layoqati;*

*turli-tuman gʻoyalarni yuzaga keltirish layoqati;*

*asabga ta'sir ko'rsatadigan narsalarga nostandartjavob berish layoqati;*  
*obyektni detallarni qo'shib takomillashtirish layoqati;*  
*muammolarni hal qilish, ya'ni tahlil qilish va sintezlash layoqati.*

Shunday qilib, J.Gilford divergensiya amalini insonning umumiy ijodkorlik layoqati sifatida almashtirish va implikasiya amallari bilan birgalikda ajratib ko'rsatadi[2].

Biroq intellekt ustida ishlovchi hamma tadqiqotchilar ham J.Gilfordning fikriga qo'shilavermaydilar. Ularning ba'zilar ijodkorlik layoqatining insonning o'qish va intellekt layoqati bilan zaif bog'langanligi haida xulosa chiqaradilar. L.Terstoun birinchilardan bo'lib ijodkorlik layoqati va intellekt o'rtasidagi farqni ko'rsatgan. U ijodiy faollikda temperamentning o'ziga xos xususiyatlari, yangi g'oyalarni tez o'zlashtirish va yuzaga keltirish (nafaqat ularga tanqidiy munosabatda bo'lish) layoqati muhim rol o'ynashini aniqlagan. Ijodiy yechimlar, uning fikricha, e'tiborning muammo yechimiga jamlanishida emas, balki relaksatsiya, tarqalish momentida keladi.

Y.P.Torrans bu tadqiqotlarni davom ettirdi va o'quvchilarning ijodkorlik layoqatini rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini ishlab chiqdi. Bu dastur bir necha bosqichni o'z ichiga olgan edi. Birinchi bosqichda – u Gilford bo'yicha konvergent fikrlashni, ikkinchi bosqichda esa – divergent fikrlashni rivojlantirgan.

Ye.P.Torrans  *kreativlik* deganda insonning o'z bilimlaridagi kamliklarni, nomosliklarni jiddiy idrok etishini tushunadi. Uning fikricha, ijodkorlik akti muammoni idrok etishga, yechimni izlashga, farazlarning paydo bo'lishiga va shakllantirilishiga, ularning tekshirilishiga, natijaning modifikatsiyalanishiga va topilishiga bo'linadi. Shundan kelib chiqib, u kreativlikning asosiy mezonlarini quyidagicha tavsiflaydi: osonlik – test topshiriqlarini bajarish tezligi, ya'ni test meyorlari tez intellekt meyorlariga o'xshash; moslashuvchanlik – javob topish davomida obyektlarning bir sinfidan boshqasiga o'tishlar soni; originallik – berilgan guruhda bir javobning minimal takrorlanishi. Torrans testlarida aniqlik intellekt testlariga o'xshash baholanadi[3].

Y.G.Aliyeva o'tkazgan tadqiqotlar Y.P.Torransning originallik va chopqirlik o'zaro uzviy bog'liqligi haqidagi xulosalarini tasdiqladi: javoblar qancha ko'p bo'lsa, ular shunchalik originalroq va aksincha.

J.Gilford va Ye.P.Torransning o'quvchilari va izdoshlari M.Vollax hamda N.Kogan o'zlarining o'qituvchilarining ishlarini tanqid qilishdi, chunki ular o'tkazgan tadqiqotlarda intellekt davrajasi bilan kreativlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'rinib turar edi. Ular intellektni o'lchashning test modellarini kreativlikni o'lchashga ko'chirish bunday testlar xuddi oddiy intellekt testlari kabi shunchaki intellekt darajasini tashxis qiladi, dngan xulosaga kelishdi. Tadqiqotchilik kreativlikni baholashda vaqtning qat'iy chegaralariga va musobaqa muhitigiga qarshi chiqishdi. Bu mualliflar J.Gilfordning divergent va konvergent fikrlashning bir biridan farqlanishi haqidagi dastlabki fikriga qo'shiladilar. Ularning fikricha ijod namoyon bo'lishi uchun erkin muhit kerak bo'ladi. Ular ijodkorlik layoqatlarini tadqiq qilish va tekshirish oddiy hayotiy vaziyatlarda o'tkazilishi kerak deb hisoblaydilar, bunda sinaluvchi bajarilayotgan topshiriqqa oid qo'shimcha ma'lumotlarni erkin olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

M.Vollax va N.Kogan test metodikalaridan foydalanish asosida kreativlikni rivojlantirishni baholashning o'z tizimlarini taklif qilishdi. Ular o'quvchilarga topshiriqni hal qilish uchun qancha zarur bo'lsa, shuncha vaqt berishdi. Testlar o'yin davomida o'tkazildi, chunki yutuqlar motivatsiyasi, musobaqa motivatsiyasi, ijtimoiy ma'qullanish motivatsiyasishaxsning o'z-o'zini dolzarblashtirishini bloklab qo'yadi, uning ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishini qiyinlashtiradi. Shu pozitivatsiyadan intellektual va kreativ layoqatlar nafaqat shaxsning xossalari darajasida, balki yaxlit bilash jarayoni darajasida ham o'zaro bog'liqdir. Y.A.Grigorenko o'z tadqiqotlarida bilishga oid masalalarni hal qilishda bunday layoqatlar bir-birini to'ldirishini aniqladi. U masalani hal qilishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilarda divergent fikrlash, keyinchalik esa – konvergent fikrlash dolzarblashadi, degan xulosaga keldi. Bu natijalar D.Veksler va R.Amtxauerning divergent fikrlash nazariyasiga asoslangan kreativ testlapridan foydalanish natijasida olingan. Demak,  *kreativlik* – bu ko'proq individ tusrlari darajada egallashi mumkin bo'lgan har xil layoqatlar to'plamidir. Ijodkorlik layoqati, ingliz psixologlarining fikricha, hosil qilingan intellektual layoqatlar bo'lib, ular tegishli amaliyot yo'li bilan rivojlantirilishi mumkin. Bu moslashuvchanlik, originallik, g'oyalarga nisbatan sezgirlik kombinatsiyasi bo'lib, ular o'ylovchiga fikrlashning odatdagi stereotiplaridan ajralib, qo'yilgan masalalarni hal qilishning boshqa sarmahsul yo'llaridan foydalanish imkonini beradi. Natijalar uning o'zini, va balki, boshqalarni ham qoniqtirishi mumkin.

Kreativlik va intellekt munosabatlari muammosi kreativlik mustaqil tushuncha sifatida ajratilgan paytda paydo bo'ldi. J.Gilford ijodkorlik qobiliyati divergent fikrlash va o'zgartirishlar kiritish layoqatlarini o'z ichiga oladi, deb hisoblagan. U  *intellekt* yangi materialni tushunish va o'zlashtirish muvaffaqiyatini belgilab beradi,  *divergent fikrlash* esa ijodiy yutuqlarga erishishga sabab bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ijodiy faollikning muvaffaqiyati bilimlar hajmiga (intellektga bog'liq bo'lgan) bog'liq. Biroq intellektni bitta sabab yoki mexanizm bilan tushuntiriladigan hodisa kabi qarash mumkin emas. Shaxsning

kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

**Kreativlik** (lot., ing. *“create”* – yaratish, *“creative”* yaratuvshi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovshi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvshi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

P.Torrens fikricha, *“kreativlik”* tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirshanlik.

Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning bitmas-tuganmas yo‘llari va usullari, albatta, topiladi. Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kreativlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining mayl, intilish, faolligi, qobliyat, iste’dodi va layoqatini aniqlamasdan turib, uni ijodiy fikrlashga yo‘naltira olmaydi degan.

Mutaffakir Jalolidin Davoniy *“Axloqi Jalolii”* nomli asarida insoniy fazilatlarda aqliy qobiliyat va aqliy iste’dodni tarbiyalash uchun zukko, zehni, fahm-farosatli, ijodkor bo‘lishi va bilimlarni tez eslab qolishi, ularni anglab yetish lozimligini ta’kidlagan.

Mutaffakir Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarida ham kreativlikni ko‘rishimiz mumkin: U inson shaxsining taraqqiy ettirishning asosiy yo‘llaridan biri deb muammoli vaziyatni, ijodkorlikni tushunadi va undan o‘z faoliyatida unumli foydalangan.

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Tushunchaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari, albatta, tug‘ma, ilohiy tuhfa bo‘lishi aslo shart emas.

**Natijalar.** Kreativ talaba jadal aqliy faoliyatga ega bo‘ladi, intellektual faollikning evristik va rag‘batlantiruvchi-samarali darajalarining vakillari esa ekstensiv (keng) aqliy faoliyat bilan tavsiflanadi. Har bir vakilning qo‘yilgan vazifaga yondoshuvi uning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Masalan, rag‘batlantiruvchi-samarali darajaga ega bo‘lgan inson berilgan darajada ish sur‘atini oshirib boradi va o‘z faoliyatini mexanik kengaytirilgan darajada takrorlaydi, evrist muammoni yechishning yangi-yangi usullarini qo‘llaydi, kreativ inson muammoni yana va yana chuqur tadqiq qiladi, fenomenning nazariy tushuntirishlarini topadi.

Kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: ta’lim oluvshilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash; *“ta’lim oluvshilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; ta’lim oluvshilarda individual, kichik”* guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

XX asrning 60-90-yillarida o‘quvchilarning ijodiy (kreativ) faoliyatini o‘rganishga kreativlik fenomenining tadqiqotchilaridan A.N.Voronin, T.V.Galkina, Y.A.Grigorenko, V.N.Drujinin, V.I.Zvyaginskiy, N.V.Kuzmina, Y.A.Ponomaryov, L.G.Xusnutdinova, A.I.Sherbakov va boshqalar katta hissa qo‘shishgan.

A.N.Voronin RFA Psixologiya institutining psixologiya laboratoriyasida tadqiqotlar olib borib, intellekt omili va kreativlik omili mustaqil omillardir, degan xulosaga kelgan.

RAT (masofaviy assotsiatsiyalar testi) (1969-y.) testining muallifi S.Mednik biroz boshqaroq yondoshishini ko‘rish mumkin. Uning fikricha, divergent fikrlash jarayoni quyidagicha kechadi: muammo bor, uning yechimini fikriy izlash uning mazmunidan kelib chiqib, semantik fazoning bir necha yo‘nalishida boradi. Divergent fikrlash xuddi yonboshdan, chetdan fikrlash, muammoning atrofida fikrlashdek bo‘ladi.

S.Mednikning fikricha, ijod jarayonida fikrlashning ham konvergent, ham divergent tomonlari bo‘ladi. U muammoning elementlari qanchalik uzoq sohadan olingan bo‘lsa, uni hal qilish jarayoni shu qadar kreativ bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Ijodiy yechim stereotipdan farq qiladi: ijodning mohiyati bajariladigan amalning o‘ziga

xosligida emas, balki insonning fikrlash sintezining oxirgi boqichida assotsiatsiyalar maydoni kengligida stereotiplarni yengib o'tishidir.

Rossiyalik psixologlar T.V.Galkina va L.G.Xusnutdinova o'z tadqiqotlarida original g'oyalar kreativ masalalarni hal qilishning dastlabki boqichlarida emas, balki ularni hal qilish jarayonida kelishini tasdiqlaganlar. Ular avval ijodkorlik qobiliyati shakllantirilgan bo'lishi kerakligini va undan keyingina o'zini namoyon qilish imkoniyatini olishi mumkinligini isbotladilar. Nutq-fikrlash kreativligining stimulyatsiyasi o'quvchilarni ijodiy original javobga yo'naltirish yo'li bilan hosil qilinishi mumkin va bu ko'p hollarda kreativligi past insonlarning sermahsulligiga ta'smir ko'rsatadi.

Masalan, Y. A.Abisalova, V.F.Spiridonov, D.V.Ushakov, S.R.Yagolkovskiy, G.G.Kravsov asarlarida ruhiy hodisalar tizimi ko'p pog'onali bo'lib, ierarxik tuziladi, deb ta'kidlaydi. U turli funksional sifatlarga ega bo'lgan bir qator tizim ostilarini o'z ichiga oladi. Ularning orasida uchta asosiy o'zaro bog'langan tizim ostidalar ajratib ko'rsatilgan: kognitiv, unda bilish funksiyasi amalga oshiriladi; regulyativ, u faoliyat va xulqni boshqaradi; kommunikativ, u insonning boshqa insonlar bilan muloqot qilishi jarayonida shakllanadi va amalga oshiriladi[4].

O'qituvchining faoliyati o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki pirovard natijada bilimlar va alohida malakalar emas, balki ularning shaxs layoqatlarini rivojlantirishga tadbiiq etilishi rivojlantiruvchi samarani ta'minlaydi. Tadqiqotchi Ye.Torrans o'qituvchi faoliyatida o'quvchilarning kreativ layoqatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bir necha omillarni ajratib ko'rsatadi. Bu ijodiy fikrlash qadriyatini tan olish, o'quvchilarning atrof-muhitdagi stimullarga sezgiriligini rivojlantirish, obyektlar va g'oyalar bilan erkin ishlash, ijodiy jarayon to'g'risida konstruktiv axborot bera olish malakasi, tanqid qilishni emas, balki konstruktiv tanqidni rivojlantirish, o'z-o'zini hurmat qilishni rag'batlantirish, baholash oldidagi qo'rquvni tarqatib yuborish va h.k.

R.Xalman o'qituvchi faoliyatida o'quvchilarning kreativ layoqatlarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ajratib ko'rsatadi: konformizmga majbur qilish, avtoritar qurilmalar va avtoritar muhit, o'qituvchining rigidligi (qattiqligi), kinoya va masxara ifodasining namoyon bo'lishi, qattiq baholash, muvaffaqiyatga qat'iy yo'naltirish, divergent fikrlashi rivojlangan shaxsga nisbatan dushmanlik hissi.

N.A.B.Bogoslavskaya o'zining eksperimental ishlarida ijodkorlikning birligini ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, bu birlik, ijodkor shaxsning kognitiv va motivatsion xususiyatlarini ularning birligida aks ettiruvchi intellektual faoliyatidir. U o'quvchilar intellektual faolligining uchta darajasini ajratib ko'rsatadi: rag'batlantiruvchi-samarali, evristik va kreativ.

*Rag'batlantiruvchi-samarali yoki passiv daraja.* Intellektual faollikning bu darajasining vakillari sidqi dildan g'ayrat bilan ishlaydilar, biroq dastlabki topilgan ish usuli doirasida qoladilar. Ularning faoliyati tashabbusiz. U har safar tashqaridan rag'batlantiriladi.

*Evristik daraja.* Intellektual faollikning bunday darajasiga ega o'quvchilar na tashqi omillar, na faoliyat natijalarining qoniqarsiz deb subyektiv baholanishi bilan rag'batlantirilmaydigan intellektual tashabbusning u yoki bu darajada namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadilar. Intellektual faollik rivojlanishining bunday darajasiga ega odam o'z faoliyatining tarkibi va tuzilmasini tahlil qilishga qodir bo'ladi, vazifalarni soilshtirib ko'radi, va bu uni yangi, yanada originalroq yechim usullariga olib keladi. “Evrisk” har bir yangi qonuniyatni kashfiyot, ijodiy topilma sifatida deb baholaydi. Bu obyektga chuqur kirib, undan nimadir yangi narsani olish imkonini beruvchi mantiqiy tahlil mahsulidir.

*Intellektual faollikning kreativ darajasi.* Kreativ darajaga ega o'quvchilar uchun empirik aniqlangan qonuniyat fikrlash jarayonining oxirgi punkti emas, balki keyingi tadqiqotning mustaqil maqsadiga aylanadi. Bunday o'quvchi uni hech kim majbur qilmasa ham muammoning ichiga kirishga harakat qiladi. U bilish obyektini omillarning tabiatini tushuntirib beradigan nakzariyani yaratishgacha yetkazadi va hodisalarning sababini tushuntirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'quvchining berigan vaziyat chegaralaridan chiqishiga halaqil qiluvchi psixologik to'siq olib tashlanadi. Bunday holda bir qator vaziyatlarni solishtirish zarurati bo'lmay bor-yo'g'i bitta muammoning yechimini topish bilan cheklanish mumkin bo'ladi, biroq buning uchun fenomenning isbotlarini topish zarur bo'ladi[5].

Kreativ o'quvchi jadal aqliy faoliyatga ega bo'ladi, intellektual faollikning evristik va rag'batlantiruvchi-samarali darajalarining vakillari esa ekstensiv (keng) aqliy faoliyat bilan tavsiflanadi. Har bir vakilning qo'yilgan vazifaga yondoshuvi uning o'ziga xos xususimyati hisoblanadi. Masalan, rag'batlantiruvchi-samarali darajaga ega bo'lgan inson berilgan darajada ish sur'atini oshirib boradi va o'z faoliyatini mexanik kengaytirilgan darajada takrorlaydi, evrist muammoni yechishning yangi-yangi usullarini qo'llaydi, kreativ inson muammoni yana va yana chuqur tadqiq qiladi, fenomenning nazariy tushuntirishlarini topadi.

D.B.Bogoyavlenskaya o'tkazgan tajribalar faqatgina intellektual faolligi kreativ darajada rivojlangan insonlar kuchaytirilgan tashqi motivatsiya vaziyatiga (shaxsiy raqobat) tushganda stabil, ular uchun oddiy



vaziyatga xos strategiyani hamda faoliyat natijalarini ko‘rsatadilar. Intellektual faollikning kreativ darajasiga ega o‘quvchilar tashqi sharoitlarning ta‘siriga ancha chidamli bo‘ladilar.

V.N.Drujinin kreativlikni o‘rab turgan muhit imkon bergandagina faollashadigan xossa deb hisoblaydi. Uning fikricha, kreativ layoqatlarni shakllantirish uchun quyidagi shartlar zarur: tartibga solingan hatti-harakatlar namunasining yo‘qligi; ijodiy xulq-atvorning ijobiy namunasining mavjud bo‘lishi, ijodiy xulq-atvorga taqlid qilish uchun sharoit yaratish; ijodiy xulq-atvorni ijtimoiy mustahkamlash.

M.S.Semiletkina kreativ layoqatlarining darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun motivatsion-mazmuniy sohaning turlicha o‘ziga xos xususiyatlari xos ekanligini aniqladi: kreativ layoqatlarining yuqori darajasi – muvaffaqiyatga umid, affiliatsiyaga umid; past daraja – muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, rad etilishdan qo‘rqish.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, kreativ layoqatlarni rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, sezgir davralarda ularni shakllantirishga semarali ta‘sir ko‘rsatish mumkin (V.N.Drujinin, Y.L. Soldatova va b.).

Ko‘pchilik tadqiqotchilar kreativ layoqatlarga ega shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berishgan. Masalan, G.V.Burmenskaya va V.M.Sluskii o‘quvchilarning perfeksionizmini – mukammalikka ichki ehtiyojni ajratib ko‘rsatishadi, bu ko‘p hollarda o‘z yutuqlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishga va o‘z-o‘ziga past baho berishga olib keladi. V.M.Astapova kreativ layoqatlarining darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda havfsirash, ta‘sirchanlikning darajasi ham yuqori bo‘lishini ta‘kidlaydi. Ye.L.Barishnikova kreativ individlarda yumorni qadrlash va idrok etish layoqatini aniqlagan. Y.L.Barishnikova kreativ shaxslarning emotsional (his-tuyg‘u) holatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan. Bu ishlarning natijasi kreativ layoqatlarning o‘shishi bilan affektivlik, xavfsirash, dezaptatsiya, depressiv an‘analar va boshqalar ortib boradi, degan xulosaga olib kelgan. Bunga tashkilotchilik qobiliyatlarini, altruizm, empatiya va boshqalarni ham kiritish mumkin.

Vatanimiz psixologiyasida va pedagogikasida kreativlikni “ijodkorlik”, insonning ijodiy imkoniyatlari, inson individumining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy faollikni namoyon qilishni bildiruvchi alohida xususiyati (turg‘un xossasi) sifatida qaraladi. “Ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini ajratish uchun zamonaviy tadqiqotlar ikkita tavsifnomalardan foydalanadilar: jarayoniy-natijaviy (ijod uchun) va subyektiv-sharoit yaratuvchi (kreativlikni belgilash uchun).

O‘quvchining shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek his-tuyg‘u va motivatsion omillar kreativlikning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadilar. Shu bilan birga hozirgi vaqtda vatanimizning psixologo-pedagogik fanida kreativlikning motivatsion xususiyatlariga nisbatan yagona fikr yuzaga kelmagan. Ba‘zi tadqiqotchilar kreativ individ o‘zini o‘zini eng yaxshi tarzda namoyon qilishga, o‘z imkoniyatlariga maksimal mos kelishga, faoliyatning yangi turlarini o‘zlashtirishga urinadi deb hisoblaydilar. Boshqalar esa o‘quvchilardagi kreativ layoqatlarining motivatsiyasi tavsifnomalarga, o‘z imkoniyatlarining chegarasini tekshirib ko‘rishga intilishga asoslangan deb hisoblaydilar.

Ba‘zi tadqiqotchilar kreativlikni salohiyatli va dolzarbga ajratishlari ta‘kidlab o‘tish zarur. Bunday kreativlik insonning ma‘lum tashqi sharoitda dolzarb kreativlikni egallashga, ijodiy faollikni namoyon qilishga bazaviy tayyorlik shaklidagi potensial moyilligini tavsiflaydi.

*Salohiyatli kreativlik – bu ijodning subyektiv shartidir.*

*Dolzarb kreativlik – salohiyatli kreativ inson individual tavsifnomalarining faoliyatning u yoki bu turi bilan o‘zaro aloqaga kirishishining tug‘ilishi bulib, uni tashuvchisining faoliyatning tegishli turida ijodiy faollikni namoyon qilishga dolzarb, bevosita tayyorligini belgilab beradi; dolzarb kreativlik – ijodning yetarlicha subyektiv shartidir.*

*Salohiyatli kreativlikni imkoniyatlardagi kreativlik deb tavsiflash mumkin. Imkoniyatlardagi kreativlik haqiqatdagi kreativlikka – dolzarb kreativlikka aylanishi uchun birinchisi o‘zlashtirish vositasida faoliyatning ma‘lum turini tashuvchisi tomonidan kuchli tarza o‘zgartirilishi kerak. Biroq hamma o‘quvchilar ham yangiliklarga bir xil munosabatda bo‘laverishmaydi va ularni bir xil qabul qilaverishmaydi.*

Ilmiy ishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hamma o‘quvchilar ham kreativlikning rivojlanganlik bosqisiga erishavermas ekanlar: ba‘zilar birinchi bosqichda to‘xtab qoladilar, ular hamma tayyor narsalardan nusxa oladilar, boshqalar tayyoriga turlicha modifikatsiyalarni kiritadilar; uchinchilar esa mavjud g‘oyalarni asos sifatida olib, mazmunni, uni amalga oshirish shakllarini va metodlarini ishlab chiqadilar; to‘rtinchilar o‘zlarinikini va originalini yaratadilar.

Ushbu tadqiqot doirasida o‘tkazilgan ilmiy manbalarning tahlil taqlid va ijodning yuqorida qarab chiqilgan munosabati past talabalarining faoliyatida yetarlicha aniq namoyon bo‘lishi to‘g‘risida guvohlik beradi. Ularning ijodiy faoliyati asosan taqlid xususiyatiga ega, bu esa ijodiy individuallikka erishish, taqliddan holi bo‘lgan haqiqiy ijod yo‘lidagi tabiiy bosqich hisoblanadi [6].

**Muhokama.** Shundan kelib chiqib, talabalarning kreativligi faoliyatning taqlid komponentini kamaytirib, ijodiy tashkil etuvchisini orttirib boradigan tajribaga, konsepsiyaga, alohida usulga, shaklga, metodga taqlid qilish asosida yuzaga keladi deyish mumkin.

Keyingi ikki bosqichda tanlab olingan variantlar o'quvchilarga beriladi, ularning yangilik va originallik elementlarini kiritish bo'yicha shaxsiy urinishlari hisobiga variantlarning amaliyotga mosligi tekshiriladi.

Kreativ layoqatlar avval o'rganilgan, keyinchalik o'zgartirish kiritiladigan materialda muvaffaqiyatliroq rivojlantirilishini ta'kidlab o'tish zarur. Bu o'quvchilar muammoli topshiriqlarni bajarayotganlarida, shuningdek, loyihalar metodidan foydalanishda kuzatiladi.

Ba'zi chet ellik tadqiqotchilar yangiliklarni idrok etishlaridan kelib chiqib insonlarning ba'zi toifalarini ajratib ko'rsatadilar. Masalan, Y.Rodjers 1962-yilda butun kontinumni beshta asosiy toifaga bo'lgan: 1) novatorlar, 2) dastlabki realizatorlar, 3) dastlabki ko'pchilik, 4) keyingi ko'pchilik, 5) ikkilanuvchilar.

*Novatorlarga* sarguzasht ruhiga ega, tavakkalchilikka moyil o'quvchilarni kiritish mumkin; ular har qanday yangilikni sinab ko'rishga tayyorlar; ular har qanday muloqotdan yangilikni izlashga intiladilar. Ular sarguzasht tabiatiga ega bo'lib, OTMdagi bo'lajak yangiliklar uchun hal qiluvchi omil bo'lishlari mumkin. Ijodiy loyihalar ustida ishlab, bunday talabalar qo'yilgan vazifalarni hal qilishning eng g'ayri oddiy yechimlarini ilgari suradilar.

*Dastlabki realizatorlar* – bular novatorlik yo'nalishlarining, fikrlarning “liderlaridir”, chunki ularga ko'pincha maslahat va konsultatsiyalar so'rab murojaat qiladilar. Bu guruh vakillari o'zlarining hamma hatti-harakatlarini puxta o'ylab chiqadilar, shuning uchun ham ularni aqlli realizatorlar sifatida qadrlashadi.

*Dastlabki ko'pchilikni* tavsiflashda bu guruh vakillari birinchi guruhlar bilan erkin o'zaro aloqa qilishlarini, barmoq kamdan kam hollarda lider sifatida namoyon bo'lishlarini ta'kidlash zarur. Ularda qaror qabul qilishlari uchun ko'proq vaqt talab qilinadi, ular ijodiy ish jarayonida boshqalarga sidiqidildan ergashishlariga qaramay, “o'rtada” yurish ularni qoniqtiradi.

*Keyingi ko'pchilikni* tabiatan skeptik bo'lgan o'quvchilar tashkil qiladi. Ular ijodiy faoliyatga tayyor bo'lib, yangiliklardan foydalanadilar, biroq o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, yoki ijtimoiy muhit ta'sirida ko'pchilikning fikriga qo'shiladilar.

*Ikkilanuvchilar* – bu guruh vakillari o'zlarining konservativliklari bilan ajralib turadilar, yangiliklarni qabul qilmaydilar, eskisiga yo'nalish oladilar, g'ayri oddiy qarorlarni qabul qilishda ikkilanadilar, ularga ko'proq an'anaviy muntazam vazifalar tushunarliroq.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini o'qitishning an'anaviy modelida ularda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Asosiy e'tibor bazaviy amaliy ko'nikmalarga asoslangan mavzular bo'yicha bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lum miqdordagi ko'nikmalarni o'zlashtirish hisobiga hamda amaliy ko'nikmalarni bajara olish malakalarini takomillashtirishga qaratiladi.

Birinchi bosqichda – taqdimot bosqichida yangi amaliy ko'nikma kiritiladi va uning dastlabki mustahkamlanishi o'tkaziladi. Ikkinchi – axborot bilan to'ldirish bosqichida amaliy ko'nikmani bajarishda dasturiy (piktogramma) yani belgilar taniladi. Uchinchi – faollashtirish bosqichida bazaviy amaliy ko'nikmalar ustida ishlash bilan o'rganilayotgan materiallar idrok etiladi. To'rtinchi – reproduksiya bosqichida talabalar egallagan bilimlarini o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarni bajarishda qo'llaydilar. Ko'pchilik talabalar bazaviy amaliy ko'nikmalarni ma'lum miqdorda eslab qoladilar, biroq bu ularning axborot texnologiyalarini o'rganishga motivatsiyasini oshirmaydi.

Bunda topshiriqlarni shakllantirilishi divergent emas, kogerent fikrlashni rivojlantirishga qaratilganligini ta'kidlab o'tish lozim. Masalan, amaliy ko'nikma o'qing, uni bajarib bering. Ijodiy yondashuvni talab qiladigan topshiriqlar juda muhim hisoblanadi.

Shuning uchun ham talabalar yuqori kurslarda o'qib chiqilgan statistik tajribalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki asosiy statistik tajribani aniq va to'g'ri shakllantira olmaydilar, muhimini ikkinchi darajalidan ajrata olmaydilar, o'rganilgan faktlar va hodisalarni yangilari bilan solishtira olmaydilar, ba'zida esa talabalar bunday topshiriqlarni mustaqil bajara olmaydilar va o'qituvchining yordami talab qilinadi.

Talaba imtihonda baho olish uchun statistik tajribani amaliy ko'nikma ketma-ketligida bajarishi kerak. Talabalar yetarlicha yuqori kreativ qobiliyatlarni talab qiladigan topshiriqlarni bajarsalar, imtihonda shunga o'xshash topshiriqlarni shuncha oson bajara oladilar[7].

Tadqiqotning asosiy natijalari, ularning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-OTT talabalarida kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi qoidalar to'plami aniqlandi va ilmiy asoslandi;

-OTT talabalarida axborot texnologiyalarini o‘rganishda kreativ qobiliyatlarini takomillashishining mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari aniqlandi va asoslab berildi;

- axborot texnologiyalarini o‘rganishda talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashishining nazariy modeli ishlab chiqildi, maxsus loyihalashtirilgan o‘qitish texnologiyasida amalga oshirildi;

-shaxsning kreativ qobiliyatlarini muvaffaqiyatli takomillashishi uchun tibbiyotda axborot texnologiyalari mashg‘ulotlarida muammoli o‘quv masalalarini qo‘llash hamda talabalarni murakkablik darajasi ortib boradigan loyihalarni hal qilishga bosqichma-bosqich jalb qilish asosida o‘qitish texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari eksperimental tasdiqlandi;

- OTT talabasining kasbiy shakllanishini va to‘g‘ridan to‘g‘ri vazifalarini bevosita muvaffaqiyatli bajarishini ta‘minlovchi kreativ qobiliyatlarini takomillashishiga yordam beruvchi psixologo-pedagogik shart-sharoitlar asoslab berildi. Axborot texnologiyalarini o‘rganish sifatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda amalga oshirilayotgan o‘qitish modellari axborot texnologiyalarini o‘rganish jarayonida talabalarining kreativ qobiliyatlarini to‘la ochib berish imkonini beradi[8].

**Xulosa.** Xulosa qolib, shuni aytish joizki kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston ta‘lim tizimini tartibga soluvchi zamonaviy me‘yoriy hujjatlarda talabalarni tarbiyalashning muhimligi va zaruratiga alohida yondashilgan. Zero, ta‘lim sohasida davlatning yetakchi yo‘nalishlaridan biri talabalarining kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish hisoblanmqa.

Shuningdek:

-talaba yoshlarning jamiyatida kreativ qobiliyat savodxonligi bo‘lishi kerakligi asoslandi;

-talabalarining “kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish” tushunchalari to‘g‘risidagi ilmiy qarashlar taxlil qilindi.

-talabalarining kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishlarida ayrim masalalari ochib berildi.

Shuningdek nafaqat talabalaga, barcha soha xodimlariga xos bo‘lgan sifatlar aniqlanishga harakat qilindi. Talabalarining yangicha fikrlash savodxonligini shakllantirish bo‘yicha kreativ qobiliyat takomillashishini kuchaytirish samarali ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”Farmoniga 1-ilova <https://lex.uz/ru/docs/-4545884#-4547600>.

2. J.P. Guilford, J. (1967 b). Creativity, yesterday, today and tomorrow. // Journal of Creative Behavior,1(1),3-14. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1002/j.2162-6057.1967.tb00002.x>.

3. The Father of Creativity: The Life, Legacy, and Lessons of Dr. E. Paul Torrance (1915 - 2003) Posted By Corey J. Gray, M.A.T., Monday, April 8, 2024 Updated: Monday, April 1, 2024. <https://nagc.org/blogpost/2061726/499406/The-Father-of-Creativity-The-Life-Legacy-and-Lessons-of-Dr-E-Paul-Torrance-1915--2003>.

4. Роль прототипов в процессах вербальной креативности / Е.А. Абисалова, В.Ф. Спиридонов, Д.В. Ушаков, С.Р. Яголковский, Г.Г. Кравцов диссертация ... кандидата психологических наук : 19.00.01 / Москва, – 2013. <https://lib.ipran.ru/paper/22336719>.

5. Богословская Н.А. Московский институт психоанализа (НОЧУ ВО «МИП»); Российский институт театрального искусства — ГИТИС (ФГБОУ ВО «РУТИ «ГИТИС»)), г. Москва, Российская Федерация ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2797-3094>, e-mail: [ninavyskocil@gmail.com](mailto:ninavyskocil@gmail.com).

6. [https://psyjournals.ru/journals/exppsy/archive/2023\\_n3/exppsy\\_2023\\_n3\\_Bogoslovskaya.pdf](https://psyjournals.ru/journals/exppsy/archive/2023_n3/exppsy_2023_n3_Bogoslovskaya.pdf).

7. Ibragimova G. N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Monografiya //T.:-2017.–24 b. – 2017.

8. Turdimurodov Bakhtiyor Kurbanovich, Forming Creative Thinking of the Teacher in Teaching Students in Information Technology. Improving the Creative Skills of Vocational Education Teachers ,// Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal: Vol. 2 No. 5 (2023): MAY <https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/1666>.

**TALABALARNING FIKRLASHINI FAOLLASHTIRISHGA QARATILGAN ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH**

*Umirov Azamat Abdunazarovich,*

*Qarshi davlat universiteti*

*“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Ta‘lim sohasidagi innovatsiyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi, ularning ta‘lim jarayonidagi innovatsion mexanizmlarning rivojlanishiga ta‘siri, shuningdek, talabalarni fikrlashini faollashtirishga jarayoniga innovatsion yondashish ko‘rib chiqiladi. Asosiy e‘tibor talabalarning fikrlashini faollashtirishga qaratilgan elektron axborot ta‘lim resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *innovatsiya, pedagogik innovatsiya, innovatsion yondashuvlar, innovatsion modellashirish, faoliyat.*

**РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ, НАПРАВЛЕННЫХ НА АКТИВИЗАЦИЮ МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ**

*В статье рассматриваются возникновение и развитие инноваций в сфере образования, их влияние на развитие инновационных механизмов в образовательном процессе, а также инновационный подход к процессу активизации мышления студентов. Основное внимание уделяется рациональному использованию электронных информационных образовательных ресурсов, направленных на активизацию мышления студентов.*

**Ключевые слова:** *инновации, педагогические инновации, инновационные подходы, инновационное моделирование, деятельность.*

**RATIONAL USE OF ELECTRONIC INFORMATION EDUCATIONAL RESOURCES AIMED AT ACTIVATING STUDENTS' THINKING**

*The origin and development of innovations in education, their impact on the development of innovative mechanisms in the educational process, as well as an innovative approach to the process of activating student thinking are considered. The main focus is on the rational use of electronic information educational resources aimed at activating student thinking.*

**Keywords:** *innovation, pedagogical innovation, innovative approaches, innovative modeling, activity.*

**Kirish.** Axborot jamiyatiga o‘tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o‘tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, “global axborot afzalliklarini” teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi.

Oxirgi yillarda elektron ta‘limning an‘anaviy ta‘limga qaraganda afzallik jihatlari ko‘proq aniqlanmoqda. So‘nggi vaqtlarda ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilar an‘anaviy ta‘limning ba‘zi turlariga qaraganda onlayn ta‘limning afzalliklari ko‘proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o‘qitish platformalari ko‘paymoqda, bunda an‘anaviy va onlayn ta‘limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta‘lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta‘lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta‘lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo‘llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo‘ladi. Bu tendensiyaga bo‘lgan qiziqish ta‘lim jarayonida talabalarga ta‘sir etadi va ta‘lim sifatini oshiradi.

Ko‘pgina tadqiqotlar onlayn ta‘lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan, ya‘ni talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo‘ladi. Elektron ta‘limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o‘zini erkin tutishi, ya‘ni kerakli ma‘lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko‘rishimiz mumkin. Vaqt o‘tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo‘llash asosida an‘anaviy ta‘limning xohlagan turi, metodi, ta‘lim berish usulini kiritishimiz mumkin[1,168].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda ta’limni kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga joriy etish masalasi M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, N.I.Taylaqovlar, U.Yuldashevlar va o’qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kompyuterlardan foydalanishni tashkil etishning vosita va usullari, masofaviy ta’lim va uni tashkil etishda N.A.Muslimov, A.D.Asqarovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shaxsga yo’naltirilgan elektron ta’lim resurslarini yaratish va o’quv jarayonini loyihalashning nazariy asoslari yuzasidan L.X.Zaynutdinova, A.I. Bashmakov, F.M.Zakirovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan bo’lsalar, o’quv jarayonida multimedia texnologiyalari va vositalarini qo’llashning ahamiyati va ulardan foydalanish asoslari YE.A.Drozdova, A.V.Chebotareva, A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdami, M.Bekmuradov, B.Rajabovlar tomonidan tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo’lajak o’qituvchini nafaqat elektron axborot ta’lim resurslarini yaratishga, balki o’z kasbiy faoliyatida eng so’nggi texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash zaruratining muhim elementlaridan biri shundan iboratki, yildan-yilga OTM larda “gadjet avlodi”dan talabalar soni tobora oshmoqda. Bu avlod odamlari o’z atrofidagi dunyoni ekrandan idrok etishga moyil bo’lib, ma’lumotni taqdim etish, o’quv materialini ko’rsatishning klip shakliga odatlangan. Shu sababli bo’lajak pedagog o’z kurslarini nafaqat an’anaviy turlar va shakllarda, balki yangi texnologiyalardan foydalangan holda ko’rgazmali mazmun bilan ta’minlagan holda tashkil etish va shakllantirish zaruriyatiga duch keladi. Buning uchun u elektron didaktik-o’quv materiallarini yaratish ko’nikmalarini egallashi kerak bo’ladi[2,23].

**Tahlil va natijalar.** Ta’limni axborotlashtirishning hozirgi darajasi bo’lajak pedagoglarni tayyorlash doirasida kasbiy sifat va ko’nikmalarga, shuningdek, ularni o’qitish jarayonida dasturiy ta’minot va AKTdan foydalanishning uslubiy va tashkiliy omillariga mutlaqo yangi talablar qo’yimoqda

Shu sababli bo’lajak pedagoglarni tayyorlashda ikkita eng ustuvor vazifa yuzaga keladi:

- 1) pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanish bo’yicha kasbiy tayyorgarlik;
- 2) o’z-o’zini yanada rivojlantirishni ta’minlash maqsadida talabalarni, ya’ni bo’lajak pedagoglarning umumiy nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Umuman, bo’lajak pedagoglarni tayyorlash hamda xususan innovasion, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish va qo’llash, elektron axborot ta’lim resurslarini modellashtirish sohasidagi masalalarni tahlil qilishimiz mazkur muammo eng dolzarb va diqqat bilan o’rganilishi kerak vazifalardan biri ekanligini ko’rsatdi.

Yangi o’qituvchini o’qitish jarayonida nafaqat “bilimlarni uzatish” sodir bo’ladi, balki “talabalarning o’z-o’zini rivojlantirish sub’ekti bo’lishlari uchun ularning intellektual, ma’naviy va kasbiy salohiyatini modellashtirishning murakkab jarayoni ham boradi”.

L.A.Mirzagitova kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash umumiy jarayonida kasbiy pedagogik ta’lim omilining ustuvor bo’lishi fikriga amal qiladi. Bundan tashqari, u o’z ishlarida zamonaviy yuqori texnologiyali axborot jamiyati maktab yoki OTM o’qituvchisiga yosh avlodni sifatli o’qitish va rivojlantirish uchun yangi kasbiy talablar qo’yishi to’g’risidagi yuqorida aytib o’tilgan xulosalarni ham tasdiqlaydi: .

Bo’lajak pedagoglarni OTMda tahsil olishi doirasida ularni tayyorlashning uslubiy-didaktik strategiyasi nuqtayi nazaridan, bir qator nazariyalarda mazmun - ta’lim maqsadlarining dekompozitsiyasi nuqtayi nazaridan ko’rib chiqilib, ular uchta asosiy daraja bo’yicha ajratiladi:

1. Bilimlarning oddiy takrorlanishi (maqsad – xotirani rivojlantirish). Mazkur darajaning algoritmi asosida idrok → tushunish → yodlash → takrorlash zanjiri yotadi. Bu darajadagi metodologiya tushuntirish - illyustrativ va reproduktiv usullarga asoslanadi.

2. O’xshash vaziyatlar doirasida bilimlarni shablon modelida takrorlash. O’zlashtirishning ushbu darajasida algoritm bevosita mashg’ulot mavzusida mavjud bo’lgan nazariya bilan chambarchas bog’liqdir.

3. Bilimlarni ijodiy takrorlash. Didaktik nazariyada ijodiy faoliyat algoritmi quyidagi qadamlarning ketma-ketligi sifatida ko’riladi: muammo → faraz → tadqiqot dasturini yaratish → bosqichma-bosqich yechish → farazni tekshirish. Ushbu yo’nalishdagi asosiy uslubiy yondashuvlar orasida muammoli taqdimot, tadqiqot va qisman izlanuvchan ajratib ko’rsatiladi[3,95].

O’zlashtirish darajalarining butun majmuini ularga xos usullar bilan qo’llash natijasida (ya’ni, bu holatda biz yondashuvlar tizimi, binobarin, bo’lajak pedagoglarni tayyorlash masalasiga tizimli yondashuv haqida gapiryapmiz) mashg’ulotlar doirasida o’quv fanining predmet sohasi asosida ta’lim tizimlarining, ya’ni tahsil berish va o’qish o’zaro ta’siri amalga oshiriladi.

Ilmiy-pedagogik izlanishlar tahlilidan ko’rishimiz mumkinki, bo’lajak pedagoglarni tayyorlashda o’z-o’zini rivojlantirish elementiga katta ahamiyat beriladi, auditoriyada ishlash esa bo’lajak pedagoglarning bilim va malakasini yanada oshirishda yo’naltiruvchi qo’llanma hisoblanadi. Bunda “o’z-o’zini rivojlantirish” tushunchasining o’zi ikkita yondashuv nuqtayi nazaridan ko’rib chiqiladi:

1. O’z-o’zini rivojlantirish o’qituvchini kasbiy o’sishga undaydigan va yetaklaydigan kasbiy o’sish va

o‘z-o‘zini takomillashtirish mexanizmi sifatida qaraladi;

2. O‘z-o‘zini rivojlantirish o‘rganish predmeti (o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish aspektida) vazifasini bajarib, o‘qitishning mazmunini loyihalashda, o‘qitishning pedagogik shakllari, vositalari va usullarini tanlashda o‘zgartirishlar kiritish zarurligini belgilaydi.

Biroq yuqorida aytilganlar kelajakda o‘qituvchi bo‘lishni niyat qilgan oliy o‘quv yurtlari talabalarining kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda umumslubiy manzaradir. Yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda qo‘shimcha, innovasion paradigma va yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi. Garchi mazkur modellar ushbu masala bo‘yicha oldingi g‘oyalar va tushunchalarga asoslangan bo‘lsa-da, ammo zamonaviy sharoitlar ularni o‘z ichida yangi jihatlar, yondashuvlar va qarashlarni o‘zgartirishga va shakllantirishga majbur qiladi.

Ta’kidlash lozimki, bo‘lajak pedagoglarni elektron axborot ta’lim resurslarini oqilona modellashtirishga tayyorlashning ko‘rib chiqilayotgan masalasi o‘qituvchilarning innovasion pedagogik faoliyatga umumiy tayyorgarligining bir elementidir. Bu faoliyat “maxsus tashkil etilgan va boshqariladigan innovasion jarayon doirasida pedagogik innovasiyalarni yaratish, rivojlantirish, joriy etish va tarqatishga qaratilgan ijodiy-pedagogik faoliyat” deb tushuniladi[4, 8].

Taklif etilayotgan texnologiyaning o‘zi bo‘lajak pedagoglarni uch bosqichda innovasion texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatishda izchil ilgari surish va rivojlantirishdan iborat.

Birinchi bosqichda tayyorlashning maqsad va vazifalari tushuntiriladi hamda o‘qituvchining innovasion faoliyatini ilmiy tushunish asoslari qo‘yiladi, zarur fazilatlar va qadriyat yo‘nalishlari shakllanadi. Ikkinchi bosqich birinchi bosqichda olingan nazariy bilimlar, fazilatlar va qadriyatlarni amaliy jihatdan mustahkamlash bilan tavsiflanadi. Uchinchi bosqichda o‘qituvchi-ustoz o‘qitish natijalarini sarhisob qiladi, pedagogik refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni faollashtiradi, o‘zi o‘qitayotgan shaxslarning innovasion faoliyatga tayyorligini tekshiradi va diagnostika qiladi.

Ta’kidlash kerakki, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning turli tashkiliy shakllari mavjud bo‘lib, ular yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda elektron axborot ta’lim resurslarini modellashtirish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Bularga: ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar (seminarlar, laboratoriya ishi, amaliy ishlar), talabaning mustaqil ishi va mustaqil ta’limi kiradi. Shu bilan birga, ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ish kabi dars turlari o‘rganishning tashkiliy shakllari hisoblanadi, chunki talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar usullari bo‘lib, ular doirasida o‘qitish mazmuni va uslublari amalga oshiriladi.

Bo‘lajak pedagoglar kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha zarur kompetensiyalarni rivojlantirishda tashkiliy shakl va usullardan foydalanishning uyg‘unligi va xilma-xilligi ularning ushbu yo‘nalishdagi faolligini, shuningdek, o‘z-o‘zini anglash imkoniyatini ta’minlaydi. Muammoli nuqta bo‘lib turli xil usul va shakllarga haddan tashqari ishtiyoq hisoblanib, mutaxassislar fikricha, ularning bir xilligi bilan birga, “yarim faollik” va “faollik distrofiyasi” kabi hodisalarni keltirib chiqaradi.

Elektron ta’lim resurslari tushunchasiga turli ta’riflarning berilishiga qaramasdan, ularning quyidagi umumiy tomonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) elektron ta’lim resurslari – bu o‘quv-metodik materiallardir; 2) elektron o‘quv materiallari – bu AKTdan foydalanib yaratiladigan elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar jamlanmasidir; 3) elektron o‘quv materiallari – bu didaktik vositadir; 4) elektron o‘quv materiallari zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Olib borilgan tahlillarimiz asosida, biz elektron ta’lim resurslari deganda, o‘qish uchun belgilangan, aniq predmet sohaning tizimlashtirilgan materiallaridan iborat bo‘lgan va ushbu soha bo‘yicha talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallashlarini ta’minlovchi dasturiy vositalarni tushunamiz. Zamonaviy kompyuterli va kommunikasion texnologiyalarning funksional xususiyatlari ta’lim jarayoniga quyidagi imkoniyatlarni amalga oshirishni taqdim etadi: - tabiatan turli-tuman bo‘lgan axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash, tahlil etish va qo‘llashning cheklanmagan imkoniyatlari; - ta’lim olish formalarining kengayishi bilan ta’lim olishga ruxsatning oshishi; - ta’lim olish uzluksizligini ta’minlash va butun faol hayot mobaynida malakaning oshirilishi; - shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, qo‘shimcha va rivojlantiruvchi (operajayushego) ta’limni rivojlantirish; - ta’lim jarayoni (virtual ta’lim muassasalari, laboratoriyalar, universitetlar va boshq.) tashkiliy-metodik ta’minotini yanada kengaytirish va takomillashtirish; - ta’lim jarayonini tashkil etishda subyektlar faolligini oshirish; - ta’lim jarayoni metodik va dasturiy ta’minotini sezilarni darajada kengaytirish; - individual ta’lim trayektoriyasini amalga oshirish imkoniyatlarini ta’minlash; - o‘qish jarayonida mustaqil ijodiy qidiruv faoliyatini rivojlantirish; - o‘qitishning motivasion tomonlarini oshirish; - o‘qitish joyi va vaqtdan ta’lim jarayonining bog‘liq emasligi; - o‘qitishning yagona axborot-ta’lim muhitini yaratish jahon hamjamiyati ma’lumotlari va bilimlari bazasidan foydalanish [5,26].

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati, axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlanish va takomillashuvining zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan. Sohalarda katta xajmdagi axborotlarni to‘planishi, yaxlit axborot makonini vujudga kelishi, ularni saqlash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yishni bilish lozim. Shu borada ta‘lim tizimida xam o‘quv jarayonini olib borish uchun mo‘ljallangan turli kompyuter dasturlari ishlatilib kelinmoqda va ularning soni kun sayin ortmoqda[4,10].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘lim sohasidagi va AKTning keng joriy etilishi bo‘yicha islohotlar ushbu texnologiyalarning ta‘lim sohasida beradigan afzalliklarini mamlakat oliy o‘quv yurtlari tomonidan qo‘llanilishida yutuqlarga olib keldi. Umuman ta‘lim tizimini, xususan, oliy ta‘limni isloh qilish bo‘yicha majmuviy echimlarni qo‘llashning muhim natijalaridan biri bo‘lib mamlakat oliy o‘quv yurtlarida elektron kutubxonalarining rivojlanishi hisoblanadi. Oliy ta‘lim sohasi oldida turgan sifatli mahalliy elektron o‘quv materiallari muammosi dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda OTMlarda mahalliy professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan EATRning mutloq katta qismi \*doc, \*docx, \*pdf matn formatidagi an‘anaviy qog‘oz darsliklarning elektron formatidan iborat.

Demak, ta‘lim oluvchining elektron ta‘lim resurslari bilan o‘zaro harakatining turli formalaridan foydalanish spesifikasini elektron o‘quv materiallarining tipi aniqlaydi. Ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonida elektron o‘quv materiallarini qo‘llash natijasida talabalarining faol bilish faaoliyati, o‘qitishda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishga olib keladi. Bunday darsda elektron o‘quv materiallari motivasion, informasion, shuningdek, mustahkamlash, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Ushbu darajada, taqdim etiladigan axborotning turli-tumanligi, individual topshiriqlardan foydalanish, mustaqil faoliyatni tashkil etilganligi hisobidan talabalar tomonidan topshiriqni bajarish bo‘yicha motivasiya kuchayadi. Variativ elektron o‘quv materiallarini qo‘llash hisobidan talabalarining individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda, mustaqil ish ko‘lamini oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Umirov A. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Qarshi. 2023. -322 b
2. Bogdanov I. V. Bilimlarning umumiy hajmini hisoblash metodikasi // Ta‘limdagi innovatsiyalar. 2006. S. 20-25.
3. Bordovskiy G. A. Yangi ta‘lim texnologiyalari: terminologiya masalalari // Pedagogika. 1993.
4. Denisenko S.V. A. Zamonaviy ta‘lim fanini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishi // Innovatsiyalar. 2006. No 3. S. 5-11.
5. Завялова О.А. Формирование элементов информационной компетентности учащихся на уроках с использованием Интернет–ресурсов. // Интернет–журнал «Эйдос». – 2010. –С. 21-28.

## TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLAR

*Valiyev Abdurafik Abduganiyevich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Harbiy ta'lim fakulteti dotsenti*

*Mazkur maqola talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda liderlik qobiliyatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, jumladan, motivatsiya, o'z-o'zini anglash, emotsional intellekt hamda jamoa bilan ishlash qobiliyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning psixologik tayyorgarlik darajasi, ularning stressga bardoshlilik va qaror qabul qilish qobiliyatlari liderlikni rivojlantirishda qanday rol o'ynashi o'rganiladi. Maqolada psixologik treninglar, motivatsion dasturlar va jamoa mashg'ulotlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari talabalarda samarali liderlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** liderlik qobiliyatlari, psixologik omillar, motivatsiya, emotsional intellekt, stressga bardoshlik, jamoa bilan ishlash, qaror qabul qilish, psixologik tayyorgarlik, talabalar liderligi, trening va motivatsion dasturlar.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

*Данная статья посвящена изучению значения психологических факторов в процессе формирования лидерских способностей у студентов. В исследовании анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на формирование лидерских способностей, включая мотивацию, самосознание, эмоциональный интеллект и навыки работы в команде. Также изучается роль уровня психологической подготовки студентов, их стрессоустойчивости и способностей к принятию решений в развитии лидерства. В статье особо подчеркивается важность психологических тренингов, мотивационных программ и коллективных занятий. Результаты исследования направлены на разработку методических рекомендаций по формированию эффективных лидерских качеств у студентов.*

**Ключевые слова:** лидерские качества, психологические факторы, мотивация, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость, командная работа, принятие решений, психологическая подготовка, лидерство студентов, тренинги и мотивационные программы.

## PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF LEADERSHIP SKILLS IN STUDENTS

*This article is dedicated to study the significance of psychological factors in the process of developing leadership skills among students. The research examines internal and external factors influencing the formation of leadership qualities, including motivation, self-awareness, emotional intelligence, and teamwork abilities. Furthermore, it explores the role of students' psychological preparedness, resilience to stress, and decision-making skills in leadership development. The article emphasizes the importance of psychological training, motivational programs, and group activities. The research outcomes aim to provide methodological recommendations for fostering effective leadership skills in students.*

**Keywords:** leadership skills, psychological factors, motivation, emotional intelligence, stress resilience, teamwork, decision-making, psychological preparedness, student leadership, training and motivational programs.

**Kirish.** XXI asr dunyosida har bir jamiyatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan inson resurslarining sifati va ularning liderlik qobiliyatlariga bog'liq. Ayniqsa, talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish masalasi jahon miqyosida dolzarb bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar ta'lim tizimida liderlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Chunki talabalik davri liderlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng muhim vaqtlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, bu jarayonda psixologik omillarning ta'sirini chuqur o'rganish zarurati kun tartibida turibdi.



Talabalik davri shaxs rivojlanishining o‘ziga xos bosqichidir. Bu davrda yoshlar mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrlarini bildirish, jamoa bilan ishlash va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, bu qobiliyatlarni rivojlantirishda ko‘plab psixologik omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, motivatsiya darajasi, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, ijtimoiy ko‘nikmalar va boshqalar talabning liderlikka qanchalik moyilligini belgilovchi asosiy omillardir. Shuningdek, ta‘lim muassasalari va o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan muhit ham talabalarning liderlik qobiliyatlariga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Liderlik qobiliyatlari zamonaviy jamiyatda katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat professional muvaffaqiyatga erishishda, balki shaxsiy hayotda ham muhim rol o‘ynaydi. Liderlik qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslar murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qila oladi, jamoani boshqaradi va o‘z g‘oyalarini amalga oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonini chuqurroq o‘rganish va bu jarayonni yanada samarali qilish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo‘llash zarur.

Psixologik omillar liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Motivatsiya insonni maqsad sari harakatlantiruvchi kuch bo‘lsa, o‘z-o‘zini anglash liderlikni rivojlantirishning ichki poydevorini yaratadi. Emotsional intellekt esa jamoada muloqot qilish va boshqa odamlarning ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi. Stressga bardoshlilik esa talabalarga murakkab vaziyatlarda o‘zlarini boshqarishga imkon beradi. Ushbu omillarni to‘g‘ri boshqarish va rivojlantirish orqali talabalarning liderlik qobiliyatlarini oshirish mumkin.

Tadqiqot obyekti sifatida turli oliy ta‘lim muassasalaridagi talabalar guruhi tanlab olindi. Ushbu talabalar liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening va dasturlarda ishtirok etdilar. Tadqiqot davomida ularga psixologik testlar va so‘rovnomalarni o‘tkazilib, psixologik holatlarining liderlik qobiliyatlariga ta‘siri tahlil qilindi[6].

Umuman olganda, mazkur tadqiqot talabalarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasini chuqur o‘rganish orqali ta‘lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi. Psixologik omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan strategiyalar nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki kelajakda jamiyatning rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u nazariy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Bugungi kunda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda treninglar, psixologik mashg‘ulotlar va motivatsion dasturlarni qo‘llash samaradorligi ko‘p tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan. Masalan, psixologik treninglar talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Motivatsion dasturlar esa talabalarning ichki va tashqi motivatsiyasini oshirish orqali ularni faoliyatga ilhomlantiradi. Ushbu amaliyotlarni to‘g‘ri tashkil etish orqali talabalarning liderlik qobiliyatlarini samarali shakllantirishga erishish mumkin[5].

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi global o‘zgarishlar davrida kuchli liderlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu, ayniqsa, talabalarga taalluqli, chunki ular kelajakda jamiyatning turli sohalarida yetakchilik qilishlari kutiladi. Shunday ekan, ta‘lim tizimida liderlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish va psixologik omillarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning rolini tahlil qilish va ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlarni taklif etishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga ta‘sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash.
2. Motivatsiya, o‘z-o‘zini anglash, emotsional intellekt va stressga bardoshlilik kabi omillarning liderlikni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilish.
3. Talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda trening va motivatsion dasturlarning samaradorligini o‘rganish.
4. Psixologik omillarga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Liderlik qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu soha turli tadqiqotlar va nazariy yondashuvlarga boy. Birinchi navbatda, liderlikning asosiy tushunchalari va nazariyalari ko‘rib chiqiladi. Misol uchun, Goleman tomonidan kiritilgan "emotsional intellekt" nazariyasi liderlikning muhim jihatlardan biri sifatida qayd etiladi. Golemanning fikricha, liderlik qobiliyatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, shuningdek, boshqa insonlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlarda liderlikning psixologik jihatlari keng o‘rganilgan. Masalan, Yukl (2010) liderlikni boshqaruv jarayonining muhim qismi sifatida tavsiflaydi va liderlikning motivatsiya bilan bog‘liqligini

ta'kidlaydi. Yukning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli lider bo'lish uchun shaxs o'z maqsadlariga erishish jarayonida boshqalarni ilhomlantira olishi va ularga yetakchilik qilishi zarur[2].

Shuningdek, liderlikning kontekstual jihatlari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Northouse (2018) tomonidan ishlab chiqilgan liderlik nazariyalari liderlikni ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog'laydi. Uning tadqiqotlari liderlik qobiliyatlarining rivojlanishi uchun muhitning moslashuvchanligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Bunda jamoaviy ish va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlarda motivatsiya liderlik qobiliyatlarining shakllanishidagi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Deci va Ryan (1985) tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini aniqlash nazariyasi shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiya liderlik qobiliyatlarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular ta'lim jarayonida talabalarni rag'batlantirish va ularni maqsadlarga erishishga yo'naltirish muhimligini ta'kidlaydilar[1].

Liderlikning yana bir muhim jihati stressni boshqarish qobiliyatidir. Lazarus va Folkman (1984) tomonidan ishlab chiqilgan stressni boshqarish nazariyasi liderlik jarayonida stressga bardoshlilikning muhimligini ochib beradi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, stressni boshqarish qobiliyati kuchli bo'lgan liderlar murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga qodir bo'lalilar.

Psixologik omillar liderlik qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatadigan tadqiqotlar ko'p. Shulardan biri Bandura (1977) tomonidan ishlab chiqilgan "o'z-o'ziga ishonch" tushunchasidir. Uning fikricha, shaxsning o'z qobiliyatlariga ishonchi liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, o'z-o'ziga ishonchni oshirish uchun trening va motivatsion dasturlar samarali vositalar bo'lishi mumkin[3].

Boshqa bir muhim yo'nalish – jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Katzenbach va Smith (1993) tomonidan ishlab chiqilgan "jamoalar samaradorligi" nazariyasi liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda jamoaning roli muhimligini ko'rsatadi. Ular samarali jamoalar ishini tashkil etish orqali liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar[7].

Mazkur tadqiqotda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillarning rolini o'rganish uchun bir qator ilmiy metodlar qo'llanildi. Quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi:

1. **Adabiyotlarni tahlil qilish:** Tadqiqotning nazariy asosini yaratish uchun ilg'or ilmiy ishlar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu usul liderlik qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlashga yordam berdi.

2. **So'rovnomalar va intervyular:** Talabalarining psixologik holati va liderlik qobiliyatlarini o'rganish uchun so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. Bu usul yordamida talabalar motivatsiyasi, stressga bardoshliliigi va emotsional intellekti baholandi.

3. **Psixologik testlar:** Talabalarining o'z-o'ziga ishonchi, qaror qabul qilish qobiliyati va jamoalar bilan ishlash ko'nikmalarini baholash uchun psixologik testlardan foydalanildi. Bu testlar liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda individual xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

4. **Tajriba-sinov ishlari:** Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan trening va motivatsion dasturlar sinovdan o'tkazildi. Ushbu dasturlar talabalarining liderlik ko'nikmalariga ta'sirini baholashga imkon berdi.

5. **Statistik tahlil:** Tadqiqot natijalarini qayta ishlash uchun statistik tahlil usullari qo'llanildi. Bu usul yordamida liderlik qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash mumkin bo'ldi[4].

Ushbu metodlar kombinatsiyasi talabalarining liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillarning rolini chuqur o'rganishga va samarali tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari talabalarining liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillarning ahamiyatini tasdiqladi. Quyida asosiy natijalar bayon etiladi:

1. **Motivatsiyaning roli:** So'rovnomalar va intervyular natijalariga ko'ra, yuqori ichki motivatsiyaga ega talabalar liderlik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Motivatsiya darajasi past bo'lgan talabalarda esa liderlikka bo'lgan qiziqish va qobiliyatlar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi.

2. **Emotsional intellektning ahamiyati:** Psixologik testlar asosida, emotsional intellekti yuqori bo'lgan talabalar jamoalar bilan ishlashda samaradorlikni ko'rsatdi va murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini namoyon etdi. Bu talabalarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

3. **Stressga bardoshlilik:** Tadqiqotda stressga bardoshli talabalar murakkab vaziyatlarda liderlik rolini muvaffaqiyatli bajarishganligi kuzatildi. Stressga nisbatan zaif talabalar esa muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishgan.

4. **Jamoaviy ish:** Treninglar va sinov dasturlari jamoaviy ish qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilganligi aniqlandi. Jamoaviy ishlarda faol qatnashgan talabalar liderlik qobiliyatlarini tezroq shakllantira olgan.

5. **Psixologik treninglar va dasturlar samaradorligi:** Trening va motivatsion dasturlar talabalarning o‘z-o‘ziga ishonchini oshirishga va liderlik qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam bergan. Ushbu dasturlar qatnashchilarning liderlik bo‘yicha ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarni rivojlantirish orqali talabalar kelajakda muvaffaqiyatli liderlar bo‘lish imkoniyatini oshirishlari mumkin[1].

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari talabalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning roli juda muhim ekanligini ko‘rsatdi. Talabalar orasida motivatsiya, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik kabi xususiyatlarning turlicha rivojlanganligi liderlik qobiliyatlarining shakllanishida sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Motivatsiya liderlikning eng muhim omillaridan biri sifatida tan olindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega talabalar ko‘proq muvaffaqiyatga erishadilar, chunki ular o‘z faoliyatiga nisbatan yuqori qiziqish va javobgarlikni namoyon etadilar. Shu bilan birga, tashqi motivatsiya yetishmagan talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun qo‘shimcha psixologik qo‘llab-quvvatlash zarurligi aniqlangan.

Emotsional intellektning liderlikdagi ahamiyati ham yuqori baholandi. Emotsional intellekt talabalarga jamoaviy ishda samarali ishtirok etish, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va boshqa insonlar bilan muloqotda muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus trening va mashg‘ulotlarni tashkil etish taklif etiladi.

Stressga bardoshlilikning yetakchilikda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Stressga bardoshli talabalar murakkab vaziyatlarda o‘zlarini yaxshi boshqara olgan va samarali qarorlar qabul qilgan.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillarning hal qiluvchi ahamiyatini ko‘rsatdi. Motivatsiya, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, va jamoaviy ish kabi omillar talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy vositalar ekanligi aniqlandi. Ushbu omillarni rivojlantirish uchun trening va motivatsion dasturlarni joriy qilish samarali ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ta‘lim metodlari va strategiyalari talabalarning liderlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, ta‘lim tizimida psixologik yondashuvlarga asoslangan liderlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish zarur. Ushbu dasturlar talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini ochib berishga va kelajakda muvaffaqiyatli liderlar bo‘lishlariga ko‘maklashadi.

#### Adabiyotlar:

1. Katzenbach, J. R., & Smith, D. K. (1993). *The wisdom of teams: Creating the high-performance organization*. Harvard Business Review Press.
2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, appraisal, and coping*. Springer Publishing Company.
3. Northouse, P. G. (2018). *Leadership: Theory and practice*. Sage publications.
4. Yukl, G. (2010). *Leadership in organizations*. Pearson Education.
5. Robbins, S. P., & Judge, T. A. (2018). *Organizational behavior*. Pearson Education.
6. Senge, P. M. (1990). *The fifth discipline: The art and practice of the learning organization*. Doubleday.
7. Gardner, H. (1995). *Leading minds: Anatomy of leadership*. Basic Books.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

*Xasanova Iroda Alimjonovna,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Umumiy psixologiya kafedrası o`qituvchisi*

*Ushbu maqolada bog`cha yoshidagi bolalar bilish faolligi va shaxs sifatida shakllanish xususiyatlari haqida bo`lib, unda maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faoliyatini shakllantirishga psixologik yondashuv, bolaning bilish jarayonlari rivojining asosi bo`lib, sezgi, idrok, diqqat, xotira kabi psixik jarayonlar, bog`cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo`lish, bolani atrof-muhitni o`yin, mehnat, sayr, mashg`ulotlar, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayoni, bola aqliy taraqqiyoti va bilish faolligiga ta`sir etuvchi omillarni va uning tadqiq etish muammosi haqida ma`lumotlar berilgan.*

***Kalit so`zlari:** maktabgacha ta`lim, maktabgacha yosh, bilish jarayonlari, psixologik xususiyat, faollik, innovatsion rivojlanish, aqliy rivojlanish, diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, hissiy bilish.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*В данной статье рассматривается познавательная активность детей дошкольного возраста и особенности их формирования как личности, в ней представлен психологический подход к формированию познавательной активности детей дошкольного возраста, психологические процессы, такие как ощущение, восприятие, внимание, память, являющиеся основой развития познавательных процессов ребенка, способность детей дошкольного возраста аналитически воспринимать изображения с помощью взрослых, процесс общения ребенка с окружающей средой, играми, трудом, прогулками, занятиями, взрослыми и сверстниками, факторы, влияющие на умственное развитие и познавательную активность ребенка, и проблема его исследования.*

***Ключевые слова:** дошкольное образование, дошкольный возраст, познавательные процессы, психологическая характеристика, активность, инновационное развитие, умственное развитие, внимание, ощущение, восприятие, память, воображение, мышление, эмоциональное познание.*

## PSYCHOLOGICAL APPROACH TO FORMING THE COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN

*This article considers the cognitive activity of preschool children and the peculiarities of their formation as a person, it presents a psychological approach to the formation of cognitive activity of preschool children, psychological processes such as sensation, perception, attention, memory, which are the basis for the development of cognitive processes of the child, the ability of preschool children to analytically perceive images with the help of adults, the process of communication of the child with the environment, games, labour, walks, hiking, and other activities.*

***Keywords:** preschool education, preschool age, cognitive processes, psychological characteristics, activity, innovative development, mental development, attention, intuition, perception, memory, imagination, thinking, emotional cognition.*

***Kirish.** Jahonda ta`lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta`lim tizimini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlarida bolalarda mustaqil-ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta`lim xizmatlarini tashqil etish dolzarb vazifalar sifatida qayd etilgan[1]. Xalqaro tajribalar maktabgacha ta`lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o`qitish asoslarini joriy etish, ta`lim xizmatlarini diversifikatsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.*

***Asosiy qism.** Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar o`zbekistonlik M.G.Davletshin, G`B.Shoumarov, E.G`Goziev, B.R.Sodirov, V.M.Karimova, R.Sunnatova, Sh.R.Barotov, N.S.Safoev, N.A.Sog`inov, Z.T.Nishanova, R.S.Samarov, B.A.Tokareva, B.M.Umarov kabi O`zbekistonlik olimlar KA.Abulxanova Slavskaya, B.G.Ananev, L.I.Ansiferova,*

L.S.Vigotskiy, A.G.Kovalev, A.N.Leontev, B.F.Lomov, V.S.Merlin, V.N.Meyasevchev, A.V.Petrovskiy, K.K.Platonov, B.M. Teplov, L.S.Rubenshteyn singari rossiyalik olimlar va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan katta ahamiyatga ega. Chunki ularning natijalari bugungi kunda bola aqliy rivojlanishi komponentlarini o'rganishda xizmat qilmoqda. Shu bois ham, mavjud muammoni o'rganish zarur.

Hozirgi kunda ta'lim oldida nafaqat ijodiy, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash, balki doimiy ravishda o'zgarib turadigan voqeelikka moslashuvchan yo'naltirish, mutlaqo yangi yo'nalish va faoliyat turlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish vazifasi turibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligi yangi tajribaga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi, bu tug'ilishdan boshlab har bir odamga xosdir.

Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar xam, lekin chuxur tahlil qila olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida xar bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga xaratish kerak. Diqqat xar qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson xayotidagi axamiyati benihoya kattadir.

Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar[2]

Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va shundan so'ngina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir hil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar borligini tushuna boshlaydi. Lekin bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarni rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Uzoq yillar davomida bola bilish jarayonlarining rivoji faqatgina intellekt, tafakkur bilan bog'liq, qolgan psixik jarayonlar — xotira, diqqat, idrok esa yordamchi rollarni o'ynaydi, deb hisoblab kelingan.

Maktabgacha bo'lgan davrda bolaning bilish jarayonlari rivojining asosi bo'lib, sezgi, idrok, diqqat, xotira kabi psixik jarayonlarning shakllanganligi hisoblanadi. Bundan tashqari, kognitiv jarayonlarning tavsifi solishtirish, yetuklik, barqarorlik, egiluvchanlik bo'lib, ular bolaning bilish faoliyatini ta'minlab turadi. Bolaning fikrlash jarayonlarini diagnostika qilishni boshlashdan oldin, bolaning bilish faoliyatida aynan nima kattalarning (pedagog, ota-ona, tarbiyachi) xavotirlanishiga sabab bo'layotganligini aniqlab olish zarur.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish xobilyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli xam xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarling xayollari turli xil mashg'ulotlarda xam o'sadi. Masalan, Bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, xumdan turli narsalar xurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar, Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar xayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshittanlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz xis-tuyxular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning xis-tuyxulari ko'p jixatdan ularning organik extiyojlarining qondirilishi va qondirilmaligi bilan bog'liqdir[3].

Agar «esda saqlab qolish uchun» berilgan material bolaga uning yosh davri xususiyatlarini hisobga olmagan holda berilgan bo'lsa, turgan gapki, bola materialni esda saqlab qola olmaydi. Kattalar esa bolaning «xotirasi yomon», deb xulosa chiqaradilar. Bunday holatlarda psixolog bolanitekshiruvdan o'tkazib ota-onalarga bu muammolarni professional ustalik bilan tushuntirib berishi shart va zarur.

Bolaning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarda, keyinchalik esa maktabda bilimlarni o'zlashtira olmasligining sababi nafaqat intellektual jihatlarining buzilishi, balki bolaning bir necha individual xususiyatlari, jumladan, impulsivligi, berilgan vazifaga o'z diqqatini jamlay olmasligi, o'z faoliyatini tashqillashtira olmasligi, bezovtaligi, o'ziga ishonmasligi kabi emotsional va shaxslararo jihatlarida ham bo'lishi mumkin. Nutqning o'sishi bola xayolining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, bar xil ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zlari biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar haqidagi hikoyalarni joni dili bilan

eshitadilar. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasawurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola hikoya jami eshitish orqali olgan tasavvurlarini so'zlar bilan ifodalaydi. So'z esa bolaning narsalami boshqacha idrok qilishga, ulaming boshqa narsalarga o'xshashligini aniqlashiga va ana shunday o'xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishga yordam beradi[4].

Bu tavsiflar bevosita fikrlash faoliyati bilan bog'liq bo'lmasa-da, baribir bolaning nafaqat o'quv faoliyati, balki umuman rivojlanish yo'lini chegaralab qo'yuvchi jiddiy sabab hisoblanadi.

Geymifikatsiya texnikasi	Ishtirok etish va motivatsiyani oshirish uchun o‘yin elementlari o‘quv jarayoniga kiritiladi	Raqobat vazifalari, mukofotlash tizimlari va interaktiv o‘quv modullari shaklida qo‘llaniladi.
Hamkorlikdagi ta’lim muhitlari	Tengdoshlarning o‘zaro ta’sirini va jamoaviy yutuqlarni rag‘batlantirish uchun guruhli ta’lim muhiti yaratiladi	Jamoa loyihalari, ekspert baholashlari va guruh muhokamalari orqali amalga oshiriladi.
Avtonomlik va tanlovni ta’minlash	Talabalarga ta’lim jarayonida tanlash imkoniyatini beradi, mas’uliyat va mustaqillik hissini tarbiyalaydi.	Bunga tanlov komponentlarini tanlash, loyiha mavzularini tanlash va moslashuvchan o‘quv jadvalini tanlash imkoniyati orqali erishiladi.
Haqiqiy dunyo aloqasiga urg‘u	Amaliy qo‘llanilishi va kurs materialining professional dunyoga mosligini ta’kidlaydi.	Bunga sanoat korxonalariga tashriflar, mehmonlar ma’ruzalari va real hayotiy misollarni o‘quv dasturiga kiritish orqali erishiladi.
Tan olish va mukofotlash tizimlari	Talabalarning muvaffaqiyati va yutuqlarini tan olish va mukofotlash tizimlarini joriy qiladi.	Bu sertifikatlar, nishonlar yoki ajoyib yutuqlar yoki yaxshilanishlar uchun jamoatchilik tomonidan tan olinishi orqali amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Ushbu jadval talabalarning kasbiy amaliyotda faol ishtirok etishi va qiziqishini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan har tomonlama motivatsion strategiyalarni ko‘rsatadi. Ushbu xilmaxil yondashuvlarni birlashtirgan holda, o‘qituvchilar talabalarning turli ehtiyojlari va intilishlariga javob beradigan dinamik va ilhomlantiruvchi ta‘lim muhitini yaratishi mumkin, shu bilan talabalarning faolligini maksimal darajada oshiradi va chuqurroq, mazmunli ta‘lim tajribasini osonlashtiradi.

Kasbiy amaliyotda talabalarning mustaqil ishlarining rolini o‘rganish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash ko‘p qirrali ilmiy ish bo‘lib, turli pedagogik paradigmalari va tajribaviy ta‘lim strategiyalarini qamrab oladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish choratadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.

2. Абулханова-Славская, К. А. Стратегия жизни / К. А. Абулханова-Славская. – Москва: Мысль, 1991. – 299 с.

3. Александрова Е. А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01 / Е. А. Александрова. – Тюмень, 2006. – 40 с.

4. Алтяпова Ю. А. Индивидуальные траектории развития профессионального становления личности / Ю. А. Алтяпова // Личность в профессионально-образовательном пространстве: материалы XIII Всероссийской научно-практической конференции (Екатеринбург, 21 ноября 2014 г.). – Екатеринбург, 2014. – С. 5-9.

5. Ананьев, Б. Г. О проблемах современного человекознания / Б. Г. Ананьев. – Москва: Наука, 1977. – 380 с.

## INTEGRATSION YONDASHUVLARNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

*Atoyeva Mehriniso Farhodovna,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu ilmiy maqola o'quv jarayonida integratsion yondashuvning psixologik asoslarini o'rganishni maqsad qilgan. Maqolada integratsion yondashuvlarning ta'lim tizimidagi o'rni va psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ta'limda psixologik muammolarni bartaraf etish va talabalarda motivatsiya va stressni boshqarish orqali samarali o'qish jarayonini ta'minlash bo'yicha takliflar keltirilgan. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish uchun turli psixologik texnikalar va metodlar ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola kredit-modul tizimining samaradorligini oshirish uchun psixologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *integratsion yondashuvlar, psixologik asoslar, motivatsiya, talabalar stressi, ta'lim samaradorligi, psixologik texnikalar, o'qish motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarish, psixologik treninglar, o'qituvchi va talaba aloqasi, stressni boshqarish, o'ziga bo'lgan ishonch.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

*Данная научная статья направлена на изучение психологических основ интеграционного подхода в учебном процессе. В статье глубоко проанализированы роль и психологические аспекты интеграционных подходов в системе образования. Также представлены предложения по обеспечению эффективного учебного процесса путем устранения психологических проблем в образовании и управления мотивацией и стрессом у студентов. Рассматриваются различные психологические приёмы и методы для взаимодействия преподавателей и студентов, снижения стресса и повышения мотивации. Данная статья может служить основным источником при разработке стратегий, направленных на совершенствование психологических подходов для повышения эффективности кредитно-модульной системы.*

**Ключевые слова:** *интегративные подходы, психологические основы, мотивация, студенческий стресс, образовательная эффективность, психологические методики, учебная мотивация, самоконтроль, психологический тренинг, отношения учитель-ученик, управление стрессом, уверенность в себе.*

## PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTEGRAL APPROACHES

*This scientific article aims to study the psychological foundations of the integrated approach in the educational process. The role of integrated approaches in the educational system and psychological aspects are deeply analyzed in the article. There are also suggestions on how to overcome psychological problems in education and ensure an effective learning process by managing motivation and stress in students. A variety of psychological techniques and methods are considered to improve interactions between teachers and students, reduce stress, and increase motivation. This article can serve as a basic resource for developing strategies aimed at improving psychological approaches to increase the effectiveness of the credit-module system.*

**Keywords:** *integrative approaches, psychological foundations, motivation, student stress, educational effectiveness, psychological techniques, learning motivation, self-management, psychological training, teacher-student interaction, stress management, self-confidence.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va talabalar uchun sifatli o'qish imkoniyatlarini yaratish masalasi har bir ta'lim muassasasi oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Ta'limning o'zgaruvchan va dinamik talablariga javob berish uchun yangi pedagogik yondashuvlar, metodlar va tizimlar joriy etilmoqda. Shulardan biri — kredit-modul tizimi (KMT) bo'lib, u o'qitish jarayonida talabalarga yuqori darajada erkinlik va mas'uliyat beradigan zamonaviy yondashuvdir. KMT ta'limning individualizatsiyasini ta'minlab, talabalar o'z o'qish yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlash, o'zlashtirish darajasini baholash va o'z vaqtida pedagogik qo'llab-quvvatlash olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, psixologik asoslar ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi to'g'ri va samarali aloqalar, o'qish motivatsiyasini oshirish, stressni kamaytirish va boshqa psixologik to'siqlarni bartaraf etish uchun muhim rol o'ynaydi. Talabalar, ayniqsa, akademik bosimlar, vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar, va natijalar haqidagi tashvishlar bilan bog'liq psixologik muammolarga duch kelishlari mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar psixologik texnikalar, treninglar va qo'llab-quvvatlash usullarini ishlatishlari kerak. Psixologik jihatlarining muvaffaqiyatli qo'llanilishi, o'z navbatida, talabalar o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshirish, o'qishdagi ishtiyok va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Psixologik asoslar masalasi, ayniqsa, dolzarbdir, chunki talabalar o'qish jarayonida stress, bezovtalik, vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, akademik bosim bilan duch kelishadi. Bunday holatlarda talabalar psixologik yondashuvlari, stressni boshqarish usullari va motivatsiyani oshirish texnikalari muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan psixologik muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, o'qituvchilar va talabalar o'zaro aloqalari ham psixologik jihatdan muhimdir. O'qituvchilar, talabalar psixologik holatini tushunib, ularni qo'llab-quvvatlash va o'qish motivatsiyasini oshirish uchun samarali usullarni qo'llashlari kerak. Ta'lim tizimining bu psixologik aspektlari, talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish va ularning o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

**Mavzu maqsadi.** Ushbu ilmiy tadqiqotning maqsadi kredit-modul tizimida integratsion yondashuvlarni takomillashtirishning psixologik asoslarini chuqur o'rganishdir. Maqsadning asosiy yo'nalishi, ta'lim jarayonida talabalar psixologik holatiga, motivatsiyasi va o'qishdagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashdir. Kredit-modul tizimi (KMT) o'zining o'qish jarayonini tashkil qilishdagi moslashuvchanligi va talabalar uchun erkinlik yaratishi bilan ajralib turadi, ammo bu tizimning samarali ishlashi talabalar psixologik holatiga, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga, motivatsiyasiga va stressni boshqarish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotda quyidagi asosiy maqsadlar ko'zda tutilgan:

**1. Integratsion yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning psixologik asoslarini tushunish.**

KMTning samaradorligini oshirish uchun integratsion yondashuvlarni rivojlantirish va ularni psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish zarur. Bu o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi samarali muloqot va aloqalarni ta'minlash, o'qish jarayonini yanada muvaffaqiyatli va ijobiy qilish uchun psixologik metodlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bunda, integratsion yondashuvlar faqat ilmiy fanlarni birlashtirish bilan cheklanmaydi, balki talabalar psixologik ehtiyojlariga ham moslashadi.

**2. Talabalar stressini boshqarish va motivatsiyasini oshirish usullarini aniqlash.**

Ta'lim jarayonida talabalar ko'pincha stress, bezovtalik va yuqori akademik bosim bilan yuzma-yuz kelishadi. Tadqiqotning maqsadi – bu muammolarni bartaraf etish va talabalar stressini boshqarish uchun samarali psixologik metodlarni aniqlash, shuningdek, o'qish motivatsiyasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Talabalar uchun ta'lim jarayonini qiziqarli va ishonchli qilish muhim ahamiyatga ega.

**3. Psixologik yondashuvlar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish.**

Tadqiqotda psixologik texnikalar va metodlarning ta'lim jarayoniga qo'llanishi, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish va o'qish samaradorligini oshirish uchun qanday foydalanish mumkinligi ko'rib chiqiladi. Ushbu maqsad talabalarga o'zlarining psixologik holatini boshqarish, stressni kamaytirish va o'qish motivatsiyasini oshirish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini maksimal darajaga ko'tarishni nazarda tutadi.

**Mavzu bo'yicha integratsion yondashuvning amaliyotga joriy etilishi.**

Integratsion yondashuv ta'lim tizimida, ayniqsa, kredit-modul tizimi (KMT)da talabalar bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va o'zaro moslashtirilgan qilib tashkil etishga qaratilgan asosiy yondashuvlardan biridir. Bu yondashuv, birinchi navbatda, o'qish jarayonini turli fanlar va metodlarning uyg'unligi asosida tashkil etishni, talabalar o'rtasidagi ijtimoiy va ilmiy aloqalarni mustahkamlashni va umumiy o'quv natijalarini yaxshilashni ta'minlaydi. Integratsion yondashuvlar o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil qilish, shuningdek, talabalarni o'z o'qish jarayoniga faol jalb etish orqali amalga oshiriladi.

**1. Fanlar va Pedagogik Metodlarning Integratsiyasi.**

Kredit-modul tizimi talabalariga turli fanlar asosida o'qish erkinligi va tanlash imkoniyatini beruvchi tizimdir. Integratsion yondashuvning ilk bosqichi — bu fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va uyg'unlikni ta'minlashdir. Masalan, talabalar bir modulni o'zlashtirishda turli fanlar va bilim sohalarini birlashtirgan holda, ularni amaliyot bilan bog'lab o'rganishadi. O'qituvchilar fanlararo yondashuvni qo'llab-quvvatlashlari

zarur, chunki bu talabalarni tanqidiy fikrlashga undaydi, biror masala yoki mavzuni turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilish imkonini beradi.

Pedagogik metodlarning integratsiyasi ham juda muhimdir. Bu, o'z navbatida, an'anaviy metodlar bilan birga, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llashni ta'minlaydi. Masalan, interfaol metodlar, kooperativ o'qish, projekt asosidagi o'qish kabi metodlar integratsion yondashuvni amalga oshirishda qo'llaniladi. Bunda, talabalar turli guruhlarda ishlashadi, o'zaro fikr almashadilar va bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar.

**2. Talabalar motivatsiyasini oshirish.** Integratsion yondashuvning muhim jihati — bu talabalar motivatsiyasini oshirishga qaratilgan amaliyotlar. O'qish jarayonida talabalar o'zlarining bilim olish jarayoniga faol ishtirok etishlari kerak. KMTda bu talabalarni o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan modullarni tanlash imkoniyati berish orqali amalga oshiriladi. Integratsion yondashuvda motivatsiyani oshirishning yana bir usuli — o'qituvchilar tomonidan psixologik qo'llab-quvvatlash, talabalarni rag'batlantirish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Motivatsiya oshirilgan holda talabalar o'z o'qishlarini yanada yaxshiroq rejalashtirishga, yuqori samaradorlikka erishishga intilishadi. O'qituvchilar, shuningdek, talabalarning muvaffaqiyatlarini baholashda bir qator yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Shaxsiy yondashuv, flexible learning (moslashuvchan o'qish), va individuallashtirilgan baholash tizimlari talabalar uchun o'qish jarayonini o'ziga xos va qiziqarli qiladi.

### **3. Psixologik yondashuvlar: Talabalar stressi va motivatsiyasini boshqarish.**

Integratsion yondashuvni amalga oshirishda psixologik jihatlar muhim rol o'ynaydi. Talabalar ko'pincha akademik bosim va vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar tufayli stressga duch kelishadi. Bu holat, o'z navbatida, o'qish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, integratsion yondashuv talabalar stressini kamaytirish va ularning psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan psixologik texnikalar va metodlarni qo'llashni talab qiladi.

Psixologik yondashuvlar talabalarni o'z o'qish jarayonida yaxshi his qilishlariga yordam beradi, ularni ijobiy psixologik holatga keltiradi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini oshiradi. Masalan, stressni boshqarish va motivatsiyani oshirish uchun psixologik treninglar, relaksatsiya usullari va kognitiv-behavioral terapiya kabi metodlar qo'llanilishi mumkin.

### **4. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi samarali muloqot.**

Integratsion yondashuvni amalga oshirishda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarga yo'l ko'rsatuvchi, ularning qiziqishlarini uyg'otuvchi, motivatsiyasini oshiruvchi va psixologik holatini yaxshilovchi shaxslar sifatida faol ishtirok etishlari kerak. O'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash talabalar o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va ular bilan ijobiy muloqotni ta'minlaydi.

O'qituvchilar uchun ham integratsion yondashuvni amalga oshirishda kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhimdir. O'qituvchilar o'zlarining pedagogik yondashuvlarini va psixologik metodlarni doimiy ravishda yangilab borishlari kerak. Bu esa talabalarga yanada samarali ta'lim olish imkonini yaratadi.

### **5. Boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik.**

Integratsion yondashuvlar, shuningdek, ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Turli ta'lim muassasalari va bilim sohalari o'rtasidagi aloqalar va hamkorlik talabalarni bir butun tizim sifatida rivojlantirishga yordam beradi. Bu integratsiya talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi va ularni amaliyotga tayyorlashda yordam beradi. Masalan, universitetlar va kasb-hunar maktablari o'rtasidagi hamkorlik yoki xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik talabalar uchun ilmiy va amaliy tajriba orttirishga imkon yaratadi.

Integratsion yondashuvni kredit-modul tizimida amalga oshirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarning motivatsiyasini oshirishga va stressni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv faqat ilmiy va pedagogik jihatlariga asoslanmaydi, balki psixologik omillarni ham o'z ichiga oladi. Integratsion yondashuvni to'liq amalga oshirish uchun o'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali hamkorlik va muloqot muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalar psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishi va ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishlari uchun zarur sharoitlar yaratish muhimdir.

#### **Asosiy qism.**

##### **1.2. Psixologik yondashuv va ta'lim samaradorligi.**

Psixologik yondashuv ta'lim jarayonida talabalarning ruhiy va emotsional holatini inobatga olish, ularning psixologik ehtiyojlarini hisobga olib, ta'limning samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvdir. Ta'lim samaradorligi esa o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, o'qishdagi muvaffaqiyat va o'quv jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatlarini o'z ichiga oladi. Psixologik yondashuvlar

ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish, talabalarning motivatsiyasini oshirish, stressni boshqarish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

**Psixologik yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri.**

1. **Motivatsiya:** O'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Psixologik yondashuv talabalar motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Masalan, motivatsion texnikalar va psixologik treninglar yordamida talabalar o'z maqsadlariga erishishda ijobiy munosabatga ega bo'lishadi. Yaxshi psixologik muhitda talaba o'qishga ko'proq qiziqadi, o'zini rivojlantirishga intiladi va natijada o'quv jarayoni samarali bo'ladi.

2. **Stressni boshqarish:** Talabalar uchun ta'lim jarayoni ko'pincha stress manbai bo'lishi mumkin.

Qiyinchiliklar, topshiriqlarni bajarishdagi bosim va o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar talabalarda ruhiy zo'riqish va stressni keltirib chiqaradi. Psixologik yondashuvlar, stressni boshqarish texnikalari, masalan, nafas olish mashqlari, meditatsiya yoki psixologik maslahatlar yordamida talabalar o'z stresslarini boshqarishga o'rganadilar. Bu esa o'qish jarayonida ularning salbiy ta'sirlaridan saqlanishga yordam beradi, natijada ta'lim samaradorligi ortadi.

3. **O'z-o'zini boshqarish:** Ta'lim jarayonida talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati juda muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlar talabalar o'z vaqtlarini samarali taqsimlash, o'qish rejasini tuzish va o'z o'quv faoliyatini boshqarishda ko'maklashadi. O'z-o'zini boshqarish qobiliyati rivojlangan talabalar o'z o'quv faoliyatlariga mas'uliyat bilan yondashadilar, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

4. **Emotsional holat va ijtimoiy aloqalar:** Talabalar o'quv jarayonida faqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirib qolmay, balki o'z ijtimoiy va emotsional ehtiyojlarini ham qondirishlari kerak. Psixologik yondashuv talabalarning ijtimoiy aloqalarini, o'zaro hamkorlikni va ijobiy emotsional holatni yaratishga yordam beradi. Ijobiy muhitda o'qish, talabalar o'rtasida stressni kamaytiradi va o'zaro yordamni rivojlantiradi, bu esa ta'lim samaradorligini yanada oshiradi.

5. **O'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqalar:** O'qituvchilarning psixologik qo'llab-quvvatlashi va talabalar bilan o'zaro aloqalari ta'lim samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar talabalarining psixologik holatini inobatga olib, ularga rag'batlantiruvchi, ishonch hosil qiluvchi va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishlari kerak. Psixologik yondashuvlar, shuningdek, o'qituvchilarning talabalarga bo'lgan yondashuvini yaxshilaydi, bu esa o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

**Psixologik yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim usullari.**

1. **Motivatsion yondashuvlar:** O'qituvchilar talabalarining motivatsiyasini oshirish uchun ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va maqsadlarini aniqlab, o'qish jarayonini shaxsiylashtirishlari kerak. Motivatsion texnikalar, rag'batlantirish va ijobiy feedback yordamida talabalar o'z maqsadlariga erishishda ko'proq ishtiyok bilan ishlashadi.

2. **Psixologik maslahatlar va treninglar:** Ta'lim jarayonida talabalar psixologik maslahatlar va treninglarga ehtiyoj sezadilar. Stressni boshqarish, vaqtni taqsimlash, o'z-o'zini boshqarish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va o'z-o'zini motivatsiya qilish kabi treninglar talabalar uchun foydali bo'ladi. Bu treninglar talabalar o'qishdagi qiyinchiliklarga yuz tutganida, ularni samarali hal qilishga yordam beradi.

3. **Pozitiv psixologiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash:** Ta'limda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhit yaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Talabalar o'zlarini xursand va quvnoq his qilishsa, ular o'qishga ko'proq motivatsiya bilan yondashadilar. Ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish, talabalar o'rtasida o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish o'quv jarayonida yaxshi natijalarga olib keladi.

4. **Rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash:** Talabalar o'zlarining har bir muvaffaqiyatini ko'rib chiqish va rag'batlantirishlarini xohlashadi. Psixologik yondashuvlar rag'batlantirishni, ijobiy fikrlarni va qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, bu esa talabaning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'qish jarayoniga ko'proq qiziqish bildirishga olib keladi.

Psixologik yondashuv ta'lim jarayonida talabalarning ruhiy holatini va motivatsiyasini hisobga olish, o'qishdagi muvaffaqiyat va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Motivatsiyani oshirish, stressni boshqarish, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Psixologik yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali va ijodiy qiladi, bu esa nafaqat talabalarning o'zlashtirish darajasini, balki ularning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi.

**2. Integratsion yondashuvlar va uning ta'limdagi ahamiyati.**

Ta'lim tizimlarida o'qitishning samaradorligini oshirish va o'quv jarayonini modernizatsiya qilish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlarning orasida

integratsion yondashuvlar alohida o'rin tutadi. Integratsion yondashuv — bu turli fanlar va sohalarining birlashtirilgan tarzda o'qitilishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini yanada samarali qilish, talabalarni bir butunlikda o'rgatish va ularning bilimlarini yanada kengroq doirada shakllantirish imkonini beradi.

Integratsion yondashuvlarning ta'limdagi ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarga faqat alohida fan yoki mavzuni o'rganishga emas, balki o'quv materiallarini bir-biri bilan bog'lab, turli sohalaridagi bilimlarni birlashtirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, talabalarni yanada kengroq va tizimli tarzda fikrlashga undaydi, ularning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quv jarayoniga ko'proq qatnashishga olib keladi.

Bugungi ta'lim tizimida integratsion yondashuvlarning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'limning maqsadi nafaqat bilimlarni yetkazish, balki talabalarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va turli bilim sohalarini amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Integratsion yondashuvlar bu jarayonni amalga oshirishga yordam beradi, chunki ular nafaqat bitta fan bo'yicha emas, balki bir nechta fanlar va ko'nikmalarni birlashtirib, o'qish jarayonini butunlay yangi va innovatsion shaklda tashkil etadi.

Integratsion yondashuvlar pedagogik amaliyotda ta'limning ko'p qirraliligini, talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilar, o'zaro bog'lanmagan fanlarni birlashtirib, o'qish jarayonida yanada chuqurroq va yanada mukammal natijalar hosil qilishlari mumkin. Misol uchun, ilmiy va ijtimoiy fanlarni integratsiya qilish, talabalarga jamiyat va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, ularning o'qish motivatsiyasini oshiradi.

Ta'limda integratsion yondashuvlarning qo'llanilishi, ayniqsa, kredit-modul tizimi kabi zamonaviy ta'lim metodlarida muhim ahamiyatga ega, chunki bu tizimda talaba o'zining o'quv faoliyatini mustaqil ravishda boshqaradi va bir nechta modullarni o'zaro bog'lab, ularni o'z maqsadlariga moslashtiradi. Integratsion yondashuvlar, shuningdek, psixologik jihatlarga ham ta'sir ko'rsatadi, chunki talabalarning motivatsiyasi va ularning o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishi integratsiya qilingan va bir-biri bilan bog'langan bilimlarga nisbatan ko'proq kuchayadi.

Shunday qilib, integratsion yondashuvlar ta'limda nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini soddalashtiradi, balki talabalarga o'quv jarayonida faol ishtirok etishga, o'zlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, integratsion yondashuvlarni ta'lim tizimiga joriy qilish bugungi kunda zamon talabi bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir.

### **2.1. Integratsion yondashuvlar.**

Integratsion yondashuvlar ta'lim tizimida bir necha fan yoki bilim sohalarini o'zaro bog'lash, ularga kompleks nuqtayi nazar bilan yondashish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishda samaradorlikni oshirishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuv o'quvchilarga faqat alohida fanlarni o'rganish emas, balki ularning o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqib, yanada kengroq va tizimli bilimlarni olish imkoniyatini yaratadi.

Integratsion yondashuvlar asosan **ko'p fanli** yoki **multidissipliner metodlarga** asoslanadi. Bu metodlar o'quvchilarga turli fanlarni birlashtirgan holda o'rgatish orqali nafaqat fanlararo bog'liqlikni ko'rsatadi, balki talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi. Integratsion yondashuvlar o'z ichiga **interdissipliner** (fanlararo) va **transdissipliner** (sohalararo) yondashuvlarni oladi, ular har bir sohaning o'ziga xosligidan tashqari, ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan ham o'qitiladi.

#### **Integratsion yondashuvlarning asosiy xususiyatlari.**

1. **Ko'p fanli va ko'p yo'nalishli ta'lim:** Integratsion yondashuvda, talabalar turli fanlar bo'yicha olingan bilimlarni birlashtirishga harakat qiladilar. Masalan, biologiya va kimyo fani o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatish yoki ijtimoiy fanlar va tabiiy fanlar o'rtasidagi integratsiyani amalga oshirish, talabalar uchun yanada chuqurroq tushunchalar yaratadi.

2. **Tizimli yondashuv:** Integratsion ta'limda turli fanlar bir butun sifatida o'qitiladi, bu talabalar uchun bilimlarning yaxlit va tizimli bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, talabalar o'qigan fanlar orasidagi bog'liqlikni anglaydilar, bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi va fikrlashning yaxlit shaklini rivojlantiradi.

3. **Amaliyotga yo'naltirilgan o'qish:** Integratsion yondashuvlar ta'limni nazariyadan amaliyotga o'tkazishga imkon beradi. Bu yondashuv orqali talabalar turli fanlardan olingan bilimlarni real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo'llashga o'rganadilar. Ular uchun o'qish nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki shu bilimlarni kundalik hayotda, kasbda va boshqa sohalarida qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.



4. **Kreativ fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirish:** Integratsion yondashuvlar talabalar uchun turli xil mavzularni birlashtirishga imkon beradi, bu esa ularni ijodiy fikrlashga va tahliliy yondashuvga o'rgatadi. O'quvchilarda analitik fikrlash va muammolarni turli nuqtayi nazardan ko'rish qobiliyati rivojlanadi, bu esa ularning ilmiy va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

5. **Motivatsiya va qiziqishning oshishi:** Integratsion yondashuvlar talabalar uchun yangi va qiziqarli o'qish imkoniyatlarini yaratadi. Ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi oshadi, chunki bir nechta fanlar va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqish, o'quvchilarni yanada faol ishtirok etishga undaydi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantiradi.

#### **Integratsion yondashuvning ta'limdagi ahamiyati.**

Integratsion yondashuvlar ta'lim tizimida bir nechta muhim omillarni keltirib chiqaradi, ularning eng muhimi, bu o'quvchilarga kengroq, tizimli va amaliy bilimlarni o'zlashtirish imkonini yaratadi.

1. **Fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish:** Integratsion yondashuv fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi.

Masalan, matematikadan olingan bilimlarni iqtisodiyot yoki fizika bilan birlashtirish talabaga kompleks muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu talabalar uchun o'qishni qiziqarli va amaliy qiladi.

2. **O'qish samaradorligini oshirish:** Integratsion yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshiradi, chunki o'quvchilar faqat bir fan bo'yicha emas, balki turli yo'nalishlar bo'yicha o'qigan bilimlarni o'zaro bog'lab, yanada yuqori darajada tushunishadi. Bunday o'qish o'quvchilarni nafaqat ilmiy, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi.

3. **Shaxsiy rivojlanish va mustaqil fikrlash:** Integratsion ta'lim shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi. Talabalar turli fanlar bo'yicha bilim olish jarayonida o'zlariga xos fikrlash tarzini rivojlantiradilar. Ularning mustaqil fikrlash qobiliyati kuchayadi va ularni o'z-o'zini boshqarishga undaydi.

4. **Innovatsion yondashuvlarni qo'llash:** Ta'limda integratsion yondashuvlar innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ular yordamida yangi metodologiyalar va pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi, bu esa ta'lim jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Integratsion yondashuvlar ta'limda kreativlik va yangi yondashuvlarning paydo bo'lishiga turtki beradi.

5. **Jamiyatga moslashish:** Integratsion ta'lim jamiyatning ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi.

Hozirgi kunda globalizm, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy o'zgarishlar talab qiladigan bilimlarni olishga ehtiyoj bor. Integratsion yondashuvlar bu ehtiyojlarga javob berishga yordam beradi, chunki ular talabalarga kompleks bilim va ko'nikmalarni taqdim etadi.

Integratsion yondashuvlar ta'lim tizimida yanada kengroq, tizimli va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ular talabalar o'rtasida fanlararo bog'lanish, kreativlik, tahliliy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Integratsion yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularni yanada kengroq bilimga ega va jamoada faol ishlashga tayyor qiladi. Shu sababli, integratsion yondashuvlar ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega va o'qitishning samaradorligini oshiradi.

#### **Talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning psixologik tomonlari.**

1. **Motivatsiya:** Talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Boshqa talabalar tomonidan qo'llab-quvvatlanish va rag'batlantirish talabalar uchun kuchli motivatsiya manbai bo'lishi mumkin. Guruhdagi muvaffaqiyatlar va jamoaviy yutuqlar talabalarni o'zlariga ishonch hosil qilishga undaydi. Shuningdek, talabalar o'rtasida o'rnatilgan o'zaro ta'sirlar ijobiy psixologik holatni yaratadi va o'zaro rag'batlantirish motivatsiyani yuqori darajada ushlab turadi.

2. **Stressni boshqarish:** Talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar stressni boshqarish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lgan muhitda talaba o'zining xavotirlarini boshqalar bilan baham ko'rishi va yengillashtirish uchun yordam olishi mumkin. O'zaro aloqalar talabalarga yengillik keltiradi, chunki ular o'zlarini faqat o'qish yoki akademik yuklamalar bilan emas, balki do'stlar va qo'llab-quvvatlash tizimi orqali yordam olish imkoniyatiga ega his qilishadi.

3. **O'ziga bo'lgan ishonch:** Talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi aloqalar talabalarga o'zlarining kuchli tomonlarini ko'rishga va kamchiliklarini yaxshilashga yordam beradi. Yaxshi o'zaro aloqalar talabalar uchun o'z-o'zini anglashni va o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga imkon beradi, bu esa, o'z navbatida, ta'limda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'lim jarayonida nafaqat akademik muvaffaqiyatni oshirish, balki psixologik barqarorlikni saqlash, motivatsiyani oshirish va stressni boshqarishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zaro aloqalarning sifatli va ijobiy bo'lishi talabalar o'rtasida ijtimoiy va emotsional barqarorlikni yaratadi, ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qish jarayonining samaradorligini kuchaytiradi. Shuning uchun talabalarga do'stona va qo'llab-quvvatlovchi o'zaro aloqalar o'rnatish imkoniyatlari yaratish ta'lim tizimining muvaffaqiyatini oshirish uchun zarurdir.

**Xulosa. Psixologik yondashuvlarni takomillashtirish orqali o‘qish samaradorligini oshirish.**

Kredit-modul tizimi samaradorligini yanada oshirish uchun uni inson psixologiyasi bilan bog‘liq holda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir talaba bilim olishda turli kognitiv va motivatsion omillarga ega bo‘lib, ularning o‘quv jarayoniga moslashuvi psixologik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

Tizim samaradorligini oshirish uchun quyidagi psixologik tamoyillarni takomillashtirish lozim:

**1. Motivatsiyani oshirish strategiyalari.**

- Kredit-modul tizimida o‘qish jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qilish uchun ichki va tashqi motivatsiyani oshirish mexanizmlarini joriy etish kerak.
- Masalan, baholash tizimini shunday shakllantirish kerakki, u talabalarni nafaqat yakuniy natija uchun, balki jarayonning o‘zidan zavq olishga undasin.

**Moslashuvchan ta’lim usullarini rivojlantirish.**

- Har bir talaba individual o‘quv uslubiga ega bo‘lganligi sababli, modullarning moslashuvchan va moslashtirilgan shaklda taqdim etilishi muhimdir.
- Masalan, vizual, audial va kinestetik ta’lim usullarini kombinatsiyalash talabalar ehtiyojlariga mos tushadi.

**2. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish.**

- Talabalar stress, vaqtni boshqarish qiyinchiliklari va imtihon oldidan qo‘rquv kabi muammolarga duch kelishadi.
- Ushbu muammolarni hal qilish uchun psixologik maslahatlar, treninglar va motivatsion seminarlarni tizimga integratsiya qilish lozim.

**3. Jamoaviy o‘qish madaniyatini rivojlantirish.**

- Kredit-modul tizimi doirasida hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar va muhokamalarni keng joriy qilish talabalar orasida ijtimoiy moslashuv va bilim almashinuv jarayonini kuchaytiradi.
- Jamoaviy loyihalar va seminarlar talabalarni bilimlarini yanada mustahkamlashga va real muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Prentice-Hall.
2. Biggs, J. (2003). *Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does*. Open University Press.
3. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School*. National Academies Press.
4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. *American Psychologist*, 55(1), 68-78.
5. Duckworth, A. L. (2016). *Grit: The Power of Passion and Perseverance*. Scribner.

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA NUTQIY MASHQLARNING O‘RNI**

*Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi,*

*Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti,  
Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasida 1-bosqich tayanch doktoranti  
karimova.dilshoda93@mail.ru*

*Ma’lumki, ta’lim va tarbiyaning naqadar muhim ekanligi asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o‘rnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o‘ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo‘yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o‘lchanadi. Maqola muallifi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda nutqiy mashqlarning o‘rni, turlari, darajalari va ushbu mashqlarning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun qanchalik darajada ahamiyat kasb etishi haqida o‘z fikrlarini bildirgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetensiya, nutq, nutqiy mashqlar, ko‘nikma, kommunikativ qobiliyat, kasbiy-lingvistik qobiliyat.

**РОЛЬ РЕЧЕВЫХ УПРАЖНЕНИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ  
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

*Известно, что в демократическом обществе, основанном на важности образования и воспитания, степень соответствия каждого специалиста, занимающего ту или иную работу или службу, соответствующему месту, измеряется тем, насколько он отвечает различным требованиям, предъявляемым к обладателю этой работы или службы. Автор статьи высказал своё мнение о роли, видах, уровнях речевых упражнений в совершенствовании профессиональной компетентности будущих учителей английского языка и степени значимости этих упражнений для будущих учителей английского языка.*

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетенция, речь, речевые упражнения, навык, коммуникативная способность, профессионально-лингвистическая способность.

**THE ROLE OF SPEAKING EXERCISES IN IMPROVING THE PROFESSIONAL  
COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS**

*It is known that in a democratic society based on the importance of education and upbringing, the degree to which each specialist occupying a particular job or service is fit for the appropriate place is measured by the extent to which he or she fulfils the various requirements for the holder of that job or service. The author of the article expressed his opinion about the role, types, levels of speech exercises in improving the professional competence of future English teachers and the degree of significance of these exercises for future English teachers.*

**Keywords:** competence, professional competence, speech, speech exercises, skills, communicative ability, professional-linguistic ability.

**Kirish.** Ma’lumki, ta’lim va tarbiyaning naqadar muhim ekanligi asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o‘rnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o‘ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo‘yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o‘lchanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o‘rni bilan shu ish yoki xizmat o‘rniga talabgor shaxs o‘rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo‘lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo‘llashga oid bir qancha konsepsiyalar vujudga keldi.

“Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyani rivojlantirish - pedagogik muammo sifatida ekanligini tahlil qilar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini

belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy- axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlovchi, yuksak malaka tajribasiga ega kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF 60-son Farmoni asosida 2022–2030 - yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e’tirof etish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Istiqloлга erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar ta’lim mazmunini davr nuqtayi nazaridan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Harakatlar Strategiyasi” asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu qonunlar uzluksiz ta’lim tizimining o‘zbek modelini aniqlab berdi.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarining kompetensiyasini rivojlantirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi [1]. Shuning uchun, — Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

1993- yildan 2020- yilgacha o‘rganilayotgan hodisani shakllantirish muammosi bo‘yicha bilimlarning sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Agar 1990- yillarda. o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi olimlarning asarlarida pedagogik tayyorgarlik sifatini oshirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan (O.S. Grishechko, N.V. Kuzmina, V.I.) S.V.Kikteev, V.Ya.Sinenko va boshqalar), keyin XXI asr boshlarida. Rossiyalik olimlar ushbu ta’riflarni o‘rganish va taqqoslash, universitetdan keyingi davrda o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini o‘rganish asosida o‘qituvchining kasbiy mahorati va kasbiy malakasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘zaro ta’sirini o‘rganish orqali o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini o‘rganishning ushbu yo‘nalishini ancha kengaytirdilar: G.S. Vyalikova, L.K. Grebenkina, K.M. Levitan, L.I. Lutsenko, A.K. Markova, A.P. Sitnik va boshqalar.

V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko‘ra, “kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv talabning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko‘rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi”.

Ye.V.Bondorevskaya va S.V.Kulnevichning ilmiy ishlarida talabalar yig‘adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo‘naltirilishi yoki zarur bo‘lishi lozim deb hisoblaydi.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi quyidagilarda ko‘rib chiqiladi: o‘qituvchi shaxsini kasbiy mutaxassis sifatida rivojlantirish (O.M. Atlasova, L.A. Basharina, Y.V. Vardanyan, G.I. Zaxarova va boshqalar), o‘qituvchilarning axborot tayyorgarligi (D.V. Golubin, T.V. Dobudko, A.V. Dobudko, N.V. Kisel va boshqalar), o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining psixologik-pedagogik turlari (M.N. Karapetova, M.I. Lukyanova, E. V. Popova, T.A. Tsaregorodtseva va boshqalar).

A.G. Bermusning fikriga ko‘ra, — “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha xislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”.

A.Navoiy: — “O‘qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki, mahoratli tarbiyachi bo‘lishi lozim deb ilm- odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon har qanday vaziyatda ham ajralmasligini ta’kidlab o‘tgan”.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda nutqiy mashqlarning o‘rni, turlari va vazifalari o‘rganildi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar pedagog, sotsiolog, psixolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va shu soha vakillarining yozma va og‘zaki fikr - mulohazalarini tahlil qilish jarayonlarini kuzatish amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar.** *Kompetensiya* lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda **“kasbiy kompetentlik”** atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi.

O‘zbek tilining o‘ziga xos morfologik va semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan yondoshgan holda “kompetensiya” atama va tushunchalari lotinchadagi “competere” – “munosib”, “competo”– “munosibman” yoki “erishaman” so‘zlariga yaqin ma’noda ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi [4]. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga ko‘ra, “kompetensiya” so‘zini barcha ma’naviy hollarda qo‘llash ko‘plab chalkashliklarni oldini oladi degan fikrni aytmoqchimiz. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya

ma’lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o’rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi.

A.Avloniy nomidagi O’qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvalieva: “Kompetensiya – bilim, ko’nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo’lishi yoki ta’sir ko’rsatish qobiliyati”, – deb ta’riflaydi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim – o’quvchilarning egallangan bilim, ko’nikma va malakalarini o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o’quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo’lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan o’z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog’lom raqobat hamda umummadaniy ko’nikmalarini shakllantirdi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan. Kompetensiya – fan bo’yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo’llay olishdir [5]. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta’limdan tinglab tushunish, o’qib tushunish, fikrni og’zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o’rgatishning 4 ko’nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim shakliga o’tildi.

Pedagogik ko’nikmalar - bu turli o’zgaruvchan sharoitlarda pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan hatti-harakatlar majmuasidir [6]. O’qituvchi pedagogik ko’nikmalarni o’z xarakter tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: tashxislash, loyihalashtirish va rejalashtirish, axborot berish, qadriy- emotsional yo’naltirish, muloqot qila olish, tashkilotchilik va refleksiv ko’nikmalar.



1-rasm. Kompetentlik nazariy bosqichlari

**Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi.** Sohaning yetakchi mutaxassislari (S.Torp, J.Klifford, 2004)ni fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs “**Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman**” darajasida turadi. Balki, bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji yo’qdir. Shuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga bo’lgan zaruriyatni his qilmaydi. Shu o’rinda yana bir misol: ilk go’daklik chog’larida bola yengil mashinada bir yerdan boshqa yerga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o’zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o’zining shaxsiy kompetentligini anglay olmaydi.

**Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi.** Anglanilgan kompetentsizlikda shaxs “bilmasligi” haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tug’ilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich “**Men bilmasligim haqida bilaman**” deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan o’smir, biron-bir kishidan o’zini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga to’g’ri keladi va bunda o’zining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda “o’z ustida” qayg’uradi.

**Anglangan kompetentlik bosqichi.** Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) o’qishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, o’qituvchining xatti-harakatlarini o’zlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini anglaydi yoki “**nima bilishi haqida biladi**”. Masalan, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan va haydovchilik guvohnomasi olgan 18 yoshli yigit (haydovchi) yo’lga chiqishdan oldin mashinani to’g’ri boshqarish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va o’ziga-o’zi quyidagilarni pichirlaydi yoki xayolidan o’tkazadi: “Hozir yon tomonni yoki

orqani ko‘rsatuvchi oynalarga qarayman, oldimdan chiqqan jonli to‘siqqa signal beraman, borishim zarur bo‘lgan obyektни joylashishiga ko‘ra yoki harakat trayektoriyasi bo‘yicha o‘ngga-chapga burilaman va hokazo”.

**Anglanmagan kompetentlik bosqichi.** Anglanmagan kompetentlikda shaxs o‘zidagi mavjud bilim va ko‘nikmalarni shu darajada ko‘p qo‘llaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni o‘ylamasdan bosadigan bo‘ladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki bo‘lmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: **“Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman”**, – degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina boshqarishni o‘rgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz ma‘lum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning “qoningiz va jismingizga” singib ketgan bo‘ladi.

Demak, yuqoridagi to‘rt bosqichli nazariyada ilgari surilgan g‘oyaga asoslanadigan bo‘lsak, kompetentlik – ta‘lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta‘minlash uchun, ya‘ni muayyan kishilar(guruhlar) malakasini oshirish va ish(o‘qish)-faoliyatini yaxshilashda xuddi indikator sifatida xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu maqolani yozishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda nutqiy mashqlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun mohiyati va ta‘limdagi innovatsion jarayonlar tizimida nutqiy mashqlarning o‘rni, turlari va vazifalarini yanada kengroq tahlil qilishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi, bu borada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli faoliyat amalga oshirilishi zarur:

Birinchiidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta‘limiy o‘zgarishlar bo‘lajak mutaxassislarining ongliligini va faolligini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi zarur.

Ikkinchiidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida, bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini amalga oshirish.

Uchinchiidan, kasbiy kompetensiya, ayniqsa, har bir soha vakillarida kasbiy kompetensiya bo‘lajak mutaxassislarining jamiyatda tutgan o‘rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo‘lishini ularga anglab yetishlariga erishish.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - T.:2020-yil. 23-sentabr//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
2. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi – “O‘qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi – T:2012-yil.
3. Zununov A. Pedagogika tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Sharq nashriyoti.-T.:2004-yil.148-b
4. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma.-T.:Sano-standart, 2015-yil.120-b.
5. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv//: Avtoref.dis. ...(PhD) ped nauk / Gulyamova M.X.-T.:2019- yil. 45-b.
6. G.M.Musaxanova. Oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. Ilmiy maqola. 2023-yil.
7. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
8. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. // Интернаука. Science Journal, 7(11).

## НОГИРОНЛИККА ЭГА ШАХСЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ҲОЛАТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАҲЛИЛИ

*Муҳаммадиева Шахло Фаниевна,  
Тошкент шаҳридаги ММФИ Миллий тадқиқот ядро университети  
Федерал давлат автоном олий таълим  
муассасасининг филиали катта ўқитувчиси  
muhammadiyevashaxlo9@gmail.com*

*Ушбу мақолада ногиронлиги бор шахсларнинг умумий психологик ҳолатлари, улар дуч келадиган руҳий муаммолар ва улар устида ишлаш долзарблиги таъкидланган. Шунингдек, мақолада тадқиқот мақсадида ногиронлиги бор айрим шахслар билан ўтказилган суҳбат давомида улар келтирган руҳий ҳолатларини илмий жиҳатдан асослашга ҳам ҳаракат қилинган.*

**Калит сўзлар:** ногиронлик, психология, ижтимоий тушқунлик, самарадорлик, эшитиш, кўриш, хотира, арт-терапия, «ўзидан кўнгли тўлмаслик комплекси».

## ОБЩИЙ АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

*В данной статье подчёркиваются общие психологические состояния лиц с инвалидностью, психологические проблемы, с которыми они сталкиваются, и актуальность работы над ними. Кроме того, с целью исследования в статье была предпринята попытка научно обосновать психологические состояния, которые люди с ограниченными возможностями испытывали во время интервью.*

**Ключевые слова:** инвалидность, психология, социальная депрессия, эффективность, слух, зрение, память, арт-терапия, “комплекс неудовлетворенности собой”.

## GENERAL ANALYSIS OF THE PSYCHOLOGICAL STATE OF PEOPLE WITH DISABILITIES

*This article emphasizes the general psychological conditions of people with disabilities, the psychological problems they face, and the relevance of working on them. The article also attempts to scientifically substantiate the psychological conditions they reported during interviews with some people with disabilities for the purpose of research.*

**Keywords:** disability, psychology, social anxiety, effectiveness, hearing, vision, memory, art therapy, "inferiority complex".

**Кириш.** Юртимизда ногиронлиги бўлган шахсларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш, уларни жамиятимизнинг тўлақонли аъзоси эканликларини ифода этиш мақсадида турли тадбир ва ислохотлар доимий амалга оширилмоқда. Хусусан, 2017 йил 1 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан "Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармоннинг имзоланиши Давлатимиз томонидан кучли ва манзилли ижтимоий ҳимоя сиёсати олиб борилаётганининг яққол исботидир. Бундан ташқари, мамлакатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида “ногиронлиги бўлган фуқаролар билан ишлашнинг алоҳида тизими жорий этилиши, ногиронликни белгилашнинг жаҳон андозаларига мос “ижтимоий модели”га босқичма босқич ўтилиши, муҳтож аҳолини протез-ортопедия буюмлари ва реабилитация воситалари билан таъминлаш бўйича янги тизим жорий этилиши” зарурлиги ҳақида муҳим вазифалар таъкидланган эди. Шунингдек, Ўзбекистонда инклюзив таълимни ривожлантириш, алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини такомиллаштириш ҳамда уларга кўрсатиладиган таълим хизматлари сифатини яхшилаш мақсадида 2020 - 2025 йилларда халқ таълими тизимида инклюзив таълимни ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилган. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2024 йилнинг 13 декабрь куни ижтимоий ҳимоя соҳасидаги ишлар натижадорлиги ва 2025 йил учун устувор вазифалар муҳокамаси юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишида ҳам имконияти чекланган, ижтимоий муҳофазага муҳтож шахсларга берилаётган ва берилиши керак бўлган эътибор, бу борада кўрилаётган чора тадбирларга тўхталиб

ўтилди. Шуларга кўра, жамиятдаги у ёки бу ногиронликка эга, имконияти чекланган шахслар ҳар томонлама қўллаб қувватланишга, эътиборга ва шунингдек, ҳақ-ҳуқуқларга эгадир. Имконияти чекланган инсоннинг атрофидаги одамлар билан муносабатларининг муваффақияти унга муҳим таъсир кўрсатади. Инсон ўзини қулай ҳис қилиши керак. Шахснинг муайян вақтдаги ҳолатини ҳисобга олиш муҳимдир. Муаммога эга инсоннинг руҳий ҳолатини ўрганиш, ижобий вазиятларни юзага келтириш учун, айниқса, муҳим роль ўйнайди. Шу нуқтаи назардан, ногиронликнинг у ёки бу кўринишига эга шахсларнинг психологик ҳолатини ўрганиш, улар устида изланиш олиб бориш ногиронлиги бор шахслар учраши мумкин бўлган муаммоларни ечишда, шунингдек, уларнинг жамият билан бир бутунлашувига, қолаверса ижтимоий мослашувига ҳам ижобий фойда беради.

**Методология.** Автор мақолада Э.Эриксон, А. Бандура, Л.С.Выготский ва бошқаларнинг шахс психологиясига оид ишларига мурожат қилади. Шунингдек юртимиз олимларидан Сағатова Ш.Ф., Рашидов О.С., каби тадқиқотчиларнинг ногиронликка эга шахсларнинг умумий ҳолатлари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақидаги ишларга мурожат қилган.

Ҳар бир шахс аввало ўзлигини ҳис қилаолиши унинг руҳиятида муҳим ўрин тутиш сир эмас. Э.Эриксонга кўра, идентификация бизнинг ўзлимизнинг ижтимоийлашган қисмидир. Ҳар бир жамият ўзига хосликларнинг репертуаридир: бола, ота, онанинг шахсиятидан тортиб, профессионал, сиёсий ва бошқа хусусиятларгача. Баъзи кўринмас лотерея уларни турли шахсларга таркатади ва тайинлайди. Улардан баъзилари бизга туғилишдан бошлаб фақат бир оз ўзгарган (жинс, ирк) ҳолатда буюрилган; бошқалар кейинроқ, ўз ихтиёри билан тадбиркор, фермер ёки муҳандис, солиқ тўловчи ёки жиноятчига ва бошқа кўринишдаги шахсият билан дуч келади. Биз уларни шундай қилиб бизни белгилайдиган ва идентификация қиладиган бошқалар билан муносабатларда қабул қиламиз. Шахсни бошқалар тасдиқлаган тақдирдагина, бу шахснинг ўзи учун ҳақиқийдир [3,с-12]. Шу фикрга таянадиган бўлсак, ногиронлиги бор талабанинг психологияси билан ишлашдаги энг муҳим жиҳат бу аввало унинг ўзлигини ҳис қилишига ёрдам бериш экан.

А. Бандуранинг таъкидлашича, шахс самарадорлиги тўсиқлар ва нохуш тажрибалар юзага келганда шахснинг ўз ҳаракатларидаги қатъиятлилигини белгилайди ва қийинчиликларни енгиш ҳаракатларига таъсир қилади. Унинг фикрича, шахс самарадорлиги инсон хатти-ҳаракатининг марказий ва муҳим ҳал қилувчи омили бўлиб, инсоннинг ҳақиқий ҳаракатларини тўғри тахмин қилиш имконини беради. Унинг ижтимоий когнитив таълим назариясида ўз-ўзини самарадорлиги когнитив, мотивацион, аффектив ва физиологик жараёнлар орқали инсон хатти-ҳаракати ва унинг натижаларига таъсир қилувчи муҳим омил сифатида тақдим этилади. Шунга кўра, шахс самарадорлигига эришиш ногиронликка эга талаба руҳияти билан ишлашдаги навбатдаги вазифадир.

Л. С. Выготский кўра, нуқсон билан мураккаблашган ривожланишда мутахассислар дуч келадиган асосий факт - бу ривожланиш жараёнида ва боланинг шахсиятини шакллантиришда органик нуқсоннинг икки томонлама роли. Бир томондан, нуқсон - бу минус, чеклаш, заифлик, ривожланишнинг пасайиши; бошқа томондан, айнан қийинчиликларни келтириб чиқарганлиги сабабли, у ортиб бораётган, кучайган олдинга ҳаракатни рағбатлантиради [5.с-3]. Шунга кўра, ҳар қандай дефект бошқа бир маълум ривожланишга туртки бўлади.

О.Рашидовнинг фикрига кўра, таълим-тарбия тизимини ҳар бир миллат ва элатнинг ўзига хос томонлари, миллий анъаналари, урф-одатлари, давлатнинг мақсад ва вазифалари ҳамда тарбияланувчиларнинг руҳий ва жисмоний ривожланишидаги хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Имконияти чекланган болаларда катталар боланинг раъйига, мустақил бўлишига қарши турмасдан, имкон қадар истак ва интилишларига ёрдам берсалар, унинг шахсини шакллантириш жараёнидаги қийинчиликлар ўз-ўзидан барҳам топади. Имконияти чекланган болада ўжарлик, қайсарлик, итоатсизлик хусусиятлари пайдо бўлиши катталарнинг ҳаддан ташқари пайпаслаганликлари оқибатида юзага келади [6]. Шунга кўра, алоҳида таълимга эҳтиёжи бор болаларнинг руҳиятини ижобий шакллантиришга катталар, ота-оналар ва тарбиячиларнинг тўғри ёндашуви муҳим роль ўйнайди.

Ш.Сағатованинг фикрига кўра, оилада ривожланишида нуқсонли бўлган фарзанд дунёга келиши биланоқ оиладаги психологик муҳит, шахслараро муносабатлар, кадриятлар ўзгариши, умуман олганда оиланинг ичкаридан емирилиши кузатилади ва бу ҳолат бевосита нуқсонли боланинг жисмоний ва ақлий ривожланишига салбий таъсирини кўрсатмай қолмайди [7]. Бундан ташқари, кўплаб оилалар бор, ногирон фарзандини рўйхатдан ўтказишни истамайди. Бюрократик тўсиқлар дейишади ёки андиша қилишади. Чунки жамиятимизда камситиш бор. Таълим олишда ҳам бирор оила фарзандига ногиронлик гуруҳи белгиланмаган, расман рўйхатдан ўтмаган бўлса, махсус интернатга жойлашишида муаммо бўлиши, яна ногиронлик нафақасини ҳам олмаслиги мумкин. Шунга кўра, айтишимиз мумкинки, жамият учун нафақат ногиронликка эга шахсга нисбатан ёрдам



чора-тадбирлари, психологик кўллаб қувватлашлар балки унинг ота-онаси учун ҳам керакли кўмак чоралари айнан зарур.

**Асосий қисм.** Инсон ҳаёти жуда нозик. Ҳаёт жараёнида ҳар бир фуқаро унинг соғлиғи ва меҳнат қобилиятига бевосита таъсир кўрсатиши мумкин бўлган турли хавфлар билан юзма-юз келиши мумкин. Бу хавфлар қаторига туғилишдан оқ ногиронликка эга бўлиш ёки бирор бир бахтсиз ҳодиса туфайли ногиронлик орттиришни киргизишимиз мумкин. Кўпгина ҳолларда, инсон ўз-ўзидан бу ҳолатларни енга олмайди, чунки улар асосан объектив ижтимоий-иктисодий ҳаёт шароитлари билан белгиланади. Яқин вақтгача ногиронлик психологияси ҳақидаги ғоялар фақат ногирон бўлмаганлар ва деярли ҳар доим реабилитация ёки тиббий муассасаларда томонидан яратилган. Умуман олганда, ногиронлик психологиясининг ушбу таржимонлари ногирон катталар ёки кўпинча ногирон болалар ва уларнинг қобилиятли ота-оналари билан ишлайдиган меҳнатга лаёқатли амалиётчилар (шифокорлар ёки терапевтлар) бўлган. Ногирон одамга ўзини сизга қарам эканлигини ҳис қилмаслигига ҳаракат қилиш керак. У билан тенг ҳуқуқли мулоқот қилиш муҳим, лекин шу билан бирга унга зарур амалий ёрдам кўрсатиш нутқ ва нутқ ўртасидаги алоқалар тизимини шакллантиришга олиб келади. Унинг хусусиятларига ҳаддан ташқари қизиқиш кўрсатиш, шунингдек, ҳамдардлик унинг мулоқотга бўлган қизиқишини камайтириши мумкин. Шунини ёдда тутиш керакки, ижобий ёрдам бериши мумкин бўлган биринчи вазифа-талаба ўзгариши, ўзини яхши ҳис қилиши ва мустақил бўлишга тайёр бўлиши учун асос яратишдир.

Эшитиш ва кўришда нуқсонли бор инсонларнинг умумий психологик хусусиятларига тўхталиб ўтсак;

*Эшитишда нуқсонга эга инсонларга хос жиҳатлар:*

Эшитиш қобилияти бузилган одамларда эътибор ва идрокнинг ривожланишининг ўзига хос хусусияти хотира фаолиятига сезиларли таъсир қилади. Уларда визуал идрок устунлик қилади, шунинг учун бутун ёдлаш жараёни асосан визуал тасвирларга асосланади эшитадиган одамлар учун эса бу жараён эшитиш-визуал бўлиб, фаол нутққа таянади. Эшитиш бузилиши билан боғлиқ ҳолда, кўриш алоҳида роль ўйнайди, бунинг асосида қар боланинг нутқи ривожланади. Атрофдаги дунёни билиш жараёнида восита, тактил ва тегиниш-вибрацияли ҳислар жуда муҳим аҳамиятга эга. Қар ва заиф эшитадиган одамларнинг хотираси бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга. Тасаввур қилиш нормал эшитиш қобилиятига эга бўлган одамларга қараганда сезиларли даражада кучлироқ ўзгаради. Оғзаки нутқ бузилишлари асосида ёзма нутқнинг бузилиши пайдо бўлиб, у турли хил дисграфиялар ва аграмматизмлар шаклида намоён бўлади. Эшитиш қобилиятини тўлиқ йўқолганда, нутқ фақат махсус тайёргарлик шароитида ва ёрдамчи шакллар - юз ифодалари, имо-ишора тили, бармоқ имлоси, лабдан ўқиш ёрдамида шаклланади. Эшита оладиган одамлар ўзларининг ижтимоий тажрибасининг катта қисмини ўз-ўзидан эгаллайдилар, эшитиш қобилияти заиф одамлар эса бу борада имкониятлар чекланган. Шунинг учун, баъзида мулоқотда қийинчиликлар ва муносабатлардаги ўзига хосликлар, изоляция мавжуд.

*Кўриш қобилияти бузилган одамларнинг психологик хусусиятлари*

Кўриш ташқи дунё ҳақида энг кучли маълумот манбаи ҳисобланади. Ахборотнинг 85-90% мияга визуал анализатор орқали киради ва унинг функцияларининг қисман ёки чуқур бузилиши инсон жисмоний ва ақлий ривожланишда бир қатор оғишларни келтириб чиқаради. Визуал анализатор мураккаб визуал функцияларнинг бажарилишини таъминлайди. Бешта асосий визуал функцияни ажратиш одатий ҳолдир:

- 1) марказий кўриш;
- 2) периферик кўриш;
- 3) бинокуляр кўриш;
- 4) ёруғликни идрок этиш;
- 5) рангни идрок этиш.

Кўришнинг ёмонлиги туфайли беихтиёр эътибор бузилади. Ихтиёрий диққатнинг пасайиши ҳиссий-иродавий соҳанинг бузилишидан келиб чиқади ва диққатнинг паст ҳажми, тартибсизлик, яъни мақсадлилиқнинг йўқлиги, фаолиятнинг бир туридан иккинчисига ўтиш ёки аксинча, диққатни алмаштиришнинг паст даражаси каби нохушликларни келтириб чиқаради. Визуал анализатордаги нуқсонлар, қўзғалиш ва тормозланишнинг асосий жараёнлари ўртасидаги муносабатларни бузади, эса саклаш тезлигига салбий таъсир қилади. Ўрганилган материални тезда унутиш нафақат такрорлашнинг етарли эмаслиги ёки йўқлиги билан эмас балки кўришда нуқсонли бўлган одамлар фақат оғзаки билимларни олишлари мумкин бўлган объектлар ва уларни белгиловчи тушунчаларнинг аҳамиятсизлиги билан ҳам изоҳланади.

Кўриш қобилияти бузилган одамларда оғзаки-мантикий хотиранинг роли кучаяди. Визуал тасвирларнинг ёмон сақланиши ва узоқ муддатли хотира ҳажмининг пасайиши аниқланди. Кўриш қобилияти бузилган одамларнинг барча тоифаларида қисқа муддатли эшитиш хотирасининг ҳажми юқори.

Л.С.Выготскийга кўра, илгари, кўр боланинг бутун ҳаёти ва ривожланиши кўрлик чизиғи бўйлаб қурилади, деб ҳисобланар эди; янги қонунда айтилишича, ривожланиш бу чизикқа зид келади. Агар кўр бўлса, у ҳолда аклий ривожланиш кўрликдан, кўрликка қарши қаратилган бўлади. Шунга кўра, кўзи ожиз талабанинг интелликт жиҳатдан ривожланиши соғлом талабаникидек ва ҳатто уникадан ҳам баланд бўлиши эҳтимоли йўқ эмас [5.с-4]. Визуал функцияларнинг шикастланиш даражасига қараб, идрокнинг яхлитлиги бузилади. Кўзи ожизларда кўриш-мотор-эшитиш идроки устунлик қилади. Улар бир вақтнинг ўзида бир ёки иккита ҳаракатни ёки ҳаракатларнинг алоҳида элементларини идрок эта оладилар. Рангли, контурли ва силует тасвирларини кўриш қобилияти заиф одамлар томонидан таниб олиш жараёни оддий эмас. Барча турдаги тасвирлар ичида рангли расмлар энг осон тан олинади, чунки ранг тасвирлар шаклига қўшимча маълумот беради. Объектнинг шакли қанчалик мураккаб ва геометрик шаклларга қанчалик яқин бўлмаса, улар учун объектни таниб олиш шунчалик қийин бўлади. Контур тасвирларини идрок этишда таниб олишнинг муваффақияти чизикнинг аниқлиги, контрасти ва қалинлигига боғлиқ. Шундай қилиб, болалар 1,5 мм қалинликдаги ва оқ фонда қора рангда чизилган чизикларни энг тез идрок этадилар.

Ногиронликнинг бирор бир кўринишига эга шахсларда хавотир, ташвиш ҳисси бошқалардан юқори бўлади. Психологик луғатда ташвиш инсоннинг тез-тез ва кучли ташвишланишга мойиллигида намоён бўладиган индивидуал психологик хусусият, шунингдек, унинг пайдо бўлишининг паст чегараси ва ёки асабий жараёнларнинг заифлигидан келиб чиқадиган темперамент хусусияти сифатида қаралади [8с-672].

Бир қатор олим ва психологларнинг фикрига кўра, ногирон болаларнинг аксарияти ташвиш ҳиссини бошдан кечиришади, чунки улар жисмоний фаолиятда, ижтимоий алоқаларни ўрнатишда, шунингдек, берилган кўрсатмалар ва буйруқларни нотўғри тушунишда қийинчиликларга дуч келишади. Масалан, церебрал фалажлик бўлган болаларда юқори даражадаги ташвиш чекланган ҳаракатлар ва тез-тез касалхоналарда қолиш билан боғлиқ. Нутқида огир нуқсонлари бўлган болалар ҳам оғзаки нутқни тушунмасликлари ва ўз фикрларини ифода этишда қийинчиликларга дуч келишлари сабабли кўпроқ ташвишланадилар. Кўриш қобилияти бузилган болаларда ташвиш кўпинча турли кўрқувларнинг намоён бўлиши (номаълум кўрқув, нотаниш бўшлиқдан кўрқиш ва бошқалар), атрофдаги одамлар билан шахслараро муносабатларнинг бузилиши билан боғлиқ. Қар ва эшитиш қобилияти заиф болалар турли ижтимоий вазиятларда ташвишланишади. Аклий ривожланишида нуқсонли бўлган болалар мотивациясиз ташвиш ҳолатлари билан ажралиб туради [9-с-528]. Психологияда безовталикни тузатишнинг энг самарали усуллари арт-терапиянинг турли турлари, масалан, арт-терапия, эртақ терапияси, ўйин терапияси ва бошқалар деб эътироф этилади. Арт-терапия - бу асаб ва руҳий касалликларни санъат ва ўз-ўзини санъатда ифодалаш орқали даволаш усулидир. Бу ижодкорлик даврида бола ўз кўрқувини, комплексларини, тажрибаларини энгиб, бошқалар билан муносабатларни ўрнатади. Бирор бир ногиронликка эга ёш шахсларнинг ҳали тўлиқ ривожланмаган психикаси учун бутун жараён нозик ва оғриқсиз содир бўлади. Шундай қилиб, бола бўшашади, тинчланади ва шунинг учун ички уйғунликка эришади.

Ногиронликнинг бирор кўринишига айрим шахсларда учрайдиган яна бир психологик ҳолат- ёлғизлик туйғусидир. Ҳиссий изоляциядан келиб чиқадиган ёлғизлик маълум бир шахсга боғлиқлик йўқлиги ёки одам ўз ҳис-туйғуларини воқеа хотирасидан ажратиб, бошқалар билан яқин муносабатларга қодир бўлмаганлиги сабабли юзага келади. Ёлғизлик ҳолатини бартараф этиш узоқ муддатли жараён бўлиб, у инсоннинг психологик эҳтиёжлар ҳолатини ўзгартириш истаги билан боғлиқ. Тадқиқот давомида Тошкент шаҳар «ШАРОИТ ПЛЮС» ногиронлар жамоат бирлашмаси (ННТ) аъзолари билан суҳбат ўтказдик. Суҳбат давомида бирлашма раиси М.Раҳимова (52 ёш, I-гуруҳ ногирони) ўз кечинмалари билан ўртоқлашди.

«Жисмоний ногиронлигим туфайли мактабга бора олмаганман, ота-онамнинг мени мен каби тенгдошларим бор бўлиши мумкин бўлган тўғарак ёки клубларга олиб боришга имкониятлари бўлмаганлиги сабабли уйда ўтиришга мажбур эдим. Ўша даврлардан энг ёдимдан чиқмайдиган туйғу – бу менинг бутунлай ёлғизлигим эди. Дунёда мендек инсонлар бошқа бўлмаса керак, деб ўйлардим», эслайди Муҳаббат опа. Кейинчалик, ногиронлик ташкилотига аъзо бўлиб, ўзи сингари одамлар билан мулоқот қила бошлаганида ҳам ўша изоляция туйғуси кўп ҳолларда жамоадошлари билан ижтимоийлашувида салбий таъсирини кўрсатганини таъкидлайди қаҳрамонимиз.

Кейинги муҳим ижтимоий-психологик муаммо - бу ижтимоий тушкунлик муаммоси. Фрустрация (лотинча фрустратио - алдаш, беҳуда кутиш) эҳтиёж ёки истакни қондира олмаслик натижасида юзага келадиган руҳий ҳолат. Бу зиддиятли вазиятда, масалан, эҳтиёжни қондириш энгиб бўлмайдиган ёки энгиб ўтиш қийин бўлган тўсиқларга дуч келганда ва турли хил салбий тажрибалар умидсизлик, асабийлашиш, ташвиш ва бошқалар билан бирга келганда пайдо бўлади. Навбатдаги қахрамонимиз М.Эгамов(27 ёш, I-гурӯх ногирони) айтишича, токи ўз жамоадошларига келиб қўшилгунча бўлган руҳий ҳолати -тушкунлик бўлган ва бу муаммо уни ҳали ҳам безовта қилади. « Жисмоний ҳолатим туфайли мен доимо тиззада юришга мажбурман. Соғлом тенгдошларимни кўрганимда уларга ҳавас қиламан. Шу ҳолатимни борича қабул қилсамда, ёшим ўтган сари тиззада юриб ҳаракат қилиш қийинлашишини ўйлаб тушкунликка тушаман», дейди қахрамонимиз.

Ногиронлик ҳолати деструктив хусусиятга эга. Чекланган ҳаётий фаолият ва келажакка нисбатан ноаниқлик ногирон одамни умидсизликка солади ва кўпинча ақлий кучнинг тугаб боришига олиб келади. Баъзилар ҳамма нарсада ўзларини айблашади, бошқалари ташқи шароитларни айблайдилар, бошқалари умидсизлик ҳолатига чидашади, бошқалари эса бу ҳолатларга фаол таъсир кўрсатишга тайёр, уларни ўзгартиришни хоҳлайди.

Сухбатдошларимиз орасида кўриш фаолияти бўйича муаммоси бўлган талаба қиз-М.Жўрабоева(22 ёш, II-гурӯх ногирони). Тиббиёт соҳасида таълим олаётган М ўз муаммоларига қарамай, ҳаётда ўз ўрнини топишга қаттиқ ҳаракат қилади. Соғлом тенгдошларидан ортда қолмаслик-унинг энг муҳим мақсади, нуфузли олий ўқув юрти талабаси бўлишга эришган, инглиз тилида гаплашаолади. Саволларга жавоб бериш давомида қизнинг кайфияти жуда тез ўзгаришини ҳам сезиш мумкин бўлди. Ҳиссий жиҳатдан беқарорлик унинг маълум тиббий аҳволининг натижаси эканлигига ўзи ҳам иқрор бўлди. У баланд овозда, тез-тез гапириши, кўп қувноқ кўринишга ҳаракат қилиш орқали ўзи билан доим ҳамроҳ бўлувчи тушкунликни беркитишга уриниши маълум бўлди. Қизимизнинг ўзидан кўнгли тўлмаслиги ортидан ўзини мукамалликка ундаш туйғуси фанда А.Адлер томондан илгари сурилган «ўзидан кўнгли тўлмаслик комплекси»да аксини топган. Адлер бу ҳиссий ҳолат ўз-ўзини такомиллаштириш учун фойдали деб ҳисоблаган. Адлернинг таъкидлашича, ўзидан кўнгли тўлмаслик ҳисси инсонни устунлик ва муваффақиятга интилишга ундайди[10].

Шу каби таҳлиллардан келиб чиқиб, ногиронликнинг бирор бир кўринишига эга шахсларга таълим берувчи ўқитувчиларга

#### **Тавсиялар.**

*Эшитишда нуқсонга эга инсонларни ўқитишда:*

Ҳар қандай саволни тушунтириб бўлгач, қисқа пауза қилишга ҳаракат қилиш;. Тасвирий материалдан иложи борича кенгроқ фойдаланинг;

Эшитиш қобилияти паст талаба билан гаплашаётганда доимо унинг юзига қараш;

Сухбатдошингизга дўстона муносабатда бўлиш, нутқингизни тушунмасликдан норозилигингизни ёки ғазабингизни кўрсатмаслик;

Сухбат ёки дарс давомида унга тез ёрдам бериш усулларини ўзлаштириш: - иборани бир хил сўз тартиби билан секинроқ суръатда такрорлаш;

Маърузаларни видеога ёзиб олиш, экрандаги сарлавҳалардан (титрлардан) фойдаланиш, компьютер ўқув дастурлари ёрдамида слайдлар ва ленталарни намойиш қилиш; Шунингдек, улар компьютер экранда ҳодисалар содир бўлганда матнли хабарлар ва ёруғлик сигналлари билан бирга бўлиши мумкин. Бундан ташқари, эшитиш қобилияти заиф талабалар овозни кучайтириш учун эшитиш воситаларидан фойдаланишлари мумкин.

*Кўриш қобилияти бузилган инсонларни ўқитишда:*

Кўришда нуқсонли бўлган ўқувчининг иш жойи биринчи ёки иккинчи қаторда жойлашган бўлиши керак. Қўшимча ёритиш билан жиҳозланган бўлиши мақсадга мувофиқ.Бундай талаба билан ишлайдиган ўқитувчига хонада ёруғликка ёки деразага қарши турмаслик тавсия этилади. Кўриш қобилияти заиф одамларнинг иш тезлиги секинроқ бўлгани учун, вазифаларни бажариш учун кўпроқ вақт берилиши керак.(айниқса ёзма вазифаларга). Тасвирий материал катта бўлиши керак, ранги, контури, силуети аниқ кўриниб туриши ва табиий ўлчамларга мос келиши керак. Вазифаларни бажариш учун ажратилган вақтни ошириш керак.

**Хулоса.** Ҳар бир инсон ҳурмат ва далдага муҳтож. Ногиронликнинг мавжудлиги, унинг қанчалик жиддий кўриниши бўлмасин, бу асосий ҳуқуқларни ўзгартирмайди. Инсонлар катта ёки кичик ва қанча вақт ёки қисқа умр кўришидан қатъи назар ўз ҳаётини бойитиш ва ўз қобилиятларини ривожлантириш ҳуқуқига эга. Инсон ўзини камситишга ёки умиддан воз кечишга олиб келмаслиги керак. Инсон унутилган ва маҳрум бўлиб қолмаслиги керак. Муайян ногиронлик бўйича одамларни

гурухлаш улар ҳақида стереотипли хулосалар чиқаришга сабаб бўлмаслиги керак. Худди шу ёки шунга ўхшаш ногиронлиги бўлган шахсларнинг эҳтиёжлари, қобилиятлари ва шароитларидаги фарқлар диверсификацияни талаб қилади. Бу борада, энг аввало, уларнинг руҳий ҳолати устида ишлаш ижобий натижаларни беради. Шунга кўра, ногиронликка эга шахслар ва уларнинг ота-оналар учун махсус психологик ёрдам кўрсатиш тармоқлари ташкил этилиши, мавжудларини сифат жиҳатдан такомиллаштириш зарур, деб ҳисоблаймиз. Бундан ташқари жамоатчилик ҳамкорлиги бошқа соҳа вакиллари ҳам бу муаммога алоҳида эътибор қаратмоқлари лозим. Хусусан, давлат ва нодавлат ташкилотлари фаоллиги ногиронларга оид вазифаларини бажаришда норматив ҳужжатларни қабул қилинишида алоҳида эътибор билан қарашлари, ўз фикр- мулоҳаза ва тавсияларини бермоқликлари лозим десак, тўғри бўлади. Бунинг учун ногиронларга ажратиладиган маблағлар, ижтимоий грант лойиҳалари ва бошқа ҳомийлар ёрдамидаги молиялаштириладиган суммаларни мақсадли йўналтириш ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий мослашувидан ташқари ҳаётдаги психологик муаммоларини ижобий ҳал бўлишида ҳам аҳамиятга эгадир. Шундагина қилинадиган ишларнинг ўз натижаси, маҳсулини кўришимиз мумкин. Бундан ташқари, ногиронликка эга шахсларнинг руҳий ҳолати устида бажарилган тадқиқотлар юртимизда мавжуд бўлса-да, етарли бўлмаганлиги сабаб, кўплаб изланишлар олиб борилиши мақсадга мувофиқдир.

#### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони, 2017 йил 1 декабрь // [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <https://lex.uz/docs/3436192> (мурожаат санаси: 06.01.2025).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 24 январь 2020 йил // "Халқ сўзи", 2020 йил 25 январь. №19 (7521)
3. Эрик Г. Эриксон - Молодой Лютер. Психоаналитическое историческое исследование. Московский философский фонд «МЕДИУМ», Москва 1996 г. – 507 с.
4. Бандура А., Теория социального научения. – СПб.: Евразия, 2000
5. Выготский, Л. С. Основы дефектологии Часть первая. Общие вопросы дефектологии / Л. С. Выготский.- Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 332 с. — (Антология мысли). — ISBN 978-5-534-11695-3.
6. Сагатов Ш.Ф. Ногирон фарзанди бор оилалар психологик фаровонлигининг ўрганилиш тарихи // Заонавий таълим / Современное образование 2022, 12 (121) ЎЎК: 159.96 DOI: 10.34920/SO/VOL\_2022\_ISSUE\_12\_
7. Большой психологический словарь / под ред. Б. Г. Мещерякова, В. П. Зинченко. М.: Прайм-Еврознак, 2003. 672 с.
8. Каплан Г. И., Сэдок Б. Дж. Клиническая психиатрия: пер. с англ.: в 2 т. М.: Медицина, 1998. Т. 2. 528 с
9. Сухарев П.Л. Психология Альфреда Адлера [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: <https://www.b17.ru/article/448917/?ysclid=%20m656dwtuqnt130399151> (мурожаат санаси: 10.01.2025).

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И НАУЧНЫЕ МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИОННОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Садикова Азиза Хаитовна,*

*Университет Зармеда, Преподаватель кафедры общественных наук,  
доктор философии по педагогическим наукам  
azizasodiqova@296gmail.com*

*Основная цель интегрированного образования в системе начального образования – обеспечить непрерывное образование молодого поколения, оказать ему педагогическую поддержку, привить в сознание учащихся идею и идеологию национальной независимости, дать молодым людям широкое представление о природе и общества состоит из последовательного участия в создании педагогических основ для развития обширных знаний, навыков и компетенций.*

*При этом решающее значение имеет характеристика интегративного характера педагогики, которая представляет собой целостную связь педагогики с другими дисциплинами. Интеграционный курс – один из учебных предметов, который изучается с целью углубления и приумножения междисциплинарных знаний (интегративных знаний), а также их формирования. Он создается на основе различных типов, методов, стилей, объектов междисциплинарной интеграции.*

**Ключевые слова:** *Интеграция, образование, образование, качество образования, потенциал, профессиональное образование, интегрированная система, формы и виды образования, элементы начального образования.*

### INTEGRATION IS AN IMPORTANT PRINCIPLE OF FACILITATING THE EDUCATIONAL PROCESS

*The main goal of integrated education in primary education is to provide continuous education to the young generation, to provide them with pedagogical support, to inculcate the idea and ideology of national independence in the minds of students, to give young people a broad understanding of nature and society. consists of consistent engagement with the creation of pedagogical foundations for the development of extensive knowledge, skills and competences.*

*In this case, the characteristic of integrative nature of pedagogy, which represents the integral connection of pedagogy with other disciplines, is of crucial importance. The integration course is one of the educational subjects, which is studied to deepen and increase interdisciplinary knowledge (integrative knowledge), and to form it. It is created on the basis of various types, methods, styles, objects of interdisciplinary integration.*

**Key words:** *Integration, education, education, quality of education, potential, professional education, integrated system, forms and types of education, elements of primary education.*

### BASHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATSION YONDORISHINI TADQIQ QILISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA ILMIY USULLARI

*Boshlang‘ich ta‘lim tizimida integratsiyalashgan ta‘limning asosiy maqsadi yosh avlodning uzluksiz bilim olishini ta‘minlash, ularni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilar ongiga milliy istiqloq g‘oyasi va mafkurasini singdirish, yoshlarga bilim berishdan iborat tabiatning keng ko‘rinishi. jamiyat esa keng bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratishda izchil ishtirok etishdan iboratdir.*

*Shu bilan birga, pedagogikaning boshqa fanlar bilan yaxlit aloqasini ifodalovchi pedagogikaning integrativ xususiyatining xarakteristikasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Integratsiya kursi chuqurlashtirish va oshirish maqsadida o‘rganiladigan o‘quv fanlaridan biridir fanlararo bilimlar (integratsion bilimlar), shuningdek, uning shakllanishi. U fanlararo integratsiyaning har xil turlari, usullari, uslublari, ob‘ektlari asosida yaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Integratsiya, ta‘lim, ta‘lim, ta‘lim sifati, salohiyat, kasb-hunar ta‘limi, yaxlit tizim, ta‘lim shakllari va turlari, boshlang‘ich ta‘lim elementlari.*

*Общее понимание теоретических основ интеграции в образовательном процессе. В период перехода на новые учебные планы и программы, реализуемые в нашей стране, большое значение*

приобретают вопросы гармонизации взаимоотношений общества и окружающей среды, становления и формирования серьезного отношения к окружающей среде. Главным вопросом такого обновления является определение целей, соответствующих возрастным особенностям учащихся начальной школы и отвечающих требованиям урока. Ряд работ в процессе урока начального образования посвящен межпредметным связям. Интеграция этих дисциплин рассматривалась в трудах узбекских ученых Р. Мавлоновой, К. Абдуллаевой, Н. У. Бекбоевой, А. Г. Григорьяна. Давайте рассмотрим, что означает термин «интеграция» как явление с методологической точки зрения.

Слово «интеграция» происходит от латинского *integratio* - восстановление, завершение и «*integer*» - целый. С педагогической точки зрения интеграция делится на разные уровни. В педагогике связность, интересубъективность и взаимосвязь трактуются на уровне интегративной релевантности. Органичность - подразумевает, что приобретенные знания, навыки и компетенции постепенно расширяются, углубляются и совершенствуются. Интересубъективная релевантность по своей природе является широким понятием, подразумевающим всестороннее раскрытие различных сторон и характеристик изучаемого объекта.

Взаимосвязь - по сути, представляет собой связь между двумя предметами, то есть применение знаний и способов действия, полученных в первом предмете, во втором, и наоборот.

Интегративная связность - это связность относительно высокого уровня, которая отличается от ранее упомянутых тем, что она целенаправленно включена в учебную программу и, безусловно, требует ее обеспечения. В результате системное и глубокое знание объекта позволяет формировать методы работы. В любом обществе цель педагогической системы определяется исходя из требований, которые общество предъявляет к формированию личности, а также система может меняться в зависимости от требований общества. На основе обширных исследований В. Р. Беспалько выделяет 6 взаимосвязанных элементов педагогической системы. Если представить себе традиционные уроки, то учитель прекрасно объясняет тему, а вопросы и ответы организованы интересным образом внутри темы. На следующем уроке ученики пытаются говорить как учитель, перечитывая тему из книги и подробно объясняя ее. Задаваемые вопросы также будут в основном соответствовать данной теме. Журналы заполнены «пятерками». Через некоторое время, когда ученика спросят о теме, ему будет трудно ее назвать. Результат поверхностного запоминания приводит к таким абстрактным ситуациям. Например, есть учителя, которые тратят больше половины 45-минутного урока на переписывание текстов из учебников. Сегодняшние уроки побуждают учащихся мыслить самостоятельно, дискутировать, анализировать себя и применять полученные знания на практике. Это должно способствовать развитию мышления ребенка. 2. Необходимость интеграции начального образования.

Интегративный означает «целостный», поэтому он рассматривается как объединение различных частей и элементов процесса интеллектуального развития в единое целое. Интеграция - это не механическое объединение наук, это синтез, возникновение чего-то нового, открытие. Это слияние, соединение и создание единого нового из отдельных систем.

Сегодня невозможно найти ни в одном словаре ни одного слова о методологическом значении интегративности. Но значение слова «интеграция» всем нам хорошо известно. И. Кололожвари, Л. Сеченникова в статье «Как организовать интегративные уроки?» описывают методическую сущность интегративного обучения. В своей статье под названием «...в результате четырехлетнего изучения возможностей интегрированных уроков мы убедились, что у этой методики большое будущее. По его словам, у учащихся появляется возможность сформировать более полную и целостную картину окружающего мира. У детей появится возможность активнее применять полученные знания на практике, ведь это позволит им полнее познать суть знаний и представить мир в целом. «Передавая знания по предмету, учитель обогащает и дополняет их, сравнивая с информацией по другим предметам».

Интегрированная система представляет собой оценку как качества общего образования, так и всех его компонентов в отдельности. Чем точнее построена оценка и чем больше характеристик учтено, тем успешнее может быть управление качеством образования. В свою очередь, управление зависит от его методологии и организации, описывающих его цели и методы их достижения, функции, полномочия и ответственность за качество образования. Существует международный опыт управления качеством, который представлен системой всеобщего (тотального) управления качеством TQM. Данную систему можно использовать, но только с учетом специфики образовательных процессов и условий российского хозяйствования. Система управления качеством может иметь формальную и неформальную основу. Первая определяет комплекс обязательных нормативных правовых актов и стандартов, вторая - социально-психологическое отношение работников к вопросам

качества, атмосферу творчества и инициативы. Качество необходимо не только требовать и контролировать, но и мотивировать.

Систему управления качеством образования невозможно внедрить в одночасье. Он формируется последовательно, постепенно, по программе становления и развития. Чтобы понять качество образования, важно учитывать существование трех уровней знаний. Управление качеством может быть сосредоточено на одном из этих уровней, и в этом случае оценка качества должна это учитывать.

Вы можете освоить конкретную тему на уровне общего понимания ее основных правил. В подготовке любого специалиста могут быть такие предметы, которые необходимо знать на уровне общего понимания. И эти предметы надо знать и они должны занимать определенное место в учебной программе. Их не следует считать второстепенными или необязательными. Они играют роль специалистов по профессиональному развитию. Но их объем и методы обучения должны учитывать именно эту роль - профессиональный кругозор, основу для лучшего усвоения других дисциплин, системность знаний. Второй уровень знаний - глубокое овладение наукой, умение трансформировать знания в различные области знания и практики. Это уровень системологии знаний, позволяющий объяснять и прогнозировать явления и события, понимать причины и следствия явлений.

В профессиональном образовании предметами среднего знания являются фундаментальные науки, причем не только фундаментальные науки общего профессионального образования, но и фундаментальные науки других циклов, в частности, гуманитарного цикла образования (для экономических специальностей), менеджмент - образование) или естественнонаучная подготовка для технических специальностей. Уровни образования определяются не только содержанием учебных предметов, но и образовательными технологиями, методами их преподавания, использованием информации и т. д. Но это необходимо учитывать при рассмотрении и формулировании роли отдельных дисциплин в обеспечении определенного уровня подготовки. Третий уровень профессиональной подготовки отражает формирование устойчивого профессионального сознания, отражающего способность к творческой деятельности на основе полученных знаний. Это навыки эффективной профессиональной деятельности - проектирования, рационального использования, утилизации ресурсов, учета объективных факторов и т. д. Этот уровень профессиональной подготовки характеризуется системой профессиональных ценностей, определяющих социальное бытие человека, все параметры его деятельности. Он формируется под влиянием всех факторов образовательного процесса.

Это не просто особый уровень подготовки, как может показаться. Это конечное качество всего образовательного процесса, которое определяется не только содержанием учебных предметов, но и всей концепцией образования. Уровень профессиональной подготовки характеризуется высоким качеством образования. Чем выше уровень знаний, тем выше качество образования. Но зависимость не линейная, а спиральная. При общей тенденции повышения уровня образования качество образования может снижаться, и наоборот, на некоторых этапах его развития рост качества образования может не соответствовать росту уровня образования. образование. В целом этапы изменения уровня знаний и качества образования можно определить как движение от элементарных знаний к творческим, то есть знаниям, способным создавать новые знания в процессе профессиональной деятельности. Творческое образование - это воспитательное воздействие практической профессиональной деятельности человека, которое преодолевает массу критических знаний и преобразует их в творчество. Именно так должна выглядеть тенденция изменения качества образования, именно так должна проявляться зависимость уровня знаний от качества знаний и, в целом, качества образования. Качество образования отражает сегодняшние требования, но может быть ориентировано и на будущее. Необходимо обеспечить качество, учитывая как современные особенности и потребности образования, так и тенденции развития образования, в которых наиболее ярко проявляется будущее образования.

Состав и система факторов, влияющих на формирование качества образования. Основные параметры качества образования отражают сумму факторов, влияющих на формирование качества, а также масштабы и особенности влияния этих факторов, их взаимодействие между собой. Основными факторами качества образования являются цель и потенциал образования. Первая отражает общественное мнение о том, какое образование можно считать идеальным, удовлетворяющим не только образовательные потребности сегодняшнего дня, но и завтрашнего дня. Цель отражает тенденцию развития образовательных потребностей и пронизывает всю систему образования, проявляясь не только в государственной политике, но и в поведении каждого участника

образовательного процесса. Второй фактор - образовательный потенциал - характеризует возможности достижения цели с точки зрения ресурсов и объективных условий.

Эти факторы являются внешними и внутренними по отношению к конкретной образовательной организации. И цель, и потенциал существуют как для образования в целом, так и для каждой организации в отдельности. Но иные факторы, формирующие качество образования, можно разделить на две группы - внешние и внутренние. К первой относятся: государственное управление образованием (деятельность Министерства образования и науки), организационно-правовое обеспечение образования (Закон «Об образовании», Государственные образовательные стандарты и т.д.), система финансирования образования, проявление образовательных потребностей и воспитание. общественное мнение о качестве образования. Вторая группа факторов – внутренние – включает в себя состав преподавателей и обучающихся, материально-техническое обеспечение образовательного процесса, информационно-методическое обеспечение, образовательные технологии и воспитательную работу. Особую роль играет специализированная система управления качеством (если таковая имеется) и программа обучения. В конечном итоге эти факторы определяют качество образования и как системы, и как процесса его получения и предоставления, а также качество образовательного результата. При этом все факторы имеют свои особенности, о качестве каждого из них можно говорить отдельно. Управление качеством образования заключается не только в достижении определенного его уровня, но и в обеспечении положительной динамики его изменения. Во всех современных разработках в области качества образования основное внимание уделяется достижению определенного уровня образования. Однако в процессе общественного развития меняются потребности и условия образования, а вслед за ними должны меняться и требования к качеству, и критерии его оценки. Динамика качества образования может быть различной. Он может характеризоваться стабильностью, которая является стабильной или нестабильной, или резким или постепенным снижением или повышением качества, или различными колебаниями.

Эти тенденции различаются по направлению, темпу и ритму изменений. Качество образования необходимо повышать. Но понимания этого недостаточно. Каких тенденций можно и нужно избегать для повышения качества образования: Постепенная, колеблющаяся тенденция повышения качества образования. Он состоит из двух последовательных логистических кривых. В этой тенденции наступил переломный момент, этап, который можно назвать качественным скачком. Это определяется существенными изменениями во внешней среде и управлении качеством: внедрением новой системы и механизма управления, достижением научно-технического прогресса, успешным реформированием образования, накоплением критической массы в использовании всех качеств. Факторы улучшения. Но тип вибрации может быть разным. Фаза существенного роста качества сменяется фазой его спада, а затем фазой некоторой стабилизации.

Данная тенденция характеризует возможные неудачи в реформировании образования или негативные изменения внешней среды (недостаточное финансирование, недостаточная оценка роли образования в развитии общества и т. д.). Снижение качества может быть значительным или незначительным, устойчивым или эпизодическим. Очевидно, что современная реформа образования характеризуется этой тенденцией. Также наблюдается тенденция постоянного снижения качества образования. Это тенденция деструктивных изменений в системе образования. Этого следует избегать. В нем, как правило, описываются грубые ошибки в его управлении и реформировании. Качество образования может находиться на стабильном уровне в течение длительного времени. Этот уровень будет сохранен, но не увеличен.

В этом случае система образования работает хорошо, но совершенно не развивается, потому что развитие - это всегда приобретение нового качества. Но поскольку общественные потребности в качестве образования возрастают, иначе и быть не может, эта тенденция становится тенденцией к снижению качества образования. При таком изменении темпов роста наблюдается тенденция к последовательному и устойчивому повышению качества образования. Эта тенденция характеризуется логистической кривой достаточно длительного периода. При управлении качеством образования менеджмент всегда должен быть полностью уверен в том, к какой тенденции он движется, и должен быть контроль за динамикой качества образования. Для обеспечения положительной динамики качества образования необходимо знать, какие факторы определяют динамику, какие факторы влияют на изменения, происходящие в образовании. Главным фактором здесь являются законы развития образования. Учет закономерностей процессов управления образованием позволяет выявить и реализовать положительную тенденцию. Это ключевой фактор, определяющий другие факторы, имеющие решающее значение для понимания динамики качества образования.



Цель и стратегия развития образования отражают возможности и реалии использования законов. Неясное видение цели, неопределенность, а порой и отсутствие стратегии порождают блуждание в темноте и не позволяют добиться устойчивого и последовательного повышения качества образования, что приводит к пустой трате времени. Цели и стратегии требуют и в определенной степени влияют на концепцию качества образования. Понятие качества включает в себя образовательную парадигму, критерии ее оценки и требования безопасности. Трудно представить динамику качества образования без его содержательной составляющей. Образовательный контент должен быть ориентирован на качественную динамику.

Это находит отражение в структуре учебных предметов, методах обучения (предоставление знаний не в готовом виде, а в развитии), образовательных технологиях, педагогических приемах. Организация образования также характеризует динамику качества. Например, уровни образования должны отражать рост качества образования не только с точки зрения уровня знаний, но и с точки зрения содержательных и организационных параметров.

Организация образования представляет собой совокупность правил, стандартов, требований, ограничений, документов и т. д. Управление качеством может также отражать статическое или динамическое качество параметров системы управления, механизма и технологии. Сегодня управление качеством является важным требованием. Динамика качества, возможности его повышения определяются также социально-экономическими условиями образовательных процессов. К социальным условиям относятся: господствующие в обществе образовательные ценности, масштабы спроса на образованных людей вообще и специалистов в частности, состояние образования и отношение к нему в обществе.

#### Литература:

1. Modern equipment of laboratory rooms on the subject of technology. AN Sodiqova Theoretical & Applied Science, 659-662.
2. Improving the methodology of using digital technologies in the development of professional competencies of future technology teachers mnnmonsa Hayitovna International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) 14.
3. Развитие навыков самостоятельной и творческой работы студентов по общеобразовательным предметам по направлениям бакалавриата в Республике Узбекистан Сайфуллаева Д.А. Содикова А.Х., Солиева М.А. Вестник науки и образования, 60-64.
3. Didactic opportunities for the development of special competencies in students of technological education Sodikova A.H. International scientific conference" innovative trends in science, practice ...
4. Технологик таълим йўналиши талабаларида таянч, касбий ва махсус компетенцияларни ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари Sodiqova A. Science and innovation 1 (B6), 15-20.
5. Шахсинг касбий фаолиятини ўрганишга психологик ёндашув Содикова А. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 31 (31).
6. The importance of independent education in the future technology science teachers in the process of developing their special competencies. Sadikova A. Science and innovation 2 (B3), 478-482.
7. The scientific-methodological importance of independent education in the development of special competencies of future technological education teachers. Sodikova A. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 140 (ISSN ...
8. Признаки процесса обучения АХ Содикова УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА 49.
9. New Uzbekistan–The Value of Membership in the Continuous Education System Содикова А. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 31 (31).
10. Дидактические возможности развития специальных компетенции студентов технологического образования Содикова А.Х. Science and innovation in the education system 2 (5), 118-124.

## SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STRESS REDUCTION IN STUDENTS THROUGH LOGOTHERAPY

*Ubaydullayeva Nazirakhon Fazliddinovna,  
a Teacher of the social sciences department at  
Zarmed University and a doctoral student of Bukhara State University.*

*In the modern world, students encounter various stress factors, including high academic expectations, social pressures, and uncertainties about the future. This article explores the application of logotherapy techniques in reducing stress among students based on two years of pedagogical and psychological experience. The study examines how logotherapy, particularly gratitude exercises, critical thinking development, and the grounding technique, helps students develop psychological resilience and maintain well-being under stress.*

**Keywords:** *Logotherapy, stress reduction, academic success, psychological resilience, Viktor Frankl, university students.*

## СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СНИЖЕНИЯ СТРЕССА У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ЛОГОТЕРАПИИ

*В современном мире студенты сталкиваются с различными факторами стресса, включая высокие академические ожидания, социальное давление и неопределенность относительно будущего. В этой статье рассматривается применение методов логотерапии для снижения стресса среди студентов на основе двухлетнего педагогического и психологического опыта. В исследовании рассматривается, как логотерапия, в частности упражнения на благодарность, развитие критического мышления и техника заземления, помогает студентам развивать психологическую устойчивость и поддерживать благополучие в условиях стресса.*

**Ключевые слова:** *Логотерапия, снижение стресса, академическая успеваемость, психологическая устойчивость, Виктор Франкл, студенты университета.*

## LOGOTERAPIYA ORQALI TALABLARDA STRESSNI KAMAYTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Zamonaviy dunyoda talabalar turli stress omillariga, jumladan, yuqori akademik umidlar, ijtimoiy bosim va kelajakka nisbatan noaniqliklarga duch kelishadi. Ushbu maqola ikki yillik pedagogik va psixologik tajribaga asoslangan holda talabalar o'rtasida stressni kamaytirishda logoterapiya usullarini qo'llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot logoterapiya, xususan, minnatdorchilik mashqlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari talabalarga psixologik chidamlilikni rivojlantirish va stress ostida farovonlikni saqlashga qanday yordam berish yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Logoterapiya, stressni kamaytirish, akademik muvaffaqiyat, psixologik barqarorlik, Viktor Frankl, universitet talabalari.*

"In the end, what a person really wants is not to be happy, but rather a reason to be happy."

**Viktor E. Frankl:**

**Introduction.** The increasing prevalence of stress among students poses significant challenges to their psychological well-being and academic performance. Stress-related issues can result in anxiety, depression, and decreased motivation, ultimately affecting students' educational outcomes. This article explores the application of Viktor Frankl's logotherapy as a method for mitigating stress and enhancing students' overall psychological resilience. By emphasizing the search for meaning, logotherapy provides a framework for individuals to develop purpose-driven strategies for overcoming academic and personal stressors. University students often struggle with academic challenges, social adaptation, and personal uncertainties, leading to stress and anxiety. Logotherapy, developed by Viktor Frankl, offers a meaning-centered approach to overcoming psychological distress. This study aims to analyze the effectiveness of logotherapy techniques in fostering resilience and reducing stress among students. The research is grounded in two years of experience as an educational psychologist working with approximately 1000 students from various disciplines.

**Literature Review.** Logotherapy is an existential psychotherapy approach emphasizing the search for meaning as a means of psychological well-being (Frankl, 1946). Research indicates that individuals with a strong sense of purpose demonstrate higher resilience and better stress management skills (Batthyany & Russo-Netzer, 2014). Additionally, studies highlight that gratitude and mindfulness significantly contribute to emotional stability (Wong, 2012).

Frankl's logotherapy is based on three core principles: (1) the freedom of will, which emphasizes that humans can choose their responses to circumstances; (2) the will to meaning, which suggests that the primary motivation of individuals is to find meaning in life; and (3) the meaning of life, which proposes that meaning can be discovered in any life situation.

Several studies have examined the effectiveness of logotherapy in educational settings. Research conducted by Schulenberg and Melton (2010) demonstrates that students who engage in meaning-centered interventions report higher levels of psychological well-being and lower levels of distress. Similarly, a study by Southwick et al. (2014) highlights the role of meaning-making in fostering resilience among young adults facing academic challenges. These findings indicate that logotherapy-based interventions can significantly improve student mental health and reduce stress.

We (2022) examined how logotherapy aids individuals in finding meaning in life, establishing its role in psychology. Their research aligns with our focus on student stress management through logotherapy-based techniques. Furthermore, work on Frankl's logotherapy highlights the significance of existential analysis in educational contexts, which is reflected in our application of logotherapy to students' academic challenges. Also, (2024) analyzed different types of stress and the importance of learning to manage it in students' lives, which provides theoretical support for our study. Research on logotherapy as a key to understanding and managing stress (2024) further complements our work by reinforcing the necessity of meaning-seeking approaches in academic settings.

Additionally, her exploration of academic stress and strategies for its management (2024) informs our methodology by providing insights into effective interventions. A study on the essence of logotherapy techniques (2024) underlines their practical applications, mirroring our integration of gratitude exercises, critical thinking, and grounding techniques in stress reduction training. Furthermore, her work on stress analysis (2024) emphasizes its consequences and impact on students, which validates our research objectives. Collaborating with my academic advisor, we have built upon these foundational studies to implement logotherapy in pedagogical psychology, history, English philology, elementary education, preschool education, and medical studies. Our practical applications of gratitude and acceptance exercises, critical thinking development, and grounding techniques have been evaluated through qualitative interviews, further substantiating the effectiveness of logotherapy in academic environments.

**Methodology.** This study employs a mixed-methods approach consisting of survey analysis, experimental group intervention, application of logotherapy techniques, gratitude and acceptance exercises, critical thinking development, and grounding techniques.

**Survey Analysis**—150 students from psychology, pedagogy, history, English philology, elementary education, preschool education, and medical fields participated in an anonymous survey assessing their stress levels and coping strategies before and after logotherapy interventions. The survey included Likert-scale questions and open-ended responses to assess changes in perception and behavior.

**Experimental Group Intervention** – Two groups were formed: an experimental group that practiced logotherapy techniques and a control group that did not receive interventions. The experimental group participated in weekly logotherapy-based workshops for a duration of 12 weeks.

**Application of Logotherapy Techniques:** We have used several methods and training in practice.

**Gratitude and Acceptance Exercises** – Encouraging students to reflect on positive experiences and express gratitude through journaling and structured group discussions.

**Critical Thinking Development** – Helping students analyze stressors objectively rather than react emotionally. This included problem-solving exercises and cognitive reframing activities.

**Grounding Technique** – Training students to focus on the present moment rather than worry about past failures or future anxieties. Exercises included mindfulness practices such as breathing techniques and sensory awareness activities.

**Qualitative Interviews** – A subset of students (n=30) from the experimental group participated in in-depth interviews to provide detailed feedback on their experiences with logotherapy techniques. **Data Analysis** – The quantitative data were analyzed using statistical methods to measure changes in stress levels, while qualitative data were thematically analyzed to identify recurring themes in student experiences.

**Results.** The findings indicate that students practicing logotherapy techniques experienced:

- A significant reduction in stress levels.

- Improved ability to set personal and academic goals.
- Increased psychological resilience and emotional stability.
- Enhanced mindfulness and present-moment awareness through the grounding technique.

The results support the hypothesis that logotherapy effectively reduces stress and enhances academic success. Students who actively engage in meaning-seeking activities are more resilient to academic pressure and demonstrate an improved focus on long-term educational objectives. The findings align with previous research (Batthyany & Russo-Netzer, 2014; Wong, 2012), indicating that existential approaches contribute to psychological well-being. However, implementing logotherapy-based interventions requires trained professionals and a structured curriculum within educational institutions. Future research should explore the long-term effects of logotherapy on students' psychological and professional development.

**Discussion.** Logotherapy's application among students proved beneficial in multiple ways. The techniques provide individual coping mechanisms and improve group cohesion and collective emotional well-being. However, effective implementation requires trained professionals to guide students through the process. Future research should explore the long-term impact of logotherapy on students' academic performance and mental health. We can verify the effectiveness of the application in practice in several sectors and areas.

**Psychological Support Centers:** Implementing logotherapy in university counseling services.

**Workshops and Training:** Conducting sessions on meaning-seeking and resilience development.

**Curriculum Integration:** Incorporating logotherapy elements into psychology and education courses.

**Individual Counseling:** Using logotherapy to help students navigate academic and personal challenges.

Integrating logotherapy into academic and psychological support programs can provide students with practical tools for stress management. Suggested applications include: Incorporating logotherapy techniques into university counseling services. Developing workshops and training sessions on meaning-seeking and resilience. Integrating logotherapy principles into educational curricula to enhance motivation and emotional stability.

**Conclusion.** Logotherapy serves as an effective method for stress reduction among students by helping them cultivate gratitude, critical thinking, and present-moment awareness. The findings from this study reinforce the importance of meaning-seeking as a core psychological mechanism for managing stress.

#### References:

1. Frankl, V. E. (1946). *Man's Search for Meaning*. Beacon Press.
2. Batthyany, A., & Russo-Netzer, P. (2014). *Meaning in Positive and Existential Psychology*. Springer.
3. Wong, P. T. P. (2012). *The Human Quest for Meaning: Theories, Research, and Applications*. Routledge.
4. Schulenberg, S. E., & Melton, A. M. (2010). A Meaning-Based Approach to Stress Management for College Students. *Journal of College Counseling*, 13(1), 3-11.
5. Southwick, S. M., Litz, B. T., Charney, D., & Friedman, M. J. (2014). *Resilience and Mental Health: Challenges Across the Lifespan*. Cambridge University Press.
6. Laengle, Alfried & Van Deurzen, Emmy & Craig, Erik & Schneider, Kirk & Tantam, Digby & Plock, Simon. (2019). The History of Logotherapy and Existential Analysis. 309-323. 10.1002/9781119167198.ch19.
7. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. *Science and Education*, 3(4), 2022.ISSN 2181-0842 , 747-752p.
8. Убайдуллаева Н.Ф. Логотерапия: ключ к пониманию и управлению стрессом в современном мире. Вестник интегративной психологии Выпуск 34. 4 часть 2 2024. 291-295
9. Ubaydullayeva N.F. Akademik stress: talabalarga stressni boshqarish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishning ahamiyati Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 6 200-204 b.
10. Ubaydullayeva N.F. Logoterapiya - hayot mazmunini aniqlashga yo'naltirilgan texnikalarning mazmun mohiyati Ta'limda istiqbolli izlanishlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 5 2024. 106-112 b.
11. Stress tushunchasining tahlili: turlari, oqibatlar va uning inson hayotiga ta'siri. Psixologiya ilmiy-nazariy va metodik jurnal. № 3 2024 47-50 b.

## BARKAMOL INSON SHAXSINING SHAKLLANISHIDA ISLOM TA'LIMOTINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Nabiyev Muhrodbek Bobirovich,  
Zarmed Universiteti Ijtimoiy fanlarkafedrası o'qituvchisi*

*Mazkur maqolada islom ta'limotining inson kamolotiga nechog'liq kerakliligi, uning asrlar davomida shakllanib kelgan ba'zi bir metodlari sharhlab o'tilgan. Islom dinining muqaddas sanalmish Qur'on va hadislardan misollar keltirilib, hozirgi zamonaviy psixologiya hamda klassik psixologiyaning ayrim nazariyalarining shaxs haqidagi g'oyalari va ularning ijobiy hamda salbiy kamchiliklari bilan o'zaro taqqoslangan. Xususan shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida islom ta'limotining qanday ta'siri borligi, jamiyatdagi ba'zi bir muammolarning yechimlari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birgalikda bugungi kunda shaxs kamolotiga putur yetkazuvchi ba'zi bir islomiy mulohazalar alohida yoritib ko'rsatilgan.*

**Kalit o'zlar:** *Shaxs, islom, halol luqma, sotsiogenetik yondashuv, ehtiyojlar ierarxiyasi, barkamol shaxs, komillik, inson huquqlari, muloqot, ehtiyoj, demakratik jamiyat.*

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСЛАМСКОГО УЧЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕЛОСТНОЙ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ

*В данной статье рассматривается значение исламского учения для совершенствования человека и некоторые его методы, формировавшиеся на протяжении веков. Также приводятся примеры из Священного Корана и хадисов ислама, а также сравниваются представления современной психологии и некоторых теорий классической психологии о личности и их положительных и отрицательных недостатках. В частности, показано влияние исламского учения на социально-психологические характеристики человека и решения некоторых проблем в обществе. При этом выделяются некоторые исламские соображения, которые сегодня вредят совершенству человека.*

**Ключевые слова:** *Ключевые слова: человек, ислам, халяльная пища, социогенетический подход, иерархия потребностей, целостная личность, совершенство, права человека, общение, потребность, демократическое общество.*

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ISLAMIC TEACHING IN THE FORMATION OF A COMPLETE HUMAN PERSONALITY

*This article discusses the importance of Islamic teachings for the improvement of man and some of its methods that have been formed over the centuries. Examples are also given from the Holy Quran and the hadiths of Islam, and the ideas of modern psychology and some theories of classical psychology about personality and their positive and negative shortcomings are compared. In particular, the influence of Islamic teachings on the socio-psychological characteristics of a person and the solution of some problems in society is shown. At the same time, some Islamic considerations are highlighted that today harm the perfection of man.*

**Keywords:** *Man, islam, halal food, sociogenetic approach, hierarchy of needs, integral personality, perfection, human rights, communication, need, democratic society.*

Bugungi mustaqil O'zbekiston sharoitida shaxsning qadr-qiymati, obro'yi va uning sha'nini ulug'lash davlat siyosatining bosh ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu so'zlarning amaliy isboti sifatida 2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirilgan ishlar hamda yilning davomi o'laroq joriy 2023 – yilni esa "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilish ham bunga misol bo'la oladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 – yil 26-yanvar kuni O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishida ... Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'ini'ga aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz.

Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi, – dedi Prezident. Bu so'zlarning isboti o'laroq asosiy pirovard maqsadimiz, “Xalq davlat manfaatlarini uchun emas, davlat xalq manfaatlarini uchun” degan bosh g'oya yotadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017–yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72–sessiyasida .Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifatiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. Xonimlar va janoblar! O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz.

Insonning tashqi dunyoviy faoliyatidagi xatti-harakatlar, o'z navbatida ichki yuksak ahloqiy-ma'naviy dunyo talablari bilan uyg'un bo'lishi joiz. Odam hayotining ontogenezi mobaynida mazkur uyg'unlikka erishishi muayyan qiyinchiliklar bilan kechadi. Chunki, xato qilish inson shaxsini hamisha ta'qib etadi, inson shaxsi shu orqali faoliyat va xususiyatlarni dinamik ravishda egallab boradi va bundan esa inson chuqur ruhiy bezovtaliklar, dard, qiyinchiliklarga yo'liqishidan oldin, es-hushini g'aflat mag'lub etmasligi uchun har bir narsa, voqea va faoliyatning qadr-qiyamatini to'g'ri baholay oladigan mezonni shakllantirishni talab etadi. Mana shu mezon asrlar davomida shakllangan islom dinida bevosita yoritilgan bo'lib, har bir inson o'zining mukammalligi, barkamolligi yo'lida to'g'ri sof e'tiqodiy qarashlar bilan tarbiyalansa, aniq maqsadlariga erishadi.

Islom dini tichlik, poklik, birdamlik, tarbiya dini bo'lishi bilan bir qatorda, insonni kamolotga yetaklaydigan, uni ma'nan, ruhan, ijtimoiy, jismonan tarbiya etadigan hamda kamolga yetkazadigan va shu bilan birga bu g'oyalarini butun dunyoga tarannum etadigan dindir. Azaldan ikki daryo oralig'ida joylashgan Movarounnahr o'lkasi aynan islom tufayli sharaf topdi. Bu yurt ne ne buyuklarni tarbiya etdi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Imom Nasoiy, Al- Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ibn sino, Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Al- Farg'oniy, Abduholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy, Alisher Navoiy va yana bir qator aniq fanlar, ijtimoiy, diniy-falsafiy sohalariga sezilarli hissa qo'shgan bobokalonlarmizni o'tgan. Bularni barchalarining hayotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, aynan sof islomiy aqida bilan tarbiyanlanganini ko'ramiz. Barkamol shaxs bo'lib yetganini ko'ramiz. Doimo to'g'ri so'z, ishida halol yondashadigan va yurt ravnaqiga hissa qo'shadigan shaxs sifatida kamol topgan insonlar hisoblanishadi. Sof islomiy aqiydalarga tayanib ish ko'radigan haqiqiy musulmon shaxsi hech qanday salbiy tushuncha va muammolarga duch kelmaydi.

Muqaddas dinimizda 5 ta asosiy bosh maqsad ko'zda tutilgan bo'lib: Inson

- Hayoti
- Aqli
- Dini
- Nasli
- Mol-mulki ni muhofaza etish hisoblanadi.

Bundan tushunish mumkin-ki, islom insonlarni har tomonlama yuksalishga, odob-ahloqqa, barkamol shaxs bo'lib yetilishiga zamin yaratib beradigan din hisoblanadi. Nima uchun aynan inson huquqlari deyilyapti. Chunki, aynan haq huquqi poymol bo'lgan jamiyatda shaxsning komillikka, barkamollikka yetishishi amri mahol hisoblanadi. Bu g'oyalar jahon psixologlarining ham diqqat markazida hisoblanib,

xususan eng kichik nazariyalardan biri sifatida “Ehtiyojlar ierarxiyasi” muallifi Abraham Maslou ta’kidlaydiki, “Men mutlaqo aminmanki, odam faqat non bo’lmagan sharoitda non bilan yashaydi”, deb tushuntirib, shu bilan birgalikda Maslou. “Ammo non ko’p bo’lsa va oshqozon doimo to’q bo’lsa, insonning intilishlari nima bo’ladi?” Yuqori ehtiyojlar paydo bo’la boshlaydi va bizning tanamizni fiziologik ochlik emas, balki yuqori darajadagi ehtiyojni qondirish hissi boshqaradi. Bir ehtiyoj qondirilsa, boshqalari paydo bo’ladi, undanda yuqori va yuqori. Shunday qilib, asta-sekin, bosqichma-bosqich, inson o’z-o’zini rivojlantirish zarurati paydo bo’ladi - ehtiyojlarning eng yuqorisi” deb barkamollikka yetishishning o’ziga xos yo’li sifatida ehtiyojlar misolida tushuntirib ketgan. Inson o’zining eng kichik sanalgan fiziologik ehtiyojlaridan tortib toinki: ochlik, tashnalik va boshqalar; Xavfsizlik / himoya ehtiyojlari: qulaylik, yashash sharoitlarining doimiyligi va yaxshiligi; Ijtimoiy ehtiyojlar: boshqalar tomonidan qabul qilinish, ijtimoiy aloqalar, muloqot, mehr, boshqasiga g’amxo’rlik va o’ziga e’tibor kabi xususiyatlarning birgalikdagi faoliyati; O’z-o’zini hurmat qilish\Ego: boshqalardan hurmat, tan olish, muvaffaqiyat va yuqori baholarga erishish, ko’tarilish kabi ehtiyojlar; Ma’naviy: bilim, o’zini namoyon qilish, o’zligini kashf etish, o’zini o’zi aniqlash. o’zini namoyon etishgacha bo’lgan ehtiyojlarni sanab o’tgan bo’lib, bular eng sodda ko’rinishi sifatida tahlil etsak, islom ta’limotida har bir qarash alohida e’tirof etilgan. Islom insonning tug’ilishdan tortib, to barkamollikka yetishgacha bo’lgan yo’lni ta’riflab, bir necha oson va foydali yo’llarni ko’rsatadi. Islomda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya’ni onasini (yoki otasini) tanlashdan avval deb javob beriladi. Ulamolarimiz ta’kidlab aytishadiki, farzand hali dunyoga kelmay turib, uning kimlar orqali dunyoga kelishi mumkinligiga e’tibor berishni aytishadi. Bo’lg’usi ona yoki ota tug’ilajak farzand tarbiyasining zohiriy asoschilaridir. Chunki farzand tug’ilganida uning tabiati sof holda tug’iladi va qaysi muhitda tarbiya ko’rib, o’sib ulg’aysa, o’sha muhitdan ta’sirlanadi. Uning sog’lom, yetuk, barkamol shaxs bo’lib yetishishi uchun qo’lidan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Undan so’ng bir yaxshi ustozga berib, ilm olishi uchun imkoniyat va sharoit yaratib beradilar. Alloh amr etgan farzlarni uni yosh imkoniyatidan kelib chiqib tarbiya etadi. Komil shaxs bo’lib shakllanishiga yordam beradilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Har bir tug’ilgan go’dak Islom fitratida (ya’ni sof tabiatda) tug’iladi. Ota-onasi uni yo yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi”, – deb marhamat qilganlar. Agar ota-ona diyonatli bo’lsa, farzandini ham diyonatlik qilib tarbiyalaydi. Ko’p jihatdan farzandning tarbiyasida onalarning ta’siri katta bo’ladi. Bo’lajak ona ham o’z farzandining bo’lajak otasini tanlashi lozim. Bunda ham bo’lg’usi otaning dinu diyonati, axloq va odobiga qaraladi. Ibn Moja Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilib, quyidagi hadisni keltiradilar: “Ayollarga ularning chiroyi uchungina uylanmang, ularning chiroyi halokatga ketkazishi mumkin, molu davlatlari uchun ham uylanmang, balki shu molu davlatlari tug’yonga solishi mumkin, lekin dindorlariga uylaninglar, albatta, qora cho’ri bo’lsa ham dindorlari afzal”.

Kishi o’z farzandlarini ularning go’daklik chog’laridan boshlab tarbiyalashi, odob berishi lozim. Ma’lum yoshga yetgach, ba’zi narsalarni bolaga qabul qildirish qiyin bo’ladi. Chunki ma’lum bir faoliyatdan keyingi faoliyatga o’tadi. Masalan o’yin faoliyatidan, o’qish faoliyatiga so’ng mehnat faoliyatiga. Hatto ota-ona bolasining o’yin faoliyatiga, kimlar bilan, nima bilan o’ynayotganini bilishi lozim. Arzimas deyilgan bir nojo’ya xatti-harakat bolaning kamol topishiga salbiy ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Psixologiyada shaxsning shakllanishiga oid bir necha nazariyalar bo’lib, ularning ba’zilari haqida fikr yuritsak, sotsiogenetik nazariyaga binoan, shaxs bo’lib shakllanishining asosiy qoidalaridan biri shaxslararo jamiyatda birga bo’lish hamda ular bilan muloqotda bo’lishdir. Aynan shaxs bo’lib shakllanishning bosh qoidalaridan biri shaxslararo muloqotda bo’lish hisoblanadi. Imom Termiziydan rivoyat qilingan hadisda “Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: Insonlar bilan aralashib yurib, ularning ozorlariga sabr qiladigan musulmon insonlarga aralashmaydigan va ularning ozorlariga sabr qilmaydigan musulmondan yaxshiroqdir”. Islom dinida odamlarning ozoriga ko’rib yashash mo’minlikning bir belgisidir deyilgan. Ya’ni ozorlagan insoningdan qoch yoki uni kechirma deyilmagan, aksincha ularni boricha qabul qil deyilgan. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro’y beradigan o’zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o’zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko’ra, inson biologik tur sifatida tug’ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta’siri ostida shaxsga aylanadi. Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o’zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o’z yo’nalishi, tadqiqot ob’yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o’ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o’zini o’zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql idrok, tafakkur ob’yekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig’i jihatidan tadqiqot manbaiga

aylanishi mumkin. Bu soʻzlardan shuni tushunish mumkinki, shaxs boʻlib shakllanishda yoki mukammallikka erishish uchun shaxslararo munosabat boʻlishi lozim.

Psixologiyada baʼzi bir nazariyalar oʻzining qadr-qiymatini yoʻqotib, zamon talablariga javob bermasligini koʻrsatadi. Misol uchun biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol oʻynagan. Biroq individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qoʻpol xatolarga yoʻl qoʻygan. Jumladan, biogenetik qonunga koʻra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan gʻoya yotadi. Nemis psixologi V.SHernning fikricha, chaqaloq (yangi tugʻilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sut emizuvchi hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarda ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida oʻrta asr kishilar ongiga va nihoyat yetukli davrdagina (16—18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi. Bu nazariya hozirda deyarli ishlatilmaydi. Sababi bugunki kun bu nazariyaning notoʻgʻri ekanligini isbotlab berdi. Gʻarb psixologiyasining ideologiyasi insonni qaysidir jonzotga oʻxshatib yoki qaysidir jonzotlar ustida qilingan tajribalarga asoslanib, xulosa chiqarishi, inson zotini hayvonga tenglashtirishiga olib keladi. Bu esa islom ideologiyasiga mutlaqo zid. Islom taʼlimotining muqaddas sanalmish Qurʼoni Karimning Isro surasi 70 -oyatida Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qoʻydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni Oʻzimiz yaratgan koʻp jonzotlardan afzal qilib qoʻydik.” hamda Tiyn surasi 4- oyatda Batahqiq, Biz odamni eng yaxshi suvratda yaratdik. Oʻn toʻrt asrdan biyon insoniyat uchun, insoniylik, bagʻrikenglik, tolerantlik sifatida koʻrilayotgan, hamda eʼtirof etilayotgan islom dinining mavqeyi beqiyos.

Barkamollikka taʼsir etadigan yana bir qoida bu luqmaga (taom) eʼtibor berish hisoblanadi. Islom halol sanagan taomlarni yeyishni, aksinchasini esa yeyishni man qilgan hisoblanib, hech bir ish bir hikmatsiz emasligini asoslab beradi. Halol taomlar bilan bir qatorda, qanday yoʻllar bilan topilganiga ham alohida eʼtibor beradi. Deylik non halol ammo u ogʻirlab olib kelingan boʻlsa undan istemol qilish joiz sanalmaydi. Islomda halol luqma va halol taomlarga juda katta eʼtibor beradigan dindir. Bu xususda muqaddas sanalmish Qurʼoni Karim va Hadisi shariflarda juda koʻp oyat va hadislar kelgan boʻlib, inson oʻzining hayotini soflik, poklik, ozodalik, halollik ustiga qurishi kerakligini bot-bot tushuntiradi. Agarda bu ishlarga loqaydlarcha eʼtibor berilsa, oxiri yaxshilik bilan tugamasligini, gunohkor boʻlishini taʼkidlaydi. Islomning asosiy ruknlaridan biri sanalmish namoz(ibodat)ning ham qabul boʻlishi uchun uning tomogʻidan halol luqma oʻtishi lozimligi Hadisi shariflarda quyidagicha bayon qilingan. Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilindi: “Rasululloh sollallahu alayhi vasallamning huzurlarida “ Ey odamlar. Yer yuzidagi narsalardan halol-poklarini yenglar” oyatini tilovat qilindi. Shunda Saʼd ibn Abu Vaqqos turib:

“Ey Allohning Rasuli, duo qiling, Alloh meni duosi qabul boʻladiganlardan qilsin”, dedi. Shunda Nabiy sollallahu alayhi vasallam:

“Ey Saʼd, taomingni halol qil, duosi qabul boʻladigan boʻlasan. Muhammadning joni qoʻlida boʻlgan Zot bilan qasamki, bir banda harom luqmani qorniga tashlasa, uning amali qirq kungacha qabul qilinmaydi. Qaysi bandaning goʻshti haromdan va ribodan oʻssa, unga doʻzax munosibdir”, dedilar. Ehtimol bir luqma arzimadek tuyular, ammo uning asorati qirq kungacha inson tanasidan ketmas ekan. Bu yerda har kim oʻzining halol mehnati ortidan kun koʻrishga, birovlarining qoʻliga qarab qolmaslikka, birovdan biror narsa tama qilmaslikka targʻib qilingan. Bundan koʻrinib turibdiki, muqaddas islom dinimizning inson ongi, shuuriga nechogʻlik ijobiy taʼsir etishi, uning komil shaxs boʻlib yetilishiga xizmat qilishiga amin boʻlamiz.

Islom ideologiyasi bugungi kunga qadar inson shaxsi kamoloti uchun eng koʻp ishlar qilgan din hisoblanadi. Inson shaxsini naqadar azizligini, uning bu dunyodagi har bir nafasi bejizga olinmasligini, har bir ishning bir hikmati borligi, barcha ishlarni odamiylik nuqtai nazaridan kelib chiqib, yondashishini koʻrishimiz mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Иймон. – Т.: << Hilol-Nashr>> 2020. – 368 б
2. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳалол очик-ойдиндир, харом очик-ойдиндир . – Т.: << Hilol-Nashr>> 2022. – 168 б
3. Қосимов Убайдулло Ахрорович. Тасаввуф психологияси шахс таракқиетида муҳим омил. – Т: “IJOD-PRESS” 2019. – 192 б.
4. Эргаш Ғозиев. Умумий психология. – Т.: <<Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти>> 2010. – 544 б.
5. Эргаш Ғозиев. Онтогенез психология. – Т.: <<Noshir>> 2010. – 360 б.



## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

UO‘K 37.013.42

### SINFDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI (BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARI MISOLIDA)

*Homidov Husniddin Kupaysinovich,*  
*Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedra mudiri, ilmiy rahbar*  
*Ergasheva Husniya Mirzoxid qizi,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*Boshlang‘ich ta‘lim 1-bosqich magistranti*

*Ushbu maqola boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning metodik asoslarini tahlil qiladi. Shuningdek axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, hamda, o‘quvchilarda matematik tafakkur va analitik ko‘nikmalarni shakllantirishda axborot bilan ishlashning ahamiyati ortgan. Maqolada matematik masalalar va misollarni yechishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv metodlar hamda didaktik vositalar o‘quvchilarning kompetensiyasini oshirishdagi roli ko‘rsatilgan. Shuningdek, axborot bilan ishlashga oid metodik yondashuvlar va ularni boshlang‘ich sinfda samarali qo‘llash usullari hamda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishdagi ta‘sir batafsil tahlil etilgan. Maqola zamonaviy ta‘lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llashning ahamiyatini ta‘kidlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *axborot bilan ishlash, kompetensiya, boshlang‘ich sinf, matematika darsi, axborot texnologiyalari, metodik yondashuvlar, interaktiv metodlar, didaktik vositalar, o‘quvchilarning tafakkuri, matematik ko‘nikmalar.*

### МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ В КЛАССЕ (НА ПРИМЕРЕ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ)

*В данной статье анализируются методические основы развития компетенции работы с информацией на уроках математики в начальных классах. Отмечается, что в связи с ускоренным развитием информационных технологий возросло значение работы с информацией в формировании математического мышления и аналитических навыков у учащихся. В статье показана роль использования информационных технологий при решении математических задач и примеров, а также интерактивных методов и дидактических средств в повышении компетентности учащихся. Подробно проанализированы методические подходы к работе с информацией и способы их эффективного применения в начальных классах, а также их влияние на развитие мышления учащихся. В статье подчёркивается важность применения инновационных методов в современном образовательном процессе.*

**Ключевые слова:** *работа с информацией, компетенция, начальная школа, уроки математики, информационные технологии, методические подходы, интерактивные методы, дидактические средства, мышление учащихся, математические навыки.*

### METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING INFORMATION LITERACY COMPETENCE IN THE CLASSROOM (USING PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS AS AN EXAMPLE)

*This article analyses the methodological basis for the development of competence of working with information in mathematics lessons in primary grades. It is noted that due to the accelerated development of information technologies the importance of working with information in the formation of mathematical thinking and analytical skills of students has increased. The article shows the role of using information technologies in solving mathematical problems and examples, as well as interactive methods and didactic means in improving the competence of students. Methodological approaches to working with information and ways of their effective application in primary grades are analysed in detail, as well as their influence on*

*the development of students' thinking. The article emphasises the importance of using innovative methods in the modern educational process.*

**Keywords:** *information literacy, competence, primary school, mathematics lessons, information technologies, methodological approaches, interactive methods, didactic tools, students' thinking, mathematical skills.*

**Kirish.** Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarda matematik tafakkur va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi, axborotlarni tahlil qilishi va ulardan unumli foydalanish qobiliyatini shakllantirish kelgusida ularning muvaffaqiyatli o'qishi va hayotga tayyorgarligi uchun zamin yaratadi. Matematika fani o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu jarayonda axborot bilan ishlash metodikasini to'g'ri tashkil etish, interaktiv yondashuvlarni qo'llash va didaktik vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish mumkin. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga qiziqarli va sodda tarzda ta'lim berish muhim ahamiyat ega. Shuning uchun maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati o'rganiladi. Shu maqsadda axborot texnologiyalarini qo'llashning samaradorligi, o'quvchilarning o'quv materiallarini tahlil qilish qobiliyatini oshirishdagi o'rni, shuningdek, interaktiv metodlar va didaktik vositalarning o'quvchilarning faolligi o'sish ta'siri muhokama qilinadi. Asosan axborot bilan ishlashga oid metodik asoslarni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik ko'nikmalari va tafakkurini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan ushbu tadqiqotning natijalari boshlang'ich ta'lim sohasida zamonaviy yondashuvlarni qo'llashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Axborot bilan ishlash kompetensiyasi haqida fikr yuritadigan ko'plab tadqiqotlar, bu kompetensiyani o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va undan samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirishga asoslangan holda yoritadi. Axborot texnologiyalarining V. S. Avanesovning tadqiqotlarida ta'lim jarayonidagi o'rniga bag'ishlangan bo'lib, unda interaktiv vositalar yordamida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash usullari ko'rsatilgan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanish faqat texnik jarayonni emas, balki ta'lim jarayonining mazmun-mohiyatini boyitishni ham ta'minlaydi, deb ta'kidlanadi. Shuningdek, yana bir muhim ma'lumot sifatida Yu. K. Babanskiy va N. F. Talyzina kabi olimlarning ishlarini qayd etish mumkin. Ularning tadqiqotlari ta'limda didaktik prinsiplardan unumli foydalanish va o'quvchilarning analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, zamonaviy o'quv jarayonida matematik masalalar va misollarni yechish orqali axborot bilan ishlashga oid yondashuvlar shakllanishiga katta e'tibor qaratilgan. Xorijiy tadqiqotlarda, jumladan, J. Piaget va L. Vygotskiy asarlarida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni axborotli fikrlashga o'rgatishning psixologik asoslari chuqur o'rganilgan. Bu olimlar bolalar tafakkurini rivojlantirish uchun interaktiv va qiziqarli metodlardan foydalanishlarini tavsiya qiladilar. Ayniqsa, Vygotskiyning ijtimoiy ta'lim nazariyasi asosida guruhlarda ishlash va o'zaro suhbat orqali axborot bilan ishlash kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Milliy tadqiqotlar orasida esa H. Qodirov va M. Karimov kabi olimlarning ishlari alohida o'rinni egallaydi. Ular boshlang'ich sinfda matematika ta'limni samarali qilish uchun texnologik yondashuvlarni qo'llash didaktik vositalar yordamida o'quvchilarni axborotli fikrlashga o'rgatish metodlarini ishlab chiqqanlar. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga va ular tomonidan axborotni qabul qilish foydaliligini kuchaytirishga yordam beradi.

**Metodlar.** Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

✓ Interaktiv o'qitish usullari: Interaktiv metodlar orqali o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish mumkin. Masalan, “Venn diagrammasi”, “Portfel usuli” va “Baliq skeleti” kabi metodlar o'quvchilarning tahlil qilish va axborotni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish qobiliyatlarini o'stiradi.

✓ Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Elektron resurslar, interaktiv doska va onlayn dasturlar yordamida o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini tashkil etish mumkin. Masalan, GeoGebra yoki Microsoft Excel kabi dasturlarda matematik masalalarni yechish hamda Boombazle o'yinlari o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi.

✓ Jamoa faoliyati: Jamoa bilan ishlash orqali o'quvchilar birgalikda axborotni tahlil qilish, o'zaro fikr almashish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

✓ O‘yin texnologiyalari: Matematik o‘yinlar orqali bolalarning qiziqishini oshirish va ularga axborotni qayta ishlash qobiliyatini o‘zlashtirishi mumkin. Masalan, “Matematik domino” yoki “Raqamli labirint” kabi o‘yinlar bolalarning diqqatini jamlash va axborotni tezda tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

✓ Muammoli ta’lim yondashuvi: O‘quvchilarga muayyan masalani muammoli vazifa sifatida berish orqali ular axborotni izlash, tahlil qilish va samarali yechim topishga o‘rganadilar. Bu metod orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tahliliy ko‘nikmalari shakllanadi.

✓ Didaktik vositalardan foydalanish: Dars mobaynida maxsus ishlanmalardan, masalan, kartochkalar, grafik tasvirlar, jadval va diagrammalardan foydalanish orqali o‘quvchilarga axborotni vizual tarzda taqdim etish mumkin. Bu asosan axborotni qabul qilishni osonlashtiradi, shuningdek bolalarga tushunishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv metodlar, axborot texnologiyalari, jamoaviy faoliyati va didaktik vositalardan foydalanish asosiy ahamiyatiga ega. Bu metodlarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat matematik ko‘nikmalarini hamda umumiy axborotli fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu sababli metodik yondashuvlarni yanada chuqurroq o‘rganish va amaliyotga tadbiiq etish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar.** Boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga oid olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, jamoaviy faoliyat va didaktik vositalarni unumli qo‘llashning asosiylikini ko‘rsatdi. Shu munosabati bilan, metodlar o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda yordam beradi balki, ularning tahlili fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy axborot texnologiyalari va interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi ortadi va o‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan mavzuni yaxshi tushunib, mustaqil ishlash qobiliyatlarini oshiradilar. Shu bilan birga, jamoaviy faoliyat va didaktik vositalari yordamida o‘quvchilar axborotni tahlil qilish va samarali ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim omil hisoblanadi.

**Tavsiyalar.** Boshlang‘ich sinfda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

Axborot texnologiyalarini yanada faolroq qo‘llash hamda o‘quvchilarning matematik masalalar va misollarni yechishda interaktiv vositalardan foydalanishini rag‘batlantirish.

Jamoaviy faoliyat va muammoli ta’lim yondashuvlarini unumli qo‘llash orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirish.

Didaktik vositalardan (grafik tasvirlar, jadval, diagrammalar) foydalanishni kengaytirish va ularni axborotni taqdim etishda ko‘proq vizual shaklda qo‘llash.

O‘quvchilarni o‘zaro muloqot qilish va fikr almashish orqali axborot bilan ishlashga o‘rgatish.

Ushbu tavsiyalarni amaliyotda qo‘llash boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi shuningdek, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

**Muhokama.** Maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirishga oid metodik yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar va didaktik vositalar o‘quvchilarning matematik tafakkurini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. Darslarni zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish, o‘quvchilarning nafaqat matematik ko‘nikmalarini, balki umumiy axborotli fikrlash qobiliyatlarini ham oshiradi.

Interaktiv o‘qitish usullari o‘quvchilarni faollashtirish va o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun natijali vosita hisoblanadi. “Venn diagrammasi”, “Portfel usuli” va “Baliq skeleti” kabi metodlar yordamida o‘quvchilar axborotni tahlil qilish va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, interaktiv vositalar yordamida o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini oshirish mumkin. Bu esa, o‘quvchilarning mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishiga imkon yaratadi.

Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi ham samarali natijalarga olib keladi. Masalan, GeoGebra yoki Microsoft Excel kabi dasturlar yordamida matematik masalalarni yechish o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi hamda Boombazle dasturi orqali qiziqarli matimatega o‘yinlarini tashkil etish mumkin. Bu dasturlar o‘quvchilarga masalalarni yechishda yangi usullarni ko‘rsatib, ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jamoaviy faoliyat esa o‘quvchilarning axborot bilan ishlashda o‘zaro muloqot qilish va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Vygotskiyning ijtimoiy ta’lim nazariyasiga asoslanib, guruhlarda ishlash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada

jamoaviy tusga keltiradi. O‘quvchilar birgalikda masalalarni yechib, bir-birlariga yordam berish orqali yaxshiroq tushunish va yanada mustahkamlashadi. Shuningdek, didaktik vositalardan foydalanish axborotni vizual tarzda taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Darsda kartochkalar, grafik tasvirlar, jadval va diagrammalarni qo‘llash, o‘quvchilarga axborotni osonroq tushunishga yordam beradi va ularni yanada samarali o‘rganishga imkon yaratadi. Lekin, metodik yondashuvlarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uchun bir qator omillarni inobatga olish zarur. Masalan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini moslashtirish muhim. Yoshga mos bo‘lmagan interaktiv metodlar yoki axborot texnologiyalarini haddan tashqari qo‘llash, o‘quvchilarni charchatishi yoki diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ta‘lim jarayonida o‘qituvchining roli katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi metodlarni to‘g‘ri tanlash va ulardan unumli foydalanish orqali o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishi mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirish, ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda metodik yondashuvlar o‘quvchilarning matematik va umumiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodlarni qo‘llashda har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish, ta‘lim jarayonining unumdorligini yanada oshiradi.

**Xulosa.** Boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar va usullar tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar va didaktik vositalardan foydalanish, o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish balki axborotni samarali tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, interaktiv o‘qitish usullari, axborot texnologiyalaridan foydalanish, jamoaviy faoliyat va didaktik vositalar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning axborot bilan ishlashdagi kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, metodik yondashuvlarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uchun o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish va o‘qituvchining roli muhimdir. Boshlang‘ich ta‘limda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni yanada samarali amalga oshirish uchun metodik yondashuvlarni chuqur o‘rganish va amaliyotda keng qo‘llash zarur. Maqolada keltirilgan yondashuvlar, o‘quvchilarning matematik va analitik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilib, ta‘lim jarayonini sifatli ravishda takomillashtirishga yordam beradi. Bu esa, kelajakda o‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishi va hayotga tayyorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Salomon, G. (2000). *Technology and Education: The Restructuring of Learning in the Digital Age*. In G. Salomon (Ed.), *Learning in the Digital Age* (pp. 1-15). New York: Psychology Press.
2. Prensky, M. (2001). *Digital Natives, Digital Immigrants*. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
3. Kafai, Y. B., & Resnick, M. (1996). *Introduction: The Computer as a Medium for Creative Expression*. In *Constructionism* (pp. 1-23). New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates.
4. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines*. John Wiley & Sons.
5. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.
7. Axmedov, I. (2017). *Axborot texnologiyalari va ularning ta‘limdagi o‘rni*. // *Ta‘lim va Innovatsion texnologiyalar*, 2(1), 45-50.
8. Rahimov, B. (2015). *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi.
9. Djurayeva, D. (2019). *Mustaqil ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari*. // *O‘zbekiston pedagogik jurnal*, 3(4), 112-117.

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDAGI NIZOLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

*Ismoilova Malika Erkinovna,*

*Navoiy davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti  
malikaerkinovna0813@gmail.com*

*Ushbu maqolada nizolar va ularni bartaraf etish usullari, yo‘llari atroflicha yoritilib berilgan. Bizga ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘limdagi nizoli vaziyatlar juda ko‘p uchraydi. Ular quyidagilar: o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolar, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi nizolar, o‘quvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolar. Har bir vaziyat juda qaltis va muhimdir. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari xuddi endi o‘sib kelayotgan gulga o‘xshaydi. Ushbu vaziyatlar ularning ongiga salbiy ta‘sir etishi mumkin chunki ular ushbu vaziyatlarga mustaqil fikr bildira olmaydi. Ularga doimo tashqi muhit ta‘sir etadi, ya‘ni ba‘zan salbiy ba‘zan esa ijobiy. Bizga ma‘lumki nizoli vaziyatlar psixologiya fani bilan uzviy bog‘liq.*

**Kalit so‘zlar:** nizolarni hal qilish usullari, nizolarni hal qilishning muqobil usullari, turlari.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОНФЛИКТОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*В данной статье подробно описаны конфликты и способы их разрешения. Как мы знаем, в начальном образовании существует множество конфликтных ситуаций. Это: конфликты между учителем и учеником, конфликты между учителем и родителями, конфликты между учеником и учеником. Каждая ситуация очень деликатна и важна. Учащиеся начальной школы подобны распускающемуся цветку. Эти ситуации могут оказать негативное влияние на их сознание, потому что они не могут думать об этих ситуациях самостоятельно. На них всегда влияет внешняя среда. Как мы знаем, конфликтные ситуации неразрывно связаны с наукой психологией.*

**Ключевые слова:** методы разрешения конфликтов, альтернативные методы разрешения конфликтов, виды.

## PEDAGOGICAL PROBLEMS OF CONFLICT RESOLUTION IN PRIMARY EDUCATION

*This article describes in detail conflicts and ways to resolve them. As we know, there are many conflict situations in primary education. These are: conflicts between a teacher and a student, conflicts between a teacher and parents, conflicts between a student and a student. Each situation is very delicate and important. Primary school students are like a blossoming flower. These situations can have a negative impact on their consciousness because they cannot think about these situations on their own. They are always influenced by the external environment, aren't they? As we know, conflict situations are inextricably linked with the science of psychology.*

**Keywords:** conflict resolution methods, alternative conflict resolution methods, types.

**Kirish.** “Agar hayotda ziddiyatdan qochish uchun orqaga qadam tashlash imkoniyati mavjud bo‘lsa, buni qilish yaxshidir”.

(Rasim Musabekov)

Respublikamiz ta‘lim tizimida so‘nggi yillar mobaynida yosh avlodni jismoniy, aqliy va ma‘naviy tomondan kamolotga yetkazishda tub islohatlar qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlab o‘tganlaridek, “ Bu murakkab dunyoning azaliy va adabiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma‘naviyat olami yangi ma‘no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik yaratilgan kashfiyotga turtki beradi, ma‘naviyatning shakllanishiga o‘ziga xos ta‘sir o‘tkazadi.

**Asosiy qism.** Boshlang‘ich sinf ustozlari ish davomiyligida fidoyilik ko‘rsatib, ustozlik burchini juda yuqori darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ularning qalbiga tog‘ri va egrini ajrata olishni, yaxshilik va yomonlikni anglab olishni haqiqat va nohaqlikni tushunishni va ularga odob–axloq nurini singdirishni, xushmuomilada bo‘lganliklari uchun shunday e‘tibor, obro‘ va hurmatga erishganlar. Ming afsuslar bo‘lsinki, barcha ilm ahli, ya‘ni ustozlar haqida ham shunday fikrlarni bildirib bo‘lmaydi. O‘zining qo‘pol xarakteri bilan o‘quvchi yoshlarning ko‘nglini o‘qishdan sovitib, dilini arzimagan narsalar bilan ranjitadiganlar ham

uchrab turadi. Pedagogik jarayonda shunga o‘xshagan turli xil dalil va misollar uchrab turadi. Shunga o‘xshash salbiy vaziyatlar yosh avlodlarning tarbiyasiga, ularning axloqiga yomon ta’sir etadilar. Tarbiyaviy jihatdan ularga juda katta ziyon yetkazadilar. Natijada o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida turli xil nizolar paydo bo‘la boshlaydilar.

Har tomonlama yetuk shaxsni hosil qilishga va tarbiyalashga oid turli axloqiy normalar pedagogik etikada o‘z ifodasini topgan. Tarbiyalanuvchining ongiga ijobiy ta’sir o‘tkazish sirlaridan biri bu ishonch bilan unga nisbatan beriladigan talablarning birligi hisoblanadi. Bu qonuniyat pedagogik jarayonda juda ko‘p marta sinovdan o‘tgan va albatta, o‘zini oqlagan. Ustozlar va o‘qituvchilar bilan olib borilgan suhbat natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabda yoki oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga yaxshi munosabatda bo‘ladigan o‘qituvchilar bilan bir qatorda o‘quvchilarga juda qo‘pol va do‘q urib, baland ovozda muomila qiladigan o‘qituvchilar ham uchraydi. Shunga o‘xshagan muomila jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy normalarga to‘g‘ri kelmaydi. Bunday ustozlar o‘quvchilar orasida qolaversa, pedagogik jamoada ham obro‘ orttira olmaydilar. Barchamizga ma’lumki, tarbiya jarayoni juda qiyin va murakkab qismdir, chunki ustoz ba’zan istasamasada qo‘pol munosabatda bo‘lishi mumkin. Chunki tarbiya va ta’lim jarayonida shunday vaziyatlar bo‘lishi mumkinki, aynan o‘sha vaqtda o‘qituvchi o‘zi tuta olmasligi, o‘zi xohlamagan vaziyatga tushib qolishi mumkin. Ustozlar o‘zining talablarini ko‘p holatlarda o‘quvchiga yaxshilik qilyabman, unga bilim beryabman, uni barkamol shaxs bo‘lib yetishishi uchun o‘z hissamni qo‘shayabman deb o‘ylaydilar. Sa’diy She’roziyning «Guliston» (Toshkent, 1968) asarining “Tarbiya ta’siri bayoni” bobidagi hikoyatlari, Alisher Navoiyning “Maxsub – ul – qulub” asaridagi “Mudarrislar to‘g‘risida”, “Maktabdorlar to‘g‘risida”gi keltirilgan ibratli hikoyalar bu fikrimizga isbotidir.

Albatta, bunga o‘xshagan holatlar tarbiyasi og‘ir va bilimi sayoz o‘quvchilar orasida uchrab turadi. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, bunday bola odatda, nosog‘lom oiladan kelib chiqadi. Bola oiladagi nosog‘lom va tartibsiz muhitning qurboni bo‘lishi ham mumkun, albatta. Ko‘p yillik tajribaga va pedagogik mahoratga ega pedagoglar tarbiyasi qiyin bo‘lgan bolalar bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini juda yaxshi biladilar, bundan tashqari ular etiborga va mehrga zor, yaxshi xushmuomalaga muxtoj ekanligini, shunga o‘xshagan o‘quvchilarga nisbatan kechirimli, adolatli, sabr – toqatli, bo‘lish kerakligini ham ta’kidlaydilar. Jismoniy jarohat olgan bolani o‘qituvchi jazolamasligini hamma biladi.

Rossiyalik tadqiqotchilar Kolominskiy.Ya.L. va B.P. Jiznevskiy o‘zining tadqiqoti davomida nizoli vaziyatdagi bolalarning 3000 dan ortiq xatti-harakatlari tahlil qildi va qarama-qarshiliklarni kuzatdilar. Natijada quyidagilarni aniqladi.

1) «jismoniy bosim» - bolalar bir-birlarini itaradilar, tartibga soladilar janjal, o‘yinchoqlarni olib qo‘yish, o‘yinda birovning o‘mini egallash va hokazo.;

2) «bilvosita ta’sir» - shikoyat qilish, o‘qituvchilarga yoki boshqa bolalarga murojaat qilish, baqirish yoki e’tiborni jalb qilish uchun yig‘lash;

3) «psixologik ta’sir» – o‘zining xatti-harakati bilan sherikga bosim o‘tkazish, qichqiriq, yig‘lash va boshqalar;

4) «og‘zaki ta’sir» - sherikga nima qilish kerakligi haqida ko‘rsatmalar yoki u nima qilmasligi kerak («taslim»), «ketish») yoki biror ishni bajarishdan bosh tortish;

5) «tahdid « - mumkin bo‘lgan salbiy holatlar haqida sherigini ogohlantirishlar: shikoyat qilish tahdidi («va men sizga aytaman»), tahdid qilish («Men siz bilan o‘ynamayman»), («Men endi siz bilan do‘st emasman»), shuningdek, turli tahdidli intonatsiya bilan talaffuz qilingan so‘zlar («tushundingmi?», «yaxshi» va boshqalar);

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nizoli vaziyat ko‘p bo‘ladi. Ba’zida bunga sababchi o‘qituvchi bo‘ladi chunki ayrim o‘qituvchilar boladagi ko‘z bilan ko‘ra oladigan jarohatlarni ko‘ra oladi, lekin eng achinarlisi shundaki, ular ya’ni, o‘qituvchilar ruhiy jarohatlarni e’tiborga olmaydilar. Bola har doim ham bir vaziyatda bo‘lmasligi mumkin. Ba’zan tushkun kayfiyatda yoki qandaydir muammolar bilan kelishi ham mumkin. Bunday vaziyatlarni ba’zi o‘qituvchilar e’tibordan chetda qoldirishadi. O‘quvchi javob berishni xohlamasa, demak, o‘qituvchi darsga tayyor emas degan fikrga bormasligi kerak. Uning ruhiy holatlarini hisobga olish kerak. Ammo ayrim pedagoglar orasida ushbu holar e’tibotga olinmaydi va barcha o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yishadilar.

Ayrim holatlarda boladan bajarishi qiyin bo‘lgan vazifalarni yuklaydilar. O‘qituvchining bunday munosabatlari o‘quvchiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Bu holat albatta, o‘qituvchining ishini murakkablashtiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida turli xil nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Natijada o‘quvchi o‘qituvchidan norozi holda undan uzoqlashishga harakat qiladi. Ayrim hollarda ota-onalar va yoshi katta ustozlar o‘qituvchidan kechirim so‘rashga majbur qiladilar lekin bu nizoga o‘qituvchining noto‘g‘ri xatti – harakati sabab bo‘lgan bo‘ladi. Bunday vaqtda o‘quvchining qadr – qimmatini hisobga olinmaydi. Ayrim hollarda bolalarning zimmasiga turli xil vazifalarni

yuklaydilar, bola esa bunday paytlarda kattalarning topshirig‘ini bajarishni xohlamaydilar, o‘zining mustaqilli ini cheklashlarini yoqtirmaydi. Ota-onalar esa farzandlarining balog‘atga yetganligini sezmagani, ularni hali ham “yosh bola” deb hisoblaydigan oilalarda bola bilan kattalar o‘rtasida tez-tez turli xil tortishuvlar va ziddiyatlar bo‘lib turadi. Avvalo, bolaning xulq-atvoriga doimiy ravishda e‘tibor berish, uning fe‘l-atvoriga rahbarlik qilish, bularning hammasini shunday amalga oshirish kerakki, bola mayda-chuyda vazifalarni bajarishda ham ota-onaning doimiy vasiyligini sezmasin.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ularni “kichkina” odam deb hisoblamaydigan, bilimli, intiluvchan va talabchan ustozlarni hurmat qiladilar. Bir necha yillik tajribaga ega bo‘lgan o‘quvchilarning barchasi har xil qiziqishlarga egadir. Agar ularning intilishlari to‘g‘ri baholansa, ulardan kelajakda buyuk shaxsni shakllantirish mumkin.

O‘quvchi atrofdegilarning unga bergan bahosiga nisbatan tanqidiy qaraydi. Uning kayfiyatidagi o‘zgarish va ikkilanishlarning sababi ham ana shundan iboratdir. Kattalarning bolalarga berilgan maqtovi ularning o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, haddan tashqari maqtanchoqlikka olib keladi. Hattoki, boladagi kutilmagan omadsizlik bolada o‘z kuchiga ishonmaslikni uyg‘otishi jur‘atsizlik, qo‘rqoqlik, ikkilanish va uyatchanlik kabilarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabati alohida mahorat talab qiladi. O‘quvchilar o‘zlarini zaif, kichkina deb nom chiqarishdan qo‘rqish xavfi kuchayadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotida ularning fikrlarini hurmat qilmasliklari, unga yosh bolaga qilgan muomila qilishlari, yuqori natijalarga erishishidan shubhalanishlari kabi hodisalar odatda norozilikni hosil qiladi. Ayrim ustozlar ayrim o‘quvchilarni doimo maqtaydilar, boshqalarni esa doimo ranjitadilar. Bundan tashqari o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan o‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan o‘quvchilarni ko‘p koyiydilar. Hattoki, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilardan darsga qatnashishni unchalik talab qilmaydilar. Bunday vaziyatda o‘quvchilarning bir – birlariga nisbatan nafrat paydo bo‘ladilar, o‘qituvchiga nisbatan norozilik kayfiyati paydo bo‘ladi. O‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan o‘quvchiga “yomon” baho qo‘yadi, bundan tashqari ularga nisbatan bir nechta istehzoli so‘zlar ham aytiladi. Masalan, “Sen har doim shundaysan. Sen odam bo‘lmaysan. Seni onging past. Sen o‘zlashtira olmaysan.” Bunday holat juda ko‘p o‘qituvchilar hayotida uchraydi va bu xatoni o‘quvchi umrbod kechirmaydi.

Nizolarning kelib chiqish sabablari sinfdagi har bir o‘quvchining fe‘l-atvoridagi xatti-harakatlaridan, o‘quvchi mansub bo‘lgan millat, xalq hudud xususiyatlaridan namoyon bo‘ladi. Pedagogik nizolarning kelib chiqish sabablarini bilish va ularning oldini olish pedagogik madaniyatni rivojlantiradi. Pedagogik nizolarni keltirib chiqarmaslik uchun o‘qituvchining pedagogik qobiliyati va mahorati muhim rol o‘ynaydi, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir ustoz pedagogik mahoratni egallashlari kerak.

Bolaning o‘qituvchi bilan keskin munosabatlari borligini bilib, vaziyatning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Maktabda o‘qituvchi bilan ziddiyat o‘rganish motivatsiyasining yo‘qolishiga, akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga va hatto psixologik jarohatlarga olib kelishi mumkin. Bolaga qiyin vaziyatni hal qilishda yordam berish bilan birga, ota-onalar unga muammolarni madaniyatli hal qilishni o‘rgatadi.

Ushbu vaziyatni hal qilishni bir nechta yo‘llari bor.

### **1-qadam. Farzandingiz bilan gaplashing**

Suhbatni uyda, tinch muhitda o‘tkazish yaxshiroqdir. Hammasi qayerdan boshlanganini so‘rashimiz kerak. O‘quvchining fikricha, vaziyat o‘qituvchining nigohi bilan qanday ko‘rinadi, nizoni qanday hal qilish mumkin va bola murosaga tayyormi yoki yo‘qmi.

Agar ota-onalar mojaro haqida o‘qituvchidan bilgan bo‘lsa, ular bu haqida o‘quvchiga xotirjamlik bilan aytib berishlari kerak. Suhbatni boshlash uchun iboralar:

«Men sodir bo‘lgan voqeaning faqat bir ko‘rinishini bilaman va menimcha ...»;

«Bu meni xafa qiladi, men siz bilan yetarlicha gaplashmayapman deb o‘ylayman...»;

«Sizni tinglash men uchun muhim, chunki sizning ham fikringiz bor.»

“Agar bola siz bilan gaplashishdan bosh tortsa, oilaning boshqa a‘zolaridan mojaro sababini aniqlashni so‘rang. Ehtimol, o‘quvchi ukasi yoki opasi, buvisi yoki bobosi bilan ochiqroq muloqot qiladi.

Bolaga gapirishga ruxsat berish kerak. O‘qituvchini tanqid qilmang. «Bu o‘qituvchi o‘ziga nima qilishga ruxsat beradi!» oxir-oqibat ustozning obro‘sini yo‘q qiladi. Buning o‘rniga, boshqa bolalar bu o‘qituvchi haqida qanday fikrda ekanligini bilib olishingiz kerak. Ehtimol, ulardan biri bolani qo‘zg‘atmoqda yoki mojaro sinfdoshlarning hurmatini qozonishga urinish edi.

Siz boshqa fikrga bormasligingiz kerak. Bo‘lib o‘tgan voqeada talabani ayblash: «Bu sizning aybingiz, siz kattalarni hurmat qilishingiz kerak!» Shunday qilib, siz bolangizning ishonchini yo‘qotish xavfini tug‘dirasiz.

“Bola osonlik bilan aloqa o‘rnatasa va mojaro sabablarini tushuntira olsa yoki tuzata olsa yaxshi. Har doim uni qo‘llab-quvvatlang - bola sizda hokimiyat, qo‘llab-quvvatlash, xavfsizlikni ko‘rishi kerak. Agar u noto‘g‘ri bo‘lsa ham, uni qoralashga shoshilmang, endi u sizning yordamingizga muhtoj.»

Ota-onalar qanday xulosaga kelishidan qat‘i nazar, ular o‘z fikrlarini hozircha o‘zlarida saqlashlari kerak. Ushbu bosqichda asosiy narsa bolani mojaroni hal qilish zarurligiga ishonirishdir.

### **2-qadam. O‘qituvchi bilan suhbatlashing.**

Iloji bo‘lsa, maktabga tashrif buyurib, o‘qituvchi bilan shaxsan gaplashishingiz kerak. Bola yaqin joyda bo‘lmasligi kerak.

Muammoni hal qilishda darhol maktab rahbariyatini jalb qilmaslik kerak. O‘qituvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish, ota-ona vaziyatni tartibga solish va muammo tug‘dirmaslik uchun kelganing belgisidir.

Siz jangga bormaysiz. Siz borib, nima bo‘layotganini bilib oling. Uchrashuv uchun qulay vaqtni oldindan belgilang va savollar tayyorlang. Agar kerak bo‘lsa, tavsiyalar uchun maktab psixologi yoki ijtimoiy xodimiga murojaat qiling.

Do‘stona ohangni saqlab, o‘qituvchidan mojaroning sabablari haqida so‘rashingiz kerak. Suhbat faktlarga asoslangan bo‘lishi muhimdir. Agar o‘qituvchi bolaning o‘zini yomon tutayotganini yoki o‘qishni istamasligini aytsa, nima uchun bunday xulosaga kelganini so‘rashingiz kerak. Agar o‘qituvchi bolani qo‘pollikda ayblasa, u aynan nima deganini va undan oldin nima bo‘lganini bilib oling.

Yomon tarbiyada ayblovlarni eshitganingizda ham xotirjam bo‘lishga harakat qilishingiz kerak: «Siz bolaga umuman g‘amxo‘rlik qilmaysiz!» Axir, o‘qituvchi bilan suhbatdan maqsad nizoni hal qilish, aybdor odamni topish emas. Agar suhbat boshi berk ko‘chaga tushib qolsa, o‘qituvchi vaziyatdan qanday chiqish yo‘lini ko‘rishini so‘rashingiz kerak.

### **3-qadam. Vaziyatni nazorat qilish.**

Ota-onalar, hatto mojaro hal qilinganidan keyin ham, o‘quvchining muvaffaqiyati bilan qiziqishlari, vaqti-vaqti bilan maktabga tushishlari va o‘qituvchilar bilan muloqot qilishlari muhimdir. Bu ko‘pincha o‘qituvchilar bilan nizolarni oldini olishga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib ta‘lim jarayonidagi islohotlarning yangi bosqichida o‘qituvchi va uning mahorati masalasiga alohida urg‘u berilmoqda. O‘qituvchi ta‘lim jarayoniga innovatsiyani bevosita joriy etuvchi va innovatsion jarayonni tashkillashtiruvchi subyekt sifatida baholanmoqda. Pedagogik jarayondagi innovatsiya esa ta‘lim va tarbiyaga oid barcha yangiliklarni amaliylashtirish, shu asosda ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashni taqozo etadi. Mana shunday ta‘lim tizimiga oid innovatsion yo‘nalishlardan biri – pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish omillari sanaladi.

**Xulosa.** Mashhur rus olimlardan A.N.Samarin, Y.I.Stepanov, V.N.Shalenko konfliktologiya sohasining nazariy asoslariga, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o‘ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar, shu jumladan pedagogik konfliktlar masalalari ko‘pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrosi bo‘lishi kerak. Xalq so‘zi, 2017 yil 13 iyuli. - № 137. -1, 2, 3 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. <https://lex.uz/docs/4740345>

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 21 aprel, 79 (6773)-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son.



7. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-martdagi 185-son “Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son.

8. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha inspeksiya to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi 318-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2018 y., 09/18/318/1108-son.

9. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 80 b.

10. Abdullayeva Sh.A. O‘spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari. – Ped. fan. doktori darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. – Toshkent:, O‘zPFITI, 2005. – 45 b.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI MATEMATIK TAFAKKURINI MANTIQUIY MASALALAR YORDAMIDA SHAKLLANTIRISH (1- VA 2-SINF TAJRIBA-SINOV NATIJALARI)**

*Karimova Kunduz Ruzibayevna,  
Urganch davlat pedagogika instituti,  
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida dotsenti, (PhD)  
q\_karimova@mail.ru*

*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bolaning yoshiga mos bo‘lgan turli pedagogik vositalar va usullar orqali amalga oshirilishi ko‘rsatib berilgan. Tajriba-sinov ishlarini olib borish davomida aniqlangan kuzatishlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik tafakkurining qay darajada shakllanganligi statistik ma‘lumotlar bilan keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ta‘lim, rivojlanish, tafakkur, mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, matematika, murakkab masalalar.*

**ФОРМИРОВАНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ (РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПРОВЕРКИ 1 И 2 КЛАССОВ)**

*В данной статье рассматривается, что формирование и развитие логического мышления у школьников начальных классов осуществляется с помощью различных педагогических средств и методов, соответствующих возрасту ребёнка. В ходе опытно-экспериментальной работы на основе наблюдений было определено, на каком уровне сформировано математическое мышление учеников начальных классов, с приведением статистических данных.*

***Ключевые слова:** Образование, развитие, мышление, логическое мышление, начальная школа, математика, сложные вопросы.*

**FORMATION OF MATHEMATICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS WITH THE HELP OF LOGICAL PROBLEMS (EXPERIMENTAL TEST RESULTS OF CLASS 1 AND 2)**

*The article shows that the formation and development of logical thinking in younger schoolchildren is carried out with the help of various pedagogical means and methods corresponding to the age of the child. During the experimental trials, observations determined the level of mathematical thinking development among primary school students, supported by statistical data.*

***Keywords:** education, diversity, thinking, logical thinking, beginning class, math, complex problem.*

**Kirish.** Bugungi kunda jahonda matematika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish va fanlararo integratsiyalash imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, o‘quvchilarning mavjud qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan metodik ta‘minotni yaratishga qaratilgan qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirishga, ularning qiziqishlari, iqtidori, qobiliyati va o‘zlashtira olish darajalarini e‘tiborga olgan holda ta‘lim jarayonini to‘g‘ri tashkillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilar fikrlashlarini rivojlantirgan holda tafakkurini shakllantirishga asoslangan ishlar ko‘zga tashlanmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda turli topshiriqlar va matnli masalalarni yechish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirish, matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish usullari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy masalalarning ayrim turlari haqida fikr yuritiladi.

B.S.Abdullayeva, M.Sh.Mamatov, F.M.Kasimov, U.J.Sodikov, M.A.Zaynitdinovanning ilmiy ishlarida esa o‘quvchilarda matematikadan ijodiy topshiriqlar, muammoli masalalar yordamida ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodikasi o‘z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida B.S.Kasumova, N.B.Istomina, Yu.M.Kolyagin, N.B.Tixonova, A.I.Golikovlar tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy masalalarning ayrim turlarini yechishga o‘rgatish metodikasi, M.A.Gadjimuradov, O.S.Goncharova esa boshlang‘ich sinflar

uchun geometrik va nostandart masalalarni yechishga o‘rgatish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Matematikani o‘qitish orqali o‘quvchilarda matematik tafakkurning bir necha o‘ziga xos xususiyatlarini shakllanadi: muammoli masalani yechish jarayonlarida masalaning yechimini topishda mantiqiy ketma-ketlikni tanlay olish, muammoni hal qilish ketma-ketligining aniqligi va qat‘iyli, xulosalarning qisqaligi, fikrning to‘g‘ri va to‘liq bayon qilinishi.

Aniq va qat‘iy tuzilgan mantiqiy fikrlash sxemasining mavjudligi matematik tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biridir, chunki fikrlash ketma-ketligining bitta pog‘onasidagi qat‘iylikning qisman yo‘qolishi ham kutilayotgan natijani to‘liq isbotlashni yoki muammoni hal qilish imkoniyatini yo‘q bo‘lishini keltirib chiqaradi.

Matematik tafakkur egasi bo‘lish uchun aql-idrokning qat‘iyligidan tashqari, tushuntirishlarning aniq va qisqaligi ham muhimdir. Matematik fikr yuritishda ortiqcha so‘zlarga va chalg‘ituvchi g‘oyalarga e‘tibor qaratilmaydi. Shuning uchun matematika darsliklari o‘quvchilarga iloji boricha aniq ko‘nikmalar orqali va keraksiz fikrlash elementlarisiz zo‘r mahorat bilan ixcham shaklda berilgan.

V. A. Suxomlinskiy, bolalarning fikrlash ketma-ketligini kuzatib, quyidagicha xulosaga keladi: «Birinchi navbatda, bolalarni bir qator predmet, voqea-hodisalarni aql ko‘zi bilan qamrab olishga, ular orasidagi bog‘lanishlarni idrok etishga o‘rgatish kerak... . Asta-sekin odamlar fikrlashlarini o‘rganib, anglay olmaslik, masalan, bir vazifaning mavhumlashishi, aniqlikdan chalg‘ish oqibati ekanligiga yanada ishonch hosil qildim. Bolalarni mavhum tushunchalarda fikrlashga o‘rgatishimiz kerak» [7].

J.Piaje[9] qarashlariga ko‘ra ongning rivojlanishi bir necha bosqichdan o‘tadi va boshlang‘ich maktab davrida o‘quvchilarning aniqlikka tayangan intellektini shakllanish davriga to‘g‘ri keladi. Bolalarda og‘zaki va mantiqiy tafakkuri maktab davrigacha rivojlana boshlaydi va so‘zlar bilan ishlab, mulohaza qilish qobiliyati shakllanadi.

**Natijalar.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish maqsadida tajriba-sinov jarayonini tashkil etdik. Pedagogik tajriba jarayoni ilmiy ishimizning eng muhim bosqichi bo‘lib, bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi talablar asosida ish olib bordik:

1. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda sinflarni tanlamaslik;
2. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda o‘qituvchilarni tanlamaslik;
3. Tadqiqot paytida berilgan topshiriqni yechish jarayonida har tomonlama fikrlash asosida turli usullardan foydalanish;
4. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda topshiriqlarni bajarish uchun tegishli metodikani ishlab chiqish;
5. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish davomida sinf o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zgartirmaslik;
6. Tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda asosiy maqsad:

- a) matematika faniga nisbatan o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish, mantiqiy masalalarni yechishga asos bo‘luvchi va mantiqiy masalalar haqida o‘quvchilarda dastlabki bilimlarni hosil qilish;
- b) o‘quvchilarda mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkurni rivojlantirish;
- c) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlash orqali masalalarning yechimini topish tizimidan foydalanish bilan tanishtirish[10].

Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan o‘quvchilardan kirish nazoratida berilgan topshiriqlarga ma‘suliyat bilan yondashishi va fikrlashni talab qiluvchi masalalarga qiziqishi e‘tiborga olingan holda sinf o‘quvchilari olgan bilimlariga mos topshiriqlar ketma-ketligi matematika darslarida dars mavzusini o‘tishga halaqit qilmagan holda berib borildi.

1-sinf o‘quvchilariga dastlab matematikaning muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan chiziqlar bilan ishlash va o‘ng, chap, yuqori, past terminlarini o‘rganish ham muhimligini e‘tiborga olib quyidagicha topshiriq berildi.

1-topshiriq(diktant). Daftar chap tomonidan 4 katak yuqorisidan 2 katak qoldirib nuqta belgilang. O‘ngga 2 katak, pastga 2 katak, o‘ngga 2 katak, pastga 2 katak, chapga 2 katak, pastga 2 katak, chapga 2 katak, yuqoriga 2 katak, chapga 2 katak, yuqoriga 2 katak, o‘ngga 2 katak, yuqoriga 2 katak chizing(1-rasm).



1-rasm. Matematik diktant

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar raqamlar bilan ishlash, yo‘nalishni to‘g‘ri olish va fikrni jamlashga o‘rgatiladi. O‘quvchilarga xuddi shunday kataklar bo‘ylab kam qadamli chizishlarga doir quyidagicha figuralar chizish topshiriladi va chizmalar xuddi 1-topshiriqdagi kabi matematik diktant ko‘rinishida o‘qitiladi(2-rasm).



**2-rasm. Matematik diktant topshiriqlari**


Bunday sodda figuralarni chizishga o‘rgatilgach, murakkabroq bo‘lgan quyidagicha figura chizdirildi.

2-topshiriq. Daftar chap tomonidan 4 katak yuqorisidan 2 katak qoldirib nuqta belgilang. O‘ngga 3 katak, pastga 1 katak, o‘ngga 1, pastga 1 katak, chapga 1 katak, pastga 1 katak, chapga 1 katak, pastga 1 katak, o‘ngga 3 katak, pastga 1 katak, chapga 2 katak, pastga 2 katak, o‘ngga 1 katak, pastga 2 katak, o‘ngga 1 katak, pastga 1 katak, chapga 3 katak, yuqoriga 2 katak, chapga 1 katak, pastga 2 katak, chapga 3 katak, yuqoriga 1 katak, o‘ngga 1 katak, yuqoriga 2 katak, o‘ngga 1 katak, yuqoriga 2 katak, chapga 2 katak, yuqoriga 1 katak, o‘ngga 3 katak, yuqoriga 1 katak, chapga 1 katak, yuqoriga 1 katak, chapga 1 katak, yuqoriga 1 katak, o‘ngga 1 katak, yuqoriga 1 katak chizing(3-rasm).

Ayrim o‘quvchilarda qo‘pol xatolar kuzatilganligi uchun shu chizma yo‘naltirilgan kesmalar orqali chizdirildi va bu usul bilan berilganda xatolar ancha kamaydi. Bu topshiriqqa o‘xshash, lekin, diagonal bo‘ylab yo‘nalishli kesmalar ham kiritilgan quyidagicha topshiriqlarni chizishda o‘quvchilarning malakalari ancha oshganligi aniqlandi(4-rasm).




**3-rasm. 2-topshiriqning bajarilishi**



**4-rasm. Olmaxon**


3-topshiriq. Kvadratni chiziqlar bo‘yicha qirqing va berilgan shakllarni yasang(5-rasm).



**5-rasm. Yasashga doir topshiriq**

Bu topshiriq ham xuddi yuqoridagi topshiriqlar kabi o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ldi va ularni ancha faollashtirib qo‘ydi. Uyga vazifa qilib xuddi shunga o‘xshash shakllar yasab kelish topshirildi.

4-topshiriq. O‘quvchilarga teskarisidan qaraganda aynan o‘zi hosil bo‘ladigan rasmlar tarqatiladi(6-rasm).



**6-rasm. Sichqon va mushuk**

Berilgan «sichqon bilan mushuk» rasmi(6-rasm) haqida o‘quvchilarning fikri eshitildi. O‘quvchilar fikrini eshitgan holda o‘qituvchi rasm haqidagi asosiy ma’lumotni aytadi va rasm aylantirib ko‘rsatiladi(7-rasm).



**7-rasm. O‘quvchilarning 6-rasm bilan ishlash jarayoni**

Rasmni 180° ga aylantirib ko‘rilganda aynan o‘zi hosil bo‘lganini ko‘rib o‘quvchilar hayratlanishdi (Ayrim sinflarda rasm mobil telefon yordamida ko‘rsatilganda rasimga yon tomondan qaragan o‘quvchilar ikkalasi ham bir xil rasm ekanligini payqashdi. Keyin boshqa sinflarda ham rasmni mobil telefon orqali ham ko‘rsatishni taklif qildik).

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda kundalik hayotda mavjud bo‘lgan ikki tomonlama qaraganda ham bir xil ko‘rinuvchi buyumlarni topishdi(doska, deraza, koptok, truba, va hakoza). O‘qituvchi tomonidan geometrik figuralar(uchburchak, kvadrat, beshburchak, doira)ni chizish topshiriladi. O‘quvchilar ular orasidan teskarisidan qaraganda o‘zgarmaydigan figura kvadrat va doirani ekanligi aniqlashadi. Xuddi shunday figuralardan chizib kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

Geometrik shakllar bilan ishlash topshiriq'ini ham o'quvchilar zo'r qiziqish bilan bajarib kelishdi. Hamma o'quvchi faol va deyarli xatoga yo'l qo'yishmagan.

5-topshiriq. O'quvchilarga geometrik figuralar kombinatsiyasidan tuzilgan figuralar(180° ga aylantirib ko'rilganda aynan o'zi hosil bo'ladigan) to'plamini chizib ko'rsatiladi.

Uyga vazifa qilib xuddi shunday figuralar to'plamini chizib kelish topshirildi.

6-topshiriq. Hamma raqamlarni daftarga yozing. Ular orasidan teskaridan qarab raqamlarni va ularning orasidan aynan o'zi hosil bo'ladigan raqamlarni toping.

Ikki xonali sonlar orasidan xuddi shundaylarini topish vazifa qilib berildi(bunday sonlarni topishda 0, 6, 8, 9 sonlaridan foydalanish aytiladi). Uyga vazifa tekshirilganda harflar orasida ham aylantirilganda o'zgaraydigan harflarni topish holatlari ham kuzatildi.


Bu topshiriqni bajartirish davomida 1 va 3 sonini ham xuddi shunday son deb aytgan o'quvchilar ham bo'ldi. Lekin ular xatolarini darrov anglab olishdi. Ayrim chaqqon o'quvchilar ikki xonali sonlarni daftarga yozib(10, 11, 12, ...) sonlarni topishga harakat qilishdi. O'quvchilar orasida 66, 86, 68, 98, 89, 99 sonlarini ham aylantirilganda yana o'zi hosil bo'ladi deb yozishdi. Lekin ularga bu sonlarni yozib, aylantirib ko'rsatish orqali xatolari tushuntirildi(bu topshiriqni bajarish davomida ancha xatolar kuzatildi. O'quvchilarning o'zlariga shu sonlarni yozib aylantirib ko'rish taklifi berildi va ular xatolarini tushunishdi).

7-topshiriq. Ketma-ketlikdagi keyingi sonni toping:

1. 10, 8, 6, ...
2. 11, 9, 7, ...
3. 11, 22, 33, ...
4. 25, 20, 15, ...
5. 20, 17, 14, ...
6. 99, 88, 77, ...

1-, 2-, 3- misollar sinfda ishlatiladi va 4-, 5- va 6-misollar uyga vazifa qilib beriladi.

8-topshiriq. Daftarga berilgan shaklni chizing(8-rasm).




8-rasm. Shaklni qismlarga ajratish

Uyga vazifa: Berilgan shaklda nechta kvadrat bor?

O'quvchilar orasida kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning farqini bilmaydiganlari qiyinchilik bilan topshiriqni bajarishdi.

9-topshiriq. Shahnozaning akalari soni singillari soniga teng. Shahnozaning oilasida farzandlar soni jami 7 ta bo'lsa, uning nechta akasi bor?



9-rasm. 8-topshiriqning bajarilishi

Bu masalaning yechimini topish uyga vazifa qilib berildi va albatta o'quvchilar oilasidagilarning yordami bilan yechimni topib kelishdi.

Yechish:

**1-usul.** Shahnozaning akalari soni singillari soniga teng va oilada farzandlar soni 7 ta. Demak, Shahnozaning akalari va singillari soni  $7-1=6$  ta.

Qaysi sonni o‘z-o‘ziga qo‘shganda 6 hosil bo‘lishini tanlash yo‘li bilan topamiz (topqir o‘quvchilar darhol javobni aytishi mumkin)?

$1 + 1 = 2$  mumkin emas;

$2 + 2 = 4$  mumkin emas;

$3 + 3 = 6$  mumkin.

Bulardan xulosa qilsak, Shahnozaning akalari soni 3 ta ekan.

**2-usul.** Masala shartiga ko‘ra akalari va singillari soni teng. Demak, Shahnozaning qiz bola ekanligini e‘tiborga olsak, oilada qizlar soni o‘g‘il bolalar sonidan bittaga ko‘p. Bundan xulosa qilsak ularning soni ketma-ket keluvchi sonlar. Endi bunday ketma-ket keluvchi sonlarni yig‘indisi 7 ga teng bo‘ladiganini topamiz:

$1 + 2 = 3$  mumkin emas;

$2 + 3 = 5$  mumkin emas;

$3 + 4 = 7$  mumkin.

Demak, oilada o‘g‘il bolalar soni 3 ta.

**10-topshiriq.** Shaxnozaning akalari soni singillari sonidan bittaga ko‘p. Shaxnozaning oilasida farzandlar soni jami 6 ta bo‘lsa, uning nechta akasi bor?

Bu masala ham xuddi 9-topshiriq kabi tushuntiriladi.

2-sinf o‘quvchilariga olingan bilimlarini e‘tiborga olgan holda topshiriqlar berildi. 1-, 2-, 3-, 4-topshiriqlarimiz mos ravishda 1-sinflar uchun berilgan 3-, 4-, 5-, 6-topshiriqlardan tuzilgan.

2-sinf o‘quvchilari sinfda bir-birlarining vazifalarni qanday ishlaganlarini ko‘rib, xatolarini topishdi. 3-topshiriq berilganda teskarisidan qaraganda aynan o‘zi hosil bo‘ladigan harflarni (O, Z, H, N) ham topib kelishibdi. Ayrimlari esa ana, amma, non kabi so‘zlarni ham yozib kelishgan. O‘qituvchilar o‘quvchilarining ancha sinchkov bo‘lib qolganlarini aytishdi.

5-topshiriq. Xuddi ana, kiyik, qovoq so‘zlar kabi ikki tomonlama bir xil o‘qiladigan «palindrom» sonlarni toping.

Bunday sonlarni topish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ular orasida qo‘shish amali bajarilganda yana «palindrom» son hosil bo‘ladigan misollar tuzib ishlab kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

6-topshiriq. 5-topshiriqni ayirish amali uchun bajarish.

Ayrim ziyrak o‘quvchilar qo‘shish amalidagi misollardan foydalangan holda, boshqalari esa yangi misollar tuzishga harakat qilishdi. Bunda o‘quvchilar kamayuvchining raqamlari ayriluvchining raqamlaridan katta bo‘lishiga e‘tibor qaratishgan. Ayrim o‘quvchilarni e‘tiborga olmaganda boshqalari juda yaxshi natija olishgan.

7-topshiriq. Daryodan o‘tish uchun bo‘ri va dehqon bir sumka karami va echkisi bilan turibdi. Qayiqqa dehqon yo bo‘ri, yo bir sumka karam yoki echki bilan sig‘adi. Dehqonga daryodan o‘tishga yordam bering.

Bu masalaning ikki xil yechimi ham o‘quvchilarga jadval yordamida 2 ta usulda tushuntirib berildi.

8-topshiriq. Azizada Kamoladagidan 2 marta kam va Gulida Azizadagidan 3 marta ko‘p kitob bor. Agar hamma kitoblar soni 18 ta bo‘lsa, har birida qancha kitob bo‘lgan?

O‘quvchilarning juda ozchiligi bu masalaning yechimini topib kelishgan, lekin hech bir o‘quvchi qanday topilganini tushuntirib bera olishmadi.

Yechish: Bu masalani  $x + 2x + 3x = 18$  tenglama yordamida yechish mumkin. Lekin boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bunday ko‘rinishdagi tenglamani yecha olmaydi. Bu masalani quyidagicha belgilashlar orqali ishlash o‘quvchiga qulaylik tug‘diradi.

Masala shartiga ko‘ra eng kam kitoblar Azizada. Azizaning kitoblarini bir sumka bo‘lsin deb faraz qilamiz. Azizada Kamoladagidan 2 marta kam kitob bor. Demak, Kamolaning kitoblari Azizanikidan 2 marta ko‘p ya‘ni, ikki sumka kitobi bor. Gulida Azizadagidan 3 marta ko‘p kitob bo‘lsa, Gulida uch sumka kitob bor.

Aziza -



Kamola -



Guli -



Demak, qizlarda jami 6 sumka kitob bor ekan. Jami kitoblar soni 18 ta bo'lsa har bir sumkada  $18 : 6 = 3$  tadan kitob bor. Xulosa qilsak, Azizada bitta sumka bo'lgani uchun 3 ta kitob, Kamolada 2 ta sumka bo'lgani uchun 6 ta kitob, Gulida 3 ta sumka bo'lgani uchun 9 ta kitob bor.

9-topshiriq. Berilgan shaklda nechta to'rtburchak bor?(10-rasm)

Bu topshiriqni ham o'quvchilar ishlashga harakat qilishgan. To'g'ri javob topib kelgan o'quvchilar ham anchagina. Faqat ularga to'rtburchaklarni sanash tartibi ko'rsatilganda ular topshiriqning osonligini bilishdi.

9-topshiriq uchun dasturiy ta'minot ishlangan bo'lib o'quvchilarga multimedia vositalari yordamida ko'rsatildi.

10-topshiriq(matematik diktant). Katak daftarda bitta nuqta belgilang. 2 katak o'ngga chizing. 6 katak pastga va 2 katak chapga chizing. 2 katak yuqoriga, 6 katak o'ngga, 2 katak pastga, 2 katak chapga va 6 katak yuqoriga chizing. 2 katak o'ngga, 2 katak pastga, 6 katak chapga va 2 katak yuqoriga chizing.

Savol: Nechta kvadrat hosil bo'ldi?(5 ta)

Uyga vazifa: Hosil bo'lgan 5 ta kvadratga 1, 2, 3, 4 va 5 raqamlarini shunday joylashtiringki, diagonal bo'yicha turgan raqamlar yig'indisi teng bo'lsin(3.13-rasm).

Matematik ta'limning asosiy maqsadi matematik qobiliyatni yuzaga chiqarish va uni rivojlantirishdan iborat. Shuning uchun real dunyo hodisalarini mantiqiy, har tomonlama va ongli ravishda o'rganish zarurdir.

**Natijalar.** Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy dars jarayonlarini bitta o'qituvchining faoliyat ko'rsatishi, integratsiyalashgan darslar tashkil qilib, o'quvchilar bilan ishlash jarayonini turli muammoli savollar bilan tashkillashtirishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashiga, ularning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga, intellektni rivojlantirib matematik tafakkurning shakllanishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy masalalar yechishga o'rgatishni yuqorida keltirilgan topshiriqlar va ularni turli o'zgartirish kiritgan holda muntazam tizimli ishlar amalga oshirilsa, o'quvchilarda matematik tafakkur shakllanib, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, ijodkorlik va sinchkovlilik faoliyati rivojlanadi. Bunday masalalar bilan ishlash o'quvchilarni tarbiyaviy jihatdan o'zaro do'stlashishi va birlashishi uchun ham ijobiy natijalar ko'rsatdi. Ularning fikr almashishi natijasida esa nutqi yanada ravon bo'lib, o'z fikr-mulohazalarini erkin tushuntira olishi kuzatildi.

#### Olingan natijalarning ishonchliligi.

Statistik tahlil natijalari

Guruhlar		o'rtacha o'zlashtirish $\bar{x} \bar{y}$		o'rtacha kvadratik xatolik $S_x^2 S_y^2$		o'zlashtirish ko'rsatkichi uchun ishonch oralig'i $a_x a_y$		o'sish (%)
		KN	ChN	KN	ChN	KN	ChN	
1-sinf	TS	3,69	4,16	1,03	1,04	[3,56; 3,82]	[4,04; 4,28]	12
	NS	3,63	3,73	0,82	1,01	[3,49; 3,77]	[3,59; 3,87]	
2-sinf	TS	3,56	3,94	1,02	0,75	[3,42; 3,7]	[3,82; 4,06]	9
	NS	3,55	3,61	1,09	1,05	[3,41; 3,69]	[3,47 3,75]	

**Xulosa.** 1. Mantiqiy masalalarning boshlang'ich sinf matematika darsligiga kiritilishi biror muammoni yechimini topishda eng sodda usulda tez hal qilishga o'rgatishni ta'minlaydi. Boshlang'ich maktab tajribasi tahlil qilinganda o'quvchilarda mantiqiy masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish mavjud, biroq ularning mantiqiy masalalarni yechishi uchun yetarlicha ko'nikma va malakaga ega emasligi aniqlandi.

2. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish orqali ular mantiqiy masalalarning turlari bilan tanish emasligi aniqlandi. Har xil turdagi mantiqiy masalalar va ularni yechishga o'rgatilishi, ayrim mantiqiy masalalarni yechish jarayonining bosqichma bosqich amalga oshirilishi o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilib, masala yechishda tizimli ishlash ko'nikmasi shakllangani kuzatildi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'rish, eshitish va birgalikda mashq qilish orqali qiziqarli narsalarni ko'proq eslab qoladi. Mantiqiy masalalarni turli predmetlar(plastilin, tugma, gugurt cho'plari, ... ) va qo'l mehnati yordamida yasalgan narsalar(raqamli kartochka, turli maketlar, ... ) yordamida amalda yechib ko'rishga o'rgatish, har xil mantiqiy muammolarni hal qilishga o'rgatish, mantiqiy muammolar, vazifalar, mashqlar va mantiqiy xarakterdagi o'yinlardan, didaktik vositalardan foydalanish esa mantiqiy masalalarni yechish jarayonida nazariy materialning mazmun-mohiyatini holda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga imkon berdi.



**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. –Toshkent, 2019 yil 3 may. <https://lex.uz/docs/4320713>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4807552>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/4312785>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4409503>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni // <http://lex.uz/docs/5013007>
6. Хинчин А. Я. О так называемых “задачах на соображение” в курсе арифметики// Матем. просв., 1961. –28 б.
7. Сухомлинский В.А. О воспитании. Москва: Политическая литература, 1982 – 270 с.
8. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. М.: Международная педагогическая академия, 1994. — 680 с.
9. Пиаже Ж.В. «Речь и мышление ребенка». — Государственное учебно-педагогическое издательство. М.: Римис, 2008. - 448 с.
10. Karimova K.R. 1-sinf o‘quvchilarida mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkurni shakllantirish. // Nam.DU ilmiy axborotnomasi. 2021 yil maxsus son, - B. 733-739.
11. Karimova K.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar. Pedogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2023. – 116 b.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING TARKIBI, ASOSIY TAMOIYILLARI, USULLARI, AFZALLIKLARI, KAMCHILIKLARI

*Norqulova Dilorom Oybekovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

*Mazkur maqola, boshlang‘ich sinflarda modulli ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati va samaradorligini tahlil etadi. Ta‘lim jarayonining zamonaviy talablarga moslashuvi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, ularning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda modulli ta‘limning o‘rni katta. Modulli ta‘lim texnologiyalari o‘quvchilarga ma‘lum bir mavzuni bir nechta kichik va mustaqil bo‘limlarga ajratib o‘rganishga imkon beradi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning diqqatini uzoq muddat davomida ushlab turish, bilimlarni yaxshiroq tushunish va ularga mustahkamlik berishga yordam beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *modulli o‘qitish, boshlang‘ich sinflar, ta‘lim texnologiyalari, interaktiv o‘qitish, shaxsiy yondashuv, ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quv metodlari, mashqlar va faoliyatlar, o‘quv materiallari, guruhli ishlar, mustaqil o‘rganish, o‘rganish tempini boshqarish, ta‘lim resurslari, multimedia texnologiyalari, o‘quvchilarning motivatsiyasi.*

### ПРИМЕНЕНИЕ МОДУЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ: СТРУКТУРА, ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ, МЕТОДЫ, ПРЕИМУЩЕСТВА, НЕДОСТАТКИ

*В данной статье анализируется важность и эффективность применения модульных образовательных технологий в начальных классах. Модульное обучение играет важную роль в адаптации образовательного процесса к современным требованиям, учёте индивидуальных потребностей учащихся, а также в развитии их навыков креативного и критического мышления. Модульные образовательные технологии позволяют учащимся изучать определённую тему, разбивая её на несколько небольших и самостоятельных разделов. Это, в свою очередь, помогает удерживать внимание учащихся в течение длительного времени, лучше понимать знания и придавать им прочность.*

**Ключевые слова:** *модульное обучение, начальные классы, образовательные технологии, интерактивное обучение, личностный подход, развитие навыков, методы обучения, упражнения и мероприятия, учебные материалы, групповая работа, самостоятельное обучение, управление темпом обучения, образовательные ресурсы, мультимедийные технологии, мотивация учащихся.*

### THE APPLICATION OF MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOLS: STRUCTURE, BASIC PRINCIPLES, METHODS, ADVANTAGES, DISADVANTAGES

*This article analyzes the importance and effectiveness of applying modular teaching technologies in primary school classrooms. The adaptation of the educational process to modern requirements, taking into account the individual needs of students, as well as developing their creative and critical thinking skills, plays a significant role in modular education. Modular educational technologies allow students to study a specific topic by breaking it down into several smaller and independent parts. This, in turn, helps to maintain students' attention for longer periods, better understand the material, and strengthen their knowledge.*

**Keywords:** *modular teaching, primary school, educational technologies, interactive teaching, personalized approach, skills development, educational methods, exercises and activities, learning materials, group work, independent learning, managing learning pace, educational resources, multimedia technologies, student motivation.*

Oʻquv jarayoni oʻqituvchining oʻqitish vositalari yordamida taʼlim oluvchilarga maʼlum bir sharoitda, muayyan ketma-ketlikda koʻrsatgan taʼsirini va taʼlim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi, texnologiyalashgan taʼlimiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Integrativ yondashuv bilimlarni oʻzlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning echimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini oʻz tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

**Integratsiya** - taʼlim jarayonida taʼlim berishning maqsad va vazifalarini bir butunlikda birlashtirishdir.

**Integrativ funksiya** - bu funksiya umumtaʼlim va kasbiy taʼlimni bogʻlovchi boʻgʻimdir. Bunda taʼlim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini - bilim, koʻnikma, malaka, meʼyor, pedagogik tizimlarni oʻzida mujassamlab: bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida har xil predmetlarda oʻtiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir boʻladigan hodisalar, tushunchalar, gʻoyalar, nazariyalar orasidagi oʻzaro integrasiya va har tomonlama bogʻlanish borligini oʻrnata olish koʻnikmalarini shakllantirish; bu bogʻlanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni taʼminlash; boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ijodkorlik masalalarini nazariy toʻgʻri texnik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechishda, turli oʻquv predmetlarini oʻrganishda olgan bilim va mahoratlari asosida texnikaviy – iqtisodiy, ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini toʻgʻri shakllantirish koʻnikmalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi[6; 20-b].

**Integratsiyalash** - lotincha “integer” - umumiylik, “integerara” - umumiylikni toʻldirish, yaratish, tiklash degan maʼnoni bildirib, u taʼlim mazmunidagi uygʻunliklarni taʼminlash muammolari ham integrasiyalashning shugʻullanadigan sohasi hisoblanadi. Taʼlim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, koʻnikmalar va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida koʻrinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integrasiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin boʻlib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita boʻlib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uygʻunlik algoritmlari yaratiladi.

Tadqiqot ishlarini bajarishda va turli fanlardagi taʼlim mazmunlarini umumlashtirish va toʻldirishda integrasiyalash jarayoni doimo qoʻl keladi va koʻzlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

**Oʻqitish mazmunini integratsiyasi** - oʻzaro taʼsir, aloqa, bir-biriga oʻtish jarayoni va natijalari, bilimlar sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir [5,16-17]. Umumiy

oʻrta taʼlim maktabi boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish oʻquv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni tabiiy fanlar bilan, tabiiy fanlarni aniq fanlar bilan, aniq fanlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bogʻlab oʻqitishni talab qiladi. Chunki, birinchidan, muammolar yechimi kompleks tadbirlarni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlardan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur boʻladi. Ikkinchidan, umumiy oʻrta taʼlim tizimida tadqiqotchilik elementlari faqat maʼlum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bogʻliqlikda namoyon boʻladi. Chunki, bironta fan doirasida uni toʻliq amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda turli fanlarni oʻqitish jarayonida ijodiy izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emas.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilikka yoʻnaltirishda muayyan taʼlim jarayonidan koʻzlangan maqsad hisobga olinadi.

Taʼlim maqsadlarini qoʻyishda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya qilinadi:

1. Mavjud ehtiyoj va muammolarning tahlili maqsadni qoʻyishning bosh asosi boʻlib xizmat qilishi, birinchidan, dastlabki imkoniyatlar, vositalar, ikkinchidan, zahiralarni kabilar;
2. Maqsadlar muhim muammolarni hal qiladigan darajada dolzarb boʻlishi;
3. Maqsadlar murakkab, biroq real boʻlishi;
4. Maqsadlarning aniq (istalgan natijaning aniq darajasi va unga erishish muddati koʻrsatilgan holda) shakllantirilgan boʻlishi (ularga erishganlikni aniqlash shuncha oson boʻladi);
5. Maqsadlar diagnostik, ragʻbatlantiruvchi, undovchi xarakterga ega boʻlishi;
6. Maqsadlar oʻquvchining oldida turgan vazifalariga mos kelishi va yaqin kelajakdagi rivojlanish doirasida boʻlishi;
7. Hamkorlikdagi faoliyat maqsadlari uning barcha qatnashchilariga maʼlum, ular tomonidan tushunilgan va anglangan holda qabul qilingan boʻlishi (bu jamoaviy faoliyat va maqsadlar birligini talab qiladi);

8. Kichikroq aniq maqsadlar yirikroq va uzoq muddatli maqsad va intilishlarga boʻysungan boʻlishi.

Bu talablar taʼlim maqsadlarining hayotiylikini taʼminlashda muhim masala sifatida namoyon boʻladi [7; 29-b]. Quyidagi masalada biz matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi doirasida matematika fanining tabiatshunoslik fani bilan aloqasini tadqiq etdik:

Hozirgi kunda boshlangʻich sinf oʻquvchilari tabiat va jamiyatning oʻzaro taʼsiri haqida birmuncha maʼlumotga ega boʻlsalarda, ular matematik muammoli vaziyatlarning miqdoriy tavsifi bilan, yaʼni, insonning atrof-muhitga taʼsirini hisoblab chiqish bilan qiziqmaydilar. Ushbu boʻshliqni inson va tabiatning oʻzaro taʼsiri jarayonlarining miqdoriy koʻrsatkichlarini hisoblash ishlarini oʻquv jarayoniga keng tarzda tatbiq etish bilan toʻldirish mumkin.

Tabiatshunoslik darslarida tegishli miqdoriy koʻrsatkichlarni olishning samarali usulidan biri – bu muammoli mazmundagi masalalarni tuzish va echishdir.

Maktab boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida matematik ifodalardan foydalanish oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi, raqamlarni taqqoslash, solishtirishga oʻrgatadi hamda bu ularni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Raqamlar ustida ishlashni xush koʻruvchi oʻquvchilar faolligini yuqori darajada taʼminlaydi. Tabiiy jarayonlarni baholash va bashoratlash koʻnikmalarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

**Xulosa.** Yuqoridagilarga asoslanib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yangi oʻquv texnologiyalarini ishlab chiqish uchun oʻquv jarayonini tashkil etish va boshqarishning didaktik tamoyillari, shaxs faoliyatining asosiy qoidalari va boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻrganish uchun shaxsga yoʻnaltirilgan integrativ yondashuvlarga asoslangan holda barcha kerakli imkoniyatlar mavjud boʻlishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T.: “Iqtisodiyot”, 2009. -B.6.
2. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований. - М.: Просвещение, 1982. – С. 151.
3. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе изучения дисциплин педагогического цикла. Монография. - Т.: “Фан”, 2003. – С. 177.
4. Jumaev M.E. Oʻquv jarayonida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining pedagogik madaniyatini tarbiyalash: Ped. fan. nom. ... diss.: - T.: 1999. –B.137.

5. Загвязинский В.И. Идея, замысел и гипотеза педагогического исследования. Т., Педагогика, 1997. - № 2. -С. 9-14.
6. Скрибицкий Э.Г., Скрибицкая И.Ю. Формирование компетентности начинающего исследователя // Инновации в образовании. 2007. №9. –С.80-90.
7. Слепенкова Э.А. Педагогическая научно-исследовательская деятельность в профессиональной подготовке учителя отечественной школы в XX веке: что изменилось за 100 лет? Вопросы образования. - М. 2004. №1. С. -94-96.
8. Тагиров В.К. Формирование научно-исследовательской компетентности студента в образовательном процессе военного вуза: дис. ... канд. пед. наук. - Оренбург, 2009. – С. 204.
9. Usmonova E.Z. O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? -Т.: Pedagogika va psixologiya ilmiy-ommabop nashri, 2000. - В. 36.



## ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Идиева Нигинабону Эркин кизи,*

*докторант Азиатского международного университета*

*В статье рассматриваются особенности применения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в начальном образовании. Приведены теоретические аспекты использования ИКТ в образовательном процессе, анализируются методики внедрения цифровых технологий в обучение младших школьников. Описаны преимущества и вызовы, связанные с использованием ИКТ, а также предложены практические рекомендации по их эффективному внедрению.*

**Ключевые слова:** начальное образование, информационно-коммуникационные технологии, цифровые образовательные ресурсы, электронное обучение, интерактивные методики.

## AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

*Maqolada boshlang‘ich ta‘limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ta‘lim jarayonida AKTdan foydalanishning nazariy jihatlari ko‘rsatilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta‘limiga raqamli texnologiyalarni joriy etish usullari tahlil qilingan. AKTdan foydalanishning afzalliklari va muammolari bayon qilinib, ularni samarali amalga oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.*

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta‘lim resurslari, elektron ta‘lim, interfaol usullar.

## FEATURES OF THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

*The article considers the features of the use of information and communication technologies (ICT) in primary education. The theoretical aspects of the use of ICT in the educational process are presented, and methods of introducing digital technologies into the education of primary school students are analyzed. The advantages and problems of using ICT are described, and practical recommendations for their effective implementation are given.*

**Keywords:** primary education, information and communication technologies, digital educational resources, e-learning, interactive methods.

**Введение.** Современное начальное образование невозможно представить без использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Цифровизация образования расширяет возможности учителей и учащихся, позволяя адаптировать образовательный процесс к индивидуальным потребностям детей. Однако успешное внедрение ИКТ требует осознания методических особенностей и педагогических подходов, которые способствуют эффективному обучению младших школьников. Цель данной статьи – исследование особенностей применения ИКТ в начальном образовании, выявление их преимуществ и возможных трудностей.

В современном мире цифровые технологии стремительно развиваются и находят своё применение в различных сферах, включая образование. Использование ИКТ в учебном процессе младших школьников способствует созданию интерактивной образовательной среды, повышению мотивации учащихся, а также развитию их когнитивных и коммуникативных навыков. Однако для эффективного внедрения ИКТ требуется учёт возрастных особенностей детей, их когнитивных способностей и специфики преподавания на начальном уровне.

Одной из главных задач современной образовательной системы является повышение качества обучения с учётом развития технологий. Использование ИКТ открывает новые возможности для формирования индивидуальных образовательных маршрутов, повышения уровня усвоения знаний и развития творческого потенциала учащихся. Тем не менее, наряду с преимуществами, цифровизация начального образования сталкивается с определёнными трудностями, такими как нехватка квалифицированных специалистов, технические ограничения и необходимость адаптации учебных программ к новым реалиям.

**Методы.** Исследование основано на анализе научной литературы, нормативных документов, а также на эмпирическом изучении опыта внедрения ИКТ в образовательные учреждения. Были использованы методы сравнительного анализа, анкетирования учителей и учащихся, а также статистическая обработка данных о результатах применения цифровых технологий в учебном процессе.

Для получения объективных данных были использованы количественные и качественные методы исследования. Анкетирование проводилось среди учителей начальных классов и учащихся с целью выявления их отношения к использованию ИКТ в образовательном процессе. Также был проведён анализ существующих цифровых образовательных платформ, применяемых в учебных заведениях, и их влияния на успеваемость учеников. Собранные данные были обработаны с помощью методов статистического анализа, что позволило выявить закономерности и тенденции внедрения ИКТ в начальном образовании.

**Результаты.**



**Рисунок 1. Роль ИКТ в начальном образовании**

Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) играют значительную роль в начальном образовании, способствуя повышению качества обучения, улучшению взаимодействия между учителем и учениками, а также развитию ключевых компетенций у младших школьников. Использование цифровых технологий в учебном процессе позволяет сделать обучение более интерактивным, адаптивным и увлекательным.

Интерактивность и вовлечённость учеников. ИКТ помогают сделать учебный процесс более интересным и динамичным. Интерактивные доски, образовательные программы, мультимедийные материалы и виртуальные лаборатории превращают традиционный урок в познавательное приключение. Визуализация учебного материала способствует лучшему пониманию и запоминанию информации. Например, использование анимаций в объяснении сложных понятий (например, природных явлений или математических моделей) делает материал более доступным для младших школьников.

Индивидуализация и адаптация обучения. Одним из ключевых преимуществ ИКТ является возможность адаптировать образовательный процесс под индивидуальные особенности учащихся. Системы электронного обучения позволяют регулировать темп прохождения материала, предлагать задания различной сложности и отслеживать прогресс каждого ученика. Такие подходы особенно полезны для детей с особыми образовательными потребностями, которым требуется дополнительное внимание со стороны педагога.

Развитие цифровых компетенций. Современные дети растут в цифровой среде, и начальная школа должна закладывать основу для их будущей информационной грамотности. Использование ИКТ помогает младшим школьникам освоить базовые навыки работы с компьютером, интернетом, электронными ресурсами, а также научиться безопасному поведению в сети. Эти знания необходимы для успешной учебы в старших классах и будущей профессиональной деятельности.

Повышение эффективности образовательного процесса. ИКТ обеспечивают более оперативную обратную связь между учителем и учениками. Цифровые платформы для проверки знаний (например, Kahoot, Quizizz, Google Classroom) позволяют мгновенно анализировать результаты тестов и контролировать усвоение материала. Это даёт возможность педагогу своевременно корректировать образовательный процесс, уделяя больше внимания сложным для понимания темам.

Расширение образовательных возможностей. Благодаря ИКТ учащиеся могут получать доступ к образовательным ресурсам со всего мира. Видеоуроки, онлайн-курсы, виртуальные экскурсии, электронные библиотеки и интерактивные приложения делают учёбу более разнообразной. Например, изучение иностранных языков с помощью мобильных приложений или участие в

международных образовательных проектах способствует углублению знаний и расширению кругозора детей.

**Формирование новых методов преподавания.** Цифровые технологии открывают перед учителями новые методы преподавания, такие как смешанное обучение (blended learning), перевернутый класс (flipped classroom) и проектно-исследовательские методики. Эти подходы способствуют активному вовлечению детей в образовательный процесс, формируют навыки самостоятельного поиска информации, критического мышления и командной работы.

**Геймификация учебного процесса.** Использование игровых элементов в образовании помогает повысить мотивацию учащихся. Образовательные игры, квесты и соревнования делают учебу более увлекательной, побуждая детей к активному участию в процессе обучения. Геймификация способствует развитию настойчивости, логического мышления и способности решать сложные задачи.

**2. Преимущества внедрения ИКТ.** Внедрение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в начальное образование оказывает положительное влияние на качество обучения, повышает мотивацию учащихся и способствует формированию ключевых навыков XXI века. Рассмотрим основные преимущества использования ИКТ в образовательном процессе младших школьников.

#### **Индивидуализация обучения.**

Одним из главных преимуществ ИКТ является возможность адаптации учебного процесса под индивидуальные особенности и потребности каждого ученика.



**Рисунок 2. Повышение мотивации и вовлечённости учащихся**

Использование ИКТ делает учебный процесс более интересным и увлекательным.

**Развитие когнитивных и коммуникативных навыков.**

ИКТ способствуют развитию ключевых компетенций младших школьников, включая:

- *Критическое мышление* – интерактивные задания помогают детям анализировать информацию и находить логические решения.
- *Креативность* – работа с цифровыми инструментами развивает творческий подход к решению задач.
- *Коммуникационные навыки* – участие в онлайн-обсуждениях, совместные проекты и интерактивные уроки способствуют развитию устной и письменной речи.
- *Навыки работы с информацией* – дети учатся искать, анализировать и структурировать информацию, что является важным навыком для будущего обучения.

**Оперативная обратная связь и контроль знаний.**



**Рисунок 3. Расширение образовательных возможностей**

ИКТ дают доступ к огромному количеству образовательных ресурсов, что делает обучение более разнообразным и глубоким.

- Электронные учебники, видеоуроки и виртуальные лаборатории позволяют изучать материал в интерактивной форме.
- Онлайн-курсы, вебинары и образовательные платформы дают возможность расширять знания за пределами стандартной школьной программы.
- Виртуальные экскурсии позволяют изучать историю, искусство и науку, не выходя из класса.

Таким образом, ИКТ помогают детям получать знания из различных источников и развивать навыки самостоятельного обучения.

**Гибкость образовательного процесса.**

Благодаря ИКТ процесс обучения становится более гибким и доступным:

- Ученики могут изучать материал не только в классе, но и дома, используя онлайн-ресурсы.
- Дистанционное обучение позволяет продолжать учебу в любых условиях, например, во время карантина или болезни.
- Электронные учебные материалы могут обновляться в реальном времени, обеспечивая актуальность информации.
- Гибкость образовательного процесса делает его более адаптивным и удобным для всех участников.

**Развитие цифровой грамотности.**

Современный мир требует от человека владения цифровыми технологиями. Использование ИКТ в начальном образовании помогает детям освоить:

- Основы работы с компьютером и планшетом.
- Навыки поиска информации в интернете.
- Основы безопасного поведения в цифровой среде.
- Программирование и работу с простыми алгоритмами (например, в Scratch).

Ранняя цифровая грамотность формирует у ребенка уверенность в использовании технологий и подготавливает его к обучению в старших классах и будущей профессиональной деятельности.

**Снижение нагрузки на учителя.**

ИКТ помогают автоматизировать рутинные процессы, позволяя учителю сосредоточиться на самом важном – обучении детей.

- Автоматическая проверка заданий экономит время.
- Электронные дневники и системы управления обучением упрощают администрирование.
- Цифровые материалы позволяют легко обновлять и адаптировать учебные программы.
- Это повышает эффективность работы педагога и делает учебный процесс более организованным.

**3. Вызовы и проблемы применения ИКТ.**

Несмотря на многочисленные преимущества информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательном процессе, их внедрение в начальную школу сопровождается рядом вызовов и проблем. Эти трудности связаны как с техническими аспектами, так и с педагогическими и психологическими факторами. Рассмотрим основные препятствия, с которыми сталкиваются школы, учителя, ученики и родители при использовании ИКТ.

Вызовы и проблемы применения ИКТ				
1.	<b>Недостаточная подготовка педагогов</b>	Одной из ключевых проблем является нехватка квалифицированных специалистов, способных эффективно использовать ИКТ в образовательном процессе.	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Многие учителя не обладают достаточными цифровыми компетенциями и испытывают трудности в работе с интерактивными платформами.</li> <li>➤ Отсутствие систематического обучения педагогов по использованию ИКТ в учебном процессе снижает эффективность цифровых инструментов.</li> <li>➤ Учителя часто перегружены административной работой, и у них нет времени на освоение новых технологий.</li> </ul>	<b>Решение:</b> необходимо организовывать регулярные курсы повышения квалификации и профессиональную поддержку педагогов в области ИКТ.
2.	<b>Ограниченный доступ к техническим ресурсам</b>	Не все школы оснащены современными компьютерами, планшетами, интерактивными досками и качественным интернет-соединением.	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ В некоторых образовательных учреждениях устаревшее оборудование не позволяет полноценно использовать современные цифровые технологии.</li> <li>➤ Разница в финансировании школ приводит к неравномерному распределению ресурсов: в сельских школах техническое обеспечение часто хуже, чем в городских.</li> <li>➤ Высокая стоимость программного обеспечения и технического обслуживания затрудняет массовое внедрение ИКТ.</li> </ul>	<b>Решение:</b> требуется государственная поддержка школ в виде финансирования на приобретение оборудования, а также сотрудничество с технологическими компаниями.
3.	<b>Когнитивная</b>	Чрезмерное	➤ Постоянное	<b>Решение:</b>

	<b>перегрузка учащихся</b>	использование цифровых технологий может привести к информационной перегрузке и снижению концентрации внимания у детей.	взаимодействие с экранами может ухудшать усвоение учебного материала. Младшие школьники не всегда способны самостоятельно фильтровать информацию и могут <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ испытывать сложности при работе с электронными ресурсами.</li> <li>➤ Виртуальная среда обучения снижает навыки работы с традиционными методами обучения (чтение книг, работа с бумажными учебниками).</li> </ul>	необходимо балансировать цифровые и традиционные методы обучения, использовать технологии только в образовательных целях и следить за экранным временем детей.
4.	<b>Проблемы дисциплины и контроля</b>	Использование цифровых технологий может привести к трудностям в управлении классом.	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Ученики могут отвлекаться на игры, социальные сети и другие развлечения, используя гаджеты не по назначению.</li> <li>➤ В условиях дистанционного обучения сложно контролировать, действительно ли ребенок выполняет задания или просто находится перед экраном.</li> <li>➤ Некоторые платформы и приложения не адаптированы для младших школьников и могут содержать отвлекающие элементы.</li> </ul>	<b>Решение:</b> важно разрабатывать четкие правила использования цифровых инструментов в классе и контролировать образовательный процесс с помощью специальных программ родительского контроля и мониторинга активности.
5.	<b>Риск цифровой зависимости</b>	Чрезмерное использование гаджетов может негативно сказаться на психическом здоровье ребенка.	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Возникает зависимость от экранов, когда дети предпочитают цифровые развлечения живому общению.</li> <li>➤ Уменьшается физическая активность, что может привести к проблемам со здоровьем.</li> <li>➤ Повышенная эмоциональная нагрузка от постоянного взаимодействия с технологиями может вызывать стресс и тревожность.</li> </ul>	<b>Решение:</b> необходимо ограничивать время использования гаджетов, сочетать онлайн- и офлайн-активности, а также воспитывать у детей цифровую культуру.
6.	<b>Безопасность в интернете</b>	Одной из серьезных проблем является кибербезопасность и защита персональных данных учащихся.	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Дети могут столкнуться с онлайн-угрозами, такими как кибербуллинг, мошенничество, нежелательный контент.</li> <li>➤ Отсутствие контроля со</li> </ul>	<b>Решение:</b> необходимо обучать детей основам цифровой безопасности, использовать

			<p>стороны взрослых может привести к утечке личной информации.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Использование бесплатных цифровых платформ иногда сопряжено с рисками сбора персональных данных учеников.</li> </ul>	<p>надежные образовательные платформы и внедрять системы родительского контроля.</p>
7.	<b>Ограничение живого общения и социализации</b>	<p>Избыточное использование ИКТ в образовании может привести к снижению навыков живого общения у детей.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Младшие школьники учатся взаимодействовать друг с другом через игры, групповые проекты и совместные задания, а чрезмерное использование технологий может ограничивать этот опыт.</li> <li>➤ Дистанционные форматы обучения уменьшают личный контакт между учениками и учителями.</li> <li>➤ Недостаток эмоционального общения может негативно сказаться на развитии детей.</li> </ul>	<p><b>Решение:</b> необходимо сочетать цифровые и традиционные формы обучения, создавать условия для совместных офлайн-активностей и живого общения в классе.</p>
8.	<b>Сложность интеграции ИКТ в учебные программы</b>	<p>Не все образовательные программы адаптированы к использованию цифровых технологий.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Учебные материалы и стандарты часто отстают от технологических новшеств.</li> <li>➤ Не во всех предметах возможно полноценно использовать цифровые технологии.</li> <li>➤ Учителям приходится самостоятельно разрабатывать методики интеграции ИКТ, что увеличивает нагрузку.</li> </ul>	<p><b>Решение:</b> необходимо разработать государственные стандарты и рекомендации по использованию ИКТ в начальной школе, а также предоставить педагогам готовые методические материалы.</p>

**Обсуждение.** Внедрение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в начальное образование оказывает значительное влияние на образовательный процесс, способствуя его модернизации и повышению качества обучения. Цифровые технологии позволяют адаптировать содержание уроков под индивидуальные особенности учеников, развивать их критическое мышление, логику и креативность. Интерактивные платформы, мультимедийные учебные материалы и электронные образовательные ресурсы делают процесс обучения более динамичным и увлекательным, способствуя активному вовлечению детей. Однако эффективность применения ИКТ зависит от уровня цифровой подготовки учителей и доступности технических ресурсов в школах.

Несмотря на преимущества, широкое использование ИКТ в начальном образовании сопряжено с рядом вызовов, включая необходимость повышения цифровой грамотности педагогов, обеспечение кибербезопасности учащихся и поддержание баланса между онлайн- и офлайн-обучением. Одной из проблем является риск перегрузки учеников информацией, а также снижение уровня социализации при чрезмерном использовании цифровых инструментов. Поэтому важно сочетать традиционные методы преподавания с инновационными технологиями, создавая гармоничную образовательную среду, которая поддерживает развитие ребенка как в когнитивной, так и в социальной сферах.



Кроме того, цифровизация образования требует не только обновления учебных программ, но и внедрения новых педагогических методик, способных эффективно использовать ИКТ. Государственная поддержка, профессиональное развитие учителей и равномерное распределение технологических ресурсов между образовательными учреждениями являются ключевыми факторами успешной интеграции ИКТ. В будущем исследования в данной области должны быть направлены на выявление оптимальных стратегий внедрения цифровых технологий, оценку их влияния на успеваемость учеников и разработку методических рекомендаций для их эффективного использования в начальном образовании.

**Заключение.** Внедрение информационно-коммуникационных технологий в начальное образование открывает новые возможности для повышения качества обучения, индивидуализации образовательного процесса и развития ключевых компетенций у младших школьников. Использование цифровых инструментов способствует усилению интерактивности, гибкости и доступности учебных материалов, повышая мотивацию учащихся и вовлекая их в активное освоение знаний. Однако эффективное применение ИКТ требует не только технического оснащения школ, но и соответствующей подготовки педагогов, создания методических рекомендаций и обеспечения кибербезопасности учеников.

Несмотря на ряд вызовов, включая нехватку квалифицированных специалистов, возможные когнитивные перегрузки и риски цифровой зависимости, грамотное сочетание традиционных и цифровых методов обучения позволяет минимизировать негативные последствия. Для успешной интеграции ИКТ в начальное образование необходим комплексный подход, включающий государственную поддержку, модернизацию учебных программ и внедрение педагогических стратегий, направленных на эффективное использование технологий. В дальнейшем исследования в данной области должны сосредоточиться на разработке оптимальных моделей цифрового обучения, оценке его долгосрочного влияния на успеваемость школьников и создании эффективных инструментов для поддержки учителей в этом процессе.

#### Литература:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы контроля за внедрением информационных технологий и коммуникаций, организации их защиты». 14 сентября 2019 г., № ПП-4452. //www.lex.uz
2. Абдукодилов А., Хайитов А., Шодиев А. Информационные технологии. – Ташкент: «Ношир», – 2009.
3. Бегимкулов У. Научно-теоретические основы внедрения современных информационных технологий в педагогическое образование. Монография. – Ташкент: Фан, – 2007.
4. Косимов С. Информационные технологии. – Ташкент. – 2006.



MAQOLLARNI O‘QISH DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI NUTQINI O‘STIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

*Atajonova Anorgul Jumaniyazovna,*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedra mudiri, dotsent*

*anorgulatajonova005@gmail.com*

*Ilxomova Suyumaxon Po‘latjon qizi,*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi magistranti*

*ilxomovasuyumaxon@gmail.com*

*Mazkur maqolada maqollarni o‘qish darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishning metodik imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Unda o‘quvchilarning lug‘at boyliklarini oshirishda maqollarning o‘rni tahlil qilinadi hamda maqollarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ish turlari aks ettiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, maqol, o‘qish savodxonligi, nutq, nutq o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, zid ma’noli so‘zlar, mustaqil ish, didaktik material.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ ПОСЛОВИЦ

*В данной статье показаны методические возможности развития речи учащихся младших классов на уроках чтения пословиц. Анализируется роль пословиц в увеличении словарного запаса учащихся и показаны виды работы, используемые при обучении пословицам.*

***Ключевые слова:** начальное образование, пословица, грамотность чтения, речь, речевое развитие, работа над словарным запасом, слова с противоположным значением, самостоятельная работа, дидактический материал.*

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF SPEECH DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN PROVERB READING LESSONS

*This article shows the methodical possibilities of developing the speech of elementary school students in the lessons of reading proverbs. It analyzes the role of proverbs in increasing students' vocabulary. It analyzes the role of proverbs in increasing students' vocabulary and shows the types of work used in teaching proverbs.*

***Key words:** primary education, proverb, reading literacy, speech, speech development, working on vocabulary, words with opposite meanings, independent work, didactic material.*

**Kirish.** Maktab ta’lim-tarbiya maskani bo‘lib, shaxsning kelajagi shu maskanda uning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish o‘qituvchining o‘z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liqdir. Barkamol insonni, ya’ni, avvalo, o‘zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxsni tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo‘yiladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “...Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz”.

Boshlang‘ich ta’lim inson kamolotida juda muhim bosqich sanaladi. Ayniqsa, unda o‘quvchilarning nutqni o‘stirish, o‘z fikrini ham og‘zaki, ham yozma ifodalashga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nutq o‘stirishda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining bu jihatdan muhim ekanligini ta’kidlash joiz. Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra o‘quv materiallarining salmoqli qismini xalq og‘zaki ijodi namunalari tashkil etadi. Chunki boshlang‘ich sinfdagi xalq og‘zaki ijodi asarlari o‘quvchilar tomonidan sevib o‘rganiladi.

Xalq og‘zaki ijodi kishilik jamiyatning eng sevgan va e‘zozlab kelgan ijodiy mahsulidir. Otabobolarimiz o‘z farzandlarini tarbiyalashda undan unumli foydalanganlar. Xalq og‘zaki ijodi ayrim kishilar qalamiga mansub bo‘lmay, balki umumxalq mulkidir.[1.4.] Shuning uchun ham har bir maqol va ertak xalqning turmush tajribalari asosida maydonga kelgan. Har bir maqol yoki ertak xalq pedagogikasi namunasi sifatida bolalarni turmush tajribalari bilan tanishtiradi. Ularga axloqiy fazilatlarini singdiradi.

**Asosiy qism.** Bola tarbiyasi ko‘p qirrali sohadir. Bolalarni psixo-fiziologik jihatdan tarbiyalashda ham xalq og‘zaki ijodining ahamiyati benihoyadir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan xalq og‘zaki ijodi asarlaridan biri maqollardir. Xalq yaratgan g‘oyat ixcham, chuqur va tugal ma‘noli gaplar, she‘riy parchalar *maqol* deb ataladi. Maqol atamasi arabcha *qavlun*, ya‘ni gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. Xalqning turmush tajribasida sinalgan, barcha tomondan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuntiriladigan ixcham she‘riy shaklga ega bo‘lgan ibora va hikmatli so‘zlar maqol janrini tashkil etadi [1.91].

Maqol xalqning ko‘p asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janr sanaladi.

Maqol qator xususiyatlari bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Chunki xalq doston va ertaklari, afsona va rivoyatlari, naql va latifalari voqelikni epik planda rang-barang obrazlarning xatti-harakati kechinmalari orqali aks ettirsa, maqollar voqelikni xalqning bevosita ana shu voqealik haqida xulosalar, hukmlari orqali aks ettiradi.

Maqollarda ibratli fikr aytiladi. Maqol xalq hayoti, orzu-intilishlari va dunyoqarashini ko‘p asrlik tajribalarida sinovdan o‘tkazib aks ettirishi tufayli kundalik turmushimizda katta g‘oyaviy tarbiyaviy ro‘l o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinflarda maqollarni o‘rganish orqali o‘quvchilar og‘zaki nutqi o‘stiriladi hamda tafakkuri, ma‘naviy dunyosi boyitiladi.

Maqollardagi so‘zlar, odatda, ko‘p vaqt ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi. Maqollarni tahlil qilishda shu ko‘chma ma‘noli so‘zlarga alohida to‘xtaladi, u so‘zlar orqali berilgan fikr ochiladi. Bu esa bolalarni so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolari bilan tanishtiradi, o‘z navbatda, bolalarni sezgirikka, har qanday qochirimli so‘zlarni tez anglashga o‘rgatadi. Shu jihatdan maqollar o‘quvchilar nutqini o‘stirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinfda maqolning mazmunini o‘rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so‘zlar, birikmalar ustida lug‘at ishi o‘tkazish, badiiy til vositalari, ko‘chma ma‘noli, qarama-qarshi ma‘no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so‘zlar ma‘nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi hamda bular o‘quvchi nutqini boyitishga yo‘naltiriladi. Masalan, “Ona yurtning – oltin beshiging” maqoli matni ustida ishlaganda, “Yurt” so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?”, “Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?”, “Beshik oltin bo‘ladimi?” kabi savollar berish yo‘li bilan o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, nutqini o‘stirish ustida ishlanadi.[7]

Maqollar badiiylikka ega bo‘lib, ma‘lum ohangda o‘qiladi, bu esa maqol mazmunining o‘quvchi ongiga oson yetib borishini ta‘minlaydi. Maqollardagi ohangdorlik - ayrim undosh tovushlar, ayrim so‘zlarning takrorlanishi yoki qofiyalanishi tufayli tug‘ilgan. Masalan:

Har bir ishning vaqti bor,

Vaqt bilganning baxti yor. (2-sinf)

Yaxshilik nur keltirar,

Yomonlik- zulmat. (3-sinf)

Vatan gadosi- kafan gadosi. (4-sinf)

Ammo ba‘zi maqollar birgina gapdan iborat bo‘ladi. Masalan: “Yaxshilik yerda qolmas” (3-sinf), “Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas” (4-sinf) kabi. Axloq, odob bahsidagi maqollarni tahlil etish orqali xalqning hukmi ifoda etiladiki, bu maqollarni o‘rganish orqali o‘quvchilar asrlar davomida avlodlardan avlodga o‘tib kelayotgan eng oliyjanob fazilatlar haqida fikrga ega bo‘ladilar.

Maqollarni anglatgan ma‘nolarini ochishda yil fasllari, har xil mavsumlar va hunarlarning nomlarini ham hisobga olish foydalidir. Ular o‘quvchilarning lug‘at boyliklarini oshiradi, so‘zlarni ko‘plab o‘zlashtirishlariga olib keladi. So‘zlar lug‘aviy ma‘nosining o‘quvchilar tomonidan anglashilishi nutq o‘stirish bilan bog‘liq muhim vazifalardan bo‘lib, keyingi bosqichda gapdagi muayyan lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan so‘z ustida ishlashda o‘z samarasini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imkon qadar ko‘p antonim (zid ma‘noli so‘zlar)larni eslab qolishi bu jarayonni amalga oshirishdagi muhim omil sanaladi. Zid ma‘noli so‘zlar esa maqollarda ko‘plab uchraydi.

“O‘qish savodxonligi” darsliklaridagi quyidagi maqollar yuzasidan turlicha ishlar tashkil etish, maqollar ma‘nosini ulardagi zid ma‘noli so‘zlarni topish orqali tushuntirish mumkin:

Kattaga hurmatda bo‘l,

Kichikka izzatda.

Yaxshi so‘z - jon ozig‘i,

Yomon so‘z- bosh qozig‘i.

Kamtarga kamol, mamanga zavol.

O‘qituvchi maqol mazmunini so‘zlashdan oldin, uni ifodali o‘qib beradi. Shundan so‘ng o‘qish texnikasini yaxshi egallagan o‘quvchilarning ikki - uchtasi maqolni o‘qiydi. Masalan: o‘qituvchi “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘” maqolini o‘qishda quyidagilarga amal qiladi:

Birinchi misradagi yaxshidan so‘zi ikkinchi misradagi yomondan so‘zlaridan farqli (ohang jihatidan) ravishda o‘qiladi.

1. O‘qituvchi maqolni o‘qish jarayonida, birinchi misradan so‘ng qisqa pauza qiladi.
2. Ifodali o‘qish jarayonida yaxshi, yomon, bog‘, dog‘ so‘zlarini doskaga yozib boradi.

Shu talablarga asosan, o‘rganilgan maqol o‘quvchilarda ifodali o‘qish uchun zamin tayyorlaydi. Shuningdek, yaxshi insonlar, ezgu fazilatlar egasi doimo xalq orasida ehtirom bilan tilga olinishi, u keyingi avlodlarga ham o‘z yaxshi fazilatlarini bila o‘rnak bo‘lishi tushuntiriladi. Chunki bog‘ hamisha yashnab turadigan, o‘z ne‘matlari bilan barchani xushnud qiladigan maskandir. Yomonlik ham unutilmaydi, binobarin u o‘zidan og‘riqli iz qoldiradi. Bu og‘riq inson qalbida dog‘ misoli bo‘ladi. Shuning uchun har bir inson faqat yaxshilik qilishga, ezgu ishlarni amalga oshirishga harakat qilishi lozimligi haqida o‘quvchilar bilan suhbat olib boriladi. Yomon ishlardan chekinish zarurligi uqtiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda maqolni o‘rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Maqolni o‘qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so‘zlarning ma‘nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.

5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma‘noli va ma‘nodosh so‘zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g‘oya bilan aloqasini ochish.

6. Matn mazmuni va g‘oyasiga mos maqol toptirish.
7. Maqollarni mavzular bo‘yicha guruhlash [2].

Maqollarni o‘rganish darslarida guruhlar bilan ishlash ham samarali hisoblandi. Bunda sinf o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda to‘rt yoki besh guruhga bo‘linishi mumkin.

Bunda har bir guruhga bitta maqol beriladi. Guruh ishtirokchilari birgalikda oxiri berilgan maqol bilan xulosalanadigan hikoya tuzib yozishadi. O‘qituvchi guruhlarga quyidagi maqollarni bo‘lib berishi mumkin:

- 1) Hamjihatlik — davlat, yolg‘izlik - kulfat.
- 2) Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq.
- 3) Odobli — elda aziz.
- 4) Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda.

Hikoyani ertak tarzida yoki hayotda uchraydigan biror voqea tarzida yozish bo‘yicha maslahat va yordam beriladi. Masalan, “Odobli — elda aziz” maqoli asosida taxminan quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

Odiljon oyisi, dadasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pista-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho‘xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo‘l cho‘zavermadi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni “odobli bola ekan” deyishdi. Odiljon “Odobli — elda aziz” ekanligini bilib oldi.

Bunday topshiriqlar mustaqil ish sifatida vazifa qilib berilishi ham mumkin. Shuningdek, maqol janri bo‘yicha tahliliy ishlar o‘quvchilarning davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya‘ni “Asar g‘oyasiga oid maqol aytish”, “Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating” kabi topshiriqlar beriladi, “Maqollar aytish musobaqasi”, “Maqollar mushoirasi” kabilar tashkil qilinadi. Albatta, bular ham o‘quvchilarni o‘z nutqlarida maqollardan unumli foydalanish malakalarini shakllantirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishda qimmatli didaktik material sanaladi.

**Muhokama va natijalar.** 3-sinfda “Insoniy fazilatlar to‘g‘risida maqollar” mavzusini o‘rganish uchun alohida o‘quv soatlari ajratilgan. Bunda maqollarni o‘rganishda ularning mavzusiga ko‘ra guruhlanishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Xususan, bunda o‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchi lug‘at ustida ishlash metodikasidan samarali foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, so‘zni matn asosida tushuntirish, so‘zni o‘ziga yaqin tushuncha bilan, ya‘ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish, axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma‘nosini misollar yordamida tushuntirish kabi ish usullarini bu o‘rinda qo‘llash joiz bo‘ladi. O‘quvchilar tushunmaydigan so‘z ularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntirilsa nutq o‘stirish samaradorligi ancha oshadi. adi.

“O‘qish savodxonligi” kitobiga kiritilgan asarlar mazmunida vatan haqidagi bilimlar sinfdan - sinfga o‘tish bilan tobora chuqurlashib boradi. Vatan, uning mustaqilligi, sharafligi o‘tmishi va qahramonona hozirgi kuni o‘qish kitobida markaziy mavzu hisoblanadi. O‘quvchilarda vatan tushunchasi, ona vatan tabiati haqidagi aniq tasavvur mehnat ahli va ularning kasblari haqidagi, yurtimizning mustaqilligi, dunyodagi ilg‘or mamlakatlar bilan hamkorlik haqidagi asarlarni o‘qish jarayonida asta-sekin shakllana boradi. Vatan

tushunchasi bolalarning qabul qilish va umumlashtira olishiga muvofiq bo‘lgan maqollar orqali singdiriladi.

O‘qilgan maqollarning qimmatini shundaki, u o‘quvchi bilimni kengaytirish bilan bir vaqtda tarbiyaviy vazifalarni ham hal qiladi. V.A.Suxamlinskiy bu haqda shunday deydi:

“Bolalar dunyoni va o‘z-o‘zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar uchun o‘zining mas’ulligini o‘z-o‘zidan bila borishlari kerak... Bolaga yaxshilik va yomonlikni, to‘g‘rilikni ko‘rish imkonini berish kerak. Yaxshilik unga quvonch, zavq, hayajon, ma’naviy go‘zallikka erishish ishtiyoqini beradi. Yomonlik qahr-g‘azab, murosasizlik uyg‘otadi. Haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma’naviy kuchga to‘ldiradi.”

Ma’lumki, “Vatan” (arabcha ona yurt) kishilarning yashab turgan, ulaming avlod va ajdodlari tug‘ulib o‘gan joyi hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati tarixidir. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o‘tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo‘lgan tushunchadir. Vatanparvarlik vatanga muhabbatdir. Bu tuyg‘u odamda tabiiy ravishda mavjuddir. U o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyni, qo‘ni - qo‘shnilarni, tanish - bilishlarni, mahallasi, ko‘chasi kattaroq qamrovda olib qaraganda shahrini ko‘rmas qolsa sog‘inadi. O‘sha joylarga qaytishga harakat qiladi. Shuning uchun ham xalqimiz “O‘zga yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l”, “O‘lsang o‘l, vataningda bo‘l” kabi naqllarni bitgan. Hadisi sharifda ham “Vatanni sevmoq iymondandir” degan hikmat bekorga aytilmagan.

“O‘qish savodxonligi” darsliklarining birinchi bo‘limi, ilk darslar Ona –vatan mavzusi bilan boshlanadi. Xususan, “Ona vatan bag‘rida baxtiyor avlod” (2-sinf), “Vatan madhi dillarda” (3-sinf), “Yagonadir Vatanning sening” (4-sinf) kabi bo‘limlar o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ularda Vatanga sadoqat, ehtirom kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Qayd etilgan bo‘limlarda bir qator maqollar ham berilgan bo‘lib, “Ona yurtning-oltin beshiging”, “Vatani borning baxti bor, mehnati borning taxti bor”, “Devona tuproq-devona tuproq” kabi maqollar Ona-Vatanning muqaddas joy ekanligini ko‘rsatib bersa, Vatanni asrash, uni himoya qilish kabilarga undash esa “Vatanni sotgan er bo‘lmas”, “Vatanning tinch - sen tinch” kabi maqollar orqali o‘quvchilarga singdirib boriladi.

Matn o‘qilgach, uning g‘oyasi asosida berilgan maqollarning mazmuni ochib berilsa, ish samarasi yuqoriroq bo‘ladi. Maqollar mazmun-mohiyatini anglab olgan o‘quvchilardan shu maqol mazmuniga doir boshqa turdagi asarlarni, xususan, hikoya, ertak, rivoyat yoki she‘rlarni so‘rash va ularni aytirish ham yaxshi samara beradi.

**Xulosa.** Ko‘rinadiki, o‘qish savodxonligi darslarida maqollar bilan tanishish, ularni yod olish o‘quvchilar uchun nutqni boyitish va rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. O‘qituvchi maqol ustida ishlaganda undagi so‘zlarni shunchaki ta’kidlamasdan, ular nima uchun maqol matnida qo‘llanilganini izohlab berishi lozim. Yana shuni ta’kidlash kerakki, xalq maqollari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy fazilatlarini tarbiyalashda, ularda yuksak ma’naviyatni shakllantirishda, kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishlarida juda katta ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990.
2. Mirzayev I. Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘rganish. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 1979.
3. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.-351 b.
4. Matchonov S., Bakiyeva H., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent: “Ishonchli hamkor”, 2021.- 740 b.
5. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti.- Toshkent: “Musiqqa”, 2010.-368 b.
6. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. 1-qism.- Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.- 80 b.
7. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. 2-qism.- Toshkent: “Novda edutainment”, 2023.
8. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 3-sinf. 1-qism.- Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.- 80 b.
9. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 4-sinf. 1-qism.- Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.- 80 b.

## FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘RGANISH

### INGLIZ TILI DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM ASOSIDA TALABALARNI FAOLLASHTIRISH METODIKASI

*Hamroyeva Zilola Hikmatovna,*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti*

*O‘zbek tili va adabiyot, rus va ingliz tillari kafedrasida asisstanti*

*hamroyevazilola833@gmail.com*

*Ushbu maqola talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish uchun ingliz tili darslarida integratsiyalashgan o‘qitish usullaridan foydalanish metodologiyasini o‘rganadi. Integratsion ta’limning nazariy asoslariga tayanib, tadqiqot fanlararo darslarni amalga oshirish haqida tushuncha beradi, talabalarni faollashtirishning amaliy usullarini muhokama qiladi va ingliz tilini boshqa fanlar bilan integratsiyalash natijalarini baholaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *integratsion ta’lim, integratsiyalashgan darslar, integrativ yondashuv, asosiy konsepsiya, raqamli platforma, integratsiyalashgan metod.*

### МЕТОДИКА АКТИВИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

*В данной статье исследуется методика использования интегрированных методов обучения на занятиях по английскому языку для повышения вовлечённости и мотивации студентов. Основываясь на теоретических основах интегрированного образования, исследование даёт представление о реализации междисциплинарных уроков, обсуждает практические методы активизации студентов и оценивает результаты интеграции английского языка с другими предметами.*

**Ключевые слова:** *интегрированное образование, интегрированные уроки, комплексный подход, базовая концепция, цифровая платформа, интегрированный метод.*

### METHODOLOGY FOR STUDENT ACTIVATION BASED ON INTEGRATED LEARNING IN ENGLISH CLASSES

*This article explores the use of integrated teaching methods in English classes to increase student engagement and motivation. Based on the theoretical foundations of integrated education, the study provides insight into the implementation of interdisciplinary lessons, discusses practical methods for activating students, and evaluates the results of integrating English with other subjects.*

**Keywords:** *integrated education, integrated lessons, integrated approach, basic concept, digital platform, integrated method.*

**Xulosa.** Ingliz tilida nutqni rivojlantirish uchun boshlang'ich sinflardan ta'lim beruvchidan yuqori darajada malaka hamda ko'nikmani talab etadi. Darslarni oldindan reja asosida nazariy hamda amaliy jihatdan taqsimlanib olinsa, ya'ni interaktiv o'yinlar turli xil musiqalarni yod olish sahna ko'rinishlarini tashkil etish bolada tilga nisbatan qiziqish uyg'oytadi. Natida o'quvchi xorijiy tilda tezroq gapirishni o'rganishga harakat qiladi va sekinlik bilan kundalik odatga aylanib boradi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdug'afurovich, R. B. (2022). Innovation Technologies in Teaching English. // American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 288-291.
2. Hoshimov O. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi-Toshkent-2003-yil.
3. Iriskulov A. T. va boshqalar Kids English pupils book 2-sinf-Toshkent O'zbekiston; 2014.
4. Khodjayev, K. K. (2021). The specificity and complexity of the process of learning English. // International Journal on Orange Technologies, 3(6), 21-24.
5. Nabijanovna, R. M. (2022). Pedagogical and communicative skills.
6. <http://www.ziyonet.uz>.
7. <http://www.pedagog.uz>.
8. Aksal, F. A. (2009). Action plan on communication practices: Roles of tutors at EMU Distance Education Institute to overcome social barriers in constructing knowledge. The Turkish Online Journal of Educational Technology, 8(2), 33-47.
9. Bialo, E. R., & Sivin-Kachala, J. (1996). The effectiveness of technology in schools: A summary of recent research. School Library Media Quarterly, 25(1), 51-57.
10. Blachowicz, C., Bates, A., Berne, J., Bridgman, T., Chaney, J., & Perney, J. (2009). Technology and at-risk young readers and their classrooms. Reading Psychology, 30(5), 387-411. <http://dx.doi.org/10.1080/02702710902733576>.
11. Carlson, S., & Firpo, J. (2001). Integrating computers into teaching: Findings from a 3-year program in 20 developing countries.

12. In L. R Vandervert, L. V. Shavinina, & R. A. Cornell (Eds.), *Cyber education: The future of distance learning*. Larchmont, NY: Mary Ann Liebert, Inc, 85-114. Choi,
13. C. C., & Ho, H. (2002). Exploring new literacies in online peer-learning environments. *Reading Online*, 6(1). Retrieved September 10, 2012, from [readingonline.org/newliteracies/lit\\_index.asp?HREF=choi/index.html](http://readingonline.org/newliteracies/lit_index.asp?HREF=choi/index.html) Considine,
14. D., Horton, J., & Moorman, G. (2009). Teaching and reading the millennial generation through media literacy. *Journal of Adolescent and Adult Literacy*, 52(6), 471-481.
15. Fidaoui, D., Bahous, R., & Bacha, N. N. (2010). CALL in Lebanese elementary ESL writing classrooms. *Computer Assisted Language Learning*, 23(2), 151-168. <http://dx.doi.org/10.1080/09588221003666248> Floyd, R. G., Keith, T. Z., Taub, G. E., & McGrew, K. S. (2007).

## INGLIZ TILIDA NUTQ FAOLIYATI TURLARINI O‘RGATISH

*Qiyomova Gulhayo Ilyos qizi,*

*Buxoro shahar “Ishga marhamat” Monomarkazi ingliz tili o‘qituvchisi*

*Hozirgi zamon chet til o‘qitish metodikasida nutqiy malakalarni egallash nutq faoliyati nazariyasi (psixolingvistika) ma’lumotlariga muvofiq tahlil etiladi. Ingliz tilini o‘rganish esa bugunning dolzarb masalasidir. Maqolada ingliz tilida nutq faoliyati turlarini o‘rgatish haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ingliz tili, nutq faoliyati, nutq malakalari, gapirish, tinglab tushunish, o‘qish faoliyati, yozuv faoliyati, og‘zaki nutq, yozma nutq, tovush-harf analizi.*

## ОБУЧЕНИЕ ВИДАМ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*В современных методиках обучения иностранным языкам процесс формирования речевых навыков анализируется в соответствии с данными теории речевой деятельности (психолингвистики). Изучение английского языка является актуальной проблемой сегодня. В статье представлена информация об обучении видам речевой деятельности на английском языке.*

***Ключевые слова:** английский язык, речевая деятельность, речевые навыки, разговорная речь, аудирование, чтение, письмо, устная речь, письменная речь, звукобуквенный анализ.*

## TEACHING TYPES OF SPEECH ACTIVITIES IN ENGLISH

*In modern methods of teaching foreign languages, the process of forming speech skills is analyzed in accordance with the data of the theory of speech activity (psycholinguistics). Learning English is a pressing issue today. The article provides information on teaching types of speech activity in English.*

***Keywords:** English language, speech activity, speech skills, speaking, listening, reading, writing, oral speech, written speech, sound-letter analysis.*

**Kirish.** Insonning har qanday faoliyati, jumladan, nutqiy faoliyat ham, tuzilishiga ko‘ra undovchi (motivatsion), yo‘llovchi va ijro qismlaridan iboratdir. Nutqiy faoliyatning motivatsiyasi shaxs harakatining murakkab a‘loqlaridan tashkil topgan bo‘lib, u ehtiyoj, maqsad tufayli sodir bo‘ladi. Nutqiy faoliyatga asosan ichki va tashqi motivlar sabab bo‘lishi mumkin. Nutqiy faoliyatning ichki turtkisiga o‘quvchining bilish-kommunikativ ehtiyoji sababchi bo‘lsa, muallimning tashqi motivi o‘quvchilarga turtki beruvchi, qo‘zg‘atuvchi, dalda beruvchi, kuchaytiruvchi omillardan qisoblanadi.

Shaxs fikrining shakllanish jarayoni nutqni ifodalashning vosita va usullarini tanlashdan iboratdir. Faoliyatning ijro, amalga oshirish bosqichi gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv sifatida namoyon bo‘ladi. Fikr nutq faoliyatining predmeti, til uning vositasi, nutq esa chet til amaliyoti uchun fikrning shakllanish va ifodalanish usuli deb belgilanadi.

**Metodlar.** Chet tilida nutq faoliyatining reproduktiv (gapirish, yozuv) va retseptiv (tinglab tushunish va o‘qish) turlarini egallash bir-biridan farq qiladi. O‘rta maktablarda nutq malakalariga qo‘yiladigan talablarni yoritishda, avvalo, bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalarini tahlil etish zaruriyati tug‘iladi.

Bilimlar – odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonida to‘plagan umumlashgan tajribasidir. Didaktik atama bilim ta’lim maqsadiga muvofiq keladigan, o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan axborot(ma’lumot)lar tizimini ifodalaydi. Chet til metodikasida bilim tushunchasi qamroviga nutqda leksika, grammatika va talaffuzni o‘zlashtirish va ularga oid sodda qoidalarni bilish kiradi. Bizningcha, bilimning bosh mezoni uning amaliyotga bevosita tatbiq etilishidir. Bilim nutq faoliyati uchun o‘ta zarur bo‘lgan, uni takomillashib borishida vosita vazifasini bajaradigan omillardan biridir.

Nutq malakalarining yana bir tarkibiy qismi – ko‘nikmadir. Ko‘nikma hosil qilish ish-harakat yo‘l va usullarini bilib olish, ularni amaliyotda qo‘llay bilishdir. Ko‘nikma bilimdan farq qiladi. Har qanday ko‘nikma bilimni talab qiladi. Biroq bilim hamma vaqt ham ko‘nikmaga bog‘liq bo‘lavermaydi. Bilim muhokamalar orqali shakllanib boradi. Bular aqliy va jismoniy bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘quvchi grammatik qoidalarni bilishi, ularni istalgan vaqtda takrorlab borishi mumkin-u, lekin ulardan amaliyotda foydalana olmasligi mumkin.

Shularni hisobga olib, biz ko‘nikmani amaliy faoliyatga taalluqli hodisa deyishimiz mumkin. Ruhshunoslikda keng tarqalgan ta’riflardan birida ko‘nikmani “Ongli avtomatlashgan harakat” sifatida baholanadi. Xuddi shunday talqinni ta’limshunoslikda ham uchratish mumkin: ya’ni ko‘nikmaga “u yoki bu

harakatda bilimlarni ongli va to‘g‘ri qo‘llash” deb qarash ham mavjud. Yana bir talqinda ko‘nikma “u yoki bu harakatni bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadigan ongli faoliyatdagi avtomatlashgan qism” deb ta’riflanadi. Maktab ingliz tili ta’limida ko‘nikma o‘quvchilarning olgan bilimlariga asoslanib qo‘yilgan vazifa va shartlarga binoan bajaradigan harakatlar yiqindisi, ya’ni ko‘nikma qosil qilish, mehnat qilish yo‘l va usullarini bilib olish, o‘z bilimlarini amalda qo‘llay bilish demakdir. Qisqasi, ko‘nikma ilgari egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyat yoki harakatni ongli ravishda takrorlanishi yoki amalga oshirilishi, mashq qilish natijasida bajariladigan harakatlar yig‘indisi hisoblanadi.

Ruhshunoslik va ta’limshunoslikda mavjud nuqtayi nazarlarga ko‘ra malaka inson olgan bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyat chog‘ida sobitqadamlik bilan ijodiy qo‘llay olish qobiliyatidir. Malaka avtomatlashgan ko‘nikma bo‘lib, biror ishni amalda qiyinchiliksiz, ortiqcha bilim va iroda kuchi sarflamasdan bajara olish, boshqacha aytganda, muayyan harakatlarni bajarish jarayonlarining tezlashishi yoki qisman avtomatlashuvidir. Avtomatlashuv (avtomatizatsiya) til birligining nutqda erkin qo‘llanishidir.

Ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zaro uzviy bog‘lanadi. Lekin bunda yetakchi rolni, albatta, bilim egallaydi. O‘quvchilar bilimlar asosida muayyan ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Ko‘nikma va malakalarning umumiy hamda farq qiluvchi tomonlari mavjud. Umumiyliigi shundaki, ko‘nikma va malakalar o‘quvchilarning olgan bilimlari asosida bajariladigan faoliyat usullarini tashkil etadi, boshqacha aytganda, ushbu bilimlar amaliyotga o‘tadi. Ko‘nikma va malakalar ham, o‘z navbatida, bilimlarni egallash jarayoniga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Demak, egallangan bilim mashq yordamida ko‘nikmaga, so‘ngra doimiy mashqlar vositasida malaka darajasiga ko‘tarilar ekan. Bilim asosida ko‘nikma va malaka hosil bo‘lishi fanda anchagina tadqiq etilgan sohalardan biridir.

Bilim, ko‘nikma va malaka ingliz tili o‘rganishda o‘ziga xos munosabat kasb etadi va o‘quv predmetining xususiyatini aks ettiradi. Bu jarayonlar nutqiy faoliyatni vujudga kelishida muhim omillardan biridir. O‘rta maktab o‘quvchilari erishgan ko‘nikma va malakalar darajasi aniqlanishi va ular oldida turgan dasturiy talablar belgilab olinishi muhim metodik masalalar sirasiga kiradi. Chet til tinglab tushunish metodikasida nutq malakalari gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv faoliyatlari bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi.

**Natijalar va munozara.** Tinglab tushunishning shaxs tarbiyasidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, u tom ma’noda ma’naviy-ma’rifiy ozuqa olish yo‘lidagi aqliy faoliyat, harakat turidir. Retseptiv nutq faoliyati turi hisoblanmish tinglab tushunishni o‘rgatishdan ingliz tilida umumta’limiy maqsad ko‘zda tutiladi.

Tinglab tushunish grafik koddagi axborotni undan butunlay farq qiladigan tovush kodiga o‘tkazish jarayoni, harfiy belgilarda ifodalanmagan audio axborotni idrok etish va uning mazmunini tushunish, o‘zlashtirishga qaratilgan aqliy faoliyat turidir.

Tinglab tushunish motivi muloqot qilish, maqsad esa axborot (informatsiya) olishdir. Tinglab tushunishning ingliz tilidagi bunday maqomi o‘quvchilarni unga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida yondashishga undaydi, uning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Tinglab tushunishga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida to‘g‘ri yondashuv uning kommunikativ vazifasini aniqlashga ham yordam beradi. Lekin haligacha ba’zi chet til o‘qituvchilari orasida tilni amaliy egallash tushunchasini og‘zaki nutqni o‘rganish deb qabul qilish odatlari mavjuddir, ya’ni og‘zaki nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni – tilni amaliy maqsadda egallash degan talqinlar uchramoqda. Bunday metodik yanglilish ingliz tilida tinglab tushunishni amaliyotdagi rolining pasayishiga og‘zaki nutqni shakllantirishda vosita sifatida qaralishiga olib kelmoqda. Vaholanki, tinglab tushunishni o‘rgatish bo‘yicha til ta’limshunosligida fundamental ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan va ularda mazkur faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, uni chet til, shuningdek, axborotni o‘zlashtirishdagi o‘rni metodik jihatdan atroflicha tahlil etib berilgan, qimmatli fikrlar bayon etilgandir (M. Uest, I. M. Berman, V. A. Buxbinder, Z. I. Klo‘chnikova, S. K. Folomkina, J. J. Jalolov, N. V. Baro‘shnikova, M. L. Vaysburd va b.).

Ingliz tili o‘qitish metodikasida tinglab tushunish maqsad va vosita maqomlarida o‘rgatilishi joriy dasturlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Tinglab tushunishni maqsad va vosita maqomlarida o‘rgatilishini to‘g‘ri talqin etish uchun uning ta’limning ayrim bosqich qamda tashkiliy qismlarda tutgan o‘rniga to‘xtalish joizdir.

O‘rta maktabning ilk bosqichida o‘qish tinglab tushunish va boshqa nutq faoliyati turlarini shakllantirishda vosita vazifasini bajaradi. Lekin boshlang‘ich bosqichda asosiy e’tibor o‘qishga qaratiladi, asta-sekin ichda (ovozsiz) o‘qish turi ham o‘rgatib boriladi. Ichda o‘qishga ko‘proq vaqt va kuch sarflanishi metodik jiqatdan maqsadga muvofiqdir. Ovoz chiqarib o‘qish asosan o‘rganilgan til birliklarini uzoq muddatli xotirada saqlanishi uchun foydalidir.

O‘rta maktab ingliz tili ta’limining boshlanqich bosqichida – ovoz chiqarib va ichda (ovozsiz) o‘qish, o‘rta bosqichda – o‘rganuv, tanishuv o‘qish, yuqori sinflarda esa kuzatuv, tanishuv, o‘rganuv o‘qish turlari o‘rgatiladi. O‘rta maktablarda tinglab tushunishni o‘rgatish tilni bilish, o‘rganish jarayoni sifatida tashkil

etiladi, matn orqali o‘quvchi bilishga, undan o‘zi uchun yangi, foydali ma’lumotlar olishga harakat qiladi. Axborot olish bilish faoliyatini harakatlantiruvchi vosita ekanligi ma’lum. Tinglab tushunish faoliyatining natijasi esa bilishga olib keluvchi vosita hisoblanadi. Albatta, o‘qilgan matn axborotini o‘zlashtirib olish uchun o‘quvchi ingliz tilida o‘qish malakalarini egallagan bo‘lishi talab etiladi. Tinglab tushunish malakasi uch bosqichli faoliyat bo‘lib, nutq birligining eshitish timsoli, uning nutq qarakat timsoli va ma’nosidan tashkil topadi. Uchala ko‘nikmani egallash tinglab tushunish malakasini hosil qilinganligidan dalolat beradi.

Tinglab tushunishga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida yondashuv uning amaliy-kommunikativ vazifasini aniqlashga yordam beradi. Maktabda o‘quv soatlarining chegaralanganligi, o‘quv rejasining o‘ziga xosligi, til tabiiy muqitining mavjud emasligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari har qanday ingliz tilidagi matnni tushunishga imkon bermaydi. Shuning uchun amaliyotda mazkur sohada lozim bo‘lgan maqsad va vazifalarni to‘g‘ri aniqlab olish zarurdir. Bu esa tinglab tushunish faoliyatining amaliy jihatdan ahamiyatini kuchaytiradi. Tilni amaliy maqsadda egallash ingliz tili o‘rganuvchining kelajakdagi mutaxassislik xususiyati, o‘quv yurtining yo‘nalishi (profili) va uning amaliy faoliyatda axborot olish qobiliyatiga ko‘p jihatdan bo‘liqdir. Axborot olish maqsadida o‘qish va tinglab tushunish, avvalo, amaliy maqsad, ikkinchidan, ta’limiy vosita ekanligi nazariya va amaliyotda isbotlangan.

Maktabda tinglab tushunishdan axborot olish maqsadida uning tanishuv, o‘rganuv, kuzatuv turlari o‘rgatiladi.

Tanishuv tinglab tushunish matndan o‘zi uchun foydali va qiziqarli ma’lumotlarni olish hamda umumiy mazmunini tushunishni nazarda tutadi. Tinglab tushunishning mazkur turida axborotning 75 foizigacha tushunarli bo‘lishi lozim. Bunday matnlarning hajmi katta, tili ravon bo‘lishi tavsiya etiladi. Tanishuv tinglab tushunishni nazorat qilishga qo‘yiladigan topshiriqlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: (1) tinglang va matnning asosiy mazmunini bayon eting; (2) matnning tayanich so‘zlarini toping; (3) muallif xulosalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan faktlarni sanab o‘ting va h.k.

O‘rganuv – tinglab tushunish matnini, jumladan, tilning ifodaviy vositalarini o‘rganish, tahlil qilishni nazarda tutadi. Tinglab tushunishning ushbu turi o‘zlashtirilgan axborotni to‘liq tushunish va keyinchilik uni qaytadan tiklashni taqozo etadi. Tushunish yuqori darajaga etkaziladi. Matnning qiyinchilik tug‘dirgan, tushunilmagan qismlarini takror tinglash mumkin. O‘rganib tinglab tushunish avval sinfda, so‘ngra uyda qayta bajariladi. Tushunganlikni tekshirish usullaridan biri sifatida tarjimadan foydalaniladi. Odatda, matnning qiyinchilik tug‘diradigan qismlarinigina tarjima qilinadi. Matnning xajmi unchalik katta bo‘lmasligi tavsiya etiladi. Matn qamrovidagi axborot sinchiklab o‘rganiladi.

Kuzatuv – tinglab tushunish matn mazmunini haqida umumiy tasavvur qosil qilishga qaratilgan o‘qish turidir. Mazkur tinglab tushunishda o‘quvchi avval topshiriq matnini ko‘proq sarlavha, kichik sarlavhachalardan boshlab, to‘liq va tezlikda o‘qib chiqishi talab etiladi. Kuzatuv tinglab tushunishda til materialini tanish bo‘lishi, o‘quvchi matndan muayyan axborot (raqam, sitata kabi) larni qidirishi talab etiladi. Kuzatuv tinglab tushunish matndan qo‘yilgan savolga javob topish, o‘qish jarayonida o‘zlashtirilgan axborotni keyinchalik, albatta, ishlatilishi lozim ekanligini tushunilishiga asoslangan o‘qish turidir. Mazkur tinglab tushunish turlaridan ingliz tili ta’limida qo‘shimcha va foydali sohaviy axborotlar olishda keng foydalaniladi.

Ingliz tilini amaliy maqsadda egallash nafaqat undan kelgusida kasbiy faoliyatda foydalanish, balki o‘quvchining umumiy madaniyati, tafakkurini rivojlanib borishiga imkon yaratadi. Buning uchun ingliz tili darslarini samaradorligini yanada oshirish, o‘quvchilarni tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar) jug‘rofiyasi, tarixi, iqtisodi va siyosiy tuzumi, adabiyotidan hamda mutaxassislikka oid sohaviy manbalardan muntazam boxabar etib borishni taqozo etadi. Yuqoridagi vazifalar qam o‘qishga axborot olishda asosiy vosita sifatida qarashga undaydi.

Yozma nutq harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuv, tinish belgilari, har xil ajratishlar – abzats, paragraf va gaplarni to‘g‘ri ifodalash orqali farqlanadi. Yozma nutqning to‘g‘riligi imlo savodxonligi, so‘zni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, gap qurish malakalarini shakllanganligida namoyon bo‘ladi. Yozish deganda esa nutqda til belgilarini qayd qilish tushuniladi. Boshqa bir ta’rifda yozish nutqning til belgilarini yozma qayd qilish ma’nosida ta’riflanadi.

Yozuv nutq faoliyatining o‘ziga xos turi bo‘lib, u axborotni aloqaning grafik kanalini hisobga olib kodlash yoki grafik shakldagi nutqning vujudga kelishidir. Tilshunos va metodistlar insonning axborot olishi va etkazishi asosan og‘zaki (gapirish, tinglab tushunish) va yozma nutq (o‘qish, yozuv) orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydilar.

Tovush-harf munosabati, harflar, imlo singari til hodisalari yozuvda o‘rgatish ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, tovush-harf munosabatlari va imlo yuzasidan o‘tkaziladigan mashqlar o‘qish texnikasini ham tezroq egallab olishga yordam beradi. Yozish va o‘qish texnikasini o‘rgatish zaminida bir-biriga o‘xshash psixologik hodisalar yotadi. Sababi, yozuv va o‘qish aynan grafik

(qarfiy) kodga asoslanadi, ya’ni yozuvda diqqat, asosan, soʻz timsolini yaratish yoki tiklashga tinglashda ularni anglab olishga qaratiladi. Har ikki holatda yozuvni va tinglab tushunish texnikasini oʻrgatishda tovush-harf analizini qoʻllash, ayniqsa, bu ikki koʻnikmaning takomillashuvi hamda ularning har birini oʻzlashtirilishini engillashtirish, yozuv va tinglab tushunish texnikasini oʻrgatishni muvozanat bilan olib borishga asos boʻladi. Bunda yozuv oʻqishdan yoki oʻqish yozuvdan bir oz oʻzib ketishi mumkin. Biroq, tinglab tushunish oldidan ham, yozuv oldidan ham ogʻzaki shaklda mashqlar bajarish talab etiladi. Demak, ingliz tili oʻqitish jarayonida yozuv ikki tomonlama ahamiyatga ega boʻladi: birinchidan, u yozma nutqni oʻzlashtirishga imkon bersa, ikkinchidan, ogʻzaki nutq va tinglab tushunish malakalarini hosil qilish vositasi boʻlib xizmat qiladi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Shunday qilib, maktabda ingliz tili boʻyicha olib boriladigan amaliy ishlarning asosini qoʻshimcha, foydali axborot olishni shakllantirishni bosh omilga aylantirilsagina, u ijobiy natija beradi. Xullas, tinglab tushunish amaliy maqsaddan tashqari, umumtaʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni roʻyobga chiqishida ham katta rol oʻynaydi. Bunda oʻquvchilarning kuzatuvchanligi oshadi, ularning til materiali va matn mazmunini analiz-sintez qilish qobiliyatlari takomillashadi. Ovoz chiqarib oʻqish tallaffuzni oʻrgatishda, tinglab tushunishda muhim bosqich sanaladi. Bundan tashqari, oʻqish gapirish malakalarini shakllantirishda ham vosita sanaladi. Oʻqilgan matnlar mazmuni boʻyicha savol-javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat kabilardan keng koʻlamda foydalaniladi. Oʻquvchi oʻqish orqali gapirishga maʼlumot-material toʻplaydi. Ularni inglizcha gapirib berishga tayyorlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Барышникова Н. В. Методика обучения второму иностранному языку в школе: Учебное пособие. – М.: Просвещение, 2003. –159 с.
2. Бим И. Л. Методика обучения иностранному языку в школе: Учебное пособие. –М.: Просвещение, 2003. –159 с.
3. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// Naturalista campano Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.
4. Imamova Shafolat Mahmudovna. A simulation trainer's educational competence in the process of forming students' professional competence// International journal on integrated education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
5. Imomova Shafolat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna. Taʼlim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish// Miasto Przyszłości, Vol. 32 (2023), C.47-49.
6. Gadoyeva M.I., Sayitova K.H. Ingliz tili. I qism: Kasb-hunar kollejlari uchun qoʻllanma. Uchinchi nashri. –T.: Oʻzbekiston, 2004. –88 b.
7. Коньшева А. В. Современные методы обучения английскому языку. – М.: Tetra Systems, 2003. –176 с.
8. Imomova Shafolat Mahmudovna. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar// Educational Research in Universal Sciences. Volume 2, special issue 14, 2023, C.1075-1081.

**AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING TIL O‘RGANISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI**

*Raxmatova Marjona Uktamovna,*  
*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,*  
*Choriyeva Feruza Amrullayevna,*  
*Qarshi davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti*

*Mazkur maqolada aksiologik yondashuv asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning til o‘rganish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Aksiologik yondashuv o‘quvchilarda qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi boylik sifatida o‘rganishni ta‘minlaydi.*

*Tadqiqotda aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari, mashg‘ulotlarni tashkil etish usullari hamda uning til o‘rganish jarayonidagi afzalliklari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv til o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va o‘quvchilarda axloqiy tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladi.*

*Maqolada interaktiv metodlar, madaniyatlararo taqqoslash va loyiha ishlari kabi usullar orqali yondashuvning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Aksiologik yondashuvning tilni o‘rganishda motivatsiya va qadriyatlar tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati ta‘kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:** aksiologik yondashuv, til o‘rganish, qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot, axloqiy tarbiya, integratsiya, interaktiv metodlar, ta‘lim samaradorligi, motivatsiya, milliy madaniyat.*

**ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА**

*В данной статье освещается значение организации учебных занятий на основе аксиологического подхода в процессе изучения языка. Аксиологический подход направлен на формирование и развитие ценностей у учащихся и обеспечивает изучение языка не только как средства общения, но и как богатства, представляющего национальную культуру и нравственные ценности.*

*В исследовании анализируются основные принципы аксиологического подхода, методы организации занятий и его преимущества в процессе изучения языка. Данный подход служит эффективной организации процесса изучения языка, развитию межкультурной коммуникации и формированию нравственного воспитания у учащихся.*

*В статье рассматриваются способы повышения эффективности подхода посредством таких методов, как интерактивные методы, межкультурное сравнение и проектная работа. Подчеркивается важность аксиологического подхода в развитии системы мотивации и ценностей при изучении языка.*

***Ключевые слова:** аксиологический подход, изучение языка, ценности, межкультурная коммуникация, нравственное воспитание, интеграция, интерактивные методы, эффективность обучения, мотивация, национальная культура.*

**THE IMPORTANCE OF ORGANIZING TRAINING ACTIVITIES BASED ON AXIOLOGICAL APPROACH IN THE LANGUAGE LEARNING PROCESS**

*This article highlights the importance of organizing training activities based on an axiological approach in the language learning process. The axiological approach is aimed at the formation and development of values in students, ensuring the study of language not only as a means of communication, but also as a wealth that represents national culture and moral values.*

*The study analyzes the basic principles of the axiological approach, methods of organizing training activities, and its advantages in the language learning process. This approach serves to effectively organize the language learning process, develop intercultural dialogue, and form moral education in students.*

*The article considers ways to increase the effectiveness of the approach through methods such as interactive methods, intercultural comparison, and project work. The importance of the axiological approach in developing motivation and a system of values in language learning is emphasized.*

**Keywords:** *axiological approach, language learning, values, intercultural communication, moral education, integration, interactive methods, educational effectiveness, motivation, national culture.*

**Kirish.** Dunyoda so‘nggi yillarda insonning qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan shaxsning ichki salohiyatini o‘rganish muammosi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi va tarbiya mexanizmlarining asosiy komponentlari: shaxsiy salomatlik, o‘z faoliyatini tashkil etish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi jamoadagi nufuzini belgilash va jamiyat infrastrukturalarida o‘zini o‘zi realizatsiya qilish kabi tushunchalar shaxsning umuminsoniy qadriyatlar pozitsiyasida ekanligidan dalolat bermoqda. Inson uchun qadriyatli bo‘lgan hodisalar, jarayonlar, voqealar mohiyatini anglash aksiologiya jarayonida sodir bo‘lar ekan, ijtimoiy infrastrukturalarda yoshlarda aksiologik qadriyatlar tizimini rivojlantirish, ularni yuksak ma‘naviy axloqli, insonparvarlik fazilatlariga ega, o‘z kasbini chuqur biladigan mutaxassis sifatida tarbiyalash muammolarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq qilish masalalari yetakchilik qilmoqda.

Aksiologik yondashuv – bu ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning axloqiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Til o‘rganish jarayonida aksiologik yondashuvning ahamiyati juda katta, chunki bu uslub orqali til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni o‘zida aks ettiruvchi muhim element sifatida o‘rganiladi.

*Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari* quyidagilar:

1. Qadriyatlarining markaziy o‘rni: Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga madaniyat, tarix va milliy qadriyatlar haqida bilim berish. Bu orqali o‘quvchilar tilning lingvistik imkoniyatlaridan tashqari, u orqali ifodalangan qadriyatlarni ham anglaydilar.

2. Shaxsni rivojlantirish: Aksiologik yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ma‘naviy va axloqiy o‘shishiga qaratilgan.

3. Integratsiya: Til o‘rganish jarayonida lingvistik, madaniy va ijtimoiy mavzularni birlashtirib o‘rgatish [1,86].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Zamonaviy yondashuvlarda: qadriyatlar madaniyatning ko‘rinishi sifatida baholandi (M.Veber) yoki ijtimoiy institutlar (T.Parsons), jamoalar va sivilizatsiyalar (P.A.Sorokin), axloqiy (shuning uchun qimmatli) ekanligi va faoliyat ko‘rsatish vositasi sifatida tahlil etildi. Odamlarning go‘zallik, baxt va boshqalar haqidagi tasavvurlari ham o‘zgargan. Aksiologiyaning pedagogikada ta‘limot sifatida rivojlanishida I.Kant katta rol o‘ynadi, u Insonni o‘z falsafasining markaziga qo‘ydi, bu esa, aslida, aksiologik bilimlar taraqqiyotida yangi bosqichni ochdi. Kant an‘ana va qiymatni mahsulot deb hisoblash davrini tugatadi va Kant bilan inson uchun qadriyatni tushunish bosqichi boshlanadi. Kant aksiologiyasi, Bekon singari, burch kategoriyasiga asoslanadi. Buni burch tuyg‘usi, deb hisoblagan Kant, odamlarni hayvonlardan ajratib turadi va yaxshilikka yo‘l ochadi. Eng oliy qadriyat sifatida Vindelband haqiqat, ezgulik, go‘zallik va muqaddaslikni insonni boshqaradigan azaliy va tarixiy bo‘lmagan tamoyillar deb hisoblagan, ularni so‘zsiz majburiyat meyorlari sifatida amalga oshirgan. Vindelband oliy qadriyatlardan tashqari, insoniyat mavjudligi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni: fan, qonun va tartib, san‘at va dinni ajratib ko‘rsatdi. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma‘naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlarini, an‘analari tasavvur qilish qiyin.

N.A.Astonovanning “Pedagogik aksiologiyaning kontseptual asoslari” maqolasida pedagogik aksiologiyaning predmeti sifatida shaxsning madaniy munosabatini rivojlantirish e‘tirof etiladi. Maqolada qayd etilishicha, ana shu jihat bilan pedagogik aksiologiyaning funksiyalari uning o‘ziga xosliklarini belgilashga imkon beradi. Quyida ularni ko‘rib o‘tamiz:

- mazmunli muvofiqlik (ta‘limning mazmunli va protsessual jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag‘batlantiradi) - fikriy jarayon, obyektini aktualashtirish, aniq dalil va isbotlarni belgilash, axborotni tanqidiy rnuhohada etish, ma‘nornazrnunini tushunish, shaxsiy fikrning o‘shishi;

- baholovchi - pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma‘naviy hodisalarni adekvat baholashni rivojlantirishni aks ettiradi;

- yo‘naltirish funksiyasi – “qadriyatlar ierarxiyasi”ning ma‘norni parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhim qoidalarini aniqlash imkoniyatlari bilan bog‘liq;

- meyoriy (normativli) - pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o‘zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o‘zaro munosabatlari tizimini “qonunlashtiradi”;

- boshqaruvchilik - insonparvar nazrnunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqirnidagi tizim subyektlari. ta‘lim tizimni rivojlanishini yo‘naltiradi, ta‘lim sohasidagi o‘zaro zaruriy harakatni hosil qiladi;

- nazorat qiluvchi madaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji, shaxsda qadriyatga yo‘nalganlikni shakllantirish imkonini beradi [2,123].



**Tadqiqot metodologiyasi.** Aksiologik yondashuv asosida til o‘rganishning afzalliklari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Madaniyat va til integratsiyasi: Tilni o‘rganish jarayonida milliy madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlarni o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Masalan, o‘quvchilar xalq maqollari, she‘riyat va adabiy asarlar orqali tilga boy ma‘no yuklaydi.

2. Motivatsiyani oshirish: Aksiologik yondashuv orqali o‘quvchilarda tilni o‘rganishga nisbatan chuqur qiziqish va ehtiyoj shakllanadi, chunki ular o‘zini global va milliy qadriyatlar kontekstida ko‘rishni boshlaydilar.

3. Axloqiy tarbiya: Til o‘rganuvchilar kommunikatsion jarayon davomida axloqiy qadriyatlarni ham o‘zlashtiradilar. Bu ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda muhim bo‘lib, madaniyatlararo muloqotda muhim rol o‘ynaydi.

4. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Qadriyatga asoslangan mashg‘ulotlar tilni o‘rganish jarayonida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalashda qadri tushunchalarni ishlatadi.

*Aksiologik yondashuvni amalga oshirish usullarini ta’kidlash muhim ahamiyatga egadir:*

1. Madaniyatni aks ettiruvchi matnlar bilan ishlash: O‘quvchilarga milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi badiiy asarlar, maqol va matnlarni o‘rganish.

2. Munozaralar va loyiha ishlari: O‘quvchilarni qadriyatlar mavzusida guruhli muhokamalarga jalb qilish va loyihalarni tayyorlash orqali tilni chuqurroq o‘zlashtirish.

3. Interaktiv mashg‘ulotlar: Rolli o‘yinlar, dramatik mashg‘ulotlar va boshqa interaktiv metodlar orqali qadriyatlarni til o‘rganish jarayoniga singdirish.

4. Ko‘p madaniyatli yondashuv: Chet tillarni o‘rganishda turli milliy madaniyatlarni taqqoslash orqali qadriyatlarni chuqur o‘rganish.

Aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy va axloqiy rivojlanishini qadriyatlar orqali shakllantirishga asoslangan yondashuvdir. Bu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki ularning shaxsiy hayotida ham muhim o‘rin egallaydigan qadriyatlarni tarbiyalashdir. Til o‘rganish jarayonida aksiologik yondashuvning o‘rni nihoyatda katta, chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy boyluk va milliy o‘zlikni ifodalovchi qurol hisoblanadi [2,36].

**Tahlil va natijalar.** O‘quvchilarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish uchun, jamoatchilik va bir vaqtning o‘zida sog‘lom muhitni, ularda do‘stlik kechinmalarini rivojlantirishni va mustahkamlashni, ularning har birida insoniylik g‘ururini tan olishini, ularning ongi rivojlanishiga olib keluvchi tarbiyaviy xususiyatga ega vositalar va kompleks usullarni nazarda tutuvchi, barcha sharoitlar tashkil etilishi zarur. O‘quvchilarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar davomida ta’lim jarayonining subyekti bilan birgalikdagi, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatiga asoslangan pedagogik tizimda o‘ta samarali natija beradi. Shu bilan birga, ushbu tizim ochiq bo‘lishi kerak, ya’ni ta’lim oluvchilar faoliyatini tartibga solish maqsadida, uning natijalari o‘lchov tizimi bilan ta’minlanishi zarur. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida xam rivojlanishning mohiyati, uning sur’ati insonlarning ma’naviy kamoloti darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta’lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda. Mazkur dissertatsiya ishi ana shu dolzarb muammoni to‘la hal qilmasa-da, uni hal qilishga intilishdan iborat.

*Aksiologik yondashuvning til o‘rganishdagi vazifalari* haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak quyidagilarni ta’kidlash zarur:

- Shaxsiy va milliy qadriyatlarni shakllantirish: O‘quvchilarda til orqali milliy madaniyat va tarixiy merosni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.

- Madaniyatlararo muloqotga tayyorlash: Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga boshqa millat va madaniyatlar qadriyatlarini o‘rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish.

- Integratsion yondashuvni rivojlantirish: Til, madaniyat va axloqiy qadriyatlarni birgalikda o‘rganish orqali o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirish.

- Shaxsiy javobgarlikni shakllantirish: Tilni o‘rganishda o‘z qadr-qimmatini anglash va ijtimoiy mas’uliyat his qilishni rivojlantirish [4,118].

Aksiologik yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish usullarini tanishtirib o‘tmoqchimiz.

1. Milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi materiallar bilan ishlash: Mashg‘ulotlarda xalq maqollari, qo‘shiqlar, ertaklar va madaniy yodgorliklar bilan bog‘liq matnlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda tilni qadrlash hissini shakllantirish. Masalan: “Til – millatning ko‘zgusi” kabi mavzularni o‘rganish.

2. Madaniyatlararo taqqoslash: Turli xalqlarning madaniyat va qadriyatlarini tahlil qilish. Bu usul o‘quvchilarning boshqa millatlar bilan muloqotda bo‘lish qobiliyatini rivojlantiradi va ularga madaniyatlararo hurmatni o‘rgatadi.

3. Interaktiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Aksiologik yondashuvni qo‘llashda rolli o‘yinlar, munozaralar va virtual muhitni qo‘llash o‘quvchilarda tilni o‘rganishga qiziqishni oshiradi. Masalan, turli millatlar hayotini aks ettiruvchi sahna ko‘rinishlarini tashkil etish.

4. Qadriyatlar asosida loyiha ishlari: O‘quvchilarni “Madaniyat va tilning o‘zaro bog‘liqligi” yoki “Milliy til va globallashuv” kabi mavzularda loyihalar tayyorlashga jalb qilish. Bu jarayonda o‘quvchilar tilni chuqurroq o‘rganish bilan birga, uni qadrlashga o‘rganadilar.

Aksiologik yondashuvning til o‘rganish jarayonidagi afzalliklari - til va madaniyatni chuqur tushunish: Til nafaqat grammatik qoidalardan, balki unda aks etgan xalqning urf-odatlarini, an‘analari va qadriyatlaridan iborat ekani tushuniladi. Motivatsiyani oshirish: O‘quvchilar o‘rganayotgan tilning qadriyat va madaniy boyligini anglab, uni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga qiziqadi. Axloqiy tarbiya: Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda milliy g‘urur, hurmat va madaniy bag‘rikenglik kabi fazilatlar rivojlanadi. Ko‘nikmalarni rivojlantirish: Tilni qadriyatlar asosida o‘rgatish muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi [5,136].

**Xulosa va takliflar.** Aksiologik yondashuv til o‘rganish jarayonini faqat lingvistik bilim olishdan ko‘ra kengroq ma‘noda tushunishga yordam beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda shaxsiy, milliy va umumjahon qadriyatlarini shakllantirish bilan birga, ularning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, aksiologik yondashuv til o‘rganish jarayonida samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Til o‘rganish jarayonida aksiologik yondashuv nafaqat bilim olishni, balki ma‘naviy va axloqiy tarbiyani ham o‘z ichiga oladi.

Ushbu yondashuv o‘quvchilarni tilni chuqur anglashga va uni qadrlashga o‘rgatadi. Aksiologik yondashuvni ta‘lim jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilar tilning madaniy va axloqiy boyligini ekanini anglaydilar, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Hasanboyeva, G. A. “Zamonaviy pedagogik yondashuvlar”. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.
2. Salohiddinov, M. “Til va madaniyat: O‘zaro bog‘liqlik”. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019.
3. Vygotskiy, L. S. “Psixologiya va tilni o‘rgatish metodikasi”. Moskva: Pedagogika, 1987.
4. Dewey, J. “Education and Experience”. New York: Macmillan, 1938.
5. Karimova, M. “Chet tillarini o‘qitishda madaniyatni integratsiyalash”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Qodirov, I. “Ta‘limda aksiologik yondashuvni qo‘llash usullari”. O‘zbekiston pedagogik jurnalining maxsus soni, 2022.

## МУЛЬТИФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МАТЕРИАЛА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

*Нурматова Шахноза Саиткаримовна,  
магистрант 2-курса обучения по направлению  
«Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование)»,  
Азитский международный университет*

*Предлагаемый материал концентрирует внимание на комплексном анализе педагогических и психолингвистических приёмов, ориентированных на раскрытие творческих ресурсов младшего школьника в процессе интерпретации литературных произведений. Главный акцент сделан на синергетическом объединении цифровых ассистивных технологий, ролевых инсценировок и мультимодальных занятий, усиливающих смысловую децентрацию и формирующих интегральное понимание художественного материала.*

**Ключевые слова:** мультимодальный подход, ассистивные технологии, речевая рефлексия, нейродидактика, полисенсорная стимуляция, проектно-игровые методики, семантическая децентрация, педагогическая конвергенция, креативные интерпретации.

## BOSHLANG‘ICH SINFDA BADIY MATNLARNI SHARHLASHNING KO‘P QIRRALI PEDAGOGIK MODERNIZATSIYASI VA INNOVATSION MODELLARI

*Taqdim etilayotgan maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchisining badiiy asarlarni talqin qilish jarayonidagi ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan pedagogik va psixolingvistik usullarni har tomonlama tahlil qilishga e‘tiborni qaratadi. Asosiy urg‘u raqamli yordamchi texnologiyalar, rolli sahnalashtirish va multimodal mashg‘ulotlarning sinergetik birlashuviga berilgan bo‘lib, bu usullar ma‘noviy markazsizlashtirishni kuchaytiradi va badiiy materialning yaxlit tushunchasini shakllantiradi.*

**Kalit so‘zlar:** multimodal yondashuv, yordamchi texnologiyalar, nutqiy refleksiya, neurodidaktika, ko‘p sezgili rag‘batlantirish, loyiha-o‘yin metodikalari, semantik markazsizlashtirish, pedagogik konvergenziya, ijodiy talqinlar.

## MULTIFUNCTIONAL PEDAGOGICAL MODERNIZATION AND INNOVATIVE MODELS OF INTERPRETING ARTISTIC MATERIAL IN PRIMARY SCHOOL

*The proposed material focuses on a comprehensive analysis of pedagogical and psycholinguistic techniques aimed at uncovering the creative resources of young primary school students in the process of interpreting literary works. The main emphasis is placed on the synergistic combination of digital assistive technologies, role-playing performances, and multimodal activities that enhance semantic decentralization and form an integrated understanding of artistic material.*

**Keywords:** multimodal approach, assistive technologies, speech reflection, neurodidactics, polysensory stimulation, project-based and game-based methodologies, semantic decentralization, pedagogical convergence, creative interpretations.

**Введение.** Современная мультифункциональная парадигма профессиональной подготовки педагогов младшего звена, по мысли Л.С.Выготского [3, с. 178] и В.В.Давыдова [4, с. 71], подразумевает сложную переориентацию методических ориентиров на синергетическую сплавленность развивающих воздействий, в рамках которых художественный контент перестаёт быть просто объектом пассивного чтения, а оказывается катализатором полисенсорной стимуляции и мотивационных механизмов. Исследователи, включая Н.Ф.Талызину [10, с. 18] и А.А.Леонтьева [6, с. 111], рассматривают когнитивную активизацию школьников путём внедрения интерактивных стратегий, где гибридная интеграция аудиовизуальных инструментов и эмоционально-образных импульсов формирует более глубокую рецепцию художественной ткани. Наблюдается рост популярности проектных методик, прописанных у Н.А.Семёновой, которые «обеспечивают децентрацию познавательных усилий ребёнка: на первый план выходит самоконструирование смысловых интерпретаций и развитие умения экстраполировать полученные сведения в иных учебных контекстах».[9, с. 133]

**Методы.** Эмпирический базис исследования опирается на сочетание различных методологических подходов, направленных на выявление и обоснование инновационных педагогических стратегий в интерпретации художественного материала для младших школьников: контент-анализ текстового материала, педагогический эксперимент, коллективные драматизации, интерактивные мастер-классы, нейропсихологические тестирования, квалиметрический метод анализ педагогических кейсов, статистическая обработка данных, вариационный анализ, корреляционные модели.

**Результаты.** Эмпирические наблюдения, опирающиеся на квалиметрические и нейропсихологические методики, засвидетельствовали серьёзное возрастание показателей смысловой децентрации и вариативного истолкования художественных фрагментов среди учеников, получавших интегрированный комплекс мультимодальных занятий. Исследование основывалось на работе двух параллельных групп: в первой (контрольной) использовались традиционные формы работы с литературным текстом, а во второй (экспериментальной) применялись гибридные педагогические подходы с обязательным включением проектных сценариев и аудиовизуальных материалов. М.Х.Мальсагова, З.М.Мамиева и А.Б.Шаухалов, изучая нейродидактические предпосылки развития речемыслительных структур, указывал на «высокий уровень пластичности детского восприятия в младшем школьном возрасте».[7, с. 143] На основании этого постулата внедрялись специфические техники смыслового моделирования, которые стимулировали формирование метафорических конструкций и усиленный анализ глубинных конфликтов сюжета.

Регистрировались данные методом контент-анализа письменных работ, где особое внимание уделялось степени развернутости интерпретационных выводов, а также уровню креативной гипотезы при реконструкции образно-сюжетных фрагментов. Параллельно проводились групповые обсуждения фрагментов прозы, что позволяет определить уровень формирующегося социального взаимодействия и способность к самоорганизации в процессе коллективного анализа. Дополнительные нейрофизиологические показатели, зафиксированные посредством неинвазивных методик (подходы нейропсихологического скрининга, апробированные Ж.Пиаже [2, с. 12]), засвидетельствовали повышенную активность зон, отвечающих за синтез вербально-логических и эмоционально-образных компонентов мышления. Подобный феномен, описанный Дж.С.Брунером, подразумевает «укрепление механизмов концептуальной интеграции, когда ребёнок начинает глубже осмысливать различные аспекты литературных конфликтов».[1, с. 56]

В ходе анализа итоговых письменных заданий выделялись ключевые параметры: полнота смысловой экстракции, разнообразие аргументативных конструкций, степень оригинальности интерпретации персонажей и событий, эмоциональная насыщенность речевых формул. Сводная таблица демонстрирует обобщённые результаты сравнительной диагностики, где использовались три основные шкалы: семантическая глубина понимания, креативность анализа и социально-коммуникативные навыки (коллективное обсуждение, способность к ролевому распределению в групповой деятельности).

Показатели анализа	Контрольная группа (n=28)	Экспериментальная группа (n=30)	Прирост
Средний уровень семантической глубины (баллы)	3,2	4,7	+1,5
Количество оригинальных интерпретаций (%)	28	56	+28
Индекс креативных метафор (ед./текст)	1,1	3,4	+2,3
Коэффициент коллективной сплочённости (шкала)	2,9	4,3	+1,4
Число развернутых логических рассуждений (%)	42	73	+31
Удельный вес эмоционально-образных реакций (%)	36	64	+28

В таблице прослеживается явная динамика роста во всех заявленных параметрах у экспериментальной выборки. Уровень семантической глубины, охватывающий аргументированность и полноту интерпретации, повысился весьма существенно, тогда как креативность анализа сюжетных коллизий возросла почти в три раза, что согласуется с постулатами о роли мультимодальной стимулирующей среды. В контексте социально-коммуникативных умений зафиксировано

выраженное увеличение показателей кооперации, подтверждающее заключения В.В.Давыдова «о ведущей роли совместных проектных форм обучения в развитии высших психических функций».[4, с. 29]

Письменные работы участников экспериментального сегмента характеризовались наличием необычных сюжетных ходов, а также метафорической изобретательности при описании героев. Примером служит сочинение одного учащегося, где действие классического рассказа преломлялось через призму фантастической гипотезы о параллельных мирах, а центральный персонаж наделялся уникальным психологическим портретом, подкреплённым яркой образной лексикой. Фактологический анализ подобной модели подтверждает идеи А.А.Леонтьева о том, что «расширение ассоциативного поля ребёнка происходит вследствие систематического погружения в активные формы деятельности, когда слово перестаёт функционировать в роли элементарной сигнификации и переходит в многомерное пространство смысловых связей».[6, с. 70]

Одновременно социальная составляющая эксперимента предполагает кооперативную природу постижения художественного текста: коллективные постановки, командные ролевые репетиции и дискуссии способствовали росту эмпатийных реакций, что коррелирует с данными Н.Ф.Тализиной относительно формирования нравственно-этических представлений в младшем школьном возрасте.[10, с. 91] Вариативная подача материала, применявшаяся при анализе сюжетных коллизий, высветила способность детей к спонтанному распределению ролей и импровизационным решениям, о чём говорит Т.В.Кузнецова, указывающая на важность проектно-игровых методик.[5, с. 63] Итоговые тестовые задания, ориентированные на оценку объёмного понимания художественного произведения и логико-эмоциональной интерпретации, показали значимое статистическое превосходство результатов экспериментальной группы: доля участников, продемонстрировавших высокий уровень рефлексивного осмысления текста, выросла более чем вдвое.

**Обсуждение.** Интерпретация выявленных закономерностей даёт повод говорить о том, что сочетание цифровых ассистивных инструментов с очными интерактивными занятиями способно оказать синергетическое влияние на становление комплексной литературной компетенции младших школьников. Погружение в мультимодальную образовательную среду, включающую звуковые иллюстрации, визуально-графические схемы и интерактивные упражнения на планшетах, формирует у детей прочные семантические ориентиры, расширяя их речевое пространство и стимулируя объёмную языковую рефлексию. Дополнительно оправдывает себя параллельное применение ролевых инсценировок и проектных мастерских: коллективная деятельность, опирающаяся на совместную эмпатию и воображение, помогает запустить механизмы интериоризации социального опыта и осознанного восприятия внутренних сюжетных коллизий.

Сопоставление экспериментальных результатов с концептуальными положениями А.В.Молоковой высвечивает ведущую роль смыслового моделирования и речевой активности ребёнка: многоуровневая работа с художественным словом, поддерживаемая новыми технологиями, развивает у учащихся способность к ассоциативному развёртыванию образов, повышая прочность запоминания.[8, с. 94] Любые педагоги, стремящиеся использовать нейродидактические инновации, обязаны уделять прицельное внимание аудиовизуальному сопровождению процесса чтения, поскольку детский мозг, находящийся в состоянии интенсивного формирования, наиболее восприимчив к синхронному многоканальному воздействию.

